O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

“O‘ZBEKISTONDA TARIX VA ETNOLOGIYA ILMLARINING RIVOJLANISH TAMOYILLARI VA DOLZARB MASALALARI”

mavzusidagi
xalqaro ilmiy-nazariy anjumani
ILMIY MAQOLALAR TO‘PLAMI

II QISM

TOШКЕНТ
«TA’LIM PRINT»
2026

УЎК 821.512.133
КБК 84.4 (5Ўзб)
Я 11

“O‘ZBEKISTONDA TARIX VA ETNOLOGIYA ILMLARINING RIVOJLANISH TAMOYILLARI VA DOLZARB MASALALARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjumani ILMIY MAQOLALAR TO‘PLAMI. II QISM. – Тошкент: “TA’LIM PRINT”, 2026. 350 саҳ.

Bosh Muharrir:
S.Tursunov

Sho‘balar bo‘yich ma’sul muharrirlar:
T.Pardayev, X.Xolmuminov, G.Axmedova,
I.Qarshyev, A. Tursunov, M.Jumayev, M.Raimov

ISBN-978-9910-5130-0-8

© “TA‘LIM PRINT”, 2026 й.

Yangi O‘zbekistondagi jadal islohotlar davlat boshqaruvidagi sifat jihatidan tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Bu vazifa ilg‘or mamlakatlar tajribasida sinalgan o‘ziga xosliklarni qo‘llash bilan bir qatorda, qadimiy davlatchiligimiz tarixidagi boy tajribadan foydalanishni ham talab etadi. Shu bilan bir qatorda, o‘zbek xalqi o‘z tarixi va madaniyatini, o‘zining kelib chiqish tarixini haqqoniy bilishga intilishi kuchaydi. “O‘zbekistonda tarix va etnologiya ilmlarining rivojlanish tamoyillari va dolzarb masalalari” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman O‘zbekiston hududlarida davlatchilikning shakllanishidan boshlab bugungi kungacha o‘tgan davr mobaynida davlatchilikning sohasida yuz bergan taraqqiyot jarayonlari, siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar va ularning xususiyatlari, o‘zbek davlatchiligining rivojlanishi bosqichlari hamda o‘zbek xalqining shakllanishi jarayoni bilan bog‘liq nazariy masalalar, fandagi muammolar va ularning yechimlariga qaratiladi.

Ushbu ilmiy maqolalar to‘plamiga O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining ilmiy tadqiqot institutlari, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Oliy o‘quv yurtlari, akademik litseylar professor-o‘qituvchilari va talabalari, umumta’lim maktablari o‘qituvchilarining O‘zbekistonning tarixi, ilk davlatchilik bosqichlari, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayoti, fan va texnika taraqqiyoti, yoshlar siyosatiga bag‘ishlangan ilmiy maqolalari kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 16-yanvar kungi 11-son buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida 2026-yil 7-8 may kuni Termiz davlat universitetida Tarixchi olim, tarix fanlari doktori, professor Tursunov Saypulla Narzullayevichning 70 yillik yubileyi munosabati bilan “O‘zbekistonda tarix va etnologiya ilmlarining rivojlanish tamoyillari va dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to‘plamiga ilmiy tadqiqot institutlari, oliy ta’lim muassasasalari va ilmiy tashkilotlarning professor-o‘qituvchilari, mutaxassislari, ilmiy xodim, izlanuvchilar hamda iqtidorli magistr va talabalarning ilmiy ishlari kiritilgan.

Mualliflar taqdim qilgan ilmiy maqolalari faqat texnik jihatdan tahrir qilindi. Shuningdek, maqoladagi ilmiy fikrlardagi noaniqlar va kamchiliklar uchun maqola muallifi javobgar bo‘lib, tahrir hay’ati ushbu masaladagi javobgarlikdan o‘zini soqit qiladi.

“O‘zbekistonda tarix va etnologiya ilmlarining rivojlanish tamoyillari va dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ochilish marosimida Surxondaryo viloyati hokimining

KIRISH SO‘ZI

Assalomu alaykum, hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Qadrli mehmonlar, uzoq va yaqin xorijdan tashrif buyurgan olimlar!

Avvalambor, barchangizni viloyatimizning ilm-fan maskani bo‘lmish Termiz davlat universitetida o‘tkazilayotgan **“O‘zbekistonda tarix va etnologiya ilmlarining rivojlanish tamoyillari va dolzarb masalalari”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanning ochilishi bilan chin qalbimdan muborakbod etaman.

Bugungi tadbirimiz nafaqat viloyatimiz, balki mamlakatimiz ilmiy hayotida ham muhim voqeadir. Ushbu nufuzli anjuman mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishda ilm-fan va oliy ta’limga berilayotgan yuksak e’tiborning amaliy ifodasidir.

Ushbu xalqaro anjumanning o‘tkazilishi mamlakatimiz tarix fani rivojiga ulkan hissa qo‘shgan zahmatkash olim, ustoz murabbiy, tarix fanlari doktori, professor Saypulla Narzullayevich Tursunovning 70 yillik muborak yubileyi bilan uzviy bog‘liqligi tadbirga alohida fayz va yuksak mazmun bag‘ishlaydi.

Professor Saypulla Tursunov butun umrini ona diyori — Surxon vohasining boy va qadimiy tarixini o‘rganishga, uning har bir qarich tuprog‘idagi o‘tmish izlarini ilmiy asoslashga bag‘ishlagan fidoyi insondir. Ustozning ilmiy faoliyati Janubiy O‘zbekiston tarixi va etnologiyasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Olimning viloyatimiz tarixini o‘rganishdagi xizmatlari beqiyos. U kishi nafaqat arxiv hujjatlari bilan ishladi, balki viloyatimizning chekka qishloqlari, tog‘li hududlarida dala-etnografik tadqiqotlarini olib borib, xalqimizning yo‘qolib borayotgan urf-odatlari, moddiy va nomoddiy madaniy merosini xatlab, fan muomalasiga kiritdi.

Saypulla Narzullayevichning qalamiga mansub bo‘lgan fundamental asarlar bugun har bir tarixchi olimning stol ustidagi kitobiga aylangan.

Vohamiz tarixini tizimli ravishda yoritgan “Surxondaryo tarix ko‘zgusida”, “Surxondaryo tarixi”, “Surxondaryo viloyati tarixini o‘rganish” kabi asarlar viloyatimizning qadimgi davrdan bugungi kungacha bo‘lgan bosqichlarini ilmiy asoslab berdi.

“Termiz yilnomasi”, “Termiz shahri tarixi”, “Termiziy buyuk siymolar” va “Termiziy алломалар” kabi kitoblari esa qadimiy va navqiron Termiz shahrining va allomalarning jahon sivilizatsiyasidagi o‘rnini ko‘rsatib berdi.

Ustozning tadqiqot obyekti nihoyatda keng. U kishi viloyatimizning har bir tumanini alohida ehtirom bilan o‘rgandi. “Sherobod”, “Boysun”, “Denov”, “Jarqo‘rg‘on”, “Qumqo‘rg‘on”, “Bandixon”, “Qiziriq” va “Termiz tumani” tarixiga doir asarlari o‘sha hududlar aholisining o‘z o‘tmishidan g‘ururlanishiga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, “O‘zbekiston janubiy hududlarida nomoddiy madaniyat tarixi”, “O‘zbekistonda baxshichilik san’ati”, “O‘zbek milliy kurashi: tarixi va an’analari” hamda “Surxondaryo — etnografik makon” kabi asarlar milliy o‘zligimizni asrab-avaylashda dasturilamal bo‘lmoqda. Olimning 350 dan ortiq ilmiy-uslubiy va ommabop maqolalari, darsliklari necha-necha yosh tadqiqotchilarga yo‘lchi yulduz bo‘lib xizmat qilmoqda.

Muhtaram anjuman ishtirokchilari!

Bugungi xalqaro anjuman doirasida biz nafaqat bir olimning bosib o‘tgan sharafli yo‘lini sarlavha qilamiz, balki O‘zbekistonda tarix va etnologiya fanlarining ertangi kunini, yangi metodologik yondashuvlarni muhokama qilamiz.

Vohamiz — ochiq osmon ostidagi muzey. Bu yerdagi topilmalar, etnografik xilma-xillik jahon ilm-fani uchun hamon qiziqarli. Anjumanda ishtirok etayotgan xorijlik mehmonlarimizning fikr-mulohazalari viloyatimizning turizm salohiyatini oshirishga va tariximizni dunyoga kengroq tanitishga xizmat qiladi.

Ustoz, Saypulla Narzullayevich!

Sizni bugungi shonli 70 yillik yubileyingiz bilan viloyat hokimligi va shaxsan o‘z nomimdan samimiy tabriklayman. Siz kabi fidoyi olimlarimiz bor ekan, tariximiz hech qachon unutilmaydi, yoshlarimiz o‘zligini anglab ulg‘ayadi. Sizga uzoq umr, sihat-salomatlik, xonadoningizga fayz-u baraka tilayman. Ilmiy maktabingiz shogirdlar bilan yanada boyib boraversin!

Barcha ishtirokchilarga qizg‘in bahs-munozaralar va samarali ish kunlarini tilayman. Ushbu anjuman yangi ilmiy kashfiyotlar va hamkorliklar uchun mustahkam poydevor bo‘lsin.

Surxondaryo viloyati hokimi: **U.B.Qosimov**

“O‘zbekistonda tarix va etnologiya ilmlarining rivojlanish tamoyillari va dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ochilish marosimida Termiz davlat universiteti rektorining

KIRISH SO‘ZI

Assalomu alaykum, muhtaram anjuman ishtirokchilari! Qadrli mehmonlar, xorijlik olimlar, soha mutaxassislari! Hurmatli Saypulla Narzullayevich!

Avvalo, Sizlarni qadim va hamisha navqiron Termiz tuprog‘ida, ilm-fan dargohi – Termiz davlat universitetida ko‘rib turganimdan g‘oyat mamnunman. Bugun biz nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro miqyosdagi muhim ilmiy voqea – **“O‘zbekistonda tarix va etnologiya ilmlarining rivojlanish tamoyillari va dolzarb masalalari”** mavzusidagi anjumanni ochish arafasida turibmiz.

Muhtaram Prezidentimiz hamisha vohamiz tarixiga juda katta baho berib kelmoqda, jumladan, Termizlik allomalarning islom taraqqiyoti ravnaqiga qo‘shgan buyuk xizmatlarini hamisha e’tirof etib keladilar. Bu e’tirof esa barcha surxondaryoliklar qalbida alohida iftixor va faxr tuyg‘ularini uyg‘otmoqdadi. Mamlakatimizning janubiy nuqtasida joylashgan Surxon vohasi nihoyatda ulkan tarix va boy qadriyatlarga, yuksak ma’naviyatga beshik bo‘lgan mintaqa sanaladi. Shu boisdan ham o‘zbek xalqi va davlatchiligi tarixida Surxon vohasining alohida o‘rni mavjud. Chunki Surxon vohasi tarixi juda uzoq davrlarga borib taqaladigan qadim maskandir. O‘tmish tariximiz uchun nihoyatda muhim bo‘lgan arxeologik yodgorliklarning ham aksariyat qismi shu vohada joylashgan. Shuningdek, voha hududida insoniyatning eng qadim ajdodlari makon tutgan zamin hamdir.

Ushbu tadbir O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200-sonli Qarori hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yilgi tegishli buyruqlari ijrosi doirasida tashkil etilmoqda. Bu, o‘z navbatida, Yangi O‘zbekistonda ilm-fan sohasiga, xususan, milliy o‘zligimizni anglatuvchi tarix va etnologiya fanlariga davlat darajasida qaratilayotgan yuksak e’tiborning amaliy ifodasidir.

Bugungi kunda dunyo tarixchilari va etnograf olimlarining vohaning qadim tarixi va yuksak ma’naviy qadriyatlaariga alohida qiziqish bilan qarayotganligi ham voha ahli moddiy va ma’naviy madaniyatining naqadar yuksakligidan dalolat beradi.

Muhtaram anjuman qatnashchilari!

“**O‘zbekistonda tarix va etnologiya ilmlarining rivojlanish tamoyillari va dolzarb masalalari**” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanining ham o‘ziga xos ma’nosi bor.

Chunki Yangi O‘zbekiston sharoitida tariximizni yangicha ruhda xolisona tahlil qilish imkoniyati yuzaga keldi. Bu imkoniyat tufayli olimlarimiz tomonidan tariximizning hali ochilmagan juda ko‘plab qirralari tahlil etilib, Vatanimiz tarixidagi kemtikliklar to‘ldirilmoqda. Shu jihatdan olib qaraganda ushbu anjuman xalqimizning jahon sivilizatsiyasidagi munosib o‘rnini yana bir bor e’tirof etishga qolaversa, insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotiga munosib ulush qo‘shgan allomalarimizning merosini yangicha tafakkur asosida tahlil etishga xizmat qiladi.

Bugungi anjumanimizning o‘ziga xos fayzi va ahamiyati shundaki, u sermahsul ilmiy faoliyati bilan nafaqat respublikamiz, balki xalqaro ilmiy hamjamiyatda munosib o‘ringa ega bo‘lgan atoqli olim, tarix fanlari doktori, professor Tursunov Saypulla Narzullayevichning 70 yillik yubileylari bilan hamohang o‘tkazilmoqda.

Saypulla Narzullayevich o‘zining qariyb yarim asrlik faoliyati davomida O‘zbekiston tarixini, uning etno-madaniy jarayonlarini, infratuzilmasi va ijtimoiy hayotini tizimli tadqiq etib kelayotgan fidoiy olimdir. Olimning rahbarligida bir necha o‘nlab shogirdlar voyaga yetib, bugungi kunda yurtimizning turli oliy o‘quv yurtlari va ilmiy markazlarida faoliyat ko‘rsatmoqdalar. Ustozning “ustoz-shogird” an’analariga sodiqligi, ilmiy xolisligi va mehnatsevarligi barchamiz uchun o‘rnakdir.

Qadrli anjuman ishtirokchilari!

Termiz davlat universiteti bugun ilm-fan markazi sifatida jahonning nufuzli universitetlari bilan aloqalarni kengaytirmoqda. Bizning maqsadimiz – milliy tariximizni xalqaro standartlar darajasida tadqiq etish va uni yosh avlodga yetkazishdir. Bugungi xalqaro konferensiya ushbu yo‘nalishdagi navbatdagi katta qadam bo‘ladi.

Saypulla Narzullayevichning 70 yillik yubileylari munosabati bilan u kishiga sog‘lik-salomatlik, oilaviy xotirjamlik va ilmiy faoliyatlarida yangi-yangi zafarlar tilayman. Sizdek fidoyi insonlar bor ekan, Surxondaryo tarixi maktabi hamisha o‘z salobati va nufuzini saqlab qoladi.

Ilmiy munozaralar va fikr almashishlar sermazmun o‘tishini, anjumanimiz yakunida qabul qilinadigan tavsiyalar soha rivoji uchun xizmat qilishini tilab qolaman.

Barchangizga konferensiya ishida muvaffaqiyat yor bo‘lsin!

E’tiboringiz uchun rahmat!

Termiz davlat universiteti
rektori: **A.H.Toshqulov**

1-SHO‘BA. O‘ZBEK XALQI ETNOGENEZI VA DAVLATCHILIGI TARIXINI O‘RGANIShDA YANGIChA YONDOSHUVLAR VA TAMOYILLAR

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТ СТРАТЕГИЯСИНИНГ ЎЗБЕК МИЛЛИЙ МАЪНАВИЙ ҚИЁФАСИНИ ЮКСАЛИШДАГИ ЎРНИ ВА ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

ТУРСУНОВ САЙПУЛЛО НАРЗУЛЛАЕВИЧ

Термиз давлат университети Жаҳон тарихи кафедрасининг профессори, тарих фанлари доктори

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Ушбу мақолада Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегиясининг ўзбек миллий-маънавий қиёфаси ва миллий менталитетини юксалтиришдаги ўрни ҳамда ўзига хос хусусиятлари тарихий-фалсафий жиҳатдан таҳлил этилган. Муаллиф ўзбек миллий менталитетининг шаклланишини тўрт йирик диний-мафкуравий босқич (зардуштийлик, буддавийлик, ислом ва коммунистик мафкура) кесимида кўриб чиқиб, глобаллашув даврида миллий ўзликни асраш, жамоавийлик (маҳалла) анъаналари ва ёшлар тарбиясида иқтисодий омилларнинг аҳамиятини асослаб берган.

В данной статье историко-философски анализируются роль и специфические особенности Стратегии развития Нового Узбекистана в повышении узбекского национально-духовного облика и национального менталитета. Автор рассматривает формирование узбекского национального менталитета в разрезе четырех крупных религиозно-идеологических этапов (зороастризм, буддизм, ислам и коммунистическая идеология) и обосновывает важность сохранения национальной идентичности в эпоху глобализации, традиций коллективизма (махалли) и экономических факторов в воспитании молодежи.

This article provides a historical and philosophical analysis of the role and unique characteristics of the New Uzbekistan Development Strategy in elevating the Uzbek national-spiritual identity and national mentality. The author examines the formation of the Uzbek national mentality through four major religious-ideological stages (Zoroastrianism, Buddhism, Islam, and communist ideology) and substantiates the importance of preserving national identity in the era of globalization, collectivism (mahalla) traditions, and economic factors in youth education.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

Янги Ўзбекистон, Тараққиёт стратегияси, миллий менталитет, маънавий қиёфа, зардуштийлик, буддавийлик, ислом, коммунистик мафкура, маҳалла, жамоавийлик, глобаллашув.

Новый Узбекистан, Стратегия развития, национальный менталитет, духовный облик, зороастризм, буддизм, ислам, коммунистическая идеология, махалля, коллективизм, глобализация.

New Uzbekistan, Development Strategy, national mentality, spiritual identity, Zoroastrianism, Buddhism, Islam, communist ideology, mahalla, collectivism, globalization.

Ҳар бир халқнинг ўзига хос, ўзига мос миллий менталитети бор. Унинг таркиб топиши ҳам узоқ давом этадиган ижтимоий-психологик жараён бўлиб, у жамият, миллат, жамоа ёки алоҳида олинган шахснинг тарихан таркиб топган тафаккур даражаси, маънавий салоҳияти, инсоний қадр-қиммати, уларнинг ҳаёт қонунларини таҳлил этиш кучи, муайян ижтимоий шароитларда шаклланган ақлий қобилияти, руҳий қиёфаси

ва қувватидир. Бу жараёнлар Янги Ўзбекистон даврида юксалиб, такомиллашиб бораётган, миллий ўзликни миллат сифатида янада мукаммал англаб етишга оид ижобий силжишлар мисолида таҳлил қилиш мумкин. Чунки 2016-2026 йиллар давомида миллатни сиёсий жиҳатдан ҳуқуқий-мафкуравий қарашлари ўзлигини намоён қилишда ўз аксни топди. Натижада, ҳуқуқий саводхонликни ошиб бориши туфайли ўзбек миллати ўзлигини англаб етишга қодир ҳуқуқий-маънавий жиҳатдан онгли тарзда ҳимоя қилишга доир қонунларга эга бўлди. Бу эса ўз навбатида менталитет халқнинг миллат даражасига кўтарилган ижтимоий, иқтисодий, сиёсий ва этномаданий ҳаёти давомида, унинг ижобий ва салбий сифатларини мужассамлаштирган ижтимоий-психологик ҳолати ва характер йиғиндиси сифатида, ўзига хос тарихий, этномаданий ва табиий- иқлимий шарт- шароитлар доирасида шаклланади. Миллий ўзига хослик эса узоқ тарихий жараёнларга муносабатда, ижтимоий- иқтисодий ва сиёсий жараёнлар, ўзаро этномаданий алоқалар, диний мансубликлар асосида таркиб топади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев Ўзбекистон мустақиллигинг 35-йиллиги тўғрисидаги назарий ва амалий ютуқлар мезонига тўхталиб, Янги Ўзбекистоннинг ривожлантириш йўлларига бағишланган нутқларида ўз фикр-мулоҳазаларини баён этар экан, миллатимизнинг жуда бой ва мураккаб тарихи, маънавий-ахлоқий ва фалсафий дунёқараши, муомала-муносабатлардаги ўзига хос хусусиятлар ва бетакрор ёндашишлар асрлар давомида халқ онги, тафаккури, хулқ-атвори ҳамда урф-одатларига сингиб, миллатимизнинг ўзини намоён этиш тарзига айланиб кетган жиҳатларини ўзбек миллатининг асоси деб билади. Бу ҳақ гап, чунки ўзбек халқининг ноёб миллий менталитети бўм-бўш жойда, ғойибдан пайдо бўлган эмас. Миллий удум ва урф-одатларимиз минг минг йиллар давомида ҳаёт аччиқ-чучукларини тотиб, ўт-оловда тобланиб, машаққатли турмуш имтиҳонларидан ўтиб муқимлашган. Шунинг учун ҳам ўзбек миллий менталитети серқирра ва мустаҳкамдир.

2016-2026 йиллар давомида Ўзбек миллатининг босиб ўтган тарихий йўли, яшаш шароитлари: қуёшли кунлари, ҳосилдор замини, серсув дарёлари, боғларининг тотли мевалари, халқининг меҳнатсеварлик, одамохунлик фазилатлари халқ ақлий салоҳияти ва руҳий қувватининг юксалишига олиб келган.

Халқимизнинг ҳаётга, жамиятга, табиатга ва шароитга муносабати кўп минг йиллар давомида унга яратувчилик, меҳр-шафқат, сермулоҳазалик ва осойишталик ато этган, ҳар бир кескин шароитда ҳам мулоқотдошига, каттага ҳурмат, кичикка иззат, муроса-ю мадора, андиша-ю мулоҳазага ўрин ва вақт топиш шароитида унинг менталитети шаклланган ва сайқал топган.

Узоқ тарихий жараёнлар давомида ўзбек миллий менталитети 4 та йирик диний-мафкуравий босқични босиб ўтди ва улар (диний мафкуралар) миллат феъл-атворида ўчмас из қолдиради.

Аждодларимизга хос биринчи диний-фалсафий мансублик зардуштийлик бўлиб, бу диннинг ахлоқий фалсафаси одамларни эзгуликка чорлаш, бошқаларга яхшилик қилиш инсоний фазилатларнинг камолот чўққиси эканлигига ишонтиришдан иборат. Зардуш¬тийлик фалсафасида ёвузлик жамиятни парчалашга, одамлар ўртасидаги инсоний муносабатларни бузишга қаратилган ҳайвоний ҳаракатлар эканлиги уқтирилади. Бу диний -фалсафий қараш, аввало, суғорма деҳқончилик маданиятига мансуб ўтроқ аҳоли орасида кенг тарқалган. Чунки зардуштийлик фалса¬фасида табиатнинг тўрт унсури муқаддаслаштирилган: қуёш (олов), ер (унумдор тупроқ), сув (обиҳаёт); ҳаво — сиҳат-саломатликнинг бетакрор булоғи сифатида руҳан ва жисмонан тетиклик бахш этади.

Эзгулик ёвузликнинг ҳар қандай кўринишига қарши курашда ғолиб чиқади, одамлар фароғатда яшайди, дейилади зардуштийлик фалсафасида. Зар¬душтийлик инсон учун, унинг келажаги учун зарурий табиат унсурларини муқаддаслаштириб,

ушбу тўрт буюк табиат неъматини авайлаб асрашга, уларнинг қадрига етиш ва ифлос қилмасликка, тўғри фикр, тўғри сўз, тўғри амал инсон ботиний дунёсининг кундалик амали бўлишига чорлайди.

Ўзбек халқи миллий менталитетининг шаклланишида муҳим рол ўйнаган иккинчи диний мансублик буддавийликдир. Тарихдан маълумки, қадимги аждодларимиз ҳеч қачон биқиқликда, ўзга халқлар БИлан иқтисодий ва маданий алоқаларсиз яшамаган. Шундай даврлар бўлдики, туркий дунёнинг жанговар қабилаларидан ҳисобланган юечжилар мамлакатимиз жанубий сарҳадларида кушонлар империясига асос солиб, унинг буюк ҳукмдори Канишка даврида миллий мустақилликка хос дадил ислоҳотлар ўтказилди: Канишка Юнон-Бақтрия давлати тангаларига тақлид қилмай, ўз пулларини зарб эта бошлади, яъни юнон ҳукмдорлари ва худолари акси туширилган тангалар ўрнига Кушон подшолари ва уларнинг самовий тулпорлари акси туширилган танга-пуллар зарб этилди, грек тили ва ёзуви бекор қилиниб, маҳаллий боҳтарий тил ва ёзувига давлат тили мақоми берилди. Канишка диний бағрикенгликка амал қилган ҳолда, милодий 100 йилда диний қурултой ўтказиб, империя ҳудудларида буддавийлик динига дав¬лат мақоми берилиб, унга атаб мамлакат ичра маҳобатли буддавийлик ибодатхоналари, чиллахона ва ступалар қурдира бошлади. Масалан, Сурх-Катал, Рабатак, Хадда ибодатхоналари, Зурмала ва Фаёзтепа меъморий комплекслари шулар жумласига киради.

Буддавийликка хос фазилатлар — хотиржамлик, ҳар бир инсон ўз ҳаётида жуда кўп эзгулик қилиши ва бу эзгу амаллари унинг ҳаёт мазмунига айланиши керак. Буддавийлик бошқа динлардан фарқли ўлароқ, дунёда ҳеч бир ўзгармас нарса йўқ деб уқтиради. Ҳаётда фақат он ва лаҳзалар силсиласи мавжуд бў¬либ, уларнинг ҳар бири йўқолиб, кейингисига ўрин беради, дейди. Будда таълимотига кўра, инсон доимо азоб-уқубатга маҳкум ва бунга унинг ўзи сабабчи. Зеро у, гарчанд бефойда бўлса ҳам, ўз ҳаёти ва фаровон турмушини сақлаб қолишга ҳаракат қилади. Азоб-уқубатдан қутулиш учун меъёридан ортиқ кўнгилхушлик қилади, булардан у ўзини тийиши ке¬рак. Мунтазам равишда ичкилик ичмаслик, ёлғондан, ўғирлик, тамагирлик, юлғичлик, зино қилишдан сақланиш керак, деб уқтирилади.

Буддавийлик таълимоти Ўрта Осиёга, жумладан, она диёримизнинг жанубий сарҳадларига милодий эра бошларида кириб келди ва ислом динига кадар аждодларимиз эътиқодидан жой олди. Сурхондарё вилоятидан топилган Айритом, Қоратепа, Зурмала, Далварзинтепа, Фаёзтепа, Қуёвқўрғон ва бошқалар ҳамда Фарғона водийсининг қадимги Қува шаҳридан топиб ўрганилган будда ибодатхонаси аждодларимизнинг ана шу буддавийлик эътиқодидан далолат беради. Бу ёдгорликларнинг диний-фалсафий ва меъморий шаклланиши буддавийликнинг Ганҳара санъати йўналишида ривож топди.

Ўзбек халқи миллий менталитетининг шаклланишида жуда муҳим маънавий ва ғоявий рол ўйнаган учинчи диний мансублик ислом дини ва унинг ахлоқидир. Халқимиз эътиқодидан жой олган зардуштий¬лик ва буддавийликнинг инсон фазилатига хос энг яхши ибратли ахлоқ ва одоб нормалари — эзгулик йўлидаги инсон камолоти: эзгу ният, эзгу сўз ва эзгу амал ислом маънавий дунёсида ҳам тарбия ва таълим мактабининг асоси сифатида янада ривожланди. Ис¬лом ахлоқи асосида қурилган жамият илмий тараққиёт билан уйғунлашгандагина инсон фаровонлиги таъмин этилиши таъкидланади. "Ҳозирги маданият даврида диёнат билан тараққиёт бирга яшайолмайди, деб хато фикр юритадилар, ҳақиқатда эса дин покликка қурилган ахлоқдир. Динимизнинг асли ақлидир, қуроли эса илмдир". Асл маънодаги ҳақиқий ислом инсон ва жамият маънавий ва ахлоқий дунёсининг ривожланиш йўлларини кўрсатиб, ҳаётда ҳалоллик ва поклик, мурувват ва олижаноблик, ростгўйлик ва тўғрилик инсон иймон ва эътиқодининг мазмун ва моҳиятини ташкил этмоғи зарурлигини уқтиради. Халқимиз эътиқодидан кетма-кетликда жой олган уч босқичли диний мансублик ўзбек халқи миллий менталитетининг ибратона фазилатларини, умумбашарий қадриятлари

ва этнопсихологик жиҳатларини шаклланишида асосий омил ролини ўйнаган.

Миллий менталитетимизнинг бу жиҳатлари билан фахрлансак арзийди. Афсуски, ўзбек миллий менталитетининг яхши жиҳатлари билан бирга, унинг бетакрор фазилатларига соя солувчи томонлари ҳам борки, улар ўзбек миллий менталитетига тўртинчи мафкуравий эътиқод — коммунистик ғоя билан кириб келди. Энг ачинарлиси шуки, коммунистик мафкура халқимиз маънавий-ахлоқий олами янгилик (инновация) сифатида кириб келган ҳаёсизлик, ғарб дунёсига хос ахлоқий одобсизлик, судхўрлик, таъмагирчилик, лоқайдлик ва боқимандалик, ҳар бир жабҳага нопокликнинг суқилиб кириб бориши ўзбек миллий менталитетининг фожиасига айланди.

Сўнги ўн йилликлар давомида Ўзбек миллий менталитетининг таркиб топиши ўзбек халқининг ўзига хос шаклланиш жараёнлари билан боғликдир. Маълумки, ўзбек халқи икки йирик этник илдиздан ташкил топган. Биринчи илдиз мазкур ҳудудда яшаган тубжой қадимги суғдий ва туркий этнослар бўлса, иккинчиси бу ҳудудга Сирдарё қуйи ҳавзаларидан турли даврларда кириб келган чорвадор туркий халқлардан иборат. Хар иккала асосий илдизларнинг бирикиши-қоришуви натижаси сифатида дастлаб ўзбек халқи, кейинроқ ўзбек миллати ташкил топган. Ўзбек миллий менталитетининг шаклланишида турфа омиллар бор-ки, улардан биринчиси ўзбек халқининг этник жиҳатдан кўп тармоқли ва серилдиз бўлиши миллий менталитетимизда барча ижтимоий қатламлар учун умумий жиҳатлар, жамоа манфаатларини ҳимоя қилувчи фазилатнинг ривож топишини тақозо этиб келган. Хал¬қимиз феълидаги бағрикенглик, ҳотамтойлик, меҳмондўстлик, ўзаро ҳамкорликка мойиллик, ғам-андуҳли пайтларда ночор кимсаларга ҳамдардлик, елкадошлик фазилатлари ана шу жамоавий якдилликни таъминлаш, тил ва дил, фикр бирлигини сақлаш эҳтиёжларидан туғилган ва ҳайкал топган.

Иккинчи гуруҳ сабаблар доирасига, — дейди этнолог Адҳамжон Аширов, — муайян миллат истиқомат қилиб келаётган ижтимоий-иқтисодий, географиик-ҳудудий ва иқлимий омиллар таъсирини кўрсатиб ўтиш жоиздир.

Чунки она заминимизнинг текислик ва даштлардан иборат кескин континентал иқлимли жуғрофий ҳудудда жойлашганлиги, ёз жазирама иссиғининг қаҳратон қиш билан алмашиниши, баҳор ва кузнинг шиддат билан келиши ва кетиши халқимиз феъл-атворидаги аниқлик ва лўндаликнинг, тўпорилик ва қайноқ меҳрнинг, қаттиққўллик ва интизомнинг таркиб топишига олиб келган.

Ўзбекларнинг шу она-замин автохтон халқи сифа¬тида табиатга, ерга, сувга, ҳавога ва оловга бўлган чексиз ҳурмати ва уларни эъзозлаш билан боғлик турфа хил урф-одат ва маросимлари, анъанавий суғорма деҳқончилик ва ҳунармандчилик удумлари кўп асрлик ислом шароитидан қатъий назар, ўзбек халқининг турмуш тарзида, урф-одатларида сақланиб келаётган сон-саноқсиз зардуштийлик элементларида айниқса яққол кўзга ташланади. Дарҳақиқат, бугунги кунда ўзига хос тарзда ривожланаётган меъморчилик анъаналаримиз, бой фольклор ва ёзма мерос, адабиёт ва санъатга бўлган қизиқишларимиз, эзгулик ва ёвузлик ўртасидаги кураш, ўлим ва абадият ҳақидаги асотир ва ривоятларимизда, ўтроқ хал¬қимиз маданиятига тегишли Наврўз, Мерҳжон, Гул сайллари, Ҳосил байрами каби байрам ва сайилларнинг давомийлигида ёки инсоннинг қайғули онлари — мотам маросимларида давом этиб келаётганлиги фикримизнинг далилидир.

Ўзбек миллий менталитетига хос яна бир олийжаноб фазилат унинг туркий илдизи билан боғликдир. Туркийликка хос жанговарлик, мардлик, матонат ва лафз ҳалоллиги, бағрикенглик, саховатпешалик ва ҳожатбарорлик каби хислатларда ёрқин ифодасини топган. Бу фазилатларни айниқса халқимизнинг тўй-томошага ўчлигида, ўзи емай, йиллар мобайнида йиғиб-териб элга дастурхон ёзишдан завқ-шавқ олишида, аза ва йўқлов маросимларини уюшган холда ўтказишида, бола туғилишидан тортиб то мотам маросимимизгача бўлган барча тадбирларимизда кенг жамоатчилик ва

маҳалла аҳлининг доимо бош-қош бўлиб туриши каби удумларимизда кузатамиз. Миллий менталитетимизда туркийларга хос жиҳатлар маънавий маданиятимизнинг чиллак, чавгон, кўпкари, кураш каби миллий ўйинларимизда, "қулоқ тишлатиш", "бешикка белаш", "қалин бериш", "маҳр" каби удумларимизда, отга бўлган меҳр-муҳаббат, азадор хонадонга ҳамдард бўлиб кўнгил сўраш, мотам маросимида қатнашишнинг "ихтиёрий"-мажбурийлигида ўз ифодасини топган. Кези келганда, таъкидлаш жоизки, ўзбекнинг миллий менталитети, умуман бар¬ча халқларга хос миллий менталитетлар қўшни халқлар таъсирисиз, муаллақ ҳолда, ўзга халқлардан ажралган ҳолда шаклланмаган. Айниқса, ўзбек миллий менталитетида тожикларнинг таъсири катта бўлган.

Ўзбек миллий менталитетининг яна бир муҳим жиҳатларидан бири —жамият ҳаёти, одамлар турмуш тарзи кўпроқ анъана ва урф-одатлар орқали бошқарилади. Масалан, ўзбекона расм-русумларга қатъий амал қилган оилаларда ўғил уйлантириш, келин танлаш, қиз узатиш, куёв танлаш пайтларида ота-она ва қариндош-уруғлардан алоҳида ҳушёрлик ва эътибор талаб қилинади. Қуда бўлмиш томонлар ҳақида тегишли ишонарли маълумотларга эга бўлмагунча икки ёшнинг бир ёстиққа бош қўйишига, оила қуришига оқ фотиҳа берилмайди. Аввалambор, бўлажак келин ва куёвнинг саломатлиги, жисмоний нуқсонлардан холи бўлиши, қуда томонларнинг ижтимоий келиб чиқиши, жамоада тутган ўрни, мавқейи ва обру-эътибори ҳисобга олинади. Шунинг учун ҳам халқимиз "тенг тенги билан, тезак копи билан" деб бекорга айтмаган. Агар куёв ёки келин бўлмиш томоннинг ақли, одоби, ҳусни-жамоли бир ўлчам бўлса, уларнинг ота-оналари, қариндош-уруғлари, авлоднинг жамоадаги мавқейи ва бу хусусдаги жамоатчи¬лик фикри иккинчи, аммо аксар ҳолларда ҳал этувчи омил вазифасини ўтайди. Ота-оналар учун фарзандни яхшига қўшиш, бу борада хато қилиб қўймасликда жамоа, жамият раъйи, кўпчиликнинг кенгашли фикри муҳим рол ўйнайди. Шу боис, жамоатчилик фикрининг шахс турмуш тарзи, тақдирини белгилашдаги устуворлик мавқейи беқиёсдир.

Шу ўринда "ғарб қонунлари, шарқ урф-одатлари билан бошқарилади" деган ибора шарқ халқлари лексиконидан жой олган. Дарҳақиқат, шарқда шу жумладан ўзбекларнинг турмуш-тарзида ҳам кўплаб урф-одатлар қонунлар даражасида бошқарилади. Масалан, оила даврасида, кенг жамоатчилик ўртасида барча маросимларимизда маҳалланинг бош-қош бўлиб туриши, қўни-қўшничилик анъаналаримиз, оила-турмуш маросимларимиздаги кўплаб урф-одат¬лар қонун даражасида бажарилади.

Ғарбда шахс жамоага ўзлигини юзага чиқариш, истеъдоди ва имкониятларини намойиш этиш, муайян мақсадларга эришиш воситаси сифатида қарайди. Жамоа инсоннинг ички, ботиний дунёси, руҳияти ва шахсий ҳаётига мутлақо аралашмайди. Шарқда эса жамоага асосий эътибор берилади. Шарқда, жум¬ладан ўзбек миллий менталитетида жамоа инсонни ижтимоий назорат остида тутиб туриш, шахснинг жамоадаги мунтазам иштироки унинг умумий ахло¬қий меъёрлари доирасида иш тутаётганининг исботи сифатида талқин қилинади. Жамоадан ажралган ҳолда иш тутиш инсоннинг ижтимоий бегоналашуви сифатида баҳоланади.

Ўзбек менталитетига хос ана шу жиҳатни юртбошимиз Ш.М.Мирзиёев алоҳида таъкидлайди: "Ўрта Осиёда биз бутун тарих давомида жамоа бўлиб яшаб келганмиз, — Баъзи Fарб мамлакатларида эса якка яшашга интилиш кучли. Бу бизнинг республикамиз учун мос эмас. Айтайлик, бизда маҳаллачилик анъанаси жуда кучли... Мен хусусиятлар тўғрисида гапирар эканман, Америкада шахс демократияси устувор бўлса, бизда бошқача меъёрлар асосида, яъни жамоа манфаатларига мос яшаш устунлигини айтмоқчиман. Дарҳақиқат, ўзбек халқи жамоа манфаатлари, жамоатчилик фикри доирасида, анъана ва урф-одатларга содиқлик негизларида бирлашишга мойил ва шунга интилувчи халқдир. Зеро, анъаналарнинг ўзи хам жамоатчилик фикрининг барқарорлашган ифодасидир.

Анъаналар ва урф-одатлар миллатимизнинг элни бирлаштирувчи энг яхши сифатларидир. Аммо миллий хислатлар иқтисодиёт ва ишлаб чиқариш билан узвий боғланмаса, халқнинг келажаги кўринмайди, халқ миллат сифатида ҳалокатга учраши мумкин. Ундай миллатдан Берунийлар, Аҳмад Фарғонийлар, Муҳаммад Хоразмийлар, Амир Темур ва Улуғбеклар, Навоий ва Бобурлар, Машраб ва Нодиралар, Маҳмудхўжа Беҳбудий ва Абдулла Қодирийлар, Ҳабиб Абдуллаев ва Яҳъё Ғуломовлар етишиб чиқмайди. Миллат иқтисодиёти қанча мустаҳкам бўлса, унинг "оила иқтисодиёти" хам шунча мустаҳкам бўлади. Иқтисодиёт оилада бола дунёга келиши билан бошланади. Оилада ўғилдир-қиздир, туғилгач, ота-она ўртасидаги оила ришталари, оила занжири мустаҳкамланиб боради, яъни янги мустаҳкам оила туғилади. Ўзбек оиласи болажонли бўлади. Шунинг учун халқимиз "болали уй бозор, боласиз уй мозор" деб бежиз айтмаган. Оилада ўғил туғилдими, чорбоғда мевали дарахтлар ва тераклар сони ортади, қўшимча иморатлар солиш бошланади, қўрада қўйлар, новвослар боқилади. Чунки ҳадемай, тўйлар бошланади. Тўйларимизнинг хили шунчалар кўпки, ўзбек хонадонининг боши тўйдан чиқмайди. Оилада қиз туғил¬дими, сандиқда сеп йиғила бошлайди. Чунки ота-она қачонлардир ҳовлисида "ёр-ёр ўлан" айтилишини кутади. Бундай ўзбекона миллий менталитет тақозо этган оила анъаналари ҳар бир ўзбек оиласини ҳаракатга солиб қўяди, аниқроқ қилиб айтганда: биринчидан, келажагини ўйлаган ва унга ишонган халқ, бундай хислатга эга халқ ҳеч қачон ҳалокатга учрамайди; иккинчидан, меҳнатсевар халқ ўз фарзандини ўқимишли, уйли-жойли қилишни, ҳар қандай оғир иш бўлса ҳам даромадга ҳаром ишлатмай меҳнат қилиб топишга интилган. Ҳар бир оиланинг ўз "госплани", истиқболли иқтисодий режаси бўлмаса, бугунги бозор иқтисодиёти даврида миллий менталитетимизга хос кўп орзу умидлар ўз-ўзидан сўниб бориши ёки миллий менталитетимизга ёт, миллатга иснод келтирувчи нуқсонлар авж олиши мумкин.

Афсуски, юз эллик йиллик мустамлака даврида ўзбеклар миллатга хос кўп яхши фазилатларни йўқотди. Айниқса, шўролар даврида халқимизга хос ҳамжиҳатлик, жанговарлик, хар ишда сўз ва амал бирлиги сингари фазилатларга жиддий зарар етди. Халқ орасида миллий бирликка интилишдан кўра, гуруҳий, этномаҳаллийчилик ва ҳудудий айирмачиликка берилиш кучайди. Миллий менталитетга зид бўлган ҳамма нарсага рози бўлиб кетавериш, лоқайдлик, худбинлик каби хислатлар авж олди. Узоқ давом этган совет даврининг мафкуравий тазйиқлари оқибатида кўплаб диний ва миллий қадриятларимиз топталди ва эътиборсиз қолди. Халқимизнинг муқаддас анъана ва маросимларимиз бидъат, "эскилик сарқити" дея қораланиб, камситилди ва тақиқланди, удумларимизнинг тарихий асосларига холисона баҳо берилмади.

Янги Ўзбекистон шароитда ўтмишдан мерос бўлиб ўтган ана шундай салбий ҳолатларга янгича нигоҳ билан қараш, аждодларимиз томонидан яратилган бебаҳо маънавий ва маданий меросимизни, советлар даврида сохталаштирилган тарихимизни янгилаш ва шу асосда умуммиллий маънавий ислоҳотларни амалга ошириш асосий вазифалардан бири деб эътироф этилди ва улар давлат сиёсати даражасидаги муҳим вазифа қилиб белгиланди. Бугунги кунда ҳаётий заруриятнинг ўзи халқимиз феъл-атвори ва миллий менталитетини янгилашга жиддий эътибор беришни тақозо этмоқда.

Аммо афсуски, бугунги кунда кечаётган глобаллашув жараёни жаҳон халқлари учун умумий этикет, умумий феъл-атвор, умумий менталитетнинг шаклланишига олиб келмоқда. Бунга бевосита жаҳон миқёсидаги жиддий сиёсий, иқтисодий ва мафкуравий рақобатлар ва жаҳон ахборот воситаларида Ғарб ах¬лоқий нормаларининг тинимсиз тартиби тарихан таркиб топган миллий менталитетимизга кучли сал¬бий таъсир кўрсатмоқда. Глобаллашув туфайли Ўзбе¬кистон бир томондан, иқтисодий жиҳатдан жаҳон ҳамжамияти таркибига кириб борса (бу ижобий ҳол), иккинчи томондан, ўзбек халқининг миллий

менталитетига хос талай қадриятлар, маросим ва ибратли

удумларнинг секин-аста йўқолиб боришига сабаб бўлмоқда.

Мана, ўзбек халқи ўз мустақиллигига эришганига 35 йил тўлди. Неча асрлик орзу-умидларнинг, кураш ва интилишларнинг рўёбга чиқиши туфайли миллий, ҒОЯ миллий мафкура тамойиллари туғилди. Тарихий анъаналарга садоқат, аждодлардан фахрланиш, ижтимоий тараққиётнинг муҳим, керакли йўналишларини давом эттириш мустақиллик ва миллий ғоянинг энг муҳим омилларидан эканлиги оддий ҳаётий ҳақиқатга айланди.

Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий ва маданий-сиёсий стратегияси ҳисобланган 2016-2026 йилларда ўзбек миллатимизнинг эртанги тақдири, бугунги ёшларимизнинг келажакка ишончи, пухта эгаллаган касби, билими ва малакасига бевосита боғлиқ. Мамлакатимизда "Ҳаракатлар стратегияси дастури" ишлаб чиқилди. Дастурда белгиланган вазифалар таълим тизимини тубдан ислоҳ қилишни талаб этди ва "2024-2030 йиллар тараққиёт стратегияси" қабул қилинишига олиб келди. Бугунги кунда ҳар иккала тарихий аҳамиятга молик давлат ҳужжати мамлакатимизда умумий ва махсус билимга эга бўлган, замонавий дунёқараши, миллий ва умуминсоний қадриятлари шаклланган ёшларни тарбиялашда асосий замин бўлиб хизмат қилмоқда.

Ўзбекистонда 2026 йилга келиб ёшларимиз қалбида, онгида, тафаккурида миллий ғурурни, Ватан туйғусини, инсонга, унинг оиласи, хонадони ва маҳалласини, киндик қони тўкилган азиз жой —Ватанни қалбидан севишни уйғотиш керак. Булар ўзбек миллий менталитетининг мазмун ва моҳиятини ташкил этади.

Замонамиз ёш авлоди онгига бу сифатларга хос фазилатларни сингдириш психологик ва педагогик жиҳатдан мураккаб, кўп қиррали ва узоқ муддат талаб қилувчи жараён бўлиб, унинг ечими заминида энг муҳим омил —иқтисодиёт ётади. Мамлакатимиз ҳали ўтиш даврини якунлагани йук. Иқтисодиёт, иш¬лаб чиқариш рақобатбардош даражасига кўтарилмас экан, ўтиш даври чўзилаверади. Буни ёш авлод онгига сингдириш бугунги куннинг энг долзарб масаласидир. Давлатимизнинг тактик ва стратегик йўли ҳам шунга қаратилган. Буни ёш авлод тўғри тушунмоғи лозим. Кўп нарсалар, мамлакат келажак тақдири айнан шу ёшларга боғлиқ.

Дунёдаги ҳар бир давлатда ўз миллий манфаатларини мустаҳкамлаш эрки бор. Бу табиийки, соғлом, дўстона, ўзаро манфаатли рақобатни пайдо қилади. Миллий тараққиёт халқнинг яратувчилик салоҳиятига, уюшқоқлигига боғлиқ. Ким тез, кучли ва ташаббускор бўлса, тараққиёт байроғи ўша жойда бўлади. Тараққиёт стратегияси чўққисига биринчилик байроғини тиқишга эътиқоди мустаҳкам, характери кучли, диёнати юксак миллат эришади. Қадим ўтмишда ҳам, ҳозирги замонда ҳам кўпчилик манфаатини кўзловчи, юрт ҳамжиҳатлигини таъминловчи одил сиёсат ва унинг амалий таъсири кишилик жамияти равнақининг муҳим омили бўлиб келган. Шундай сиёсатни шакллантириш ва ҳаётга татбиқ қилиш кўп жиҳатдан давлат арбобларига, хокимларга, ҳуқуқни ҳимоя қилувчи ташкилот раҳбарларига, уларнинг қобилияти ва салоҳиятига, уларнинг теварак-атрофидаги миллат вакилларининг виждонига, илмий салоҳияти ва адолатлигига боғлиқдир.

Ҳаёт қонун-қоидалари шуни кўрсатадики, фарзанднинг том маънодаги шахс бўлиб етишида унинг насл-насаби, оиладаги тарбияси, маҳалла жамоаси катта ўрин тутади. Лекин, миллат фарзандларининг камолотга эришишида уларнинг илмий, сиёсий тайёргарлиги, ўз устида муттасил ишлаб бориши янада муҳимдир. Аммо баъзи раҳбарлар катта лавозимга эришгач, аста-секин ўз вазифаси халққа хизмат этишдан иборат эканлигини унутиб борадилар, халқдан узоқлашишга интиладилар, ўз шахсий манфаатидан бошқа нарсани кўрмай ва сезмай қоладилар. Натижада, уни жамият томонидан назорат қилиш, танқид қилиш ёки у ҳақида фикр изҳор қилиш имкониятлари чегараланади ва бундай раҳбарлар тезда кенг халқ оммаси кўз ўнгида обрўсизланиб қоладилар.

Қадим замонлардан халқимизда тарбияга таълимдан кам аҳамият берилмаган. "Бир болага етти қўшни ота-она» деган улуғ ҳикмат бор. "Олим бўлма, аммо одам бул", деган ҳикмат хам ўзбеклар орасида кенг тарқалган. Бу мақолларнинг тагида катта фалсафий маъно ётади. Миллат ва одамийлик тушунчаси одоб-ахлоқ, пок маънавият, диёнат, тўғрисўзлик, ҳалоллик каби инсоний фазилатлар билан биргаликда, ватанпарварлик ва элсеварлик каби эзгу тушунчаларни хам ўз ичига қамраб олади. Ўзбек халқида ана шундай ранг-баранг миллий менталитет ва ўзбекона тизим шаклланган. Бу тизим боланинг туғилишидан бошлаб то камолга етиб, мустақил ҳаётга қадам қўядиган давригача бўлган йилларни қамраб олади. Бугунги кунда ушбу анъанавий тизимнинг асосий бўғинларини оила, маҳалла, мактаб, ўрта махсус ва олий ўқув юртлари ташкил этади.

Энг дастлабки босқичда онанинг роли беқиёсдир, она оиланинг ор-номуси, уруғ давомчиси ва етакчиси сифатида қадрланган. Халқимиз "Қуш уясида кўрганини қилади", деб бежиз айтмайди. Агар оила ҳалоллик, меҳнатсеварлик, раҳмдиллик, эзгулик йўлида намуна бўлса, бола тарбияси хам шунга қараб шаклланиб боради. Бунинг учун бола билан ота-она ўртасида ҳеч қачон тўсиқ бўлмаслиги керак. Ота-онага фарзанддан зўр қувонч йўқ. Бунинг учун ота-она фарзандга вақт ажрата билиши, бола эса ота-она меҳрини амалда ҳис этмоғи керак. Бундай масъулият ўзбек миллий менталитетининг асосий омилларидан биридир. Афсуски, шўролар даврида раҳбарлик вазифасида хизмат қилган миллатимиз вакиллари мисолида менталитетимизнинг бу олтин бойлиги кўп оилаларда йўқолиб борди. Бола тарбиясини тамомила боғча ва мактабга топшириб қўйилди. Бу фожиа бугунги мустақил ҳаётимизга ҳам кириб келмаслиги тўғрисида қайғурмоғимиз керак.

Бу муқаддас анъана маҳалла тарбияси билан бир¬галикда, уйғунлашган холда миллатимизни Ғарб менталитетидан фарқлантириб туради, элни жамоат бўлиб яшаш деб аталадиган фазилатдан баҳраманд қилади. Бу тушунчалар баъзан ғарбона менталитетнинг моҳиятини шакллантирадиган индивидуализмнинг акси сифатида намоён бўлади.

Бу фикр-мулоҳазалар таҳлилидан келиб чиқиб айтиш мумкинки, келажак тараққиётимизнинг гарови ёшлар онгида соғлом турмуш тарзини шакллантириш, бу борада аждодлар меросидан, ўгитларидан мунтазам фойдаланишдадир. Бугунги мустақил Ўзбекистон кўп миллатли жамиятни ташкил этган экан, миллатлараро муносабатларда соғлом муҳитни яратиш учун мунтазам иш олиб бориш, сўз билан дилнинг бирлиги, амалий фаолиятда пок ва имон-эътиқодли ва масъулиятли бўлишга эришиш миллат олдида турган энг долзарб масалалар бўлиб қолди.

Тарих ва маданий мерос миллатнинг асосий бойлиги. Тарихни объективлик, холислик тамойиллари асосида билиш янгитдан миллий давлат барпо этаётган халқ учун ғоят зарур. Замонамизнинг илғор миллатлари ўз тарихини танқидий кўз билан мушоҳада қилиш орқали ўз миллий менталитетларини шакллантирганлар. Ҳозирги кунда ўзбекка хос менталитетининг асосий омиллари, қирралари таркиб топган. Шунинг билан бирга, менталитет миллатнинг узил-кесил шаклланиши билан боғлиқ эканлигини ҳам унутмаслик керак. Бугунги кунда ўзбек миллати тўла-тўкис шаклланган. Аммо миллатнинг тўла-тўкис шаклланиши унинг узил-кесил шаклланганини англатмайди. Бунинг учун мустақил давлатимиз олдида иқтисодиёт билан боғлик ечимини кутаётган муаммолар мавжудки, улар ишлаб чиқариш имкониятларимизнинг жаҳон бозорида рақобатбардош маҳсулот билан ўрин эгаллашларига боғлиқ. Бу масалалар илмий асосли ечимини кутмоқда.

Бу муаммолар қанчалар долзарб бўлишидан қатъи назар, Янги Ўзбекистон шароитда белгиланган тараққиёт стратегияси туфайли бугунги кунда бутун жаҳон бўйича улкан глобаллашиш жараёнлари жадал кечаётган кезларда, ўзбек миллий менталитетини тадқиқ қилиш, унинг умуминсоний қадриятларга нечоғлик мослигини кузатиб бориш ҳамда ўзига хос, ўзига мос миллий менталитетга эга халқ

эканлигимизни амалий ҳаётда, ёшлар тарбиясида кўрсатиб боришимиз лозимлигини ҳам унутмаслигимиз керак.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2021. – 464 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017. – 592 б.
3. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, –. Тошкент, 2007. –179 б.
4. Турсунов С.Н. ва бошқ. Сурхондарё этнографияси. – Тошкент: “Фан”, 2006. – 240 б.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги “«Ўзбекистон — 2030» стратегияси тўғрисида”ги ПФ-158-сон Фармони.

SURXON VOHASI AHOLISINING ETNOXO‘JALIK XUSUSIYATLARI

ESHKURBONOV SIROJIDDIN BOZOROVICH

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
sirojiddin_eshkurbonov@tues.uz

Annotatsiya / Аннотация / Abstract
O‘zbekiston, jumladan, Surxon vohasi aholisining ajdodlari qadim zamonlardan boshlab hududdagi tabiiy geografik va iqtisodiy- ijtimoiy sharoitga moslashib, o‘ziga xos xo‘jalik madaniyatini yuritganlar. Surxon-Sherobod vohasi aholisi boshqa tarixiy-madaniy viloyatlar aholisidan farq qilib, ma’lum kichik hududiy kenglik va ba’zi yirik aholi punktlari o‘rtasida ham ayrim tafovutlarga ega bo‘lgan. Demak, har bir hududiy guruh joylashgan joyning tabiiy geografik xususiyatlaridan kelib chiqib, turmush tarzida, xo‘jaligida va moddiy madaniyatida o‘ziga xos lokal xususiyatlar shakllangan.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords
O‘zbekiston, jumladan, Surxon vohasi aholisining ajdodlari qadim zamonlardan boshlab hududdagi tabiiy geografik va iqtisodiy- ijtimoiy sharoitga moslashib, o‘ziga xos xo‘jalik madaniyatini yuritganlar.

XX asr boshlarida Surxon-Sherobod vohasida aholi asosan Surxondaryo, Sheroboddaryo va uning irmoqlari bo‘yida joylashgan edi. Tog‘li va tog‘oldi zonalarida, daryo vohalarida xo‘jaligida dehqonchilik, bog‘dorchilik ustun turgan turg‘un aholi va xo‘jaligida chorvachilik yetakchi bo‘lgan yarim o‘troq aholi vakillari yashagan. Vohadagi tog‘li hududlarda asosan tojiklar, yarim dasht past tog‘li hududlarda va past-baland dashtlarda asosan yarim o‘troq o‘zbeklar, tog‘ oldi va tog‘ yonbag‘irlarida esa aholi aralash tarzda yashagan. Vohaning o‘troq aholisi turli tarixiy davrlarda ko‘chib kelgan urug‘ va qavmlarning mushtarak etnik birligini tashkil qilsa-da, o‘zining kelib chiqishi, urf-odatlari va ayrim milliy an’analarini saqlab qolganligi bilan

bir-biridan ajralib turgan. Olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, vohaning janubiy tekislik qismida aholining joylashuvi va etnik guruhlari uning shimoliga nisbatan farq qilgan.

Vohada o‘tgan asr boshlarida chorvachilik bilan asosan qo‘ng‘irot, turk, qarluq, qatag‘on, qoraqalpoq, do‘rmon, laqay kabi yarim o‘troq turmush tarzini saqlab qolgan va urug‘larga bo‘lingan etnografik guruhlar, qisman O‘rta Osiyo arablari, tojiklar, turkmanlar shug‘ullangan Keyinchalik ular doimiy o‘troqlashuvi tufayli aralash xo‘jalik yuritish tarziga o‘tgan bo‘lsa-da, aksariyati xo‘jaligida chorvachilik ustun bo‘lib qolavergan. Eng qizig‘i, asosiy faoliyat turi sifatida dehqonchilik bilan shug‘ullanishga o‘tgan aholi uchun ham ushbu xo‘jalik turi o‘z ahamiyatini yo‘qotmadi. Sababi chorvachilik aholini oziq-ovqat mahsulotlari va ishchi hayvonlar bilan ta’minlashdan tashqari uy hunarmandchiligi (kigizbosish, gilamchilik, ko‘nchilik) uchun asosiy xom ashyo (jun, teri) vazifasini ham o‘tagan.

O‘tgan asr boshlarida ushbu xo‘jalik turining vohadagi ko‘plab etnik va etnografik guruhlar o‘rtasida o‘ziga xos taqsimoti mavjud bo‘lganligini ularning etnoxududiy joylashuvi haqidagi ma’lumotlardan ham bilib olishimiz mumkin. Voha chorvadorlari xo‘jalik sharoitlariga ko‘ra joylarda turlicha taqsimlangan bo‘lib, ma’lum hududlarni egallaganlar va o‘zlari yashaydigan joyning tabiiy imkoniyatlariga mos chorva turlarini boqishga ixtisoslashgan. Masalan, qo‘ng‘irotlar qo‘ychilik va tuyachilikka, qarluqlar, turklar, arablar, turkmanlar va qoraqalpoqlar qo‘ychilikka, laqaylar yilqichilik va qo‘ychilikka, do‘rmonlar qo‘ychilik va qoramolchilikka, qatag‘onlar, yuzlar qoramolchilikka, tog‘li tojiklar esa echkichilikka, qolgan aholi guruhlari esa chorvani aralash holda boqishga ixtisoslashgan edi. Ammo bundan istisno holatlar ham uchragan. Masalan, Hisor vohasida yashovchi (Uzun tumanidan janubi-sharqda) o‘zbeklarning ko‘p sonli bo‘lmagan qoratamg‘ali urug‘i daryo bo‘ylaridagi to‘qayzorlarda yil davomida yirik shoxli qoramol boqishgan. Qoratamg‘alilar o‘troq yashaganligi bois qo‘ylari kam bo‘lib, ularni uzoq yaylovlarga haydashmagan. Yarim o‘troq aholi guruhiga kirgan o‘zbek urug‘larining so‘zlariga qaraganda, ilgari ular sigirni chorva moli deb hisoblashmagan va mol go‘shtini yeyishmagan. XIX asrning so‘nggi choragidan vohada o‘troq turmush tarziga o‘tish jarayoni bilan ularda yirik shoxli qoramolga e’tibor berish boshlanadi.

Vohaning o‘troq o‘zbek va tojik aholisi asosan yirik shoxli qoramol boqqan. Qo‘sh ho‘kizlarsiz yerni haydash, molalash va yerga ishlov berib bo‘lmagan. Bundan tashqari har bir o‘rta hol xo‘jaliklarda minish va yuk tashish uchun xizmat qiluvchi ikki oti va bir necha eshagi, bitta sigiri bo‘lgan. Mayda shoxli chorvadan asosan echki boqilgan. Xo‘jaliklardagi chorva turi va tarkibi nafaqat tabiiy geografik sharoit va yaylov turlariga, shuningdek oilalarning ijtimoiy ahvoliga ham bog‘liq bo‘lgan. Masalan, boy chorvadorlar xo‘jaligida ko‘proq qo‘y va otlar, ziroatkor aholida ko‘proq ish ho‘kizlari va sigirlar, kambag‘al xo‘jaliklarda esa ko‘proq echki boqilgan. Ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, shaxsiy va boshqa xo‘jaliklarda chorva mollari sonining ko‘p bo‘lishiga doimo quyidagi 3 ta omil to‘sqinlik qilgan: 1) yaylov, o‘tloq maydonlarining tanqisligi, 2) ozuqaning yetishmasligi, 3) qo‘shimcha mablag‘ning yo‘qligi.

Surxon vohasining dehqonchiligini tabiiy-geografik sharoitiga qarab uch tipga bo‘lish mumkin: 1) tog‘ (lalmi ekinlar), 2) sug‘orma yerlar (daryo vodiylari va tekislik massivlari), 3) shartli sug‘oriladigan (tog‘ oldi zonalari va irrigatsiya qurilishi yaxshi rivojlanmagan yerlar).

Birinchi qism tog‘li xudud butun mintaqaning uchdan ikki qism yerini tashkil etadi. Bunga Boysun va Denovning shimoli-g‘arbiy qismlari hamda Sherobod, Sariosiyo va Uzun tumanlarining tog‘li hududlari kiradi, bu hududlarda asosan lalmi ekinlar ekiladi.

Ko‘xitang va Boysun tog‘ hamda tog‘oldi hudlarida asosan chig‘atoylar (ko‘proqtojik chig‘atoylari) joylashgan bo‘lsa, Hisor tog‘ va tog‘oldi hududlarida esa tojik (Xonjiza, Choch, Maland, Xufar, Hurvatan, Kishtut va hokazo)lar, yuzlar, turklar, qatag‘onlar ko‘proq joylashgan.

Ikkinchi qism sug‘orma erlar zonasi Sheroboddaryo havzasining o‘rta, quyi qismi, Denov va Sariosiyoning janubi-sharqiy qismlari

Surxondaryo bo‘ylari kiradi. Bu hudud aholisi sug‘orma dehqonchilik bilan shug‘ullangan.

Uchinchi qism, ya’ni bepoyon dasht-yaylov erlarda: G‘uzor-Boysun cho‘llarida, Sherobod-Qiziriq dashtlarida, Bobotog‘ etaklarida asosan uzbek qo‘ng‘irotlari (qisman Dashti qipchoq o‘zbek urug‘lari; yuzlar, do‘rmonlar, o‘zbek-xitoylar, jaloyirlar va h.k.) o‘rganilgan davrda xali butunlay o‘troklashib ulgurmaganligi uchun yarim o‘troq tarzda xayot kechirishib, deyarli dehqonchilik bilan shug‘ullanmagan. Ularning xo‘jalik faoliyati asosini chorvachilik tashkil qilgan.

Bizga yaxshi ma’lumki dehqonchilik xo‘jaligining rivojlanishi uchun suv manbalarining mavjudligi muhimdir. Bugungi kunda vohada 5 ta sun’iy suv ombori va 10 ta daryo suv resurslaridan foydalanadi. Asosiy daryolari Amudaryo, Surxondaryo va To‘palang. Ulardan eng yiriklari Surxondaryo va Sheroboddaryolaridir. Shuning uchun ham ko‘pincha viloyat hududini “Surxon-Sherobod vohasi” deb atashadi.

Vohadagi daryolar va ularni tashkil qiluvchi irmoqlar viloyat hududidagi hamda Qashqadaryo va Tojikiston hududlaridagi tog‘lardan boshlanadi. Shuning uchun bu daryolar sersuv va tez oqardir. Viloyatdagi daryolarning ko‘pchiligi qordan, mo‘zdan va er osti suvlaridan tuyinadi.

Surxondaryo mamlakatimizning janubidagi eng sersuv daryo hisoblanib, o‘z nomini Karatog‘ va To‘polang daryolarining bir-biriga quyilgan joyida oladi. U viloyatning shimolidan eng janubiy qismiga to‘g‘ri oqib o‘tgan va o‘ng qirg‘og‘ida Surxon vohasini hosil qilgan. Surxondaryo vohada sug‘oriladigan dehqonchilikning rivojlantirishda asosiy o‘rin egallaydi. Undan o‘nlab har hil kattalikdagi kanallar qazilgan. Shuningdek ushbu daryoning o‘zani to‘silib janubiy O‘zbekistondagi eng yirik Janubiy Surxon suv ombori barpo qilingan.

Sheroboddaryo Amudaryoning so‘nggi yirik irmog‘idir. Daryoning nomi tog‘ zonasida Machaydaryo, Machay qishlog‘idan Sherobod shahrigacha Sheroboddaryo va so‘ngra Qorasuv nomi bilan ataladi. Sheroboddaryo ham o‘z yo‘lida kattagina emirish ishlarini bajaradi, uning ilk vodiysi ayniqsa Sayrob qishlog‘idan keyin ancha kengayadi.

Shuning uchun ham Sayrobdan toki Sherobod shahrigacha daryo vodiysi buylab qator tog‘ qishloqlari joylashgan.

Daryoning suv sarfi fasllar buyicha keskin o‘zgaradi. Sheroboddaryo vohaning dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi Janubiy tumanlari ho‘jaliklarini suv bilan ta’minlashda muhim manba. Undan ko‘pgina sug‘orish inshootlari o‘tkazilgan.

Surxon vohasi dehqonlari qishloq ichidagi sabzavot, bedazor erlarni “hayot” (“hayat”) deb yuritganlar. Kattaroq bo‘lgan maydonga bug‘doy, arpa, tariq, kunjut, mosh, zig‘ir ekishgan, bu ekinlar oz suv talab qilgan, 2-3 marta sug‘orish bilan chegaralangan, ko‘p mehnat talab qilmay, erta pishgan, may-iyun oylarida yig‘im-terim tugagan. Ularni yig‘ishtirib olgandan keyin o‘rniga jo‘xori, makka, kechki qovun-tarvuz va boshqa ekinlar ekishgan.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных раёнов Таджикистана и Узбекистана. – М.: Наука, 1976. – С. 4.
2. Норбоев Н. 92 бовли ўзбек элининг қабила ва уруғлари ҳақида. – Б. 54.
3. Хидоятов И. К вопросу о формировании населения южных раёнов Узбекистана. // Из истории культуры народов Узбекистана. Сб. статей., - Т.: Наука, 1965. - С. 124-133;
4. Қаюмов А. ХИХ аср охири –ХХ аср бошларида Сурхон-Шеробод водийсидаги этник жараёнларнинг баъзи омиллари // Ўзбекистон тарихи. – № 4, 2001. – Б. 28.
5. Кармышева Б.Х. К истории формирования населения южных раёнов Узбекистана и Таджикистана. – С. 126.
6. Кармышева Б.Х. Типы скотоводства в южных раёнах Узбекистана и Таджикистана (конец ХИХ – начало ХХ века) // Советская этнография. – № 3, 1969. – С. 46.
7. Хидоятов И. О характере селского хозяйства многонационалных раёнов Сурхандаринский области в дореволюционное время // СЭ, 1970, №2. С.133-139.

8. Турсунов С. Сурхондарё вилояти тарихини ўрганиш. Т.: 1997, 33-бет.
9. Мухетдинов А. По Восточной Бухаре. «Народное хозяйство Средней Азии». Ташкент, 1924, № 2—3.
10. Басов Д. Пайкалы Шерабадской долины // За реконструкцию селского хозяйства Самарканд, 1929. №2. стр. 112—126.
11. Кубанов К. Эгницекстй состав селского населения верхней Кашкадари в конце ХИХ ~ начале ХХ в (Историко-этнографическое исследование) Автореф. Дисс. канд. ист. наук.. Т.: 1973. С. 32.

O‘ZBEKISTON JANUBIY HUDUDLARIDA DINIY E’TIQOD VA MAROSIMLARNING MANBASHUNOSLIK TAHLILI

TURAPOVA MOHIDIL TURDIYEVNA

Termiz davlat universiteti,
Jahon tarixi kafedrasi t.f.b.f.d., PhD
Email: mohidilturopova76@gmail.com

Annotatsiya / Аннотация / Abstract
Ushbu maqolada O‘zbekistonning janubiy hududlari — Surxondaryo va Qashqadaryo vohalarida qadimiy va o‘rta asrlarda shakllangan diniy e’tiqod va marosimlarning etnologik jihatdan o‘rganilishi tahlil qilinadi. Tadqiqotda arxeologik topilmalar, yozma manbalar, etnografik dala materiallari hamda ilmiy tadqiqotlar asosida hududning sinkretik diniy madaniyati yoritiladi.
В данной статье анализируется этнологическое изучение религиозных верований и обрядов, сформировавшихся в древности и средневековье на территории южных регионов Узбекистана — Сурхандарьинской и Кашкадарьинской долин. В исследовании на основе археологических находок, письменных источников, этнографических полевых материалов и научных работ раскрывается синкретическая религиозная культура региона.
This article analyzes the ethnological study of religious beliefs and rituals formed in ancient and medieval periods in the southern regions of Uzbekistan — the Surkhandarya and Kashkadarya oases. Based on archaeological findings, written sources, ethnographic field materials, and scientific studies, the syncretic religious culture of the region is examined.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords
Surxondaryo, Qashqadaryo, diniy e’tiqod, etnologiya, arxeologik manbalar, yozma manbalar, marosimlar, sinkretizm.
Сурхандарья, Кашкадарья, религиозные верования, этнология, археологические источники, письменные источники, обряды, синкретизм.
Surkhandarya, Kashkadarya, religious beliefs, ethnology, archaeological sources, written sources, rituals, syncretism.

O‘zbekistonning janubiy hududlari — Surxondaryo va Qashqadaryo vohalari tarixan turli diniy e’tiqodlar kesishgan hudud sifatida alohida ilmiy ahamiyatga ega. Ushbu hudud qadimdan zardushtiylik, buddizm, xristianlik va keyinchalik islom dini tarqalgan markazlardan biri bo‘lib kelgan. Shu bois bu yerda shakllangan diniy marosimlar va e’tiqod tizimi o‘ziga xos sinkretik xarakterga ega. Mazkur hududdagi diniy hayotni etnologik jihatdan o‘rganish manbashunoslik asosida kompleks yondashuvni talab etadi. Bu yondashuv arxeologik topilmalar, yozma manbalar, dala-tadqiqot materiallari va ilmiy adabiyotlar tahlilini o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston janubiy hududlaridagi diniy e’tiqodlarni o‘rganishda arxeologik manbalar muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, Surxondaryo hududidan topilgan yodgorliklar bu borada boy ilmiy material beradi. Termiz yaqinidagi Qoratepa va Fayoztepa majmualari buddizmning

ushbu hududda keng tarqalganidan dalolat beradi. Mazkur yodgorliklarda ibodatxonalar, monastirlar, Budda haykallari va ibodat g‘orlari aniqlangan bo‘lib, ular milodiy I–IV asrlarga oid hisoblanadi. Ushbu topilmalar buddizm dini nafaqat diniy, balki madaniy va san’at sohasida ham muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi.[4. 10] Zardushtiylikka oid topilmalar ham hududda keng tarqalgan. Dalvarzintepa va boshqa qadimgi shaharlardan topilgan olovxonalar, ossuariylar (suyakdonlar) o‘sha davr diniy marosimlari va e’tiqod tizimi haqida muhim ma’lumot beradi. Bu topilmalar olovga sig‘inish va marhumlarni dafn etish bilan bog‘liq diniy qarashlarning shakllanganini ko‘rsatadi. Shuningdek, epigrafik manbalar ham alohida ahamiyatga ega. Qoratepadan topilgan braxmi, xaroshthi hamda baqtriya-kushon yozuvlari hududda turli madaniyat va dinlarning o‘zaro aloqasi mavjud bo‘lganini tasdiqlaydi.[3. 66] Bu esa janubiy hududlarda diniy va madaniy almashinuv jarayonlari faol kechganini ko‘rsatadi.

Hududdagi diniy hayotning yana bir muhim va ishonchli manbasi yozma manbalar hisoblanadi. Ayniqsa, antik va o‘rta asrlar davriga oid tarixiy-geografik asarlar janubiy vohalarda mavjud bo‘lgan diniy markazlar, ibodatxonalar, marosimlar hamda diniy hayotning umumiy manzarasini tiklashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu manbalar orqali hududda turli dinlarning mavjudligi, ularning tarqalish hududi va o‘zaro aloqalari haqida qimmatli ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin. Xususan, Xitoy sayyohi Syan-szan (Xuanzang) o‘zining sayohatnomalarida Termiz va uning atrofidagi hududlarda buddaviylikning keng tarqalganini, ko‘plab monastirlar va ibodatxonalar faoliyat yuritganini qayd etadi. Uning yozuvlarida buddaviy rohiblar soni, ibodat marosimlari, diniy ta’lim tizimi hamda mahalliy aholi orasida buddizmning tutgan o‘rni haqida batafsil ma’lumotlar berilgan. Bu esa Surxondaryo hududining buddaviylik markazlaridan biri bo‘lganini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Arab geograflari — Abu Ishoq Istahriy va Ibn Havqal asarlarida esa janubiy hududlarda islom dinining tarqalishi, masjidlar, madrasalar va diniy markazlar faoliyati haqida muhim ma’lumotlar uchraydi. Ular o‘z asarlarida vohalardagi shaharlar tuzilishi, ijtimoiy hayot, savdo yo‘llari bilan bir qatorda diniy hayotga ham alohida e’tibor qaratib, masjidlarning jamiyatdagi o‘rni, juma namozlari, diniy ta’lim va ulamolar faoliyati haqida yozib qoldirganlar. Bundan tashqari, o‘rta asr yozma manbalarida diniy marosimlarning kundalik hayot bilan uzviy bog‘liqligi ham aks etgan. Turli diniy bayramlar, marosimlar va urf-odatlar nafaqat e’tiqod tizimining bir qismi, balki ijtimoiy hayotni tartibga soluvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘lgan. Bu esa diniy e’tiqodning jamiyat madaniyati va turmush tarziga chuqur singib ketganini ko‘rsatadi.

O‘rta asr manbalaridan biri bo‘lgan “Boburnoma”da esa nikoh, to‘y va boshqa marosimlar haqida etnografik ahamiyatga ega ma’lumotlar keltirilgan. Bu esa diniy marosimlarning kundalik hayot bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi.[5. 66] XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston hududida olib borilgan etnografik ekspeditsiyalar natijalari ham muhim manba hisoblanadi. Rus tadqiqotchilari tomonidan to‘plangan materiallar o‘sha davrdagi diniy urf-odatlar va marosimlarni o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.[5. 101]

Etnologik tadqiqotlarning eng muhim qismi zamonaviy dala materiallariga asoslanadi. Surxondaryo va Qashqadaryo hududlarida olib borilgan dala tadqiqotlari diniy marosimlarning hozirgi kundagi holatini o‘rganish imkonini beradi. Mazkur hududlarda islomiy va islomgacha bo‘lgan marosimlar uyg‘unlashgan holda saqlanib qolgan. Masalan, Hakim at-Termiziy va Sulton Saodat majmualari kabi ziyoratgohlar diniy hayotda muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, ayrim marosimlarda qadimgi e’tiqod unsurlari — olov atrofida aylanish, olovdan sakrash kabi urf-odatlar ham uchrab turadi.[1. 77]

Oila va taqvim marosimlari ham etnografik jihatdan muhim hisoblanadi. Xatna, aqiqa, nikoh to‘ylari, qurbonlik marosimlari, ramazon va qurbon hayitlari bilan bog‘liq an’analar hududda keng tarqalgan. Bu marosimlar diniy va milliy qadriyatlarning uyg‘unlashuvi natijasida shakllangan. Shuningdek, zamonaviy davrda diniy marosimlarning transformatsiyasi ham kuzatilmoqda. Globalizatsiya, urbanizatsiya va ijtimoiy o‘zgarishlar natijasida an’anaviy marosimlarning ayrim shakllari o‘zgarib, yangi mazmun kasb etmoqda.[2. 147]

O‘zbekiston janubiy hududlaridagi diniy e’tiqod va marosimlar bir qator ilmiy tadqiqotlarda yoritilgan. Xususan, I. Jabborovning “O‘zbek xalqi etnografiyasi” asarida nikoh va oilaviy marosimlar, etnik madaniyat va urf-odatlar tahlil qilingan. Shuningdek, ilmiy maqolalarda hududda turli dinlarning mavjudligi va ularning o‘zaro ta’siri, diniy bag‘rikenglik va madaniy almashinuv masalalari keng yoritilgan.[8. 211] Bu tadqiqotlar janubiy hududlarning ko‘p qatlamli diniy madaniyatini tushunishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning janubiy hududlarida diniy e’tiqod va marosimlarni o‘rganish kompleks yondashuvni talab etadi. Arxeologik topilmalar qadimgi diniy qarashlarni, yozma manbalar tarixiy rivojlanishni, etnografik materiallar esa zamonaviy holatni yoritib beradi. Mazkur hududda zardushtiylik, buddizm, xristianlik va islom dini an’analari o‘zaro uyg‘unlashib, o‘ziga xos sinkretik diniy madaniyatni shakllantirgan. Bu esa janubiy O‘zbekistonni nafaqat tarixiy, balki etnologik jihatdan ham muhim ilmiy markaz sifatida baholash imkonini beradi. Shu bois, ushbu hududdagi diniy marosimlar va e’tiqodlarni chuqur o‘rganish milliy madaniyatni anglash, tarixiy xotirani tiklash va zamonaviy jamiyatdagi madaniy jarayonlarni tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. Турсунов С., Қобилов Э., Пардаев Т. ва бошқ. Сурхондарё тарих кўзгусида. – Тошкент, 2001.
2. 3.Tursunov S.N., Tursunov A.S. Surxonnoma. – Toshkent: "ILM-ZIYO-ZAKOVAT", 2024.
3. Эшов Б. Диний бағрикенгликнинг тарихий илдизлари. // Миллий истиқлол ғояси: Миллатлараро тотувлик ва динлараро бағрикенгликни ўқувчи ва талаба ёшлар дунёқарашини шакллантиришдаги роли. (Конференция материаллари). – Самарқанд, 2006. – Б.77.
4. Сагдуллаев А. Қадимги Ўрта Осиё тарихи. – Тошкент, 2002.- Б.4-10.
5. Xo‘jayev A. Markziy Osiyo xalqlari tarixiga oid ma’lumotlar (qadimiy hamda ilk o‘rta asr xitoy manbalaridan tarjimalar va tadqiqotlar.
6. Shirinov T., Shaydullayev Sh. Baqtriya ming shaharli mamlakat. // “Termiz: tarixiy tadqiqotlar, ilmiy xulosalar”. Toshkent, 2021.
7. Зоҳир Аълам. Қадимги тарихчилар Ўрта Осиё хақида. Т: Юрист медиа маркази., - 2008. 24-б.
8. Jabborov I.M. O‘zbek xalqi etnografiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994. – 320.

XALQ ANSAMBLLARINING SHAKLLANISHI VA YUKSALISHIDA XOTIN-QIZLAR ISHTIROKI (ZULXUMOR BAXSHI SHERNAZAROVA MISOLIDA)

NARGIZA RAHMATULLAYEVA

Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi
Surxondaryo viloyati bo‘limi rahbari

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Maqolada xalq ansambllarining shakllanishi va rivojlanishida xotin-qizlarning tutgan o‘rni, ularning ijodiy faoliyati hamda etnik o‘ziga xos xususiyatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Xususan, Surxon vohasiga xos baxshichilik an’analari, badash usulining badiiy-estetik mohiyati hamda O‘zbekiston xalq baxshisi Zulxumor Shernazarova ijodi misolida ayollar ijodining o‘ziga xos jihatlari yoritiladi.

В статье на научной основе анализируются роль женщин в формировании и развитии народных ансамблей, их творческая деятельность и этнические особенности. В частности, на примере традиций бахшизма (сказительства), присущих Сурхандарьинскому оазису, художественно-эстетической сути метода «бадаш», а также творчества Народного бахши

Узбекистана Зулхумор Шерназаровой освещаются специфические аспекты женского творчества.
The article provides a scientific analysis of the role of women in the formation and development of folk ensembles, their creative activities, and their ethnic characteristics. In particular, the specific aspects of women's creativity are highlighted through the example of the bakhshi (epic storytelling) traditions unique to the Surkhan oasis, the artistic-aesthetic essence of the "badash" method, and the creative work of Zulkhumor Shernazarova, the People's Bakhshi of Uzbekistan.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords
xalq ansambllari, baxshichilik, xotin-qizlar ijodi, badash usuli, etnomadaniyat, Surxon vohasi, folklor, dostonchilik.
народные ансамбли, бахшизм (сказительство), женское творчество, метод «бадаш», этнокультура, Сурхандарьинский оазис, фольклор, эпическое сказительство.
folk ensembles, bakhshi tradition (epic storytelling), women's creativity, "badash" method, ethnoculture, Surkhan oasis, folklore, epic chanting.

O‘zbek xalqining boy madaniy merosida xalq ansambllari alohida o‘rin tutadi. Ushbu ansambllar nafaqat san’at namunasi, balki xalqning tarixiy xotirasi, urf-odatlari va ijtimoiy hayotining ifodasi sifatida shakllangan. Bu jarayonda xotin-qizlarning ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Ular nafaqat ijrochi, balki folklor merosini avloddan-avlodga yetkazuvchi asosiy tashuvchilardan biri hisoblanadi.

Ayniqsa, Surxon vohasida ayollar baxshichilik, dostonchilik va xalq qo‘shiqlarini ijro etishda faol qatnashib, xalq ansambllarining shakllanishi va rivojiga katta hissa qo‘shgan.

Xalq ansambllari – bu jamoaviy ijro shakli bo‘lib, unda xalq og‘zaki ijodi, musiqa, raqs va teatr elementlari uyg‘unlashadi. Ushbu ansambllarning shakllanishida xotin-qizlar faol ijodiy qatnashib, o‘zlarining badiiy didi, ijro mahorati va ruhiy kechinmalari orqali ansambl faoliyatiga o‘ziga xos rang-baranglik olib kirgan.

Xotin-qizlar ijrosining o‘ziga xos jihati shundaki, unda hayotiylik, samimiyat va hissiy ta’sir kuchli bo‘ladi. Ayniqsa, ayollar tomonidan ijro etilgan qo‘shiqlar va dostonlarda inson ruhiyatining turli holatlari – quvonch, qayg‘u, sog‘inch, umid va iztirob chuqur ifodalanadi.

Xotin-qizlar ijodida muhim o‘rin tutuvchi badash usuli xalq musiqa madaniyatining o‘ziga xos shakllaridan biridir. Ushbu usulning kuchi shundaki, u inson ruhiyatining turli holatlarini bir butun badiiy tizimda ifodalash imkonini beradi.

Badash usulida:

- shodlik va qayg‘u o‘zaro uyg‘unlashadi;
- ichki kechinmalar musiqiy ohang orqali ifodalanadi;
- ijro jarayonida improvizatsiya muhim o‘rin egallaydi;
- musiqiy “til” orqali asarning yaxlit shakli yaratiladi.

Bu jihatlar badash usulini nafaqat musiqiy, balki psixologik va etnomadaniy hodisa sifatida ham ahamiyatli qiladi.

Surxon vohasi baxshichilik an’analari bilan mashhur hududlardan biridir. Bu yerda baxshilar xalqning tarixiy xotirasi va ma’naviy qadriyatlarini dostonlar orqali ifoda etib kelganlar. An’anaviy ravishda baxshichilik erkaklar faoliyati sifatida qaralgan bo‘lsa-da, ushbu hududda ayollar ham bu san’atga kirib kelib, o‘z o‘rnini topa olgan.

Ayol baxshilar:

- dostonlarni o‘ziga xos ohang va talqinda ijro etadi;
- nozik hissiyotlarni chuqur ifodalaydi;
- folklor an’analarini zamonaviy ruh bilan uyg‘unlashtiradi.

Bu esa xalq ansambllarining tarkibiy va mazmuniy jihatdan boyishiga xizmat qiladi.

Surxon vohasida yetishib chiqqan iste’dodli baxshi Zulxumor Shernazarova o‘zbek ayol baxshilari orasida alohida o‘rin egallaydi. U 1971 yilda Jarqo‘rg‘on tumanida tug‘ilib, yoshligidan baxshichilik san’atiga qiziqish bildiradi.

Zulxumor baxshining ijodiy shakllanishida ustoz-shogird an’anasi muhim rol o‘ynagan. U dastlab akasi Omon baxshidan saboq olib,

keyinchalik Qodir baxshi, Shoberdi baxshi, Qora baxshi kabi ustozlardan dostonchilik sirlarini o‘rgangan. Ayniqsa, uning “Alpomish” dostonini ijro etishdagi mahorati alohida e’tiborga loyiq.

Uning ijodiy yo‘li oson kechmagan. Yoshligidan turli mehnat faoliyatlari bilan shug‘ullangan bo‘lsa-da, baxshichilikka bo‘lgan muhabbati uni bu yo‘ldan chetlatmagan. Aksincha, u o‘z ustida tinimsiz ishlash orqali yetuk baxshi darajasiga erishgan.

Zulxumor Shernazarova nafaqat ijrochi, balki pedagog sifatida ham faoliyat yuritib kelmoqda. U Termiz shahridagi baxshichilik maktabida yosh avlodga ushbu san’at sirlarini o‘rgatmoqda.

Uning ijodiy faoliyatida:

- o‘nlab dostonlarni yoddan ijro etish;
- xalq orasida baxshichilikni targ‘ib qilish;
- xalqaro va respublika miqyosidagi tadbirlarda ishtirok etish muhim o‘rin tutadi.

Uning “Oltin qobiq”, “Yulduz-Qunduz”, “Momogul Moston” kabi dostonlari nashr etilgan bo‘lib, bu uning ijodiy merosining muhim qismini tashkil etadi.

2021 yilda “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlanishi uning san’at sohasidagi xizmatlariga berilgan yuksak bahodir.

Xotin-qizlarning xalq ansambllaridagi ishtiroki quyidagi jihatlar bilan ahamiyatlidir:

Birinchidan, ular folklor an’analarini saqlab qolish va rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. **Ikkinchidan**, ayollar ijrosi ansamblga hissiy boylik va badiiy chuqurlik bag‘ishlaydi. **Uchinchidan**, ular yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. **To‘rtinchidan**, ayollar ijodi orqali xalq madaniyatining yangi qirralari ochiladi.

Xalq ansambllarining shakllanishi va rivojlanishida xotin-qizlarning ishtiroki beqiyos ahamiyatga ega. Ular nafaqat ijrochi, balki milliy madaniyatning faol yaratuvchilari sifatida namoyon bo‘ladi.

Surxon vohasida shakllangan baxshichilik an’analari va unda ayollarning faol ishtiroki, xususan, Zulxumor Shernazarova ijodi bu jarayonning yorqin dalilidir. Uning ijodi orqali xalq og‘zaki ijodi, etnomadaniyat va ayollar san’atining o‘ziga xos uyg‘unligi namoyon bo‘ladi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. S.N.Tursunov, G.O‘.Ahmedova. “Milliy xalq og‘zaki ijodida baxshichilik san’atining yuksalishi”.-Toshkent.“Tafakkur” nashriyoti. 2021-yil. – B. 128.
2. Tursunov.S, Rashidov.Q. “Boysun” -Toshkent : “Akademik nashr”. 2011-yil. – B. 39.
3. Chorshanbiyev.H. “Boysun darg‘alari”. Toshkent - Oltin qalam nashriyoti. 2023-yil.
4. Tursunov S, Pardayev T, Tursunova N, Murtazayev B. O‘zbekistonda baxshichilik san’atining shakllanishi va taraqqiyoti tarixi. Toshkent: 2015. “Tafakkur”. –B.13.
5. Umarov I., Rahmonov. “Surxon vohasida etnik tarix va etnomadaniy jarayonlar”.- Toshkent 2014 yil. – B. 122.

SURXON VOHASI XOTIN-QIZLARINING SOVET DAVRIDAGI XALQ OG‘ZAKI IJODI (RA’NO UZOQOVA FAOLIAYTI MISOLIDA)

NARGIZA RAHMATULLAYEVA

Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Surxondaryo viloyati bo‘limi rahbari

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Maqolada Surxon vohasi xotin-qizlarining sovet davridagi xalq og‘zaki ijodi keng qamrovda tahlil qilinadi. Xususan, ayollar folklorining tarixiy ildizlari, uning sovet davridagi mazmuniy va shakliy o‘zgarishlari, etnolokal xususiyatlari hamda bu jarayonda alohida o‘rin tutgan ijodkorlardan biri – Ra’no Uzoqovaning hayoti va ijodi ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqot natijalari o‘zbek etnomadaniy merosini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

В статье представлен комплексный анализ устного народного творчества женщин Сурхандарьинского оазиса в советский период. В частности, на научной основе освещаются исторические корни женского фольклора, его содержательные и формообразующие изменения в советскую эпоху, этнолокальные особенности, а также жизнь и творчество одной из выдающихся исполнительниц этого периода — Рано Узаковой. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию узбекского этнокультурного наследия.

The article provides a comprehensive analysis of the oral folk art of women in the Surkhan oasis during the Soviet period. In particular, it sheds light on the scientific basis of the historical roots of women's folklore, its content and form transformations during the Soviet era, ethnolocal characteristics, and the life and creative work of Ra’no Uzoqova, one of the prominent creators who held a special place in this process. The research findings contribute to a deeper understanding of the Uzbek ethnocultural heritage.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

xalq og‘zaki ijodi, folklor, etnologiya, xotin-qizlar ijodi, Surxon vohasi, sovet davri, etnomadaniyat, badiiy tafakkur.

Ключевые слова: устное народное творчество, фольклор, этнология, женское творчество, Сурхандарьинский оазис, советский период, этнокультура, художественное мышление.

oral folk art, folklore, ethnology, women's creativity, Surkhan oasis, Soviet period, ethnoculture, artistic thinking.

O‘zbek xalqining ko‘p asrlik ma’naviy merosida xalq og‘zaki ijodi muhim o‘rin tutadi. Ushbu merosning shakllanishi va rivojlanishida xotin-qizlarning hissasi beqiyosdir. Ular yaratgan qo‘shiqlar, dostonlar, maqollar, topishmoqlar va turli marosimlarga oid folklor namunalari xalq hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan holda, jamiyatning ma’naviy qiyofasini aks ettirib kelgan.

Xotin-qizlar ijodi o‘zining tabiiyligi, samimiyligi va hayotiyligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, sovet davrida bu ijod yangi ijtimoiy-siyosiy sharoit ta’sirida yangicha mazmun kasb etdi. Shu bois mazkur davr folklorini o‘rganish nafaqat adabiy, balki etnologik jihatdan ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

O‘zbek xotin-qizlari tomonidan yaratilgan xalq og‘zaki ijodi uzoq tarixiy taraqqiyot mahsulidir. Bu ijod namunalarida ayollarning kundalik turmushi, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy muhit, ruhiy kechinmalar va orzu-intilishlari mujassam bo‘lgan. Folklor va yozma adabiyot o‘rtasida muayyan o‘xshashliklar mavjud bo‘lsa-da, ular orasida muhim farqlar ham mavjud. Yozma adabiyotda muallifning individual uslubi ustuvor bo‘lsa, xalq og‘zaki ijodida jamoaviylik, an’anaviylik va og‘zaki ijro asosiy o‘rin tutadi. Xotin-qizlar folklorida esa bu jihatlar yanada yaqqol namoyon bo‘lib, unda ayollarga xos hissiylik, samimiyat va obrazlilik ustunlik qiladi.

Shuningdek, ayollar folklori ko‘pincha maishiy hayot, oilaviy marosimlar va ijtimoiy munosabatlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu jihat uni boshqa folklor turlaridan ajratib turadi.

Sovet davri o‘zbek jamiyati hayotida tub ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar davri bo‘ldi. Bu o‘zgarishlar, tabiiyki, xalq og‘zaki ijodiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Xotin-qizlar ijodida yangi g‘oyalar – erkinlik, tenglik, mehnat, ma’rifat va jamiyat qurilishida faol ishtirok etish kabi motivlar yetakchi o‘rin egalladi.

Biroq bu davr folklori faqat mafkuraviy yo‘nalish bilan cheklanib qolmadi. Unda an’anaviy qadriyatlar, milliy urf-odatlar, marosimlar va qadimiy tasavvurlar ham saqlanib qoldi. Natijada sovet davri xotin-qizlar folklori ikki qatlamli – an’anaviy va zamonaviy unsurlar uyg‘unligidan iborat murakkab tizim sifatida shakllandi.

Surxon vohasi o‘zining boy tarixiy-madaniy merosi bilan ajralib turadi. Ushbu hududda yashovchi xotin-qizlar ijodida vohaning tabiiy-

geografik, ijtimoiy va etnomadaniy xususiyatlari yaqqol aks etadi.

Surxon vohasi xotin-qizlari folklorining asosiy etnolokal xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, folklor namunalarida mahalliy urf-odatlar, marosimlar va an’analar keng yoritiladi. To‘y, motam, mavsumiy marosimlar va oilaviy tadbirlar bilan bog‘liq qo‘shiqlar ayollar ijodining muhim qismini tashkil etadi.

Ikkinchidan, vohaning tabiiy muhiti – tog‘lar, daryolar, iqlim sharoiti badiiy obrazlar orqali ifodalanadi. Bu esa folklorga o‘ziga xos rang-baranglik baxsh etadi.

Uchinchidan, til va uslub jihatidan dialektal unsurlar keng qo‘llanadi. Bu esa ijod namunalarini yanada jonli va xalqona qiladi.

To‘rtinchidan, ayollarning jamiyatdagi o‘rni, ularning ijtimoiy faolligi, oilaviy mas’uliyati va ichki kechinmalari chuqur badiiy ifodaga ega bo‘ladi.

Surxon vohasida yetishib chiqqan iste’dodli shoira Ra’no Uzoqova o‘zbek xotin-qizlar folklorining sovet davridagi yorqin vakillaridan biri hisoblanadi. Uning hayoti va ijodi ushbu davr ayollarining ijtimoiy-madaniy faoliyatini aks ettiruvchi muhim manbadir.

Ra’no Uzoqova 1916 yilda tug‘ilib, yoshligidan ilm-fan va ijodga qiziqdi. U o‘qituvchilik, teatr va matbuot sohalarida faoliyat yuritib, o‘z davrining faol ziyolilaridan biriga aylandi. Uning ijodi hikoya, ocherk, maqola va doston janrlarini qamrab oladi.

Shoiraning “Malohat”, “G‘alaba”, “Sarviqad”, “Gulandom”, “Makr va muhabbat” kabi dostonlarida ayollar taqdiri, jamiyatdagi o‘zgarishlar va insoniy kechinmalar badiiy ifoda etilgan. Uning asarlarida xalq og‘zaki ijodiga xos obrazlar, ifoda vositalari va ritmik tuzilish keng qo‘llanadi.

Ra’no Uzoqova ijodining muhim jihati shundaki, u xalqona an’analarni yozma adabiyot bilan uyg‘unlashtira olgan. Bu esa uning asarlarini ham folklor, ham yozma adabiyot nuqtayi nazaridan qimmatli qiladi.

Surxon vohasi xotin-qizlarining sovet davridagi folklorini o‘rganish bugungi kunda dolzarb ilmiy masalalardan biridir. Chunki bu soha hali yetarlicha tadqiq etilmagan va ko‘plab ijodkorlar ilmiy muomalaga kiritilmagan.

Mazkur yo‘nalishda olib boriladigan tadqiqotlar:

- milliy etnomadaniyatni tiklash va boyitishga;
- ayollar ijodining tarixiy o‘rnini aniqlashga;
- folklor va yozma adabiyot o‘rtasidagi aloqalarni chuqurroq o‘rganishga xizmat qiladi.

Surxon vohasi xotin-qizlarining sovet davridagi xalq og‘zaki ijodi o‘zining boy mazmuni va etnolokal xususiyatlari bilan o‘zbek madaniyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu ijod orqali ayollarning hayoti, ruhiyati va ijtimoiy qarashlari yorqin aks etadi.

Ra’no Uzoqova kabi ijodkorlar merosi esa ushbu jarayonni chuqurroq anglashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ularning ijodini o‘rganish va ilmiy muomalaga kiritish kelajak avlodlar uchun bebaho ma’naviy boylikni saqlashga xizmat qiladi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. Ergashev.A. “Oilaviy baxshilar sulolasi”. – Termiz. “Surxon – nashr”. 2019 y. – B. 71.
2. Abduolim Ergashev. “Oyilaviy baxshilar sulolasi”. “Surxon-nashr”. 2019 yil. -B. 5.
3. Tursunov S, Pardayev T, Tursunova N, Murtazayev B. O‘zbekistonda baxshichilik san’atining shakllanishi va taraqqiyoti tarixi. Toshkent: 2015. “Tafakkur”. –B. 13.
4. Umarov I., Rahmonov. “Surxon vohasida etnik tarix va etnomadaniy jarayonlar”.- Toshkent 2014 yil. – B. 122.

TURLI ETNOSLARNING JIZZAX VOHASI BO‘YLAB JOYLASHUVI XUSUSIDA (QIRQLAR MISOLIDA)

ESHONQULOV UMURZOQ ABSAMAT O‘G‘LI

Jizzax davlat pedagogika universiteti
Umumiy tarix kafedrasio‘qituvchisi
ORCID: 0009-0005-1626-2616
umurzoqeshonqulov09@gamail.com

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Mazkur maqolada o‘zbek xalqi tarkibidagi yirik etnik birliklardan biri hisoblangan Qirq urug‘ining tadqiq etilish tarixi, “qirq” etnonimining kelib chiqishi masalalari, mazkur urug‘ning Jizzax vohasi hududida joylashuv xususiyatlari, uning ichki tarmoqlari (shoxobchalari) hamda ularning geografik tarqalishi bilan bog‘liq qarashlar tahlil qilingan.

В данной статье анализируются история изучения рода Кирк, рассматриваемого как одно из крупных этнических объединений в составе узбекского народа, вопросы, связанные с происхождением этнонима «кирк», особенности расселения данного рода на территории Джизакского оазиса, а также его внутренние ветви (подразделения) и научные взгляды на их географическое распространение.

This article analyzes the history of research on the Qirq clan, considered one of the major ethnic units within the Uzbek people, the issues related to the origin of the ethnonym “qirq, ” the settlement patterns of this clan within the Jizzakh oasis, as well as its internal branches (subdivisions) and scholarly perspectives on their geographical distribution.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

This article analyzes the history of research on the Qirq clan, considered one of the major ethnic units within the Uzbek people, the issues related to the origin of the ethnonym “qirq, ” the settlement patterns of this clan within the Jizzakh oasis, as well as its internal branches (subdivisions) and scholarly perspectives on their geographical distribution.

Род, племя, родственная группа, этническая группа, народ, нация, этногенез, этническая история, Кыркюз, Ок-кўйли, Кора-кўйли, Корасирак, Корача, Олмаса-ун, Чапарашли, Балки, Жанг‘га (новый), Чекли, Кўччекли, Чувуллок, группа бойлар, группа кавуш, группа ойув (медведь), группа беклар.

Clan, tribe, kin group, ethnic group, people, nation, ethnogenesis, ethnic history, Qirqyuz, Oq-qo‘yli, Qora-qo‘yli, Qorasirak, Qoracha, Olmasa-un, Chaparashli, Balki, Jang‘g‘a (new), Chekli, Ko‘chchekli, Chuvulloq, Boylar to‘pi, Kavush to‘pi, Oyuv (bear) to‘pi, Beklar to‘pi.

Etnos yunoncha (ἔθνος - ethos) – “xalq” va onim-“nom” so‘zlaridan tarkib topgan bo‘lib, “xalqni nomi” ma’nosini bildiradi.[1, 56-b.] Etnonimlarni o‘rganish juda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Negaki, har bir etnonim avvalo axborot tashuvchi hisoblanadi. Jizzax vohasidagi etnoslarni o‘rganish voha tarixini tiklash va tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki etnik tarkib, etnik guruhlarning shakllanish jarayonlari, ko‘chish yo‘llari hamda mahalliy aholi bilan o‘zaro ta’siri hududning tarixiy rivojlanish bosqichlarini aniqlashga imkon beradi. Etnoslar tarixi vohaning iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti, demografik jarayonlari, siyosiy voqealar hamda ijtimoiy tuzilmasidagi o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liq. Shu bois Jizzax vohasida yashagan va yashab kelayotgan etnik guruhlarning tarixi, ularning o‘zaro munosabatlari, madaniy merosi va migratsiya dinamikasini o‘rganish vohaning umumiy tarixiy manzarasini to‘liq tasavvur etishga yordam beradi.

Jizzax vohasi o‘ziga xos geografik joylashuvi, qulay iqlimi o‘troq va yarim o‘troq aholining muqim yashab qolishi, xo‘jalik yuritishi uchun barcha tabiy sharoitlarni yaratgan, hududda qishloq xo‘jaligi, chorvachilik doimiy va mavsumiy tarzda rivojlanib borgan

hamda ko‘chmanchi chorvachilikning o‘troq dehqonchilik xo‘jaligi bilan mushtarak rivojlantirish imkoniyati ko‘plab etnik guruhlarni bu joyga ko‘chib kelib o‘rnashishlariga sabab bo‘lgan.

Dunyoda hech bir millat yagona bir urug‘ yoki qabiladan tashkil topagandek o‘zbek xalqi ham bundan mustosno emas. Bizgacha yetib kelgan, yozma manbalarga qaraganda o‘zbek elati dastlab 24, so‘ngra 32, pirovardida 92 toifaga bo‘lingan [2.53-b.]. Xususan XVII asrda ijod qilgan o‘zbek mumtoz adabiyoti yirik namoyondasi Turdi Farog‘iy ushbu urug‘larni birlika inoqlika chorlab shunday deydi:

Tor ko‘ngullik beklar, manman demang, kenglik qiling,

To‘qson ikki bo‘li (qarindosh) o‘zbek yurtidur, tenglik qiling.

Birni qipchoqu xitoyu birni yuz, nayman demang,

Qirqu yuz, ming son bo‘lub, bir xon oyinlik qiling [3, 4-b.]

Turkiy xalqlarning Markaziy Osiyoga so‘ngi eng yirik migratsiyasi (lotincha: migratio — ko‘chaman, joyimni o‘zgartiraman) XVI-asrda Shoybonixon boshchiligida Dashti Qipchoq o‘zbeklari tomonidan amalga oshirilgan va buning natijasida Markaziy Osiyo xalqlarning etnik rang-barangligi oshib borgan.

1885 yilgi rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra Jizzax rayonida o‘zbekl urug‘largiga mansub masub aholi quydagicha bo‘lgan 15 754 ta xonadon yoki kibi (ko‘chma uy)ga ega bo‘lganlar: qirq — 3 194 xonadon, qang‘li — 594, saliq — 1 775, turkman — 1 348, turk — 812, nayman — 755, mang‘it — 960, qitay-yuz — 1 228, sulakli — 664, tuyakli — 578 xonadon, va har biri 500 xonadondan yoki kibidan iborat bo‘lgan quyidagi urug‘lar: allacha, burqut, sergali, baymoqli, jelayir, qirg‘iz, yuz, quyan-quyaqli, parche-yuz, qaraqcha, qushchi, uraqli, tuqchari, koshtamg‘ali, saroy, qandjig‘ali. [4, 425-b.]

Jizzax vohasida 92 o‘zbek qabilalarining deyarli hammasidan vakillar uchratishimiz mumkin. Jizzax vohasining janubiy hududlari — Turkiston tizmasi, Morg‘uzar va Nurota tog‘ etaklari, Sangzor daryosining o‘zanida, shunindek XX asrning 70-yillarida Mirzacho‘l hududini o‘zlashtirish jarayonlari natijasida qirq urug‘iga mansub aholining bir qismi yangi tashkil etilgan tumanlar va aholi punktlariga joylashuvni ko‘rishimiz mumkin. Mazkur hududlarning tabiiy-geografik sharoiti, suv manbalari va yaylov-dehqonchilik imkoniyatlarining qulayligi urug‘ining ushbu hududlarda o‘rnashishiga asosiy omil bo‘lgan.

Tilshunos olim X.Doniyorovning fikricha, qirq qabilasi, yuz, ming qabilalari kabi siyosiy uyushma deb atash haqiqatga yaqindir. Qirq 6 ta katta urug‘ga bo‘linadi: qora–quyli, qoracha, monton, mulkush, chaparashli va cho‘rtkesar. Har bir urug‘ ham yana mayda bo‘g‘inlarga bo‘linadi: boylar to‘pi, kavush to‘pi, oyuv (ayiq to‘pi), beklar to‘pi[5.86]. Shuningdek, etnograf V.Radlov o‘zining «O‘rta Osiyoning o‘troq turkiy qabilalari haqida» asarida qirq urug‘i lafak, qoraqo‘yli, qoracha, kaltay, chubar bo‘g‘inlariga bo‘linishini [6, 102-b] ta’kidlaydi.

Podsho Rassiyasi etnografilari N. I. Veselovskiy - P. I. Lerx qirqlarni yuz bilan birga qo‘shib qirq-yuz deb ataydi Qirqlarga, Qora qo‘yli, Qaracha, Qora sirak, Chaparashli. Yuzlarga Qarancha, Tig‘irak, Parcha jus, Quyon quloqli (quyon quloqli), Tuyakli (tuyoq egalari), Sirg‘ali, Erg‘anakli, Solaqli, Xon xo‘ja xitoyzi, Hoji xitoyzi.kabi shohobchalarga bo‘linishi takidlab o tiladi [7, 47-b].

M.Virskiy tadqiqotlarida qirqlar beshta bo‘g‘inga bo‘linib, ularning eng kattasi qoracha va eng kichigi kaltay bo‘g‘inlari bo‘lganligini keltiradi. Agarda qoracha bo‘g‘ini tarkibiga kiruvchi kishilar Balxi, Yangiqishloq, Chaulaq, Zambar, Zautash, Mulla Abdukarim, Zulfiqor, Uzunbuloq, Shatraqo‘tan, Avliyo qishloqlarida yashagan bo‘lsa, kaltaylar faqatgina o‘z bo‘g‘ini nomi bilan ataluvchi qishloqda istiqomat qilgan. Kaltay bo‘g‘inining umumiy soni 182 tani tashkil etgan bir vaqtda qoracha etnik guruhining jami miqdori 1799 ta bo‘lgan. Shuningdek, Yangi Qo‘rg‘on volostining Qoraqo‘yli, Gaday, Qoraqishloq, Udumali qishloqlarida yashagan qoraqo‘yli etnik guruhi tarkibiga kiruvchi kishilar ham ko‘pchilikni tashkil etib, ularning umumiy soni 1157 taga yetgan. Aksincha, qirq urug‘ining lafak bo‘g‘ini aholisi miqdori boshqa bo‘g‘inlarga qaraganda kamchilikni tashkil etib, ular jami 191 kishidan iborat bo‘lgan. XX asr boshlarida ularni faqatgina Lafak qishlog‘ida uchratish mumkin bo‘lgan. Mazkur davrda 289 erkak va 216 ayoldan (jami 505 kishi) iborat bo‘lgan qirq urug‘ining chubar bo‘g‘ini Chubar va Toqli qishloqlarida istiqomat qilgan. Shu bilan birgalikda, N.Virskiy hech qanday bo‘g‘inga bo‘linmagan va Qirq urug‘i nomi bilan

yuritilgan etnik guruh to‘g‘risida ham ma’lumot keltirib o‘tadi. Ushbu guruh Yangi Qo‘rg‘on volostining O‘ymaut, Xo‘jabuloq, Baxmal, Chillimozor, Kuchum, Almasuvan, O‘rta, Gulqishloq, Sug‘unboy, Yavang va Obiz qishloqlarini o‘zlariga makon qilgan[8, 11-b.].

Arxiv materiallari tahlili shuni ko‘rsatadiki, XX asr boshlarida Jizzax uezdida istiqomat qilgan qirq urug‘i asosan O‘zbek va Sauryuk volostlari hududida joylashgan bo‘lib, uning Olma-suvon va arishli, jizak-qirq, Ko‘za-bosh, Oq-tenga, bay-to‘bi va chajalak, Ko‘sa, Qora-qo‘yli, kalta, qora, mulla-to‘bi, o‘damalik, xisari, chibor, Qoracha, Balxi, jag‘achakli, ko‘sa, kutichakli, cho‘loq, o‘ta-sori, moltob, beglar-to‘bi, jarg‘oq, tangri-berdi, chalbor, chor-kundi kabi urug‘lari Qirqqishloq, Mo‘g‘ol, Sartyuz, Oyqor, Bog‘ishamol kabi qishloqlarda, yana Sangzor vodiysidagi G‘o‘bdun, Ko‘kbuloq, Mirzabuloq va boshqa qishloqlarda, G‘allaorol tekisligidagi G‘allakor, Gulshan, Chorvador, Omongeldi, Qizilqum, Qoraobod, Eshbuloq singari bir qancha qishloqlarda joylashgan.

Voha aholisining tarkibida ko‘pchilikni tashkil etuvchi qirqlar yuqorida qayd etilgan hududlardan tashqari bugungi kunda Zomin tumanidagi Pishag‘or qishlog‘ining Morguzar tog‘iga tutash mintaqalarida va Sharof Rashidov tumanidagi bir qancha qishloqlarda yashab kelmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkunki qadimiy xalqlardan biri bo‘lgan o‘zbeklar juda ko‘p etnik guruhlardan tashkil topgan. Jizzax vohasida o‘zbek qabilalarining deyarli hammasidan vakillar uchratishimiz mumkin. Tarixiy manbalarda o‘zbeklar 92 yirik urug‘dan iborat ekanligi qayd etib o‘tilgan bo‘lib bu urug‘lar o‘z navbatida yirik shaxobchalarga, shaxobchalar yana mayda bo‘laklarga, bo‘laklar to‘plarga, to‘plar ota va sulolalarga bo‘linib ketadi. Maqolamizning xotimasida shuni alohida ta’kidlab o‘tmoqchimizki, xalqimizning etnik guruhlarini aniqlash bilan bir qatorda, uning etnik tarixini o‘rganib, yoshlarimizni ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasini bilan yoritib berish bugunning dolzarb vazifasidir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Qorayev S. Etnonimika. T.: 1979.

2. Bo‘riyev O. Usmonov M. O‘zbeklar: etnik tarixi va etnomadaniy jarayonlar - Samarqand 2008 – b-53

3. Elmurodov N. Zarafshon vohasi O‘zbek xalqi etnik guruhlari - Smarqand 2008: B. 4.

4. Н. А. Аристов. Заметки об этническом составе тюркских племен и народностей и сведения об их численности. 1896

5. Doniyorov X. O‘zbek xalqining shajara va shevalari.Toshkent: Fan, 1968. 86 b.

6. Бобобеков А. Сангзор-Зомин минтақаси аҳолисиннинг этник таркибига доир // Ўзбекистон археологияси ва этнологиясининг долзарб муаммолари. 2012. 47 б.

7. Н. И. Веселовскаго - П. И. Лерхα. Записки императорскаго Русскаго географическаго общества. по отдѣленію этнографій. с томъ шестой. С.-Петербургъ.въ типографін в. безобразова и комп. (вас. остр., 8 линія, д. № 45). 1880. Г

8. Вирский М. Очерк Яны-Курганской волости Джизакскаго уезда Самаркандской области. Справочная книжка Самаркандской области. Вып. X. Самарканд, 1912. – С. 11-12.

XALQ TABOBATIDA DORIVOR O‘SIMLIKLARDAN FOYDALANISH (SURXON VOHASI MISOLIDA)

KARIMOV YUSUFJON SHERALI O‘G‘LI

Termiz davlat universiteti Etnografiya etnologiya va antropologiya ixtisosligi tayanch doktoranti
karimovyusuf07@gmail.com

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Ushbu maqolada Sharq xalq tabobatining tarixiy ildizlari va uning zamonaviy tibbiyot tizimidagi o‘rni Surxon vohasi florasi misolida tadqiq etilgan. Maqolada vohada tabiiy holda o‘suvchi dorivor o‘simliklar, mavsumiy rang o‘tlar va o‘rmon daraxtlarining turlari tasniflanib, ularning xalq tabobatidagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, dori mavrak o‘simligining bioekologik xususiyatlari, tarkibi, undan tayyorlanadigan dorivor damlamalar retsepturasi va zamonaviy farmatsevtikada qo‘llanilishi tahlil qilingan. Tadqiqotda tabiy resurslarning cheklanganligi sharoitida dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, tog‘oldi adirlarida sun’iy plantatsiyalar tashkil etish hamda fitoterapiyada zaharli terpenoidlar bilan bog‘liq dozalash xavfsizligi masalalari ilmiy asoslab berilgan.

В данной статье исследуются исторические корни восточной народной медицины и ее роль в современной системе здравоохранения на примере флоры Сурханского оазиса. В работе классифицированы виды дикорастущих лекарственных растений, сезонных трав и лесных деревьев оазиса, а также освещено их значение в народном врачевании. Подробно проанализированы биоэкологические характеристики, химический состав шалфея лекарственного, рецептура приготовления лечебных настоев и их применение в современной фармацевтике. В исследовании научно обоснованы вопросы охраны лекарственных растений в условиях ограниченности природных ресурсов, создания культурных плантаций в предгорьях, а также проблемы безопасности дозирования в фитотерапии, связанные с наличием токсичных терпеноидов.

This article examines the historical roots of Eastern traditional medicine and its role in the modern healthcare system, using the flora of the Surkhan oasis as a case study. The paper classifies the species of wild medicinal plants, seasonal herbs, and forest trees growing in the oasis and highlights their significance in traditional healing. Furthermore, the bio-ecological characteristics and chemical composition of medicinal sage are analyzed, along with the formulation of therapeutic infusions and their applications in modern pharmaceutics. In the context of limited natural resources, the study provides a scientific rationale for the conservation of medicinal plants, the establishment of cultural plantations in foothills, and dosage safety issues in phytotherapy related to the presence of toxic terpenoids.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

Xalq tabobati, Surxon vohasi, dorivor o‘simliklar, dori mavrak, fitoterapiya, terpenoidlar, botanik tavsif, dorivor plantatsiyalar, damlama.

Народная медицина, Сурханский оазис, лекарственные растения, шалфей лекарственный, фитотерапия, терпеноиды, ботаническое описание, лекарственные плантации, настой.

Traditional medicine, Surkhan oasis, medicinal plants, medicinal sage, phytotherapy, terpenoids, botanical description, medicinal plantations, infusion.

Insoniyat sivilizatsiyasining ilk davrlaridan boshlab tabiat, xususan, o‘simliklar dunyosi kasalliklarni davolash va salomatlikni muhofaza qilishning bosh manbai bo‘lib kelgan. Sharq xalq tabobati ko‘p asrlik sinovlardan o‘tgan boy tajriba va chuqur falsafiy-tibbiy ilmlarga

tayanadi. Akademik va tarixiy manbalarda qayd etilishicha, an’anaviy xalq tabobatida qo‘llaniladigan jami dori vositalarining 70-80 foizini aynan dorivor o‘simliklar (fitoterapiya xomashyolari) tashkil etgan. Qolgan qismi esa hayvonot dunyosi mahsulotlari hamda tabiiy ma’danlar (minerallar) hisobiga qondirilgan. Bu ko‘rsatkich xalq tabobati tabiat bilan uzviy garmoniyada rivojlanganligini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda jahon sog‘liqni saqlash tizimida xalq tabobati an’analariga qaytish va undan zamonaviy farmatsevtikada unumli foydalanish global tendensiyaga aylandi. Xususan, Xitoy, Yaponiya, Vyetnam, Koreya, Laos va Malayziya kabi Osiyo mamlakatlarida xalq tabobatiga rasmiy ravishda davlat maqomi berilgan bo‘lib, u milliy tibbiyotning ajralmas qismi sifatida rivojlantirilmoqda. Masalan, bugungi kunda birgina Xitoy Xalq Respublikasida umumiy tibbiy xizmatlarning qariyb 40 foizi xalq tabiblari va an’anaviy usullar yordamida ko‘rsatilmoqda.

Shifobaxsh o‘simliklarning xalq tabobatida qo‘llanishi, uning tarkibi, qanday dardlarga davo bo‘lishi, shifobaxsh o‘simliklarni tayyorlash muddatlari, ulardan dori tayyorlash usullari va kasalliklarda qo‘llash yo‘llari haqida gapirilganda xalq tabobatida mavrak o‘tining gullari va barglaridan tayyorlangan damlamani bronxitlar, piyelit, sistit, gepatit, enterit, gastroenterit, me’da yara kasalligi davosiga ishlatilishi, stomatitlar, anginalar paytida og‘iz, tomoqni chayish uchun, teri kasalliklari va kuyuk yaralar davosiga sirtga ishlatish uchun buyurilishi xalq tabobatidagi samarali vositalardandir.

Mavrak gullaridan tayyorlangan qaynatmalardan yurak o‘ynog‘i va quvvatsizlikka davo qilish uchun foydalaniladi, mevalarini qovurib, qon aralash ichi ketayotgan bolalarga beriladi, yanchib, kukun holiga keltirilgan mevalarini moyga aralashtirib, yara va jarohatlarga ularning tezroq bitishi uchun surtiladi. Mavrak o‘ti xushbo‘y, ishtahani ochadigan vosita tariqasida, shuningdek, buyrak kasalliklari va isitma mahalida, jinsiy funksiyasi pasaygan vaqtlarda ham buyuriladi.

Zamonaviy tabobatda mavrakdan tayyorlangan galen preparatlardan og‘iz bo‘shlig‘i, burun-halqum va yuqori nafas yo‘llarining yallig‘lanish kasalliklari davosiga buyuriladi. Bundan tashqari, mavrak terlashni kamaytiradi, shuning uchun odam hadeb terlayveradigan mahallarda, klimakterik davrda qo‘llaniladi. Bu o‘simlikning dori mavrak deb ataladigan turi burishtiradigan, qon to‘xtatadigan va yallig‘lanishlarga qarshi ta’sir qiladigan vosita tariqasida, shuningdek gipertoniya kasalligi, titroq falaj mahalida, markaziy nerv sistemasini tinchlantiradigan dori sifatida ham ishlatiladi.

Bunda mavrak barglaridan 10 g (2 osh qoshiq) miqdorida olib, sirlangan idishga solinadi-da, ustiga 200 ml qaynab turgan suv quyilib, idishi bilan qaynab turgan suvga 15 minut solib qo‘yiladi, keyin undan olib, uy haroratida kamida 15 minut sovutiladi, yaxshilab suzib olib, bu damlama ustiga hajmi 200 ml ga kelguncha qaynagan suv quyiladi. Uni og‘iz va tomoqni chayish uchun ishlatiladi.

Shuningdek, 10 g dan mavrak barglari, arpabodiyon urug‘i va qarag‘ay kurtaklari, 20 g dan altay ildizi bilan chuchuk miya ildizini olib, ustiga qaynab turgan 1 stakan suv quyiladi-da, 30-40 daqiqa damlab qo‘yiladi, keyin suzib olinadi va bronxoektaktik kasallikda bu damlamani kun bo‘yi uch qismga bo‘lib ichiladi.

To‘g‘ralgan mavrak o‘ti va barglaridan 2 choy qoshiq miqdorida olib, ustiga qaynab turgan 2 stakan suv solinadi-da, bir oz damlab qo‘yib, suzib olinadi. Bu damlamani iliq holida har 2-3 soatda 1 osh qoshiqdan ichiladi. Uni og‘izni chayish uchun ishlatsa ham bo‘ladi.

3 hissadan limon o‘ti, qichitqi o‘t va 1 hissa mavrak (shalfey) o‘tlari olinib, yaxshilab aralashtiriladi. Keyin undan 1 choy qoshiq olib, termosga solinadi. Ustiga yarim litr qaynoq suv qo‘shiladi, keyin 3 soat davomida dam beriladi. So‘ng damlamani suzib, 2 choy qoshiq asal qo‘shiladi-da, har kuni nonushtadan keyin yarim piyoladan – 100 ml dan ichib turiladi.

Ushbu shifobaxsh o‘simlikning bo‘yi 80 sm gacha (ba’zan 100 smgacha) yetadigan buta. Ildizi baquvvat, yog‘ochlangan, 4-tartibgacha tarmoqlangan, sertarmoq, ildizining asosiy qismi tuproqning 10-15 sm qatlamida joylashgan, 60 sm chuqurlikkacha yetib boradi. Poyalari to‘rt qirrali, quyi qismi yog‘ochlangan, kulrang tusda, yuqori qismi tukli, yashil. Barglari qarama-qarshi joylashgan, uzunchoq, bandli, mayda kungurali, uzunligi 2-8, kengligi 0, 8-2, 5 sm,

burishgan, tukli, kulrang-yashil. To‘pguli – poyaning eng yuqori qismidagi boshoqsimon qismdir, u yakka yoki shoxlangan, soxta halqalardan tarkib topgan. Gullari ikki labli, ko‘k-binafsharang. Mevasi 4 dona yong‘oqchadan iborat. Urug‘lari kurrasimon bo‘lib, kattaligi 2, 2-3 mm. 1000 dona urug‘ vazni 7-8 gr.

Shuni ham aytish kerakki, xalq tabobatida mavjud bilimlardan xabardor bo‘lib, o‘z kasbining ustasi shug‘ullangani ma’qul. Shamollagan paytda malina murabbosi yoki limon solingan choy ichishlarini, radikulitda bellariga issiqqina ro‘mol o‘rab olishlarini tushunsa bo‘ladi. SHuningdek, oddiy shamollashdan saraton kasalligigacha har bir dardning 90 foizi psixosomatik tabiatga ega. Agar onkologik xastalikka chalingan bemor kimyoterapiya o‘rniga xalq tabobatidagi retseptlar bo‘yicha tayyorlangan damlamalarni iste’mol qilsa, qimmatli vaqt qo‘ldan boy beriladi. Biroq, onkologik kasalliklarni davolashda o‘simlik vositalarini qo‘llash qo‘shimcha terapiya sifatida, shuningdek, albatta shifokor tavsiyasi va kuzatuvi asosida amalga oshirilish sharti bilan muvaffaqiyat qozoniladi. Turli xalqona usullar yordamida davolashlarning to‘g‘ri kelmasligini ko‘rsatuvchi belgilar bo‘ladi. Biror o‘tning miqdorini oshirib, iste’moli uzoq davom ettirilsa, salomatlikka zarar yetkazishi mumkin. Masalan, jigarni tozalashda qo‘llaniladigan shuvoq yoki shamollash jarayonlariga qarshi yaxshi vosita hisoblanuvchi mavrak *(shalfey)* da sal miqdor oshirilsa, zaharli xususiyatini namoyon etuvchi terpenoidlar mavjud.

Surxon vohasida o‘simliklardan shuvoq, yantoq, kovul, gulxayri, qashqa yo‘ng‘ichqa, bug‘doyiq, chalov, gulsapsar, qo‘ziquloq, chirich (shirach), sutlama karrak, latta karrak, sigir quyruq, dastarbosh, qirqbug‘in, kampirchapon, kovrak, andiz, kiyik o‘t, bo‘yi modaron va boshqalar, mavsumiy rang o‘tlardan no‘xatak, chuchmoma, shivit, cho‘chqa piyoz (anzur piyoz), qo‘ng‘irbosh, qoqigul, qo‘yon, takasaqol, ismaloq, tortmoq, g‘ozoyoq, pechak, qo‘zigul va maysa o‘tlarning o‘nlab turlari; o‘rmon daraxtlaridan archa, do‘lana, zarang, uchqat, irg‘ay, namatak, chiya, yovvoyi bodom, pista, olmurut, bodomcha va boshqa ko‘plab dorivor giyohlar o‘sadi.

Xalq tabobatining ko‘p asrlik tajribalari va Surxon vohasining o‘ziga xos tabiiy florasi asosida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy tibbiyot an’analariga ilmiy asoslangan holda yondashish va fitoterapiyani zamonaviy tibbiyot tizimiga samarali qo‘shimcha (komplementar) terapiya sifatida integratsiya qilish bugungi kunning global tendensiyasidir. Surxondaryo viloyatining cho‘l, adirlik va tog‘oldi ekotizimlarida tabiiy holda o‘suvchi ko‘p yillik dorivor va mavsumiy rang o‘tlar (shuvoq, yantoq, kovrak, kiyik o‘ti, andiz), shuningdek, o‘rmon daraxt va butalari (archa, do‘lana, namatak) mahalliy farmatsevtika sanoati uchun ulkan xomashyo manbai hisoblanadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR:

1. Халқ табобати // https://muslimaat.uz/maqola/1227

2. Каримов В.А., Шомаҳмудов А. Халқ табобати ва замонавий илми тибда қўлланиладиган шифобахш ўсимликлар. — Тошкент, Ибн Сино номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси. 1993. – Б. 117-118

3. Халқ табобатида иммунитетни оширишда доривор ўсимликлар ҳам яхши ёрдам беради // https://uzpharmagency.uz/uz/news/xalq-tabobatida-immunitetni-oshirishda-dorivor-osimliklar-ham-yaxshi-yordam-beradi

4. Доривор маврак – шалфей лекарственный – salvia officinalis l. //https://urmon.uz/uz/10032/

5. Халқ табобати усуллари борасида афсона ва ҳақиқатлар //https://darakchi.uz/uz/28066

6. Ҳамроев М. Тибби ётми? Табобатми? // Шарқ табобати. – 2009. – № 3. – Б. 19.

7. Мўминова Г. Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш тизими тарихи (1917–1991 йиллар). – Тошкент: Yangi nashr. – Б. 265.

XIX ASR OXIRI — XX ASR BOSHLARIDA SURXON VOHASI AHOLISINING ETNIK TARKIBI VA JOYLASHUVI XUSUSIYATLARIGA DOIR

TOSHTEMIROV SHAHBOZ AZAMAT O‘G‘LI

Termiz davlat universiteti Etnografiya etnologiya va antropologiya ixtisosligi tayanch doktoranti

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Ushbu maqolada XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Surxon vohasi hududida istiqomat qilgan aholining etnik tarkibi, urug‘-aymoqchilik tuzilishi va ularning hududiy joylashuv xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda 1924–1926-yillardagi rasmiy arxiv materiallari, O‘rta Osiyoni rayonlashtirish komissiyasi hujjatlari hamda nufuzli tarixchi-etnograflarning ilmiy xulosalari qiyosiy o‘rganilgan.

В данной статье анализируются этнический состав, родоплеменная структура и особенности расселения населения, проживавшего на территории Сурхандарьинского оазиса в конце XIX — начале XX веков. В исследовании сравнительно изучены официальные архивные материалы 1924–1926 гг., документы Комиссии по районированию Средней Азии и научные выводы авторитетных историков-этнографов.

This article analyzes the ethnic composition, tribal structure, and settlement patterns of the population living in the Surkhan oasis at the end of the 19th and beginning of the 20th centuries. The study provides a comparative analysis of official archival materials from 1924–1926, documents of the Commission for the Zoning of Central Asia, and scientific conclusions of prominent historians and ethnographers.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

Surxon vohasi, Janubiy Surxondaryo, etnik tarkib, chig‘atoylar, turkmanlar, tog‘chilar, xo‘jalar, qatag‘on.

Сурхандарьинский оазис, Южный Сурхандарья, этнический состав, чигатаи, туркмены, тогчи, ходжи, катаганы.

Surkhan oasis, Southern Surkhandarya, ethnic composition, Chigatays, Turkmens, Togchis, Khojas, Katagans.

Har bir hududning tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti o‘sha hududda istiqomat qilgan aholining etnik tarkibi, ularning shakllanish jarayonlari hamda joylashuv tabiati bilan uzviy bog‘liqdir. Markaziy Osiyoning qadimiy va o‘ziga xos madaniyat o‘choqlaridan biri bo‘lgan Surxon vohasi o‘zining murakkab va rang-barang etnodemografik manzarasi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, XIX asrning oxiri va XX asrning boshlari — mintaqada yirik geosiyosiy o‘zgarishlar, Buxoro amirligining inqirozi va keyinchalik sovet hokimiyatining o‘rnatilishi hamda milliy-hududiy chegaralanish jarayonlari sodir bo‘lgan muhim davr hisoblanadi. Ushbu o‘tish davrida vohadagi turli etnik guruhlar, qabilaviy urug‘lar va ijtimoiy-diniy qatlamlarning joylashuv geografiyasini ilmiy asosda qayta ko‘rib chiqish, mintaqaning haqiqiy demografik tarixini tiklashda g‘oyat dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mavjud arxiv hujjatlari, xususan 1924-yilgi O‘rta Osiyoni rayonlashtirish komissiyasi materiallari va 1926-yilgi aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlari tahlili XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Janubiy Surxondaryo etnik qiyofasiga oid quyidagi aniq statistik va geografik ko‘rsatkichlarni aniqlash imkonini berdi.

1924-yilgi statistikaga ko‘ra, tadqiq etilayotgan hududda o‘zbek chig‘atoylari jami o‘zbek aholisining 10,5 foizini (4 787 kishi) tashkil etgan. Ulardan 2 127 nafari (7,7%) Boysun bekligida, 2 660 nafari (11,7%) esa Sherobod bekligida istiqomat qilgan. Joylashuv

tabiati asosan Sherobod daryosining yuqori oqimi, Poshxo‘rd, Sherobod vodiylari, Amudaryo va Surxondaryo sohillari hamda Termiz atroflariga to‘g‘ri kelgan.

1926-yilgi ro‘yxatga olish jarayonida Janubiy Surxon vohasida 12 ta turkman qishlog‘i mavjudligi muhrlangan. Ushbu hududda jami 3 825 nafar turkman yashagan bo‘lib, ularning urug‘iy tarkibi quyidagicha taqsimlangan: 1 620 kishi (42,3%) shix urug‘iga, 1 190 kishi (31,1%) sariq urug‘iga va 1 015 kishi (26,5%) ersari urug‘iga mansub bo‘lgan.

1924-yilgi rayonlashtirish hujjatlarida "tog‘chilar" (toqchilar, taxchilar) alohida etnik guruh sifatida qayd etilmagan. Buning o‘rniga ular ma’muriy jihatdan 5 605 kishidan iborat qatag‘on urug‘i tarkibiga kiritib yuborilgan.

1924-yilgi rasmiy ma’lumotlarda xo‘jalarning asosan ikki hududda to‘plangani ko‘rsatilgan: Poshxo‘rd atroflarida 1 110 kishi (ayniqsa Zarabog‘, Qorabog‘ va Poshxo‘rd qishloqlarida) hamda Surxondaryo bo‘yidagi Qumqo‘rg‘onda 220 ta xo‘jalik (oila). Biroq, xuddi shu hujjatlarda Termiz atrofidagi Salliobod, Boysunning Omonxona, Xomkon va Pasurxi qishloqlaridagi xo‘jalar hisobga olinmagan.

Olingan natijalar XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Surxon vohasidagi etnodemografik jarayonlarning bir qancha o‘ziga xos qonuniyatlari ва kamchiliklarini ochib beradi. O‘zbek chig‘atoylarining voha o‘zbeklari tarkibida salmoqli ulushga (10,5%) ega bo‘lganligi va ularning muqim daryo bo‘ylari hamda unumdor vodiylarda (Sherobod, Poshxo‘rd, Termiz atrofi) joylashishi ularning qadimiy o‘tiroq dehqonchilik madaniyatiga ega bo‘lganligidan dalolat beradi. Bu holat B.X. Karmisheva tadqiqotlaridagi chig‘atoylar Janubiy O‘zbekistonning eng qadimiy qatlamlaridan biri ekanligi haqidagi xulosalarni tasdiqlaydi.

Turkmanlarning shix, sariq va ersari urug‘lari asosan Amudaryo sohillarida, aniqrog‘i Sherobod bekligi hududida to‘plangan. Bu hududiy sotsium geografik muhit (chorvachilik va qisman daryo bo‘yi dehqonchiligi) bilan bog‘liq bo‘lib, ularning etnik guruh sifatida o‘z urug‘-aymoqchilik izolyatsiyasini va 12 ta sof turkman qishlog‘i ko‘rinishidagi demografik yaxlitligini saqlab qolishiga xizmat qilgan.

Tog‘chilar (toqchilar) asli kelib chiqishi jihatidan Dashtiqipchoq o‘zbeklari kelishidan ancha avval ham ushbu tog‘li hududlarda yashagan avtoxton (mahalliy) aholi hisoblanadi. Biroq, 1924-yilgi sovet so‘rovnomalarida ularning qatag‘onlar tarkibiga qo‘shib yuborilishi o‘sha davr ma’murlarining etnik guruhlar klassifikatsiyasini chuqur tushunmaganligini ko‘rsatadi. Tog‘chilarning o‘zlari ham ma’lum ijtimoiy-siyosiy himoya yoki nufuz ilinjida o‘zlarini kuchliroq bo‘lgan Dashtiqipchoq o‘zbek urug‘lariga (qatag‘onlarga) mansub deb ko‘rsatishga moyil bo‘lganlar.

1924-yilgi ma’lumotlarda Salliobod, Omonxona, Xomkon va Pasurxi qishloqlaridagi xo‘jalarning umuman qayd etilmaganligi o‘sha davrdagi ro‘yxatga olish tizimining mukammal emasligini ko‘rsatadi. Professor A.A. Semyonovning "Termiz sayyidlari" va ularning Sulton Saodat ziyoratgohi atrofidagi asriy ildizlari haqidagi tadqiqotlari, shuningdek, keyingi dala-etnografik kuzatishlar bu qishloqlarda xo‘jalarning azaldan yashab kelganini tasdiqlaydi. Demak, 1920-yillardagi rasmiy statistika vohaning real diniy-ijtimoiy va etnik manzarasini to‘liq aks ettira olmagan, ma’lum ma’noda mafkuraviy yoki texnik sabablarga ko‘ra diniy qatlamlar (xo‘jalar, sayyidlar) hisobotlardan chetda qoldirilgan bo‘lishi mumkin.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR:

1. Материалы по районированию Средней Азии. Кн.1. Территория и населения Бухары и Хорезма. Ч.1. Буха ра. - С. 148.
2. Материалы по районированию Средней Азии. Кн.1. Территория и населения Бухары и Хорезма. Ч.2. Буха ра. - С. 237-238.
3. Қаранг: Бўриев О. Пурвиқор тоғларда яшаган қавм // Марказий Осиё маданияти, 2004 йил, 1 январь.

4. Кармышева. Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. - С. 196-197.
5. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. - С. 69.
6. Семёнов А.А. Происхождения Термезских сеидов и их древняя усипальница "Султан Садат" // ПТКЛА. Т.XVIII. 1914. - С.342; Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбе кистана. - С. 69.

JANUBIY O‘ZBEKISTON AHOLISI OILA VA NIKOH MUNOSABATLARINING SOVET DAVRI TARIXSHUNOSLIGIDA YORITILISHI

HAMRAYEV JALOLIDDIN AMIRQUL O‘G‘LI

Termiz davlat universiteti Etnografiya etnologiya va antropologiya ixtisosligi tayanch doktoranti

Annotatsiya / Аннотация / Abstract
Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asrda Janubiy O‘zbekiston (Surxondaryo va Qashqadaryo vohalari) aholisining an’anaviy oila shakllari, ichki munosabatlari va nikoh an’analarining sovet davri tarixshunosligi hamda etnografiyasida yoritilishi tahlil qilingan. Tadqiqotda tarixiylik, xolislik va qiyosiy-tarixiy metodlardan foydalanilgan holda, L.P. Potapov, N.A. Kislyakov, K.L. Zadixina kabi yetakchi olimlarning ilmiy merosi manbaviy ko‘rib chiqilgan.
В данной статье анализируется освещение в советской историографии и этнографии традиционных форм семьи, внутренних отношений и брачных традиций населения Южного Узбекистана (Сурхандарьинский и Кашкадарьинский оазисы) в конце XIX – XX веках. С использованием методов историзма, объективности и сравнительно-исторического анализа осуществлен источниковедческий обзор научного наследия таких ведущих ученых, как Л.П. Потапов, Н.А. Кисляков, К.Л. Задыхина.
This article analyzes the coverage of traditional family forms, internal relations, and marriage traditions of the population of Southern Uzbekistan (Surkhandarya and Kashkadarya oases) in the late 19th and 20th centuries within Soviet period historiography and ethnography. Utilizing methods of historicism, objectivity, and comparative-historical analysis, the paper reviews the source-based scientific heritage of prominent scholars such as L.P. Potapov, N.A. Kislyakov, and K.L. Zadykhina.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords
Janubiy O‘zbekiston, sovet davri tarixshunosligi, etnografiya, katta patriarxal oila, kichik oila, endogamiya, ekzogamiya.
Южный Узбекистан, советская историография, этнография, большая патриархальная семья, малая семья, эндогамия, экзогамия.
Southern Uzbekistan, Soviet historiography, ethnography, large patriarchal family, nuclear family, endogamy, exogamy.

Oila va oilaviy munosabatlar tizimi har qanday jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy poydevori, madaniy-ma’naviy qiyofasi hamda etnik o‘ziga xosligini belgilab beruvchi universal institut hisoblanadi. Tarixiy taraqqiyot zanjirida oilaning transformatsiyalashuvi, an’anaviy tuzilmalarning o‘zgarishi va nikoh munosabatlaridagi dinamika jamiyatda kechayotgan global modernizatsiya jarayonlarining bevosita in’ikosidir. O‘zbekistonning janubiy hududlari — Surxondaryo va Qashqadaryo vohalari o‘zining etnolokal tabiati, murakkab etnik tarkibi, urug‘-qabilachilik munosabatlarining elementlari va

an’anaviy turmush tarzi uzoq vaqt saqlanib qolganligi bilan tarixiy-etnografik jihatdan alohida ajralib turadi.

XX asr sovet davri tarix fani va etnografiyasida o‘zbek xalqining, xususan, janubiy voha aholisining oilaviy-maishiy hayotini o‘rganishga jiddiy e’tibor qaratildi. Mazkur davrda amalga oshirilgan tadqiqotlar o‘zining boy empirik ma’lumotlar bazasi, dala-etnografik materiallari va arxiv manbalari bilan qimmatlidir. Biroq, sovet davri tarixshunosligida oila va nikoh munosabatlarining o‘rganilishi ma’lum darajada hukmron mafkuraning "sinfiy yondashuv", "feodal-patriarxal qoldiqlar barham topishi" va "yagona sovet xalqi shakllanishi" kabi siyosiy-g‘oyaviy qoliplari ta’sirida yoritildi. Bugungi kunda mustaqil O‘zbekiston tarixshunosligi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — sovet davrida to‘plangan ulkan ilmiy merosni g‘oyaviy tazyiqlardan xoli tarzda, xolislik (obyektivlik) prinsiplari asosida qayta tahlil qilish va voha oilasi tarixining haqiqiy munosabatlar manzarasini tiklashdan iboratdir. Ushbu omillar tanlangan mavzuning ilmiy va amaliy jihatdan g‘oyat dolzarb ekanligini belgilaydi.

XX asr sovet davri tadqiqotlarida e’tibor qaratilgan masalalardan yana biri bu – oilaning shakli va oilaviy munosabatlar masalasi hisoblanadi. XIX asr oxiri – XX asrda O‘zbekiston hududida eng ko‘p tarqalgan oila shakli ikki xil: katta patriarxal va kichik alohida oila hisoblangan. Bu oilalarning tuzilishi, oiladagi a’zolar soni, a’zolar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar to‘g‘risida L.P.Potapov, M.V.Sazonova, K.L.Zadixina, O.A.Suxareva, M.A.Bikjanova, Q.Kubakov, N.A.Kislyakov, N.G.Borozna va boshqalarning tadqiqotlarida alohida o‘rin ajratilgan. Ular orasida asosan L.P.Potapov, K.L.Zadixina, N.A.Kislyakov, Q.Kubakov va N.G.Borozna tadqiqotlarida janubiy voha aholisi oilaviy munosabatlariga oid to‘liqroq ma’lumot beriladi. Qolgan tadqiqotlarda O‘zbekistonning boshqa hududlari aholisi oila va oilaviy marosimlari yoritilgan bo‘lib, qiyosiy tahlil uchun foydali hisoblanadi.

Misol uchun, L.P.Potapovning maqolasida O‘zbekistonning janubiy hududlari aholisining etnik xususiyatlari, an’anaviy marosimlari va oilaviy tuzilishiga oid ma’lumotlar keltiriladi[1]. Maqolada asosiy o‘rin qo‘ng‘irot urug‘idagi oilaviy tuzilishga ajratilgan bo‘lib, oila boshlig‘i, uning mavqei, oila a’zolari va ularning o‘rni hamda egallaydigan darajalari to‘g‘risida tavsifiy ma’lumotlar keltiriladi.

O.A.Suxareva va M.A.Bikjanova bergan ma’lumotlarga ko‘ra “katta patriarxal oila” tarkibiga 50–60 nafardan 100 nafargacha a’zolar kirishi mumkin bo‘lgan[2]. Kichik oilalar esa asosan shahar markazlarida ko‘proq uchrab, er-xotin va uning farzandlaridan tarkib topgan. Agarda bu oila tarkibida er-xotinning ota-onasi ham bo‘lsa, bu shakldagi oila turi “bo‘linmas oila” deb nomlanib, uch avlod vakillarini birlashtirgan[3]. Tadqiqotchilorning ma’lumotlaridan sovet davrida oila va uning tuzilishida o‘zgarishlar yuz berganini, katta oilalar faqatgina markazdan uzoqda bo‘lgani, qishloq, tog‘ va tog‘ oldi mintaqalarida saqlanib qolganini, urbanizatsiya natijasida kichik va bo‘linmas oilalarning soni ortganini kuzatish mumkin.

N.A.Kislyakov tadqiqotlari davomida Surxondaryo vohasida yashovchi sayrob tojiklarining oilaviy munosabatlari, urf-odat va marosimlari, turar joy va taomlari vohada yashaydigan o‘zbeklar bilan yaqin ekanligini ta’kidlaydi[4].

Q.Kubakov Qashqadaryoning yuqori qismida yashovchi o‘zbeklarning oila-nikoh munosabatlari, odat va marosimlariga oid olib borgan etnografik tadqiqotlarida katta oila – “katta qozon” yoki “qora qozon” haqida ma’lumot beradi[5]. Surxondaryoda yashovchi yarim ko‘chmanchi do‘rmon o‘zbeklarining oila shakllarini o‘rgangan N.G.Borozna XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yarim ko‘chmanchi do‘rmonlarda ham katta oila mavjud bo‘lganligi hamda katta oilaning miqdori, uning iqtisodiy asosi, tarkibi, turar joyi, oila ichidagi munosabatlar haqida qisqacha ma’lumot bergan[6].

Oila tuzilishi va tarkibidan tashqari, janubiy voha aholisining to‘y va motam marosimlari bilan bog‘liq etnografik ma’lumotlar ham sovet davri tadqiqotchilari tomonidan qisman bo‘lsa-da, o‘rganilgan. Masalan, tadqiqotchi K.L.Zadixina Qashqadaryo o‘zbek o‘zlarining to‘y va dafn marosimlari haqida ma’lumotlar keltiradi. Unga ko‘ra, o‘zlar (yoki “uz”) asosan

endogam nikohni afzal ko‘rib, o‘z guruh a’zolari yoki boshqa o‘zlar bilan aloqa bog‘laydi. To‘y marosimlariga mehmon chaqirish ham shu tartibda amalga oshiriladi. Bundan tashqari, tadqiqotchi voha arablari o‘rtasidagi nikoh munosabatlari haqida ma’lumot berib, “... avvallari arablar xo‘ja qizlarga uylangan bo‘lsalar-da, xo‘jalarga arab qizlari turmushga berilmagan. Hatto, arablarning bavora urug‘i yigitlari faqat arablarning auvana urug‘idan qiz olishgan va boshqa urug‘lar bilan nikohda bo‘lish ta’qiqlangan”. XX asrning 60-yillariga kelib nikoh qurishdagi bu kabi holatlar o‘z ahamiyatini yo‘qotganligini o‘rinli qayd etadi[7].

Matnda keltirilgan faktik materiallar tahlili shuni ko‘rsatadiki, nikoh qurishdagi an’anaviy, qat’iy qoliplar XX asr o‘rtalariga kelib astalik bilan o‘zgargan. Bu kabi holatlar nafaqat janubiy voha etnoslari, balki butun O‘zbekiston bo‘yicha kuzatilganini, endogam nikohning o‘rnini ekzogam nikoh tobora ko‘proq egallaganini, urug‘lar o‘rtasidagi nikohdan tashqari turli etnoslar o‘rtasidagi “aralash” nikohlar soni XX asrning 60–70-yillaridan ko‘payganini e’tirof etish lozim. Bu holat o‘sha vaqtda sovet davlatining ma’naviy va madaniy sohadagi “xalqlar o‘rtasidagi tafovutni yo‘qotish va yagona sovet odamini yaratish”ga qaratilgan islohotlarining natijasi ekanligini unutmaslik kerak.

Biroq, tarixshunoslik nuqtayi nazaridan yondashilsa, oila shakllarining kichrayishi va urug‘chilik cheklovlarining parchalanishi faqat mafkuraviy islohotlar mevasi bo‘lmay, sanoatlashuv, urbanizatsiya hamda an’anaviy xo‘jalik yuritish tizimlarining modernizatsiyalashuvi natijasida yuzaga kelgan tabiiy-tarixiy jarayon ham edi. Sovet etnograflari to‘plagan yirik empirik dala materiallari ushbu tabiiy jarayonlarni marksistik-leninchilik metodologiyasi asosida, ya’ni "feodalizm illatlarini yengish" prizmasida yoritishga majbur bo‘lganlar.

Xulosa qilib aytganda, XX asr sovet davri tarixshunosligi Janubiy O‘zbekiston aholisi oilaviy munosabatlarini o‘rganishda boy factual materiallar bazasini yaratdi, biroq ularni umumlashtirishda "marksistik-leninchilik" dogmalaridan chiqib keta olmadi. Zamonaviy O‘zbekiston tarix fani oldidagi vazifa — ushbu tadqiqotlarda keltirilgan boy empirik ma’lumotlarni saqlab qolgan holda, ulardagi sun’iy ravishda kiritilgan siyosiy-mafkuraviy xulosalarni rad etish va voha aholisining oilaviy-nikoh munosabatlarini milliy qadriyatlar va tabiiy-tarixiy taraqqiyot prizmasi orqali qayta baholashdan iboratdir.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR:

1. Потапов Л.П. Материалы по семейно-родовому строю у узбеков «кунград» // Научная мысль, Ташкент – Самарканд, 1930, № 1. – С. 46.
2. Сухарева О.А., Бикжанова М.А. Прошлое и настоящее селения Айкыран. – Т., 1955. – С. 173-175.
3. Сухарева О.А., Бикжанова М.А. Ko‘rsatilgan asar. – С. 173-175.
4. Кисляков Н.А. Сайробские таджики // СЭ. – Москва: Наука, 1965, №2. – 17-27 с.
5. Кубаков К. К истории развития узбекской семьи. / Этнографические изучение быта и культуры узбеков. – Т.: Фан, 1972. – 122 с.; O‘sha muallif: Кубаков К. Этнический состав сельского населения Верхней Кашкадарьи в конце XIX – начале XX в. Автореф. кан.... ист. наук. – Т., 1973.
6. Борозна Н.Г. К вопросу о форме семьи у полукочевых узбеков (на материалах узбеков–дурменов). Семья и семейные обряды у народов Средней Азии и Казахстана. М.: Наука, 1987, –С. 41–42.
7. Задыхина К.Л. Узбеки дельты Амударьи // ТХАЭЭ. Т. I. – М., 1952. – С. 25-32.

XVIII – XX АСР БОШЛАРИДА СУРХОН ВОҲАСИ БЕКЛИКЛАРИДА МАЪМУРИЙ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ ВА ЭТНИК ҲОЛАТ

МУҲАММАДИЕВ ЗОҲИД ОДИНАМУҲАМАТ ЎҒЛИ

Термиз давлат университети стажёр-тадқиқотчиси

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Мақолада XVIII – XX аср бошларида Жанубий Сурхон воҳасининг маъмурий-ҳудудий бўлиниши, демографик ҳолати ва аҳолисининг этник таркиби тарихий-этнографик манбалар ҳамда 1924 йилги архив маълумотлари асосида таҳлил қилинган. Бухоро хонлиги (амирлиги) таркибидаги Бойсун ва Шеробод бекликларининг амлокдорликларга бўлиниш тизими, ер майдонлари ва аҳоли жойлашувининг хусусиятлари (этно-топографияси) кўриб чиқилган. Шунингдек, воҳа ўзбек аҳолисининг шаклланишидаги учта йирик тарихий-этник қатлам ва уларнинг уруғ-қабилавий тизими (чиғатой, қўнғирот, юз, дўрмон, қорлуқ ва б.) илмий асосланган ҳолда ёритилган.

В статье на основе историко-этнографических источников и архивных данных 1924 года анализируются административно-территориальное деление, демографическая ситуация и этнический состав населения Южного Сурханского оазиса в XVIII – начале XX вв. Рассматриваются система деления Байсунского и Ширабадского бекств в составе Бухарского ханства (эмирата) на амлокдорства (налогово-административные единицы), особенности земельных угодий и расселения населения (этнотопография). Также научно обоснованы три крупных историко-этнических пласта, принявших участие в формировании узбекского населения оазиса, и их родоплеменная структура (чагатаи, кунграты, юзы, дурмены, карлуки и др.).

Based on historical-ethnographic sources and archival data from 1924, this article analyzes the administrative-territorial division, demographic situation, and ethnic composition of the population in the Southern Surkhan oasis from the 18th to the early 20th centuries. It examines the subdivision system of the Boysun and Sherobod beklik domains within the Bukhara Khanate (Emirate) into amlokdorliks (tax-administrative districts), alongside the specific features of land areas and population distribution (ethno-topography). Furthermore, the paper provides a scientifically grounded exploration of the three major historical-ethnic strata involved in the formation of the oasis's Uzbek population, detailing their tribal-clan systems (Chagatai, Kungrat, Yuz, Durmen, Karluk, etc.).

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

Сурхон воҳаси, Бойсун беклиги, Шеробод беклиги, амлокдорлик, демография, аҳоли зичлиги, этногенез, Даштиқипчоқ ўзбеклари, уруғ-қабила тизими, қўнғирот.

Сурханский оазис, Байсунское бекство, Ширабадское бекство, амлокдорство, демография, плотность населения, этногенез, дештикипчакские узбеки, родоплеменная система, кунграт.

Surkhan oasis, Boysun beklik, Sherobod beklik, amlokdorlik, demography, population density, ethnogenesis, Dashti-Kipchak Uzbeks, tribal-clan system, Kungrat.

Жаҳон тарихшунослигида минтақавий этнодемографик жараёнлар, анъанавий бошқарув тизимлари ва маҳаллий субэтнос гуруҳларининг шаклланиш қонуниятларини ўрганиш муҳим йўналишлардан бири ҳисобланади. Айниқса, Марказий Осиёнинг йирик маданий-тарихий воҳаларида кечган этник трансформациялар, аҳолининг макон бўйлаб жойлашиш (этно-топография) хусусиятлари ҳамда давлатчилик тизимидаги маъмурий-ҳудудий ислоҳотларнинг ўзаро боғлиқлигини тадқиқ этиш долзарб аҳамиятга

эга. Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудлари, хусусан Сурхон воҳаси ўзининг қадимий тарихи, ўзига хос геостратегик жойлашуви ва ранг-баранг этник таркиби билан ажралиб туради.

XVIII асрдан бошлаб Сурхон воҳасининг сиёсий ва ижтимоий-иқтисодий ҳаёти Бухоро хонлигини (амирлигини) бошқарган манғитлар сулоласи даври билан чамбарчас боғлиқ ҳолда кечди. Бу даврда воҳада ўзига хос маъмурий бошқарув тизими — бекликлар ва уларнинг таркибий қисми бўлган амлокдорликлар тармоғи шаклланди. Бойсун ва Шеробод бекликлари мисолида анъанавий бошқарув тизимининг маҳаллий аҳоли турмуш тарзи, хўжалик юритиш тизими (деҳқончилик ва чорвачилик) ҳамда демографик жараёнларга кўрсатган таъсирини комплекс тадқиқ этиш воҳа тарихининг очилмаган саҳифаларини ёритишга хизмат қилади.

XVIII — XX аср бошларида Жанубий Сурхон воҳаси бекликларидаги маъмурий-ҳудудий тузилиш ва этник жараёнлар таҳлили шуни кўрсатадики, минтақада сиёсий бошқарув тизими ва этнодемографик ҳолат бир-бирини белгиловчи ўзаро узвий омиллар сифатида ривожланган. Бухоро амирлиги таркибидаги Бойсун ва Шеробод бекликларининг ташкил топиши ва уларнинг ички ижтимоий-иқтисодий ҳаёти фақатгина сиёсий ирода маҳсули бўлмай, балки ҳудуднинг ландшафт-экологик хусусиятлари ва анъанавий хўжалик юритиш тизими билан бевосита боғлиқ эди.

Бойсун ва Шеробод бекликларининг умумий 11 423 кв.км майдонида 15 та амлокдорликнинг мавжудлиги маҳаллий бошқарувнинг анча тарқоқ ва микро-воҳаларни назорат қилишга йўналтирилган характерини белгилайди. Бойсун беклигининг 10 та амлокдорликка бўлиниши ҳудуднинг тоғ ва тоғ олди рельефи, табиий сув манбалари ва воҳачаларнинг тарқоқлиги билан изоҳланади. Чунки тоғли ҳудудларда аҳоли пунктлари кичик ва бир-биридан узоқ масофада жойлашган бўлиб, солиқ тизимини назорат қилиш ва маъмурий бошқарувни таъминлаш кўпроқ амлокдорлар фаолиятини талаб этган. Манбаларда қайд этилган аҳоли зичлигининг 1 кв.км.га 8, 4 кишини ташкил этиши ва аҳолининг асосан дарё ўзанлари, тоғ олди кенгликлари ҳамда кориз тизимлари атрофида тўпланиши воҳада иқтисодий ҳаётнинг асосий манбаи сув ва суғориладиган деҳқончилик инфратузилмаси бўлганлигидан далолат беради.

Бойсун ва Шеробод бекликларининг этник таркибидаги кескин фарқлар минтақадаги этно-ландшафт адаптациясининг классик намунасидир. Демографик кўрсаткичларни қиёсий таҳлил қилганимизда, Бойсун беклигида ўзбеклар (55, 2%) ва тожиклар (44, 7%) умумий аҳолининг 99, 9 фоизини ташкил этгани ҳолда, бошқа этник гуруҳлар деярли учрамайди (0, 1%). Бу ҳолат тоғли ва тоғ олди ҳудудларида асрлар давомида шаклланган анъанавий ўтроқ деҳқончилик ва қисман яйлов чорвачилиги маданиятига эга бўлган икки халқнинг маконни тўлиқ эгаллаганини кўрсатади. Шеробод беклигида эса бутунлай бошқача манзара кузатилади: ўзбеклар 78, 7%, бироқ тожиклар атига 3, 7% ни ташкил этади. Энг эътиборли жиҳати, бу ерда туркманлар (14, 1%) ва араблар (0, 4%) каби нисбатан йирик этник компонентлар мавжуд. Бу дисбаланс Шеробод беклигининг Амударё ҳавзаси ва чўл ландшафтларига туташганлиги, сув таъминотининг ўзига хослиги ва ярим кўчманчи чорвачилик ҳамда суғорма деҳқончиликни синкретик тарзда олиб бориш имкониятлари билан боғлиқ.

Тадқиқотда илгари сурилган ўзбек халқи таркибидаги учта йирик этник қатлам концепцияси воҳа аҳолисининг ижтимоий тузилишини тушунишда марказий аҳамиятга эга. Биринчи (бақтрия-сўғдий) ва иккинчи (илк туркий) қатламлар асрлар давомида чуқур ассимиляция жараёнларини бошидан кечириб, XIX-XX аср бошларига келиб ўзларининг анъанавий уруғ-қабилавий бўлинишларини буткул йўқотган эдилар. Илмий адабиётларда уларнинг "чиғатойлар", "хўжалар" ва "қаршиликлар" сифатида уруғсиз, соф ўтроқ маҳаллий аҳоли қатлами сифатида таснифланиши уларнинг этногенетик жиҳатдан энг қадимий автохтон пойдеворга бориб тақалишини исботлайди. Учинчи қатлам — Даштиқипчоқ ўзбеклари (қўнғирот, юз, дўрмон ва б.) эса воҳага кучли

қабилавий анъаналар, "қипчоқ" шеваси ва ярим кўчманчилик хўжалик укладларини олиб кирди. Жанубий Сурхон шароитида ушбу қатлам маҳаллий эски ўтроқ аҳоли билан батамом қоришиб кетмасдан, ўзларининг ички уруғчилик (экзогам) чегараларини ва сиёсий устуворлигини сақлаб қолган. Шундай қилиб, воҳа ўзбек аҳолисининг 64 фоизини ташкил этган бу йирик субэтнос тизими сунъий конгломерат бўлмай, балки қадимий ўтроқ маданият ва динамик кўчманчи уруғларнинг Сурхон воҳасининг ўзига хос табиий-иқлим шароитидаги кўп асрлик ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий интеграцияси маҳсулидир.

XVIII – XX аср бошларида Бухоро амирлиги таркибидаги Бойсун ва Шеробод бекликларида маъмурий бошқарув тизими ва этник ҳолат ҳудуднинг ўзига хос табиий-географик ландшафти ҳамда иқтисодий омиллари билан чамбарчас боғлиқ ҳолда шаклланган. Воҳанинг табиий иқлим шароити ва сув манбаларининг тақсимотига мослашган ҳолда 15 та амлокдорликка бўлинган бошқарув аппарати, солиқ тизимини аҳолининг хўжалик юритиш анъаналарига мувофиқ тарзда бошқариб борган. Бу маъмурий маконда этнодемографик жараёнлар ҳам турлича кечган: тоғли Бойсунда автохтон ўзбек-тожик аҳолиси мутлақ кўпчиликни (99, 9%) ташкил этган бўлса, чўл ва Амударё қирғоқларига туташ Шерободда этник диверсификация кучлироқ бўлиб, туркман ва араб жамоалари маҳаллий хўжалик ҳаётига интеграциялашган. Умуман олганда, воҳа аҳолиси қадимий суғдий-бақтрий, илк ўрта асрлар туркий ҳамда кейинги Даштиқипчоқ этник қатламларининг ўзаро синкретик бирлашуви асосида шаклланган.

АДАБИЁТ ВА МАНБАЛАР РЎЙХАТИ:

1. Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. Т.I. - С.248-249.
2. Материалы по районированию Средней Азии. Кн.1.Территория и населения Бухары и Хорезма. - Ташкент., 1926. Ч.1. Бухара. - С.228, 256. Жадвал №5.
3. Материалы по районированию Средней Азии. Кн.1. Территория и населения Бухары и Хорезма. - Таш кент., 1926. Ч.1. Бухара. - С.261. Таблица № 6.
4. Материалы по районированию Средней Азии. Кн.1. Территория и населения Бухары и Хорезма. - Тош кент., 1926. ч.1. Бухара. - С.266. Таблица №6, 7.
5. Материалы по районированию Средней Азии. Кн.1. Территория и населения Бухары и Хорезма. ч.1. Бухара. Таблица №4.
6. Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. - Тошкент.: Шарқ. 2001. – Б.120.
7. Жабборов И. Ўзбеклар: турмуш тарзи ва маданияти. - Тошкент.: Ўқитувчи, 2003. – Б.27.
8. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – С.66.

2-SHO‘BA. QADIMGI VA O‘RTA ASRLARDA O‘ZBEK DAVLATChILIGI TARIXINING TARAQQIYOTI

АМИР ТЕМУР ДАВРИДА МАРКАЗИЙ ВА МАҲАЛЛИЙ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ: МАНСАБ ВА УНВОНЛАР ТАҲЛИЛИ

ҒАФФАРОВ ШОКИР САФАРОВИЧ

Шароф Рашидов номидаги Самарқанд давлат университети профессори, тарих фанлар доктори

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Мақолада Соҳибқирон Амир Темур давридаги мавжуд бўлган мансаб ва унвонларни баъзи бир жихатлари ёритилган. Қолаверса, марказий ва махаллий бошқарув тизими, қурултой, мансаб (лавозим) ва унвонларнинг давлатчилик асосларини мустаҳкамлашга кўрсатган таъсирини ҳам таҳлил қилинган.

В статье описываются некоторые аспекты существующих должностей и званий во времена правления Амира Темура. Кроме того, было также проанализировано влияние системы центрального правительства и местных органов власти, конгрессов, карьер и званий на ослабление основ государственности.

The article describes some aspects of existing posts and titles during the reign of Amir Temur. In addition, the influence of the central government system and local authorities, congresses, careers and ranks on the weakening of the foundations of statehood was also analyzed.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

давлатчилик, унвон, мансаб, лавозим, ҳукумдор, салтанат, қарор, ваколат, ҳокимият, амал, вазифалар, сарой.

государственность, звание, карьера, должность, правитель, королевство, решение, власть, власть, практика, обязанности, дворец.

statehood, rank, career, position, ruler, kingdom, decision, power, power, practice, responsibilities, palace.

Истиқлолимиз бизга кўп қадриятларимизни берди, жумладан, инсоний қадриятларни олий ўринда тутган Амир Темурдек Соҳибқирон ҳазратларинингсиймосини қайта жонлантиришда кенг одилона йўл очди, билъакс, эзгу тўйғуларни, илм-фан, бунёдкорлик ва бошқа маънавий қадриятларни бошида тутган улуғларнинг миннатдор авлод томонидан эъзозланиши ҳам яққол кўрсатди. Амир Темур буюк тарихий шахс Ватан озодлиги ва мустақиллиги, аҳолининг тинчлиги, эркинлиги, мамлакат бутунлиги ва ободлиги йўлида бир умур от устида муттасил фаолият кўрсатган, марказлашган буюк салтанат ташкил этиб, уни оқилона одилона бошқарган.

Биз мазкур мақолада Амир Темур давридаги асосий мансаб ва унвонлар тўғрисида тўхталмоқчимиз.

Амир Темур давлатида ягона ҳукумдор саналиб у мўғул анъаналаридан фарқли равишда ўзини хон деб эмас амир деб атаган.Амир Темур хокими мутлоқ саналсада, ўша давр анъаналарига кўра, чингизийлардан бўлган Суюрғатмаш ва Махмудхонларни хон қилиб кўтарилган, улар сохта хонлар бўлиб амалда салтанатга доиришларнинг аҳамиятга моликлари Амир Темур томонидан ҳал этилган. Ўзи ҳам мўғул хонининг қизи Сароймулкхонимга уйланиб фахрли Кўрагон унвонига эга бўлган ва шу орқали ўзининг сиёсий ҳокимиятини мустаҳкамлаган.

Амир Темур чекланмаган ваколатга эга бўлиб, ўзи лозим топган пайтда давлат

мансабдорлари томонидан қабул қилинган қарорларни ўзлаштириши ва янги қарорлар қабул қилиш мумкин бўлган.

Хукумат девонларининг бошлиғи Девонбеги[6б 14-бет] бўлиб, баъзан Сохиби девон-вазири аъзам[6, 14-бет] деб аталган.

Подшоҳ девонини иккига Девони аъло ва Девони бузургларга бўлинган. Девони аълонинг бошлиғи Соҳибдевон деб аталган. Бу олий мансабга чиғатойлар задагонлари орасидан қўйилган. Девонбеги салтанатда юз бераётган воқеаларни назорат қилган ва уларнинг ҳисоботини ҳар куни шахсан Амир Темурга бериб турган.

Хўжа Масъуд Симноний Амир Темурнинг энг ишончли соҳиб девонларидан бир бўлган. Амир Темур Девонбегига катта ваколатлар бериш билан улар томонидан қабул қилинган қарорларни истаган вақтида бекор қила олган.

Марказий хокимиятнинг энг муҳим мансабдорларидан бири вазирлар ҳисобланган. Баъзан улар Девони адл, девони куззот каби девонлар деб аталган бўлиши ҳам мумкин. Амир Темур салтанатида етти вазир фаолият кўрсатган. Улар Девонбегига бўйсунган. Амир Темур вазирларини чеклашга интилган, ҳатто уларни узоқ бир мансабда ушлаб турмасдан тез-тез алмаштириб турган.

Бизнинг фикримизга, вазирларнинг фитноларига тез-тез дуч келган Амир Темур марказий хокимиятни кучайтириш, ўз қўлида хокимиятни мустаҳкам ушлаб туриш учун ҳам вазирларнинг имкониятларини чеклашга интилган ва уларнинг фаолиятини қаттиқ назорат қилган.

Подшоҳ ва давлат хазинасини (хазоройи амира аталган) тасарруф этиб турувчи мансабдор хазинадор (хазин)[3, 460-бет] деб аталган. Бизнингча улар давлат хазинасига жавобгар бўлиб, уларнинг ишларининг қаттиқ текширилган.

Марказий хокимиятда мухрдор лавозими катта аҳамиятга эга бўлиб давлат хужжатларига мухр қўйиш ишига маъсул бўлган. Мухрдор хукумдорнинг энг яқин кишиси бўлган.

Подшох ҳузурига арз-дод билан келувчилар ҳақида, шунингдек эл юртнинг умумий аҳволи, элатларда олий ҳукумдорнинг фармон ва ваколатига эга бўлган олий мансабдорлар арзбеги[6, 14-бет] деб аталган. Унинг зиммасига мамлакатда бўлаётган воқеа-ходисаларни ҳаққоният билан етказиш масъулияти юкланган.

Амир Темур саройида шиқовуллар[4, 519-бет] ҳам катта нуфузга эга бўлишган. Улар турли давлатлардан бошқа давлатга кетаётган элчиларнинг ташкилий масаласи билан шуғулланган.

Биз агар Амир Темур давлатининг элчилик фаолиятини кенглигини ва элчилар келганда уларни кутиб олишидаги расмий маросимларни кузатадиган бўлсак бу мансаб эгаларининг катта меҳнатини, тажрибаси ва маъсулиятини ҳис этамиз. Сарой элчиларини танлаш ва тайёрлаш маркази мавжуд бўлиб улар бевосита шу ишга масъул бўлганлар.

Олий мартабалардан бири тавочи (адьютант) мансаби бўлган. Улар қурултойга давлатнинг турли ўлкаларидан шахзода ва бошқа маҳаллий бошлиқларни тўплаш, юришлар олдида лашкар тўплаш, жанглар вақтида вафот этган ҳарбийларнинг ҳисоботини олиш ишлари билан ҳам машғул бўлишган[3, 460- бет]. Улар лашкар тўплаш, уларнинг аниқ ҳисоб-китобини олиб бориш, шароитини яхшилаш даражасини аниқлаш, амирларга керакли вазифаларни юклаш уларни тартиб рақамларини белгилаш ишларига масъул бўлганлар.

Товачилар тинчлик пайтида лашкарларни қурилиш ишларига тортиш ишлари билан шуғулланишган. Озорбайжонда канал қурилишига ҳам товачилар раҳбарлик қилган. Улар юришлардан тушган ўлжаларни адолатли тақсимлаш қўшинни бир жойга қўнишини ташкиллаштириш ва бошқа ишларга ҳам масъул бўлганлар.

Умуман олганда ушбу мансаб ҳам энг нуфузли ишлардан ҳисобланиб бу ишларга катта тажриба ва кучга, ташкилотчилик қобилиятига эга бўлган Амир Темурнинг яқин кишиларидан қўйилган.

Подшоҳнинг ов ҳайвонларини тасарруф қилиб турган хизматкор (қушчи)лар тепасида турган олий мансабдор қушбеги[4, 519-бет] деб аталган. Бу мансабдорлар подшоҳнинг ов билан шуғулланишида кўмак бериши билан бирга ўргатилган қушлар орқали алоқалар олиб боришга ҳам масъул бўлганлар. Кейинчалик уларнинг нуфузи ортиб Бухоро

амирлигида бош вазир “Қушбеги” деб юритилган.

Амир Темур давридаги энг нуфузили унвонлардан бири Кўрагон (хон куёви-Ш.Ғ) унвони бўлган.

Кўрагон Чингизхон авлодига мансуб хон қизига уйланган аслзодага берилган фахрли унвон[11, 16- бет] бўлиб, ўша давр сиёсий анъаналарига мувофиқ мўғул хонлари қизига уйланган ҳукумдор ўз қонуний хокимиятини шу унвон орқали мустаҳкамлаганлар. Амир Темур, Жаҳонгир, Мироншоҳ, Мирзо Улуғбеклар шундай фахрли номни олганлар.

Бизнингча давлатнинг куч-қудратини оширишда унга ҳар тамонлама мақом беришда бу унвоннинг аҳамияти юксак бўлган. Деярли 130 йил давомида мўғул хонлари ўзларини давлатнинг ҳуқуқий эгаси деб тарғиб қилганлар.

Соҳибқирон Амир Темур саройидаги энг нуфузли ёрлиқлардан бири тархондир. Салтанат олдида кўрсатган айрим хизматлари учун ер- мулклари солиқлардан озод қилинган ва яна бир қанча имтиёзларга эга бўлган. Хон хузурига бемалол кира оладиган, тўққиз мартагача гуноҳи кечириладиган, тегишли ўлжаси тақсимланмайдиган, гоҳида авлодлари солиқдан озод қилинадиган амир[6, 14-бет].

Амир Темур саройидагинуфузли унвонлардан бири Нўёндир. Улар Амир Темур томонидан тамғага эга бўлган чиғатой задагонларидан чиққан бўлиб, улуғ, амир, ноиб, туман (ўн минг кишилик лашкар) бошлиғи маъноларида қўлланган. Бу унвон эгаси ҳам Амир Темур саройида катта нуфузга эга бўлган.

Амир Темур даврида иқтидорлар[18, 516-бет] ҳам катта нуфузга эга бўлишган. Иқто юқори ҳарбий лавозимдаги кишиларга олий Хукумдор лашкарлар ва бошқа давлат ишларида кўрсатган жасорати эвазига берилган ер улуши. Улар баъзан вақтинчалик, баъзан умурбод берилган. Бу усул албатта марказлашув жараёнларига ҳалал бериши мумкин эди. Бизга тарихдан маълумки, иқто тизими Сомонийлар ва Қорахонийлар даврида ҳам мавжуд бўлган.

Шаҳзода ва хонзодаларнинг тарбиялари оталиқ деб аталган ва бу мансабга ҳам Амир Темур хонадонига энг яқин кишилар танланган. Улар атко, отабек деб ҳам аталган. Улар хукумдор олдига бемалол кириш хуқуқига эга бўлган ва шахзодаларни ҳар тамонлама мукаммал тарбиялашдек муҳим вазифани бажаришган. Маълумки, қадимдан давлат бошлиқлари янги туғилган фарзандларини бирор энагага бериб эмиздирганлар. Энага бўлиш тоза насллик, янги фарзанд кўрган бўлиши керак бўлган. Аткалар эса анашу энаганинг эри ҳисобланган ва у шахзодага отадек ҳисобланган. Ҳар қандай киши энага ёки атка бўлавермаган, балки тоза насллик, ҳар томонлама соғлом, зийрак, ақлли, доно кишилар бу ишга лойиқ деб топилган.

Улар шахзодалар тарбияси билан махсус шуғулланган. Оталиқ болага турли соҳаларда мураббий устозлар олган ва уларни ҳар тарафлама давлат ишларида тайёрлаб борган.

1394-йил 14-августда Шоҳруҳ Мирзо ўғил кўрди. Унга Иброҳим Султон деб исм қўйдилар.Шахзодага Туман оғо (Амир Темурнинг дона завжаси-Ш.Ғ мураббий этиб тайинланади. “Ва амир Усмон Аббосни отабек (оталик –Ш.Ғ) қиладилар ва хатуни Сотқин оғоким, Соҳибқиронга уруғ бўлур эди. Энагаликка муқаррар бўлди[1, 93-бет].

Шахзодалар ёш вақтида салтанатга ўтирса ёки янги иш бошласа оталиқлари уларга маслахатчилик қилган.

Шахзодалар ўн икки ёшга тўлганда уларга вилоят берилган. Обрўли амир ёхуд беклардан бири унга мураббий, яъни оталиқ ёки отабек этиб тайинланган. У шахзода ўн олти ёшига етгунча бола номидан вилоятни бошқарган[1, 93-бет].

Подшоҳ амир фармонларини маҳаллий ҳукумдорларга етказувчи мансабдор парвонаги[5, 458-бет] деб аталган. Бу мансаб ҳам Амир Темур саройидаги нуфузли мансаблардан ҳисобланган.

Кўкалтош-кўкалдош, шахзода энагасиўғли; сут эмишганлик жиҳатдан шахзодага биродар бўлган киши. Бир онадан сут эмганлиги туфайли улар саройида катта нуфузга эга бўлганлар.

Баковул-шахсий номга қўшилиб келган унвон бўлиб, бу мартабадаги амалдор подшоҳга бериладиган овқатни олдиндан татиб кўрган[10, 16-бет]. Унинг зиммасига ҳукумдор ва сарой аҳли мазали таомлар тайёрлаш, уларнинг ҳавфсизлигини таъминлаш вазифасиюклатилган.

Шунингдек, баковул тўй ва меҳмондорчилик ишларни ҳам бошқарган.

Сарой ошпазларининг бошлиғи баковулбоши деб аталган. Баковулбоши нуфузли мансаблардан бўлиб, сарой ошхонасида таомлар тайёрланиши умуман овқатланиши билан боғлик барча масалаларга масъул бўлган. Нозик дид фаросатли, олий мансабли, билимдон кишилар бу мансабга қўйилган.

Шунингдек, боварги унвони ҳам шахсий номига қўшиб айтилган[20, 262-бет] ва бу унвон сарой бош ошпазига берилган.

Подшоҳтаомлари олдида тортиб берувчи хонсослар[1, 93-бет] сарой дастурхонини безатувчиси бўлган.

Подшонинг шахсий котиби мўнший[2, 100-бет] деб аталган. У мўншитий хос деб ҳам аталган. Мунший махфий кенгаш ва мажлислардагибўлган гапларни холислик билан дафтарга қайд қилиб борган. Муншийлар томонидан фатҳномалар ва бошқа эътиборга молик хатлар ҳам ёзилган. Улар хусни хатда мохир бўлганлар.

Амир Темур давлатида ёзув ишлари билан шуғулланувчи девон ходимлари бахийлар[3, 351-бет] бўлиб, улар сарой хужжат ишларини юритганлар. Улардан давлат ишларини тўғри ва ўз вақтида юритиш талаб этилган. Уларнинг ҳам баковул, боковулбоши каби саройда нуфузи катта бўлган.

Амир Темур саройида катта мансаб ва унвон эгалари билан бирга хизматчи-ходимлар ҳам фаолият юритилган.

Битикчи, котиб, девон хизматчиси деб аталган хизматчилар салтанатнингёзув-чизув ишларини олиб борган. Подшо девони иш фаолиятини тўғри юритиш муҳимлигини инобатга олсак бу хизматга Амир Темурга яқин, билимдон, зийрак кишилардан қўйилгани англашилади.Хаттот-қўлёзма китоблардан нусха кўчирувчи, котиб, хуснихат сохиби бўлиб, улар давлат аҳамиятга моилик мактублар ёзиш ишларини ҳам бажаришган.

Подшоҳ ва шаҳзодаларнинг отларига эгар урувчихизматчи зинбардор ҳукумдорга тез ва ҳар доим от-араваларни тайёрлаш керак бўлган.

Ҳукумдорнинг хос ишончли новкарлари ичкилар[20, 262-бет] деб аталган. Бизнингча ҳукумдорнинг энг ишончли кишилари, шу боис улар ичкилар дейилган бўлса керак.

Олий ҳукумдорнинг кенгаш ва машваратларида навбатма-навбат ҳозир бўлиб, мажлисда кўрилган ва ечилганмуҳим масалалар ва айрим ёзиб олиб сақловчи ходимлар мажлиснавис деб аталган.

Бундан ташқари уларнинг зиммасига подшолик тушган арзлар, қабул этилган қарор (ҳукм), мамлакат аҳамиятига молик ишлардан тортиб то шахсий гапларигача қайд этиб бориш ишлари ҳам юклатилган.

Бу эса Амир Темур даврида бажарилган давлат аҳамиятига молик ишлар баённомалар тарзда сақланганини билдиради.

Подшоҳ ошхонаси хизматчилар тепасида турган мансабдор мирохур[9, 15 бет] номланган. Улар подшоҳ отларининг зотдорларини танлаш озуқасини таъминлаш, уларни махсус тайёрлаш ишларига масъул бўлганлар.

Подшоҳ саройида Мироббоши мансаби ҳам мавжуд бўлган. Улар сув хўжалиги бошқарувчиси мироблар[3, 350- бет] фаолиятига раҳбарлик қилган. Сунъий суғоришга айланган Ўрта Осиё иқлимини инобатга олсак, сув тақсимоти масаласи катта аҳамиятга молик эканлигини англаймиз.

Мухандис-геометрия илмини яхши билган олим, биноларнинг тарихини тузиб берувчи мутахассис; қурувчи инжинер. Уша даврдан қолган бетакрор ва залворли иморатлар уларнинг савияси ва илми даражасидан дарак беради. Бу мутахассис ҳам Амир Темур нинг бунёдкорлик фаолиятида фаол иштирок этган.

Шахсийномга қўшилиб келган миҳаффаги[14, 512-513 бет] подшоҳ тахтиравони (муҳаффаси) га боғлиқ бир лозим эканлиги билдиради.

Сарой хизматчилари орасида фаррошлар ҳам бўлиб улар подшоҳ хоналарини супуриб-сидирувчи, гилам, тўшак ва бошқа керакли нарсаларни озодалик, саришталикка жавоб беришган.

Подшоҳ саройида (ҳарамда) хизмат қилувчи бичилган ахта қуллар хожа саролар деб аталган. Улар ҳарам аҳлини хизматини қилган.

Сарой хизматчилари орасида чухралар ҳам фаолият юритган. Улар оқсуяк тоифадан чиққан ва сарой хизматида бўлган ёш

йигитлар эди. Бизнингча улар шахзодаларнинг шахсий қўриқчилари бўлган. Уларнинг бошлиқлари чуҳрабоши деб аталган.

Подшоҳлар чодирини олиб юрувчи хос хизматкор шукурчи деб аталган. Амир Темур кўпроқ вақтини юришларда ўтказган ва доим шукурчининг иши шунга яраша мураккаб бўлган.

Подшоҳ саройини назорат қилиб турувчи қуролбардор, яроқбардор, салоҳдор киши курчи деб аталган. Бизнингча, улар сарой хавфсизлигини таъминлашда катта аҳамиятга эга бўлган.

Маҳаллий бошқарувга оид мансаб ва унвонлар: Шероз, Исфахон, Язд, Хирот, Самарқанд каби шаҳарлар маҳаллий девонлар мавжуд бўлиб девон бошлиқлари “Соҳиби девон” деб аталган[16, 518- бет]. Маҳаллий девонлар ҳақида бизгача кам маълумотлар етиб келган. Бизнингча бундай маҳаллий девонлар катта аҳамиятга молик бўлган шаҳарларда ташкил этилган. Маҳаллий девон форс маъмурларидан тузилган, аммо солиқларни йиғиш тўлиғичауларнинг ваколатига кирмаган. Девонларнинг ваколатли муддати ҳақида маълумотлар кам бўлиб, сохиби девонлар бир вилоятлардан бошқа жойларга ҳам ўтказилган.

Маҳаллий бошқарувда доруғалар катта роль ўйнаганлар. Улар туман, шаҳар ёки вилоят хокими, соқчилар бошлиғи каби кўплаб ваколатли ишларни бажарган. Улар кўпинча чегара вилоятларига тайинланган. Раиятни рўйхатга ва подшоҳ саройига етказиш, маҳаллий ҳукумдорларни назорат қилиш ишлари ҳам доруғалар зиммасида бўлган[18, 521- бет]. Доруғалар юришлар вақтида Амир Темур қўшинини кузатувчиси вазифасини ҳам бажарган[19, 526-бет]. Шунингдек туманларни бошқариши, почта станциялари иш фаолиятини тўғри ташкиллаштириш, солиқлар йиғиш ва уларни саройга юбориш ишлари билан ҳам шуғулланган[19, 526-бет]. Доруғалар қишлоқ хўжалигини тиклаш, шаҳарлар қурилиши ёки қайта тиклаш ишларига ҳам масъул бўлган.

Демак маҳаллий ижория хокимиятни бошқарувчи доруғалар ўз ҳудудларидаги барча масалаларга жавобгар шахслар бўлиб, улар темурийлар давлатчилиги тарихида муҳим ўрин тутганлар.Доруғаларга ҳам давлат томонидан катта талаб ва мажбуриятлар қўйилган.

“Темур тузуклари”да келтирилишича, агар уларга қарашли худудда бирор фуқаронинг мол-мулки талон тарож қилинса, ўша маъмурлар ўз ҳисобидан мол-мулкини тўлаганлар, шунинг учун бу мансаб ҳам жуда масъулиятли ҳисобланган. Бу мансабларга ҳам тамға ёрлиғига эга бўлган чиғатой задоғонлари қўйилган.

Муҳоссиллар ҳам кўпроқ чиғатойлардан қўйилган[19, 526-бет]. Муҳоссил ҳам энг нуфузли мансаблардан ҳисобланган. Улар доруғалар билан бир қаторда кўп шаҳарларда фаолият юритдик.Муҳоссиллар кўпинча моли омон солиғини, қарам ерларда хирож солиғини йиғишга масъул бўлганлар.

Тамғачилар савдо-сотиқдан ва божхона хизмати орқали келадиган тушумларни йиғиш ишларига масъул бўлган[18, 520-бет].

Ҳар бир вилоят ва шаҳарларда адолат амири мавжуд бўлиб, у шу худуднинг адлия ишларини назорат қилиб борган. Амир Темур даврида хокимият идоралари, солиқ бошқаруви, божхона хизмати ва бошқа маҳаллий давлат бошқарув идораларининг даражасини ана шу турли мансаб ва унвонларни тахлил этиш орқали билиб олишимиз мумкун.

Жойлардаги молиявий қирим-чиқим ишлари бўйича ерлардаги вакиллар муҳосиб-ҳисобчи, ҳисоб-китобларни сақловчи муставфийлар[6, 457-бет] деб аталган.

Қалъа бошлиғи кутвол[6, 457-бет] дейилган. Бизнингча улар мудофаа ишларида муҳим роль ўйнаган. У пайтда мустаҳкам қалъалар мавжуд бўлибуларни забт этиш мушкул масала бўлган. Бу қалъалар аввало стратегик ва мудофаа мақсадларида қурилган. Ёв бостириб келган тақдирда ҳам қалъа дарвозасини очиш ёки очмаслик масаласини кўпинча кутвол ҳам қилган. Қалъа дарвозалари калити қуторлда турган. Шунинг учун бизнингча бу мансабга ватанпарвар, тадбиркор, ақлли кишилар қўйилган.

Маҳаллий бошқарувда муҳтасиблар ҳам муҳим роль ўйнаганлар. Улар мўмин-мусулмонлар томонидан шариат қонун-қоидаларининг бажарилиши, бозорда нарх-наво ва тошу тарозуларнинг тўғри ёки

эгрилигини назорат қилиб турувчи мансабдор ҳисобланган. Мухтасиблар маънавий ишларни ҳам назорат қилинган.

Молия ва қишлоқ хўжалигини бошқариш ишлари билан шуғулланган маҳаллий ва кичик маъмурлар аминлар (ишончли кишилар) деб аталган. Улар маҳаллий худудларда экин ерлари, солиқ йиғиш ҳуқуқи ва ваколатига эга бўлган[13, 121-бет].

Олий хукумдорнинг фармонлари ва подшоҳликда (хусусан саройда) юз бериб турадиган муҳим воқеаларни халққа эълон қилиб турувчи кичик мансабдор жарчи[18, 453-бет] дейилган. Улар маҳалла ва қишлоқларда, бозорларда ва халқ оммаси йиғилган ерларда баланд овоз билан жар чақирганлар. Бу ҳам ўрта аср давлатчилигига хос ахборот алмашиш усулларидан бири эди.

Сув тақсимловчи мироб жуйбон деб аталган. Улар ўз ваколатлари доирасидаўзларига тегишли худудларда сув тақсимоти билан шуғулланган.

Маҳалла раиси, хунармандлар растасининг бошлиғи Кулу деб аталган. Аввалги худудий жойлашувга кўра маҳалла ва қишлоқларда маълум. Касб-ҳунар эгалари истиқомат қилган. Уларга эса ҳам касбу хунари, ҳам оилавий аҳволи билан иборат бўлса оладиган кишилар маҳалла раиси этиб сайланган.

Бизнингча қишлоқ хокимлари калонторлар дейилган ва улар маҳаллий хокимият идораси вакили ҳисобланган. Улар ҳам ўз худудининг ижтимоий ҳаётига, тинчлик фаровонлигига жавобгар бўлганлар.

Суд-ҳуқуқ ҳокимиятига оид мансаб ва унвонлар: Амир Темур даврида қозилик мансаби энг нуфузли ва масъулиятли вазифалардан бири бўлган. Қозилар давлатнинг суд, ҳуқуқ-тарғибот ишларини мувофиқлаштиришда муҳим роль ўйнаганлар. Улар ижтимоий адолат тамойилларини амалга ошириш, давлат ва ҳуқуқ, давлат ва фуқаро, фуқаро ва жамият, фуқаро ва фуқаро ўртасида муҳим воситачилик ролини бажарган ва ўзаро муносабатларнинг ҳуқуқий жиҳатдан тартибга солиб турган. Улар ноинки ҳуқуқ-тартибот балки давлатнинг ҳуқуқий маданиятни оширишда ҳам муҳим роль ўйнаганлар. Қозилар давлат куч-қудрати рамзларидан бири бўлган. Шунингдек давридаги қонунийликнинг қарор топишида ҳам катта касб этган. Қозиларнинг қонунга сўзсиз амал қилиши, бу даврда қатор топган ҳуқуқий мувозанат ўз замонасида жуда катта маънавий, илм ва салоҳиятга эга бўлган қозилар етишиб чиққанини кўрсатади.

Чиғатой амирлари ва шахзодалар ишларини кўрувчи амалдор ярғучи деб аталган. У Олий трибунал судида фаолият юритган.

Қозилар қонунийлик, қонун олдида барчанинг тенглиги, адолат, қонунларга сўзсиз амал қилиш каби тамоилларига амал қилган.

Улардан адолатли ва қонуний ҳукум-қарорлар чиқариш талаб этилган. Агар тамонлардан бири қозининг чиқарган қарори ёки ҳукмидан норози бўлса, унинг устида турган қозиларга, қозикалонлар[29, 178-бет] ҳатто давлатбошлиғига шикоят қилишга ҳақли бўлган. Бутун мамлакат бўйича қозилар фаолиятини назорат қилиш қозикалонга юклатилган.

Амир Темур давлатида судлов ишлари қозилар томонидан амалга оширилган бўлиб, улар шариат, фуқаролик, харбий судларга бўлинган.

Тарихчи олим Азамат Зиё ҳам бу даврда “адлия яъни суд-ҳуқуқ тизимини учга бўлган эди. Адлия вазирлиги тўғридан тўғри фуқаролар, ё манба тили билан шуғулланган. Ҳарбий суд (лашкар қозиси) эса алоҳида равишда фаолият кўрсатга. Шариат тартиблари билан эса ислом қозиси шуғулланган[16, 180-181 бет]”.

Академик Бўрибой Ахмедов фикрига асосан дунёвий масалалар билан шуғулланувчи қозилар ахдос қози деб номланган. Шариат ишлари билан шуғулланувчи қозилар шариат қозиси, сипоҳийлар ўртасидаги келишмовчилик ва тортишувларни ҳал этувчи қози-қози аскар деб аталган. Амир Темур даврихуқуқ-тартиботини ўрганар эканмиз, бу соҳада кўплаб мансабдорлар фаолиятини юритганлигини, уларнинг ҳар қайсиси ўзининг аниқ вазифаларига эга бўлганлигини билиб оламиз. Шулардан бири асослардир[15, 116-бет].

Улар тунда фуқароларнинг тинчлик хотиржамлигини сақлашга масъул бўлганлар.

Фуқаролардан тушган арз-додларни қабул қиладиган ва маъмуриятга етказадиган мансабдор додҳоқ [27, 262-бет] деб аталган.

Солиқ йиғувчи, ясони амалга оширувчи мансабдор ёсоқий-бўлиб, улар сарбоз[5, 455-бет] деб ҳам деб аталган. Давлат маъмурий тизмида ёқоқийлар ҳам катта аҳамият касб этганлар. Давлат бойлиги, равнақининг бош манбаи солиқ ва хирожларнинг камчиликсиз хазинага келиб тушиши уларнинг ҳалоллигига боғлиқ эди. Уларнинг зиммасига халқни қийнамаслик ва шунингдек давлатни ҳам унутмаслик, қонундан четга чиқмаслик вазифалари юклатилган.

Полиция маҳкамаси йасағлиқ[30, 21-22 бет] деб аталган. Улар давлат ичидаги тартиб-интизомларни сақлашга масъул бўлишган. Биз юқорида асослар, йасағлиқ ва бошқа ҳуқуқни мувофаза қилувчи мансаблар ҳақида маълумотлар бердик. Бу маълумотлар ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар турли-туман бўлганини ва уларнинг маълум вазифаси мавжудлигини кўрсатади.

Диний бошқарувга оид мансаб ва унвонлар: Амир Темур даврида ислом динининг мавқеи баландлиги инобатга оладиган бўлсак, диний бошқарув ҳам катта аҳамият касб этганини анлаб етамиз.Амир Темур давлат бошқарувида ислом мафкурасини давлат ва халқ таянчи вазифасини бажарган. Шу туфайли у бошқарувда диний бошқариш усулларини такомиллаштирган эди.

Амир Темур даврида мусулмонлар пешвоси шайхулислом деб аталган. Алишер Навоий “Шайхулислом”мусулмонлар пешвосидан иборатдур ва ислом муқтадосиға ишорат. Мундоқ киши олими керак Ислompаноҳ ва орифе керак. Муҳарраби даргоҳ, Хиродманди шариат шиор ва фақирға хурсанд тариқат осар яхши-ёмонга шафқати фазли улуғ кичикка иршоди нафви қонуниға росих ва барча мубтадотлар бидъатиға носих[9, 17- бет] дейди.

Шайхулислом аввало илми, ислом динининг паноҳи, оиф яъни комил инсон, ҳар тамонлама мукаммал, шариатга сўзсиз итоат этадиган, уни қаттиқ ҳимоя қиладиган, инсон бўлмиш мискинларга, яхши-ёмонга шафқатли бўлмоғи, улуғ киччика нафи етадиган, мутасаввуф бидъатни заифлаштирмоғи ва исломни кучайтирмоғи, турли ғояларга қарши курашмоғи керак. Бу мансаб олий диний мартаба ҳисобланганлиги боис бу мартабага катта обрўга эга бўлган, ўз ортидан кишиларни эргаштира оладиган кишилардан қўйилган. Ўрта аср мусулмонлари давлатчилигига ислом ғоялари асосий мафкура ҳисобланган. Ўрта асрлардашайхулислом катта сиёсий нуфузга эга бўлган ва у маънавий ҳаётга, ҳатто мамлакат сиёсий ҳаётига катта таъсир кўрсатган[10, 65-бет].

Саройдаги энг катта диний лавозимлардан бири аълам дейилган. Бу олий лавозимга фиқх ва шариат қонунидан танлаб қўйилган. Улар шариат қонунларига оид масалаларда бош ҳукумдорга маслаҳатчилик ҳам қилинган[11, 14-бет].

Мўмин-мусулмонлар томонидан шариат қонун-қоидаларнинг бажарилиши, бозорда нарх-наво ва тошу-тарозуларнинг тўғри ёки эзгуликни назорат қилиб турувчи олий мансабдор муҳтосиб[17, 121-бет] деб аталган. Улар асосан маънавият ишларига масъул бўлганлар.

Амир Темур давридапайғамбар Муҳаммад с.а.в нинг авлодлари саналган сайидларнинг обрўси кучли бўлган. Улар мамлакат ҳаётида катта ўрин тутган. Амир Темур уларга катта ер-мулклар моддий ҳадялар инъом этган.

Муҳтасибга бўйсунувчи мансабдорлар ихтисоб аҳли (иқтисобчи)лар деб аталиб, уларга шариат асосида ижтимоий тартибни сақлаш ва бузуқчиликнинг олдини олиш вазифаси юклатилган. Улар ичкилик, маишатбозлик, тарозидан уриш каби турли салбий иллатларга қарши иш кўрганлар ва жамият тартиб-интизомини сақлашда катта роль ўйнаганлар. Улар ўзларига тегишли ҳолатлардаги ҳуқуқбузарликларни жазолаш ҳуқуқига эга эдилар. Улар ўзларига тегишли худудлардагимаънавий масалаларга масъул бўлганлар.

Вақф ерларини бошқариш каби муҳим ишларни олиб борган мансабдор[10, 65-бет] садр деб аталган. Садр масжид, хонақо каби диний масканлар, давлат томонидан хусусий мулкдорлар томонидан ҳадя этилган диний идораларга тегишли ерларнинг олиқ-солиқ, сарф-харажат ишлари билан машғул бўлган. Улар Садри аъзамга бўйсунганлар. Садри аъзам-сайидлар ва диний арбобларга суюрғол тариқасида берилган ерлар, шунингдек

вақфларни тафтили қилиб, вақти-вақти билан олиб ҳукумдорнинг арзига етказиб туриш зиммасида бўлган олий мансабдор бўлиб бу мансабга фиқх ва шариат илмини яхши билган, халол, тақводор олимлардан қўйилган.

Амир Темур даврида мусулмон ҳуқуқини шарҳлаш ва тасниф этиш ишлари билан фақҳлар шуғулланган. Улар мусулмон ҳуқуқидаги баъзи ечилмаган муаммоларни ечишга интилиб аввало Қуръони Карим, ҳадислар ва ўзларидан аввал мусулмон ҳуқуқига оид асарлар ёзган олимларнинг асарларига таяниб тадқиқотлар олиб борилган.

Имом хатиблар масжид ишларини юритиш ва халқни номозга чақириш, номоз ўқитиш вабошқа ишларга бошчилик қилганлар. Улар аҳолини турли давлатлари билан яхшиликка чақирганлар. Бу давлатлар айниқса жума номози куни яхши ташкиллаштирилган.

Амир Темур даврида ваъизлар (ваъз айтувчи Ш.Ғ) ўз нутқларининг равонлиги ва таъсирчанлиги билан омманинг онгига катта таъсир кўрсатган.

Мадрасаларда диний ва дунёвий илмлардан дарс берувчи муаммолар мударрислар дейилган. Булар аҳолининг саводхонлигини, маънавий дунёсини оширишда катта роль ўйнаганлар. Мударрисларнинг обрўси халқ орасида баланд бўлган.

Бў даврда шайхлар ва уларнинг авлодлари ҳам энг обрўли кишилардан ҳисобланган.

Биз юқорида Соҳибқирон Амир Темур давридаги мавжуд бўлган мансаб ва унвонларни имкон даражасида кўриб чиқдик, аммо бу мукаммал маълумотлар эмас албатта.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаиь саъдайн ва мажмаи бахрайн. Т.: Фан, 1969. Б. 93.
2. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаиь саъдайн ва мажмаи бахрайн. Т.: Фан, 1969. Б. 100.
3. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаиь саъдайн ва мажмаи бахрайн. Т.: Фан, 1969. Б. 350.
4. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаиь саъдайн ва мажмаи бахрайн. Т.: Фан, 1969. Б. 351.
5. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаиь саъдайн ва мажмаи бахрайн. Т.: Фан, 1969. Б. 454-455.
6. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаиь саъдайн ва мажмаи бахрайн. Т.: Фан, 1969. Б. 457-458.
7. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаиь саъдайн ва мажмаи бахрайн. Т.: Фан, 1969. Б. 460.
8. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаиь саъдайн ва мажмаи бахрайн. Т.: Фан, 1969. Б. 461.
9. Алишер Навоий. Мақбул Қулб. Асарлари. Т.: XII. Т.: 1996. Б.17.
10. Амир Темур жаҳон тарихида. БМТ. ЮНЕСКО. Париж. 1996. Б 65.
11. Ахмедов Б.. Амир Темурни ёд этиб. Т.: 1966. Б. 14.
12. Ахмедов Б.. Амир Темурни ёд этиб. Т.: 1966. Б. 15.
13. Ахмедов Б.. Амир Темурни ёд этиб. Т.: 1966. Б. 16.
14. Ахмедов Б.. Миллий тарбия сарчашмалари. Т.: Фан, 1996.
15. Ахмедов Б. Амир Темур давлатини идора қилиш сиёсати.Амир Темурни ёд этиб.Т.:Ғофур Ғулом номли нашриёти. Т.: 1996. Б.116.
16. Азамат Зиё. Давлат бошқаруви, қонунчилик ва ҳарбий сиёсат.Т:. Б.18160-181.
17. Муҳаммаджонов А.Р. Амир Темур ва Темурийлар. Б. 121.
18. Низомиддин Шомий. Зафарнома. Т.: Ўзбекистон: 1996.Б 453.
19. Низомиддин Шомий. Зафарнома. Т.: Ўзбекистон, 1996. Б. 512–513.
20. Низомиддин Шомий. Зафарнома. Т.: Ўзбекистон, 1996. Б. 516.
21. Низомиддин Шомий. Зафарнома. Т.: Ўзбекистон, 1996. Б. 518.
22. Низомиддин Шомий. Зафарнома. Т.: Ўзбекистон, 1996. Б. 519.
23. Низомиддин Шомий. Зафарнома. Т.: Ўзбекистон, 1996. Б. 520-521.
24. Низомиддин Шомий. Зафарнома. Т.: Ўзбекистон, 1996. Б. 526.
25. Шарафиддин Али Йаздий. Зафарнома. Т.: Шарқ, 1997.
26. Шарафиддин Али Йаздий. Зафарнома. Б. 128.
27. Шарафиддин Али Йаздий. Зафарнома. Б. 262.

28. Temur Tuzuklari. Форс тилидан Алихонтўра Соғуний ва Ҳабибулла Кароматов. Проф. Б. Ахмедов таҳрири остида. Т.: Адабиёт ва санъат, 1991. Б. 119.

29. Тожиханов У. Саидов А. Ҳуқуқий маданият назарияси.1-жилд. Ўзбекистон ИИВ Академияси нашри. Т: 1998 й. Б. 178

30. Ҳусайн Байқаро. Рисола. Нашрга тайёрловчилар: Алибек Рустам ва Каримбек Ҳасан. Т:. Шарк. 1991.Б 21-22.

AMIR TEMUR ILM-FAN HOMIYSI

MIRKOMILOV B.M. — *Jizzax davlat pedagogika universiteti professori*

G‘ULOMJONOVA N.G‘. — *Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Ushbu maqolada Amir Temurning ilm-fan, ta'lim va madaniyatga qo‘shgan hissasi, shuningdek, uning hukmronligi davrida yaratilgan madaniy va ilmiy meros haqida so‘z yuritiladi. Maqola Temuriylar davridagi madrasalar, ilmiy markazlar va san’at sohasidagi yutuqlarni ko‘rsatib o‘tadi. Oqsaroy, Bibi Xonim madrasasi, Guri Mir maqbarasi va Dorut-Tilovatm majmuasi kabi yirik inshootlarning ilmiy va me’moriy ahamiyati, shuningdek, Temurning olimlar va san’atkorlarga bo‘lgan e’tibori va qo‘llab quvvatlashi tahlil qilinadi.

В данной статье рассматривается вклад Амира Темура в развитие науки, образования и культуры, а также научное и культурное наследие, созданное в период его правления. В исследовании анализируются медресе, научные центры и достижения в области искусства эпохи Темуридов. Особое внимание уделяется научному и архитектурному значению таких крупных сооружений, как дворец Ак-Сарай, медресе Биби-Ханым, мавзолей Гур-Эмир и комплекс Дорут-Тиловат, а также поддержке и вниманию Амира Темура к ученым и деятелям искусства.

This article examines the contribution of Amir Temur to the development of science, education, and culture, as well as the scientific and cultural heritage created during his reign. The study analyzes madrasas, scientific centers, and achievements in the field of art during the Timurid period. It also highlights the scientific and architectural significance of major monuments such as the Ak-Saray Palace, Bibi-Khanym Madrasa, Gur-e Amir Mausoleum, and the Dorut-Tilovat complex, as well as Amir Temur’s support and patronage of scholars and artists.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

Amir Temur, ilm-fan, Temuriylar davri, madaniyat, ma’rifat, bunyodkorlik, Oqsaroy, Bibixonim madrasasi, Guri Mir maqbarasi, Dorut-Tilovat majmuasi, Sharofiddin Ali Yazdiy, X.Vamberi, V.V.Bartold, maqbaralar, ” rosti- rusti”, adolat, muhr.

Амир Темур, наука, эпоха Темуридов, культура, просвещение, созидание, Ак-Сарай, медресе Биби-Ханым, мавзолей Гур-Эмир, комплекс Дорут-Тиловат, Шарафиддин Али Язди, В. Вамбери, В. В. Бартольд, мавзолеи, «рости-русти», справедливость, печать.

Amir Temur, science, Timurid period, culture, enlightenment, construction, Ak-Saray, Bibi-Khanym Madrasa, Gur-e Amir Mausoleum, Dorut-Tilovat complex, Sharafiddin Ali Yazdi, V. Vambery, V. V. Bartold, mausoleums, “rosti-rusti”, justice, seal.

Tarix sahifalarida kamdan-kam shaxslar bor-ki, o‘zining harbiy iqtidori bilan birga, ilm-fan va madaniyatga ham mislsiz hissa qo‘shgan bo‘lsa. Ana shunday buyuk zotlardan biri Amir Temurdir. U nafaqat mard sarkarda, dono davlat arbobi, balki ilm-fanni rivojlantirish,

madaniyatni yuksaltirishga ulkan e’tibor qaratgan hukmdor sifatida ham tarixda nom qoldirgan.

Amir Temur ko‘plab davlatlar tarixida faqatgina o‘zining jangovar yutuqlari bilan mashhur bo‘lgan mohir sarkarda emas, balki ilm-fan va madaniyatni yuksaltirgan, olim-u fuzalolarning ilmini hurmat qilgan holda ularga izzat-ikrom ko‘rsatgan hukmdor sifatida e'tirof etiladi. Uning hukmronligi davrida ilm-fan madaniyat va ma'rifat sohalarida amlaga oshirgan ishlari o‘sha xalqning aqlan va ma'nan o‘sishiga katta hissa qo‘shgan. Amir Temur mamlakatning har tomonlama taraqqiyotida ilm-fanning ahamiyatiga alohida urg‘u bergan. U olimlarni qo‘llab-quvvatlab, ilmiy ishlarga yuqori ahamiyat bergan. Temur o‘z asarlarida ilm-fan va ma’naviyatni yuksaltirish zarurligini ko‘rsatgan va ilmiy ishlar va izlanishlarni rag‘batlantirgan. Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida Movarounnahr hamda Xuroson hududlarida ta’lim va ilm-fanga katta ahamiyat berildi. Ilm-ma’rifatga homiylik qilish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu davrda barcha yirik shaharlarda madrasalar qurilib, ularda o‘z zamonasining mashhur olimlari va ulamolari tolibi ilmlarga saboq berish uchun jalb etildi. Bundan tashqari, u taraqqiyotning poydevori sifatli ta’lim ekani haqida chuqur tushunchaga ega bo‘lgan va shu bois, u avvalo ta’lim-tarbiyani yo‘lga qo‘yishga, ilmli insonlar mavqeini oshirishga intilgan edi.

Amir Temur madrasada ta’lim olgan, bilimli va dunyoqarashi har jihatdan keng qamrovli nishi bo‘lgan. Xususan u ilm-fanning jonkuyari bo‘lib ayniqsa tarix faniga juda qiziqqan. Turk, arab va boshqa podshohlarining faoliyatini chuqur o‘rgangan. Ilmiy bahslar uyushtirib va qatnashib bahslarda umuman sohibqiron o‘zining aql-idroki tufayli bilim darajasi baland bo‘lgan. Shu bois uning fikr-mulohazalari mazmun va o‘tkirligi jihatidan kishilarni hayratga solgan. «Amir Temur eng adolatli hukmdor sifatida shuhrat qozonganidi. Hatto, adolat so‘zi tamg‘aga muhrlanganidi...»[1]

«Temur tamg‘asining naqshi «rosti rusti» bo‘lib, bu «haqgo‘y bo‘lsang, najot topasan» demakdir... uning majlisida uyatsiz so‘zlar, qon to‘kish, asir olish, nahbu g‘orat qilish va haram (haqi)ga haqorat gaplar bo‘lmasdi. Temur qo‘rqmas, shijoatli, botir kishilarni itoat qildiruvchan bo‘lib, jasoratli kishilarni, dovyurak va mardlarni yoqtirar edi... U (birovdan) bir gap eshitganda dalil talab qiladigan, zimdan qarash va ko‘z ishoratlarini sezadigan idrokli kishi edi».

Amir Temurning Markaziy Osiyo xalqlari tarixida adolatli davlat barpo etishda tutgan o‘rni alohida ahamiyatga molikdir. U markazlashgan yirik davlatga asos solgan buyuk siymodir. Markazlashgan davlatchilikning qisqa tarixiy davrda mustahkamlanishi, mavjud siyosiy kuchlarni tarqoqligiga chek qo‘yishga va ular o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etishga olib keladi. Ta’kidlamoq kerakki, ana shunday sharqona demokratik jamiyatning o‘ziga xos ko‘rinishlaridan biri bo‘lgan bu tarixiy davrda ijtimoiy-siyosiy islohotlarning, shuningdek ilm-fan va madaniyatning, davlat boshqaruvi tizimining rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar shakllana boshladi.

E’tiborli jihati shundaki, musulmonlarga diniy masalalardan ta’lim berib, shariat aqidalari va islom dini ilmlari: tavsif, hadis, fiqhdan dars bersinlar deb, har bir shaharga olimlar va mudarrislar tayin qilganligi sohibqironning demokratik tizimni ijtimoiy hayotga joriy etish uchun ma’naviyat, mafkura va g‘oyaning ahamiyatiga alohida e’tibor qaratganini ko‘rsatadi. Ijtimoiy qatlamlar va guruhlarga tayangan holda faoliyat yuritish hamda ularning manfaatlarini himoya qilish o‘sha davr boshqaruvining o‘ziga xos jihatlaridan biri edi. Temur esa, davlatni boshqarishda alohida ijtimoiy guruhlar, sinflar manfaatlarini himoya qilmasdan, davlat tizimining qatlamlariga, har bir fuqaroga tayanadi. ”Millatning dardlariga darmon bo‘lmoq vazifangizdir. Zamrolarni ko‘ring, yo‘qsillarni boylar zulmiga tashlamang. Adolat va ozodlik-dasturingiz, rahbaringiz bo‘lsin”, [2] – deydi Amir Temur.

Tarixdan ma’lumki, Samarqand shahriga o‘z zamonasining eng yetuk olim va donishmandlari kelib o‘rnasha boshlaganlar, shuni ham ta’kidlash kerak, Amir Temur va temuriyzodalar davlatni boshqarishda bag‘rikenglik nuqtai nazari bilan yondashuvi turli millat va din vakillarinig yonma-yon yashab, ilm va ijodkorlik bilan shug‘ullanishi uchun imkon yaratgan.

Shu o‘rinda Sohibqiron Amir Temurning ilm-fan vakillariga ko‘rsatgan g‘amxo‘rligini ko‘rsatib turuvchi yana bir parchani keltirmoqchimiz. Venger sayyohi G.Vamberi bu haqda shunday deydi: “Amir Temur faqat

mahalliy mualliflarnigina rag‘batlantirmay, balki o‘z poytaxtiga chet el olimlari va shoirlarini ham jalb etdi hamda ularning hammasiga hotamtoylarcha mukofotlar hadya etar va o‘z shaxsiy e’tibori va homiyligi bilan ularni qo‘llab-quvvatlardi. Ana shu olimlarning ayrimlari Amir Temur saltanatida o‘z vatanidagidan ko‘proq ta’minlangan edi”[3].

Sohibqironning bunyodkorlik sohasidagi tarixiy xizmatlari beqiyosdir. Tarix bu ko‘hna dunyoda o‘tgan ko‘p jahongirlarni biladi. Ularning aksariyati faqat buzgan. Amir Temurning ulardan farqi shundaki, u umr bo‘yi bunyodkorlik bilan mashg‘ul bo‘lgan. Uning “Qay bir joydan bir g‘isht olsam, o‘rniga o‘n g‘isht qo‘ydirdim, bir daraxt kestirsam, o‘rniga o‘nta ko‘chat ektirdim”, degan so‘zlari buning yorqin isbotidir.

Amir Temurning obodonchilik ishlari to‘g‘risida taniqli sharqshunos olim, akademik V.V.Bartold: “Temur go‘yo Samarqanddan boshqa hamma yerda vayrongarchilik bilan shug‘ullangan, degan fikr mubolag‘ali. U Qobul vodiysi va Mug‘an cho‘li kabi Samarqanddan uzoq bo‘lgan joylarda ulkan sug‘orish ishlarini olib bordi”[4], degan tarixiy jihatdan g‘oyat qimmatli fikrni aytib o‘tgan.

Bu fikrga qiyos qilib, Ali Yazdiyning yozishmasini keltirish maqsadga muvofiqdir. “Bir yil mobaynida, – deb yozadi o‘rta asr tarixchisi Ali Yazdiy, – Bag‘dod shahrini tiklash haqida buyruq berildi, toki shahar yana o‘z qiyofasini olsin, unda hunarmandchilik rivojlansin, tevarak-atrofida dehqonchilik o‘ssin, savdo-sotiq va madaniy hayot keng tarmoq yoysin, islom bilimi ilgarigiday yoyilsin. Bu vazifa amirzoda Abu Bakirga topshirildi”[5].

Amir Temurga har bir zafarli voqea va sevinchli hodisani muhtasham me’morlik obidasi barpo etish bilan nishonlash odat bo‘lgan. Shu maqsadda Hindiston, Sheroz, Isfahon va Damashqning mashhur usta-hunarmandlari mamlakatda hashamdor imorat-u inshootlar bino qilganlar.

Amir Temur zabt etgan mamlakatlarning bir qator shaharlari, jumladan, Bag‘dod, Darband, Baylaqonni qayta tikladi. U Tabrizda masjid, Sherozda saroy, Bag‘dodda madrasa, Turkistonda mashhur shayx Ahmad Yassaviy qabri ustiga maqbara qurdirgan bo‘lsada, lekin asosiy e’tiborini ona shahri Kesh va poytaxti Samarqandga qaratdi. Keshda otasining qabri ustiga maqbara, o‘g‘li Jahongirga maqbara bilan masjid qurdirdi.

Amir Temur dunyo madaniyatiga, ma'naviyatiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk shaxsdir. Amir Temur qurdirgan Bibixonim masjidi (1404), Oqsaroy qasri (1380-1404), Dorus-saodat maqbarasi (1380) oliy imoratlardir.

Bog‘sozlik san’ati ham taraqqiy etib, Samarqand atrofida go‘zalbog‘lar barpo etildi. Amir Temur ilm-fan va san’atni qo‘llabquvvatlab, olim va san’atkorlaruchun qulay muhit yaratdi. Bu davr “Ikkinchi Islom uyg‘onish davri” deb atalib, Amir Temur madaniyat va ma’naviyat homiysi sifatida tarixda muhim o‘rin egalladi.

Tadqiqotchi O‘.Alimov ta'kidlashicha[6], Sohibqiron Samarqand atrofida 12 ta bog‘-saroy barpo ettirgan. Bular Bog‘i Naqshijahon, Bog‘i Behisht, Bog‘i Shohrux, Bog‘i Dilkusho, Bog‘i Shamol, Bog‘i Davlatobod, Bog‘i Bo‘ldi, Bog‘i Maydon, Bog‘i Baland, Bog‘i Chinor, Bog‘i Jahonnamo, Bog‘i Navbog‘laridir. Bulardan tashqari mamlakatning boshqa joylarida ham ko‘plab bog‘lar yaratilgan.

Xususan, Bibi Xonim madrasasi va Dorut-Tilovat majmuasi o‘zining ilmiy va me’moriyahamiyati bilan ajralib turadi. Bibi Xonim madrasasi, Samarqand shahrida 1399–1404-yillarda qurilgan bo‘lib, bu madrasa Temurning sevimli xotini Bibi Xonim nomiga bag‘ishlanib, ilm-fan markazi sifatida faoliyatko‘rsatgan. U Samarqandning eng yirik inshootlaridan biri bo‘lib, ilmiy ta'limni rivojlantirishdamuhim rol o‘ynagan. Madrasada o‘qitilgan fanlar orasida astronomiya, matematika, tibbiyot vafalsafa kabi sohalar mavjud bo‘lib, bu ilmiy sohalar o‘sha davrda ilm-fanning rivojiga katta hissaqo‘shgan. Shuningdek, Bibi Xonim madrasasining me’moriy bezaklari va gumbazlari, o‘shadavrning yuksak me’moriy yutuqlarini namoyish etadi. Dorut-Tilovat majmuasi esa 1370-yillarda Shahrisabzda qurilgan bo‘lib, Amir Temurning otasiAmir Tarag‘ay xotirasiga bag‘ishlanib bunyod etilgan. Majmua masjid, madrasa va maqbaradaniborat bo‘lib, ilm-fan va diniy ta'lim markazi sifatida katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu majmua, Temuriylar davrining ma'rifat o‘choqlaridan biri bo‘lib, ilmiy faoliyat va diniy ta'limnirivojlantirishda muhim o‘rin tutgan. Dorut-Tilovat majmuasining inshootlari, murakkab bezaklariva me’moriy innovatsiyalari

bilan o‘sha davrning yuksak me’moriy merosini aks ettiradi[7].

Amir Temur ilm-fan rivoji uchun g‘amxo‘rlik qilishi tufayli Samarqand dunyoning ma’rifiy markaziga aylandi. Mashhur olimlar Samarqandga keldi. Masalan, Qozizoda Rumiy, tabib Xusomiddin Kermoniy, falaqiyotshunos Mavlono Ahmad, Ulug‘bek davrida turli mamlakatlardan kelgan 100 dan ortiq olimlar ilmiy va ijodiy faoliyat ko‘rsatgan. Temur va temuriylar zamonida tabiiy va gumanitar fanlar sohasida buyuk olimlar yetishib chiqdi hamda jahon faniga munosib hissa qo‘shdi. Falokiyotshunoslik fanida Ulug‘bek, Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid va Ali Qushchilar yangi kashfiyotlar qildi. Tarix ilmida Sharofiddin Ali Yazdiy, Hofizi Abro‘, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond, Xondamir, Zayniddin Vosifiy va boshqalar qimmatli asarlar yaratdi. Badiiy ijod va tilshunoslikda Jomiy, Navoiy, Davlatshoh Samarqandiy, Atoullo Husayniy, Koshifiy singari ijodkorlar yuksak san’at asarlari bilan mashhur bo‘ldi.

Ularning barchasi o‘sha davr va o‘zlarigacha bo‘lgan insoniyat ma’naviyati,

ma’rifati va madaniyati yutug‘ining barcha sohalarini mukammal bilib, o‘zlashtirib

olgan, o‘zlari tanlagan sohalarining hali hech kim tomonidan zabt etilmagan

cho‘qqilarini egallagan ulug‘ siymolar, qomusiy ilm egalari bo‘lganlar. Shuning uchun ham ularning boy, serqirra ijodlari, tengi yo‘q va takrorlanmas ilmiy-falsafiy, badiiy, tarixiy asarlari asrlardan-asrlarga o‘tib, zamon sinovlariga bardosh berib, bizlargacha yetib keldi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek, Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bu uchun ulug‘ ajdodlarimiz tomonidan qoldirgan ma’naviy va madaniy me’rosni o‘rganish va uni kelajak avlod uchun saqlab qoldirish zarur. Jahon ma’naviyati va ma’rifati sahnida o‘z o‘rinlariga ega bo‘lgan komil ajdodlarimizni va ular qoldirgan boy ma’naviy-ma’rifiy merosni teran anglash, o‘rganish va ulug‘lash imkoniyati yuzaga keldi. Ota-bobolarimiz, xususan, buyuk davlat arbobi, ma’rifat homiysi, yuksak ma’naviyat egasi Amir Temur va uning avlodlari qoldirgan merosi bugungi kunda xalqimiz uchun ruhiy-ma’naviy poklanish va milliy o‘zlikni anglashning tuganmas chashmasidir. Zero, bugungi murakkab sharoitda yurtimizda boshlangan keng qamrovli islohotlar, yangi O‘zbekistonni barpo etish sari tashlayotgan dadil qadamlarimizning bardavom bo‘lishini ta’minlash eng asosiy vazifamiz bo‘lishi shart.

Amir Temur nafaqat buyuk sarkarda, balki ilm-fan va madaniyat homiysi ham edi. Uning ilm-fanga bo‘lgan e’tibori natijasida Temuriylar davrida madaniyat va fan yuksak cho‘qqilarga ko‘tarildi. U olimlarni, me’morlarni, shoirlarni o‘z panohiga olib, ularga ilmiy faoliyat yuritishlari uchun barcha sharoitlarni yaratdi. Uning sa’y-harakatlari tufayli Samarqand va butun Movarounnahr ilm-fan markaziga aylandi. Bugungi kunda ham Amir Temurning ilmga bo‘lgan hurmati va madaniyatga qo‘shgan hissasi biz yoshlar ongida abadiy muhrlanib qoladi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. H.Ziyoyev “Asarlar to‘plami”.Toshkent. “Ma’naviyat” nashriyoti. 2008.
2. O.Davlatov “Milliy qadriyatlar va ma’naviy merosning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati”.Toshkent.2023.
3. A.Vamberi. “Buxoro yoxud Movaraunnahr tarixi”.Toshkent. 2024.
4. M.Xo‘jamov “V.V.Bartold O‘rta Osiyo tarixiga hissa qo‘shgan olim”. Xorazm. 2019.
5. https://uza.uz/oz/posts/amir-temur-bunyodkor-va-ilm-fan-homiysi_587316
6. S.H.Nosirxo‘jayev, M.F.Lafasov, “Ma’naviyat asoslari”. Toshkent. 2010.
7. https://inlibrary.uz/index.php/iqro/article/view/104571

AMIR TEMUR DAVRIDA SIYOSIY VAZIYAT VA TASHQI SIYOSATNING SHAKLLANISH OMILLARI

TOSHOV KAMOLIDDIN TOJINOROVICH
Termiz iqtisodiyoit va sedrvis universiteti dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TURSUNOVA SEVARA XUDOYBERDIYEVNA
Termiz iqtisodiyoit va sedrvis universiteti magistranti

Annotatsiya / Аннотация / Abstract
Mazkur maqolada XIV asr oxiri – XV asr boshlarida Movarounnahr hududidagi murakkab siyosiy vaziyat hamda Amir Temur davrida tashqi siyosatning shakllanish omillari tahlil qilinadi. Unda Chig‘atoy ulusining parchalanishi, siyosiy tarqoqlik, shaharlar uchun kurash, xalqaro siyosiy vaziyatning ta’siri hamda Buyuk Ipak yo‘li ustidan nazorat masalalari yoritilgan. Shuningdek, Amir Temurning siyosiy faoliyati, hokimiyatni mustahkamlash strategiyasi, diplomatik va harbiy siyosati ilmiy asosda tahlil etilgan.
В данной статье анализируются политическая ситуация в Мавераннахре в конце XIV – начале XV века и факторы формирования внешней политики в эпоху Амира Темура. Рассматриваются распад Чагатайского улуса, политическая раздробленность, борьба за города, влияние международной обстановки и контроль над Великим шелковым путем. Также исследуются политическая деятельность Амира Темура, его стратегия укрепления власти, дипломатическая и военная политика.
This article analyzes the political situation in Mawarannahr in the late 14th and early 15th centuries and the factors shaping foreign policy during the reign of Amir Temur. It examines the collapse of the Chagatai Ulus, political fragmentation, struggles for key cities, the influence of international conditions, and control over the Silk Road. Furthermore, the study explores Amir Temur’s political activity, his strategy for consolidating power, and his diplomatic and military policies.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords
Amir Temur, Movarounnahr, siyosiy vaziyat, tashqi siyosat, Chig‘atoy ulusi, markazlashgan davlat, diplomatiya, Buyuk Ipak yo‘li, harbiy strategiya, Temuriylar davlati.
Амир Темур, Мавераннахр, политическая ситуация, внешняя политика, Чагатайский улус, централизованное государство, дипломатия, Великий шелковый путь, военная стратегия, государство Тимуридов.
Amir Temur, Mawarannahr, political situation, foreign policy, Chagatai Ulus, centralized state, diplomacy, Silk Road, military strategy, Timurid state.

XIV asr oxiri – XV asr boshlarida Markaziy Osiyodagi siyosiy vaziyat murakkab va ziddiyatlarga boy bo‘lib, u nafaqat hukmdorlar o‘rtasidagi hokimiyat uchun kurash, balki boshqaruv tizimining inqirozi bilan ham xarakterlanadi. Movarounnahr hududida yagona siyosiy markazning mavjud emasligi davlat institutlarining zaiflashuviga olib kelgan [1]. Aynan shunday tarixiy sharoitda siyosiy maydonga chiqqan Amir Temur faoliyati mintaqada markazlashgan davlat barpo etish jarayonida muhim bosqichni tashkil etdi.

Chig‘atoy ulusining parchalanishi natijasida Movarounnahr hududida siyosiy bo‘shliq yuzaga keldi [2]. Real hokimiyat yirik amirlar qo‘lida jamlangan bo‘lib, bu siyosiy tarqoqlikni kuchaytirdi. Samarqand, Buxoro, Kesh, Balx va Termiz kabi shaharlar strategik markaz sifatida siyosiy kurashlarning asosiy ob’ektiga aylandi [3]. Shaharlar ustidan nazorat o‘rnatish iqtisodiy va harbiy ustunlikni ta’minlaganligi sababli, ular uchun olib borilgan kurashlar umumiy siyosiy beqarorlikni kuchaytirdi.

Mazkur davrda tashqi siyosiy vaziyat ham ichki jarayonlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Oltin O‘rda davlatidagi inqirozlar, Eron va Kavkaz hududlaridagi siyosiy jarayonlar Movarounnahrdagi kuchlar muvozanatini izdan chiqargan [4].

Buyuk Ipak yo‘li ustidan nazorat qilish masalasi xalqaro siyosiy raqobatning muhim omiliga aylangan bo‘lib, savdo xavfsizligi siyosiy barqarorlik bilan chambarchas bog‘liq edi [5].

Amir Temur siyosiy faoliyati XIV asrning 60-yillaridan boshlab kuchaydi. Uning siyosiy maydonga chiqishida Tug‘luq Temur va Ilyosxo‘ja bilan bog‘liq voqealar muhim rol o‘ynagan [6]. Temur dastlab siyosiy mavqeini mustahkamlash uchun ittifoqlar tuzdi, jumladan Amir Husayn bilan hamkorlik qildi. 1365-yildagi “Loy jangi” uning harbiy tajribasini oshirdi [7]. 1370-yilda bo‘lib o‘tgan qurultoyda Temurning siyosiy mavqei mustahkamlanib, Movarounnahrda yetakchi kuch sifatida tan olindi [8].

Amir Temur hokimiyatni mustahkamlashda Chingiziylar sulolasidan bo‘lgan xonlarni taxtga o‘tqazib, amalda hokimiyatni o‘z qo‘lida jamlash siyosatini yuritdi [9]. Bu unga siyosiy legitimlikni ta’minlash va qarshiliklarni kamaytirish imkonini berdi. Shuningdek, u mahalliy amirlar bilan muvozanatli siyosat olib borib, qabila manfaatlarini umumdavlat manfaatlariga bo‘ysundirishga erishdi.

Amir Temurning tashqi siyosati harbiy kuch, diplomatiya va ittifoqlar uyg‘unligiga asoslangan edi [10]. U vaqtinchalik ittifoqlar tuzish, raqiblarni siyosiy vosita sifatida qo‘llash va diniy-mafkuraviy omillardan foydalanish orqali o‘z hokimiyatini mustahkamladi. Bu siyosat Movarounnahrda barqarorlikni ta’minlash va keyinchalik yirik davlat barpo etish imkonini berdi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, XIV asr oxiri – XV asr boshlaridagi siyosiy vaziyat kuchli markazlashgan davlatga ehtiyojni yuzaga keltirdi. Aynan shunday sharoitda Amir Temur siyosiy maydonga chiqib, harbiy salohiyat, diplomatiya va strategik tafakkurni uyg‘unlashtirgan holda Movarounnahrni birlashtirishga erishdi.

Uning tashqi siyosati murakkab siyosiy muhitga berilgan amaliy javob bo‘lib, Temuriylar davlatining shakllanishiga mustahkam asos yaratdi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. Vasily Bartold. Turkestan v epoxu mongolskogo nashestviya. – Moskva, 1963.
2. Boris Grekov. Zolotaya Orda i ee padenie. – Moskva, 1950.
3. Nizamuddin Shami. Zafarnoma.
4. Sharafuddin Ali Yazdi. Zafarnoma.
5. Ibn Arabshah. Aja'ib al-Maqdur fi Akhbar Timur.
6. Beatrice Forbes Manz. The Rise and Rule of Tamerlane. – Cambridge, 1989.
7. Rene Grousset. The Empire of the Steppes. – New Jersey, 1970.
8. Harold Lamb. Tamerlane: The Earth Shaker. – New York, 1928.
9. A. Yu. Yakubovsky. Timur. – Moskva, 1946.
10. Jean Aubin. Études sur l'Iran médiéval.

AMIR TEMUR DAVRIDA SIYOSIY VAZIYAT VA TASHQI SIYOSATNING SHAKLLANISH OMILLARI

TILOVOV Q.B. — *Termiz davlat Pedagogika instituti tarix kafedrasi o‘qituvchisi*

TOSHBOYEV A.U. — *Termiz davlat Pedagogika instituti tarix yo‘nalishi talabasi*

Annotatsiya / Аннотация / Abstract
Ushbu maqolada buyuk sarkarda va hukmdor Amir Temur saltanatida Bibixonimning roli va davlat boshqaruvidagi ahaniyati va ta’siri haqida tarixiy manbalar asosida yoritiladi.
В данной статье на основе исторических источников освещаются роль, значение и влияние Биби-ханым в управлении государством в султанате великого полководца и правителя Амира Темура.
Based on historical sources, this article highlights the role, significance, and influence of Bibi Khanum in state administration within the empire of the great commander and ruler Amir Temur.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords
Saroy Mulkxonim (Bibixonim), Amir Temur (Sohibqiron), Ko‘ragon, Chingiziylar merosi, Kattaxonim, Legitimlik (Qonuniylik), Bibixonim jome masjidi, Ma’rifatparvarlik, Saltanat boshqaruvi va obodonchiligi.
Сарай Мульк-ханым (Биби-ханым), Амир Темур (Сахибкиран), Кураган, Чингизидское наследие, Катта-ханым (Старшая жена), Легитимность (Законность), соборная мечеть Биби-ханым, Просветительство, управление султанатом и благоустройство.
Saray Mulk Khanum (Bibi Khanum), Amir Temur (Sahibkiran), Guragan, Chingisid heritage, Katta Khanum (Chief Queen), Legitimacy, Bibi Khanum mosque, Enlightenment, imperial administration and development.

Amir Temur va temuriylar saltanatini boshqarishda temuriy malikalarining o‘rni o‘ziga xos bo‘lgan.Tarix zarvaraqlarini varaqlar ekanmiz, ijtimoiy xayotning barcha sohalarida erkaklar va ayollarning o‘rni bir qatorda tarannum etib kelganligini guvohi bo‘lamiz.Temuriy malikalar orasida ham oqila maslahatgo‘y, zabardast olimalar, etuk donishmand ayollar etishib chiqqan.Soxibqiron Amir Temurning sevikli xotini Saroy Mulkxonim (Bibixonim) o‘z zamonasining yuksak idrok, farosatli, tadbirkor aql zakovat sohibasi, husn-latofat egasi, vatanni sevguvchi, madaniy hayotdan yaxshi xabardor bo‘lgan buyuk temur saltanatini boshqarishda vujudga kelgan ayrim muammolarni xal qilishda o‘zining oqilona maslahatlari bilan faol qatnashgan.

Markaziy Osiyo o‘rta asrlar davlatchiligi tarixida Amir Temur shaxsi qanchalik ulkan ahamiyatga ega bo‘lsa, u barpo etgan saltanatning ichki barqarorligi va intellektual yuksalishida malika Saroy Mulkxonimning — Bibixonimning o‘rni shunchalik beqiyosdir. XIV asrning ikkinchi yarmi nafaqat harbiy g‘alabalar, balki siyosiy legitimlik (qonuniylik) uchun kurash davri ham edi. Aynan 1341-yilda Chig‘atoy ulusi xoni Qozonxon xonadonida dunyoga kelgan malika, nafaqat nasabi, balki aql-zakovati bilan ham tarix g‘ildiragini harakatga keltiruvchi kuchga aylandi. Saroy Mulkxonimning Amir Temur hayotiga kirib kelishi shunchaki nikoh rishtasi emas, balki buyuk davlatning huquqiy poydevorini mustahkamlagan strategik ittifoq edi. 1370-yilda Amir Husayn vafotidan so‘ng, Sohibqiron tomonidan nikohga olingan 29 yoshli malika o‘zining oliy tabaqaga mansubligi bilan Temurga "Ko‘ragon" (xonning kuyovi) unvonini va Chingiziylar merosiga vorislik qilish huquqini taqdim etdi. Biroq, Saroy Mulkxonimning saltanatdagi mavqeyi faqatgina nasab bilan cheklanib qolmadi. U o‘zining yuksak idroki,

siyosiy tadbirkorligi va benazir husn-latofati bilan "Kattaxonim" darajasiga ko‘tarilib, davlatni boshqarishda hukmdordan keyingi eng nufuzli shaxsga aylandi. Bibixonim siymosi tarixda nafaqat "Sohib qironning suyukli rafiqasi", balki ulkan madaniy va ma’rifiy loyihalar homiysi sifatida muhrlangan. Uning tashabbusi bilan Samarqandda qad ko‘targan mahobatli madrasa va Jome’ masjidi bilan bog‘liq me’moriy yodgorliklar o‘sha davr Renessansining moddiy in’ikosidir. Ayniqsa, temuriyzodalar — Shohruh Mirzo, Muhammad Sulton va bo‘lajak olim-hukmdor Mirzo Ulug‘bekning tarbiyasi bevosita ushbu oqila ayolning nazoratida bo‘lgani, Temuriylar sulolasining intellektual salohiyatini belgilab bergan asosiy omillardan biridir.Undan tashqari Bibixonim saltanat boshqaruvida va obodonchiligida ham faol ishtirok etkan. Ma’lumki Amir Temur hukmronlik davrining katta qismini harbiy yurishlarda kechganli va saltanat obodonchiligi va memorchilgida faol ishtirok eta olmagan. shu boisdan saltanatda olib borilgan ko‘plab imoratlar, saroylar, madrasalar va boshqa qurilishlarda asosiy ishni Bibixonim nazorat qilgan. Saroy Mulkxonim saltanatda ilm-fanning rivojiga ham katta e'tibor qaratib ko‘plab madrasalar qurilishiga homiylik qilgan. Bibixonim tomonidan o‘z onasiga bag‘ishlab qurdirgan Bibixonim madrasasi Bibixonim jome masjidining kirish peshtog‘i qarshisida joylashgan.. Bundan ko‘rinib turibdiki Saroy Mulkxonim saltanatdagi barcha sohalarning rivojiga o‘z xissasini qo‘shgan Davlatdagi ilim fanning rivojiga katta e'tibor qaratgan inson bo‘lgan. Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki...

Saroy Mulkxonim — Markaziy Osiyo tarixida oddiy hukmdor rafiqasi emas, balki butun bir davrning siyosiy, ma’naviy va madaniy tayanchi sifatida namoyon bo‘ladi. Uning Chingiziylar sulolasiga mansubligi Amir Temur hokimiyatining qonuniyligini mustahkamlab, davlat nufuzini xalqaro miqyosda yuksaltirishga xizmat qilgan. Shu bilan birga, u Temur uzoq yurishlarda bo‘lgan paytlarda davlat ichki barqarorligini saqlash, poytaxtni obod qilish va muhim qarorlarni amalga oshirishda oqila va uzoqni ko‘ra oladigan siyosatchi sifatida faoliyat yuritgan.

Saroy Mulkxonim nafaqat siyosiy arbob, balki yuksak ma’rifat va madaniyat homiysi ham edi. Uning tashabbusi bilan bunyod etilgan Bibixonim masjidi ilm-fan va diniy hayot markaziga aylangan. Bu esa uning xalq farovonligi va ma’naviy taraqqiyotiga bo‘lgan e’tiborini yaqqol ko‘rsatadi. Shuningdek, u Mirzo Ulug‘bek va Shohruh Mirzo kabi buyuk avlod vakillarining tarbiyasida muhim rol o‘ynab, Temuriylar davrida ilm-fan va adolatga asoslangan boshqaruv an’analarining shakllanishiga zamin yaratgan. Saroy Mulkxonim o‘zining aql-zakovati, siyosiy donoligi va bunyodkorlik faoliyati bilan tarixda o‘chmas iz qoldirgan siymo hisoblanadi. U yaratgan moddiy va ma’naviy meros bugungi kunda ham milliy davlatchilik va madaniyatimizning muhim asoslaridan biri sifatida qadrlanadi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. Sharafuddin Ali Yazdi. Zafarnoma.
2. G‘iyosiddin Ali. Ruznomai g‘azovoti Hindiston (Hindiston yurishi kundaligi). — Toshkent: O‘zbekiston SSR "Fan" nashriyoti, 1967.
3. Rui Gonsales de Klavixo. Samarqandga — Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403–1406). — Toshkent: "O‘zbekiston", 2010.

QUSHBEGI HUJJATLARINING O‘RGANILISH TARIXIDAN

XAMRAYEV G‘AYRAT G‘ANIYEVICH

Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Ushbu maqola Buxoro amirligining eng muhim arxiv fondlaridan biri bo‘lgan — Qushbegi arxivi hujjatlarining topilishi, saqlanishi va uning turli davrlarda tarixchi va tadqiqotchilar tomonidan ilmiy asosda o‘rganilishi jarayoniga bag‘ishlangan.

Данная статья посвящена процессу открытия, сохранения и научного изучения документов из Кушбегского архива, одного из важнейших архивных фондов Бухарского эмирата, историками и исследователями в периоды времени.

This article is devoted to the process of discovery, preservation and scientific study of documents from the Kushbeg archive, one of the most important archival funds of the Bukhara Emirate, by historians and researchers over time.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

Qushbegi arxivi, Buxoro amirligi, arxiv hujjatlari, tarixshunoslik, tarixiy manbalar, ma’muriy-hududiy tizim, toponimika, tarixiy-geografik tahlil, ilmiy tadqiqot, Markaziy Osiyo tarixi.

Архив Кушбеги, Бухарский эмират, архивные документы, историография, исторические источники, административно-территориальная система, топонимика, историко-географический анализ, научное исследование, история Центральной Азии.

Kushbegi Archive, Bukhara Emirate, archival documents, historiography, historical sources, administrative-territorial system, toponymy, historical-geographical analysis, scientific research, Central Asian history.

Bugungi kun tarixchi va arxivshunos olimlar oldida turgan muhim vazifalardan biri mamlakatimiz tarixini o‘zida mujassam etgan arxiv hujjatlarini tadqiq etish hisoblanadi. O‘zbek davlatchiligi an’analari doirasida davlat muassasalari tarixi alohida o‘rganilib kelinmoqda. XIX asr oxiri XX asr boshlarida O‘rta Osiyo mintaqasi, xususan Buxoro amirligi tarixini o‘rganishda Buxoro Amirligi Qushbegisi arxivining o‘rni va roli nihoyatda muhimdir. Jahonning yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasalarida turli davrlarda Markaziy Osiyoda kechgan tarixiy-madaniy jarayonlar bo‘yicha tadqiqotlar olib borilishi natijasida o‘zbek davlatchiligi tarixida o‘ziga xos o‘rin tutgan Buxoro amirligi (1753-1920) davri tarixini o‘rganish orqali Yevrosiyo kengliklarida yuz bergan voqeliklar, qonuniyatlar bo‘yicha muayyan tasavvurlar hosil qilish mumkin. Ayniqsa, ko‘p asrlar mobaynida o‘ziga xos tarixnavislik shakllangan Buxoro muhitiga mansub yozma manbalar, xususan, amirlik hayotining muhim qirralarini o‘zida aks ettirgan Qushbegi arxivi hujjtlarini shu nuqtai nazardan o‘rganish dolzarblik kasb etadi.

Ko‘p asrlik an’analarga ega Buxoro tarixnavisligi XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida yanada rivoj topib, bu davr amirlik muhitida yozilgan tarixnavislik namunalarining soni anchagina katta raqamni tashkil etdi. Bu davrda Ahmad Donish (1827 1897), Mirzo Somiy (1838 1907), Mirzo Salimbek (1850 1930), Sadr Ziyo (1867 1931) kabi yirik muarrixlar bilan bir qatorda Tamkin Buxoriy, Abdulazim Shar’iy (1839 1893), Mir Siddiq Hashmat, Nosiriddin To‘ra kabi mualliflar amirlik ijtimoiy-siyosiy hayotini yoritganlar. Bu davr Buxoro tarixnavislari orasida eng sermahsul ijodkorlardan bo‘lgan Ahmad Donish (1827 1897) ning tarixiy merosi alohida diqqatga sazovordir [1, 38-b].

Buxoro amirligida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etgan va amirlikning mahalliy aholisi orasidan yetishib chiqqan shaxs sifatida u yozib qoldirgan qaydlar birlamchi ma’lumotlar hisoblanadi. Garchi u asosiy e’tiborni poytaxt atrofidagi voqeliklarga

qaratgan bo‘lsa-da, mang‘it xonadonining kelib chiqishi asosiy rol o‘ynagan Qashqadaryo vohasidagi jarayonlarga ham birmuncha to‘xtalib o‘tgani uchun muallif keltirgan ma’lumotlar alohida ahamiyatga ega.

O‘z zamonasining ziyoli kishilari orasida peshvolardan biri bo‘lgan Ahmad Donish 1850-yillarda Amir Nasrulloh (1826-1860) saroyida xattot va me’mor vazifalarida ishlab, keyinchalik bosh me’mor darajasiga ko‘tarildi. Uch marta Rossiyaga safar qilgan Donish yangi taraqqiyot bosqichiga kirgan, nisbatan ilg‘or mamlakat Rossiya bilan tushkunlikni boshidan kechirayotgan Buxoro jamiyatini taqqoslab, amirlikda islohotlar o‘tkazish lozim, degan xulosaga keladi va “Risola dar nazmi tamaddun va taovun” (“Madaniyat va o‘zaro ko‘maklashuv haqida risola”) nomli asarini yozib, uni amirga taqdim etadi. Tadqiqotchilar bu asarni “Siyosiy risola” degan qisqa nom bilan yuritadilar [2, 11-b]. Amir Muzaffar 1882-yili uni poytaxtdan chetlatib, G‘uzorga qozi etib tayinlaydi. Amir Muzaffar vafotidan so‘ng Buxoroga qaytgan Donish umrining qolgan qismini faqat ijodga bag‘ishladi.

Ahmad Donishning “Navodir al-vaqoe” (“Nodir voqealar”) va “Tarjimayi ahvoli amironi Buxoroyi sharif az Amir Doniyol to asri Amir Abdulahad” (“Amir Doniyoldan to Amir Abdulahadgacha bo‘lgan Buxoroyi sharif amirlarining tarjimayi hollari”) asarlari uning ilmiy-adabiy merosida yetakchilik qiladi. Bu asarlarda muallifning falsafiy, siyosiy va tarixiy qarashlari o‘z aksini topgan. Keyingi asarini Donish umrining oxirlarida, ya’ni XIX asrning 90-yillarida yozib tugatgan bo‘lib, bu asar qator tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan [3, 43-b, 36-b]. Uning tanqidiy matni va ruscha tarjimalari ham bor. “Tarixiy risola” ko‘plab qiziqarli va muhim ma’lumotlarga boy. Masalan, mamlakat iqtisodini rivojlantirish uchun muallif tomonidan taklif etilgan loyiha, Buxoro va uning atrofini suv bilan ta’minlash haqidagi fikrlar, Rossiyaga qilingan sayohat xotiralari shular jumlasidandir.

Buxoro tarixnavislaridan yana biri Mirzo Salimbek (1850 1930) bo‘lib, uning tarixiy asarlari “Kashkuli Salimiy” va “Tarixi Salimiy” nomlari bilan ma’lum. “Tarixi Salimiy” N. Norqulov tomonidan dissertatsiya ishi doirasida o‘rganilgan va rus tiliga o‘girilgan edi [4, 47-b]. Bu tarjima 2009-yilda nashr etilgan bo‘lib, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligining siyosiy, ayniqsa, iqtisodiy hayotini o‘rganishdagi ahamiyati beqiyosdir. Asarda mang‘it amirlarining so‘nggi uch vakili – Muzaffar, Abdulahad va Olimxon (1910-1920) larning hukmronlik davrlari batafsil yoritilgan.

Buxoro tarixnavislarining ilg‘orlaridan yana biri Sadr Ziyo (1867-1931) bo‘lib, uning asarlaridan bir qanchasi L.M. Yepifanova tomonidan tavsiflangan. Uning “Tarix”, “Muntaxab at-tavorix” (“Tarixdan saylanmalar”), “Ro‘znoma” (“Kundalik”) kabi asarlari Buxoro, shu jumladan, Qashqadaryo vohasi tarixini o‘rganishda muhimdir. Uning “Tarix” asarida O‘rta Osiyoning XIII-XX asrlardagi tarixi, shuningdek, Turkiya, Afg‘oniston, Eron va Rossiya tarixi, amir Muzaffar hokimiyatni egallaganidan so‘ng yirik isyonlarni bostirishi, amir yordamida Xudoyorxonning Qo‘qon taxtini egallashi haqida qisqacha ma’lumotlar tilga olingan [5, 51-64-b].

Qizig‘i shundaki, Sadr Ziyo qisqa bir muddat Qashqadaryo vohasida bo‘lib, bu yerdagi voqeliklarga bevosita guvoh bo‘lgan mualliflardan biri hisoblanadi. 1918-yili Sadr Ziyo inqilobchilarga xayrixohlikda ayblanib, hibsga olinadi va qo‘lyozmalari o‘zining ko‘z o‘ngida yoqib tashlanadi. Ikki oydan so‘ng u ozod etilib, Shahrisabzga qozi etib tayinlanadi. Inqilobdan so‘ng Sadr Ziyo turli tashkilotlarda ishlab, 1932-yilda vafot etadi.

Buxoro tarixnavislari orasida yana bir yetuk shaxs 1878-1954-yillar orasida yashab ijod qilgan Sadriddin Ayniydir. Uning bir qator asarlarida Qashqadaryo vohasi alohida tilga olingan. Ayniqsa, uning “Tarix amironi mang‘itiyayi Buxoro” (Buxoroning mang‘it amirlari tarixi) asarda mang‘itlarning vohadagi faoliyati haqida ancha-muncha so‘z boradi.

Buxoro tarixnavislari orasida Mirzo Somiyning (1838 1907) ijodi alohida ajralib turadi. “Mir’ot ul-xayol”, “Manozir al-insho” singari asarlar va salmoqli she’riy misralar uning adabiy ijodini bezab tursa, “Daxmai shohon”, “Tuhfai shohiy”, “Tarixi salotini mang‘itiya” kabi asarlari tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Mirzo Somiy uzoq yillar Buxoro hukmdorlaridan amir Muzaffar (1860-1885) va amir Abdulahad (1885-1910) saroyida munshiylik vazifasida xizmat qildi. Rossiya imperiyasi istilolari davrida Amir Muzaffar qo‘shinida voqealarni yozib boruvchi

(navisanda) vazifador sifatida ishtirok etdi [6, 30-31-b].

Mirzo Somiy asarlarining amirlik hududida kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni nisbatan keng yoritgan. Muayyan bir amaldor sifatida ko‘p vaqtini lashkarboshilar va bevosita amir huzurida o‘tkazgan Mirzo Somiy Buxoro amirligi hududlarining chor Rossiyasi tomonidan zabt etilishi arafasida, urush davrida va undan keyingi yillarda Buxoro davlati olib borgan ichki va tashqi siyosatiga bevosita guvoh bo‘ladi. Ayniqsa, u amir Muzaffarning Shahrisabz va Kitob bekliklari (1863-1864), Hisori Shodmon (1864) va Qo‘qon xonligiga (1866) qarshi yurishlarida voqeliklarni yozib boruvchi, Rus-Buxoro urushida voqealarni kuzatuvchi vazifasida ishtirok etib, jang tafsilotlarini qayd etib brogan [7, 70-b].

Qushbegi arxivi hujjatlaridan foydalanib, Buxoro amirligining siyosiy-ma’muriy bo‘linishi masalasiga bag‘ishlangan bir qator ilmiy nashrlar mavjud. Dastlab V.V. Bartold tomonidan boshlab berilgan izlanishlar keyinchalik bir qator nashrlarda o‘z aksini topgan.

O.A. Suxareva, B.X. Karmisheva kabi tadqiqotchilar Buxoro, Samarqand viloyatlari va Janubiy O‘zbekiston hududi etnik qiyofasini o‘rganish jarayonida Qushbegi hujjatlariga to‘xtalib o‘tishgan. Buxoro amirligidagi etnik jarayonlarni yoritishda sovetlarning dastlabki yillarida Buxoro shahri va yana bir qator shaharlarni o‘rgangan O.A. Suxareva esa o‘z tadqiqotlarida asosiy diqqat-e’tiborni Samarqand, Buxoro shaharlarining topografiyasi va demografik jihatlariga ancha keng to‘xtalganini aytib o‘tish zarur. Tadqiqotchi Buxoroning mahallalari soni, aholi soni va ijtimoiy-etnik tarkibi masalalariga to‘xtalgan. Shuningdek, u amirlikdagi Qarshi, Shahrisabz, Samarqand shaharlarini ham shu tartibda o‘rganib, ular bo‘yicha alohida tadqiotlar chop etgan [8, 103-b].

Sobiq Buxoro amirligining janubi-sharqiy qismlari (bugungi O‘zbekistonning janubiy hududlari va Tojikiston)da etnografik tadqiqotlar olib borgan B.X.Karmisheva o‘z ilmiy ishlarida Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari aholisining etnik holatiga ham to‘xtalib o‘tar ekan, ushbu viloyatlarning amirlik davridagi ma’muriy bo‘linishi masalasiga ham birmuncha e’tibor qaratgan [9, 153-b].

Sovet davrida bir qator o‘zbekistonlik tadqiqotchilar ham mintaqa, shu jumladan, Buxoro amirligi tarixiy toponimiyasiga u yoki bu darajada e’tibor qaratishgan. Akademik A.R.Muhammadjonov vohaning sug‘orilish tarixini yoritish mobaynida bu yerning tarixiy joy nomlariga ham to‘xtalib o‘tgan bo‘lib, tadqiqotchi tomonidan keltirilgan tarixiy materiallar bugungi kunda ham o‘z ilmiy ahamiyatini yo‘qotmagan. Ayniqsa, uning tahriri ostida chiqarilgan “Buxoro xonligining aholi manzillari” nomli tadqiqoti bugungi kunda olib borilayotgan tadqiqotlar uchun manba vazifasini bajarmoqda. Ushbu tadqiqotida XX asr boshlarida Buxoro amirligi tarkibida bo‘lgan deyarli barcha ma’muriy-hududiy birliklardagi aholi maskanlari nomlari nomma-nom berilib, bekliklar (viloyatlar)ga ko‘ra taqsimlab chiqilgan [10, 226-b].

Qushbegi Buxoroda davlat muhri o‘rnida bo‘lgan amirning shaxsiy muhrini saqlovchi, boshqa davlatlar bilan aloqalarni nazorat qiluvchi va moliya ishlarini boshqaruvchi bo‘lgan. Savdodan olingan barcha bojxona to‘lovlari boshqaruvi ham uning qo‘lida bo‘lib, yer solig‘ini yig‘ish va amlokni, yer-mulklarni berishni nazorat qilgan. Unga amir saroyi xavfsizligini nazorat qilish ham topshirilganligi sababli u doimo Buxoroda yashagan. Agar qushbegi biron bir sababga ko‘ra amir ketganda darvozaxonada o‘tira olmasa, unda uning o‘rniga uning yordamchisi-to‘pchiboshi o‘tirgan [11, 49-b]. Amirlikning qushbegi hujjatlarida ma’muriy birliklar haqida ma’lumotlar o‘rin olgan.

Rus tadqiqotchisi A.A. Semenovning ma’lumotlariga ko‘ra, amir yo‘q paytda qushbegining arkni tark etishga haqqi yo‘q edi. Manbalarga qaraganda, qushbegining arkda alohida uyi, hovlisi bo‘lgan. Qushbegi faqat Buxoro viloyati hokimi bo‘lib qolmasdan, barcha beklarning ham oliy boshlig‘i edi. Amir nomiga kelgan xabarlar va shikoyatlarni ko‘rib chiqish unga topshirilgan. Qushbegi barcha ishni amir roziligi bilan qilgan va har kuni unga yozma yoki og‘zaki axborot berib turgan. Buxoroning bosh qushbegisi “yuqori qushbegi” yoki “qushbegi bolo” deb atalgan. Bundan tashqari, “quyi qushbegi” yoki “qushbegi poyon” deb atalgan amaldor ham bo‘lgan [12, 53].

Qushbegi hujjatlarini toponimik materiallar sifatida o‘rganish ishlari mustaqqillik yillarida birmuncha kuchaydi. Xususan, M.R.

Abduvahobova “Qushbegi arxivida tarixiy toponimlar va Buxoro amirligining ma’muriy-hududiy tizimi” nomli ilmiy risolasida ta’kidlab o‘tganidek, Qushbegi arxividagi Buxoro amirligiga qarashli aholi manzillari tarixiy toponimikasini, bu orqali amirlik viloyatlari, tumanlari va ularning tarkibini o‘rganish bo‘lib, buni amalga oshirish uchun quyidagi asosiy vazifalar belgilab olingan: Buxoro amirligining XIX asr oxiri – XX asr boshidagi ma’muriy, siyosiy hamda ijtimoiy ahvolini o‘rganish; amirlik ma’muriy tizimining tarixiy toponimikasini tasnif qilish orqali ma’muriy tizimning tarixiy mohiyatini ochishga harakat qilish; ma’muriy birliklar nomlarining shakllanish jarayoni va ularni ro‘yxatlashtirish shart-sharoitlari masalalarini ko‘rib chiqish; amirlikda iqtisodiy, madaniy hayot, etnik munosabatlar tarixining manbai sifatida mazkur toponimik materiallar majmuini ilmiy muomalaga kiritish; arxivdagi hududiy ma’muriy tizim haqidagi toponimik ma’lumotlarni tasnif qilgan holda tarixiy tahlil etish.

Shu o‘rinda aytib o‘tish kerak, M.R.Abduvahobova ushbu tadqiqotida bir qator vazifalarni yetalicha yoritib bergan. Shu bilan birga, tadqiqotchi hujjatlarda uchraydigan joy nomlarining asl shaklini aniqlash, tarixiy-geografik tahlilini amalga oshirishda bir qator kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan. Masalan, uning Sharqiy Buxorodagi mashhur viloyatlardan biri bo‘lgan Boljuvon nomini Boljuan shaklida keltirishi, “dehot” so‘zini “dexot”, “qishloqon-i” so‘zini “qishoqoni” ko‘rinishida berishi xatodir [13, 4-5-b].

Buxoro amirligi tarixi xorijda ham ko‘p yillardan beri o‘rganilib kelinadi. Biroq Qushbegi hujjatlarining xorijda o‘rganilishi yetarli darajada emas. Buxoro amirligi tarixini ko‘plab yozma manbalar, xususan, amirlik tarixnavisligiga oid asarlar asosida o‘rgangan nemis tadqiqotchisi Anke fon Kyugelgen ishlarida amirlik hujjatlariga ham murojaat qiliningani diqqatga sazovordir.

Xullas, Qushbegi arxivi hujjatlarining toponimika va tarixiy-geografiya nuqtai nazaridan o‘rganish ishlari bilan tanishib chiqish shundan darak beradiki, bu borada amalga oshirilgan tadqiqotlar ancha kam. Ayniqsa, ularni Buxoro amirligi ma’muriy birliklaridagi aholi maskanlari uchun tarixiy-geografik jihatdan tahlil qilish ishlari anchagina ozchilikni tashkil etadi. Chor Rossiyasi va Sovet davrida Qushbegi hujjatlariga murojaat qilgan tadqiqotlarda ham bu masalaga ancha kam to‘xtalib o‘tilgan. Mustaqillik yillarida esa bu borada anchagina siljishlar bo‘layotgani kuzatiladi. Biroq aynan biz tanlab olgan mavzu doirasidagi tadqiqotlar ko‘lami nihoyatda oz. Xorijda esa Qushbegi hujjatlari yetarlicha o‘rganilmagan. Buning boisi, Sovetlar davridagi siyosat natijasida xorij, ayniqsa, G‘arb tarixchilari ushbu hujjatlardan deyarli xabarsiz bo‘lgan. Faqatgina keyingi yillarda amalga oshirilgan ayrim xorij tadqiqotlarida Qushbegi hujjatlaridan foydalanilgani ko‘zga tashlanadi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. Ахмад Дониш. История мангитской династии. – Душанбе: Дониш, 1967.– С.92; Ахмад Дониш. Путешествие из Бухары в Петербург / Подготовка текста и комментарий Р.Хади-Заде. Пер. с таджикский М.Н. Османова и Л.М. Демидчик. – Душанбе: Таджикгосиздат, 1960.– С.38.

2. Ахмад Дониш. История мангитской династии. – Душанбе: Дониш, 1967; – С. 111.

3. Бертельс Е.Э. Рукописи произведений Ахмада Каллэ // Труды Таджикской базы АН СССР. Т. III. – М.-Л.: 1936. – С.7-28; Улуғзода С. Аҳмади Дониш. – Сталинобод: Маориф, 1959. – С.43; Раджабов З. Из истории общественно-политической мысли таджикского народа во второй половине XIX и в начале XX вв. – Сталинабад: Нашриёти Давлатии Тожикистон, 1959. – С.36.

4. Норкулов Н. Тарихи Салими – ценный источник по истории Бухарского эмирата (1860-1920): Дисс.... канд. филол. наук. – Т.: ИВ АН РУз, 1968. – С.47.

5. Епифанова Л.М. Рукописные источники Института востоковедения Академии наук УзССР по истории Средней Азии периода присоединения к России (Бухара). – Т., 1965. – С. 51 64.

6. Тўраев Ҳ. Мирзо Абдулазим Сомийнинг тарихий асарлари // Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқотлари методлари ва методологиясининг долзарб масалалари Республика XII илмий-амалий конференция материаллари. 1- қисм. – Т., 2020. – Б. 30-35.

7. Епифанова Л.М. Рукописные источники по истории Средней Азии периода присоединения ее к России (Бухара) / Под ред. и при участии Урунбаева А. – Т.: Фан, 1965.– С.70.

8. Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства. – Т.: Академии наук УзССР, 1958.- С.103.

9. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана (по этнографическим данным). – М.: Наука, 1976. – С.153.

10. Мухаммеджанов А. История орошения Бухарского оазиса (с дрвенейших времен до начала XX в. – Т., 1978. – С.71.; Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX - нач. XX вв.). Материалы к исторической географии Средней Азии / Под ред. А.Р. Мухамеджанова; Сост.: Юлдошев И., Убайдуллаев К., Чехович Ю.Д., Хакимова К.З.; Нац. Ун-т Узбекистана им. Мирзо Улугбека, Центр. Гос. арх. Республики Узбекистан. Ташкент: Университет, 2001. – С. 226.

11. Воҳидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. – Т.: 2006. – Б. 49.

12. Jo‘rayev A.S., Safarov G‘.A., Meyliyev O.R. Soliqlar va soliqqa tortish (II qism). darslik.. – T.: Toshkent Moliya instituti, 2019. – Б.53.

13. Абдуваҳобова М.Р. Қушбеги архивида тарихий топонимлар ва Бухоро амирлигининг маъмурий-ҳудудий тизими. – Т., 2006. – Б. 4-9.

NAVOIY ASARLARIDA TERMIZIYLAR SIYMOSI

KOSIMOV KAMOLIDDIN ALISHEROVICH

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Pedagogika va ijtimoiy gumanitar fanlar fakulteti Tarix kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: qosimovkamoliddin61@gmail.com

Annotatsiya / Аннотация / Abstract
Ushbu maqolada Hakim Termiziy boshchiligida Termizda IX–X asrlarda shakllangan ilmi ilohiyot maktabi hamda uning tasavvuf taraqqiyotidagi o‘rni yoritiladi. Manbalar asosida allomaning ilmiy merosi, xususan “Xatm ul-valoyat” va “Navodir ul-usul” asarlarining Sharq va G‘arb ilmiy muhitidagi ahamiyati tahlil etiladi. Shuningdek, Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asari orqali Termizlik mashoyixlar — Abu Bakr Varroq, Abu Zarr Termiziy, Homid Termiziy, Abulmuzaffar Termiziy kabi allomalarning hayoti, qarashlari va tasavvufiy hikmatlari ochib beriladi. Maqolada Termiz ilmiy muhiti, ustoz-shogird an’analari hamda tasavvufning asosiy g‘oyalari — qalb pokligi, ma’naviy kamolot va inson erkinligi masalalari yoritilib, ularning tarixiy-falsafiy ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords
Hakim Termiziy, Alisher Navoiy, tasavvuf, Termiz maktabi, ilmi ilohiyot, Abu Bakr Varroq, mashoyix, Movarounnahr, sufiylik, ma’naviy meros, qalb, komillik

Kirish. O‘z vaqtida Alisher Navoiy hazratlari Termiziy allomalar haqida yozar ekan, asosli va o‘rinli ta’rif keltiradilar. Ya’ni, xavotir – tinchsizlik, oromsizlik. Ishrof – yuqoriga chiqmoq, voqiya bo‘lmoq, tayyor bo‘lmoq, ya’ni xavotirga ishrofi bor shaxslar – hamma narsaga

tushunvchilar, debularning shaxsiyati hamda ijodiga odilona yuqori baho beradilar. Shuning uchun ham biz – bugungi kun avlodlari o‘tmish ajdodlarimizning ibratli hayot yo‘li va serqirra ilmiy-diniy faoliyatini o‘rganish chog‘ida ular qoldirgan meros milliy qadriyatlarimiz hamda ma’naviyatimizni teran boyitgan bebaho xazina ekanligini e'tirof etamiz. Ana shu bebaho xazina rivojiga jonajon vatanimizning jahonga mashhur ko‘hna va navqiron Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xiva, Shahrisabz va boshqa shaharlari qatorida Termiz shaxrining ham aloxida o‘rni bor. Yurtboshimiz I. Karimov Termiz shahrining tarixiy o‘tmishi xususida so‘zlab ta’kidlaganidek: “Haqiqatan ham, azaldan Mag‘ribu Mashriqni o‘zaro bog‘lab kelgan, qadim savdo karvonlari o‘tadigan Buyuk ipak yo‘li chorrahasida joylashgan bu tuproqda necha ming yillar mobaynida turli din va madaniyatlar – zardushtiylik va buddaviylik, nasroniylik va musulmonlik an’analari yonma-yon yashab kelganligini hisobga olsak, bu zaminning tarixi naqadar ko‘hna ekanligiga iqror bo‘lamiz”.

Maqolaning maqsadi. Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” (1496) asarida Termizlik allomalardan Muhammad binni Ali Hakim Termiziy (vafoti 869), Abu Bakr Varroq Termiziy (IX asr), Abu Zarr Termiziy (IX asr), Muhammad ibn Homid Termiziy (IX asr), Yusuf Hayot Termiziy (IX asr), Abu Nasr Muhammad Termiziy (IX-X asr), Abulmuzaffar Termiziy (IX-X asr), Sayyid Burhoniddin Termiziy (vafoti 1240) va qisman Iso Termiziy (824-892)lar xususida qimmatli ma’lumotlar uchraydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Termizda IX-X asrlar ilmi ilohiyot bobida shakllangan maktab bo‘lib, ushbu maktabning sardaftari Hakim Termiziy edi. Alisher Navoiy alloma Hakim Termiziy haqida: «...Mashoyixi kibordindur... va ko‘p hadisi bor va zohir karomoti va gasonifi dari bor», deydi. Darhaqiqat, Hakim Termiziyning 120 dan ziyod tasnifoti ichida “Xatm ul-valoyat” va “Navodir ul-usul” asarlari uzoq o‘tmishda Arabu Ajam dunyosida mashhuru manzur edi. Hozirda ham bu asarlarning dovrug‘i ayrichadir, ularning Qohira va Bayrut nashrlari bor hamda ingliz, nemis, fors, usmonli turk va o‘zbek tilida tarjimalari amalga oshirilgan. Alisher Navoiyning guvohlik berishicha, “Kashf ul-mahjub”(“Sirlar kashfiyoti”) muallifi Hujviriy (1010-1072)ning ustozi Abulfazl Hasan Xatliy (X asr goho, Xatloniy): “Muhammad durri yatimdurki, olamda adili (o‘xshashi) yo‘qdur”, Xoja Bahouddin Naqshband (1318-1389) “Kudvat ul-avliyo” (“Valiylar mayog‘i”), Shayx Ruhnuddin Simnoniy (1258-1335) “Bidoyat ul-avliyo, nihoyat ul-anbiyo” (“Avliyolarning boshlanishi, payg‘ambarlarning oxiri”) deya Hakim Termiziy vasfida maqtovu olqishlar aytgan ekan.

Bahouddin Naqshband Hakim at-Termiziy haqida: «...har qachon kudvat ul-avliyo Xoja Muhammad Ali Hakimat-Termiziy ruhira tavajjuh voqe’ bo‘lur erdi, ul tavajjuh asari mahzi besifatlig‘ zuhuri erdi va har necha ul tavajjuh sayr voqe' bo‘lur erdi, hech asari va gardi va sifati mutolaa tushmas erdi”, deydi (“Nasoyim ul – muxabbat”. – B. 85). (“Har qachon avliyolar mayog‘i Xoja Muhammad Ali Hakim Termiziy ruhoniyatiga tavajjuh qilsak, bu tavajjuhning ta'siri sof besifatlik holatida bo‘lur edi. Bu besifatlikda hech bir ish ko‘zga tashlanmasdi”.Shuningdek, “Nasoyimul-muhab6at” asrida Hakim Termiziyning shogirdi – “qalblar jodusi” laqabini olgan Abu Ali Juzjoniy ham eslatib o‘tiladi:

“Muhammad Ali Termiziy bila va Muhammad Fazl Balxiy bila suhbat tutubdur va alarga qarib us-sindur” (“Nasoyimul-muxabbat”. –B. 89). Alisher Navoiy ham Hakim Termiziyning kunyalari – Abu Abdullox, ismlari – Muhammad va otalarining ismi shariflari – Ali ekanligi ham shahodat beradi. Hakim Termiziy o‘z davri diniy unvonlarining aksariyatiga sazovor bo‘lgan ulug‘ zotdir. Ul zoti oliyning oromgohi ayni mahalda muqaddas sajdagoh tarzida mashhur bo‘lib, o‘z zamonida qutlug‘ ibodatxona vazifasini bajargan. Xoja Hakim at-Termiziy yana “Sodot ul-mashoyix” (“Shayxlar Sayyidi”) nisbalari bilan atalib, el orasida aksar “Hakim” unvoni bilan mashhur bo‘lgan.

Shu o‘rinda Alisher Navoiy Termiziy allomalardan yana biri Abu Zarr Termiziy zikrida o‘z qaydlarini keltirib o‘tadi. Alisher Navoiy odatdagidek, bu alloma haqidagi fikrini ham “Xuroson mashoyixidandur” (“Nasoyim ul-muxabbat”. –B.88.), deb boshlaydi o‘z so‘zini. Mashoyix shayxning ko‘pligi bo‘lib, aksariyat munosabat izhor etiladigan shaxsga nisbatan

ehtirom ma'nosida ishlatiladi, ya'ni shayxlar mazmunini ifoda etadi. Ammo Abu Zarr Termiziy ham boshqa Termiziylar qatori uning Movarounnahrdan ekanligi aniq bo‘lgani holda, nechundir, uni Xurosondan deydi. Navoiygacha, Navoiy davrida va Navoiydan keyingi zamonlarda Termiz shahrini Xuroson mintaqasiga tobe deb talqin etish bir an'anaga aylangan edi. Aslida, Xuroson va Movarounnahr uchun Jayxun daryosi nisbiy chegara hisoblangan, biroq Sulton Shohrux Mirzo (1377-1447) va Xalil Sulton (1384-1411) davriga kelib, bu chegara ancha ustuvorlashadi.

Muhokama va natijalar. Abu Zarr Termiziy xususidagi kichik bir xabar, uning hayot yo‘lini to‘kis anglash imkonini bermasada, ma'lum tasavvurlar olishda muhim ahamiyatga ega. Alisher Navoiy bundan tashqari, donishmand Abu Bakr Varroqning yetuk shogirdi, Termizlik mashhur shayx Muhammad ibn Homid Termiziy haqida naql qilar ekan, u kishining ajoyib so‘zlarini keltiradi. Homid Termiziy aytar ekanki: “Insonning eski choponda yurgani, birovning yangi to‘nini kiyib yurgandan yaxshiroqdir”, yoki yana: “Sening sarmoyang ko‘ngling va vaqtingdur”, ya'ni sarmoya – boylik, boylik bu – qalb. Demak, Allohni qalban his etish tasavvufning bosh g‘oyasi. Allohni oddiy ko‘z bilan emas, balki qalb ko‘zi bilan ko‘ra bilish tashviqoti tasavvufning yetakchi mohiyati, zero tasavvuf talqinida qalb – iymon nurining ma'dani. Alisher Navoiy ayni choqda Homid Termiziyning o‘g‘li, Xuroson mashoyixlaridan bo‘lmish Abu Nasr Muhammad Termiziy haqida ham ma'lumot berib o‘tadi.

“Nasoyim ul-muhabbat”da Termizlik ulug‘ zotlardan yana biri – Homid Termiziyning shogirdi Abulmuzaffar Termiziy to‘g‘risida ham ma’lumot mavjud. Alisher Navoiy Abulmuzaffar Termiziyning: “Kimki senga yaxshilik qilsa, seni o‘ziga bog‘lab oladi, demak, u seni ipsiz bog‘lab oladi, kimki yomonlik qilsa, seni o‘zidan uzoqlashtiradi, uzoqlashtirish ipsiz bog‘lashdan afzalroqdir. Ozodlik yaxshimi, qullik?”, degan fikrlarini keltiradi.

Abulmuzaffarning ushbu so‘zlari zamirida g‘oyat ulkan ma’no va mohiyat, mantiq va mazmun mujassam. Tasavvuf ilmida Alloh vasliga yetmoq uchun ranju alam chekish g‘oyalari ilgari suriladi. Sababi – maqsadga osongina yetishga intilmaslik maqbul, uning lazzati, uning mazasi zahmatlarda namoyon bo‘ladi, qolaversa bir inson boshqasiga mute bo‘lmasligi lozim.

Alisher Navoiy sufiylik tariqatida o‘ziga xos maqomga ega Sayyid Burhoniddin Termiziy (vafoti 1240) xususida chuqur ehtirom bilan so‘z yuritadi. Uning Shayx Baho Valad (vafoti 1232)ga murid ekani, inchunin, Baho Valadning farzandi azizi, butun Yaqin va O‘rta Sharq zaminida taniqli sufiy shoir Mavlono Rumiy (1207-1273)ga esa shaxsan Termiziy pirlik qilgani ushbu tarzda eslatiladi: “Va, Mavlono Jaloluddin hazratlari to‘qqiz yilgacha alar (ya'ni, Termiziy) xizmatlarida bo‘lib, irshodlar ko‘rub tarbiyat topdilar” (Navoiy A. “Nasoyim ul-muhabbat”. 17-tom. – T.: Fan, 2001. – B. 325). Shuningdek, Sayyid Burhoniddinning sevimli shogirdi Shayx Salohuddin Zarqub (vafoti 1254), ayni paytda, Mavlono Rumiyga ham shogird, ham xalifa (o‘rinbosar) ekanligini ta'kidlaydi. Alisher Navoiy bu boradagi fikrini isbotlash uchun Sayyid Burhoniddinning o‘z so‘zlarini keltiradi: “Sayyid (ya'ni, Termiziy) derlar ermishki, holimni (zavqu hol) Shayx Salohuddinga bag‘ishladim va qolimni (qiylu qol) Mavlono (Rumiy)ga” (“Nasoyim ul-muxabbat”. – B. 325). G‘aroyib jihati shundaki, Mavlono Rumiyning o‘g‘li Sulton Valad (1226-1312) ham Termiziyga va Shamsuddin Tabriziy (vafoti 1247)larga muridlikka tushgan ekan. Bu haqda “Nasoyim ul-muhabbat”da o‘qiymiz: “Ul (ya'ni, Sulton Valad), Sayyid Burhoniddin Muhammad bila Shayx Shamsuddin Tabriziy quddisa sirrahuga shoyista xizmatlar qilib erdi” (“Nasoyim ul-muhabbat”. – B. 335).

Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat”da Sayyid Burhoniddin Termiziy ta'rifini “Xusayniy Sayyiddur va Termizdan erdi” deya keltirar ekan, uni hazrat Alining o‘g‘li Husayn avlodiga mansubligiga ochiqcha ishora qiladi. Alisher Navoiy, hatto, Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq vafotidan so‘ng, Rumiy hayotiga kirib kelgan Shamsuddin Tabriziyning fojiali o‘limi voqealari va qotillardan biri Rumiyning o‘g‘li Alouddin Muhammad ekanigacha hikoya qiladi. (“Nasoyim ul-muxabbat”. – B. 332.). Alisher Navoiy “Holati Pahlavon Muhammad” asari (1496)da Pahlavon Muhammad (1423-1493)ni musiqa ilmida, xonandalikda tengi yo‘q

san’atkor sifatida ta’riflar ekan, u yaratgan Mavlono Tutiy she’riga “Chahorgoh” kuyi Mir Buzurg Termiziy nomiga atalganligini ta'kidlaydi.

Aslida ham Mir Buzurg Termiziy XV asrning ko‘zga ko‘ringan shayxlaridan, Termizlik sayyidlar avlodidan, temuriylar tomonidan e'tirof etilgan va siyosat maydonida yalovbardor shaxslardan biri edi. Bobur “Boburnoma”ning bir necha o‘rnida u kishi haqida ehtirom bilan so‘z yuritadi, uning avlodlari xususida ham ma'lumotlar berib o‘tadi. Sulton Mahmud (Boburning otasi Umarshayxning akasi)ning katta o‘g‘li Sulton Mas'ud (1475-1506)ning onasi Xonzodabegim esa Mir Buzurg Termiziyning to‘ngich qizi ekanligi aytadi. Sulton Mas'ud ikki tilda Shohiy va Orifiy taxalluslari bilan she'rlar bitgan iste'dodli sohibi devon shoir bo‘lgan, o‘zbekcha she'rlar devonining nashri mavjud.

Hakim Termiziyning boshqa bir asari murshid va murid savol-javoblari tarzida bitilgan “Xatm al-valoyat” (“Valiylar cho‘qqisi”) bo‘lib, u yigirma to‘qqiz bobdan iborat. Bu asar valiylik tizimi, uning qonun-qoidalari, asosiy talablari to‘kis bayonini topganligi bilan qadrlidir. Allomaning navbatdagi asari “Al-amsal min al-kitob va-s-sunna” (“Qur'on va sunnatda kelgan misollar kitobi”) deb ataladi va unda o‘n sakkizta Qur'on oyatlariga tafsir bitiladi, uning mavzular olami, mazmun ko‘lami beqiyos. Asarda yahudiylik, butparastlik, buddaviylik masalalariga alohida urg‘u beriladi va bu hodisa Hakim Termiziyning sanskrit yoki yunon tilini bilganiga zarracha shubha qoldirmaydi. Hakim Termiziy asarlari jahon mamlakatlarining turli kutubxonalarida saqlanadi, ularning manzili aniq va ro‘yxati mavjud. Bu kitoblarning nashri va tadqiqodi buyicha chet el olimlari ancha ishlarni amalga oshirganlar, mustaqillik tufayli o‘zimizda ham bu borada e'tiborli ishlar qilinmoqda. Chunonchi, uning “Navro‘znoma”, “Solnoma”, “Manozil ul-ibod min al-iboda” (“Bandalarning bandachilikdagi manzillari”), “Buduvv ash-sha'n Abu Abdulloh” (“Abu Abdulloh ishlarining boshlanishi”), “Navodir al-usul” (ayrim parchalar), “Javob al-maso‘il sa'alahu ahlu Sarahs anxo” (“Saraxs shahri ahli so‘ragan masalalar javobi”) asarlari o‘zbek tilida e'lon qilindi.

Allomaning birinchi ustozi bo‘lgan padari buzrukvori Ali ibn Hasan ibn Bishr ibn Xorrun at-Termiziy mashhur muhaddislar qatorida turgan, u bir muddat Bag‘dodda ta'lim olgan kezlari shu shahar ulamolari orasida katta obro‘ga ega bo‘lgan. Ali ibn Hasan hadis darsinii o‘z yurtdoshi Solih ibn Abdulloh at-Termiziydan olgan bo‘lsa, o‘z navbatida, Solih ibn Abdulloh at-Termiziy esa hadis ilmini al-Qosim ibn Ubbod at-Termiziydan o‘rgangan. Shu tariqa “at-Termiziy al-kabir” (katta Termiziy) nisbasini olgan Abulhasan Ahmad ibn al-Hasan ibn Junaydiy at-Termiziy (vafoti 854), al-Qosim Ubbod at-Termiziy, Solih ibn Abdulloh at-Termiziy, Maktub ibn Abbos at-Termiziy, Solih ibn Muhammad at-Termiziy, al-Jorud ibn Ma'oz as-Sulamiy at-Termiziy, Ali ibn al-Hasan at-Termiziy, Abu Iso Imom at-Termiziy (824-892) kabilar uzoq yillar Bag‘dod hadischiligi maktabida peshqadam bo‘lganlar.

Solih ibn Abdullox at-Termiziy va Jorud ibn Ma'oz as-Sulamiy at-Termiziylar “Sihoh sitta” (Olti mo‘'tabar hadis to‘plami) mualliflariga ustozlik qilgan to‘qqiz ulug‘ shayxlar safidan o‘rin olganlar. E'tirofini topgan to‘qqiz ulur shayx safidan mustahkam o‘rin egallagan bu ikki allomai zamon bilan birga Solih ibn Muhammad at-Termiziy hadis ilmida Hakim at-Termiziyga ustozlik qilganlar. Solih ibn Abdulloh at-Termiziy ayni zamonda atoqli muxaddis Abu Iso Imom at- Termiziyga ham adis saboqlarini o‘rgatgan ulug‘ ustozdir. Maktub ibn Abbos at-Termiziy hadis ilmida o‘z mavqeiga ega buyuk zotlardan, jumladan, Abu Iso Imom at-Termiziy fiqhiy isnodlar (sha¬riat qonunlari)ni ushbu ulug‘ zotdan naql qiladi. Katta Termiziy, ya’ni Abulhasan Ahmad ibn Hasan ibn Junaydiy at-Termiziydan esa birato‘la Imom al-Buxoriy (810-870), Abu Iso Imom at-Termiziy, ibn Mojja (834-886) va boshqalar hadis rivoyat etadilar. Solih ibn Muhammad at-Termiziydan bo‘lsa Abu Hasan ibn Hallol Mukriy hadis rivoyat qilgani g‘oyat e'tiborlidir. Dastlabki bilimlarini ona shahri Termizda olgan bu allomai zamonlar avlodlari xalifalik poytaxti Bag‘dod (749-1258)da davrgacha yashab, hadis ilmi rivojiga barakali hissa qo‘shganlar. Hakim at-Termiziy “Buduvv ash-sha'n Abu Abdul¬loh” (“Abu Abdulloh ishlarining boshlanishi”)da Bag‘dodda

hadis ilmini mukammal darajada egallaganini chuqur qoniqish bilan eslatadi.

Ko‘rinadiki, Hakim at-Termiziy hadisnavislik va hadisshunoslik hamda boshqa diniy ilmlar ma'¬lum shakl tizimiga ega bo‘lgan muhitda tug‘ilib voyaga yetgan ekan. Islom an'analarining Termiz shahriga xiyla ilgariroq kirib kela boshlagani yanada e'ti¬borlidir. Masalan, Xuroson noibi Abdulloh ibn Xodim (683-692)ning o‘g‘li Muso ibn Abdulloh 689 yili Termizni ishg‘ol qilib, shaharni muttasil o‘n besh yil idora etadi. Bu davrda Movarounnahr o‘lkalaridan aksariyati Muso tasarrufida bo‘lib, jamlangan o‘lponlar uning xazinasiga kelib tushar edi. Bu 689-704-yillar oralig‘ida Termizga islom dini uchqunlari kirib kela boshlaganini bildiradi. Termizda tug‘ilib o‘sgan Abu Muhriz Jahm ibn Safvon (vafoti 745) asos solgan murji'iylik yo‘nalishidagi al-Jahmiya kalom maktabi katta kuchga ega edi. Ma'lumki, al-Jahmiya ta'limoti Ter¬miz shahrida va, umuman, mintaqada o‘z harakatini XI asrgacha davom ettirgan.

Termizda bir muddat qozilik qilgan Solih ibn Muhammad at-Termiziy aynan al-Jahmiya ta'limoti tarafdorlaridan edi, Hakim at-Termiziy esa jahmiya harakati va uning aqidalariga salbiy munosabatda bo‘lgan. Termizda al-Jahmiya yo‘nalishi bilan yonma-yon Hanafiya mazhabi ham ustuvorlasha bordi, bu holat shaharda qozilik qilgan ota-bola Xolid ibn Ziyyod at-Termiziy va Abdulaziz ibn Xolid at-Termiziy faoliyatlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Manbalarda kayd etilishicha 748 yili Xolid ibn Ziyyod at-Termiziy mutafakkir Abu Xanifa (699-767) bilan uchrashgan. Jahmiylar ta'limotining muvaqqat hukmronligi oqibati o‘laroq, Abdulaziz ibn Xolid at-Termiziy 796 yili Farg‘onaga surgun qilingan. Keyinchalik u Marv shahrida bosh qozilik qilgan.

Al-Hakim at-Termiziyning sodiq va Solih shogirdi Varroq at-Termiziy esa Ahmad Xizraviyaning chinakam do‘stlaridan edi. Farididdin Attor (1145-1221) “Tazkirat al-avliyo”da Hakim at-Termiziy haqida: “Suhbati bu Turob rahimahullohu, Ahmad Xizraviya rahimaxullohu, Ibni Jallo rahimahullohu yofta bud” (“Bu Turob, Ahmad Xizraviya va Ibni Jallolarning suhbatini olgan edi”), deb yozgandi. Attor, shuningdek, Hakim at-Termiziyning Yah'yo Maoz (vafoti 872) bilan suhbatlarida munozaraga kirishgani va ko‘pincha ul zot (Yah'yo Maoz)ni lol qoldirgani xususida ham xabar berib o‘tadi. Uzoq yillar Naxshabiy (asli ismi Asqar bo‘lgan Hasin. vafoti 861), Ibni Jallo va Yah'yo Maozlarni Hakim at-Termiziyning ustozlari – Termiziylarning ilmiy tafakkuri sifatida qarab keldik. Aslida ular suhbatdoshlar, uchrashib muloqotda bo‘lgan tengdosh allomalar edi, ana shu do‘stlar hayotini o‘rganish Hakim at-Termiziy hayot yo‘lining ayrim jihatlarini yoritishda muhim ahamiyatga ega. “Buduvv ash-sha'n”da aytilishicha, alloma Basradan Makkaga boradi, u yerda bir muddat istiqomat qilib, muborak haj amallarini bajargandan so‘ng vataniga qaytadi. Musofirlik kezlarida, uyga qaytish onlarida Allohning kitobini o‘qish va uqib olishga bo‘lgan havas uni tark etmaydi. Natijada u yo‘l bo‘yi Qur'oni karimni bemalol yodlab oladi. O‘sha asnoda Ahmad ibn Osim al-Antokiy (vafoti 853)ning “Davo‘ al-kulub” (“Qalblar davosi”) kitobi Hakim at-Termiziy qo‘liga tushib qoladi. Bu kitob allomaning shuuriga kuchli ta'sir o‘tkazadi, unga o‘z hayot yo‘lini belgilab olishida va to‘g‘ri yo‘l tanlashida ko‘maklashadi. Chunki Antokiy ta'limotining yo‘li ilm yo‘li edi, Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” (T.: Fan, 2001. –B. 52) da Antokiydan quyidagi so‘zlarni keltiradi: “Har amalning imomi ilmdur, har ilmning imomi – inoyat” (“Orzuning yetakchisi ilmdir, ilmning yetakchisi – maqsad”), Attorning e'tiroficha, Hakim at-Termiziy asos solgan Hakimiya ta'limotining mazhabi – yo‘li ham ilmga asoslanar edi.

Bu ta'limotning shakllanishida Xoris ibn Asad Muhosibiy (vafoti 857) qarashlarining ham ta'siri kattaligini unutmaslik lozim. Muhosibiy qalamiga mansub “Kitob ilm” risolasi Hakim at-Termiziyning “Kitob bayon al-ilm” asarining yuzaga kelishida ilhom manbai bo‘lib hizmat qiladi. Shundan Hakim at-Termiziy “Tasavvuf – bu bilim”, “Ilm – bu nurdir”, “Nur – xaqni nohaqdan ajratadi”, “Nur-sodiq qulini iymonga yetaklaydi”, “Nur – Alloh tomonidan banda qalbiga joylashtirilgan”, “Qalblarni munavvar etuvchi narsa – Alloh nuri” singari shiorlarning ustuvorlashuvi yo‘lida qat'iy kurashadi. Alloma butun umri davomida ilm izidan bordi, goho ilm izlab tanholikni istab qoladi, yakkalikni ixtiyor

aylaydi. Odamlardan yotsirash, odamlardan xolilikni qo‘msash, ulardan uzoqda bo‘lish xohishi allomani shahar atrofidagi xarobalarga, vayrona qabristonlarga undadi. “Shaharda uni hech kim tushunmas edi”, deydi Attor. Oxir-oqibat g‘araz va arazlar shu darajaga yetdiki, allomani Termizdan badarg‘a qilishadi.

Hakim at-Termiziy haqidagi ma'lumotlarning eng qadimiysi XI asr boshlarida yaratilgan as-Sulamiy (vafoti 1021)ning “Tabaqot as-sufiya” va Abu Nuaym (yoki Na'yim) Isfaxoniy (vafoti 1038)ning “Hidoyat al-avliyo» (“Avliyolar bezagi”) asarlaridir. Boshqa mualliflar ham o‘zlarining sufiylar sharhiga doir asarlarida Hakim at-Termiziyning nomini zikr etganlar. Mualliflarning ta'kidlashlaricha, Termiz shahri ulamolari Hakim at-Termiziyni kofirlikda ayblab, uni Termiz shahridan badarg‘a qildirishga erishadilar.

Darhaqiqat, Hakim at-Termiziyning hayoti silliq kechmagan, u doimiy ravishda ta’na-malomatlar girdobida qolib, qanchadan-qancha ig‘volarga uchragan. Hofiz ibn Hajar Asqaloniy (vafoti 1449) “Lison ul-mezon”da alloma haqida fikr yuritib, “Tarixi Halab” asari muallifi Qozi Kamoliddin ibn Adimning Hakim at-Termiziy xususidagi g‘alati va ig‘vogarona fikrlarini aynan keltirib o‘tadi: “Hakim Termiziy hadis ahlidan emas edi va, hech qanday rivoyat ham naql qilgan emas edi. U ilm-fan sohasining rango-rang mahoratidan bebahra edi, balki tanho ishoralar asosida sufiylik ravishi va haqiqati kashfi iddaosini o‘rama so‘zlar vositasida izhor etgan, xolos.

U shu darajaga borib yetdiki, fiqhlar qoidasidan chetga chiqib ketdi, shu jihatdan ta'nayu tahqirlarga sazovor etildi. Fiqh ulamolari va sufiylarning peshvolari unga uni ravishlar doirasiga qabul qilish mavrididan chetga chiqarish maqbulligi aybini quyishdi. Fiqh va sufiy ulamolar dedilarki: u shariatga shunday keraksiz narsalarni olib kirdiki, shu sababli mu¬sulmon jamoati orasndan haydaldi. O‘zining rasvo kitoblarini uydirma hadislar ila to‘ldirdi va ularni xabarlar iziga tirkadi, ammo o‘sha hadislarni na biror kishi rivoyat qilgan va na biror kishi eshitgan. U o‘zining kitoblariga butun shariat ishlarini kiritib, ularning ma'nolarini tushunib yetmay, aksar zaif va sust dalillar ila sharhlashga intilgan”.

Hakim at-Termiziyning ilm haqidagi fikrlari keyingi davrlarda Imom Abu Mansur al-Moturidiy (870-944) tarafidan davom ettiriladi. Hakim at- Termnziy bilan Moturidiy aloqalari Varroq Termiziyning shogirdi Abulqosim Hakim Samarqandiy (vafoti 953) vositasida bog‘landi. Boisi, shayx Abulqosim fiqh va kalom ilmida komil bo‘lib, ayni Moturidiyning zamondoshi va yaqin hamfikrlaridan biri edi. Demakki, shayx Abulqosim Hakimiya ta'limoti ila yaxshi tanish bo‘lib, unga bejizga “Xakim” unvoni berilmagandi. Keyingi paytlarda qadimshunos olimlar Urgut tumani, Ispanza qishlog‘i xududida muqaddas sanalgan qabrni tekshirib ko‘rishdi, dafn etilgan inson oltmish yoshlarda ekani tasdiqlandi. Mahalliy aholi tomonidan Hakim at-Termiziyning nabirasi deya talqin etilayotgan bu shaxsning ismi sharifi Abulqosim Hakim Termiziy deyilmokda. Aftidan, yuqorida zikr etilgan Abulqosim Hakim Samarqandiy bilan Abulqosim Hakim Termiziy bir shaxs bo‘lishi ehtimoli haqiqatga ancha yaqin turadi. Al-Hakim at-Termiziyning “Kitob bayon al-ilm”, “Ilm al-avliyo” (“Avliyolar ilmi”), “Siyrat al-avliyo” (“Avliyolar siyrati”, ikkinchi nomi “Xatm al-valoyat” – “Valiylik cho‘qqisi” yoki “Xatm al-avliyo” – “Avliyollarning so‘ngisi”, yanada aniqrog‘i – “Avliyolik cho‘qqisi”), “Al-ilm”, “Kitob al-xuquq”, “Taboqat as-sufiya” (“Tarix al-mashoyix”), “Kitob al-xikma ilm al-botin” (“Donishmandlik ilmining ichki sirlari kitobi”) va boshqa asarlarida ilmning nazariy asoslari hamda bu borada sufiylarning tutgan o‘rni o‘z aksini topgan. Hakim at-Termiziy “tasavvuf – bu, bilim”, degan g‘oya va shiorni jiddiy himoya qildi hamda tasavvufning ilm maqomini olishi uchun beqiyos jonbozlnklar ko‘rsatdi. Allomaning asar va risolalari tasavvuf ilmida ustuvor iz qoldirdi, shuningdek, ular kelgusi avlodlarga ham kuchli ta'sir ko‘rsatdi.

Xulosa. Mazkur tadqiqotdan ko‘rinadiki, Hakim Termiziy asos solgan Termiz ilohiyot maktabi nafaqat o‘z davrida, balki keyingi asrlarda ham tasavvuf va diniy-falsafiy tafakkur rivojiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Allomaning boy ilmiy merosi va uning izdoshlarining faoliyati orqali Termiz hududi muhim ma’naviy markazga aylangan. Alisher Navoiyning asarlarida bu allomalar haqida berilgan ma’lumotlar ularning yuksak maqomini, tasavvufdagi o‘rni va ta’sir

doirasini yaqqol tasdiqlaydi. Shuningdek, Termizlik mashoyixlar ilgari surgan g‘oyalar — qalb pokligi, ma’naviy kamolot, sabr, erkinlik va Allohga muhabbat — bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Ushbu ilmiy va ruhiy meros insonni komillikka yetaklovchi muhim manba sifatida qadrlanadi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. Навоий Алишер. Асарлар. 15 томлик. 15-том. – Бадиий адабиёт, 1968. - Б. 248.
2. “Наводир ул-усул” (“Нодир усуллар”)дек китобидан
3. “Насойим ул –мухаббат”. – Б. 85
4. Шайх Абдуғани Абдулла. Ал-Хаким ат-Тирмизий / / Совет Шарқи мусулмонлари. – 1990. – Х 4 (88). – Б. 14.

QADIMGI ZARDUSHTIY JAMOALARIDA RUH TUSHUNCHASI VA DAFN MAROSIMLARI

SATTAROV FAXRIDDIN RUSTAM O‘G‘LI

Termiz davlat universiteti
Tarix fakulteti tayanch doktaranti

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Qadimgi zardushtiylar dafn marosimi o‘ziga xos diniy qarashlar va marosimlar tizimiga asoslangan bo‘lib, unda tabiat unsurlarini pok saqlash muhim ahamiyat kasb etgan. Zardushtiylik ta’limotiga ko‘ra, o‘lik tana nopok hisoblangan va uni yerga ko‘mish, suvga tashlash yoki yoqish man etilgan. Shu sababli marhum jasadi maxsus inshootlar — dahmalarda (sukut minoralari) qoldirilgan. Ushbu maqolada qadimgi zardushtiylarning dafn marosimlari, ularning diniy-falsafiy asoslari va tarixiy rivoji tahlil qilinadi.

Погребальные обряды древних зороастрийцев основывались на особых религиозных представлениях и ритуальной системе, в которой большое значение придавалось сохранению чистоты природных элементов. Согласно учению зороастризма, мёртвое тело считалось нечистым, поэтому его захоронение в земле, сожжение или погружение в воду запрещалось. В связи с этим тела умерших оставляли в специальных сооружениях — дахмах (башнях молчания). В данной работе анализируются погребальные обряды древних зороастрийцев, их религиозно-философские основы и историческое развитие.

The funeral practices of ancient Zoroastrians were based on unique religious beliefs and ritual systems, emphasizing the purity of natural elements. According to Zoroastrian doctrine, a body was considered impure, and burial, cremation, or disposal in water was strictly prohibited. Therefore, the dead were placed in special structures known as dakhmas (Towers of Silence). This paper analyzes the funeral customs of ancient Zoroastrians, their religious-philosophical foundations, and their historical development.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

Zardushtiylik, dafn marosimi, dahma, faravasi, poklik, diniy e’tiqod, ruh, Ajdodlar ruhi
Zoroastrianism, funeral rites, dakhma, faravasi, purity, religious beliefs, soul, ancestral spirits.
Зороастризм, погребальные обряды, дахма, фраваши, чистота, религиозные верования, душа духи предков

Ruhlar uchun marosimlar, ayniqsa, o‘limdan keyingi birinchi yilda ko‘p bo‘ladi. Shu vaqt davomida ruh Preta (och ruh) deb atalgan, , , o‘lgan" va hali Ajdodlar jamoasiga to‘liq qabul qilinmagan deb tasavvur qilingan[1]. Aniqlik bilan, bu e'tiqod Zoroastriyanlar orasida ham davom etgan, ya'ni, yangi vafot etgan ruh dastlab alohida mavjudot sifatida qabul qilinadi.

Ruhning o‘rnini bosish mas'uliyati o‘limdan keyin umrni davom ettirgan qarindoshiga yoki merosxo‘riga yuklangan, va u kamida 30 yil davomida marosimlarni amalga oshirishi kerak[2].

Bu uch o‘n yilni faqatgina kishi o‘zining otasi uchun marosimlarni o‘tkazgan holda, har bir o‘g‘il farzand marosimlarini ota-ona uchun bajargan holda, bu davrni avlod davri deb hisoblash mumkin, lekin A. Kaegi tomonidan uzoq vaqtdan beri ta'kidlanganidek, hind va eron marosimlarida o‘liklar bilan bog‘liq ko‘plab marosimlar uchta yoki uchdan ko‘proq bo‘lib takrorlanadi. Bu marosimlarni yunonlar va boshqa hindo-yevropalik xalqlar orasidagi o‘xshash amallar bilan taqqoslab, ularning qadimiyligini ta'kidlagan. Kaegi ularni "qadimiy diniy tuyg‘ular..." deya ta'riflagan va Hindlar hamda Eronliklarning katta konservatizmi hamda ularning bu boradagi an'analarining o‘xshashligi, bu marosimlarning hozirgi kungacha deyarli qadimiy e'tiqodlarni saqlab qolishidan dalolat beradi. Zoroastriyanlar orasida, boshlang‘ich marosimlar ko‘p va uzoq davom etadi, ular uch kun davomida amalga oshadi, shu vaqt ichida ruhning o‘lim yoki jasadni joylashgan joyda qolishi mumkin deb hisoblanadi.[3] Bu vaqt ichida oila ro‘za tutadi (yoki hozirgi vaqtda Zoroastriyanlar ro‘za tutishni rad etganligi sababli, go‘shtdan voz kechishadi), va pagan (Ko‘p xudolik) davrlarida, albatta, ular qayg‘u izhor qilishga bag‘ishlanishgan[4]. Uchinchi kechada ruh uchun uchta diniy xizmat aytiladi, shu vaqt ichida ruh uchun to‘liq kiyimlar tayyorlanadi[5]. Uchinchi kunda ruh uchun hayvon qurbonligi qilinadi va uning yog‘i to‘rtinchi kunda, quyosh chiqishi bilan olovga beriladi, bu vaqtda ruh quyosh nurlariga tortilib, o‘zining yangi yotgan joyiga yo‘l oladi. Takliflar har kuni birinchi 30 kun davomida amalga oshiriladi, shundan keyin ikkinchi qonli qurbonlik qilinadi; va keyin har 30-kun (yoki oylik ravishda) marosimlar o‘tkaziladi, birinchi yil oxirigacha (ilgari 360 kun). Keyin yana bir muhim marosim, uchinchi hayvon qurbonligi va yana oziq-ovqat va kiyimlar taklif qilinadi. Bu, birinchi yilning marosimlarini tugatadi. Shundan so‘ng, o‘lim kuni har yili oziq-ovqat takliflarini 30 yil davomida davom etadigan takliflar berish marosimi amalga oshiriladi, .

Yuqoridagi marosimlar aniq qadimiy marosimlar bo‘lib, chunki ular ko‘p yillar davomida bajarilgan. Zoroastriyanlar va Brahmanlar tomonidan bir xil tarzda amalga oshirilgan, lekin albatta, ular buyuk shaxslar holatida ko‘proq rivojlanish ko‘rsatgan. Shunday qilib, Arrianning so‘zlariga ko‘ra, Kirosning qabri oldida har oyda ot qurbonligi qilingan. Bu qurbonlik, Veda kitoblariga ko‘ra, ruhga quyosh yaqinida joy ajratilishini ta'minlagan. U bu marosimni Kirosning o‘g‘li Kambiz hukmronligi davrida joriy etilganini va shu oilaning ruhoniylari tomonidan Aleksandr tomonidan zabt etilishgacha 200 yil davomida bajarilganini yozadi[6] Zamonaviy vaqtlarda ham buyuk shaxslar uchun yillik marosimlar uzoq vaqt davomida amalga oshirilgan. Eng mashhur misol, 16-asr oxirlarida vafot etgan katta Parsi ruhoniysi Dastur Meherji Ranadir, chunki uning yillik marosimi hozirgi kunda ham Navsaridagi avlodlari tomonidan bajarilmoqda. Butun Zoroastriyan jamoasi hozirda Zoroastrning o‘zi uchun yillik marosimni bajaradi, bu marosim uch ming yil davomida davom etgan bo‘lishi mumkin. Biroq, umumiy amaliyot shundaki, o‘lik ruh, 30 yildan keyin, faqat "barcha ruhlarga" bag‘ishlangan taklif va marosimlarni qabul qiladi, ya'ni, adolatli fravaşilarning ulkan jamoasiga, O‘rta Eron tilida ardāy fravaš yoki ardāy fravahr deb atalganlar.

Har yili qadimiy Eronda barcha fravaşilarga bag‘ishlangan katta festival o‘tkazilgan. Bu Hamaspathmaēdaya nomi bilan tanilgan edi, lekin bu nomning hozirgacha tushunilmagan ma'nosi mavjud. Bu marosim (boshqa mamlakatlardagi o‘liklar festivallari kabi) yilning oxirgi kechasida bo‘lib o‘tgan[7].

Sasaniy davrida, taqvim o‘zgarishlari tufayli, bu marosim ancha uzayib, 10 kun davom etgan. Ushbu kunlar "fravaši kunlari" deb atalgan, Rözān Fravardīgān; hozirgi kunda bu bayram Fravardīgān yoki Farvardigan nomi bilan eng yaxshi tanilgan. Ushbu davomiylik va nomdagi o‘zgarishdan tashqari, Eronning Alloh yo‘li bilan bog‘liq marosimlari asrlar davomida deyarli o‘zgarmagan ko‘rinadi. Yasht.13.49-52 da quyidagicha bayon etilgan:

, , Biz adolatli fravaşilarni, yaxshilarni, kuchlilarni, mehnatkashlarni ulug‘laymiz, ular Hamaspathmaēdaya vaqtida o‘z uylariga qaytadilar, so‘ngra butun tun davomida yer yuzida yurib, yordam so‘rashadi: 'Kim bizni

madh etadi, kim bizni ibodat qiladi, kim bizni duolar bilan taqdirlaydi, kim bizni e'tirof etadi, qo‘llarida go‘sht va kiyim tutgan holda bizni ulug‘laydi? Bizning ismimizni kim maqtaydi, qaysi birimizning ruhi ulug‘lanadi, bizga qaysi sovg‘a beriladi, bu unga (ya'ni, beruvchiga) abadiy oziq-ovqat beradi?' Shunda kimki ularni ibodat qilsa... ular uni barakali qiladi, xursand bo‘ladi... 'Ularning uyi boy bo‘ladi, qaysi birida otlar va kuchli chavandozlar bo‘ladi, barqaror va gapiruvchi odam bo‘ladi, kimki bizni yana qo‘llarida go‘sht va kiyim tutgan holda ibodat qiladi, aša-attaining ibodat'."

Bayramni so‘nggi Zoroastrian matnida quyidagicha tasvirlaydi:

"Barqaror ruhlar (so‘ngra) bu dunyoga tushib, o‘z (avvalgi) manzillariga qaytadilar... Shuning uchun odamlar... bu kunlarda olovda xushbo‘y hidlar qo‘yishlari kerak, ruhlarni madh etishlari va myazd va afrinagān o‘qishlari kerak, shunda ularning ruhlari quvonch va xursandchilikda bo‘lib, barakalarini berishsin. Va... bu kunlarda ular boshqa narsalar bilan shug‘ullanishmasligi kerak, faqat yaxshiliklar qilishlari kerak, shunda ruhlar o‘z joylariga quvonch bilan qaytib, barakalarini aytadilar[8]."

Tarixchi Al-Beruniy Zoroastrian bayrami haqida shunday yozgan:

"Bu vaqtda odamlar o‘liklarning zallarida ovqat va uylarning tomlarida ichimliklar qo‘yishadi, chunki ular o‘liklar ruhlari... mukofotlari yoki jazolari joyidan chiqib, ularni qo‘yilgan taomlarga borib, ularning kuchini olishlarini va ta'mini his qilishlarini ishonishadi. Ular o‘z uylarini juniper (archa turi) bilan tutunlatishadi, shunda o‘liklar uning hidini yoqtirishsin. Solihlar ruhlari oilalari, bolalari va qarindoshlari bilan birga yashaydi va ularni ziyorat qilishadi[9]."

Odamlar hali ham o‘z ishlarini qilishmoqda, garchi ular ko‘rinmasa ham. Hozirgi kunda, Parsi va Erani jamoalarida uylar sinchkovlik bilan tozalanadi va ruhlar yillik kelishiga tayyorlanadi, maxsus pok joyda oziq-ovqat va kiyimlar bilan ritual takliflar qo‘yiladi, va ularni kutib olish uchun bir chiroq yoqiladi, bu chiroq butun festival davomida qorong‘u soatlarda yonib turadi. Ruhlarning mavjudligi yashovchilar tomonidan kuchli seziladi, va bayramda baxt va oila poydevori bilan to‘ldirilgan ruhiyat mavjud bo‘lib, boshqa dunyo bilan aloqada bo‘lishdan kelib chiqqan qadimgi qo‘rquv deyarli yo‘q. Biroq, katta jangchi va himoyachi bo‘lgan Mithra, o‘zining ruhlari oldidan, bayramning kechki marosimlarida ayniqsa chaqirilgan[10] va hozirgi kunda Eronning o‘zida bayram tugashida ruhlarni xayrlash uchun amaliyot mavjud bo‘lib, bu amaliyotning ichida qadimiy ekzorsizm elementlari bo‘lishi mumkin[11]. Yangi yilning erta tongida, har bir tomda o‘t yoqiladi va Avesta tilovat qilinadi. Kun yorishgan sari, ruhlar asta-sekin orqaga chekinadi, so‘ngra quyosh chiqqanda ular to‘liq ketgan deb hisoblanadi[12]. Hozirgi kunda ular ko‘tariladi, havoda ko‘tarilib, osmon uylariga qaytadi deb hisoblanadi; ammo qadimiy pagan davrida ular, ehtimol, quyosh nurlari ularga yetib bormasdan oldin, yana yerning qorong‘u hukumatiga qaytishgan. Fravašilar umuman qorong‘u soatlar bilan bog‘langan, barcha o‘lik ruhlar kabi, bu ham ularning Hamaspathmaēdaya(Haoma marosimi) dastlab kechki bayram bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, har bir 24 soatlik kunda bir soat fravašilarga bag‘ishlangan, ya'ni Aiwisruthra, quyosh botishidan yarim tunga qadar bo‘lgan vaqt. Bu davrda bir oz yomonlik mavjud, chunki bu vaqtda yomonlik kuchlari kuchayib borayotgandek tuyuladi, keyin esa yaxshilik kuchlari Ušahda, yarim tundan tonggacha bo‘lgan soatda, Sraoša himoyasida bo‘lib, ularni mag‘lub etishadi.[13] Ular o‘z amaliyotlarida Aiwisrūthra vaqtida hech qanday yirik marosimni o‘tkazishni yoki hatto tayyorgarlik ko‘rishni taqiqlashadi. Agar haoma tayyorlanishi kerak bo‘lsa, yoki suv olinishi, yoki sut olib kelingan bo‘lsa, bu ishlar faqat kun davomida yoki Sraoša himoyasida amalga oshirilishi kerak, lekin fravašilar tashqarida bo‘lsa, buni qilish mumkin emas.

Qorong‘ulikdan qo‘rqish tabiiy edi, va bu shunday bo‘lishi mumkin, chunki bu vaqtda yomonlik kuchlari kuchayadi. Qorong‘u joylarda yashovchi ruhlardan qo‘rquv bo‘lishi tabiiydir. Vedalarda bu qo‘rquv Zoroastriyaliklar orasida ko‘proq ifodalanganini ko‘rish mumkin, ehtimol, pagan Eronida ham shunday bo‘lgan; ammo, ilgari ta'kidlanganidek, o‘liklardan keladigan xavotirni bevosita ruhlarning o‘zi bilan bog‘lash emas, balki o‘limning o‘zi bilan bog‘lash kerak edi. "O‘likda dushmanlik tabiati yo‘q, lekin uni ta'sir etgan narsa qo‘rqishni keltirib chiqaradi."[14] Odamlar ajdodlariga g‘amxo‘rlik qilishgan va ularning yordam berishga tayyor ekanliklariga ishonishgan. Faqatgina ular to‘g‘ri

ibodat qilinmaganida, o‘liklar avlodlarga xavf tug‘dirishi mumkin; va hatto shunda (kamida Zoroastriyanlik an'anada) ularning reaksiyasi o‘zlarini e'tibordan chetda qoldirilganidan ko‘ra, e'tibor qilinmagani sababli o‘z farzandlariga yordam bera olmayotganlariga afsuslanishdir. 84 Vedik yondashuvida ham pitaralar bilan bog‘liq xuddi shunday holat mavjud; ammo Hindistonda aniq ritualar ichida taqiqlovchi formulalar mavjud. Shunday qilib, o‘lik ruhlar uchun oylik marosimda, ovqat takliflari kiritilganidan so‘ng, quyidagi so‘zlar aytiladi: "Ajdodlar, qadimgi chuqur yo‘llaringizga boringlar... ammo bir oydan keyin yana uyimizga qaytinglar, taklifni yeb, avlodlar bilan, qahramonlar bilan."[15]

Bu qadimiy formulada ruhlarni yuborish va ularning barakalarini so‘rash ruhida, Parsi jamoalarida hozirgi kunda Allomlarning Ruhlar Bayrami (Muktād yoki Farvardigān) tugagach, ba'zida "Eski kishilar va yangi bolalar" (junāñ doslāñ ane navāñ čhokrān) deb so‘zlar aytiladi, [16] bu orqali kelasi yil faqat "eski" ruhlar qaytib kelishini, yangi o‘limlar bo‘lmasligini, lekin yangi bolalar oilaga qo‘shilishini umid qilishadi. O‘liklar oilaning davom ettirilishiga qiziqishi tabiiydir, chunki ularning nomiga takliflar va marosimlar faqatgina avlodlar tug‘ilishi orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun fravašilar haqida shunday deyilgan: "Ularning ulug‘ligi va shon-sharafi bilan ayollar bolalar tug‘adi... osonlik bilan tug‘adi, bolalar bilan boy bo‘ladi" (Yt.13.15); va hozirgi kunda Zoroastriyaliklar orasida fravašilar ayniqsa nikoh marosimida chaqiriladi.[17] Ularning oilaning saqlanishiga g‘amxo‘rlik qilishini ta'kidlash, fravašilarni himoyachi ruhlar sifatida ko‘rish bilan bog‘liqdir.

Umuman olganda, fravašilar o‘z avlodlariga yashashda va rivojlanishda yordam beradigan himoyachi ruhlar sifatida ko‘rsatiladi. "Shunda Vourukaša dengizidan suvlar oqib chiqqanda, to‘g‘ri fravašilar, ko‘plab, ko‘plab yuzlar, ko‘plab, ko‘plab minglar, ko‘plab, ko‘plab o‘n minglar, har biri o‘z oilasi, o‘z qishlog‘i, o‘z qabilasi, o‘z mamlakati uchun suv olishga intilishadi" (Yt.13.65). Har biri, hayot beruvchi suvi topib, uni o‘z oldida yomg‘ir bulutlarida olib ketadi va aytadi: "Bizning erimiz gullab-yashnashi va o‘sishi uchun" (Yt.13.68).88

Biroq, fravašilar shunday tarzda himoya qiluvchi va e'tiborli tarzda tasvirlansa ham, ularning asosiy qahramonlik roli to‘liq yo‘qolmaydi. Ularning har biri o‘z xalqiga suv olishga intilayotgani quyidagi tarzda tasvirlangan: "Ular bizning janglarimizni (har biri) o‘z joyida va turar joyida, qaerda (har biri) joylashgan va yashagan bo‘lsa, kuchli bir chariot jangchisi kabi kurashishadi, qilich kamarini bog‘lab, o‘zining yaxshi topilgan xazinasini himoya qilish uchun" (Yt.13.67).[18] Shuningdek, shunday deyiladi: "Shunda, agar yerning qudratli hokimi dushmanlarning tahdidi ostida bo‘lsa, ularni, to‘g‘ri fravašilarni chaqiradi. Agar ular undan g‘azablanmagan bo‘lsa, ular unga yordam berish uchun kelishadi... Ular unga, yaxshi qanotli qushlar kabi, uchib kelishadi. Ular unga qurol va qurollar sifatida xizmat qilishadi... shunda, shuning uchun, na yaxshi tortilgan pichoq, na yaxshi siljigan tosh, na yaxshi tortilgan o‘q, na yaxshi uloqtirilgan nayza yoki tosh o‘z maqsadiga yetolmaydi" (Yt.13.69-72). Fravašilar "g‘alabalarda chaqiriladi, janglarda chaqiriladi" (Yt.13.23); va Zoroastriyanlik an'analarda Angra Mainyuning dunyoga tajovuzi haqida, to‘g‘ri fravašilar uning osmonni tahdidlashiga qarshi kurashish uchun, qo‘lida nayza tutgan jangchilar sifatida chaqirilgan, qal'ani himoya qiladigan varishtalarga o‘xshashdir.

Shunday qilib, fravašilar urushda yordam beradi va tinchlikda ham yordam beradi. Ular "xohlaganlarga mukofot beruvchi, kasallarga salomatlik beruvchi, ularni chaqirganlarga yaxshi omad beruvchi, ibodat qiluvchi, qoniqtiruvchi, takliflar olib keluvchi" (Yt.13.24). Aslida, hind pitaralari kabi, fravašilar ham xudolar kabi hurmat va duo qilinadi va ular duolarni eshitish va baraka berish qobiliyatiga ega deb hisoblanadi. Ehtimol, himoyachi kuchlar, boshlang‘ichda qahramonlik ruhlariga atab qo‘yilgan bo‘lishi mumkin, ular rivojlangan so‘zlar orqali, baxtli ruhlar xudolar bilan yashash umidida kengaytirildi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. Oldenberg, H. Die Religion des Veda. Berlin: Wilhelm Hertz, 1894.
2. Boyce, M. “On the Calendar of Zoroastrian Feasts.” Bulletin of the School of Oriental and African Studies (BSOAS), Vol. 33. London: SOAS, 1970.

3. Boyce, M. “Zoroastrianism.” Bulletin of the School of Oriental and African Studies (BSOAS), Vol. 31. London: SOAS, 1968.
4. Kaegi, A. “The Number Nine among the Ostarians.” In: Philological Treatises by Heinrich Schweizer-Sidler for the Celebration. Zurich: Orell Füssli, 1891.
5. Herodotus. The Histories. Translated editions. London: Various publishers (e.g., Penguin Classics).
6. Modi, J. J. The Religious Ceremonies and Customs of the Parsees. Bombay: British India Press, 1922.
7. Jackson, A. V. W. Persia Past and Present. New York: Macmillan Company, 1906.
8. Arrian. Anabasis of Alexander. London: Harvard University Press (Loeb Classical Library), 1929.
9. Moulton, J. H. Early Zoroastrianism. London: Williams & Norgate, 1913.
10. Al-Biruni. The Chronology of Ancient Nations. Edited and translated by Eduard Sachau. London: W. H. Allen & Co., 1879.
11. Sanjana, D. P. (ed.). Nirangistan (Nirangestan). Bombay: Government Central Press, 1894.
Bulsara, S. J. (trans.). Aerpatastan and Nirangastan. Bombay, 1915.
12. Lommel, H. Die Yäšt’s des Awesta. Göttingen: Vandenhoeck & Ruprecht, 1927.
13. Yashts. In: Avesta. Various editions and translations.
14. Keith, A. B. Religion and Philosophy of the Veda and Upanishads. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1925.
15. Satapatha Brahmana. Translated by Julius Eggeling. Oxford: Clarendon Press, 1882–1900.
16. Šāyest nē Šāyest. Edited by H. J. Tavadia. Hamburg: Friedrichsen, de Gruyter & Co., 1930.
17. Rana, D. S. M. Nodh ane Nuktačini. Bombay: 1939.

3-ShO‘BA. O‘ZBEKISTON ETNOLOGIYASIDA TRANSFORMATSION JARAYONLAR VA MILLATLARARO TOTUVLIK MASALALARI

MUSTAMLAKA TURKISTONIDA XORIJIY JAMOALAR VA ULARNING IJTIMOIY-IQTISODIY INTEGRATSIYASI

YARMATOV OYBEK SHAYMANOVICH

Samarqand davlat universiteti
“Tarixshunoslik va manbashunoslik” kafedrasi dotsenti
oybekyarmatov78@gmail.com

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Mazkur maqola XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Mustamlaka Turkistonida xorijiy jamoalarning shakllanishi, ularning migratsiya xususiyatlari hamda ijtimoiy stratifikatsiyadagi o‘rnini tahlil qiladi. Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, mavjud tarixshunoslikda xorijiy jamoalar ko‘pincha yagona va homogen qatlam sifatida talqin qilinib, ularning ichki ijtimoiy differensiallashuvi yetarli darajada o‘rganilmagan.

Maqolada arxiv hujjatlari, statistik materiallar va zamonaviy ilmiy adabiyotlar asosida Turkistonda yashagan chex, eston, shved va shveysariyalik jamoalar misolida xorijiy aholining shakllanishi, kasbiy tarkibi hamda jamiyatdagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqot “asimmetrik integratsiya” konsepsiyasi asosida olib borilib, unda xorijiy jamoalarning jamiyatga qo‘shilish darajasi huquqiy maqom, iqtisodiy imkoniyatlar va kasbiy faoliyatga bog‘liq holda turlicha kechgani asoslab beriladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xorijiy jamoalar yagona ijtimoiy qatlamni emas, balki ichki jihatdan differensiyalashgan va ierarxik tarzda tashkil topgan murakkab tizimni tashkil etgan. Ularning ayrimlari iqtisodiy va madaniy sohalarda yuqori mavqega ega bo‘lgan bo‘lsa, boshqalari past darajadagi ijtimoiy qatlamlarda faoliyat yuritgan.

Natijada, Turkiston jamiyatida ko‘p qatlamli va notekis integratsiyalashgan ijtimoiy tuzilma shakllangan. Mazkur tadqiqot xorijiy jamoalarni mustaqil ijtimoiy subyekt sifatida talqin qilib, migratsiya va ijtimoiy tarix masalalarini yangi nazariy yondashuv asosida tushuntirishga xizmat qiladi.

Данная статья анализирует формирование иностранных сообществ в колониальном Туркестане во второй половине XIX — начале XX века, их миграционные особенности, а также место в системе социальной стратификации. Актуальность исследования обусловлена тем, что в существующей историографии иностранные сообщества нередко рассматриваются как единый и гомогенный слой, тогда как их внутренняя социальная дифференциация изучена недостаточно.

В статье на основе архивных документов, статистических материалов и современной научной литературы анализируются процессы формирования иностранного населения, его профессиональный состав и положение в обществе на примере чешских, эстонских, шведских и швейцарских сообществ в Туркестане. Исследование проводится в рамках концепции «асимметричной интеграции», в соответствии с которой степень включённости иностранных сообществ в общество зависела от их правового статуса, экономических возможностей и профессиональной деятельности.

Результаты анализа показывают, что иностранные сообщества не представляли собой единый социальный слой, а формировали внутренне дифференцированную и иерархически организованную систему. Часть из них занимала более высокие позиции в экономической и культурной сферах, тогда как другие находились на более низких уровнях социальной структуры.

В результате в туркестанском обществе сформировалась многослойная и неравномерно интегрированная социальная структура. Данное исследование рассматривает иностранные

сообщества как самостоятельных социальных акторов и способствует интерпретации проблем миграции и социальной истории Центральной Азии на основе нового теоретического подхода.

This article analyzes the formation of foreign communities in colonial Turkestan during the second half of the nineteenth and early twentieth centuries, focusing on their migration patterns and their place within the system of social stratification. The relevance of the study lies in the fact that existing historiography often treats foreign communities as a single and homogeneous group, while their internal social differentiation has not been sufficiently examined.

Based on archival documents, statistical materials, and contemporary scholarly literature, the article examines the processes underlying the formation of foreign populations, their professional composition, and their position within society, using the examples of Czech, Estonian, Swedish, and Swiss communities in Turkestan. The study is conducted within the framework of the concept of “asymmetric integration, ” according to which the degree of incorporation of foreign communities into society depended on their legal status, economic opportunities, and professional activities.

The findings demonstrate that foreign communities did not constitute a single social stratum but rather formed an internally differentiated and hierarchically organized system. Some groups occupied higher positions in economic and cultural spheres, while others remained at lower levels of the social structure.

As a result, a multi-layered and unevenly integrated social structure emerged in Turkestan society. This study conceptualizes foreign communities as independent social actors and contributes to the interpretation of migration and social history in Central Asia through a new theoretical approach.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

Mustamlaka Turkistoni, xorijiy jamoalar, migratsiya, ijtimoiy stratifikatsiya, asimmetrik integratsiya, ijtimoiy differensiallashuv, kolonial jamiyat, Markaziy Osiyo tarixi, diasporalar, ijtimoiy tuzilma

Колониальный Туркестан, иностранные сообщества, миграция, социальная стратификация, асимметричная интеграция, социальная дифференциация, колониальное общество, история Центральной Азии, диаспоры, социальная структура

Colonial Turkestan, foreign communities, migration, social stratification, asymmetric integration, social differentiation, colonial society, Central Asian history, diasporas, social structure

Kirish. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkiston hududi Rossiya imperiyasining mustamlaka siyosati ta’sirida chuqur ijtimoiy-iqtisodiy va demografik o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Ushbu davrda mintaqa imperiya tizimiga integratsiyalashib, yangi migratsiya oqimlari shakllandi hamda turli millat vakillarining kirib kelishi natijasida ko‘pmillatli ijtimoiy muhit yuzaga keldi. Xususan, chex, eston, shved va shveysariyalik fuqarolar mintaqaning savdo, sanoat, madaniy va ilmiy hayotida faol ishtirok etib, uning ijtimoiy tuzilmasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Mavjud tarixshunoslikda ushbu jarayonlar turli davrlarda turlicha talqin qilingan: imperiya davrida ular “sivilizatsion missiya” doirasida izohlangan bo‘lsa, sovet davrida iqtisodiy ekspluatatsiya va mustamlakachilik siyosati bilan bog‘lab tushuntirilgan. Zamonaviy tadqiqotlarda esa migratsiya, diasporik tarmoqlar va kolonial jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi masalalari kengroq yoritilmoqda. Biroq xorijiy jamoalar ko‘pincha yagona ijtimoiy qatlam sifatida talqin qilinib, ularning ichki differensiallashuvi va ijtimoiy stratifikatsiyadagi o‘rni yetarli darajada konseptual tahlil qilinmagan.

Mazkur maqola aynan ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, Turkistondagi xorijiy jamoalarni ichki jihatdan differensiyalashgan va ko‘p qatlamli ijtimoiy tizim sifatida talqin qiladi. Tadqiqotda ularning migratsiya yo‘nalishlari, kasbiy tarkibi, huquqiy maqomi va ijtimoiy stratifikatsiyadagi o‘rni “asimmetrik integratsiya” konsepsiyasi asosida tahlil qilinadi. Ushbu yondashuv xorijiy

jamoalarning jamiyatga qo‘shilish jarayoni bir xil emas, balki turli omillar ta’sirida notekis va differensial xarakterga ega bo‘lganini aniqlash imkonini beradi.

Asosiy qism. Turkistondagi xorijiy jamoalarning shakllanishi va ijtimoiy tarkibini yanada aniqroq yoritish maqsadida ularning ayrim vakillari faoliyatiga murojaat qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqolada chex, shved, shveysariyalik va eston fuqarolarining Turkistondagi faoliyati tahlil qilinadi.

O‘rta Osiyoga kelgan dastlabki chexlardan biri musiqachi V. Leysek hisoblanadi. U XIX asrning 80-yillarida mintaqaga kelib, mahalliy xalq kuylarini o‘rganishni boshlagan. 1890-yillarda esa bir necha xalqlarning musiqa an’analarini uyg‘unlashtirib, aranjirovka asosida asarlar yaratgan va ular keng ommalashgan. Leysek G‘arbiy Yevropada o‘zbek musiqasi bo‘yicha konsertlar tashkil etgan hamda xor san’ati rivojiga ham hissa qo‘shgan [1, 139.c.]

Yana bir chex musiqachisi — fleytachisi Adolf Tershak Toshkentga gastrol safari bilan [1, 139 c]. XX asr boshlarida Turkistonda 50 dan ortiq chexlar faoliyat yuritgan bo‘lib, ularning asosiy qismini ziyolilar tashkil etgan. Qolganlari esa ishchi, hunarmand va savdogarlardan iborat bo‘lib, asosan shahar hududlarida yashagan.

Birinchi jahon urushining dastlabki yillarida chexlar chet el fuqarolari sifatida Turkiston hududidan chiqarib yuborilgan. Biroq keyinchalik harbiy asirlar va qochqinlar hisobiga ularning soni yana ortgan [2].

Umuman olganda, Turkiston o‘lkasida chexlar son jihatidan ko‘p bo‘lmagan bo‘lsa-da, ularning ijtimoiy tarkibi xilma-xil bo‘lgan. Ular orasida hunarmandlar, savdogarlar va ishchilar bilan bir qatorda, muayyan qismi yuqori malakali ziyolilar — muhandislar, shifokorlar va boshqa mutaxassislardan iborat edi. Qishloq hududlarida chexlarning kamligi ularning asosan shahar muhitida faoliyat yuritganini ko‘rsatadi. Bu holat Turkiston o‘lkasidagi xorijiy aholi tarkibining ijtimoiy-professional jihatdan differensiyalashganligini tasdiqlaydi.

Birinchi jahon urushi yillarida chet el fuqarolari sifatida ko‘plab chexlarning Turkiston hududidan chiqarib yuborilishi imperiya xavfsizlik siyosatining natijasi edi. Biroq keyinchalik ularning o‘rnini harbiy asirlar va qochqinlar, asosan chex millatiga mansub shaxslar egallab, mintaqaning demografik hamda ijtimoiy tarkibining qayta shakllanishiga olib keldi. Mazkur toifadagi shaxslar orasida musiqachilar, me’morlar, quruvchilar va boshqa mutaxassislarning mavjudligi ularning iqtisodiy va madaniy hayotda muhim rol o‘ynaganini ko‘rsatadi [2].

Ayrim chet el fuqarolari Turkiston sharoitida o‘z malakalarini amaliy jihatdan namoyon etib, mahalliy jamiyatga integratsiyalashgan. Jumladan, harbiy shifokor Dubinchikning Xorazmda faoliyat yuritishi xorijiy mutaxassislarning tibbiyot sohasida ham jalb etilganini tasdiqlaydi. Shuningdek, Turkiston hukumat organlarining taklifiga binoan arxitektor Yaroslav Gazenkopf Toshkentga qaytib kelib, sovet fuqaroligini qabul qilgani xorijiy mutaxassislarni jalb etish va ularni institutsional ravishda integratsiyalash siyosati mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Uning qizi — arxitektor Yaroslav Gazenkopf tomonidan Toshkentdagi Chilonzor turar-joy massivining dastlabki ko‘p qavatli uylarini loyihalashtirilishi esa bu integratsiya jarayonining keyingi bosqichlarda ham davom etganini ko‘rsatadi [2].

Bundan tashqari, Toshkent muzeyida faoliyat yuritgan avstriyalik fuqaro Avgustning numizmatik kolleksiyalarni tavsiflash bilan shug‘ullangani xorijiy mutaxassislarning ilmiy-madaniy sohalarda ham faol ishtirok etganini ko‘rsatadi. Bu holat Turkiston o‘lkasida xorijiy elementlardan nafaqat iqtisodiy, balki ilmiy va madaniy resurs sifatida ham foydalanilganini anglatadi [2].

Harbiy asir chexlarning Turkistonda, ayniqsa ofitserlar tarkibining nisbatan erkin sharoitda yashagani va ularning 1915-yilda Toshkentda tashkil etilgan simfonik orkestr tarkibida muhim o‘rin tutgani (dirijyor F. Sulyachek rahbarligida) ularning madaniy hayotdagi faol ishtirokini ko‘rsatadi. Bu holat harbiy asirlarning faqat nazorat obyekti bo‘lib qolmaganini, balki ijtimoiy va madaniy jarayonlarga faol integratsiyalashganini tasdiqlaydi [2].

1917-yildan keyin Toshkent shahrida chet el fuqarolari qo‘mitasining tashkil etilishi va uning tarkibiga Genrix Glinek hamda Kaler Drabek kabi chex vakillarining kiritilishi xorijiy elementlarni boshqarishning institutsional shakl kasb etganini ko‘rsatadi. Samarqand shahrida Svoboda rahbarligida shunga o‘xshash tashkilotning faoliyat yuritishi esa ushbu

jarayonning hududiy miqyosda ham keng yoyilganini tasdiqlaydi [2].

1918-yilda Qo‘qon shahrida 74 nafar chex va slovak harbiy asirlarining bolshevik tashkilotiga qo‘shilishi, ularning yetakchilaridan biri Sobchekning faoliyati hamda F. Kujelo rahbarligida chexoslovak kommunistik tashkilotining tuzilishi xorijiy elementlarning siyosiy jarayonlarda ham faol ishtirok etganini ko‘rsatadi [2]

1920-yillarning boshlarida harbiy asirlarni evakuatsiya qilish jarayonining boshlanishi ushbu ijtimoiy guruhning keyingi taqdirini belgilab berdi. Ayrimlari, ayniqsa oilali shaxslar, Rossiya fuqaroligini qabul qilib mahalliy jamiyatda qolgan bo‘lsa, boshqalari o‘z vatanlariga qaytgan yoki keyinchalik yana Turkistonga kelgan. Bu jarayon xorijiy elementlarning mobil va o‘zgaruvchan ijtimoiy qatlam ekanligini ko‘rsatadi. [6, 3.b]

Turkistonda chex fuqarolaridan tashqari shveysariyalik fuqarolar ham mavjud bo‘lgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston hududida Fransiya va Shveysariyadan kelgan qariyb 100 nafar shveysariyalik yashagani tarixchi A.I. Matveyev tomonidan qayd etilgan. Masalan, 1905-yilda Shveysariyadan kelgan Lidiya ismli ayol Toshkentda enaga sifatida faoliyat boshlagan, keyinchalik esa yosh ofitserlar tayyorlaydigan maktabda fransuz tilidan dars bergan. Sovet davrida u Toshkent pedagogika universitetida uzoq yillar faoliyat yuritgan [2]

Shuningdek, Turkistonda kam sonli bo‘lsa-da, eston fuqarolarini ham uchratish mumkin edi. Mintaqada dastlabki estonlar XIX asrning 60-yillarida paydo bo‘lgan bo‘lib, ularning asosiy qismini dehqonlar tashkil etgan. 1886-yilda Toshkentning ruslar yashaydigan qismida Otto Redlen ismli eston lyuterian savdogorining mavjudligi qayd etilgan[4, 202.c]. Farg‘ona vodiysida ham 30 ga yaqin eston dehqonlari faoliyat yuritgan.

XX asr boshlarida Turkiston hududida cherkov xizmatchisi sifatida faoliyat olib borgan qariyb 100 nafar eston mavjudligi qayd etiladi. Birinchi jahon urushidan keyin qochqinlarni qayta evakuatsiya qilish jarayonida ham 200 ga yaqin eston Turkistonda qolgan bo‘lib, ularning asosiy qismi Toshkent, Samarqand, Qo‘qon va Farg‘ona hududlarida yashagan [3.]. Bu holat estonlarning mintaqadagi barqaror, ammo son jihatdan cheklangan diasporani tashkil etganini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, Turkistonda shved fuqarolarini ham uchratish mumkin bo‘lgan. Ularning soni juda kam bo‘lsa-da, mavjud bo‘lgan. Masalan, 1926-yilda O‘zbekiston hududida 15 nafar shved fuqarosi qayd etilgan [5, 5.b]. Biroq XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkistondagi shvedlarning aksariyati etnik jihatdan shved bo‘lsa-da, Rossiya fuqaroligini qabul qilgan edi. Masalan, XIX asr oxiridagi statistik ma’lumotlarga ko‘ra, Toshkentning yangi shahar qismida 6 nafar rus fuqaroligiga ega shved yashagan. Bu holat Rossiya imperiyasi tomonidan chet el fuqarolariga nisbatan qo‘llanilgan cheklovlar va bosim siyosati bilan izohlanadi. [6, 3-b.]

Manbalarda shvedlarning Turkistonda ancha oldin ham mavjud bo‘lganligi qayd etiladi. Jumladan, 1717-yilda Xivaga kelgan B. Cherkasskiy qo‘shini tarkibida 600 nafarga yaqin shvedlar bo‘lgan. Tarixchi A.I. Matveyev ma’lumotlariga ko‘ra, XX asr boshlarida Turkiston general-gubernatorligi byurokratik apparati tarkibida ham Rossiya fuqaroligini qabul qilgan shvedlar mavjud bo‘lgan [2]

Shuningdek, Turkistondagi shvedlar orasida diniy faoliyat bilan shug‘ullangan shaxslar ham bo‘lgan. Masalan, 1905-yilda Toshkentdagi cherkovlardan birida 15 nafar shved faoliyat yuritgan. Nemis tarixchisi V. Kahle ularning ayrimlari Neva daryosi bo‘ylaridan kelgan va Rossiya fuqaroligini qabul qilgan shaxslar ekanini ta’kidlaydi. [6, 12–25.b] Bundan tashqari, ayrim shvedlar siyosiy jarayonlarda ham ishtirok etgan. Xususan, 1917-yil mart oyida Xokin fon Shulman boshchiligidagi Shvetsiya delegatsiyasi Toshkentga kelib, Birinchi jahon urushi davrida asirga olingan Avstriya va Germaniya askarlarining holatini o‘rgangan. Shuningdek, Konstantin Vendland ismli geologning Toshkentda faoliyat yuritgani ham qayd etiladi [2].

Xulosa. Yuqoridagi ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan xorijiy jamoalar son jihatidan nisbatan kam bo‘lishiga qaramay, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda muhim o‘rin tutgan. Chex, eston, shved va shveysariyalik fuqarolar misolida ularning kasbiy tarkibi va faoliyati turli sohalarni —

madaniyat, ilm-fan, tibbiyot, savdo va ma’muriy boshqaruv tizimini qamrab olgani kuzatiladi.

Shu bilan birga, xorijiy jamoalar yagona ijtimoiy qatlamni tashkil etmagan, balki ichki jihatdan differensiyalashgan va ierarxik tarzda shakllangan murakkab tizim sifatida namoyon bo‘lgan. Ularning Turkiston jamiyatiga integratsiyasi huquqiy maqom, kasbiy faoliyat va imperiya siyosatiga bog‘liq holda turli darajada kechgan.

Mazkur holat Turkiston jamiyatida ko‘p qatlamli va notekis integratsiyalashgan ijtimoiy tuzilmaning shakllanganligini ko‘rsatadi hamda xorijiy jamoalarni mustaqil ijtimoiy subyekt sifatida o‘rganish zarurligini asoslaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Векслер С. М. (ред.). Очерк истории узбекской музыкальной культуры до Великой Октябрьской социалистической революции. Ташкент, 1965. С. 139).

2.Матвеев А.И. Участие зарубежных выходцев в общественно-политической жизни Туркестана // Научные труды ТашГУ. – 1975. – № 473

3. История народов Узбекистана. Т. 2. – Ташкент: Издательство Академии наук УзССР, 1950.

4. Этнический атлас Узбекистана –Ташкент: Савместноэ издание ”ИООФС-Узбекистан” и ЛИА « Р. Элина», 2002, стр. 202

6.O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivi (O‘zR MA). F. I-1, op. 27, d. 517, l. 5.

6.O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivi (O‘zR MA). F. I-7, op. 1, d. 5146, l. 3.

7.O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivi (O‘zR MA). F. I-18, op. 1, d. 1814, l. 9.

8.O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivi (O‘zR MA). F. I-19, op. 1, d. 10560, ll. 12–25

O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO MUNOSABATLARNING HUQUQIY ASOSLARI

DAVLATOVA SHOIRA

Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Ushbu maqolada O‘zbekistonda millatlararo munosabatlarning huquqiy asoslari haqida fikr yuritilgan.

В данной статье рассматриваются правовые основы межэтнических отношений в Узбекистане.

This article examines the legal foundations of interethnic relations in Uzbekistan.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

millat, millatlararo munosabatlar, milliy ozchilik, millatlararo totuvlik, inson huquqlari, erkinliklari, milliy ozchilik, deklaratsiya, konvensiya.

В данной статье рассматриваются правовые основы межэтнических отношений в Узбекистане.

nation, interethnic relations, national minority, interethnic harmony, human rights, freedoms, national minority, declaration, convention.

Bugungi kunda dunyodagi ko‘pgina milliy tarkibi murakkab davlatlarda millatlararo munosabatlarda bag‘rikenglikni ta’minlash uchun zarur qonunchilik bazasi yaratilgan. “Demokratik huquqiy davlat qurish borasida respublikamizda keng miqyosli ishlar amalga oshirilib, bu yo‘nalishda katta yutuqlarga erishildi. Xalqaro andozalarga javob beradigan va milliy o‘zligimizni aks ettiradigan konstitutsiya qabul qilindi. O‘zbekiston inson huquqlarini ta’minlashga qaratilgan, jahon miqyosida e’tirof etilgan ko‘plab xalqaro deklaratsiya, konvensiya va hujjatlarga qo‘shildi va shundan kelib chiqadigan siyosiy va huquqiy

qoidalar respublikamizning siyosiy taraqqiyotida va huquqiy me’yoriy tizimni rivojlantirish jarayonida inobatga olinmoqda”. [1, 40-b.]

Millatlararo munosabatlarning huquqiy asoslari xalqaro va milliy huquqiy hujjatlarni o‘z ichiga oladi. Xalqaro huquqiy hujjatlar:

1. Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi.

2. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt.

Ushbu hujjatlar butun dunyo davlatlarida istiqomat qiluvchi insonlarning huquq va erkinliklarini belgilaydi, ularning tengligi ta’minlanishini kafolatlaydi, milliy belgilariga qarab kamsitishdan himoya qiladi va turli etnik guruhlar hamda konfessiyalarning o‘zaro ta’sirini, shu jumladan millatlararo tashkilotlarni, markazlarni tuzishni tartibga soladi.

Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi millati yoki dinidan qat’i nazar, barcha odamlar uchun umuminsoniy huquq va erkinliklarni mustahkamlaydi. Uning

2-moddasi 1-bandida: “Har bir inson irqi, tanasining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e’tiqodlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mol-mulki, tabaqasi yoki boshqa holatidan qat’i nazar ushbu Deklaratsiyada e’lon qilingan barcha huquq va erkinlikka ega bo‘lishi zarur”. [2, https: // lex.uz] ligi yozib qo‘yilgan.

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1966-yil 16-dekabrda qabul qilingan va 1976-yil 23-martda kuchga kirgan VI qism, 53-moddadan iborat bo‘lgan “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt” inson huquqlari haqidagi asosiy xalqaro hujjatlardan biri hisoblanadi.

Uning III-qismi 24-moddasining 1-bandida har bir bola irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli yoki tug‘ilishi (nasli-nasabi) dan qat’i nazar hech bir kamsitishsiz go‘dakligi sababli oila, jamiyat va davlat tomonidan muhofaza choralari ko‘rilishi huquqiga egaligi belgilangan. 26-moddasida esa barcha kishilar qonun oldida tengdirlar va hech bir kamsitishsiz qonun orqali teng himoya qilinish huquqiga egadirlar. Bu borada har qanday turdagi kamsitish qonun bilan taqiqlab qo‘yilishi va qonun barcha shaxslarga hech bir kamsitishsiz, jumladan irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy va boshqa e’tiqodi, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli, tug‘ilishi (nasli-nasabi) dan va boshqa holatidan qat’i nazar kamsitishga qarshi teng va samarali muhofazani kafolatlashi kerak” [3, https: // lex.uz], degan me’yor mustahkamlangan.

Mazkur hujjatning 27-moddasida etnik, diniy va til jihatdan ozchilikni tashkil etuvchi elatlar mavjud bo‘lgan mamlakatlarda, bunday ozchilikka mansub shaxslarga o‘z guruhining boshqa a’zolari bilan birgalikda o‘z madaniyatidan foydalanish, o‘z diniga sig‘inish va rasm-rusumlarini bajarish, shuningdek ona tilidan foydalanish huquqi rad etilishi mumkin emasligi ta’kidlangan. [4, https: // lex.uz]

O‘zbekistonda asosiy hujjatlar:

• O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

• O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Millatlararo munosabatlar sohasidagi O‘zbekiston Respublikasining davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida millatlararo totuvlikning huquqiy asoslari belgilangan, millatlararo munosabatlar ustuvor yo‘nalish bo‘lib, unda barcha fuqarolarning huquqlari tengligi, milliy kamsitishlarga yo‘l qo‘ymaslik va birlik tamoyillari mustahkamlangan. Uning 4-moddasida: “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tili ekanligi. O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlashi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratilishi”, [5, 4-5-b.] 8-moddasida esa millatidan qat’i nazar, barcha respublika fuqarolari O‘zbekiston xalqini tashkil etishi belgilangan. [6, 7-b.]

Bundan tashqari Asosiy Qonunimiz mamlakatimiz fuqarolarini jinsi, irqi, millati, tili, kelib chiqishi, mulkiy va rasmiy maqomi, yashash joyi, diniy mansubligi, e’tiqodi, jamoat birlashmalariga a’zoligi yoki boshqa holatlaridan qat’i nazar, inson va fuqarolik huquqlari hamda erkinliklarining tengligini kafolatlashi, milliy madaniyat, til va an’analarni saqlash hamda rivojlantirish uchun milliy-madaniy avtonomiyalarni yaratish faoliyatini tartibga solishi ham mustahkamlangan.

2019-yil 15-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-5876-sonli Farmoni qabul qilingan bo‘lib, ushbu hujjatda davlat o‘z

hududida yashovchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analariga hurmat ko‘rsatishini ta’minlashi hamda ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratishi ta’kidlangan. Mazkur konsepsiyada quyidagi vazifalar belgilangan:

– millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada rivojlantirish sohasida davlat organlari va tashkilotlarining, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan o‘zaro hamkorlik darajasini yanada oshirish;

– jamiyatda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan mojaroli vaziyatlar va ixtiloflarning barvaqt oldini olish va ularni profilaktika qilish bo‘yicha faoliyatni tashkil etish asosi sifatida joylarda millatlararo munosabatlar holatini monitoring qilish tizimi va mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish;

– millatlararo muomala madaniyatini tarbiyalash, O‘zbekiston xalqining tarixi va an’analarini o‘rganish bo‘yicha ta’lim, axborot va madaniy-ma’rifiy chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish;

– millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada rivojlantirish sohasida davlat organlari mutaxassislarini, shuningdek, boshqa tashkilotlar xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish borasidagi ishlarni takomillashtirish;

– millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada rivojlantirish sohasida O‘zbekiston Respublikasining davlat siyosatini amalga oshirish jarayonida davlat organlari va tashkilotlarining, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan, shu jumladan ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro hamkorligi mexanizmlarini takomillashtirish;

– millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada rivojlantirish, respublikamizda yashab turgan turli millat va elat vakillarining tili, madaniyati, an’analari va urf-odatlarini saqlash va rivojlantirish sohasida O‘zbekiston Respublikasining davlat siyosatini samarali amalga oshirish uchun qo‘shimcha ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish;

– jamiyatda ko‘p millatli katta oila his-tuyg‘usini, respublikamizda yashayotgan turli millat va elat vakillari o‘rtasida do‘stlik va totuvlikni yanada mustahkamlash, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, fuqarolarning teng huquqliligini ta’minlash, ularning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslik;

– millatlararo munosabatlarni mustahkamlash, mamlakat hududida va undan tashqarida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida xalqaro hamkorlikni va chet mamlakatlar bilan do‘stona aloqalarni rivojlantirish, vatandoshlarni qo‘llab-quvvatlash va xorijdagi o‘zbek diasporalari bilan yaqin hamkorlik qilish, O‘zbekistonning jahon maydonidagi obro‘-e’tibori va imidjini oshirish. [7, https: // lex.uz]

Hozirgi vaqtda respublikamizda va respublikadan tashqarida yashayotgan turli millatga mansub vatandoshlarimizni huquqlarini har tomonlama himoya qilishga e’tibor ortib bormoqda.

Bundan tashqari Yangi O‘zbekiston strategiyasida ham millatlararo munosabatlar sohasida bir qancha maqsadlar belgilangan. Jumladan, millatlararo totuvlikni mustahkamlash, unga xavf soladigan turli muammolarni barvaqt oldini olish va ularni profilaktika qilish, shuningdek, mazkur sohadagi tahdid va xatarlarga qarshi kurashish bo‘yich ta’sirchan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hamda amalga oshirish, millatlararo munosabatlar sohasidagi ishlar holatini joylarga chiqib tizimli o‘rganishni tashkil etish [8, 308-b.] ushbu maqsadlardan o‘rin olgan. “Millatning umumiy asosi – til, din, tarix va irq bo‘lishi mumkin” [9, 465-b.] Demak, shundan kelib chiqib har bir davlat millatlararo munosabatlarni ijobiy hal qilishda ana shu jihatlarga jiddiy e’tibor berishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillikning ilk davrlaridan millatlararo totuvlik g‘oyasi ilgari surilgani va amalda unga erishilgani O‘zbekiston uchun tanlangan eng to‘g‘ri yo‘l bo‘ldi. 130 dan ortiq millat vakillari yashayotgan, 140 dan ortiq milliy-madaniy markazlar faoliyat yuritayotgan O‘zbekiston uchun milliy masalani tolerantlik asosida adolatli hal qilish xalqimizning katta yutug‘idir. Davlatimiz milliy masalani oqilona, xalqaro tamoyillarga mos yo‘l bilan yechish, millatlararo munosabatlarni uyg‘unlashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqdi va amalga oshirdi. Bu borada konstitutsiyaviy talablar asosida ish tutildi. Yurtimizning ko‘p millatli

xalqi ongida “O‘zbekiston – yagona Vatan” degan g‘oya asosida haqiqiy vatandoshlik tuyg‘usini shakllantirish bu boradagi ishlarning muhim yo‘nalishiga aylandi.

AQShning asoschi, ko‘p qirrali arbob, diplomat, ixtirochi va yozuvchi, mustaqillik deklaratsiyasi, konstitutsiyasi va Versal shartnomasini imzolagan shaxs Benjamin Franklin “Yuksalish san’ati” asarida 13 ta fazilatni o‘zi uchun muhim, deb hisoblaydi va ushbu fazilatlarni boshqalarga ham tavsiya qiladi. Uning to‘qqizinchi tavsiyasida “Sabr” deb nomlanadi va unda: “Keskinlikdan saqlaning, sizni xafa qilganlardan nafratlansangiz ham g‘azab sochmay bardosh qiling”, [10, 18-19-b.] degan fikrlar keltirilgan. Benjamin Franklinning bu munosabatidan millatlar o‘rtasida barqarorlikni ta’minlash sohasida ham foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Toshkent, “Yuridik adabiyotlar publish”, 2023, 4, 5, 7-betlar.
2. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2021, 308-бет.
4. Франклин Бенжамин. Юксалиш санъати. Тошкент, “Hamroh books”, 2022, 18-19-бетлар.
3. Rashidov O. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag‘rikenglik. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, “Muharrir”, 2022, 40-bet.
4. Қирғизбоев М. Сиёсатшунослик. Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2013, 465-бет.
4. https://lex.uz

TANDIR GO‘SHTNING TARIXIY-ETNOGRAFIK ASOSLARI VA UNI GASTRONOMIK BREND SIFATIDA RIVOJLANTIRISH MASALALARI

UMAROV IKROMJON IBRAGIMOVICH

Termiz Davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasi dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Email: lochin-umarov@mail.ru

Annotatsiya / Аннотация / Abstract
Mazkur maqolada o‘zbek milliy oshxonasining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan tandir go‘sht taomining kelib chiqishi, tarixiy-etnografik ildizlari, tayyorlanish texnologiyasi va hududiy xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, uni gastronomik turizm obyekti sifatida rivojlantirish, milliy brend darajasiga olib chiqish hamda madaniy meros sifatida saqlash masalalari kompleks yondashuv asosida yoritilgan.
В данной статье проводится научный анализ происхождения, историко-этнографических корней, технологии приготовления и региональных особенностей мясного блюда, приготовленного в тандыре, — важной составляющей узбекской национальной кухни. Также рассматриваются вопросы его развития как объекта гастрономического туризма, повышения его статуса до уровня национального бренда и сохранения как культурного наследия на основе комплексного подхода.
This article scientifically analyzes the origin, historical and ethnographic roots, preparation technology, and regional characteristics of tandoor meat dish, an important component of Uzbek national cuisine. It also covers the issues of its development as a gastronomic tourism object, raising it to the level of a national brand, and preserving it as a cultural heritage based on a comprehensive approach.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords
tandir go‘sht, milliy oshxona, gastronomik brend, madaniy kapital

Мясо тандура, национальная кухня, гастрономический бренд, культурная столица
tandoor meat, national cuisine, gastronomic brand, cultural capital

Globallashuv sharoitida milliy madaniyat elementlarini saqlash va ularni xalqaro miqyosda targ‘ib qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Milliy oshxona esa har bir xalqning tarixiy xotirasi, tabiiy muhiti va ijtimoiy hayotini o‘zida mujassam etgan muhim madaniy fenomen sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbek milliy oshxonasida alohida o‘rin egallagan tandir go‘sht taomi nafaqat oziq-ovqat mahsuloti, balki etnografik va ijtimoiy ahamiyatga ega an’anaviy qadriyat sifatida o‘rganishni talab etadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi — tandir go‘shtning tarixi, texnologiyasi va madaniy ahamiyatini ilmiy tahlil qilish hamda uning zamonaviy iqtisodiy va turistik salohiyatini asoslashdan iborat.

Tandir go‘shtning shakllanishi XVIII–XIX asrlarga to‘g‘ri kelib, u Surxondaryo mintaqasining tog‘li hududlari bilan uzviy bog‘liq. Xususan, Sherobod tumanidagi Xatak qishlog‘i ushbu taomning tarixiy markazi sifatida qaraladi. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, mazkur taom ilk bor XIX asrning 60-yillari oxirida xataklik Shodmon mergan tomonidan amir Muzaffarxon yuborgan vakillar uchun tayyorlangan [1].

Etnografik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ushbu taom dastlab mahalliy aholi tomonidan tabiiy sharoitda — tog‘li hududlarda boqilgan chorva mollari go‘shtini tayyorlash ehtiyoji asosida vujudga kelgan. XIX asrning ikkinchi yarmida mazkur taom rasmiy mehmonlar uchun tayyorlangani uning ijtimoiy maqomini oshirgan. Aholi migratsiyasi natijasida tandir go‘sht tayyorlash an’anasi boshqa hududlarga ham tarqalgan va XX asrga kelib umummilliy taomga aylangan [2].

Tandir go‘sht tayyorlash jarayoni bir nechta bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

Yangi so‘yilgan go‘shtni bo‘laklarga ajratish;

Unga tabiiy ziravorlar (archa, yalpiz va boshqalar) qo‘shish;

Go‘shtni maxsus tayoqchalarga terish;

Tandirda ilib, og‘zini yopib, loy bilan muhrlash;

Ma’lum vaqt davomida pishirish.

Bu jarayonda go‘sht tabiiy bug‘da pishadi va o‘zining asl xususiyatlarini saqlab qoladi [3].

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, tandir go‘shtning ta’m xususiyatlari minerallarga boy tuproq, tabiiy o‘t-o‘lanlar, toza havo va tabiiy muhit kabi omillarga bog‘liq. Bu omillar chorva go‘shti tarkibiga ta’sir ko‘rsatib, uning ta’mi va sifatini oshiradi.

Tandir go‘sht o‘zbek xalqining mehmondo‘stlik an’anasida muhim o‘rin tutadi. U asosan to‘y marosimlarida, mehmon kutib olishda, bayramlarda tayyorlanadi. Mazkur taom ijtimoiy birlik va hurmat ramzi sifatida ham qaraladi. Bu jihatlar uni madaniy antropologiya nuqtai nazaridan muhim tadqiqot obyektiga aylantiradi [4].

Hozirgi kunda milliy taomlar mamlakatning xalqaro imijini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Qolaversa, zamonaviy iqtisodiyotda milliy taomlar “madaniy kapital” sifatida qaraladi. Fransiya, Yaponiya va Meksika kabi mamlakatlar o‘z oshxonasi orqali jahonga tanilgan [5]. Shu nuqtai nazardan, tandir go‘shtni milliy brend sifatida shakllantirish, maxsus festivallar tashkil etish, turistik mahsulotga aylantirish maqsadga muvofiqdir. Bu choralar mamlakatning turistik jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tandir go‘sht faqat an'anaviy taom sifatida emas, balki iqtisodiy resurs sifatida ham katta salohiyatga ega. Biroq uni standartlashtirish, sifat nazorati va xalqaro talablarga moslashtirish zarur.

Xulosa qilganda, tandir go‘sht o‘zbek milliy oshxonasining noyob namunasi bo‘lib, uning shakllanishi tabiiy, ijtimoiy va madaniy omillar bilan bog‘liq. Ushbu taomni ilmiy asosda o‘rganish va uni gastronomik brend sifatida rivojlantirish milliy madaniy merosni saqlash, turistik salohiyatni oshirish va mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirishga imkon beradi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. Умаров И., Раҳмонов Ҳ., Худойбердиев Э. Сурхон воҳасида этник тарих ва этномаданий жараёнлар (хатакилар уруғи мисолида). –Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2014. –Б. 88.

2. Турсунов С., Умаров И., Пардаев Т., Холмонова Ф., Турсунов А., Махмадиярова Н., Нарзуллаева Н. Ўзбекистонда топонимик номлар ва уларнинг тарихи. –Термиз: Сурхон-Нашр, 2017. –Б. 322.

3. Умаров И. Бадаш: тарих ва анъана. –Термиз: Сурхоннашр, 2018. –Б. 19-20.

4. Умаров И.И. Хатак қатағонларида тандир гўшт тайёрлаш анъаналари // Янги Ўзбекистон шароитида тарих ва этнология фанларининг долзарб масалалари ва истиқболлари” мавзусидаги республика илмий анжумани мақолалар тўплами. – Тошкент: “Shafoat Nur Fayz”, 2024. –Б. 231-233.

5. UNESCO. Intangible Cultural Heritage Lists. — 2023.

ТРАДИЦИОННОЕ КУЗНЕЧНОЕ ХОЗЯЙСТВО КАТАГАНОВ ЮЖНОГО УЗБЕКИСТАНА: ИСТОРИКО-ЭТНОГРАФИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

УМАРОВ ИКРОМЖОН ИБРАГИМОВИЧ

доцент Термезского государственного университета, доктор философии (PhD) по историческим наукам
Email: lochin-umarov@mail.ru

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Ushbu tadqiqot doirasida Janubiy O‘zbekistonda yashovchi etnik guruh — qatag‘onlarning temirchilik hunarmandchiligiga xos noyob an’analari ko‘rib chiqiladi. Ayniqsa, mazkur hunarning texnologik jihatlari, etnografik xususiyatlari hamda uning madaniy-tarixiy konteksti tahliliga alohida e’tibor qaratilgan. Ishda qatag‘onlar tomonidan qo‘llanilgan o‘ziga xos usullari hamda ularning mintaqada temirchilik kasbining rivojlanishiga ko‘rsatgan ta’siri tahlil etiladi. Shuningdek, temirchilik an’analarining shakllanishi va saqlanib qolishida madaniy va ijtimoiy omillarning ta’siriga alohida ahamiyat beriladi.

В рамках настоящего исследования рассматривается уникальная традиция кузнечного ремесла катаганов, этнической группы, проживающей в Южном Узбекистане. Особое внимание уделяется анализу технологических аспектов, этнографических особенностей и культурно-исторического контекста данного ремесла. В данной работе анализируются специфические методы, используемые катаганами, а также их влияние на развитие кузнечного дела в регионе. Особое внимание уделяется влиянию культурных и социальных факторов на формирование и сохранение традиций кузнечного ремесла.

Within the framework of this study, the unique tradition of blacksmithing among the Katagans—an ethnic group residing in Southern Uzbekistan—is examined. Particular attention is paid to the analysis of the technological aspects, ethnographic features, and the cultural-historical context of this craft. The paper analyzes the specific methods employed by Katagan blacksmiths and their influence on the development of blacksmithing in the region. Special emphasis is also placed on the role of cultural and social factors in the formation and preservation of blacksmithing traditions.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

Хатак, Ходжанкон, кузнец, печь, пророк Дауд, духовные покровители.
Xatak, Xo‘janqon, temirchi, kamb, Dovud payg‘ambar, pirlar.
Khatak, Khodzhankon, blacksmith, furnace, prophet Dawood, spiritual patrons.

В конце XIX — начале XX века значительная часть этнической группы катаганов, проживавшей на территории Южного Узбекистана, сосредоточилась в горном кишлаке Хатак, расположенном в Кухитангской горной системе. Этот регион,

обладающий уникальными природными условиями, способствовал развитию разнообразных ремесел, которые играли ключевую роль в экономической жизни сообщества.

Ремесленное хозяйство катаганов в указанный период характеризовалось высоким уровнем профессионализма и специализации. Оно включало в себя широкий спектр производственных практик, начиная от обработки металлов и заканчивая изготовлением текстильных изделий. Особого внимания заслуживают такие ремесла, как кузнечное дело, ювелирное искусство, гончарство и ткачество, которые не только удовлетворяли внутренние потребности сообщества, но и служили важным элементом межрегионального и межэтнического обмена.

Исследование ремесленного хозяйства катаганов Кухитанга представляет собой значимый вклад в изучение этноэкономической истории региона. Оно позволяет глубже понять механизмы адаптации этнических групп к изменяющимся социально-экономическим условиям, а также выявить особенности их производственных традиций и культурных практик. Таким образом, анализ ремесленного хозяйства катаганов способствует расширению наших знаний о сложной и многогранной картине экономического развития Юга Узбекистана в конце XIX — начале XX веков.

Катаганы, являясь частью более широкого этнокультурного комплекса тюркских народов, демонстрируют высокий уровень мастерства в обработке металла, что позволяет им создавать изделия, сочетающие в себе функциональность и эстетическую ценность.

Согласно древним преданиям, предки хатак-катаганцев традиционно были заняты производством чугуна. В частности, существует легенда, утверждающая, что до монгольского завоевания, осуществленного Чингисханом, три раза в год осуществлялась транспортировка железа и чугуна с горы Кухитанг, для чего использовались 500 верблюдов.

Производство чугуна осуществлялось в специализированных печах, которые, как правило, возводились в районах с высоким содержанием железных руд и наличием достаточного количества топлива, преимущественно древесины. В кишлаке Ходжанкон, который отличался обилием бурых железняков и можжевельника, были созданы оптимальные условия для металлургического производства. Даже в настоящее время в этом регионе продолжают обнаруживаться месторождения бурых железняков с содержанием железа в диапазоне от 55 до 80%, что подтверждает историческую значимость данного региона для развития металлургии.

В археологических комплексах Зараутсай, Ходжанкана, Баглидара и Тангидевана были зафиксированы примитивные методы извлечения железа и чугуна из камня. Эти процессы включали в себя специализированные операции, выполняемые различными профессиональными группами. Сборщики камня, резчики можжевельника и мастера изготовления гребней осуществляли свои функции автономно, что свидетельствует о сложной системе разделения труда в данном обществе.

Сырьё для плавки, включающее пропитанную маслом кору (высушенную кору можжевельника) и дрова, укладывалось в специальную конструкцию, известную как “камб”. На дне располагалась кора, затем следовали несколько слоёв дров, после чего чередовались руда и дрова. Верхняя часть конструкции обмазывалась глиной для предотвращения утечек и обеспечения герметичности. В основании гребня вырезалось отверстие наружу, в которое вставлялась коническая глиняная трубка. Через эту трубку пропускался пропитанный маслом фитиль, изготовленный из коры можжевельника или льняного волокна, который затем поджигался.

Процесс плавки осуществлялся по принципу внутреннего сгорания. Благодаря высокой температуре, достигавшей 1300–1500 °C, железо в камне плавилось, образуя расплав, который вытекал через специально сконструированную трубу и разливался по заранее подготовленным формам. После охлаждения полученный материал извлекался и использовался в качестве сырья

для дальнейших производственных операций [1].

Эмир Бухары лично руководил процессом выплавки железа в Хатаке, демонстрируя глубокое понимание металлургического производства и его стратегической значимости для экономики государства. Ежегодно купцы, специализирующиеся на торговле металлами, прибывали в Хатаку для загрузки железа на верблюдов, которое затем транспортировалось в Бухару, что свидетельствует о развитой системе логистики и торговых связей [2].

Хатакские ремесленники не ограничивались производством железа; они также занимались изготовлением оружия, что подтверждается существованием системы наград, включая специальный знак “хатирша”, вручаемый за выдающиеся достижения в этой области. Это указывает на высокий уровень мастерства и профессионализма хатакских кузнецов, а также на их значительный вклад в обороноспособность государства.

В среде хатакских мастеров выделяется Джума, чье имя стало символом высокого уровня мастерства в производстве пятизарядных винтовок. Его работы, характеризующиеся сложной технической конструкцией и инновационным подходом к ремесленному процессу, являются ярким примером глубокого понимания принципов механики и эргономики огнестрельного оружия. Мастер Джума не только мастерски владел традиционными техниками, но и активно внедрял современные инженерные решения, что позволял ему создавать оружие, превосходящее по своим характеристикам аналоги, произведенные в других регионах. Осознавая важность его дело, Бухарский эмир лично контролировал его работу и заказывал ружьё для своих воинов [3].

Мастер Рухиддин Ходжи Набиев из Ходжанхона с ранних лет проявлял интерес к кузнечному делу и посвятил ему значительную часть своей жизни. Начав свою профессиональную деятельность в районе Музработ, он впоследствии вернулся в родное село, где продолжал заниматься своим ремеслом до конца своей жизни, до 2004 года. Его пример является ярким свидетельством преемственности ремесленных традиций и важности сохранения профессионального мастерства на протяжении поколений [4].

Ювелирное искусство в Хатаке также было представлено выдающимися мастерами, среди которых наиболее известен мастер Аликул, Его работы отличались высоким уровнем мастерства и художественного вкуса, что подчеркивает многогранность ремесленных традиций региона.

Уголь, необходимый для металлургического производства и бытовых нужд населения, добывался в Зарауте и Тангидеване. Добытый уголь складывался в мешки и транспортировался на ослах, что свидетельствует о наличии развитой системы транспортировки и распределения ресурсов.

Кузнецы в традиционном обществе занимали особое положение, обладая высоким социальным статусом и значительным уважением со стороны общины. Их профессиональная деятельность, связанная с обработкой металла и созданием орудий труда, была не только экономически значимой, но и воспринималась как ритуально важная, что обусловило формирование вокруг них особого социального и культурного контекста. В этом контексте кузнецов часто считали хранителями древних знаний и магических практик, что делало их фигуры сакральными в глазах современников.

Согласно этнографическим данным, любое посягательство на кузнеца или его семью считалось не только аморальным, но и опасным для нарушителя, поскольку это могло привести к наложению проклятия и, как следствие, к различным бедствиям. Ярким примером такого отношения является история мастера Зия из кишлака Хатак, который умер в 1938 году. Его семья была защищена всеми жительями кишлака, и даже во время Второй мировой войны, когда происходили массовые грабежи, дом мастера Зия остался неприкосновенным. Этот факт подчеркивает глубокое уважение к кузнецам и их ремеслу, которое сохранялось на протяжении многих поколений [5].

В каждой профессиональной традиции существовал свой святой-покровитель, к которому обращались ремесленники для защиты и благословения. Кузнецам покровительствовал пророк Дауд, фигура,

обладающая глубоким символическим значением в исламской культуре. Дауд, был ассоциирован с мудростью, силой и способностью управлять природными стихиями, что делало его идеальным покровителем для мастеров, работавших с металлом [6].

Ежегодно ремесленники проводили обряды, включавшие принесение даров и чтение молитв Аллаху, обращенных к своим покровителям. Эти ритуалы не только укрепляли связь между ремесленниками и их святыми заступниками, но и служили способом передачи культурных и профессиональных традиций от поколения к поколению. Лучшие работы ремесленников часто посвящались сначала пророкам и святым, а затем их непосредственным покровителям, что свидетельствовало о глубоком уважении к духовным аспектам своего труда.

Таким образом, роль кузнецов в традиционном обществе была не только экономической, но и сакральной, что находило отражение в их особом статусе, защите со стороны общины и почитании святого-покровителя. Эти аспекты подчеркивают важность ремесленников в культурной и социальной жизни общества, их вклад в сохранение и передачу традиций, а также их связь с духовными аспектами своей деятельности.

В заключение, исследование кузнечного ремесла катаганов представляет собой важный вклад в изучение этнокультурного наследия Южного Узбекистана. Полученные результаты могут быть использованы для дальнейших исследований в области этнографии, истории и культурологии, а также для разработки программ по сохранению и популяризации традиционного ремесленного искусства.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. Умаров И. Чўян тумшуқ // Ёш олимлар, стажёр-тадқиқотчи-изланувчи ва магистр-талабаларнинг IV анъанавий илмий-амалий конференцияси материаллари. –Термиз, 2013. –Б. 111-113.

2. Умаров И., Раҳмонов Ҳ., Худойбердиев Э. Сурхон воҳасида этник тарих ва этномаданий жараёнлар (хатакилар уруғи мисолида). –Тошкент: Алишер Навоий номидаги миллий кутубхона нашриёти, 2014. –Б. 137.

3. Полевые записи, Шерабадский район, кишлак Ходжанкон, 2009 год.

4. Умаров И., Раҳмонов Ҳ., Худойбердиев Э. Боғлидара одамлари. –Тошкент: Алишер Навоий номидаги миллий кутубхона нашриёти, 2014. –Б. 81.

5. Полевые записи, Сурхандарьинская область, город Термез, 2014 год.

6. Турсунов С.Н., Пардаев Т.Р., Турсунов А.С., Тоғаева М.Р. Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудларида номоддий маданият тарихи. –Тошкент, 2012. –Б. 20–21.

TAT, QRIMCHAK VA KARAIT YAHUDIYLARI: ETNIK SHAKLLANISH, MADANIY TRANSFORMATSIYA VA TURKISTON BILAN MIGRATSION ALOQALAR

GADOYEV OMON OLIMJONOVICH

Samarqand davlat universiteti “Tarixshunoslik va manbashunoslik” kafedrasi dotsenti.
E-mail: omongadayev@gmail.com

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Mazkur maqolada tat, qrimchak va karait yahudiy jamoalarining etnik shakllanishi va madaniy transformatsiyasi jarayonlari ularning tarixiy rivojlanishi hamda asosiy yashash hududlaridan tashqaridagi diasporik aloqalari kontekstida tahlil qilinadi. Tadqiqot qiyosiy va fanlararo yondashuvga asoslanib, ushbu guruhlarning etnogenezi yahudiy diniy identifikatsiyasi hamda eroniy, turkiy va mintaqaviy madaniy muhitlar o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sir natijasi sifatida ko‘rib chiqiladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, tat yahudiylari Kavkaz hududining eroniy til va madaniy muhitida shakllangan bo‘lsa, qrimchak va karait jamoalari Qrim hamda Sharqiy Yevropa hududlarida turkiy

madaniyatning sezilarli ta’siri ostida rivojlangan. Ularning barchasi yahudiylik diniga mansub bo‘lishiga qaramay, til, diniy talqin va ijtimoiy-madaniy tuzilma jihatidan sezilarli farqlarga ega bo‘lib, bu holat turli etnomadaniy sintez shakllarini aks ettiradi.

Maqolada ushbu jamoalarning diasporik mobiliteti hamda Markaziy Osiyo, xususan Turkiston bilan bog‘liq cheklangan, ammo muhim aloqalariga alohida e’tibor qaratiladi. Bu aloqalar savdo yo‘llari, Rossiya imperiyasi davridagi hududiy integratsiya va sovet davridagi ichki migratsiya jarayonlari bilan izohlanadi. Shuningdek, sovet millatlar siyosati, sekulyarizatsiya va ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalarning ularning etnik identifikatsiyasiga ta’siri tahlil qilinadi.

Xulosa sifatida ta’kidlanadiki, mazkur yahudiy jamoalari etnomadaniy moslashuvning o‘ziga xos modellari bo‘lib, unda diniy uzviylik mahalliy til va madaniyat bilan integratsiya jarayonlari bilan uyg‘unlashgan. Ularning tarixiy rivojlanishi yahudiy diasporasini yagona va bir xil hodisa sifatida emas, balki turli tarixiy, siyosiy va madaniy omillar ta’sirida shakllangan mintaqaviy xilma-xil jamoalar majmui sifatida ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

В данной статье рассматриваются процессы этнического формирования и культурной трансформации татских, крымчакских и караимских еврейских общин с акцентом на их историческое развитие и диаспорические связи за пределами основных регионов расселения. Исследование основано на сравнительном и междисциплинарном подходе, в рамках которого этногенез данных групп анализируется как результат сложного взаимодействия еврейской религиозной идентичности с иранской, тюркской и региональной культурной средой.

Показано, что татские евреи сформировались в иранской языковой и культурной среде Кавказа, тогда как крымчакские и караимские общины развивались в крымском и восточноевропейском контексте под значительным влиянием тюркской культуры. Несмотря на принадлежность к иудаизму, данные группы существенно различаются по языку, религиозной интерпретации и социокультурной организации, что отражает различные модели этнокультурного синтеза.

Особое внимание уделяется их диаспорной мобильности и ограниченным, но значимым связям с Центральной Азией, в частности с Туркестаном, которые формировались под влиянием торговых путей, интеграции в рамках Российской империи и внутренних миграционных процессов советского периода. Также анализируется влияние советской национальной политики, процессов секуляризации и социально-экономических трансформаций на ослабление и переосмысление их этнической идентичности.

В результате делается вывод о том, что данные еврейские общины представляют собой уникальные модели этнокультурной адаптации, в которых религиозная преемственность сочеталась с языковой и культурной интеграцией в местную среду. Их историческое развитие свидетельствует о необходимости рассматривать еврейскую диаспору не как однородное явление, а как совокупность разнообразных регионально обусловленных сообществ, сформированных под воздействием конкретных исторических, политических и культурных факторов.

This article examines the processes of ethnic formation and cultural transformation of Tat, Krymchak, and Karaite Jewish communities, with particular attention to their historical development and diasporic connections beyond their primary regions of settlement. The study adopts a comparative and interdisciplinary approach, analyzing the ethnogenesis of these groups as a result of complex interactions between Jewish religious identity and surrounding Iranian, Turkic, and regional cultural environments.

The research highlights that Tat Jews emerged within the Iranian linguistic and cultural sphere of the Caucasus, while Krymchak and Karaite communities developed in the Crimean and Eastern European contexts under significant Turkic cultural influence. Despite their shared adherence to Judaism, these groups differ substantially in language, religious interpretation, and socio-cultural organization, reflecting distinct pathways of ethnocultural synthesis.

Special attention is given to their diasporic mobility and limited but noteworthy connections with Central Asia, particularly Turkestan, which were shaped by trade networks, imperial integration

under the Russian Empire, and internal migration during the Soviet period. The article also explores the impact of Soviet nationality policies, secularization, and socio-economic transformation on the erosion and reconfiguration of their ethnic identities.
The findings suggest that these Jewish communities represent unique models of ethnocultural adaptation, where religious continuity coexisted with linguistic and cultural integration into local environments. Their historical trajectories demonstrate the importance of viewing Jewish diaspora not as a homogeneous entity, but as a set of diverse, regionally embedded communities shaped by specific historical, political, and cultural conditions.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords
tat yahudiylari, qrimchak yahudiylari, karait yahudiylari, etnogenez, diaspora, madaniy transformatsiya, etnomadaniy sintez, Turkiston
татские евреи, крымчакские евреи, караимские евреи, этногенез, диаспора, культурная трансформация, этнокультурный синтез, Туркестан.
Tat Jews, Krymchak Jews, Karaite Jews, ethnogenesis, diaspora, cultural transformation, ethnocultural synthesis, Turkestan

Yahudiy diasporasi tarixan turli mintaqalarda shakllangan murakkab va ko‘p qatlamli etnomadaniy hodisa bo‘lib, uning tarkibida til, madaniyat va tarixiy rivojlanish jihatidan bir-biridan farq qiluvchi ko‘plab jamoalar mavjud. Shu nuqtai nazardan, tat, qrimchak va karait yahudiylari alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi, chunki ular yahudiy diniy identifikatsiyasini saqlagan holda turli mintaqaviy — eroniy va turkiy — madaniy muhitlar bilan o‘zaro ta’sirda shakllangan.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, mavjud tarixshunoslikda ushbu guruhlar ko‘pincha umumiy “yahudiy diasporasi” doirasida yoritilib, ularning ichki farqlari, etnogenez jarayonlari hamda mintaqalararo aloqalari yetarli darajada tizimli tahlil qilinmagan. Ayniqsa, ularning Markaziy Osiyo, xususan Turkiston bilan bog‘liq tarixiy aloqalari cheklangan darajada o‘rganilgan bo‘lib, bu esa mazkur yo‘nalishda qo‘shimcha tadqiqotlar olib borishni talab etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi tat, qrimchak va karait yahudiylarining etnik shakllanishi hamda madaniy transformatsiyasi jarayonlarini qiyosiy tahlil qilish, shuningdek ularning diasporik aloqalari, jumladan Turkiston bilan bog‘liqligini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda tarixiy-komparativ va fanlararo yondashuvlardan foydalanilib, ushbu jamoalarning shakllanishida diniy, til va madaniy omillarning o‘zaro ta’siri yoritiladi.

Tat yahudiylarining etnik rivojlanishi va Turkiston bilan diasporik aloqalari

Kavkaz hududida shakllangan yahudiy etnik guruhlaridan biri bo‘lib, ular tarixan asosan Dog‘iston va Ozarbayjon hududlarida istiqomat qilgan (1. 1–20. pp.). Mazkur guruh yahudiy diasporasining boshqa tarmoqlaridan til, madaniyat hamda tarixiy rivojlanish xususiyatlari bilan sezilarli darajada farqlanadi.

“Tat” atamasi dastlab etnik mazmun kasb etmagan bo‘lib, u tarixiy-lingvistik termin sifatida qadimda eroniy tillarda so‘zlashuvchi aholiga nisbatan qo‘llangan (8. 60. p.). Keyinchalik ushbu atama Kavkaz mintaqasida yashovchi ayrim yahudiy guruhlariga nisbatan ham tatbiq etilib, ilmiy adabiyotlarda “tat yahudiylari” termini sifatida mustahkamlangan (4. 40–45. pp.).

Tat yahudiylarining kelib chiqishi va shakllanishi masalasi ilmiy adabiyotlarda turli konseptual yondashuvlar asosida talqin qilinadi. Birinchi yondashuv — eroniy (fors) kelib chiqish nazariyasi bo‘lib, unga ko‘ra, mazkur guruh qadimgi Eron hududidan Kavkazga ko‘chib kelgan yahudiylarning avlodlari hisoblanadi. Ushbu migratsiya jarayoni ko‘pincha Sosoniylar davri (milodiy III–VII asrlar) bilan bog‘lanadi (2. 52–60. pp). Ikkinchi yondashuv — diasporik migratsiya nazariyasi bo‘lib, u tat yahudiylarining ildizini qadimgi yahudiy diasporasi bilan bog‘laydi hamda Bobil asirligidan (miloddan avvalgi VI asr) keyingi tarqalish jarayonlari bilan izohlaydi (1. **10–18. pp**). Uchinchi, nisbatan asosliroq yondashuv — mahalliylashuv va madaniy sintez konsepsiyasi bo‘lib, unga ko‘ra, tat yahudiylari yahudiy diniy

identifikatsiyasini saqlagan holda eroniy til muhiti hamda Kavkaz mintaqasining ijtimoiy-madaniy sharoitida shakllangan sintez etnos sifatida qaraladi **(4, 40–45; 4 pp, 52–60. pp)**

Tat yahudiylarining tarixiy rivojlanishi asosan Kavkaz hududi bilan bog‘liq bo‘lsa-da, ularning ayrim guruhlari Markaziy Osiyo, xususan Turkiston hududi bilan ham muayyan darajada aloqada bo‘lgan. Ushbu aloqalar bir qator omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, Kavkaz va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi savdo yo‘llari orqali shakllangan iqtisodiy aloqalar ayrim tat yahudiylarining savdogar yoki hunarmand sifatida Turkiston shaharlariga kirib kelishiga zamin yaratgan (9, 60–75. pp). Ikkinchidan, XIX asrda Rossiya imperiyasi tomonidan Kavkaz va Turkiston hududlarining bosib olinishi natijasida yagona siyosiy-hududiy makon shakllanib, ichki migratsiya jarayonlari faollashgan (6.). Shu jarayonda tat yahudiylarining ayrim vakillari ham Turkistonning yirik shaharlariga ko‘chib kelganligi ehtimoli ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi.

Biroq ta’kidlash joizki, tat yahudiylari Turkiston hududida keng tarqalgan etnik guruh sifatida shakllanmagan. Mazkur hududda yahudiy jamoalarining asosiy qismini Buxoro yahudiylari tashkil etib, ular mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy hayotda ustun mavqega ega bo‘lgan (11). Shu bilan birga, Turkiston hududidagi yahudiy aholisining ijtimoiy va hududiy joylashuvi haqida muhim ma’lumotlar O.A. Suxareva va S.S. Gubayeva tadqiqotlarida uchraydi. Xususan, ushbu tadqiqotlarda Buxoro va Farg‘ona hududlarida yahudiy jamoalarining shakllanishi, ularning alohida mahallalarda istiqomat qilishi hamda ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati batafsil yoritilgan (5). Shu nuqtayi nazardan, tat yahudiylarini faqat Kavkaz hududi bilan cheklangan holda o‘rganish yetarli emas, balki ularning kengroq diasporik aloqalari, jumladan Turkiston bilan iqtisodiy va migratsion munosabatlarini kompleks tarzda tahlil qilish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Tarixan tat yahudiylari iqtisodiy faoliyatning turli sohalarida, xususan savdo-sotiq, hunarmandchilik, uzumchilik va vinochilik hamda qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida faol ishtirok etgan. Kavkaz hududida ular ko‘pincha shahar va yarim shahar aholisi tarkibiga kirgan holda iqtisodiy vositachilik rolini bajargan bo‘lib, turli etnik va diniy guruhlar o‘rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarning rivojlanishida muhim o‘rin tutgan (1, 170–180 pp, 2, 58–65 pp).Ushbu faoliyat yo‘nalishlari, ayniqsa, mintaqaning tabiiy-iqlim sharoitlari va tarixiy savdo yo‘llari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan (4.).

XX asrning birinchi yarmidan boshlab, ayniqsa Sovet hokimiyati o‘rnatilishi bilan tat yahudiylari hayotida sezilarli ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar yuz berdi. Sovet davlatining ateistik siyosati natijasida diniy institutlar faoliyati keskin cheklanib, an’anaviy diniy hayot zaiflashdi, til va madaniyat sohasida esa sekulyarizatsiya jarayonlari kuchaydi (1). Shu bilan birga, sovet millatlar siyosati doirasida amalga oshirilgan aholini ro‘yxatga olish va etnik klassifikatsiya jarayonlari natijasida tat yahudiylari ko‘pincha alohida etnik birlik sifatida emas, balki umumiy “yahudiy” kategoriyasi tarkibida qayd etilgan. Bu esa ularning etnik identifikatsiyasining rasmiy darajada susayishiga hamda o‘ziga xos madaniy xususiyatlarining asta-sekin transformatsiyaga uchrashiga olib kelgan (3).

Shu bilan birga, sovet davrida yuz bergan urbanizatsiya va ijtimoiy mobilizatsiya jarayonlari tat yahudiylarining kasbiy tuzilmasida ham muhim o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Ular an’anaviy iqtisodiy faoliyat turlaridan tashqari sanoat, maorif va davlat xizmatlari kabi yangi sohalarga jalb etila boshlagan. Bu jarayon bir tomondan ularning ijtimoiy integratsiyasini kuchaytirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan an’anaviy turmush tarzining qisqarishiga olib kelgan (9).

Qrimchak yahudiylari: etnik shakllanish va madaniy rivojlanish jarayonlari

Qrimchak yahudiylari — Qrim yarimorolida shakllangan yahudiy etnik-diniy guruh bo‘lib, ular boshqa yahudiy jamoalaridan til, madaniyat hamda tarixiy rivojlanish xususiyatlari bilan farqlanadi. Ilmiy adabiyotlarda ular ko‘pincha “qadimiy Qrim yahudiylari” sifatida ham tavsiflanadi (10, pp. 455–458). Qrimchaklar rabbinik yahudiylik an’analariga amal qilganligi bilan Karaitlardan keskin farqlanadi, chunki karaitlar faqat Tavrotni tan olib, Talmudiy an’analarni inkor etadi (10, pp. 455–458).

Qrimchak yahudiylarining kelib chiqishi murakkab va ko‘p qatlamli bo‘lib, ilmiy tadqiqotlarda bir nechta asosiy omillar ajratiladi. Ularning etnogenezida Vizantiya imperiyasi va

Yaqin Sharqdan kelgan yahudiy diasporasi vakillari, Xazarlar davridagi yahudiylashgan aholi ta’siri hamda savdo yo‘llari orqali shakllangan migratsion jarayonlar muhim rol o‘ynagan (2, 90–105. pp.). Mazkur jarayonlar natijasida qrimchaklar asosan o‘rta asrlarda Qrim yarimoroli hududida shakllangan bo‘lib, bu hudud turli sivilizatsiyalar kesishgan strategik mintaqa hisoblangan.

Natijada qrimchak yahudiylari yahudiy diniy identitetini saqlagan holda turkiy til muhitida va mahalliy Qrim madaniyati ta’sirida shakllangan sintez etnos sifatida rivojlangan (7, 50–60. pp). Ularning an’anaviy tili — qirimchak tili bo‘lib, u turkiy tillar oilasiga mansub va qirim-tatar tiliga yaqin hisoblanadi. Ushbu til tarkibida ibroniy va aramey elementlari mavjud bo‘lib, tarixan yozuv uchun ibroniy alifbosi, keyinchalik esa kirill yozuvi qo‘llanilgan (7, 100–110. pp).

Til qrimchaklarning etnik identifikatsiyasida muhim omil bo‘lib xizmat qilgan bo‘lsa-da, XX asr davomida siyosiy va ijtimoiy jarayonlar ta’sirida uning qo‘llanish doirasi keskin qisqargan. Diniy jihatdan qrimchaklar rabbinik yahudiylik an’analariga amal qilib, Talmud va boshqa diniy manbalar asosida diniy marosimlarni amalga oshirgan, ibodatlarda esa ibroniy tilidan foydalangan (20). Bu jihat ularni karaitlardan ajratib turuvchi asosiy belgilaridan biri hisoblanadi.

Qrimchak yahudiylari tarixan savdo-sotiq, hunarmandchilik hamda kichik biznes faoliyati bilan shug‘ullangan bo‘lib, ular asosan Qrim yarimorolining shahar muhitida yashagan va iqtisodiy vositachilik funksiyasini bajargan (7, 70–85. pp). Ularning ushbu faoliyati turli etnik va diniy jamoalar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynagan.

Rossiya imperiyasi davrida qrimchak yahudiylari alohida etnik guruh sifatida asta-sekin tanila boshlagan bo‘lsa-da, rasmiy tasniflarda ko‘pincha umumiy “yahudiy” kategoriyasi tarkibida qayd etilgan (7, 70–85. pp). XX asr boshlaridan boshlab, ayniqsa Sovet hokimiyati o‘rnatilgach, ularning ijtimoiy va madaniy hayotida sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi: diniy hayot keskin cheklanib, milliy identifikatsiya zaiflashdi hamda rasmiy statistikada ular ko‘pincha umumiy yahudiy guruhiga qo‘shib yuborildi (3.). Shu bilan birga, 1920–1930-yillarda sovet etnografiyasi doirasida qrimchaklarni alohida etnik birlik sifatida o‘rganishga qaratilgan ilmiy urinishlar ham kuzatiladi (7, 50–60. pp).

Qrimchak yahudiylari tarixidagi eng fojeali davr Ikkinchi jahon urushi yillariga to‘g‘ri keladi. Natsist Germaniyasi tomonidan Qrim hududi bosib olingach, qrimchak yahudiylarining katta qismi ommaviy qirg‘inlarga uchradi va bu etnik guruh demografik jihatdan deyarli yo‘qolish darajasiga kelib qoldi (7, 50–60. pp). Mazkur fojea ularning tarixiy rivojlanishiga keskin zarba berib, keyingi davrlarda ham qrimchaklarning son jihatdan tiklanishini murakkablashtirdi.

Qrimchak yahudiylarining Markaziy Osiyo bilan aloqalari va zamonaviy holati

Qrimchak yahudiylari asosan Qrim yarimoroli hududida shakllanib yashagan bo‘lsa-da, ularning ayrim vakillari tarixiy jarayonlar ta’sirida boshqa mintaqalarga, jumladan Markaziy Osiyo hududlariga ham ko‘chib borgan. Xususan, Rossiya imperiyasi davrida va keyinchalik Sovet davridagi ichki migratsiya jarayonlari natijasida qrimchaklarning ayrim guruhlari Turkiston hududida paydo bo‘lgan (7, 50–60 pp., 9, 74-98. pp.). Biroq ular bu hududda keng tarqalgan etnik guruhga aylanmagan va son jihatdan cheklangan diaspora vakillari sifatida qolgan. Markaziy Osiyoda yahudiy jamoalarining asosiy qismini Buxoro yahudiylari tashkil etgan bo‘lib, ular ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda ustun mavqega ega bo‘lgan (11.).

Zamonaviy davrda qrimchak yahudiylarining soni keskin kamaygan bo‘lib, ular asosan Isroil, Rossiya va Ukraina hududlarida istiqomat qiladi (7, 200–210. pp.). Ushbu etnik guruh uchun eng dolzarb muammolardan biri — til va madaniy merosni saqlab qolish masalasi bo‘lib, ayniqsa qirimchak tilining qo‘llanish doirasi keskin qisqarib ketgan.

Ilmiy jihatdan qrimchak yahudiylari yahudiy diniy an’analari bilan turkiy til va mahalliy madaniy muhitning o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida shakllangan noyob sintez etnos sifatida qaraladi (7. 50–60. pp.). Ularning tarixiy rivojlanishi Qrim hududining geosiyosiy va sivilizatsion ahamiyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ayniqsa XX asrda yuz bergan urushlar va siyosiy jarayonlar ularning demografik hamda madaniy barqarorligiga jiddiy zarar yetkazgan.

Karait yahudiylarining etnogenezi, diniy doktrinasi va etnomadaniy xususiyatlari

Karaitlar — yahudiylik doirasida shakllangan o‘ziga xos diniy-etnik guruh bo‘lib, ular diniy doktrina jihatidan rabbinik yahudiylardan keskin farq qiladi. Ular o‘zlarini ko‘pincha “Qaraim” deb ataydilar. Karaitlarning asosiy xususiyati shundaki, ular faqat Tanakh (Tavrot)ni muqaddas manba sifatida tan olib, Talmud va rabbinik talqinlarni rad etadi (7. 50–60. pp).

Karaitlik ta’limoti VIII–IX asrlarda Yaqin Sharqda shakllangan bo‘lib, u ko‘pincha Anan ben David nomi bilan bog‘lanadi (10). Karaitlarning etnogenezi murakkab va ko‘p komponentli bo‘lib, u Yaqin Sharqdagi dastlabki diniy harakat, Xazarlar davridagi ehtimoliy ta’sir hamda Vizantiya imperiyasi va Qrim yarimoroli hududlariga migratsiyalar bilan bog‘liq (4). Ayniqsa Qrim va Sharqiy Yevropa (xususan Litva) hududlarida karait jamoalari mustahkam shakllangan.

Natijada karaitlar diniy jihatdan yahudiylikka mansub bo‘lsa-da, til va madaniyat jihatidan turkiy muhit bilan uyg‘unlashgan sintez etnos sifatida rivojlangan (7, 100–110. pp). Ularning tarixiy tili — karaim tili bo‘lib, u turkiy tillar guruhiga mansub bo‘lib, qipchoq tillari va qrim-tatar tiliga yaqin hisoblanadi. Til tarkibida ibroniy diniy terminologiya mavjud bo‘lib, tarixan yozuv uchun ibroniy alifbosi, keyinchalik esa lotin va kirill yozuvlari qo‘llanilgan (7, 100–110. pp). Hozirgi davrda ushbu til yo‘qolib borayotgan tillar qatoriga kiradi.

Tarixan karaitlar savdo-sotiq, hunarmandchilik hamda davlat xizmatlari (ayniqsa Litva hududida) kabi sohalarda faoliyat yuritgan. Ular asosan shahar muhitida yashab, yuqori darajadagi savodxonlik va ijtimoiy moslashuvchanlik bilan ajralib turgan (7, 50–60. pp).

Rossiya imperiyasi davrida karaitlar boshqa yahudiy jamoalaridan huquqiy jihatdan farqlangan bo‘lib, ko‘pincha antisemit cheklovlardan ozod etilgan va ayrim hollarda alohida etnik-diniy guruh sifatida tan olingan (7, 20.). Bu holat ularning Talmudiy an’anani rad etuvchi diniy pozitsiyasi bilan izohlanadi.

Sovet davrida esa karaitlar hayotida sezilarli transformatsiyalar yuz berdi: diniy faoliyat keskin cheklanib, etnik va diniy identifikatsiya zaiflashdi hamda ko‘plab jamoalar assimilyatsiya jarayonlariga duch keldi (8). Shu bilan birga, ayrim statistik va ma’muriy hujjatlarda ular yahudiylardan alohida guruh sifatida qayd etilgan holatlar ham kuzatiladi.

Karaitlar asosan Qrim va Sharqiy Yevropa hududlarida yashagan bo‘lsa-da, tarixiy migratsiya jarayonlari natijasida ularning ayrim vakillari Markaziy Osiyo, jumladan Turkiston hududida ham uchragan. Bu jarayonlar asosan Rossiya imperiyasi davridagi ko‘chishlar va Sovet davridagi ichki migratsiyalar bilan bog‘liq (9.). Biroq ular bu hududda keng tarqalmagan bo‘lib, yahudiy jamoalari orasida asosiy o‘rinni Buxoro yahudiylari egallagan (11).

Hozirgi kunda karaitlarning asosiy qismi Litva, Polsha va Isroil hududlarida istiqomat qiladi. Ularning soni juda kam bo‘lib, ayniqsa til va madaniy merosni saqlab qolish masalasi dolzarb muammo hisoblanadi.

Umuman olganda, karaitlar yahudiylik doirasida shakllangan, biroq Talmudiy an’anani inkor etib, muqaddas matnni bevosita talqin qilishga asoslangan noyob diniy-etnik guruhdir. Ularning shakllanishi Yaqin Sharq diniy harakati hamda turkiy madaniy muhit sinteziga asoslangan bo‘lib, tarixiy rivojlanishida Qrim va Sharqiy Yevropa mintaqalari hal qiluvchi rol o‘ynagan.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1.Altshuler, M. The Jews of the Caucasus. New York, 1990.

2.Brook, K. A. The Jews of Khazaria. Lanham: Rowman & Littlefield, 2018.

3.Gitelman, Z. A Century of Ambivalence: The Jews of Russia and the Soviet Union, 1881 to the Present. Bloomington: Indiana University Press, 2001.

4.Golden, P. B. An Introduction to the History of the Turkic Peoples. Wiesbaden, 1992.

5.Gubayeva, S. S. Naselenie Ferganskoy doliny v kontse XIX – nachale XX veka. Tashkent: Fan, 1991.

6.Khalid, A. Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR. Ithaca: Cornell University Press, 2015.

7.Kizilov, M. The Karaites of Galicia: An Ethnoreligious Minority among the Ashkenazim, the Turks, and the Slavs. Leiden: Brill, 2009.

8.Minorsky, V. Studies in Caucasian History. Cambridge, 1953.
9.Sahadeo, J. Russian Colonial Society in Tashkent, 1865–1923. Bloomington: Indiana University Press, 2007.
10.Shapira, D. “Karaite Judaism and Its Historical Development”. Encyclopaedia Judaica. Detroit, 2003.
11.Zand, M. “Bukharan Jews”. Encyclopaedia Iranica. New York, 1991.

SURXON-SHEROBOD VOHASI AHOLISINING TABIAT HODISALARI BILAN BOG‘LIQ URF-ODAT VA TASAVVURLARI

XAYDAROV ODIL ERGASHEVICH

Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasi huzuridagi Diniy-ma’rifiy sohada malaka oshirish va qayta tayyorlash institutining «Ijtimoiy va mutaxassislik fanlari» kafedrasi katta o‘qituvchisi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),

Annotatsiya / Аннотация / Abstract
Ushbu maqolada Surxon-Sherobod vohasi aholisining tabiat hodisalari bilan bog‘liq urf-odatlari, e’tiqodiy qarashlari va an’anaviy tasavvurlari etnografik materiallar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda yomg‘ir yog‘dirish, qurg‘oqchilikning oldini olish, shamol, momaqaldiroq, chaqmoq, sel va boshqa tabiiy hodisalar bilan bog‘liq marosimlar hamda xalqona qarashlarning mazmun-mohiyati yoritilgan. Shuningdek, tabiat hodisalariga doir xalq bilimlari, irim-sirimlar va ularning mahalliy aholi turmush tarzidagi o‘rni ochib berilgan. Tadqiqot natijalari voha aholisining tabiat bilan bog‘liq an’anaviy dunyoqarashi va madaniy merosini o‘rganishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.
В данной статье на основе этнографических материалов анализируются обычаи, традиции и народные представления жителей Сурхан-Шерабадского оазиса, связанные с природными явлениями. Рассматриваются обряды вызывания дождя, предотвращения засухи, а также представления, связанные с ветром, грозой, молнией, селевыми потоками и другими природными явлениями. Особое внимание уделяется народным знаниям, приметам и верованиям, отражающим взаимодействие человека с окружающей природой. Результаты исследования способствуют более глубокому изучению традиционного мировоззрения населения оазиса и сохранению его культурного наследия.
This article analyzes the customs, rituals, and traditional beliefs of the population of the Surkhan-Sherabad oasis related to natural phenomena based on ethnographic data. The study examines rituals associated with invoking rain, preventing drought, and folk beliefs concerning wind, thunderstorms, lightning, floods, and other natural events. Particular attention is paid to traditional ecological knowledge, omens, and beliefs that reflect the interaction between humans and nature. The findings contribute to a deeper understanding of the traditional worldview of the oasis population and provide valuable insights into the preservation of their cultural heritage.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords
Surxon-Sherobod vohasi, etnografiya, urf-odatlar, tabiat hodisalari, xalq tasavvurlari, marosimlar, an’anaviy e’tiqodlar, madaniy meros.
Сурхан-Шерабадский оазис, этнография, обычаи, природные явления, народные представления, обряды, традиционные верования, культурное наследие.
Surkhan-Sherabad oasis, ethnography, customs, natural phenomena, folk beliefs, rituals, traditional worldview, cultural heritage.

Surxon-Sherobod vohasi aholisining osmon jismlari va sayyoralar harakati bilan bog‘liq tasavvurlari, irimlari va e’tiqodiy tushunchalari bilan bog‘liq magik amallarini bajarish jarayonida Quyosh, Oy va yulduzlar bilan bog‘liq ma’lumotlarni ham uchratamiz. Voha aholisi yurtimizning qadim ajdodlari singari azaldan samoviy yoritqichlarning o‘rni va ularning harakatini muttasil kuzatib kelishgan. Shu sababdan ham voha aholisi yil fasllarining o‘rin almashish muddatlari hamda yulduzlar burjining joylashishi bilan bog‘liq ma’lumotlarni mukammal bilishgan. Chunki, samoviy yoritqichlar harakatini kuzatishga asoslangan fenologik tajribalar xo‘jalik yuritishda muhim amaliy ahamiyat kasb etgan. Vohaning chorvadorlari ham, dehqonlari ham, bog‘bonlari ham yulduzlarning harakati, quyosh va oyning holatiga qarab ob-havoning qanday bo‘lishini nisbatan aniqlay olishgan. Tajribaga ko‘ra qish oylarida ertalabdan quyosh qizarib chiqsa, shu kuni havo buziladi, qor-yomg‘ir yog‘adi yoki Tarozi yulduzlari ufq ustida paydo bo‘lsa, yoz boshlanganidan darak beradi degan tushuncha uzoq kuzatuvlar asosida vujudga kelgan [1, 36-38-b.].

Dala kuzatuvlari jarayonida axborotchilarning bergan ma’lumotlariga ko‘ra, quyosh bilan bog‘liq o‘n uchta yulduz mavjud bo‘lib, quyosh ushbu yulduzlarning chegaralarini bir yil davomida bosib o‘tar ekan. Shuning uchun ham 12 oyning nomi ushbu burjlar bilan bog‘liq ekan. Ammo Chayon bilan ilon nomli yulduzlar turkumi bir-biriga yaqin bo‘lganligi hamda bir paytda ko‘ringanligi sababli oylarning nomlanishida ular o‘zaro qo‘shilib ya’ni aqrab chayon burji deb atalib ketilgan [2, 58-b.].

Voha aholisi orasida yerda yashayotgan har bir odamning osmonda o‘z yulduzi bor, mabodo shu yulduzlardan biri uchsa, yerdagi kishilardan birining ham umri so‘nadi, degan mifologik qarashlar mavjud [3, 39-43-b.]. Agar ilmiy ma’lumotlarga asoslanadigan bo‘lsak, urug‘-qabilachilik munosabatlarining ona urug‘i ya’ni matriarxat davrida dastlabki diniy tasavvurlar va timsollar paydo bo‘la boshlaydi. Shu davrda odamlar borliq turli tabiat hodisalarga, jismlarga, quyoshga, yulduzlarga, oyga, hayvonlarga va olovga sig‘ina boshlagan. Bu taraqqiyotning keyingi davrlarida ya’ni mezolit davri oxirlarida qadimgi sharqda ibtidoiy dehqonchilikning ilk kurtaklari paydo bo‘la boshlagan. Neolit davrida esa Markaziy Osiyoda ilk dehqonchilik makonlari sanalgan Joytun va Nomozgoh manzilgohlari yuzaga kelgan. O‘zbekistonning eng qadimgi dehqonlari ham Surxon-Sherobod vohasida yashagan, ya’ni Muzrabot tumanining O‘lanbuloqsoy bo‘ylarida shakllangan Sopollitepa manzilgohida yashagan odamlar mintaqada ilk dehqonlar sanalgan [4, 138-b.].

Osmon yoritqichlari nihoyatda son-sanoqsiz bo‘lib, qadimgi ajdodlarimiz ulardan yettitasiga ko‘proq e’tibor qaratishgani kuzatiladi. Ular Quyosh va u bilan bog‘liq oltita yulduzdir. Shu boisdan bo‘lsa kerak, dunyo xalqlarida “yetti” raqamini ham muqaddaslashtirilgan [5, 116-122-c.].

Taniqli etnolog olim S.A.Tokarev sehrli (magik) ishonchlarning hozirgi marosim va udumlarda saqlanib qolgan ko‘rinishlarni o‘rganar ekan, “baxtli” va “baxtsiz” kunlarga, “hosiyatli” va “hosiyatsiz” raqamlarga ishonish [6, 9-C] kabi odatlarni ham tilga oladi.

Surxon-Sherobod vohasida ham yetti sonini muqaddaslashtirish bilan bog‘liq bir qancha aqida va odatlar bor. Masalan, o‘zbek xalqining qo‘ng‘irot, do‘rmon, laqay urug‘iga mansub aholi yetti raqami bilan bog‘liq ayrim odatlarni ilohiylashtirgan. Masalan, arvohlarga bag‘ishlab yetti chalpak pishirish, chaqaloqning tug‘ilganidan yetti kun o‘tgach beshikka solish, marhumning vafotidan so‘ng yetti marosimini o‘tkazish, kasallarni yetti xil latta bilan alaslash, ayrim asalarini, tovuqni, echkini, pilla qurtini yetti xazinaning biri sifatida tushunish va boshqalar. Voha aholisining e’tiqodiga ko‘ra, agar ekinlarga chigirtka, ko‘k qurt, gul qurti tushsa, unda yetti chalpak pishirib, bu hashoratlardan uchtasini tutib kelishgan va is yog‘i bilan ularning og‘zini moylashgan. Ana shunda ulardan qutulish mumkin degan tasavvur mavjud [7, 30-b.]. Bunday magik tasavvurlarga juda ko‘plab misollar keltirish mumkin.

Dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug‘ullanuvchi kasb sohiblari haftadagi yetti kunning o‘ziga xos alomatlari hamda xususiyatlari borligiga ishonishgan. Masalan, shanba – temirchilar kuni, juma – ilm sohiblari kuni, yakshanba – savdogarlar kuni, dushanba – tegirmonchilar kuni, seshanba – qurachilar kuni, chorshanba – duradgorlar kuni, payshanba – dehqonlar va juvozkashlar kuni sifatida belgilangan. Har bir

kasb egalari o‘zlariga belgilangan kunlarida homiy pirlarga bag‘ishlab is chiroq yoqishgan.

Bundan tashqari voha aholisining qadim ajdodlari hafta kunlarini va o‘sha kunlari ro‘y beradigan tabiat hodisalarini kuzatib, maxsus “Solnoma” va “Haftanoma”lar tuzishganki, bu manbalarda haftaning qaysi kuni qanday ishni amalga oshirish mumkin yoki mumkin emasligi belgilab berilgan. [8, 171-180-c.].

Voha aholisining qadimiy magik tasavvurlariga ko‘ra, safar oyida ko‘chish, Ashur oyida yangi uy solish, barot oyida kelin-kuyovlarni unashtirish hosiyatsiz bo‘ladi deb tushunishgan. Bundan tashqari har bir oyning birinchi kuni sharqqa, uchinchi kuni janubga, beshinchi kuni g‘arbga, yettinchi kuni shimolga yurish qilish taqiqlangan. Shu boisdan ham chorvador qo‘ng‘irotlar ana shu kunlari yangi yaylovlarga ko‘chmaganlar. Go‘yo bu kunlar “og‘ir” bo‘lib, biror kor-hol ro‘y berishi mumkin deb qo‘rqqanlar [7, 35-b.].

Dala kuzatuvlarida shuni aniqladikki, har bir oyning ikki nahs-tug‘ali (yomon kuni) mavjud bo‘lib, bular Qambar to‘g‘al, Hulkar to‘g‘al deyilgan. Qambar to‘g‘al bir oyning 23-kuni, kelasi ba’zi oylarda esa 21-kuni kelgan. Odatda to‘g‘al kunlari oyning tutilishidan bilib olingan. Samoda sakkizta yulduz bo‘lib, oy har ikki yulduz o‘rtasiga to‘g‘ri kelganda tutiladi, bunda ob-havoda ayrim o‘zgarishlar seziladi, ya’ni ba’zan kun isib ketadi, ba’zan soviydi, ba’zan yomg‘ir yog‘adi, ba’zan kuchli shamol bo‘ladi. Har bir qishloqning hisobdonlarning oyning holatiga qarab ob-havoning yaxshi-yomon kelishini oldindan aytishgan. Masalan, oy atrofini o‘rab turadigan gardishsimon xira, yorug‘, sarg‘ish, qizil ranglari “belbog‘”ga bog‘liq bo‘lib, uning shaklini o‘qiy bilish zarur ekan. “Oy atrofida halqa paydo bo‘lsa, yog‘ingarchilik ehtimoli bor ekan. Halqa qancha yorug‘ bo‘lsa, bu ehtimol haqiqatga shunchalar yaqinlasharkan” [1, 36-b.]. Oyning o‘tov tikishi ya’ni qo‘rg‘onlashi havo aynishidan darak bersa, oyning chalqancha tug‘ishi esa shu oy davomida ayozli kunlar bo‘lishidan darak berar ekan.

Bundan tashqari, hulkar to‘g‘ali ham bo‘lib, hulkar to‘g‘ali har oyning 8-9-kunlariga, ba’zida esa yangi oylarning 1,3,5,7-kunlariga ham to‘g‘ri keladi.

Aqrabning o‘rtasi, jadiyning 11-kechasi, dalvning 9-kechasi, hutning 7-kechasi, hamalning 5-kechasi, savrning 3-kechasi, javzoning 1-kechasi Hulkar yulduzi oy bilan bab-baravar botadi. Ana shunday kunlarda kechasi kuchli shamol, dovul yoki kuchli jala bo‘lishi mumkin ekan. Vohaning hisobdonlari shu kunlarda agar yomg‘ir yog‘sa, yaxshilikka, qurg‘oqchilik bo‘lib, garmsel bo‘lsa, yomonlikka yo‘yganlar» [7, 36-b.].

Hulkar yulduzining yonida yettita yulduzi bor. Shulardan, uchtasi taroziga o‘xsharkan. Hulkar ana shu uch yulduzlarning ro‘parasida to‘xtab o‘tadi. Shuning uchun ham Hulkar to‘g‘ali har oyning 9-, 11-, 12-kunlariga ham to‘g‘ri kelishi mumkin [9, Dala yozuvlari, Sherobod tumani Kampirtepa qishlog‘i, 2019-yil.]. Agar Hulkar yulduzi may oyining boshlarida ko‘rinmay qolsa, bu yomg‘irli kunlarning ko‘p bo‘lishidan darak beradi. Shuningdek, Hulkar yulduzi ko‘rinmaydigan bo‘lib qolgandan so‘ng ko‘p yomg‘ir yog‘sa, yil serhosil bo‘ladi. Hulkar yulduzi ko‘ringach ufq tomonga og‘a boshlasa, issiq kunlar kelib, ko‘klam boshlanadi. Agar Hulkar tongda ko‘rina boshlasa, tez orada havo sovishi kutilar ekan. Xullas, Hulkar to‘g‘ali kuni ob-havoning buzilishi oldidan g‘ubor belgilari ko‘rina boshlarkan.

Hisobdonlarning fikriga ko‘ra Hulkar to‘g‘ali bir paytda kelmaydi. U oyning tug‘ishiga qarab ba’zan erta, ba’zan kech keladi. Masalan, oyning o‘rtasida ko‘rinsa to‘g‘al uch kunga kechikadi. Aksincha oyning boshida ko‘rinsa to‘g‘al kunlari bir yoki ikki kunga ertaroq yuz beradi [10, Dala yozuvlari, Boysun tumani, To‘da qishlog‘i, 2018-yil.].

Surxon-Sherobod vohasi aholisining ayrim hisobdonlari oyning toq kunlariga nisbatan qo‘rquv bilan yondashgan, ya’ni bunday kunlarda tabiatda tabiiy ofatlar ko‘p uchrashi mumkinligiga ishonch hosil qilishgan. Masalan, shunday kunlarni yomon, hosiyatsiz va nahs to‘g‘al kunlar deb hisoblashgan. To‘g‘al kunlari yuz beradigan ayrim ob-havo o‘zgarishlari tufayli ba’zan ekin ekish pallasi kechikib ketgan. Hulkar to‘g‘ali kunlari qattiq shamol bo‘lsa bu yaqin orada ob-havoning yomg‘irli kelishidan darak bergan. Hulkar to‘g‘alining 5, 7 va 9 kunlari g‘arbdan esadigan shamol albatta yog‘ingarchilik olib keladi degan tajribaga tayanishgan [11, Dala yozuvlari, Denov tumani Oybarak qishlog‘i, 2020-yil.].

Vohaning ayrim hududlarida to‘g‘al kunlarini hisob-kitobi qo‘llanilmaydi, masalan dala

tadqiqotlari jarayonida Oltinsoy, Muzrabot, Qiziriq, Jarqo‘rg‘on, Qumqo‘rg‘on tumanlarining ko‘pgina qishloqlarida bo‘lib, hatto keksa yoshli kishilar bilan bo‘lgan suhbatlar jarayonida to‘g‘al kunlari to‘g‘risida so‘raganimizda ular bunday kunlarni eshitmaganligi va bilmasligini aytishdi. Demak, vohaning ayrim hududlarida yashovchi aholi orasida osmon jismlari bilan bog‘liq yaxshi yoki yomon kunlarni belgilash an’anasi bir xil emas ekan.

Vohaning hisobdonlari yillarning seryog‘in yoki quruq kelishini mezon oyida uchadigan mezonning parlarining qisqa yoki uzunligiga qarab, qushlarning harakatini kuzatib, asalarining uyasi atrofida uchishini kuzatib, chumolilarning o‘z ini og‘ziga yig‘adigan xas-xashagidan, daraxtlar bargining tepadan yoki pastdan to‘kilishiga qarab bilish mumkin ekan.

Vohada osmon jismlarini ilohiylashtirish, ularni yaxshi yoki yomon holatda ekanligiga ishonish bilan bog‘liq magik tasavvurlarini oy bilan bog‘liq qarashlarda ham ko‘rish mumkin. Masalan, vohaning ko‘pgina qishloqlarida yangi oy tug‘ganida unga qarab niyat qilinadi. Ammo shuni qayd etish kerakki, yangi oy Hilol ko‘rinishi bilan ushbu oyga qarab yaratgandan oyning barakatli kelishini, odamlarga salomatlik, eson-omonlik, xotirjamlik oy bo‘lishligini, shaytonning sharidan himoyalangan oy bo‘lishligini so‘rab duo qilish holatlari hadislardan ham ta’kidlangan.

Tabiat kultlari haqidagi mifologik tasavvurlar tabiat hodisalariga sig‘inishni keltirib chiqargan bo‘lsa, kishilarning tabiat bilan bevosita aloqasi kundalik ehtiyojlarni rejalashtirishni yo‘lga qo‘ygan. Voha dehqonlari tabiatning o‘zgarishiga qarab, ekin ekish, suv qo‘yish, don pishishi va yig‘im-terim muddatlarini aniq belgilashga muyassar bo‘lishgan.

Voha aholisi vaqt bilan bog‘liq tushunchalar asosida yil fasllarini mukammal kuzatib dehqonchilik, chorvachilik, bog‘dorchilik va boshqa juda ko‘plab ishlarni muddatini nihoyatda to‘g‘ri va bexato ayta olganlar. Masalan, xalq orasida Tarozi yotar o‘rningga to‘g‘ri kelsa bu yaqin orada yoz kelishiga ishora, Hulkar botsa, suruvga qo‘chqor qo‘shishga maqsadga muvofiq. Tong yulduzi Zuhra sayyorasi ko‘tarilsa, safarga chiqish mumkin. Mezon uchsa hosilni yig‘ishtirib olmoq zarur. Qantar og‘sa ko‘klamning yaqinda kelishiga ishora [12, 8-b.].

Har bir fasl va oylar bilan bog‘liq o‘ziga xos e’tiqodiy qarashlar Surxon-Sherobod vohasi aholisi orasida ham keng tarqalgan. Odamlar “yil boshi”, “Navro‘z”, “qo‘sh chiqarish”, “urug‘ sochish” marosimlarini o‘tkazishni o‘zaro hamjihatlikda amalga oshirishgan.

Dehqonchilik xalqimizning eng qadimiy mashg‘ulotlaridan biri hisoblanadi. Shu bois, ajdodlarimizning tabiat hodisalari bilan bog‘liq mifologik qarashlari hamda bahor fasli bilan bog‘liq marosimlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Shular orasida masalan, yil qurg‘oq kelganda yomg‘ir yog‘dirish bilan bog‘liq marosimlarga aloqador e’tiqodiy qarashlar muhim o‘rin tutadi.

Etnograf Ye.M.Pyeshyeryeva Zarafshon vodiysi aholisi orasida “Bobo Qambar” nomini tilga olib yomg‘ir so‘rash marosimi mavjudligini aniqlagan. Uning yozishicha, qurg‘oqchilik bo‘lganda daraxtlarda tumor osganlar va uning tagidan yomg‘ir chaqirish maqsadida suv sepganlar. Bolalar tuproq uyumidan chuqur kovlab, uni suv bilan to‘ldirganlar. So‘ngra ana shu chuqurchalardagi suvga toshlarni tashlaganlar. Natijada momaqaldiroqqa o‘xshash tovush chiqib, atrofga suv sachragan. Bolalar tosh tashlayotgan paytda:

Qambar, Qambar suv qo‘yvorgin,

Sigirlarga sut qo‘yvorgin! - deb qo‘shiq aytganlar [13, 256-260-c.].

Surxon-Sherobod vohasida ham qurg‘oqchilik bilan bog‘liq ayrim marosimlar shakllangan masalan yil qurg‘oq kelsa, Sherobod tumanining Navbog‘ qishlog‘ida sumalakning suvi siqib olingan, tuppasini suvga oqizganlar, bundan tashqari uchta iyirma yupqa qilib, uni ham suvga oqizganlar, is qilib tarqatishgan. Denov tumanining Oybarak qishlog‘ida sumalakka har xil toshlarni solib, sumalak pishgandan keyin o‘sha toshlarni terib olib biror tutning bo‘yiga qon chiqarib ko‘mishgan.

Sho‘rchi tumanidagi Egarchi qishlog‘ida qurg‘oqchilik bo‘lsa, ariqning bo‘yiga qozon qurib bo‘g‘irsoq pishirib, “yomg‘ir yog‘sin” deb is chiqarishgan.

Boysun tumanining Panjob qishlog‘ida sumalak pishirilgan qozonni yuvib, suvi daryoga oqizilgan yoki sumalak pishirish vaqtida o‘stirilgan maysaning suvini siqib olishganda, shu maysa qoldig‘ini ariqqa, daryoga oqizganlar.

Shunday qilinsa, mo‘l-ko‘lchilik bo‘ladi deb irim qilishgan.

Sherobod tumanining tog‘li G‘urjak qishlog‘ida yomg‘ir yog‘masa, sho‘ra o‘tlarini terib, uni chopib, suvini siqib olib qibla tomonga qaragan devorga sepishgan yoki qurbaqani chappa qilib tagiga tupurganlar yoki qurbaqani suvga tashlaganlar. Sherobod tumanining Gegirdak qishlog‘ida qurg‘oqchilik bo‘lganda ariqdagi baqani ushlab, oyog‘idan daraxtga osib qo‘yganlar, sumalakning tuppasini ariqqa to‘kkanlar, toshbaqani ag‘darib qo‘yganlar, keksalar «Buray, buray, buralayni kuray» deb osmonga qarab qo‘shiq aytganlar [14, Dala yozuvlari, Sherobod tumani, Gegirdak qishlog‘i, 2020-yil.].

Sherobod tumaning Xitoy qishlog‘ida yashovchi Rajab bobo Pardayevning aytishicha, agar bahorda yomg‘ir ko‘p yog‘sa, yomg‘irni tindirish maqsadida biyan uzildi marosimi o‘tkazilgan. Marosimni o‘tkazishni ayollar amalga oshirganlar. Marosimni o‘tkazish uchun suv kadi va paxta savag‘ichdan foydalanishgan. Paxta savag‘ich bilan kadining tagiga urib quyidagi qo‘shiqni aytishgan.

Ko‘llab ko‘llab jovasan,
Qora bulutni sovasan.
Hasan Husan yoy tortsa,
Shunda nima qilasan.
Biyanginang uzildimi, jalalar.
Jikma-jikdan o‘tib ketdi havolar.
To‘xtamasang kuydiraman ketingni.
Biyaningni uzaman-u, qaqshataman etingni.
To‘xta jala, to‘xtamasang dam solaman.

Duo o‘qib, takbir aytib to‘xtataman [15, Dala yozuvlari, Sherobod tumani, Xitoy qishlog‘i, 2023-yil.].

Boysun tumanining Machay qishlog‘ida yog‘ingarchilik bo‘lmasa oiladagi yolg‘iz qiz eshikning og‘zida turadi va uning ustidan suv quyadi va yuziga qozonning qorakuyasini surtadi. Sherobod tumanidagi Saidobod, To‘g‘iz, Cho‘yanchi, Qishloqbozor, Yangiyo‘l qishloqlarida ilgarilari qurg‘oqchilik bo‘lganda yomg‘ir yog‘dirish uchun qishloq keksalari to‘planishgan. Ularning hammasining qo‘lida suv kadida suv bo‘lgan. Ular yoshi o‘tgan bir ayolni eshakka chappa mindirgan va ustidan suv sepishgan. O‘sha ayolning kiyimlari qurigach, yomg‘ir yog‘adi deb ishonishgan.

Qadimda lalmi ekinlardan mo‘l hosil olishning bosh sababi birinchi galda mirishkor dehqonning mehnati bo‘lsa, ikkinchi sababida esa yillik yog‘in-sochinning miqdori muhim o‘rin tutgan. Shuning uchun ham lalmikor yerlarda dehqonchilik qilgan ajdodlarimiz yil qurg‘oq kelgan paytlarda yomg‘ir yog‘dirish maqsadida ayrim o‘ziga xos marosimlarni amalga oshirganlar. Ana shunday marosimlar Sherobod tumaning Xitoy qishlog‘ida “Sust xotin”, Xatak qishlog‘ida “Suv sulton xotin”, “Suz xotin”, Laqaylarda “Sus xotin”, Kasbi tumani Mirishkor qishlog‘ida “Sut xotin”, Buxoro viloyatining Qorako‘l tumaniga qarashli qishloqlarda “Chala xotin”, kabi nomlar bilan atalgan. [16, 78-b.].

Surxon vohasida qurg‘oqchilik paytlari aholi tomonidan o‘tkaziladigan yomg‘ir chaqirish marosimlari Ko‘hitangtog‘ qishloqlari “Suv sulton xotin” yoki “Suz xotin”, o‘zbek laqaylarida esa “Sus xotin” deb ataladi [17, 58-b.].

Ikrom Umarovning Berdiyeva Sanam momodan olgan ma’lumotiga ko‘ra, 1936 yilning bahorida kuchli qurg‘oqchilik sodir bo‘lib, yomg‘ir yog‘magan va lalmi ekinlar quriy boshlagan. Shunda Ko‘hitang tog‘idagi Bedal, Xatak, Xo‘janqon, Qizilolma, Kampirtepa, Qorabog‘ qishloqlarining aholisi «Suv sulton xotin» marosimini o‘tkazishgan. Bunda ikkiqat ayolga kiyim kiydirilib, boshiga ro‘mol o‘ralgan. So‘ng bu kiyimlar va ro‘mol yechib olinib, ayol boshqa kiyimlarini kiyib olgan. So‘ngra qariyb ikki metr uzunlikdagi tol novdasidan kesib olinib, uchidan sal pastroqda kichikroq cho‘p bo‘lagi ko‘ndalangiga bog‘lanib qo‘g‘irchoq yasashgan. Ayolning kiyim-boshi qo‘g‘irchoqqa kiydirilgan. O‘sha ikkiqat ayol qo‘g‘irchoq taxtani ko‘tarib ovuldagi har bir o‘tovga qarab yurishni boshlagan. Marosimda qo‘g‘irchoqni uyning manglayi, ya’ni eshigi ustiga qo‘yishgan, so‘ngra unga suv sepishgan, keyin to‘planishib “Suv sulton xotin” marosim qo‘shig‘ini kuylaganlar. Qo‘shiq aytilganidan so‘ng uy bekalari qo‘g‘irchoqqa suv sepganlar. Udum asosida o‘sha kuni yomg‘ir yoqqan ekan [18, 35-36-b.].

Denov tumanidagi Sina qishlog‘ida qurg‘oqchilik bo‘lsa, toshbaqani adirlikka olib chiqib, teskari yotqizib qo‘yib, ustidan suv quyishar ekan. Barcha yomg‘ir chaqirish marosimlarida toshbaqaning tabiatga sirli holatda ta’sir o‘tkaza olish qudratiga ishonish an’anasi muhim o‘rin tutgan. Chunki qadimda

ajdodlarimiz “yerni toshbaqa ko‘tarib turadi” degan mifologik tasavvurga qattiq ishonishgan.

Oltinsoy tumanining Qorliq qishlog‘ida yomg‘ir yog‘may yil qurg‘oq kelsa bir toshbaqani topib, oyog‘idan ip bog‘lab daraxtga ilib qo‘yishgan. Umuman toshbaqa atributini yomg‘ir chaqirish bilan bog‘liq marosimlarda ko‘p qo‘llanilishiga quyidagi magik tasavvur asos bo‘lishi mumkin. Ajdodlarimiz inson yashaydigan yer yuzini ummonda suzib yuruvchi bir ulkan toshbaqa ko‘tarib turar ekan, shuning uchun biror sabab bilan xudo yer yuziga yomg‘ir yubormay qo‘ysa, odamlar toshbaqani yo to‘ntarib qo‘yishar, yo bo‘lmasa, oyog‘idan ip bog‘lab daraxtga osib qo‘yisharkan. Oqibatda Xudoning toshbaqaga rahmi kelib yer yuziga yomg‘ir yog‘dirarkan.

Shuning uchun ham toshbaqani to‘ntarib qo‘yish udumi xalqimizning yog‘in-sochin ruhlaridan yomg‘ir tilash marosimlari, yog‘ingarchilik va qurg‘oqchilikning mifologik timsollari to‘g‘risidagi asotir hamda e’tiqodiy qarashlar bilan chambarchas bog‘liq. Dunyo xalqlarining ko‘hna asotirlaridan birida aytilishicha, yer yuzi bepoyon ummon ichida suzib yurgan ulkan toshbaqa ustiga o‘rnatilgan emish. Qadimgi mifologiyada toshbaqa olamdagi jamiki suvlarning «egasi», yog‘in-sochin tartibotini nazorat qilib turuvchi ma’bud sifatida ham tasavvur qilingan. Ba’zan yer yuzidagi jami suvlarni toshbaqa ichib qo‘yar, natijada qurg‘oqchilik bo‘lar emish. Shu bois, toshbaqa (ayrim afsonalarda qurbaqa) serhosillik, qut-baraka va mo‘l hosil ramzi sifatida tasavvur qilingan. Shu boisdan ham yer yuzida bo‘ladigan yog‘ingarchilik va qurg‘oqchilikka ham toshbaqa sababchi deb o‘ylashgan. Qadimgi ajdodlarimiz yomg‘ir yog‘dirish va uni to‘xtatish bilan bog‘liq turli mifologik rituallarda toshbaqa va qurbaqaning magik qudrati bilan bog‘liq tushunchalarga qattiq ishonishgan.

Yer yuzidagi qurg‘oqchilik va yog‘in-sochinlarning manbai toshbaqa va qurbaqa bilan aloqador deb tasavvur qilingan, toshbaqaning magik xususiyati borligiga ishonishgan. Hatto yog‘in-sochin ko‘p bo‘lgan paytlarda ham bemavrid yomg‘irni to‘xtatish maqsadida o‘tkaziladigan marosimlarda toshbaqa bilan bog‘liq holda bajariladigan amallar bu jonivor haqidagi miflarning e’tiqodiy shaklga kirganligidan dalolat beradi.

Tadqiqot natijalari. O‘zbek xalq etnologiyasida va folklorshunosligida “Sust xotin” atamasining etimologiyasi va tarixiy asoslari masalasida ham muayyan ilmiy qarashlar mavjud. Masalan, mashhur folklorshunos olim B.Sarimsoqov “Avesto”ning 8-yashtida keltirilgan Tishtriya (Sirius) yulduzi yomg‘ir suvlari tangrisi sifatida tasavvur qilinganligiga va ushbu astral kult sharafiga bag‘ishlab muayyan marosimlar o‘tkazilganligiga asoslangan holda “Sust xotin” atamasidagi “Sust” komponenti “Tishtriya” kosmonimining fonetik o‘zgarishga uchragan shakli degan xulosaga keladi. Uning yozishicha, “Tishtr so‘zi xalq o‘rtasida uzoq vaqtlar qo‘llanilib Tushtr shakliga kelib qolgan. Bizning taxminimizcha, Tushtr so‘zi xalq o‘rtasida fonetik o‘zgarishlarga uchragan Tushtr //Tustr// Sustr holda bizgacha yetib kelgan keyinchalik “Sustr” so‘zi oxiridagi “r” tovushining tushib qolishi natijasida atoqli ot “Sust” shaklida bizgacha yetib kelgan” [19, 48-b.].

Xulosa tariqasida shuni qayd etish joizki, Surxon-Sherobod vohasining tabiat hodisalari bilan bog‘liq urf-odat va tasavvurlari xalqimizning uzoq asrlik tarixi va magik tasavvurlari bilan chambarchas bog‘liq holatda vujudga kelgan. Ushbu marosimlar va urf-odatlar davrlar o‘tishi bilan turli tasavvurlar bilan boyigan har bir davrning xususiyati ushbu marosimlar bilan bog‘liq an’analarda saqlanib qolgan.

Biroq, voha aholisining ilmiy va fenologik kuzatishlari natijasida to‘plagan bilimlari marosimlar orqali ma’lum bir tabiiy ofatlarning oldini olish mumkin emasligi balki tabiatga ilmiy yondashish orqaligina mavjud muammoni hal qilish mumkinligi bilan bog‘liq xulosalar hayotdan keng o‘rin ola boshlagan.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. Jo‘rayev M. “Ob-havo darakchilari”. - T. 1996.-B. 36-38.

2. Shomurodov N. Surxon vohasi aholisining etnomadaniy xususiyatlari. – Toshkent: “Akademnashr”, 2010. – B 58.

3. Jo‘rayev M. Yulduz uchishi bilan bog‘liq mifologik qarashlar //O‘zbek tili va adabiyoti, -1996.-№2. -B. 39-43.
4. O‘zbekiston hududida dehqonchilik madaniyatining tarixiy ildizlari va zamonaviy jarayonlar// Akademik Yah’yo G‘ulomov nomidagi respublika ilmiy seminari materiallari. – Toshkent., 2006. – B 138.
5. Фролов Б. А. Как появилас «магисheская семерка» // Атеистические чтения. – Москва. 1970, №4,. – С. 116-122.
6. Токарев С.А. Сушност и происхождение магии // Исследования и материалы по вопросам первобытных верований. – М . 1959. -С.9.
7. Jo‘rayev M. «Sehrli» raqamlar siri. –T.: O‘zbekiston, 1991. –B. 30.
8. Шербак А.М. Салнаме (по рукописи В-721), хранявшейся в рукописном отделе ЛО ИВАН // Писменные памятники Востока 1971. –М.. 1974. – С. 171-180.
9. Dala yozuvlari, Sherobod tumani Kampirtepa qishlog‘i, 2019-yil.
10. Dala yozuvlari, Boysun tumani, To‘da qishlog‘i, 2018-yil.
11. Dala yozuvlari, Denov tumani Oybarak qishlog‘i, 2020-yil.
12. Narziqulov A. Dehqon taqvimi. –T.: Mehnat, 1991. –B. 8.
13. Пещерева Е.М. Некоторые дополнения к описанию праздника тюлпана в Ферганской долине. // Иранский сборник. К 75-летию И.И.Зарубина. – М., 1963. -С. 256-260.
14. Dala yozuvlari, Sherobod tumani, Gegirdak qishlog‘i, 2020-yil.
15. Dala yozuvlari, Sherobod tumani, Xitoy qishlog‘i, 2023-yil.
16. Jo‘rayev M. O‘zbek xalq taqvimi va mifologik afsonalar. – Toshkent: A. Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 1994. – B 78.
17. Fayzullayeva M. Kichkilov Sh. Xomkon. – Toshkent: “zamon poligraf ok”, 2022. – B. 58.
18. Umarov I. Ko‘hitangtog‘ qishloqlari aholisining nomoddiy madaniyatining etnik va lokal xususiyatlari. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi. –Termiz, 2022. –B 35-36.

УЙ-РЎЗҒОР БУЮМЛАРИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЭЪТИҚОДЛАР

УМАРОВ АНВАР ШУХРАТОВИЧ
Шароф Рашидов номидаги Самарқанд давлат университети тарих факультети археология кафедраси ассистенти.

ТЎРАЕВА ШАХЛО САФАР ҚИЗИ
Шароф Рашидов номидаги Самарқанд давлат университети Тарих факультети 3-босқич талабаси

Annotatsiya / Аннотация / Abstract
Ўзбек халқининг анъанавий турмуш тарзида уй-рўзғор буюмлари, хусусан, қозон, чўмич ва бошқа идиш-товоқлар билан боғлиқ қадимий эътиқодлар, удумлар ва маъросимлар археологик маълумотлар, тарихий манбалар ва этнографик кузатувларга таянган ҳолда, уй-рўзғор буюмларининг нафақат моддий, маънавий ва ижтимоий аҳамиятини ёритиб берилган. “Қозон тўлди”, “Идиш тўлди” каби маъросимларнинг жамият жипслиги ва оила фаровонлигидаги ўрни, шунингдек, халқ орасидаги мақол ва маталларда акс этган миллий қадриятлар хусусида сўз юритилади.
В статье рассматриваются древние верования, обычаи и ритуалы, связанные с предметами домашнего обихода в традиционном образе жизни узбекского народа, в частности, с горшками, половниками и другой утварью, на основе археологических данных, исторических источников и этнографических наблюдений, подчеркивая не только материальное, но и духовное и социальное значение предметов домашнего обихода. В статье обсуждается роль таких ритуалов, как «Котел полон», «Горшок полон», в социальной сплоченности и благополучии семьи, а также национальные ценности, отраженные в народных пословицах и поговорках.

The article discusses the ancient beliefs, customs and rituals associated with household items in the traditional way of life of the Uzbek people, in particular, pots, ladles and other utensils, based on archaeological data, historical sources and ethnographic observations, highlighting not only the material, but also the spiritual and social significance of household items. The article discusses the role of rituals such as "The cauldron is full", "The pot is full" in social cohesion and family well-being, as well as national values reflected in folk proverbs and sayings.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords
Уй-рўзғор буюмлари, Авесто, қозон, чумич, пиёла, коса, капгир, товоқ, қошиқ, эътиқод, анъана, маъросим, “Қозон тўлди”, “Навруз”, “Йил оши”, “Идиш тулди”.
Предметы домашнего обихода, Авеста, казан, черпак, пиала, коса, шумовка, блюдо, ложка, верование, традиция, обряд, «Козон тулди», «Навруз», «Йил оши», «Идиш тулди».
Household items, Avesta, cauldron (qozon), ladle (chumich), piala (tea bowl), kosa (bowl), slotted spoon (kapgir), platter (tovoq), spoon, belief, tradition, ritual, “Qozon toldi”, “Navruz”, “yil oshi”, “Idish toldi”.

“Буюк тарихда ҳеч нарса изсиз кетмайди. У халқларнинг қонида, тарихий хотирасида сақланади ва амалий ишларда намоён бўлади.”

Ш.Мирзиёев

Тарихдан маълумки, Зардуштийларнинг муқаддас китоби “Авесто” ҳамда буюк мутафаккирлар Форобий, Беруний, Ибн Сино, Алишер Навоий ва бошқаларнинг асарларида инсонда юксак ахлоқий фазилатларни камол топтиришда оила ва миллий қадриятлар масаласи асосий ўринни эгаллаган.

Ўзбек оиласида миллатимизга хос кўп асрлик маънавий қадриятлар, анъанала, удум, расм-русумларимизни ҳамда маданий меросимизни сақлаб келмоқда. Оилада ота-онанинг ўзаро меҳр-муҳаббати, қизиқиши, дунёқараши, эътиқоди, ҳулқ-атвори ҳамда жамиятдаги мавқеи фарзанд тарбиясига маълум маънода таъсир ўтказади.

Шарқ мамлакатларида миллий қадриятларни фарзандлар онги-шувирига сингдириш оиладан бошланиши.

Эсимизни танибмизки ёши улуғларимиз: сувга тупурма, нонни босма, нон устига нарса қўйма, кексаларни йўлини кесиб ўтма, ота-онангнинг гапини иккита қилма, устозингни ҳурмат қил, атрофингга бефарқ бўлма каби насиҳатларни эшитиб, ривоят, мақол ва ҳикматларни эшитиб келамиз.

Қўшни билан яхши муомалада бўлиш, доимо соғлиги ва тинчлиги ҳақида хабардор бўлиш, яхшилик тилаб, ёрдам бериш кераклиги маълум. Шундай ҳолатлар бўладики, кўпроқ қишлоқ жойларда қўшнилар уй-рўзғор буюмларини сўраб киради, уларни бериш орқали алоқа қилинади.

Халқимизда оила ризқ-рўзи рамзи ҳисобланган энг асосий уй-рўзғор буюмларидан қозон, товоқ, капкир, нон ёпиш учун рапида, сават, товоқ, қошиқ, чўмичсиз хонадонни топиш жуда қийиндир.

Асосий рўзғор буюми ҳисобланган қозон[11, 323-b.] сув иситиш, турли хил таомлар пишириш учун алюминий, темир, мис ва чўяндан қуйиб тайёрланадиган рўзғор буюми хисобланади.

Қозон шакли ва ҳажмига қараб, номланган турлари бўлган. Масалан, кичкина қозон, тўй қозон, дошқозон, ошқозон, қишлоқ ва махалла қозони, қора қозон, каби турларга бўлиш мумкин. Қозоннинг қопқоғи кўпинча ёғочдан ясалган.

Халқимиз орасида уй рўзғор буюмлари ҳамда улар билан боғлиқ кўплаб мақололар, маталлар ва иборалар мавжуд:

қозон: “Қозонда бори, чўмичга илинади”, “Ёпиғли қозон ёпиғли қолсин”, “Қозончининг эрки бор, қайдан қулоқ чиқарса”, ―Қозон ўғирлаган қутилди, чўмич ўғирлаган тутилди”, ―Қозон олсанг қоқиб ол, хотин олсанг боқиб ол”, ―Яхши келса ҳутни кўр, қозон тўла сутни кўр”, ―Қозон ҳам мой, чўмич ҳам мой”, ―Қозони бошқанинг қайғуси бошқа”, ―Қалин қозон қайнамас, қайнаса ҳам совимас”[1, 84-90-b.], қозонга яқинлашсанг, қораси юқар, қирққулоқли қозон ёки дошқозонлар қўйилди

(осилди), қозон османг, қозон қўйманг, ўчоқ бошига уннаманг, бермас-нинг қозони қайнамас ёки оши пишмас, ёпиқлиқ қозон ёпиқлигича қолсин, айро-нингдан бермасанг, қозонтовоғинг вайрондир қозон очиқ қолса, ит ялайди[8, 45-b.].

Товоқ: қуруқ товоққа фотиҳа ўқимас, бор товоғим, кел товоғим, борди-келди қилмасанг, син товоғим, мис товоқнинг тагини ялаган, куёв товоқ ёки тўққиз товоқ қилинди, юзи оштовоқдай, товоқ олди-товоқ кўтарди, бош товоқни кўтарди.

қошиқ: қуруқ қошиқ оғиз йиртар, юзи (бети) қошиқдай, ҳалигача қошиқ ушлашни билмайди, ювилмаган қошиқдай.

Коса: бир коса сув ичгани йўқ, бир умр косаси оқармаган, косагардон қилган, косагуллик қилди, коса тагида ним коса бор.

Пиёла: бир пиёла чой ичилди, бир пиёла олмоқ, бир пиёла чойини ичганим йўқ, пиёлангда чой бўлиб, лабларингни куйдирсам (қўшиқ), бир пиёла чой бермаган (қўймаган).

Чўмич: чўмич кимнинг қўлида бўлса, ўшаники, ит қуруқ-чўмич қуруқ (мақол), қозонда бори чўмичга чиқар каби иборалар мавжу.

“Чўмич тутиниб қасам ичиш” байрамларда ёки муҳим маъросимларда одамлар чўмич тутиб қасам ичиши мумкин. Бу, айниқса, қадимда савдогарлар ва ҳунармандлар орасида ишончлилик белгиси сифатида қўлланилган.

“Янги келинга чўмич бериш” юртимизнанг айрим минтақаларда келин тўйидан сўнг янги уйга кирганда келинган чўмич (ковш) берилади. Бу оилада барака ва фаровонлик тимсоли сифатида қаралади. Яни оиладаги қозоннинг эгаси сифатида қаралади.

“Чўмични ерга ташлаш” агар уйда таом пиширишда чўмич ерга тушиб кетса, бу меҳмон келишидан дарак деб қаралади. Бу ишонч туркий халқлар орасида кенг тарқалган.

“Чўмични ҳадя қилиш” одатда, катта авлод вакиллари янги уйланган ёшларга чўмич совға қилиши мумкин. Бу – оилада ҳеч қачон озуқ-овқат камаймаслиги ва дастурхон тўкин бўлиши учун қилинган рамзий ҳаракат.

Капгир: қўлига капгир ушламаган, капгирнинг овози ёқди, капгир еган-калтак емоқ.

Пичоқ, ошпичоқ: пичоғи ёғ(мой) устида, пичоқ суякка бориб етди (тақалди), пичоғи қайралган, қиш ҳам пичоғини (қиличини) қайраяпти, пичоқсиз сўймоқ, пичоғи ўтмас, пичоқ қинсиз қолмайди[10, 218-b.], пичоғи сув кесмас.

Юртимизда олиб борилаётган археологик изланишларга натижасида қадимги даврдан буён ишлатилиб келинаётган уй-рўзғор буюмларини, барча тадқиқот жойларида кўриш мумкин. Аждодларимиз тош, сопол, мис, бронза ва темир буюмлардан фойдаланишган. Ушбу буюмларни Ўзбекистон Давлат тарих музейи, Вилоят ўлкашунослик музейларида учратиш мумкин.

Уй-рўзғор буюмларида хар хил турдаги нақшлар, хайвонлар тасвирлари туширилганлари диққатга сазовордир. Масалан Ўзбекистон Давлат тарих музейида сақланаётган қозонни тўртта қулоқлари орасига бир-бирининг орқасидан келаётган тўрт эчки ҳайкалчалари ўрнатилган. Ушбу қозон кўриниши ва оғирлиги жихатидан ибодат учун ишлатилган бўлиши мумкин. Бунда тасвирланган эчки тасвири, ушбу хайвоннинг муқаддаслигини англатади. Ушбу қозон диний маъросим учун яратилганлиги, юртимизда азалдан нишонланиб келадиган Наврўз ва табиатга бўлган айрича муносабат белгиси эманлигини кўрсатади. Бундай қозонларда зардуштийларнинг муқаддас китоби “Авесто”да[6, 323-b.] куйланган “хаома”лар, сумалак ва ҳалимлар пиширилганлиги такидланида. Наврўз, дарвешона (дарвеш оши) байрамларида таёрланадаган сумалак, мошхўрда ва ёрма таомлари ўтмишдан сақланиб, бугунги кунда анъанага айланган таомлар хисобланади.

Темурийлар тарихи давлат музейи фондида XIV-XV асрлар ҳунармандчилиги намуналари орасида нафақат коса, пиёла, лаганларни, балки сопол шамдонларни учратиш мумкин. Темурийлар тарихи давлат музейи фондидаги кулолчилик намуналари орасида бир қанча сопол шамдонлар ва уларнинг фрагментлари сақланади. Уларнинг энг қадимийси XII аср ҳунармандлариниг маҳсули ҳисобланади[12, 270-b.].

Қашқадарё воҳасининг тоғолди, дарё бўйлари ва пасттекисликларида кишилик манзиллари кўп бўлиб, иқтисодий ҳаёт

чорвачилик ва деҳқончиликка асосланган. Масалан, Чимқўрғон сув ҳавзаси ва унинг теграсида вужудга келган обидалар ҳам тасдиқлаши мумкин. XX-асрнинг 50-йиллари бошларида Чимқўрғон қишлоғи ёнидан ўтадиган (Қамаши тумани) Қашқадарё оқимида тўғон қуриш, сув омборига асос қўйиш ишлари бошланади. Сув ҳавзаси тагида қоладиган қадимият обидалар археолог ва тарихчилар тамонидан ўрганиб чиқилди. Қурилган сув омбори ўрнида ўтмишга мансуб 20 дан зиёд ёдгорлик мавжудлиги аниқланган. Сув остида қоладиган Овултепа, Киндиклитепа, Жангалтепа археологик жихатдан кўздан кечирилганда, ёдгорликларда милоддан олдинги биринчи минг йиллик ўрталарида ясалган сопол ашёлари мавжудлиги аниқланди. Жангалтепада кулолчилик ўчоғи, юпқа пиёла, товоқ, коса ва хурмачалар топилган. Жангалтепа идишлари асосан чорвадор аҳолига тегишли бўлиб, сут учун фойдаланилган идишлар ҳисобланади[4, 84-851-b.].

Халқимизда уй-рўзғор буюмлари ва улар билан боғлиқ кўплаб афсоналар ёки ривоятлар мавжуд. Масалан, қадимги афсоналарга кўра скифларнинг катта қозони бўлган. Тарихчи Геродотнинг —ўзининг тарих асарида: —Бу баҳайбат мис қозон скиф хоқони Аррианнинг фармонига кўра ясалган эмиш. У ўз фуқароларини сонини билиш максадида ҳар ким биттадан камон ўқларининг учини олиб келишини буюрибди. Ҳаш-паш дегунча сарой майдонида камон ўқларининг учлари тоғ бўлиб уюлибди. Ҳоқон бу ўқларнинг барини эритиб каттароқ қозон ясашни амр этибди. Шу тариқа скиф-сакларнинг афсонавий мис қозони пайдо бўлган экан. Бу қозонни муқаддас билишган ҳамда фақат муқаддас маъросимлар чоғидагина махсус таомлар пиширишган экан[2, 228-b.].

Наврўзни анъанавий байрам сифатида нишонлашган саклар йил боши куни таом пиширадиган улкан қозонларни серҳосиллик тимсоли деб ишонишган. Бугунги кунда юртимиз худудида катта қозонлардан пишган сумалакларни истеъмол қилган одамга йил бўйи омад, қут-барака ҳамроҳ бўлади, деб ишонишган. Аждодларимиздан бизларга меърос бўлиб ўтиб келаётган Наврўзни баҳорги тенг кунликда катта қозонларда дехқончиликнинг ривожи ва қуёш шарафига қурбонлик қилинган. Айнан ўша куни қозонларда от гўштини пиширишган ва бу таомни биргаликда истеъмол қилишган. Бу удум эл-юрт фаравонлиги ва тўкин-сочинлигини таъминлайди, деб билишган[5, 109-110-b.]. Ушбу катта қозонларга таомни пиширишдан олдин, ёши улуғ момолар қозон билан боғлиқ айрим ирим-сиримларни ўтказишган. Масалан, ёғ(мой)ни қозоннинг уч ёки тўрт дастасига томизиш, ўчоқ ичига яни оловга ёғ сепиш, қозон ичига тош солиш, таомдан олдин ис, чалпак пишириб олиш каби жараёнларни ўтказишган.

Тарихчи Шарафуддин Али Яздий ўзининг Зафарнома[14, 67-b.] номли асарида Соҳибқирон Амир Темур ўлкадаги нуфузли оқсоқолларини йиғиб, доимо Наврўз байрами арафасида пайкон учларидан махсус қозонлар қуйдирганлиги қайд этилган. Ушбу катта қозонларда асосан сумалак ва ҳалим пиширилган. Темурийлар даврида барча эл ва қавмлар Наврўз байрамини хурсатдчилик ва кенг нишонлашган. Бундан тантаналар Самарқанд-Конигилда, Кўҳак (чўпон ота) тепалигида, Қашқадарёдаги Оқсарой, Бухородаги Баҳовуддин Нақшбанд мақбараси каби жойларда нишонланиб, — “Қозон тўлди” маъросими ўтказилган ва таомлар пиширилган.

“Қозон тўлди” маъросимида сипохий аскарлардан хар биридан пайкон учлари йиғиб олиниб, тўпланган пайкон учларини эритишган ва тайёр эритмадан катта қозон тайёрланиб, таомлар пиширишган. Наврўз айёмида —“Қозон тўлди” маъросимида ҳашаматли дошқозон бирдамлик, якдиллик ва уюшқоқлик рамзи ҳисобланган.

Катта дошқозонга қанд қўшилган сув тўлдирилган. Ушбу сувдан жума номозидан сўнг масжид хизматкорлари жамоага тарқатишган.

Туркий халқларда чорвадорлар ёз ойларида сут махсулотларини тановул қилишиб, бутун ёз давомида қозон осишмаган. Ноябрь ойида сўйилгач чорва гўштидан қозон осилиб, шу баҳонада меҳмондорчилик қилинган[9, 41-42-b.]. Шу сабабли, ноябрь ойи —(қозон) атамаси билан юритилган.

Зарафшон воҳаси Самарқанд ҳудудига XIX асрда 12-14 оила келган, бир гуруҳ Хизр-элилар Самарқанд вилоятидаги Чандир туркманларига қўшилган[13, 152-b.].

Хизр-эли туркманлари ривоятларга кўра, улар ўтмишда 13 та қозонга бўлинган. Қозон - қариндошлар тўпланган катта патриархал оила еди. Қозон аъзолари ўзларини қозонбир деб аташган. Ғазанбир шаклидаги бу атама туркманларнинг ўтроқ ва ярим ўтроқ гуруҳлари орасида кенг тарқалган[7, 193-b.]. Ерлар қозон мулки ҳисобланган. Дастлаб, қозон одатда 10 дан 35 тагача оилани ўз ичига олган деб тахмин қилинади. Қозонни ёши каттароқ бир киши бошқарган. Маъросимлар ва тўй-ҳашамларни ўтказишга маъсул еди[Dala yozuvlari Turkman qishloq.2023 yil.].

XIX асрнинг охири - XX асрнинг бошларида Ўзбекистоннинг турли минтақаларида, жумладан, Қашқадарё воҳасида ―қозон атамаси (бир қозон, катта қозон) катта оилага нисбатан ҳам ишлатилган ва ифодалаган. Чунки катта оиланинг барча аъзолари бир қозондан овқатланишган (Бир қозондан ош еган) [4, 17-18-b.].

Уй-рўзғор буюмлари хусусан, қозон билан боғлиқ турли эътиқод ва удумларнинг илдизлари олис даврларга бориб тақалади. Масалан, деҳқонлар экин ва боғларидаги ҳосилга кўз тегмасин, деган мақсадда қозиққа тескари қўйилган офтобага қозонкуя суртишган. Халқимиз қозонни тоза ва покиза тутилишига катта эътибор берган. Таом таёрланиб бўлгач, ўчоқдан олиниган қозонни шу заҳоти махсус қасноқ устига қўйилган. Ушбу қозонни шайтон ялаб кетмасин деб оғзи қопқоқ билан ёпилган. Таом пиширилган қозон ювиб қўйилган ҳамда ювилган тоза қозон доимо тилак тилайди, деган тасаввур мавжуд бўлган. Қозонни итни бўйи етмайдиган жойга ёки бирор махъсус хонага киритилган. Ит хидлаган ёки ялаган қозонни 5-7 марта ювиш керак бўлган. Бундан ташқари қозонда уй ва бошқа паррандаларга овқат ёки дон берилса хонадондан қут-барака кўтарилади, деб ишонилган.

Халқимизда уй-рўзғор буюмлари, идиш тавоқлар хамда қозон билан боғлиқ даволаш амаллари ўтказилган. Масалан, гўдак баданига бирор яра ёки тошма тошса қозон куяси билан эмланган. Чақалоқ олиб юрилганда ёки бирор нарсадан учинмаслиги, кўрқмаслиги учун пешонасига қозонкуя суртилган. Бирор нарсадан қўрққан одамга ҳам дарҳол сувга қозон куя солиб ичирилган. Тана жарохати ёки бадандаги лат еган жойларга ҳам қозон куя суртилган.

Халқимизда шундай одатлар борки, бу табиат билан боғлиқ жараёнлар бўлиб, қуёш, ой тутилган ҳамда зилзила бўлган пайтида қозон капгир билан урилган.

Бахор фасли кириб келиши билан деҳқонлар даларга дон-дун, полиз экинлари ва бошқа деҳқончилик махсулотларини ерга қадашни бошлашади. Айнан бахорги кун-тун тенглик куни яни 20 мартдан 21 мартга ўтар кечаси оила даврасида “қозон тўлди” маъросими уюштирилган. Ҳар бир оила ўз имкониятига қараб бирор таом пиширган. Ушбу кечада қозон тўла бўлиши инобатга олинган. Бу удум бўйича ҳар бир оила таом тайёрлаб, оламдан ўтган ота-боболар ва аждодлар ҳаққига ―ис чиқаришган.

Исдан қолган ёғ билан ерни шудгорлашга қўшиладиган ҳўкизлар шохлари мойланган (шохмойлар). Маъросимда пиширилган таомлар қўни-қўшниларга ҳам тарқатилган. Рўзғордаги барча идишлар сувга тўлдирилган.

Деҳқончиликни бошлашдан олдин “Деҳқон боболарга”, чорвани хайдаб кетишдан олдин “Чўпон ота ва Занги отага”, эски уйни бузиш ва омочни деҳқончиликка тайёрлашдан олдин “темир пирлари”га атаб “Ис” чиқарилади. Бу хамирдан таёрланадиган айримлар (сўзма, чалпак, юпқа) номлари билан аташдиган, қозонга ёғда пишириладиган егулик таом ҳисобланади. Ушбу «ис»ни пиширишдан олдин, қозоннинг 4 та дастасига (қулоғига), Ойбиби момонинг айтишича 3 қулоғига ёғ томизади ёки тагига ёғ сепишади. Маълум бўлишича ушбу жараёнда, ота боболарининг руҳлари томизилган ёғдан озиқланиб кетармиш. Хафтанинг хар пайшанба куни ис куни хисобланади[Dala yozuvlari. Pastdarg`on tumani. 2023 yil.].

“Қозон тўлди” куни хонодондаги барча идишлар ун ва бўғдойга тўлдирилиб қўйилган, бу рисқнинг кенг бўлиши, хонодонда доимо ун ва буғдой аримаслик белгиси хисобланган. Бу маъросимлардан сўнг деҳқонларга экин экиш, чорвадорларга

чорваларини яйловларга олиб кетиш мавсуми бошланган.

Тарихий ва этнологик маълумотларга кўра, аждодларимиз турли маъросимларда фойдаланиладиган уй-рўзғор буюмлари, хусусан қозонлар ниҳоятда муқаддас ҳисобланган. Сабаби олиб бориладиган оммавий маъросимлардаги қозонларда тайёрланган таомлар халқни, эл-юртни бирлаштиришга ва ҳамжиҳатликка хизмат қилганлик белгиси хисобланган.

Юртимизда маҳалла ва қишлоқларнинг тўй-маъракаларида, сайиллари ва хар қандай тадбирларидаги таом тайёрлайдиган махсус катта қозонлари ва уй-рўзғор буюмлари бўлиб, ушбу уй-рўзғор буюмлари орқали сумалак, ҳалим (ҳалиса), ош ва бошқа таомларни пиширишга хизмат қилган. Қадимдан бир дастурхон атрофида йиғилиб, бир қозондан овқат тановул қилганлар инсонлар яқин қариндошдек бўлиб кетишган. Халқимизда дастурхон, қозон одамларни бирлаштиради деган гап бежизга айтилмаган.

Баҳор келиши билан халқ орасидаги “йил боши”, “идиш тўлди” ва “қозон тўлди” каби маъросимларида идиш-товоқлари барчасини сув ёки ҳар хил нарсалар билан тўлдирилиши, аждодларимизнинг табиатдан мўл-ҳосил олиш, тўқлик ва тансиҳатлик, ватан тинчлиги ва фаровонлиги, қут-барака сўраш каби тилаклар мақсади ётганлигини кўриш мумкин.

Хулоса қилиш мумкинки, ўзбек халқининг анъанавий турмуш тарзида уй-рўзғор буюмлари шунчаки моддий эҳтиёж воситаси эмас, балки халқнинг дунёқараши, ижтимоий муносабатлари ва қадимий эътиқодларини ифодаловчи муҳим рамзий тизимдир. Айниқса, қозон ва идиш-товоқлар билан боғлиқ бўлган “Қозон тўлди”, “Идиш тўлди” каби маъросимлар оилада барака ва жамиятда бирдамликни таъминлашда маънавий кўприк вазифасини ўтаган. Ушбу қадриятларнинг илдизи “Авесто” каби қадимий манбаларга бориб тақалиши, уларнинг нақадар чуқур тарихий асосга эга эканлигини кўрсатади. Халқ оғзаки ижоди ва урф-одатларида сақланиб қолган бу анъаналар бугунги кунда ҳам миллий ўзликни англаш ва авлодлараро маънавий узвийликни таъминлашда катта аҳамиятга эгадир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Бўриев О, Холов Р. Ўзбекларда қозон билан боғлиқ эътиқодлар. Ўзбекистон археологияси. №1 (6). 2013.

2. Геродот История. Кн. 2. - М., 1962.

3. Кабанов С.К. Руины поселения III-V вв. в долины Кашкадарьи// ИМКУ Вып. 6.

4. Кубаков К. Этнический состав сельского населения верхней Кашкадарьи в конце XIX – начале XX. 1973.

5. Кузьмина Е.Е. В страны Кавата и Афрасиаба М., 1977.

6. Маҳмудов.Т. “Авесто” ҳақида. Тошкент. 2001.

7. Овезов Д.М., Население долины Чандыра и среднего течения Сумбара. Ашхабад: «Ылым», 1976.

8. Омонтурдиев А.Ж. Чорводорлар нутқида уй-рўзғор буюмлари номи ва мақоллар эвфимикаси. Термиз. 2007.

9. Саримсоқов Б. Ўзбек маъросим фольклори. - Тошкент, 1986.

10. Тоғай Мурод. Ойдинда юрган одамлар (қисса). Т., 2017.

11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-том, 2008.

12. Ўзбекистон музейларининг долзарб муаммолари (Ҳалқаро анжуман материаллари). Шаҳрисабз – 2024..

13. Умаров А.Ш. Зарафшон вохасида туркман уруғларининг жойлашуви тарихи. Фан, таълим ва амалиёт интегратсияси. Илмий методик журнал. Жилд:03 нашр:06. 2022 йил.

14. Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома. Тошкент, 1997..

15. Dala yozuvlari Turkman qishloq. 2023 yil.

16. Dala yozuvlari. Pastdarg`on tumani. 2023 yil.

SURXON VOHASI AHOLISI MODDIY MADANIYATIDA QADIMGI E’TIQODIY QARASHLARNING IZLARI

ERGASHOV ISROIL ABDUMALIK O‘G‘LI

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti Ilmiy Kengash kotibi, Ijtimoiy gumanitar fanlari kafedrasi o‘qituvchisi
isroilergashov94@gmail.com

Аннотация / Аннотация / Abstract
Voha aholisi bu zaminda qadim zamonlardan yashab kelmoqda. Dastlabki vaqtlarda ko‘chmanchi, keyinchalik yarim ko‘chmanchi, yarim o‘troq, hozirgi vaqtda esa to‘liq holatda o‘troq holatda hayot tarzini davom ettirishmoqda. Bu hududda yashab hayot kechirayotgan aholining moddiy madaniyatida turli-xil urf-odat va marosimlar mujassamlashgandir.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords
Xo‘jai Xizr, Oltinsoy, Sho‘rchi, Sherabot, “Tom to‘yda”, Ajdodlar ruhi, ota-bobolar ruhi, “Is”, “Azbaraillo”, “Tom to‘yi”, kundalik kiyimlar (uy kiyimlari), ish kiyimlari, to‘y-hasham liboslari, marosim liboslari, ostona, puta, kiygich, lachak, salla, “Aza ko‘ylak”, “Aza ro‘mol”, “Taxya”, “Sherozi” yoki “Ola do‘ppi”.

Surxondaryoliklar uy-joylariga muqaddas dargoh sifatida qarashgan. Yangi uyning geografik o‘rniga asosiy e’tibor berishgan, ya’ni uy-joyni qabristondan uzoqroq hududga bino qilganlar. Dunyodagi ko‘plab boshqa xalqlar singari Surxon vohasi o‘zbeklarining ham yangi uyga ko‘chib kirish oldidan bajaradigan turfa xil rasm-rusumlari va odatlari bo‘lib, xalq tasavvurida ushbu amallarning bajarilishi oila a’zolarining kelgusida beziyon yashashlarini ta’minlar ekan. Voha aholisi esa asosan, uyning kattalari, ya’ni piru badavlat otaxon va onaxonlari yangi uyga ilk qadam bosib kirishlarini xush ko‘rishadi.

Surxon vohasida yangi qurilayotgan uy bitganidan so‘ng ham maxsus udumlar bajarilgan. Ya’ni “Ustaning qo‘li og‘rimasin”, deb unga aytgan pulni berishgan. Mazkur marosimning asosiy sababi, agar uy egasi qurilishning muayyan bosqichlarida ustani rozi qilib bormasa, ushbu holat uyga ham yoqmas ekan va uy norozilik belgisi sifatida doimo tebranib turadigan bo‘larmish, degan irimlar mavjud.

Surxon vohasida uy-joylar bilan bog‘liq mifologik tasavvurlar ham chuqur ildiz otgan va hatto qadimda turar joylarni asrovchi maxsus ilohlar, kultlar ham bo‘lganligi e’tirof etiladi. Bu ham bevosita zardushtiylik an’analariga borib taqalib, keyinchalik bu obraz islomdan keyingi qurilish homiysi Xo‘jai Xizr bobo obrazi bilan uyg‘unlashib ketgan.

Vohada odatda, uy-joylarni qabristondan uzoqroqda qurishga harakat qilingan. Bu odat zardushtiylikdagi jasaddan hazar qilish an’anasiga borib taqaladi. Yangi e’tiqodlar ta’sirida ushbu tushuncha nisbiy o‘zgarishga uchrab, endilikda aholi tasavvurida qabristonlardagi marhumlar ruhi xonadon a’zolaridan birortasi, ayniqsa, yosh bolalarga ziyon yetkazishi, natijada inson jismoniy yoki ruhiy xastallikka chalinishi mumkin, degan tushuncha vujudga kelgan. Ajdodlar ruhini rozi qilish maqsadida Oltinsoy, Sho‘rchi va Sherabot tumanlari aholisi yangi uyning qurilishi yakunlangach, olamdan o‘tgan ota-bobolari ruhiga bag‘ishlab, qo‘shni va qarindosh urug‘lari va mahalla mullasi ishtirokida xatim-qur’on qilinib, “Is” chiqargan (chalpak pishirilgan) va “Azbaraillo” qilishgan. Keyin esa “Tom to‘y” qilishgan. “Tom to‘yda” qo‘ni-qo‘shni va qarindoshlar yangi uyni ko‘rish uchun quruq borishmagan, ular bironta ko‘zga ko‘rinarli

buyum, gilam, mato, idish-tovoqlar ba’zida biror jonliq olib borishgan.

Surxondaryoliklar yangi uyga avvalo, oilaning kattalari – ota-ona ilk qadam bosgandan keyin ertasiga “Tom to‘yi” berilgan. Bunda eng avvalo, xonadon vakillaridan biri yovuz kuchlar va g‘ayri nigohlarni daf etish maqsadida isiriq tutatib, uni barcha xonalar bo‘ylab aylantirib chiqqan. Ostona muqaddas sanalgan. Xalqimiz orasida “Ostonada turma”, “Ostonani qulochlama”, “Ostonada turib ko‘rishilmaydi”, degan nasihatli gaplarni uchratamiz.

Umuman olganda, hozirgi globallashuv jarayonlari, axborot oqimining tezlashishi, ilmiy-texnika jadal sur’atlar bilan o‘sib borayotgan davrda xalqimizning uy-joy qurilishi bilan bog‘liq milliy urf-odatlarini saqlab qolish dolzarb masala hisoblanadi. Surxon vohasida ham hozirgi kunda faqat chekka qishloqlarda an’anaviy paxsa uylari qurilmoqda. Faqat ular endilikda ilgarigidek hashar yo‘li bilan emas, balki maxsus ustalar guruhi tomonidan amalga oshirilmoqda. Avvalgidek uy-joy qurish paytida o‘tkaziladigan marosim va udumlar ham transformatsiyaga uchrayotganini kuzatish mumkin. Yoshi ulug‘larning takidlashicha yaqin-yaqingacha uy-joy qurishning har bir bosqichida ma’lum bir udumlar bajarilgan. Afsuski, endilikda ular asta-sekin unutilib bormoqda.

Hozirgi kunga qadar etnologiya, san’atshunoslik, arxeologiya va madaniyatshunoslik kabi yo‘nalishlarda o‘zbek milliy kiyimlari tarixi, evolyusiyasi, transformatsiyasi va mahalliy xususiyatlarini o‘rganish borasida ma’lum yutuqlarga erishilgan. Biroq, shunga qaramay, haligacha an’anaviy liboslarni o‘rganishga doir muammolar, jumladan, an’anaviy kiyimlarning marosimiy xususiyatlari, ularning qadimiy diniy e’tiqodlar bilan bog‘liqligi hamda ramziy funksiyalari masalasi to‘liq hali tadqiq qilinmagan. Shunday ekan, voha o‘zbeklari kiyim-kechaklarining o‘ziga xos xususiyatlarining tahlili ilmiy e’tiborni talab qiladigan masalalar sirasiga kiradi.

Surxon vohasi o‘zbeklarining kiyim-kechaklari ham o‘z xarakteriga ko‘ra, etnografik jihatdan bir necha turga bo‘linadi:

1. Kundalik kiyimlar (uy kiyimlari).

2. Ish kiyimlari.

3. To‘y-hasham liboslari.

4. Marosim liboslari.

Shu narsa ayonki, kundalik (uyda), ish va to‘y-hashamlarda kiyiladigan kiyimlar turlari hozirgi kunga kelib siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish hamda o‘zgarishlar jarayonida an’anaviy xususiyatlarini deyarli o‘zgartirgan. Ayniqsa, sovet davridagi mafkuraviy jarayonlar o‘zbek xalqining an’anaviy kiyinish madaniyatiga kuchli ta’sir o‘tkazgan. Hozirgi kunda avvalgi o‘zbek milliy liboslarining faqat ba’zilarigina saqlanib qolgan bo‘lib, ular ham hozirda ba’zidagina ko‘zga tashlanadi.

Axborotchilarning aytishlariga qaraganda ilgari o‘zbek ayollarining bosh kiyimlari o‘ziga xos xosiyatli va mas’uliyat belgisi hisoblangan. Masalan Surxon vohasi momolari boshlariga **Puta** kiyib **kata ro‘mol** o‘rashgan. Bunda birinchi matolardan bir-necha qavat qilib tayyorlangan **Kiygich** kiyishgan. Uning ustidan 2-3 metrlik mato o‘rashgan. Bu **Puta** deb ataladi. Bunday bosh kiyimni 50-60 yoshdan oshgan ayollar kiyishgan. Boshqa viloyatdagilar bilan taqqoslaydigan bo‘lsak Xorazm viloyati va Zarafshon vohasi ayollarining bosh kiyimlarini **lachak** deb atashgan. Erkaklar esa 60-70 yoshdan keyin boshlariga **salla** o‘rab, yelkalariga esa **jelak** kiyib yurishgan. Horirgi kunda esa bu kiyimlarni kiyish kamayib ketgan. Dala tadqiqotlari davomida shu narsa ma’lum bo‘ldiki yosh ayollar boshlariga ro‘mol o‘rab yurishgan. Po‘ta kiyib yurgan ayollar alohida hurmat va ehtiromga sazovar bo‘lishgan.

Ba’zi yoshi ulug‘lar nargi dunyoga ketish muddati yaqinlashgani sayin o‘zlari uchun sandig‘ining tubiga kafan tayyorlab qo‘yishar ekan va bisotidagi barcha buyumlarni o‘z yaqinlariga ulashish uchun taqsimlab qo‘yadilar. Dala tadqiqotlari jarayonida ushbu odatning haligacha amal qilib kelayotganligiga guvoh bo‘lindi.

Kishi vafot etib, dafn etilganidan so‘ng ertasi kuni “kir yuvdi” marosimi o‘tkaziladi. Unda marhumning kiyimlari yuviladi. Ular oddiy suvda kir yuvish kukuni va sovunsiz yuviladi. Chunki, agar ko‘piradigan vositalar ishlatilsa, mayitning og‘zi ko‘piradi, degan qarashlar mavjud ekan. Yuvilganda birorta narsa, hatto ro‘molchasi ham esdan chiqmasligi kerak. Agar

vafot etgan kishining kiyimlaridan birortasi yuvilmay qolsa, unda “o‘likning kiyimlari yuvilmay qoldi”, deb aytiladi va bundan marhumning ruhi ranjib, bezovta va norozi bo‘lishiga ishonishgan. Kishi vafot etganidan keyin uning kiyimlari yaqin qarindoshlari tomonidan bo‘lib olingan.

Aza liboslari ayollar uchun ko‘ylak va ro‘mollardan iborat. “Aza ko‘ylak”– ushbu kiyim odatda, marhumning yaqin kishilari, ya’ni onasi, opa-singillari, ayoli, qizi, amma va xolasi tomonidan kiyiladi. **“Aza ko‘ylak”** marhum vafotidan yetti kun o‘tgandan keyin tikiladi. “Aza ko‘ylak” **qirq kun** davomida yuvilmaydi. Chunki, qariyalarning fikricha, marhumning ruhi qirq kunga qadar o‘zi yashagan uyda yuradi (aqidaga ko‘ra, u o‘lganiga ishonmaydi va ketolmay yuradi). Agar shu kunlar davomida kir yuvilsa, marhumning og‘zi ko‘pirarmish, degan qarash mavjud. Aza ko‘ylaklari qirq kundan keyin yuviladi. Marhumning qirq to‘ldisi kuni yoshlar aza ko‘ylagini yechadilar. Mazkur marosimning bundan buyon oramizdan yo‘qotishlar bo‘lmasin va bunday ko‘ylaklar boshqa kiyilmasin, degan ma’nosi bor.

Ammo, keksa ayollar **“yili”**ga qadar ushbu aza kiyimni kiyishda davom etadilar. Islomda bunday maxsus kiyim kiyish belgilanmagan. Aza esa **uch kun**, marhumning ayoli uchun yetti oy ekanligi ta’kidlanadi, lekin shunda ham maxsus kiyim kiyish buyurilmagan. Bundan tashqari, azador ayollar aza muddati tugagunga qadar turli taqinchoq va zeb-ziynatlar taqishi ham mumkin emas. Hattoki to‘y va bayramlarga ham borishi mumkin emas. Oldinlari azador xonadonda televizor tomosha qilish hamda ayollarning ko‘k va oqdan boshqa rangdagi liboslar kiyishlari marhum ruhiga hurmatsizlik sifatida qaralgan. Hozir ham ba’zi joylarda bunday holatlar uchrab turadi.

“Aza ro‘mol”i oq yoki qora rangda bo‘ladi. Ko‘ylakdan farqli ravishda u marhumning “yil to‘ldi” marosimiga qadar o‘raladi. Respublikaning aksariyat hududlarida bo‘lgani singari Surxon-Sherabot vohasida ham **oq rang azadorlik ramzi** hisoblanadi. Ammo, shu o‘rinda ba’zida azadorlar boshqa ranglardagi kiyim kiyishi yoki ro‘mol o‘rashi ham mumkinligini ta’kidlash joizki, ushbu odat Surxondaryoda chuqur ruhiy tushkunlik oqibati sifatida talqin etiladi.

Boshiga musibat tushgan “erkak” kishi azadorligini bildirish uchun do‘ppi kiyadi. Bunda asosan, **“taxya”, “sherozi” yoki “ola do‘ppi”**lar kiyiladi. Ayollardan farqli ravishda erkaklarning bosh kiyimi marhum vafot etgan kuniyoq kiyiladi va ularning sochi qirib olib tashlanadi. Faqat Surxondaryoliklar tushunchasidagi do‘ppi umum qabul qilingan do‘ppidan farq qilib, umuman, erkaklar bosh kiyimini ham hisoblanadi. Lekin horirgi kunga kelib faqatgina aza kiyimigina bo‘lib qolmoqda.

Marosimiy taomlarning kundalik taomlardan farqi shundaki, asta-sekinlik bilan bajarilayotgan urf-odat va marosimning tarkibiy qismi umumiy ovqatlanish yoki afsungarlik ob’ektiga aylanib boradi. E’tiborli tomoni shundaki, marosim taomlari nafaqat insonlarning biologik ehtiyojini qondirish, shu bilan birga uni tayyorlash jarayonidagi o‘zaro hamkorlik, pishirilgan taomni birgalikda iste’mol qilish orqali odamlar o‘rtasidagi do‘stlik va ijtimoiy hamkorlik aloqalarining jadallashuvi, ayrim hollarda taom orqali o‘zaro do‘stlik yoki qarindoshlik rishtalari shakllanishiga sabab bo‘lgan.

Ko‘rib chiqilganidek, qadim zamondan beri insonlar marhumga nisbatan achinish barobarida kuchli hurmatda ham bo‘lganlar. Shu sababli marhumning ruhiga bag‘ishlab maxsus taomlar tayyorlangan. Shunday ekan, marosim taomlari va uning tayyorlash sabablari hamda usullari haqida to‘xtalib o‘tishimiz joizdir.

Zardushtiylar go‘sht, sut, olov, tuz haqqiga qasam ichganlar. Ma’budlarga Ahura Mazdaga ehson qilinadigan taomlar go‘sht, xaoma, sut va drvana (non) ekanligi “Avesta”da ta’kidlangan. Demak, zardushtiylar jamoasida qadrlangan oziq-ovqat mahsulotlari xalqimiz dasturxonining ham asosiy ne’matlaridan bo‘lib kelayotganiga guvoh bo‘lamiz. Dasturxonni qanday taom bilan bezash odati ham turli xalqlarda turlicha. Masalan, ruslarda marhum vafot etgan kuni uni yod etib, oxirati obod bo‘lishini tilab, spirtli ichimliklar ichiladi va non iste’mol qilinadi. Bu ularning diniy aqidasi bilan bog‘liq bo‘lib, “vino” – “qon”, “non” – “jon” ramzi hisoblanadi. Shuningdek, ko‘pgina musulmon mamlakatlari, jumladan, Iroq, Saudiya Arabistoni, Eron, Iordaniya va Misrda ta’ziya marosimlarida

xontaxta ustiga qora dasturxon to‘shalib, unga chilim qo‘yiladi. Kelgan har bir kishi Qur’on tilovat qiladi. Ularga shakar solingan kofe va chilim beriladi hamda atir suvi sepiladi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. Dala yozuvlari. Oltinsoy, Sherabod, Uzun tumanlari. 2024 y.
2. Dala yozuvlari. Muzrabot, Angor, Boysun, Uzun tumanlari. 2024 y.
3. U.Abdalov “O‘zbeklarning an’anaviy turmush tarzida zardushtiylik izlari”mavzusida tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Nukus. 2020.76-b. Davlatova S. T. O‘zbek milliy kiyimlari: an’anaviylik va zamonaviylik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
4. Ashirov A. A. O‘zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlari.... – B. 179.
5. Jabborov I. O‘zbek xalqi etnografiyasi. -T., 1994.
6. Davlatova S. Qashqadaryo milliy kiyimlari: an’anaviylik va zamonaviylik. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
7. Шаниязов К., Исмаилов Х. Этнографические очерки материальной культуры узбеков конца XIX-начала XX в. –Т., Фан, 1981.
8. Tursunov S.N, Tursunov A.S, Tog‘ayev M.R. “Sherobod tarixi va etnografiyasi” monografiaysi. T. Yangi nashr. 2014.
9. Токарев С. А. Сущность и происхождение магии. Исследования и материалы по вопросам первобытных религиозных верований. – М.;
10. Hamidulla Karomatov. “O‘zbekistonda moziy e’tiqodlar tarixi”. T. 2008.

O‘ZBEK XALQINING MEHMONDO‘STLIK MADANIYATIDA SURXON VOHASINING O‘RNI: ILMIY TAHLIL

TOSHQOBILOV BOBUR XOLBO‘TAYEVICH

Termiz davlat universiteti “Falsafa” kafedrasi o‘qituvchisi
toshqobilov2389@mail.ru

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Mazkur maqolada o‘zbek xalqining umummilliy qadriyati hisoblangan mehmondo‘stlik madaniyatining Surxon voha etnik muhitidagi o‘ziga xos xususiyatlari tadqiq etiladi. Vohadagi mehmondo‘stlik an’analari, taomlanish madaniyati va ijtimoiy munosabatlarning tarixiy-etnografik jihatlari ilmiy tahlil qilingan.

В данной статье рассматриваются специфические особенности культуры гостеприимства, считающейся национальной ценностью узбекского народа, в этнической среде Сурханского оазиса. Научно проанализированы историко-этнографические аспекты традиций гостеприимства, культуры питания и социальных отношений в оазисе.

This article examines the specific features of the culture of hospitality, which is considered a national value of the Uzbek people, in the ethnic environment of the Surkhan oasis. The historical and ethnographic aspects of hospitality traditions, food culture, and social relations in the oasis are scientifically analyzed.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

Surxon vohasi, mehmondo‘stlik, etnomadaniyat, qadriyat, dastarxon, voha an’analari, mehmondo‘stlik etiketi.

Сурханский оазис, гостеприимство, этнокультура, ценности, сервировка стола, оазисные традиции, этикет гостеприимства

Surkhan oasis, hospitality, ethnoculture, value, table setting, oasis traditions, hospitality etiquette.

Kirish: O‘zbek xalqining ma’naviy qiyofasini belgilovchi eng oliyjanob fazilatlardan biri, shubhasiz, mehmondo‘stlikdir. Bu qadriyat asrlar davomida xalqimizning qon-qoniga singib, shunchaki odat emas, balki hayot tarzining ajralmas qismiga, milliy mentalitetning tayanch ustuniga aylangan. O‘zbekistonning har bir go‘shasi o‘zining mehmondorchilik an’analari bilan mashhur bo‘lsa-da, Surxon vohasi — o‘zining qadimiy sivilizatsiya o‘choqlari, betakror etno-madaniy muhiti va saqlanib qolgan sof arxaik an’analari bilan bu borada alohida strategik va madaniy o‘rin tutadi. Surxon vohasidagi mehmondo‘stlik madaniyati — bu antik davr merosi, islomiy qadriyatlar va voha aholisining tili hamda dilidagi samimiylikning sintezidir.

Vohaning geografik joylashuvi — Buyuk Ipak yo‘lining chorrahasida joylashgani, shimoldan Hisor tog‘lari, janubdan Amudaryo bilan chegaralangani bu yerda o‘ziga xos yopiq va shu bilan birga mehmonga ochiq madaniyatning shakllanishiga sabab bo‘lgan. Surxonliklar uchun mehmon tushunchasi muqaddasdir. Bu yerda "Mehmon — otangdan ulug‘" degan hikmat shunchaki so‘z emas, balki kundalik hayotning qat’iy qonuniyatidir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Surxon vohasi aholisining etnik tarkibi (o‘zbeklarning qo‘ng‘irot, yuz, loxay, qatag‘on kabi urug‘lari) va ularning chorvachilik hamda dehqonchilik bilan uyg‘unlashgan turmush tarzi mehmondo‘stlikning o‘ta tantavor va saxovatli shakllarini yuzaga keltirgan. Surxon mehmondo‘stligining ilmiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu jarayon bir necha bosqichli etiket qoidalaridan iborat. Birinchi navbatda, mehmonni kutib olishdagi samimiylik va "hushomad" (lutf) san’ati alohida e’tiborga molik. Vohada hatto notanish yo‘lovchi ham "Hudo yo‘llagan mehmon" sifatida qabul qilinadi. Bunday yondashuv voha xalqining bag‘rikengligi va ijtimoiy birdamligidan dalolat beradi. Ikkinchidan, Surxon dasturxoni o‘zining "to‘kinligi" va "tabiiyligi" bilan ajralib turadi. Bu o‘lkada mehmonga atab jonliq so‘yish, tandir go‘sht tayyorlash yoki "Osh-i sofi" tortish - mezbonning mehmonga bo‘lgan cheksiz hurmatini va o‘z navbatida, o‘zining ijtimoiy mavqeyini namoyish etish usulidir. Bugungi globallashuv jarayonida ko‘plab milliy qadriyatlar transformatsiyaga uchrayotgan bir paytda, Surxon vohasi mehmondo‘stlikning "jonli muzeyi" vazifasini o‘tamoqda. Boysunning tog‘li qishloqlaridan tortib, Termizning zamonaviy ko‘chalarigacha bo‘lgan hududlarda mehmonni e’zozlash madaniyati hali ham o‘zining fundamental asoslarini yo‘qotmagan. Bu madaniyat nafaqat mehmonga xizmat qilish, balki uning ko‘nglini ko‘tarish, u bilan suhbat qurish, baxshilar termalaridan bahramand qilish kabi ma’naviy unsurlarni ham o‘z ichiga oladi.

Ushbu maqolaning maqsadi - Surxon vohasi mehmondo‘stlik madaniyatining tarixiy ildizlarini ochib berish, uning o‘zbek xalqi umummilliy madaniyatidagi o‘rni va ahamiyatini ilmiy asoslash hamda vohaga xos bo‘lgan etnik xususiyatlarni tahlil qilishdan iborat. Zero, mehmondo‘stlik - bu xalqning ma’naviy pasporti bo‘lib, Surxon vohasi misolida bu pasport o‘zining eng yorqin va jozibador ranglarida namoyon bo‘ladi. Voha xalqining mehmondo‘stligi orqali biz o‘zbek millatining tantiligi, mardligi va insonparvarligini butun dunyoga ko‘rsata olamiz. Surxon vohasi ijtimoiy muhitida mehmondo‘stlik shunchaki odob-axloq qoidasi emas, balki shaxsning jamiyatdagi o‘rnini belgilovchi, uning ma’naviy qiyofasini shakllantiruvchi fundamental ijtimoiy-psixologik hodisadir. Voha aholisining psixologik portretida "tantilik" (bag‘rikenglik, mardlik) tushunchasi markaziy o‘rin tutadi. Bu yerda mehmondo‘stlikning ijtimoiy asoslari jamoaviylik (kollektivizm) tamoyiliga tayanadi.

"Mehmon - Rizq" va Baraka Fenomeni Psixologik nuqtai nazardan, surxonliklar ongida mehmon bilan bog‘liq ijobiy assotsiatsiya mavjud. Xalq ishonchiga ko‘ra, mehmon o‘z rizqi bilan keladi va xonadondagi g‘am-tashvishlarni o‘zi bilan olib chiqib ketadi. Bu deterministik qarash mezbonning mehmon oldidagi har qanday sarf-xarajatni "yo‘qotish" emas, balki "ma’naviy investitsiya" sifatida qabul qilishiga sabab bo‘ladi. Shu bois, iqtisodiy holatidan qat’i nazar, mezbon borini

mehmonning oldiga qo‘yishga intiladi, bu esa "ijtimoiy optimizm"ni vujudga keltiradi. Voha jamiyatida mehmondo‘stlik oilaning va urug‘ning nufuzini belgilovchi asosiy indikator hisoblanadi. Ma’lum bir shaxsning "falonchi mehmondo‘st odam" deb tan olinishi, uning ijtimoiy iyerarxiyada yuqori pog‘onaga ko‘tarilishiga xizmat qiladi. Aksincha, mehmondan yuz burish yoki sovuq munosabatda bo‘lish — shaxsning ijtimoiy izolyatsiyasiga va mahalla-ko‘y oldida obro‘sizlanishiga olib keladi. Bu holat "ijtimoiy nazorat" mexanizmi sifatida xizmat qilib, avloddan-avlodga mehmondo‘stlik etikasini o‘tkazishni ta’minlaydi. Surxon mehmondo‘stligida "lutf" va "tavoze" san’ati o‘ta rivojlangan. Mezbon mehmonni nafaqat taom bilan, balki shirin so‘z va alohida ehtirom bilan ham siylaydi. Bu jarayonda quyidagi psixologik elementlar kuzatiladi:

- Inklyuzivlik: Mehmonni oila a’zosidek qabul qilish, unga o‘z uyidagidek his qilish imkonini berish.
- Empatiya: Mehmonning charchog‘ini, kayfiyatini his qilish va unga mos ravishda sharoit yaratish (masalan, uzoq yo‘ldan kelgan mehmonga darhol og‘ir ovqat emas, balki chanqoqbosdi choy va yengil tamaddi berish).
- Ierarxik hurmat: Yoshi ulug‘ mehmonlarga ko‘rsatiladigan alohida ehtirom "ustoz-shogird" yoki "ota-bola" munosabatlarining psixologik modelini eslatadi.

Tarixan, voha xalqi uchun mehmondo‘stlik begona bilan do‘stlashish va mumkin bo‘lgan konfliktlarning oldini olish vositasi bo‘lib xizmat qilgan. "Tuz-namak berish" marosimi orqali ikki tomon o‘rtasida o‘ziga xos ma’naviy kelshim (pakt) tuzilgan. Tuz ichgan odamning mezbonga yomonlik qilmasligi, mezbonning esa mehmonni himoya qilishi — bu hududning qadimiy "xavfsizlik psixologiyasi" asosidir. Surxon vohasi etnografiyasini o‘rganishda mehmondo‘stlik shunchaki "ovqat berish" emas, balki murakkab ritual tizimi ekanligi namoyon bo‘ladi. Bu tizim voha aholisining yarim o‘troq va chorvachilik madaniyati bilan uzviy bog‘liq. Vohaning qishloq joylarida, ayniqsa Boysun, Sherobod va Denov tumanlarida uylarning me’moriy tuzilishi mehmon kutishga ixtisoslashgan. Alohida hudud: Surxon hovlilarida mehmonxona odatda hovlining eng oldi qismida, oila a’zolari yashaydigan joydan (ichkaridan) ajratilgan holda quriladi. Bu mehmonning erkin harakatlanishi va oila sirlarining daxlsizligini ta’minlashga xizmat qiladi. O‘choqboshi madaniyati: Mehmonxonada alohida o‘choq yoki kamin (mori) bo‘lishi, qish kunlari mehmon atrofida gurunglashish uchun psixologik markaz vazifasini o‘taydi.

Surxon taomlanish madaniyati mehmonga bo‘lgan hurmatning eng yuqori moddiy ko‘rinishidir. Tandir go‘sht rituali: Bu taomning tayyorlanishi haqiqiy etnografik jarayondir. Go‘shtning archa novdalari bilan dimlanishi nafaqat ta’m, balki qadimiy tog‘ xalqlarining tabiat bilan uyg‘unligini ko‘rsatadi. Mehmonga "tandir" tortilishi — uning uchun xonadonda jonliq so‘yilganini va eng sarhil ne’matlar taqdim etilganini anglatadi. Suvloqi (Surxoncha palov): Vohaning palovi (asosan qizil sabzili, o‘ziga xos pishirish texnologiyasiga ega) mehmonga tortiladigan asosiy taomdir. Uni tayyorlashda erkaklarning ishtiroki ("oshpaz") mehmondo‘stlikning ijtimoiy mas’uliyatini oshiradi. Surxon mehmondo‘stligi faqat jismoniy ehtiyojlarni qondirish bilan cheklanmaydi, u ma’naviy-estetik mazmunga ham ega. Dostonchilik: Aziz mehmon kelganida (ayniqsa tog‘li tumanlarda) davraga baxshi taklif qilinishi — mehmondo‘stlikning eng yuqori cho‘qqisi hisoblanadi. "Alpomish" dostonidan parchalar tinglash orqali mehmonga voha ruhiyati yetkaziladi. Gurung odobi: Surxonliklar mehmondan darhol "Kelishingizdan maqsad nima?" deb so‘rashmaydi. Avval "Sog‘liq-salomatlik", "El-yurt tinchligi" so‘raladi, uzoq davom etadigan lutf-u karamdan so‘nggina asosiy maqsadga o‘tiladi.

Etnografik jihatdan mehmonni kuzatish jarayoni kutib olishdan kam ahamiyatga ega emas. To‘n va Belbog‘: Hurmatli mehmonga voha uslubidagi (ko‘pincha abri yoki adras matoli, qalin paxtali) to‘n kiygizish va beliga belbog‘ bog‘lash — "Sen bizning do‘stimizsan, sening orqangda biz turibmiz" degan ramziy ma’noni anglatadi.

Surxon vohasi o‘zining geografik relefi — baland tog‘lar, keng adirlar va daryo bo‘yi tekisliklaridan iboratligi sababli,

mehmondo‘stlik an’analarida ham o‘ziga xos **lokal (hududiy) farqlar**ga ega. Garchi umumiy mohiyat bir bo‘lsa-da, Boysun tog‘laridagi mehmondorchilik bilan Termizning shahar muhitidagi marosimlar o‘rtasida etno-madaniy tafovutlar mavjud. Vohadagi mehmondo‘stlik madaniyatini shartli ravishda uchta asosiy hududiy zonaga ajratib tahlil qilish mumkin:

1. Tog‘li va Tog‘oldi Hududlar (Boysun, Sariosiyo, Uzun)

Bu hududlarda mehmondo‘stlik o‘zining **eng qadimiy va konservativ** shakllarini saqlab qolgan. Bu yerda mehmondo‘stlik chorvachilik madaniyati bilan uzviy bog‘liq.

- **"Oq yo‘l" va Sut mahsulotlari:** Mehmon kelishi bilan birinchi navbatda dasturxonga choydan avval kosa yoki piyolada **qatiq, sut yoki qaymoq** qo‘yiladi. Bu "rizqingiz oq (pok) bo‘lsin" degan ramziy ma’noni anglatadi.
- **Alpomishona saxovat:** Tog‘li tumanlarda mehmon uchun "jonliq" (qo‘y yoki echki) so‘yish majburiy hisoblanadi. "Mehmon kelsa, pichoqni qinidan chiqar" tamoyili amal qiladi.
- **Baxshichilik muhiti:** Bu hududlarda mehmon nafaqat taom, balki ma’naviy ozuqa — **do‘mbira navolari va dostonlar** bilan siylanadi. Mehmon sharafiga uyushtiriladigan kichik davralar ko‘pincha tonggacha davom etadigan gurunglarga ulanib ketadi.

2. Markaziy va Janubiy Tekislik Hududlari (Termiz, Jarqo‘rg‘on, Angor)

Bu zonada mehmondo‘stlik ko‘proq **shahar madaniyati** va **Ipak yo‘li** savdo aloqalari ta’sirida shakllangan.

- **Oshpazlik mahorati va xilma-xillik:** Tekislik hududlarida dasturxonning rang-barangligiga katta urg‘u beriladi. Turli xil poliz ekinlari, mevalar va qandolat mahsulotlari dasturxonni to‘ldirib turadi.
- **Mehmondo‘stlikning estetik jihati:** Bu yerda idish-tovoqlarning chiroyliligi, dasturxonning bezatilishi va xizmat ko‘rsatish etiketiga (masalan, choyni necha marta qaytarish, piyolaning qanchalik to‘ldirilishi) alohida e’tibor qaratiladi.
- **Ijtimoiy ochiqlik:** Markaziy tumanlarda mehmon kutish jarayoni ko‘proq zamonaviy xizmat ko‘rsatish elementlari bilan uyg‘unlashgan, biroq samimiylik va lutf saqlanib qolgan.

3. Shimoliy va G‘arbiy Hududlar (Sherobod, Muzrabot, Qiziriq)

Bu hududlar mehmondo‘stligida **tanti va mardona** ruh ustuvor bo‘lib, u yerda dehqonchilik va bog‘dorchilik madaniyati ustunlik qiladi.

- **Sherobod anori va mingtovar:** Sherobod mehmondo‘stligining ramzi bu uning mashhur anoridir. Har qanday mehmonning qo‘liga, albatta, ushbu ne’matdan berib yuboriladi.
- **Tandir go‘shtning "vatan"i:** Garchi tandir butun vohada pishirilsa-da, Sherobod va Muzrabot yo‘nalishlarida bu taomni tayyorlash o‘ziga xos "erkaklar san’ati" darajasiga ko‘tarilgan. Mehmonni kutib olishda tandirdan chiqayotgan issiq go‘shtning hidi — eng asosiy "hush kelibsiz" belgisidir.
- **Suhbat madaniyati:** Bu tumanlar aholisi orasida hazil-mutoyiba va qiziqarli latifalar orqali mehmonning ko‘nglini ko‘tarish (psixologik komfort) o‘ta rivojlangan.

Xurjun va Tugun: Mehmonning qo‘liga "yo‘l oziq-ovqati" (non, qurut, meva-cheva) tutqazish qadimgi karvon yo‘llari madaniyatidan qolgan an’anadir.

Surxon vohasida "gap" yoki "gashtak" kabi jamoaviy yig‘inlar mehmondo‘stlikning ommaviy shaklidir. Bu yerda bir kishining mehmoni — butun mahallaning mehmoni hisoblanadi. Agar qishloqqa uzoqdan mehmon kelsa, qo‘ni-qo‘shnilar o‘z uylaridan taom ko‘tarib chiqishlari ("oqar") hamon saqlanib qolgan noyob etnik hodisadir. O‘zbek xalqining mehmondo‘stlik madaniyatida Surxon vohasining tutgan o‘rnini ilmiy tahlil qilish natijasida quyidagi fundamental xulosalarga kelindi:

Birinchidan, Surxon mehmondo‘stligi — bu shunchaki ijtimoiy odob majmuasi emas, balki mintaqaning qadimiy tarixi, etnik tuzilishi va geografik joylashuvi bilan bog‘liq bo‘lgan **murakkab madaniy fenomen**dir. Vohaning yarim o‘troq chorvachilik va dehqonchilik an’analari uyg‘unligi bu yerda "tantilik" va "saxovat" tushunchalarining eng yuqori shakllarini vujudga keltirgan.

Ikkinchidan, hududiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Surxon mehmondo‘stligi o‘zining **mikro-lokal xususiyatlari** bilan boydir. Boysunning arxaik-folklorik, Sherobodning mardona-gastronomik va Termizning intellektual-shahar madaniyati birgalikda o‘zbek mehmondo‘stligining yaxlit va rang-barang manzarasini yaratadi. Bu xilma-xillik vohani mamlakatimizning etnoturistik markazlaridan biri sifatida e’tirof etishga asos bo‘ladi.

Uchinchidan, mehmondo‘stlik an’analari Surxon vohasida **ijtimoiylashuv va tarbiya vositasi** bo‘lib xizmat qiladi. Yosh avlod mehmon kutish jarayonida "ustoz-shogird" an’anasi asosida muomala madaniyati, xizmat odobi, milliy qadriyatlarga sadoqat va ijtimoiy mas’uliyat kabi hayotiy ko‘nikmalarni egallaydi. Bu esa zamonaviy pedagogikada "jonli an’analar orqali tarbiyalash" modelining eng muvaffaqiyatli namunasi hisoblanadi.

To‘rtinchidan, Surxon vohasining mehmondo‘stlik madaniyati globallashuv sharoitida **milliy identifikatsiyani saqlab qolish**ning muhim omilidir. Texnologiyalar rivojlangan asrda ham voha aholisining mehmonni "Allohning do‘sti" deb bilishi va unga samimiy ehtirom ko‘rsatishi xalqimizning ma’naviy immuniteti qanchalik kuchli ekanligidan dalolat beradi.

Amaliy tavsiyalar:

- Surxon mehmondo‘stligining o‘ziga xos etiket va terminologiyasini lug‘at hamda maxsus qo‘llanma shaklida chop etish;
- Vohadagi mehmondorchilik an’analarini YUNESKOning nomoddiy madaniy merosi ob’yekti sifatida yanada kengroq targ‘ib qilish;

Yoshlar o‘rtasida "Mehmondo‘stlik — milliy qadriyat" mavzusida etno-madaniy tadbirlarni muntazam o‘tkazish. ‘zbek xalqining ko‘p asrlik ma’naviy merosida mehmondo‘stlik shunchaki odob-axloq normasi emas, balki millatning mentalitetini, ijtimoiy qiyofasini va dunyoqarashini belgilovchi fundamental qadriyat hisoblanadi. Surxon vohasi misolida ushbu qadriyatni ilmiy tahlil qilish quyidagi keng qamrovli xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

Birinchidan, Surxon mehmondo‘stligi — bu hududning o‘ziga xos **etno-tarixiy evolyutsiyasi** natijasidir. Vohaning qadimiy Baqtriya va Termiziylar davridan boshlab shakllangan madaniy qatlamlari, islomiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashib, "mehmon — muqaddas" degan tushunchani ijtimoiy ongda mustahkamlagan. Bu yerda mehmondo‘stlik shunchaki mezbonning saxovati emas, balki ajdodlar ruhiga sadoqat va ilohiy rizqqa bo‘lgan ishonchning amaliy ko‘rinishidir.

Ikkinchidan, tadqiqotlar Surxon mehmondo‘stligining **gastronomik va marosimiy o‘ziga xosligi**ni ko‘rsatdi. Vohaning "tandir go‘sht", "osh-i sofi", "suvloqi" kabi brend darajasidagi taomlari shunchaki ozuqa emas, balki mehmonga bo‘lgan ehtiromning moddiylashgan ramzlaridir. Har bir taomning tayyorlanishi va tortilishi (servirovka) muayyan etnotribal (urug‘-aymoq) an’analarga asoslangan bo‘lib, bu jarayon mezbon va mehmon o‘rtasida o‘zaro hurmatga asoslangan psixologik ko‘prik vazifasini o‘taydi.

Uchinchidan, mehmondo‘stlik an’analari **zamonaviy ijtimoiy tarbiya tizimida** bebaho resurs hisoblanadi. Surxon xonadonlarida mehmon kelishi bilan yoshlarning xizmatga kirishishi — bu amaliy etika darsidir. Bu jarayon yoshlarda muloqot madaniyati, lutf san’ati, kattalarga hurmat va o‘zlikni anglash kabi sifatlarni shakllantiradi. Globallashuv sharoitida g‘arbona individualizmga qarshi turuvchi kollektivistik ruh aynan mana shu "mehmondo‘stlik maktabi" orqali saqlanib qolmoqda.

To‘rtinchidan, Surxon vohasining **hududiy-madaniy xilma-xilligi** (Boysun, Sherobod, Termiz zonalarining farqlari) o‘zbek mehmondo‘stligini yanada boyitadi. Tog‘li hududlardagi sodda va arxaik mehmondorchilik bilan shahar muhitidagi nozik didli va zamonaviy kutib olish an’analari o‘zaro uyg‘unlashib, vohaning ulkan **etnoturistik salohiyatini** yuzaga keltirmoqda. Bu an’analarni saqlash nafaqat ma’naviy, balki iqtisodiy jihatdan ham istiqbolli yo‘nalishdir.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, Surxon vohasining mehmondo‘stlik madaniyati — bu o‘zbek xalqi umummilliy madaniyatining yorqin javohiridir. Uni ilmiy o‘rganish va keng targ‘ib qilish:

1. Milliy qadriyatlarni transformatsiyadan (yo‘qolishdan) asrab qoladi;

2. Yosh avlodni vatanparvarlik va mardlik ruhida tarbiyalaydi;

3. O‘zbekistonning xalqaro maydondagi ijobiy imijini ("Mehmondo‘st o‘lka") yanada mustahkamlaydi.

Shunday qilib, Surxon mehmondo‘stligi shunchaki an’ana emas, balki xalqimizning ma’naviy xavfsizligini ta’minlovchi va milliy birlikni mustahkamlovchi qudratli ijtimoiy mexanizmdir.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017.

2. Jabborov I. O‘zbek xalqi etnografiyasi. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1994. – 320 b.

3. Shoniyozov K. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni. – Toshkent: “Sharq”, 2001.

4. Tursunov S., Qobulov E., Pardayev T., Tursunov N. Surxondaryo tarixi. – Toshkent: “Sharq”, 2004. – 608 b.

5. Karimov I. O‘zbekistonda mehmondo‘stlik an’analari (Etnografik tadqiqot). – Toshkent: “Fan”, 2008.

6. Kichkilova M.F. Janubiy O‘zbekiston o‘zbeklarining oilaviy hayoti va an’anaviy marosimlari (etnografik ma’lumotlar asosida). Tarix fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2010.

7. Kichkilova M.F. Surxon vohasi aholisining an’anaviy taomlari va mehmondorchilik madaniyati. // "O‘zbekiston etnografiyasining yangi sahifalari" to‘plami. – Toshkent, 2012.

8. Kichkilova M.F. O‘zbek xalqi mehmondo‘stlik an’analarining etnomadaniy jihatlari. // O‘zbekiston etnografiyasining dolzarb muammolari (Ilmiy to‘plam). – Toshkent, 2015.

9. Pardayev T. Surxon vohasi etnomadaniy jarayonlari: an’ana va zamonaviylik. Monografiya. – Toshkent: “Navro‘z”, 2020.

BOYSUN BAHORI FESTIVALIDA ETNOSPORT VA XALQ O‘YINLARINING NAMOYISHI

KARIMOVA NILUFAR AXMATOVNA

Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy xodimi

Аннотация / Аннотация / Abstract

Ushbu maqolada etnosport va xalq o‘yinlarining jamoatchilik o‘rtasida keng tarqalishi, ularning bayram va festivallar doirasida namoyish etilishining o‘ziga xos jihatlari ilmiy asosda tahlil qilingan. Xususan, Boysun bahori festivali misolida folklor jamoalari bilan bir qatorda etnosport va xalq o‘yinlarining namoyish etilishi hamda ularning mazmuni va tarbiyaviy ahamiyati yoritilgan.

В статье на научной основе проанализированы особенности широкого распространения этноспорта и народных игр среди населения, а также их представления в рамках праздников и фестивалей. В частности, на примере фестиваля «Бойсун бахори» раскрыты вопросы демонстрации этноспорта и народных игр наряду с выступлениями фольклорных коллективов, а также их содержание и воспитательное значение.

This article provides a scientific analysis of the widespread dissemination of ethnosport and traditional folk games among the public, as well as their specific features of presentation within festivals and celebrations. In particular, using the example of the Boysun Bahori Festival, the study highlights the demonstration of ethnosport and folk games alongside folklore groups, as well as their content and educational significance.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords
Boysun bahori, folklor, festival milliy o‘yinlar, xalq madaniyati, yoshlar tarbiyasi, jismoniy tarbiya, ma’naviy qadriyatlar, bayramlar, an’analar, urbanizatsiya, raqamli texnologiyalar, nomoddiy madaniy meros
«Бойсун бахори», фольклор, фестиваль, народные игры, народная культура, воспитание молодёжи, физическое воспитание, духовные ценности, праздники, традиции, урбанизация, цифровые технологии, нематериальное культурное наследие
Boysun Bahori Festival, folklore, festival, folk games, folk culture, youth education, physical education, spiritual values, celebrations, traditions, urbanization, digital technologies, intangible cultural heritage

O‘zbek xalq ijodiyoti milliy madaniyatimizning eng qadimiy qatlamlaridan biri bo‘lib, unda xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi, qadriyatlari va an’analari mujassamdir. Xalq ijodiyotining yirik yo‘nalishlaridan biri xalq o‘yinlari bo‘lib, ular ming yillik tarixga ega madaniy meros sifatida avloddan avlodga o‘tib kelmoqda. Xalq o‘yinlari nafaqat ko‘ngilochar mashg‘ulot, balki jamiyat hayotining muhim tarkibiy qismi sifatida jamoa birligini mustahkamlovchi, yoshlarni tarbiyalovchi hamda jismoniy va ma’naviy barkamollikka undovchi vosita bo‘lib xizmat qilgan. O‘yinlar xalqning ijtimoiy hayoti, mehnat faoliyati, marosimlari va bayramlari bilan chambarchas bog‘liq holda shakllangan. Bugungi kunda ham o‘zbek xalq o‘yinlari milliy meros sifatida o‘rganilmoqda, qayta tiklanmoqda va zamonaviy ta’lim jarayonida qo‘llanilmoqda.

Boysun bahori festivali doirasida ham bayram munosabati bilan tashkil etiladigan xalq sayllari va unda o‘tkaziladigan milliy o‘yinlar jamiyatning barcha qatlamlari uchun ma’naviy zavq va ruhiy ko‘tarinkilik bag‘ishlaydi.

Odatda, festival kunlari odamlar erta tongdan mahallalardagi saylgohlarda to‘planadilar. Bir tomonda kurash, tosh ko‘tarish, dor o‘yinlari, poygalar o‘tkazilsa, ikkinchi tomonda arqon tortish, yelka kurash, quloq cho‘zma, do‘gish kabi musobaqalarda yoshlar o‘z kuch va mahoratlarini sinab ko‘radilar. Shuningdek, yog‘ochoyoq, qo‘g‘irchoq o‘yinlari, ayiq o‘yinlari kabi tomoshalar ham bayramning ajralmas qismi hisoblanadi. Masxarabozlarning chiqishlari esa tomoshabinlarga alohida kayfiyat bag‘ishlaydi.

Ta’kidlash joizki, xalq milliy o‘yinlari yoshlar tarbiyasida beqiyos ahamiyatga ega. Ular nafaqat jismoniy sog‘lomlikni ta’minlaydi, balki insonning ma’naviy dunyoqarashini ham shakllantiradi. Milliy o‘yinlarda

ajdodlarimizning turmush tarzi, mehnati, kurashi va yutuqlari o‘z ifodasini topgan. Boysun bahori festivalida tashkil etiladigan turli ko‘rgazmalar va konsert dasturlari keksayu yoshni o‘ziga jalb etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bayram va festivallarda o‘tkaziladigan tomoshalar yoshlarda jamoaviylik, hamjihatlik va ijtimoiy faollikni shakllantirishda muhim omil

hisoblanadi. Festivalning muhim jihatlaridan biri unitilib borayotgan xalq o‘yinlarini qayta tiklash va ularni jamoatchilikka namoyish etish orqali

keksa avloddan yosh avlodga uzatish jarayonini ta’minlashidir. Boysun bahori festivali ham aynan shu maqsadga xizmat qilib kelmoqda.

Afsuski, bugungi kunda ushbu o‘yinlarni asosan bayramlar doirasidagina kuzatish mumkin. Qolgan vaqtlarda esa yoshlar ko‘proq kompyuter va mobil qurilmalarga bog‘lanib bormoqda. Bu holat ularning sog‘lig‘i va ma’naviyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Zero, hozirgi kunda ko‘plab yoshlar milliy o‘yinlarning faqat nomini biladi, xolos.

Shaxsiy tajribaga murojaat qiladigan bo‘lsak, ilgari mahallalarda bolalar turli milliy o‘yinlarni muntazam ravishda o‘ynab kelgan. Masalan, qizlar qo‘g‘irchoqlar yasab “xola-xola” o‘yinini o‘ynagan bo‘lsa, o‘g‘il bolalar oddiy tayoqchani ot sifatida tasavvur qilib, “ot o‘yin” o‘ynaganlar. Bunday o‘yinlar bolalarning tasavvurini kengaytirish bilan birga, ularni jasoratli, odobli va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qilgan.

Bolalarning barkamol bo‘lib voyaga yetishida bunday o‘yinlar muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularda milliy qadriyatlarga hurmat, ajdodlar merosiga sadoqat tuyg‘ularini shakllantiradi. Shuningdek, jamoada ishlash, halollik, mehnatsevarlik, burch va mas’uliyatni his qilish kabi fazilatlarni tarbiyalaydi.

O‘smirlar orasida esa “chillak” o‘yini eng ommabop o‘yinlardan biri bo‘lgan. Ushbu o‘yin katta jismoniy kuch, chaqqonlik va iroda talab qiladi. Unda kichik tayoqcha maxsus usulda urilib, uni tezda qaytarib olish talab etiladi. Mazkur jarayonning sog‘lomlashtiruvchi jihatlari ham mavjud. Zamonaviy tibbiyotda ta’kidlanishicha, nafasni chuqur olib, uni boshqarib chiqarish mashqlari o‘pka faoliyatini yaxshilaydi.

Bu borada buyuk tabib Abu Ali ibn Sino o‘zining “Tib qonunlari” asarida har bir tana a’zosi uchun maxsus harakatlar mavjudligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, nafas mashqlari va tovush bilan bog‘liq harakatlar ko‘krak va nafas a’zolarining faoliyatini yaxshilashga xizmat qiladi. Bu jihatdan qaraganda, milliy o‘yinlardagi ayrim harakatlar ilmiy asosga ega ekanligi ko‘rinadi.

Afsuski, bunday o‘yinlar bugungi kunda asosan katta yoshdagi insonlar xotirasida saqlanib qolmoqda va yoshlar orasida asta-sekin unutilib bormoqda. Boysun bahori festivali esa ana shunday muammolarga ma’lum darajada yechim bo‘lib xizmat qilmoqda. Festival nafaqat Boysun hududining go‘zal tabiati va manzarasini namoyon etadi, balki ushbu hududga xos milliy o‘yinlarni ham keng targ‘ib etadi.

Mutaxassis sifatida ta’kidlash joizki, ayrim milliy o‘yinlarning yo‘qolib borayotganiga kattalarning befarqligi ham sabab bo‘lmoqda. Shuningdek, urbanizatsiya jarayonlari va o‘yin maydonlarining yetishmasligi ham bu holatga ta’sir etmoqda. Ko‘plab milliy o‘yinlar keng maydon va maxsus sharoit talab qiladi, bu esa shahar muhitida doim ham mavjud emas.

Milliy o‘yinlarni saqlash va rivojlantirish maqsadida davlat tomonidan ham qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2023-yil 25-dekabrdagi PQ-405-son qaror asosida nomoddiy madaniy meros namunalarini saqlash va targ‘ib qilishga qaratilgan ishlar kuchaytirildi. Bu doirada xalq o‘yinlarini ustoz-shogird an’anasi asosida davom ettirayotgan nosirlar faoliyati o‘rganilmoqda.

Xususan, Surxondaryolik Abdunabi Qodirovning bolalar folklorini rivojlantirishdagi faoliyati e’tiborga loyiqdir. U o‘z repertuarida xalq o‘yinlarini sahnalashtirgan holda jamoatchilikka taqdim etib kelmoqda. Shuningdek, u rahbarlik qilayotgan jamoa Boysun bahori festivalida ham faol ishtirok etib, milliy o‘yinlarni yosh avlodga o‘rgatishda muhim hissa qo‘shmoqda.

Milliy o‘yinlarni saqlash va rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq: maktabgacha ta’lim bosqichidan boshlab milliy o‘yinlarni o‘rgatish; mahallalarda maxsus o‘yin maydonchalarini tashkil etish; ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish; hududiy ekspeditsiyalarni ko‘paytirish; musobaqalar va festivallar o‘tkazish; mutaxassis kadrlar tayyorlash.

Xulosa qilib aytganda, milliy o‘yinlar xalqning madaniy merosi va tarbiyaviy vositasi sifatida beqiyos ahamiyatga ega. Ularni saqlash va ommalashtirish orqali yosh avlodni jismonan sog‘lom, ma’nan barkamol etib tarbiyalash mumkin. Shu bois, milliy o‘yinlarni nafaqat bayramlar doirasida, balki kundalik hayotga ham keng joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

АДАБИЁТ ВА МАНБАЛАР РЎЙХАТИ:

1. Qurbonov R. *O‘zbek xalq milliy o‘yinlari*. – Toshkent: Fan, 2015.
2. Abdullaev A. *Milliy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
3. Norqulov N. *Pedagogika asoslari*. – Toshkent, 2017.
4. World Health Organization. *Physical Activity Guidelines*. – Geneva, 2020.
5. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. – Toshkent: Meros, 1993. – 1-jild.
6. UNESCO. *Traditional Games and Intangible Heritage*. – Paris, 2010.

4-SHO‘BA. O‘ZBEK DAVLATChILIGI TARIXI YANGI VA ENG YANGI DAVRDA: MUSTAMLAKA, MILLIY UYG‘ONISh VA MUSTAQIL RIVOJLANISh BOSIQChLARI

QULOQLASHTIRISH SIYOSATINING MILLIY QADRIYATLAR VA AN’ANAVIY TURMUSH TARZIGA TA’SIRI

ABDURASUL BOLTAYEV — *Jizzax davlat pedagogika universiteti professori, tarix fanlari doktori*

SHOMURODOV SHUHRAT ABDUNABI O‘G‘LI — *Jizzax davlat pedagogika universiteti 2-bosqich magistranti*

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Mazkur ilmiy maqolada XX asrning 20–30-yillarida Sovet Ittifoqi tomonidan O‘zbekiston hududida amalga oshirilgan quloqlashtirish siyosati va ushbu jarayonning milliy qadriyatlarga, an’anaviy turmush tarziga, oila institutiga, mahalla boshqaruv tizimiga va jamiyatning ma’naviy-mafkuraviy hayotiga ta’siri atroflicha tahlil qilingan. Quloqlashtirishning iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy va demografik oqibatlari tarixiy manbalar, dala materiallari va ilmiy adabiyotlar asosida yoritilgan. Maqolada jarayonning genezisi, Sovet mafkurasi bilan uzviy bog‘liqligi, xalq ongida qoldirgan izlari, ijtimoiy-siyosiy travmalari, shuningdek, milliy o‘zlik va tarixiy xotiraga ko‘rsatgan uzoq muddatli ta’siri ilmiy nuqtayi nazardan ochib beriladi.

В данной научной статье всесторонне анализируется политика раскулачивания, проводившаяся Советским Союзом на территории Узбекистана в 1920–1930-е годы, а также её влияние на национальные ценности, традиционный образ жизни, институт семьи, систему управления махаллей и духовно-идеологическую жизнь общества. Экономические, социальные, духовные и демографические последствия раскулачивания рассматриваются на основе исторических источников, полевых материалов и научной литературы. В статье раскрываются генезис данного процесса, его связь с советской идеологией, следы, оставленные им в общественном сознании, социально-политические травмы, а также долговременное воздействие на национальную идентичность и историческую память.

This scientific article provides a comprehensive analysis of the policy of dekulakization implemented by the Soviet Union in Uzbekistan during the 1920s and 1930s, as well as its impact on national values, traditional lifestyle, the family institution, the mahalla governance system, and the spiritual-ideological life of society. The economic, social, spiritual, and demographic consequences of dekulakization are examined on the basis of historical sources, field data, and scientific literature. The article highlights the genesis of the process, its connection with Soviet ideological doctrines, the psychological and socio-political trauma it left on the public consciousness, and the long-term effects on national identity and historical memory from an academic perspective.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

Quloqlashtirish, kollektivlashtirish, milliy qadriyatlar, oila instituti, diniy marosimlar, repressiya, deportatsiya, tarixiy xotira, agrar tizim, mulkdorlik, ma’naviy inqiroz, madaniy meros, xalq mentaliteti.

Раскулачивание, коллективизация, национальные ценности, институт семьи, религиозные обряды, репрессии, депортация, историческая память, аграрная система, землевладение, духовный кризис, культурное наследие, национальный менталитет.

Dekulakization, collectivization, national values, family institution, religious rituals, repression, deportation, historical memory, agrarian system, landownership, spiritual crisis, cultural heritage, national mentality

XX asrning birinchi choragi O‘zbekiston tarixida keskin siyosiy o‘zgarishlar, zo‘ravonliklar, iqtisodiy tizimlarning yemirilishi va jamiyatning ijtimoiy-falsafiy hayotidagi chuqur siljishlar bilan xarakterlanadi. Sovet hokimiyatining 1929–1933-yillar oralig‘ida olib borgan quloqlashtirish siyosati bu jarayonlarning eng fojiali sahifalaridan biri bo‘lib, u o‘zbek xalqining an’anaviy turmush tarzi, milliy qadriyatlari va ijtimoiy tizimiga o‘chmas ta’sir ko‘rsatdi. Quloqlashtirish faqat iqtisodiy chora bo‘lmay, balki jamiyatning tub ijtimoiy asoslarini o‘zgartirishga qaratilgan keskin mafkuraviy kurash mexanizmi sifatida qaralgan siyosiy jarayon edi. Sovet davlati quloqlarni sinf sifatida tugatish orqali dehqonchilikni davlat nazoratiga olish, mulkdor qatlamni yo‘q qilish, bozor iqtisodiyoti elementlarini bartaraf etish, mahalliy boshqaruv institutlarini izdan chiqarish hamda milliy qadriyat va e’tiqodlarni cheklashni asosiy maqsad qilgan edi[1].

O‘zbekiston sharoitida “quloq” tamg‘asining qo‘llanilishi o‘ziga xos ko‘rinishlarga ega bo‘ldi. Sovet markazi belgilagan mezonlarga ko‘ra, biror daromadi bor, chorvasi yoki bir necha tanob yeri mavjud bo‘lgan har qanday xo‘jalik “quloq” sifatida talqin qilina boshladi. Aslida, O‘zbekistonning an’anaviy ijtimoiy tuzilmasida mulkdor dehqonlar jamiyatning tayanchi, qishloq iqtisodiyoti va ma’naviy hayotining yetakchi qatlamini tashkil etgan. Ammo sovet mafkurasi ularni sinfiy dushman sifatida ko‘rsatdi, ularning iqtisodiy faoliyati “ekspluatatorlik” deb baholandi, ular jamiyatdan ajratildi va yo‘q qilind[2. 243]. Quloqlashtirish siyosatining amalga oshirilishi xalqning asrlar davomida shakllangan xo‘jalik tizimini yemirdi. O‘zbek jamiyatida dehqonchilik va chorvachilik ko‘pincha oilaviy mehnat asosida olib borilgan bo‘lib, yerga egalik, urug‘-aymoq birligi va kollektiv mehnat qadimiy turmush tarzining asosini tashkil etgan. Quloqlashtirish siyosati natijasida ko‘plab dehqonlar o‘z yerlaridan mahrum qilindi, urug‘lik donlari musodara qilindi, ish qurollari tortib olindi. Yerlarni majburiy kolxozlashtirish, mol-mulkni davlat mulkiga aylantirish va xo‘jalik erkinligini cheklash natijasida mehnat motivatsiyasi pasaydi. Odamlar o‘z mehnati mahsuliga egalik qilolmay qolganligi sababli hosilni yashirib ko‘mish, chorvani kesish, yerlarni tashlab ketish hollari keng tarqaldi[4]. Bu esa qishloq xo‘jaligida keskin tanazzulni keltirib chiqardi va ocharchilik xavfini kuchaytirdi.

Siyosatning demografik oqibatlari ham juda og‘ir bo‘ldi. O‘zbekiston bo‘yicha minglab oilalar “quloq” sifatida ro‘yxatga olinib, Sibir, Ural, Qozog‘istonning aholi yashamaydigan hududlariga deportatsiya qilindi. Bu jarayon odatda qish faslida amalga oshirilgan bo‘lib, ko‘plab bolalar, keksalar sovuq, ochlik, yo‘l qiynoqlari sabab nobud bo‘lgan. Quloqlashtirishning bu jihati o‘zbek xalqining tarixiy xotirasida teran iz qoldirdi, chunki ularning aksariyati aybsiz, mehnatkash, jamiyatda nufuzli oilalar bo‘lgan[3]. Deportatsiya jarayoni qarindoshchilik aloqalarining uzilishiga, oilalarning parokandaligiga, avlodlar metrik-madaniy bog‘lanishlarining susayishiga sabab bo‘ldi. Quloqlashtirish milliy qadriyatlar tizimiga ham keng ko‘lamda zarar yetkazdi. O‘zbek xalqining asrlar davomida shakllangan oila instituti, mahalla tizimi, diniy marosimlar, an’anaviy boshqaruv shakllari bu jarayonda izdan chiqdi. Oila erkak boshchiligidagi iqtisodiy va ma’naviy birlik sifatida mavjud bo‘lib kelgan bo‘lsa, quloqlashtirish natijasida erkaklarning katta qismi surgun qilindi, ayollar esa bolalar bilan yolg‘iz qoldi. “Quloqning bolasi” degan tamg‘a tufayli ularning ijtimoiy mavqei pasaytirildi, ta’lim olish, jamiyatda o‘rin egallash imkoniyatlari cheklab qo‘yildi. Bu esa oilaning tarbiyaviy funksiyalariga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Avlodlar davomida shakllanib kelgan ustoz-shogirdlik, ota-bobolar tajribasi, ayniqsa yerga egalik ko‘nikmalari uzilib qoldi[5].

Mahalla instituti ham quloqlashtirish jarayonidan zarar ko‘rdi. Avvallari mahalla oqsoqollari, imomlar, eshonlar, arboblar jamiyatning yetakchi ijtimoiy nazoratchilari bo‘lib, mahalla ahlining ma’naviy hayotini tartibga solib kelgan bo‘lsa, sovet davrida ular “reaksion unsur” sifatida e’lon qilinib, jamiyatdan siqib chiqarildi. Ularning o‘rniga komsomollar va partiya faolari tayinlandi. Bu esa mahallaning ijtimoiy nazorat, tarbiyaviy va ijtimoiy birdamlik funksiyalarini zaiflashtirdi. Mahallaning qadimiy falsafasi – “qo‘ni-qo‘shni haqi”, “birga yashash madaniyati”, “bir-biriga

ko‘maklashish” kabi qadriyatlar yemirila boshladi. Jamiyatda o‘zaro ishonch pasaydi, qo‘rquv va shubha kuchayd[6].

Din va diniy marosimlar quloqlashtirish bilan parallel ravishda taqiqlanib, sovet ateistik mafkura bilan almashtirildi. Sunnat to‘ylari, nikoh marosimlari, ro‘za va hayit bayramlari, ziyoratlar, marosimiy yig‘ilishlar sovet hukumatining nazorati ostiga olingach, diniy hayot yashirin ko‘rinishga o‘tdi. Bu marosimlarning yashirin, tor doirada bajarilishi ularning mazmunini o‘zgartirdi, qadimiy marosimiy amaliyotlar yo‘qolib ketish xavfini yuzaga keltirdi. Imomlar, mudarrislar, diniy arboblar hibsga olinishi natijasida diniy-ma’rifiy uzluksizlik uzildi. Yangi avlod din asoslarini bilmay o‘sdi, natijada diniy savodsizlik kuchaydi[7]. Quloqlashtirish jamiyatning ma’naviy hayotida ham keskin siljishlarga sabab bo‘ldi. Sovet mafkurasi “eskilik” deb atagan qadriyatlar – saxovat, muruvvat, qo‘ni-qo‘shnichilik, mehmondo‘stlik, diniy bag‘rikenglik – asta-sekin susayib bordi. Ularning o‘rniga sinfiy kurash, siyosiy hushyorlik, ateizm, markazga sadoqat kabi soxta qadriyatlar targ‘ib qilindi. Bu jarayon milliy ongni markazdan uzoqlashtirib, xalqning o‘z-o‘zini anglash jarayonini susaytirdi. Natijada ijtimoiy ruhiyatda qo‘rquv, ikkilanish, ehtiyotsizlik va bir-biriga ishonchsizlik kabi psixologik omillar kuchaydi. Umuman olganda, quloqlashtirish siyosati O‘zbekistonning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ma’naviy hayotiga qaytarilmas darajada zarar yetkazdi. An’anaviy turmush tarzining buzilishi, oilalarning parokandaligi, mahalla institutining zaiflashuvi, diniy hayotning bostirilishi, milliy qadriyatlarning kamsitilishi jamiyatning ma’naviy sarchashmalarini quritdi. Bugungi kunda ushbu tarixiy xatolardan saboq chiqarish, milliy o‘zlik va tarixiy xotirani tiklash, jamiyatda ma’naviy barqarorlikni mustahkamlash uchun muhim omildir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak quloqlashtirish siyosati sovet tarixining eng fojiali sahifalaridan bo‘lib, o‘zbek xalqining milliy qadriyati, an’anaviy turmush tarzi, iqtisodiy faoliyati va ijtimoiy tuzilmasiga katta zarar yetkazdi. Siyosatning asosiy maqsadi dehqon sinfini tugatish bo‘lgan bo‘lsa-da, amalda u jamiyatning eng faol, mehnatkash, yetakchi va ma’naviy tayanchini tashkil etgan qatlamlarni yo‘q qildi. Oila institutining yemirilishi, mahalla tartibining izdan chiqishi, iqtisodiy mustaqillikning yo‘qotilishi, diniy marosimlarning bostirilishi natijasida jamiyatning ma’naviy hayoti susaydi. Quloqlashtirish jarayoni o‘zbek xalqining tarixiy xotirasida chuqur ruhiy jarohat qoldirdi. Bugungi kunda ushbu davrni chuqur ilmiy o‘rganish, uning saboqlarini anglash milliy ongni tiklash va o‘tgan avlodlar xotirasini e’zozlash uchun zarurdir.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. Конквест Р. “Большой террор”. Москва, 1991.
2. Ўзбекистон Марказий Давлат Архиви (ЎМДА), Ф.58, рўйхат 1, иш 243.
3. Сагдуллаев А. “История Узбекистана XX века”. Тошкент, 2000.
4. Абдуллаев Ш. “Кулаклар трагедияси”. Самарқанд, 2005.
5. Каримов А. “Аграр муносабатлар тарихидан”. Тошкент, 2010.
6. Хидоятов Г. “Махалла институти тарихи”. Тошкент, 2012.
7. Маркс К., Энгельс Ф. “Сочинения”, т.37. Москва, 1966.

SUV MANBALARIDAN OQILONA VA TEJAMKORLIK BILAN FOYDALANAYLIK

ABDURASUL BOLTAEV

Jizzax davlat pedagogika universiteti professori, tarix fanlari doktori

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

O‘rta Osiyoda jumladan respublikamizda suv asosiy, xayotiy manbaa xisoblanadi. Lekin XXI asrda boshqa mintaqalarda bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham suvdan oqilona va adolatli foydalanish muxim axamiyat kasb etadi. Lekin go‘zal va noyob Orolning qurib borishi fojiaga aylanib bormoqda. Shuning uchun suvdan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish bugungi eng dolzarb vazifadir.

В Сентралной Азии, включая нашу республику, вода считается главным, жизненно важным ресурсом. Однако в XXI веке, как и в других регионах, ратсионалное и справедливое водополъзование имеет болшое значение в Узбекистане. Однако высыхание прекрасного и уникалного Аралского моря становится настоящей трагедией. Поетому ратсионалное и экономное водополъзование является важнейшей задачей сегодняшнего дня.

In Central Asia, including our republic, water is considered the main, vital resource. However, in the 21st century, as in other regions, rational and equitable use of water is of great importance in Uzbekistan. However, the drying up of the beautiful and unique Aral Sea is becoming a tragedy. Therefore, rational and economical use of water is the most urgent task today.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

Iqtisodiy, resurs, muozanat, energetik, moliyaviy, global, inqiroz, transchegaraviy, oqilona, forum, barqarorlik, vegetatsiya

экономический, ресурсный, баланс, энергетический, финансовый, глобалный, кризис, трансграничный, ратсионалный, форум, стабилност, растителност.

Economic, resource, balance, energy, financial, global, crisis, transboundary, rational, forum, stability, vegetation

Bozor iqtisodiyoti sharoitida suv resurslarning tanqisligi respublikada iqtisodiy o‘sishga to‘sqinlik qiladigan muxim omil xisoblanadi. Xar xil tabiiy iqlim va relef sharoitlari xududlarning turlicha suv resurslari bilan ta’minotini keltirib chiqaradi. Suv resurslaridan samarali foydalanish bo‘yicha tadbirlar tizimi suvning resurs sifatida tanqislik xolatini kamaytirishga ijobiy ta’sir qilib, iqtisodiy baxolashni talab etadi. Bizningcha, suvdan pullik foydalanishning yagona uslubi yaratilmagan sharoitda suv resurslarini iqtisodiy baxolash, ularni pul shaklida baxolash imkoniyatlaridan biri xisoblanadi.

Suv resurslari- iqtisodiy baxolashning nisbatan murakkab obektlaridan biridir. Suv resurslarini pulda baxolash masalasining murakkabligi ularning iqtisodiyotdagi ko‘plab roli, suv yextiyojlarining o‘zgarib turishi va nixoyat suv omilining ekologik muvozanatini saqlashdagi axamiyati bilan ifodalanadi.[1.77-78]

XXI asr O‘rta Osiyo xalqlari uchun, sayyoramizning boshqa mintaqalarda bo‘lgani kabi, suv resurslaridan oqilona va adolatli foydalanish masalasi xayotiy muxim axamiyat kasb yeta boshladi. Chunki o‘tgan asrning ikkinchi yarmida yirik transchegaraviy daryolardan uzoqni o‘ylamay foydalanish oqibatida mintaqamiz ekologik xalokat yoqasiga kelib qoldi.

Bir avlod umri davomida noyob va go‘zal dengizdan, qurib va yuqolib borayotgan suv xavzasiga aylangan Orol fojiasi buning yaqqol dalilidir.Bir paytlar gullab-yashnagan Orolbo‘yi xududi esa bugungi kunda ayanchli saxroga aylanmoqda.

Xozirgi kunga kelib suvdan foydalanishning xududiy boshqarmalari o‘rniga Viloyatlar miqyosida suvdan foydalanishning “Xavza”

usuliga o‘tish amalga oshirilmoqda. Bunday boshqarmalardan 11 tasi yirik suv manbalar (kanallar) bazasida tashkil etilgan. Bu boshqarmalar manbalardan (daryolar yoki suv omborlaridan) oligan suvlarning xaqiqiy egasiga erishilgan yutuqlarda muxim omil bo‘lmoqda. Mavjud 128 ta ho‘jalikdan 125 tasi bugungi kunda nodavlat mulk shakliga ega. Jizzax viloyatida mulkga bo‘lgan munosabat o‘zgarayotganini fermer, dehqon ho‘jaliklarining soni tobora ortib borayotganidan ham bilsa bo‘ladi.

Hozirgi kunda Respublikamizda suv resurslarining tanqisligi kuzatilishi limitli (cheklangan miqdor) suvdan foydalanishni keltirib chiqaryapti. Shuning uchun suvdan foydalanuvchilar uyushmasining (SFU) har bir qatnashchisi unga beriladigan suvni to‘g‘ri taqsimlanishidan manfaatdordir. Buni amalga oshirish uchun birinchi navbatda irrigatsiya tizimlarini ekspluatatsiya qilishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish kerak.

Bundan tashqari ho‘jalikda suvdan foydalanish darajasi va uni qanchalik amalga oshirilgani, hamda navbat bilan suv tarqatish va uni qo‘llash shartlarining bajarilishi ham muhim o‘rinni egallaydi. Ushbu qullanma estalikda yuqorida qayd etilgan masalalar yoritilgan. Umumiy qabo‘l qilingan talablarga javob beradigan irrigatsiya tizimida bemalol yahshi jihozlangan, suv miqdorini hisobga oluvchi tizimni tashkil etish mumkin.

Shunga etibor berish kerakki, bu tizim beriladigan suvni o‘lchash bilan birga, sug‘oriladigan hududdan oqib chiqadigan suvni ham hisobga olishi kerak. Bu malumotlar asosida hudud suv balansi nazorat qilib turiladi. Agar bu ishlar bajarilmasa, suv tanqisligi yanada oshadi, yerning meltorativ holati yomonlashadi va olinadigan hosil kamayib ketadi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish munosabati bilan har bir fermer o‘zi foydalanadigan suvni to‘g‘ri hisobga olishdan manfaatdordir. Chunki fermer har bir kub metr suv uchun bo‘ladigan tulovni o‘z hisobidan chiqarishi kerak.

Suvni hisobga olish va u bilan bog‘liq bo‘lgan suv resurslarini taqsimlanishi ekologik vaziyatga bevosita bog‘liqdir, chunki noto‘g‘ri suvni hisobga olinishi regionimizning katta hududlarini sho‘r bosishi, botqoqlanishi yoki chulga aylanishiga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasi MDH davlatlari ichida asosiy paxtachilik bazasi hisoblanadi. Bu mintaqa qadimdan yerdan unumli foydalanadigan o‘lka bo‘lib, asosiy qishloq hujaligi ekinlari sug‘orish yordamida yetishtiriladi. Bu ishlar tizimlarni, kanallarni va gidrotexnik inshootlarni ekspluatatsiya qilish natijasida erishiladi.

O‘rta Osiyo yerlarining asosiy suv manbai Amudaryo va Sirdaryo bo‘lib, O‘zbekiston yerlarini suv bilan taminlashda Zarafshon, Chirchiq, Sanzor, So‘x, Shohimardon va boshqalar qatnashadi.

O‘zbekiston Respublikasi qishloq va suv ho‘jaligi vazirligidagi bo‘limlar, kanallar, gidrotexnik inshootlar, nasos stansiyalari, muhofaza moslamalari, to‘sib turuvchi dambalar va boshqa ishlab chiqarishga tegishli imoratlar, telefon tarmog‘i, radiobog‘lanish, elektr tarmog‘i va boshqalar ish holatini saqlab turish bo‘yicha ishlarga rahbarlikni amalga oshiradi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi qishloq va suv ho‘jaligi vazirligi sug‘orish manbaalaridan suvni olish va uni kerakli miqdorda va muddatlarda fermer, dehqon ho‘jaliklarga etkazib berishni taminlaydi. 2025-yilda Samarqandda o‘tkazilgan “Orol Muammolari, ulanning aholi genafondi, o‘simlik va hayvonot olamiga tasiri hamda oqibatlarini yengillashtirish uchun xalqaro hamkorlik chora tadbirlari” mavzusidagi xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi. Unda 70 dan ortiq davlatlar hamda turli mintaqaviy tashkilotlardan, moliya institutlaridan vakillar, ekologiya, iqlim o‘zgarishi hamda suv resurslarini boshqarish sohasi bo‘yicha taniqli olimlar va mutaxasislar, ekspertlar ishtirok etdilar.

Bugungi kunda sayoramizda millionlab odamlar toza ichimlik suvi tanqisligidan aziyat chekmoqdalar. Orolbo‘yida ekologik vaziyatning yomonlashishi, mintaqada ekotizim muozanatining bo‘zilishiga olib keldi, suv resurslari taqchilligi kuchaydi. Konferensiya qatnashchilariga Prezidentimiz tomonidan yuborilgan tavbrikda “ishonchim komilki, global ijtimoiy muammolar, jumladan ming yillik rivojlanish masalalari doirasida “regionalizm orqali- globalizm sari” formulasi bo‘yicha samarali mintaqaviy mexanizmlar yuli bilan hal etilishi lozim”.

Bundan tashqari ushbu konferensiyaning BMT elon qilgan “2025-yil Xalqaro yer sayorasi

yili” da bo‘lib o‘tayotganligining ham ramziy manosi juda kattadir.

Ushbu konferensiya Orol muammosiga, xalqaro jamiyatning yangicha nazar bilan qarashi va anglab yetishini shakllantirishiga yordam beradi hamda Markaziy Osiyo mintaqasining aholi genofondi, o‘simlik va hayvonot dunyosini himoya qilish maqsadida yanada samaraliroq xamkorlik qilish uchun asos buladi. Sunggi 60 yil ichida Orol dengizi ekvatoriyasi sathi 4 barobardan ko‘proq qisqardi, suv hajmi esa 10 barobardan ko‘proq kamaydi, suv sathi esa 24 metr keskin pasayib, minerallashuv jarayoni esa oshib ketdi. Bu muammo Orol bo‘yi hududini shavqatsizlarcha qamrab olmoqda. Doimiy ekologik havf mavjud hududda mahalliy aholining turmush sharoiti, salomatligi, genofondiga salbiy tasirni o‘tkazmoqda.Nafaqat bizning hududimizga, balki boshqa bizga yaqin qushni hududlarga ham o‘zining salbiy tasirini o‘tkazmoqda. Bu muammoning ildizi uzoq o‘tmishga borib taqalsada, lekin XX asrning 60-yillarida ayniqsa xavfli tus oldi. Yangi yerlarning jadal o‘zlashtirilishi, sug‘orma dehqonchilikning yanada rivojlantirilishi, buning uchun esa, butun Markaziy Osiyo hududi bo‘ylab irrigatsiya tizimlarining qurilishi, suvdan maishiy va sanoat ko‘lamida foydalanish ehtiyojlarning doimiy o‘sib borishi, shuningdek suv taqchil bo‘lgan yillarning muntazam tez-tez takrorlanib turishi sabab bo‘ldi, global ekologik holatning yanada taranglashuviga olib keldi. Endi Orol dengizi mintaqasidagi hududlarning ekologik ahvolini yaxshilash, yer yemirilishining oldini olish va qishloq ho‘jaligining salohiyatini oshirish, aholini sog‘lomlashtirish, suv bilan taminlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik, halq hunarmandchiligini rivojlantirish orqali qo‘shimcha daromad olish uchun shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha qator maqsadli loyihalar bosqichma-bosqich ruyobga chiqarilmoqda.

Juda ko‘plab xalqaro tashkilotlar, jumladan BMT tarkibidagi agentliklar, moliya institutlari, jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqalar Orolbo‘yidagi vaziyatni barqarorlashtirishga ko‘maklashmoqda.

Masalan, global ekologik jamg‘arma ko‘magida “Orolni qutqarish” – xalqaro jamg‘armasining “Nukus filiali” tomonidan 22 ta loyiha ishlab chiqilib, ularning asosiylari amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida “Inson manfaatlari ustuvorligini taminlash barcha islohotlar va o‘zgarishlarimizning bosh maqsadidir” – deb takidlagan yedi prezidentimiz. Bundan tashqari Prezidentimizningmaruzalarda 2025-yil yakunlari va 2026-yil ustuvor vazifalar belgilab berilgan edi. Bu esa ushbu yilda juda ko‘plab hayrli ishlarning amalga oshishiga sababachi buldi.

Bundan tashqari 2025-2026-yillarda sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash uchun qushimcha chora- tadbirlarni amalga oshirishni belgilab berdi.

Shunday qilib, hozirgi paytda suv-inson uchun, uning manfaati va yashashi, taraqqiyoti uchun xayot manbayi ekanligi, eng asosiy masalalardan biridir.

Suv bilan bog‘liq bo‘lgan barcha masalalar bugungi kunda ham uz ahamiyatini yo‘qotmagan va dolzarbligicha qolmoqda. Shuning uchun ham ushbu mintaqada suvga bo‘layotgan etibor jahon jamoatchiligining nazarini totayotganligi bejiz emas.

Inson hayoti, salomatligi, millat genofondiga salbiy tasir ko‘rsatadigan omillar oqibatida nafaqat bevosita ekologik halokat hududda yashovchi aholi, balki butun O‘rta Osiyo mintaqasi doimiy ekologik tahdid ostida qolmoqda. Aynan shu sababli mintaqadagi transchegaraviy daryolar bo‘yida joylashgan davlatlarning hayotiy ehtiyojlarini azal-azaldan taminlab kelgan suv resurslardan oqilona foydalanish masalalari bugungi kunda alohida global dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Xozirgi vaqtda mintaqaning 6 ta davlatida istiqomat qiluvchi 80 milliondan ziyod kishining taqdiri suv rusurslari, birinchi galda, transchegaraviy daryolardan foydalanish bo‘yicha har tomonlama puxta o‘ylangan yondashuv va qarorlarga bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston V-umumjahon suv forumining “Ichimlik suvidan oqilona foydalanish imkoni insonning eng asosiy huquqi yekanligi, suv taqchilligi energetik va moliyaviy inqirozdan ko‘ra havfliroq ekanligi tug‘risidagi qarorni” qullab quvvatlaydi.

Sug‘oriladigan dehqonchilik barqarorligi va vegetatsiya davrida suv resurslarining yetarli darajada bo‘lishiga bog‘liq bo‘ladi. Oziq ovqat havfsizligini taminlash masalalari o‘ta muhim

bo‘lib turgan hozirgi sharoitdabu masala ayniqsa dolzarb ahamiyatga ega.

Suv resurslaridan oqilona foydalanish, mintaqaviy va global darajada gidrogeologik balansni saqlash, suv resurslarini asrash va tejash, suvdan foydalanish hajmini kamaytirishni taminlovchi dehqonchilik tizimini takoillashtirish, suv hujaligi infratuzilmasini modernizatsiya qilish, suvni tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish-bularni hayotning o‘zi oldimizga qo‘yayotgan g‘oyat muhim masalalar bo‘lib, bizdan alohida etibor va o‘zaro manfaatli muhokamani talab qiladi.

Bu borada BMT bosh kotibi Antoniu Gutterichning “Suv, tinchlik va havfsizlik muammolari – o‘zaro chambarchas bog‘liq”, - degan fikrlari to‘la o‘z tasdig‘ini topmoqda. Bu esa “Amudaryo va Sirdaryo havzalari suv resurslaridan foydalanish to‘g‘risidagi konvensiya” loyihalaridan ham malum. 2020-2030-yillarda suv ho‘jaligini rivojlantirish konsepsiyasi va suv resurslarini boshqarish, irrigansiya sektorini rivojlantirish strategiyasi hamda “Suv kodeksi” ni ishlab chiqilmoqda. [2.167]

Bo‘lib utgan VI -umumjahon suv forumining mavzusi “Maqsaddan- yechimlar sari” deb belgilangan. Anjuman kun tartibidan joy olgan 12 ta yo‘nalishdan 6 tasi Markaziy Osiyo mintaqasi uchun g‘oyat ahamiyatlidir. Xalqaro konferensiya ishtirokchilari mazkur masalalar bo‘yicha kelishilgan yondashuvlarni ishlab chiqmog‘i lozim.

Bular -suvdan kafolatlangan tarzda foydalanish va suvga bo‘lgan huquq, hamkorlik va tinchlikga kumaklashish, suv resurslarini integratsiyalashgan boshqaruvni joriy etish orqali suvdan ko‘p tomonlama foydalanish muvozanati, oziq-ovqat havfsizligini taminlash, suv resurslari va ekotizimlar sifatini yahshilash, urbanizatsiyalashayotgan dunyodagi iqlim va global o‘zgarishlarga moslashish kabi mavzulardan iborat. Bular-suvdan kafolatlangan tarzda foydalanishni va suvga bo‘lgan huquq, hamkorlik, tinchlikga ko‘maklashish yeng asosiy masalalar hisoblanadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda ham ekologik muammolar jiddiy tashvish to‘g‘dirmoqda. Aksariyat hududlarda tuproq yemirilib unumdor yerlar qisqarib bormoqda, chullanish, suv yetishmasligi, qurg‘oqchilik, aholini ichimlik suvi bilan taminlash jiddiy muammoga aylanib bormoqda. Shuningdek, hozirgi vaqtda Orol fojeasi tufayli 5, 5 million gektardan ortiqroq maydonda Orol ko‘li sahrosi paydo bo‘ldi.

Xar yili 100 mln tonnalab qum va tuz havoga ko‘tarilmoqda. Orolbo‘yini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi sifatida elon qilish bo‘yicha BMT Bosh Assambleyasining rezolyutsiyasini hayotga tadbiq etish borasida tizimli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishimiz lozim.

Mamlakatda barqaror rivojlanishni taminlash uchun 2030-yilgacha milliy strategik maqsadlar belgilandi. Mamlakatimizda “Yashil iqtisodiyot” qoidalari asosida yurtimizning jadal rivojlanishini taminlashning yo‘naltirilgan ijtimoiy- ekologik siyosat olib borish kutilgan natijani beradi. “Yashil energetika”, “Aqlli” qishloq ho‘jaligi tamoyillarini yanada kengroq joriy etish vazifasi o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.[3.389-392]

Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida: BMT ning nufuzli instituti – YuNESKO bilan hamkorlik yanada rivojlantirilmoqda.

2025-yil 12-noyabrda BMT ning – talim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti (YuNESKO) – 43-ko‘chma sessiyasi-Samarqandda bo‘lib o‘tdi. “Yangi Markaziy Osiyo tinchlik, barqaror taraqqiyot va yaratuvchan sheriklik yo‘lini tanlamoqda. Ramziy manoda aytganda biz devor emas, ko‘prik barpo etmoqdamiz.” [4.13.2025] - deb takidlagan edi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev.

Sug‘orish tarmoqlari o‘ta nochor, kollektor zovurlar o‘z vaqtida tozalanmagan va dalalar yer yuzi tekislanmagan yerlarda meliorativ holat yomonlashadi va ekinlarning hosildorligi ancha past bo‘ladi.[5.344]

Sohani rivojlantirish istiqbollari quyidagilardan iborat:

1. Buyurtmachilar va ijarachilar o‘rtasidagi vazifalarni qattiq nazorat qilish maqsadida lizing operatsiyalarini joriy etish bilan melioratsiya ishlarini yanada takomillashtirish.

2. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish munosabati bilan har bir fermerning o‘rni, masuliyati, savodhonligi, bilimi va boshqa xususiyatlari juda katta muhim ahamiyatga ega.

3. Bugungi zamonaviy bilimlarning puxta hayotga (ishlab chiqarishga) tadbiq qilinayotganligi, yuqori hosil olishda, yangi

texnika va texnologiyalarni qo‘llash yeng asosiy vazifadir.

4. Texnik xizmat ko‘rsatish chora-tadbirlari va tamirlashning sarf-xarajatlarining hisobotlarini tahlil qilish.

5. Iqtisod qilish va ilmiy yangiliklarni sohaga tadbiq qilish, bugungi shiddatli zamonda sohani tez rivojlanishiga harakat qilish lozim.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. Умаров И., Раҳмонов Ҳ., Худойбердиев Э. Сурхон воҳасида этник тарих ва этномаданий жараёнлар (хатакилар уруғи мисолида). –Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2014. –Б. 88.

2. Турсунов С., Умаров И., Пардаев Т., Холмонова Ф., Турсунов А., Махмадиярова Н., Нарзуллаева Н. Ўзбекистонда топонимик номлар ва уларнинг тарихи. –Термиз: Сурхон-Нашр, 2017. –Б. 322.

3. Умаров И. Бадаш: тарих ва анъана. –Термиз: Сурхоннашр, 2018. –Б. 19-20.

4. Умаров И.И. Хатак қатағонларида тандир гўшт тайёрлаш анъаналари // Янги Ўзбекистон шароитида тарих ва этнология фанларининг долзарб масалалари ва истиқболлари” мавзусидаги республика илмий анжумани мақолалар тўплами. – Тошкент: “Shafoat Nur Fayz”, 2024. –Б. 231-233.

5. UNESCO. Intangible Cultural Heritage Lists. — 2023.

СОВЕТ МУСУЛМОН РЕСПУБЛИКАЛАРИДА ДАВЛАТ ХАВФСИЗЛИК ҚЎМИТАЛАРИ (КГБ) РАИСЛИГИ (1955–1984)

ТИМУР ХЎЖАЎҒЛИ

O‘zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo‘yicha qo‘mitasi bo‘lim boshlig‘i, tarix fanlari doktori, professor

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Совет Иттифоқи кўп миллатли давлат сифатида расман «миллатлар тенглиги» тамойилини илгари сурган бўлса-да, амалда сиёсий ҳокимият ва стратегик аҳамиятга эга лавозимларни тақсимлашда демографик омил ҳал қилувчи роль ўйнамаган. Айниқса, хавфсизлик тизими бўлган Давлат хавфсизлик қўмитаси (КГБ) — марказий ҳокимият учун энг сезгир ва назоратга муҳтож тузилмалардан бири бўлган.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

Давлат хавфсизлик қўмитаси (КГБ), Совет Иттифоқи, «ташқаридан келган» кадрларга топширилган.

Темур Хўжаўғли – 1947 йил 31-майда Истанбулда туғилган. У Бухоро Халқ Шўролар Жумҳурияти Марказий Ижроия Қўмитаси раиси жадид Усмон Хўжа билан Қўқон хони Худоёрхоннинг жияни Саййид Акрамхон Тўранинг қизи Ҳакима Тўранинг ўғли, ҳамда БХСР ва Ўзбекистон ССРнинг раҳбари Файзулла Хўжаевнинг жияни бўлади. Ўзбекистоннинг таниқли тарихчи олими профессор Сулаймон Иноятов (1938-2024) эса Темур Хўжаўғлининг жияни эди.

Темурхўжа 4-9 ёшларини оиласи билан энди кўчиб борганлари Покистонда ўтказди. У бошланғич таълимининг илк уч синфини Пешовар шаҳридаги Convent High School номли ингилиз мактабида тамомлади; 1957 йилдан бошлаб таълимини Истанбулдаги Бостонжи Аҳмад Росим бошланғич мактабида давом эттириб, 4–5-синфларни шу

ерда ўқиди. Ўрта таълимини Картал ўрта мактаби ва Пендик лицейида якунлаганидан сўнг, 1965–1971 йилларда Истанбул университети Филология факультетининг Турк тили ва адабиёти бўлимида бакалавр даражасини олди.

Темур Хўжаўғлининг 1971 йили Истанбул университети Туркология бўлимида ёқлаган бакалавриёт тезиси: “Чиғатой шоири Шайбонийхон ҳаёти, санъати ва девонидан ғазаллар” (турк тилида).

Олий таълимдан кейинги ўқишини Америка Қўшма Штатларида давом эттирган Хожаоғли Columbia University (Нью-Йорк) Яқин Шарқ тиллари ва маданиятлари факультетининг Марказий Осиё бўлимида иккита магистерлик (бири филология фанларı магистрлиги 1976-йилда ва фалсафа фанлари магистрлиги 1977-йилда) олиб, фалсафа фанлари докторлик диссертациясини 1982-йилда ҳимоя қилди. Темурхўжанинг АҚШдаги магистрлик ва докторлик таълими олишига америкалик таниқли советшунос ҳамда ўзбекшунос олим проф. Эдвард Олворд (Edward Allworth) [1920-2016] илмий раҳбарлик қилган.

Темур Хўжаўғлининг 1977 йилда АҚШнинг Колумбия университети Яқин Шарқ халқлари ва маданиятлари бўлимида ёқлаган Адабиёт Магистураси ва Магистура тезиси: “1960-1970-йиллар қозоқ шеъриётида миллий ўзига хослик ва идеология масаласи” (инглиз тилида).

Темур Хўжаўғлининг 1978 йилда АҚШнинг Колумбия университети Халқаро муносабатлар тадқиқотлари Факультети Совет миллатлар муаммоси кафедрасида Фалсафа Магистураси (тезис йўқ).

Темур Хўжаўғлининг 1982 йилда АҚШнинг Колумбия университети Яқин Шарқ халқлари ва маданиятлари бўлимида ёқлаган Марказий Осиё тадқиқотлари кафедрасида Ph.D (докторантура) ва докторлик диссертацияси: “Совет Марказий Осиё адабиётида миллий ўзига хослик: Сталиндан кейинги давр қозоқ ва ўзбек роман ва насрий адабиёти (1953-1982)” (инглиз тилида).

Темур Хўжаўғли академик фаолияти давомида Истанбулдаги Мармара университетида (1985–1989), Коч университетида (1994–2011), АҚШ-даги Мичиган давлат университетида (2011–2021) дарс берди; 2018 йилдан буён Тошкентдаги Ўзбекистон Миллий университетида ўқитувчилик фаолиятини давом эттирмоқда.

Илмий фаолияти билан бир қаторда радио журналистикаси билан ҳам шуғулланган Темурхўжа Германиянинг Мюнхен шаҳридаги Озодлик радиоси (Radio Liberty)-нинг ўзбек бўлимида 1977–1985 ва 1989–1994 йиллар орасида мақола ёзувчиси, диктор, муҳаррир, бош муҳаррир ҳамда тадқиқот таҳлилчиси бўлиб фаолият олиб борди.

Темурхўжнинг турк, инглиз, ўзбек, қозоқ, рус ва француз тилларида турли мамлакатларда нашр этилган 200-та илмий мақоласи мавжуд.

Темурхўжанинг жадидчилик мавзуига ҳамда Туркистон тарихи, адабиёти ва тил-маданиятига чуқур қизиқишига олдин дадаси Усмон Хўжа сабабчи бўлган. Усмон Хўжа 5-20 ёшлари орасидаги ўғлига ҳардоим Туркистон ва жадидчилик мавзуларида маълумотлар бериб турган. Дадасининг вафотидан кейин Туркия, Германия ва АҚШдаги турли туркистонлик кекса шахслар, айниқса Наим Ўктам, Вали Қаюмхон, Боймирза Ҳайит, Тоҳир Чиғатой, Иброҳим Ёрқин ва бошқалар билан Темур Хўжаўғли махсус суҳбатлар олиб борган.

Қуйида профессор Темур Хўжаўғлининг “Озодлик” радиосининг Тадқиқот маркази томонидан 1984 йилда инглиз тилида эълон қилган иккита мақоласи ўзбекчага муаллиф томонидан таржима қилиниб, ҳеч қандай ўзгаришларсиз босилмоқда. Мақолаларни журналимиз таҳрир ҳайъати аъзоси, профессор Қаҳрамон Ражабов нашрга тайёрлади.

Темур Хўжаўғлининг 2021-2025 йилларда эълон қилган китоблари:

Хўжаўғли, Темур. (Муҳаррир) *Жадидлар: миллий ўзлик, истиқлол ва давлатчилик ғоялари халқаро конференция материаллари* [Тўплам]. Тошкент: Маданий мерос фонди, 2024; 516 бет.

Шамсиддин Камолиддин & Тимур Косаоглу, *Ўзбек давлатчилиги тарихидан: Сомонийлар сулоласи (IIX – X асрлар)* [Олий

ўқув юртларининг тарих факультетлари талабалари учун ўқув қўлланмаси]. Тошкент: «Фан зиёси» нашриёти, 2024; 156 бет.

Timur Kocaoğlu, *Türkistan’da Türk Subayları, 1914-1923: Raci Çakıröz’ün Anıları* [Туркистонда Турк Офтсерлари, 1914-1923: Рожи Чокирўзнинг Эсдаликлари]. İstanbul: Kutlu Yayınevi, 2023; 112 бет.

Жулибой Элтезеров, Тимур Кocaoğлу (Муҳаррирлар), *Бухоро жумҳурияти 101 яшида*. Ташкент, Узбекистан: Мумтоз Нашриёти, 2022; (эдитор), 120 бет.

Norman Graham, Timur Kocaoğlu, Folke Lindahl, *Making Russia and Turkey Great Again: Putin and Erdogan in Search of Lost Empires and Autocratic Power* [Rossiya va Turkiyani yana buyuk qilish: Putin va Erdogan yo‘qolgan imperiyalar va avtokratik hokimiyatni izlashda]. New York: Lexington Books, 2021, 268 бет.

Shamsiddin Kamoliddin, Timur Kocaoglu, *Proekt Kulturnoy Avtonomii Turkestana Maxmudxodji Bexbudi*. Saarbrücken, Germany: LAP, 2021; 292 бет.

Timur Kocaoğlu, Tülay Gençtürk Demircioğlu, Akartürk Karahan. *Kurtuluş Savaşı’nın Unutulmuş Şairi Doktor Şerafettin Bey (1889-1922) Toplu Şiirleri*. [Туркия мустақиллик урушининг унутилган шоири, доктор Шерафеттин Бей (1889-1922): Шеърлар тўплами]. Ankara: Türk Dil Kurumu, 2021; 280 бет.

Timur Kocaoglu (Муҳаррир). *Türk Söz İle Kültür Varlıklarının İzinde* [Туркий сўз ва маданий меросни кузатиш]. Istanbul: Kutlu yayınevi, 2021; 230 бет.

Мақолалари (2021-2025):

Timur Kocaoglu. Türk Dilleri Ailesine Sosyo-politik Bir Bakış [Туркий тиллар оиласига ижтимоий-сиёсий нуқтаи назар] *Bir Dili Bilmek Ne Demek?* (Editörler: Dinçay Köksal / Gamze Bulgan / Aslı Fişekçioğlu). İstanbul: Nobel Yayınları, 2025; Б.105-127.

Timur Kocaoğlu. Karay (Karaim) Language Online Conversational Courses for Foreigners [Чет элликлар учун карай (караим) тили онлайн суҳбат курслари] *Karaim Language in Use: A Collection of Scholarly Articles* (Edited By Dr. Karina Firkavičiūtė, Natela Statkienė, Dr. Šarūnas Rinkevičius). Vilnius (Lithuania): Vilnius University Press, 2024. Б. 80-89.

Хўжаўғли, Темур. Жадидчилик ҳаракатининг давлатчилик ғояси: Беҳбудийнинг Туркистон маданий мухторияти лойиҳасидан Бухоро халқ шўролар жумҳурияти асосий қонунигача *Жадидлар: миллий ўзлик, истиқлол ва давлатчилик ғоялари халқаро конференция материаллари* [Тўплам]. Тошкент: Маданий мерос фонди, 2024. Б. 411-421.

Timur Kocaoğlu, Uli Schamilogli. Amerika Birleşik Devletleri’nde ve Kanada’da Türkoloji [АҚШ ва Канадаъда Туркология] *Dünya’da Türkoloji / Turkology In The World* (Editörler: Prof. Öztürk Emiroğlu, Doç. Bağdagül Mussa) Ankara: Türktav Türkoloji Akademisi, 2024; 1-3. Cild (1-cild, s. 20-32).

Timur Kocaoglu. Identity and Ideology: The Beginnings of Modern Kazakh and Uzbek Prose Fiction (1910-1953) [O‘ziga xoslik va mafkura: Zamonaviy qozoq va o‘zbek nasriy badiiy adabiyotining boshlanishi (1910-1953)] *A Long Scholarly Journey From New York to Eurasia: A Festschrift in Honor of Uli Schamiloglu* (Edited by Funda Güven and Fatma Şahan Güney. Madison, Wisconsin: Turko-Tatar Press, 2023. Б. 57-88.

Timur Kocaoğlu and Uli Schamiloglu, “Eurasian Turkic Literature” [Евросиё туркий адабиёти], *Literature A World History: 1500-1800*; Vol. 3. pp. 857-861; “Eurasian Turkic Literature”, *Literature A World History: 1800-2020*; Vol. 4, pp. 1310-1321. New York: Wiley-Blackwell, 2022.

Тимур Хўжаўғлу. Ўзбек тилидаги унли товушлар ва унли уйғунлиги муаммоси ҳақида *Адабий Мерос* (Илмиı журнал), Тошкент: Ўзбекистон Республикаси, Фанлар Академияси Алишер Навоий Номидаги Давлат Адабиёт Музейи: 2022-йил 1-Сон (5), Б. 31-50.

Timur Xo‘jao‘g‘lı. Qo‘qon Xoni Xudoyorxonning Jiyani Sayyid Akramxon To‘raning Turkiston va Afg‘onistondagi Faoliyatlarini Izlash Jarayonida. *Türk Halklarının Devletçiliği Ve Kültür Mirasının Gelişiminde Hokand Hanlığının Yeri: Uluslararası Sempozyumu Bildiriler Kitabı* [Қўқон хонлигининг туркий халқлар

давлатчилиги ва маданий меросининг ривожланишидаги ўрни: Халқаро симпозиум материаллари] (Editörler: Dr. Zebuniso Kamalova, Dr. Aitmamat Kariev, Dr. Saidbek Boltabayev). İstanbul: Akademik Kitaplar, 2022. Б. 217-224.

Timur Kocaoğlu. Türk Topluluklarında Dil ve Ulusal Kimlik Politikaları [Турк жамоаларида тил ва миллий ўзига хослик сиёсати] *VIII. Uluslararası Türk Dünyası Araştırmaları Sempozyumu* (2-5 Haziran 2021, Niğde). Niğde (Türkiye): Kesit Yayınları, 2021; 880 s. (Б. 1-8).

Timur Kocaoğlu. Türkistanlı Göçmenlerin Siyasi Faaliyetleri Tarihine bir Bakış [Туркистонли муҳожирларнинг сиёсий фаолияти тарихига назар] *Türk Dünyası Ve Göçler: Vatandan Yeni Vatanlara.* Doç. Dr. Çağla Gül Yesevi (Editor). İstabul: Küre Yayınları, 2021); Б. 191-202.

Ушбу мақолада 1955–1984 йиллар оралиғида олти совет мусулмон республикаси (Озарбайжон, Қозоғистон, Қирғизистон, Тожикистон, Туркманистон ва Ўзбекистон)-да КГБ раислари лавозимини эгаллаган шахсларнинг миллий таркиби таҳлил қилинади. Асосий эътибор титул миллат вакилларининг мазкур лавозимдаги иштирокига, шунингдек демографик кўрсаткичлар билан кадр тайинловлари ўртасидаги муносабатга қаратилган.

СССРда мусулмон фуқаролар сони бошқа ҳар қандай миллатга нисбатан тезроқ ўсиб бораётган бўлса-да, уларнинг ўз иттифоқдош республикалари доирасида айрим соҳалардаги, қолаверса, бутун Совет Иттифоқи миқёсидаги ҳукмрон лавозимлардаги улуши бу ўсиш даражасини акс эттирмайди. Сталиндан кейинги даврда Марказий Осиёнинг беш республикаси ҳамда Озарбайжонда Давлат хавфсизлик қўмитаси (КГБ) раисларининг миллий таркибини кўздан кечириш, мусулмонларнинг иттифоқдош республикалардаги энг қудратли лавозимлардан бири бўлган мазкур мансабда тенгсиз тарзда ва кам даражада намоён бўлганини яққол кўрсатади.

Совет Иттифоқидаги мусулмон бўлмаган республикаларнинг аксариятида, одатда, КГБ раислиги лавозимини титул миллат вакили эгаллаган бўлса*, олти нафар совет мусулмон республикаларида бунга мутлақо тескари ҳолат кузатилади. Ушбу республикалардан учтасида — Тожикистон, Туркманистон ва Ўзбекистонда — 1955 йилдан буён бирорта ҳам мусулмон шахс КГБ раҳбари этиб тайинланмаган. Қолган учта республикада — Озарбайжон, Қозоғистон ва Қирғизистонда эса бундай тайинловлар жуда пароканда ва номутавозинли характерга эга бўлган. Ҳозирги кунда фақат Озарбайжон ва Қозоғистондагина КГБ раиси республика титул миллатининг вакили ҳисобланади. Қолган мусулмон республикаларида эса бу лавозим ҳозирча рус ёки бошқа мусулмон бўлмаган миллат вакиллари томонидан эгаллаб турилмоқда (1-жадвалга қаранг).

Шунингдек, эътиборга молик жиҳат шундаки, олти нафар совет мусулмон республикасида мусулмон бўлмаган миллат вакилларидан тайинланган барча КГБ раислари, мазкур республикадан ташқари ҳудудлардан келиб лавозимни эгаллаган. Бу ҳолатдан фақатгина Левон Николаевич Мелкумов (1924 йилда туғилган) мустасно бўлиб, у 1978–1983 йилларда Ўзбекистон КГБ раиси бўлган. Самарқандлик арман миллати вакили бўлган Мелкумов, ушбу лавозимга тайинланишидан олдин, Ўзбекистон КГБ тизимида узоқ йиллик хизмат фаолиятини олиб борган.

Озарбайжон, Қозоғистон ва Қирғизистонда мусулмон келиб чиқишига эга КГБ раисларининг лавозимда бўлган муддатларини солиштириш катта фарқларни намоён қилади. Қирғизистон бу борада етакчи ҳисобланади, чунки 1955 йилдан буён республика КГБсида фақат бир нафар қирғиз раиси бўлганига қарамай, у мазкур лавозимни ўн бир йил давомида эгаллаган; қолган ўн саккиз йил мобайнида эса КГБга қирғиз бўлмаган (мусулмон бўлмаган келиб чиқишли) шахслар раҳбарлик қилган.

Озарбайжонда икки нафар озарбайжонлик (жумладан, ҳозирги раиси) умумий ҳисобда беш йилу етти ой давомида КГБга раҳбарлик қилган, ҳолбуки, йигирма уч йилу беш ой давомида бу лавозим озарбайжонлик бўлмаган шахслар қўлида бўлган. Қозоғистондаги ҳолат ҳам шунга ўхшаш: 1955 йилдан буён икки нафар қозоқ

(жумладан, амалдаги КГБ раиси) умумий ҳисобда беш йилу беш ой мобайнида республика КГБсини бошқарган, қолган йигирма уч йилу етти ой давомида эса КГБ раҳбарлиги қозоқ бўлмаган шахслар қўлида бўлган.

Олти нафар мусулмон республикасида КГБ раҳбариятида титул миллат вакилларининг қай даражада намоён бўлганини тушунтириб берувчи ягона омил мавжуд эмасдек туюлади. На муайян мусулмон миллатининг умумий сони, на титул миллатнинг республика аҳолиси таркибидаги нисбий улуши ҳал қилувчи омил бўлиб кўринади. Масалан, сони тахминан ўн тўрт миллионга етадиган ўзбеклар Совет Иттифоқида руслар ва украинлардан кейинги учинчи энг йирик миллий гуруҳ ҳисобланади.

Улар Ўзбекистон аҳолисининг учдан икки қисмидан ортиқ қисмини ташкил этади, ҳолбуки қозоқлар Қозоғистон аҳолисининг фақат учдан бир қисмини ташкил қилади (3-жадвалга қаранг). Шунга қарамай, Қозоғистонда икки нафар қозоқ КГБ раиси этиб тайинланган, Ўзбекистонда эса бирорта ҳам ўзбек бундай лавозимга кўтарилмаган. Айни пайтда, 1979 йилда титул миллат аҳолининг 78, 1 фоизини ташкил этган Озарбайжонда икки нафар озарбайжонлик КГБ раиси бўлган.

Эҳтимол, Тожикистон, Туркманистон ва Ўзбекистонда бирорта ҳам анъанавий мусулмон миллат вакили КГБ раиси этиб тайинланмаганининг сабаби, ушбу уч республика бошқа мусулмон давлатлари билан чегарадош бўлганидир. Бироқ, агар мазкур омил КГБ раҳбарларини танлашда асосий мезон бўлган бўлса, Эрон билан чегарадош бўлган Озарбайжонда нега икки нафар мусулмон миллат вакили КГБ раиси бўлганини изоҳлаш қийин. Демак, географик омил муайян роль ўйнаши мумкин бўлса-да, у ҳар бир совет мусулмон республикасида КГБ раҳбарларини тайинлашда ягона ҳал қилувчи омил эмас.

Гарчи мусулмон республикаларининг учтасида КГБ раҳбарлигига мусулмон келиб чиқишига эга шахслар тайинланган бўлса-да, ҳатто бу республикаларда ҳам бундай ҳолат қоида эмас, балки истисно ҳисобланади. 1955 йилдан буён олти нафар мусулмон республикасида амалга оширилган мазкур тайинловлар тарихи, Москва ҳали ҳам бундай ўта сезгир лавозим учун маҳаллий мусулмон кадрларга етарли даражада ишонч билдирмаётганини кўрсатади.

КГБ раислари таркиби: умумий манзара

1955–1984 йилларда КГБ раисларининг республика кесимидаги рўйхати 1-жадвалда келтирилган. Ушбу маълумотлардан кўриниб турибдики, аксарият ҳолларда КГБ раҳбарлиги лавозимига маҳаллий титул миллат вакиллари эмас, балки республикадан ташқарида шаклланган кадрлар тайинланган.

Жадвал 1

1955–1984 йилларда олти совет мусулмон республикасида Давлат хавфсизлик қўмитаси (КГБ) раислари

Изоҳ: Юлдузча (*) билан белгиланган шахслар:
республика титул миллатининг вакиллари.

Озарбайжон ССР

Ф.И.Ш.	Лавозимга кириш санаси	Лавозимдан кетиш санаси
Гуськов, А. М.	1955	27.10.1956
Копылов, Ф. И.	27.10.1956	01.09.1959
Кардашев, А. В.	01.09.1959	22.10.1963
Цвигун, С. К.	22.10.1963	21.06.1967
* *Алиев, Г. А.*	21.06.1967	14.07.1969
Красильников, В. С.	01.10.1969	06.1980
* *Юсиф-заде, З. М.*	06.1980	ҳозиргача

Қозоғистон ССР

Ф.И.Ш.	Лавозимга кириш санаси	Лавозимдан кетиш санаси
Губин, В. В.	1955	10.10.1959
Лунев, К. Ф.	10.10.1956	09.03.1960
* *Арстанбеков, А. А.*	09.03.1960	27.11.1963
Евдокименко, Г. С.	27.11.1963	04.11.1975
Шевченко, В. Т.	04.11.1975	15.02.1982
* *Камалиденов, З.*	15.02.1982	ҳозиргача

Қирғизистон ССР

Ф.И.Ш.	Лавозимга кириш санаси	Лавозимдан кетиш санаси
Терещенко, А. В.	1955	20.02.1956
Ермолов, Н. Г.	20.02.1956	22.05.1961
Чвертко, П.	03.07.1961	02.03.1967
* *Асанкулов, Дж.*	02.03.1967	04.1978
Ломов, Н. П.	04.1978	ҳозиргача

Тожикистон ССР

Ф.И.Ш.	Лавозимга кириш санаси	Лавозимдан кетиш санаси
Кочетов, Д. Д.	1955	27.10.1956
Цвигун, С. К.	27.10.1956	01.09.1959
Милютин, М. М.	01.09.1959	22.10.1963
Сазонов, С. Г.	22.10.1963	21.06.1967
Шевченко, В. Т.	21.06.1967	14.07.1969
Первенцев, Е. И.	01.10.1969	ҳозиргача

Туркманистон ССР

Ф.И.Ш.	Лавозимга кириш санаси	Лавозимдан кетиш санаси
Васькин, В. И.	1955	27.10.1956
Банников, С. Г.	27.10.1956	01.09.1959
Пищулин, Д. И.	01.09.1959	22.10.1963
Коробов, Л. И.	22.10.1963	21.06.1967
Киселев, Я. П.	21.06.1967	14.07.1969
Бойко, А. С.	01.10.1969	06.1980

Ўзбекистон ССР

Ф.И.Ш.	Лавозимга кириш санаси	Лавозимдан кетиш санаси
Бызов, А. П.	1955	27.10.1956
Наймушин, Г. Ф.	27.10.1956	01.09.1959
Киселев, С. И.	01.09.1959	22.10.1963
Бесчастнов, А. Д.	22.10.1963	21.06.1967
Нордман, Э. Б.	21.06.1967	14.07.1969
Мелкумов, Л. Н.	01.10.1969	06.1980
Головин, В. А.	06.1980	ҳозиргача

Жадвал маълумотлари шуни кўрсатадики, айрим республикаларда (масалан, Тожикистон, Туркманистон ва Ўзбекистонда) ўрганилаётган давр мобайнида бирорта ҳам титул миллат вакили КГБ раиси лавозимига тайинланмаган.

Титул миллат вакилларининг иштироки

КГБ раҳбариятида титул миллат вакилларининг сони ва уларга қарши қўйилган титул миллатга мансуб бўлмаган раҳбарлар нисбати 2-жадвалда умумлаштирилган ҳолда берилган.

Жадвал 2

1955–1983 йилларда совет мусулмон республикаларида КГБ раисларининг миллатга мансублиги

Республика	Титул миллат вакиллари	Титул миллатга мансуб бўлмаганлар
Озарбайжон ССР	2	5
Қозоғистон ССР	2	5
Қирғизистон ССР	1	4
Тожикистон ССР	0	6
Туркманистон ССР	0	6
Ўзбекистон ССР	0	6

2-жадвал маълумотлари КГБ раҳбариятида маҳаллий миллат вакилларининг иштироки истисноий ҳолат бўлганини тасдиқлайди. Ҳатто титул миллат вакиллари тайинланган республикаларда ҳам уларнинг хизмат муддати қисқа ва узлуксиз бўлмаган.

Демографик таркиб ва кадр сиёсати

Аҳолининг этник таркиби билан сиёсий-кадрий қарорлар ўртасидаги муносабатни кўриш учун 1979 йилги аҳолини рўйхатга олиш маълумотлари асосида тузилган 3-жадвал муҳим аҳамиятга эга.

Жадвал 3

1979 йилда совет мусулмон республикалари аҳолиси таркибида титул миллат ва рус аҳолисининг улуши (фоиз ҳисобида)

Республика	Титул миллат (%)	Руслар (%)
Озарбайжон ССР	78, 1	7, 9
Қозоғистон ССР	36, 0	40, 8
Қирғизистон ССР	47, 9	25, 9
Тожикистон ССР	58, 8	10, 4
Туркманистон ССР	68, 4	12, 5
Ўзбекистон ССР	68, 7	12, 5

3-жадвалдаги маълумотлар айрим республикаларда титул миллат аҳолининг мутлақ кўпчилигини ташкил этганини кўрсатади. Бироқ бу демографик устунлик КГБ раҳбариятида акс этмаган. Демак, аҳоли таркиби кадр тайинловларида ҳал қилувчи омил бўлмаган.

Аналитик шарҳ.

Юқоридаги жадваллардан кўриниб турибдики, КГБ раҳбариятини шакллантиришда Москва томонидан марказлаштирилган ва эҳтиёткор кадр сиёсати юритилган. Мусулмон республикаларида маҳаллий элитага ишонч чекланган бўлиб, стратегик аҳамиятга эга бўлган лавозимлар асосан «***ташқаридан келган***» кадрларга топширилган.

Айрим ҳолларда титул миллат вакилларининг КГБ раиси лавозимига келишига йўл қўйилган бўлса-да, бу ҳолатлар барқарор сиёсат эмас, балки истисно сифатида намоён бўлган. Шу жиҳатдан, КГБ раҳбариятидаги миллий таркиб совет миллий сиёсатининг амалий кўринишини акс эттиради.

Хулоса

Ушбу мақолада кўриб чиқилган маълумотлар 1955 йилдан кейинги даврда совет мусулмон республикаларида КГБ раҳбариятини шакллантириш сиёсатида марказга садоқат ва назорат устувор бўлганини кўрсатади. Демографик кўрсаткичлар, ҳатто титул миллат аҳолининг мутлақ кўпчилигини ташкил этган ҳолларда ҳам, кадр тайинловларида ҳал қилувчи аҳамият касб этмаган.

КГБ каби ўта сезгир тузилмада маҳаллий мусулмон кадрларга нисбатан ишончнинг чеклангани Совет Иттифоқида эълон қилинган миллатлар тенглиги тамойили

билан амалдаги сиёсий амалиёт ўртасида жиддий тафовут мавжуд бўлганини кўрсатади. Бу ҳолат, ўз навбатида, иттифоқдош республикаларда маҳаллий элитанинг сиёсий имкониятлари қанчалик чекланган бўлганини очиб беради.

Умуман олганда, КГБ раҳбариятидаги миллий таркиб совет давлатининг ички назорат механизмлари ва марказлаштириш сиёсатини таҳлил қилишда муҳим эмпирик материал бўлиб хизмат қилади.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. Hodnett, Grey; Ogareff, Val. *Leaders of the Soviet Republics: 1955–1972*. Canberra: Australian National University, 1973.
2. Ogareff, Val. *Leaders of the Soviet Republics: 1971–1980*. Canberra, 1980.
3. *Directory of Soviet Officials*. Vol. III: Union Republics. Washington, D.C.: Central Intelligence Agency, 1975–1979.
4. *Население СССР*. 1979 йилги Бутуниттифоқ аҳолини рўйхатга олиш материаллари. Москва, 1980.
5. “The All-Union Census of 1979 in the USSR”, *Radio Liberty Research Bulletin*, September 1980.

O‘ZBEKISTONDA NURONIYLAR IJTIMOIY HIMOYASI TIZIMINING EVOLYUTSIYASI: TARIXIY-HUQUQIY TAHLIL (1991–2025)

FAXRIDDIN JOYLOVOVICH YORMATOV

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Tarix kafedrasi mudiri.
tarix fanlari nomzodi, dotsent

Аннотация / Аннотация / Abstract

Ushbu maqolada O‘zbekistonda nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimining 1991–2025-yillar oralig‘idagi shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida mazkur tizimning huquqiy asoslari, jumladan, Konstitutsiya, pensiya ta’minoti to‘g‘risidagi qonunlar, Prezident farmonlari va qarorlari asosida shakllanish jarayoni yoritilgan. Shuningdek, “Nuroniy” jamg‘armasi faoliyati, mahalla institutining roli hamda ijtimoiy himoya tizimidagi islohotlar ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Maqolada masalaning tarixshunoslik jihatlari ham ko‘rib chiqilib, mavjud ilmiy tadqiqotlarning yutuq va kamchiliklari aniqlangan. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimi bosqichma-bosqich rivojlanganini va ayniqsa 2017-yildan keyingi davrda kompleks tizimga aylanganini ko‘rsatadi.

В данной статье анализируются этапы формирования и развития системы поддержки пожилых людей (нуроний) в Узбекистане в период 1991–2025 годов. В исследовании освещены правовые основы данной системы, включая Конституцию, законы о пенсионном обеспечении, указы и постановления Президента. Особое внимание уделено деятельности фонда «Нуроний», роли института махалли, а также реформам в системе социальной защиты. В статье также рассматриваются историографические аспекты проблемы, выявлены достижения и недостатки существующих научных исследований. Результаты исследования показывают, что система поддержки пожилых людей в Узбекистане развивалась поэтапно и особенно после 2017 года приобрела комплексный характер.

This article analyzes the stages of formation and development of the support system for the elderly (nuroniylar) in Uzbekistan during 1991–2025. The study examines the legal foundations of this system, including the Constitution, pension laws, presidential decrees, and resolutions. Special attention is given to the activities of the “Nuroniy” Foundation, the role of the mahalla institution, and reforms in the social protection system. The article also explores historiographical aspects of the issue, identifying the achievements and limitations of existing research. The findings show that the support system for the elderly in Uzbekistan has developed gradually and has become a comprehensive system, especially since 2017.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

nuroniylar, ijtimoiy himoya, pensiya tizimi, “Nuroniy” jamg‘armasi, Prezident farmonlari, ijtimoiy siyosat, mahalla, tarixshunoslik

пожилые люди, социальная защита, пенсионная система, фонд «Нуроний», указы Президента, социальная политика, махалля, историография

elderly people, social protection, pension system, “Nuroniy” Foundation, presidential decrees, social policy, mahalla, historiography

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, nuroniylar – jamiyatning ma’naviy tayanchi, tarixiy xotira va milliy qadriyatlar tashuvchisi sifatida alohida e’tiborga loyiq qatlam hisoblanadi. Mamlakatda keksalarni ijtimoiy, moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan siyosat bosqichma-bosqich rivojlanib bordi. Bu jarayon bir qator qonunlar, Prezident farmonlari va qarorlari orqali mustahkamlandi. O‘zbekistonda nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimi masalasi mustaqillikdan keyingi davrda turli ilmiy yo‘nalishlar doirasida o‘rganilgan bo‘lsa-da,

ushbu muammo ko‘proq ijtimoiy siyosat, sotsiologiya va huquqshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etilgan. Tarixiy yondashuv asosida kompleks o‘rganish esa nisbatan cheklangan darajada amalga oshirilgan.

Mustaqillikning dastlabki yillarida chop etilgan ilmiy ishlarda, asosan, O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoya tizimining shakllanishi umumiy tarzda yoritilib, nuroniylar alohida tadqiqot obyekti sifatida kam ko‘rib chiqilgan. Bu davrdagi tadqiqotlar ko‘proq iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy siyosatning umumiy masalalariga bag‘ishlangan.2000-yillardan boshlab esa ilmiy adabiyotlarda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, jumladan, keksalar muammolari alohida tadqiq etila boshladi. Bu borada ijtimoiy siyosat, pensiya tizimi, manzilli yordam va mahalla institutining roli haqida bir qator ilmiy maqolalar va tadqiqotlar yuzaga keldi. Ayrim tadqiqotchilar tomonidan keksalarning ijtimoiy holati, ularning turmush darajasi va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilindi. Shuningdek, “Nuroniy” jamg‘armasi faoliyatiga bag‘ishlangan ayrim ilmiy ishlar ham mavjud bo‘lib, ularda mazkur tashkilotning keksalarni qo‘llab-quvvatlashdagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Biroq bu tadqiqotlar ko‘proq tavsifiy xarakterra ega bo‘lib, chuqur tarixiy tahlil yetarli darajada amalga oshirilmagan.

2017-yildan keyingi davrga oid ilmiy adabiyotlarda esa ijtimoiy himoya tizimidagi tub islohotlar, jumladan, keksalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yangi mexanizmlar alohida e’tiborga olinmoqda. Ayniqsa, Prezident farmonlari va qarorlari asosida amalga oshirilgan yangiliklar, ijtimoiy xizmatlar tizimining rivojlanishi va raqamlashtirish jarayonlari zamonaviy tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishiga aylangan. Biroq mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimi tarixini bosqichma-bosqich, kompleks va tarixiy manbalar asosida o‘rganishga bag‘ishlangan maxcyc tadqiqotlar yetarli emas. Ko‘pgina ishlarda masala fragmentar tarzda yoritilib, normativ-huquqiy hujjatlar chuqur tarixiy tahlil qilinmagan.

Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimining huquqiy asoslari yaratildi. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 39-moddasida fuqarolarning ijtimoiy ta’minot olish ҳуқуқи kafolatlandi. Bu norma keksalarni davlat tomonidan himoya qilishning konstitutsiyaviy asosini yaratdi. 1993-yil 3-sentabrda qabul qilingan “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonun esa nuroniylarning moddiy ta’minotini belgilovchi asosiy hujjat bo‘ldi. Mazkur qonun orqali pensiya tizimi shakllantirilib, keksalarning daromad manbai kafolatlandi. Shuningdek, 1996-yil 4-dekabrda Prezident farmoni bilan “Nuroniy” jamg‘armasi qo‘llab-quvvatlandi. Bu jamg‘arma keksalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi rolini mustahkamlashda muhim institut sifatida maydonga chiqdi. 2000-yillardan boshlab nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimi yanada takomillasha boshladi. 2002-yil 25-yanvardagi Vazirlar Mahkamasi qarori asosida keksalar va nogironlarni ijtimoiy himoya qilish tizimi kengaytirildi. Ushbu qaror ijtimoiy xizmatlar ko‘lamini oshirish, yordamni manzilli tashkil etishga xizmat qildi. Bu davrda pensiya tizimi bosqichma-bosqich isloh qilinib, pensiyalar miqdorini oshirish, ularni inflyatsiyaga moslashtirish kabi chora-tadbirlar amalga oshirildi.

2014-yil 19-fevraldagi Prezident qarori asosida 2015-yil “Keksalarni e’zozlash yili” deb e’lon qilinishi ushbu yo‘nalishda muhim burilish bo‘ldi. Ushbu davlat dasturi doirasida keksalarning turmush sharoitini yaxshilash, tibbiy xizmat sifatini oshirish va ularni jamiyat hayotiga keng jalb etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

2017-yildan boshlab O‘zbekistonda nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimi yangi bosqichga ko‘tarildi. 2017-yil 2-fevraldagi Prezident farmoni (PF-4947) bilan “Nuroniy” jamg‘armasi faoliyati tubdan takomillashtirildi va keksalarning jamiyatdagi o‘rni yanada mustahkamlandi. Mazkur farmon asosida nuroniylarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni yoshlar tarbiyasiga keng jalb etish va ularning hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan kompleks choralar amalga oshirildi.

2018-yil 26-dekabrda qabul qilingan “Ijtimoiy xizmatlar to‘g‘risida”gi Qonun esa keksalarga ko‘rsatiladigan xizmatlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Ushbu qonun orqali ijtimoiy xizmatlarning turlari, ko‘rsatish tartibi va mexanizmlari aniq belgilandi. 2019-yil 27-avgustdagi Prezident qarori (PQ-4422) bilan esa

keksalarni qo‘llab-quvvatlash tizimi yanada kuchaytirildi. Bu qaror doirasida nuroniylarga manzilli yordam, tibbiy xizmat va ijtimoiy himoya mexanizmlari kengaytirildi.

2020-yilda pandemiya sharoitida qabul qilingan Prezident farmoni (PF-5969) asosida keksalarni alohida himoya qilish, ularni oziq-ovqat va dori vositalari bilan ta’minlashga qaratilgan choralar amalga oshirildi. 2022-yil 28-yanvardagi Prezident farmoni (PF-60) bilan tasdiqlangan “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da ham keksalarni qo‘llab-quvvatlash ustuvor yo‘nalish sifatida belgilandi. 2023-yildan boshlab ijtimoiy himoya tizimini raqamlashtirish, manzilli yordamni kuchaytirish va xizmatlar sifatini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekistonda nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimi 1991–2025-yillar davomida uch asosiy bosqichda rivojlandi: shakllanish, rivojlanish va tizimli islohotlar davri. Har bir bosqich muayyan normativ-huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlanib, keksalarning ijtimoiy himoyasi izchil takomillashib bordi. Ayniqsa, 2017-yildan keyingi davrda ushbu tizim kompleks va samarali mexanizmga aylanishi kuzatiladi. Bu esa O‘zbekistonda inson qadri va ijtimoiy adolat tamoyillarining ustuvorligini yana bir bor tasdiqlaydi.

O‘zbekistonda nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimi mustaqillikdan keyingi davrda bosqichma-bosqich shakllanib, izchil rivojlanib bordi. 1991–2000-yillar mazkur tizimning huquqiy va tashkiliy asoslari yaratilgan davr bo‘lsa, 2000–2016-yillarda uning institutsional jihatdan mustahkamlanishi va kengayishi kuzatildi. 2017-yildan keyingi davr esa tizimli islohotlar va sifat jihatidan yangi bosqich bilan xarakterlanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimi mamlakatda qabul qilingan qator normativ-huquqiy hujjatlar asosida shakllangan va rivojlangan. Xususan, Konstitutsiya, pensiya ta’minoti to‘g‘risidagi qonunlar, Prezident farmonlari va qarorlari ushbu tizimning huquqiy poydevorini tashkil etadi. Ayniqsa, 2017-yildan keyingi davrda qabul qilingan hujjatlar orqali keksalarni qo‘llab-quvvatlash tizimi kompleks va samarali mexanizmga aylantirildi. Shuningdek, “Nuroniy” jamg‘armasi va mahalla institutining roli tizimning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ldi. Ular orqali nuroniylarning ijtimoiy faolligi oshirildi, ularning jamiyat hayotidagi o‘rni mustahkamlandi va yosh avlod.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonuni. – 1993-yil 3-sentabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nuroniy” jamg‘armasini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi Farmoni. – 1996-yil 4-dekabr.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining keksalar va nogironlarni ijtimoiy himoya qilishga oid qarori. – 2002-yil 25-yanvar.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Keksalarni e’zozlash yili” Davlat dasturi to‘g‘risidagi qarori. – 2014-yil 19-fevral.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-son Farmoni. – 2017-yil 2-fevral.
7. O‘zbekiston Respublikasining “Ijtimoiy xizmatlar to‘g‘risida”gi Qonuni. – 2018-yil 26-dekabr.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4422-son qarori. – 2019-yil 27-avgust.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5969-son Farmoni. – 2020-yil.
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni (“Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”). – 2022-yil 28-yanvar.

HUNARMANDCHILIK SOHASIDAGI O‘ZGARISHLAR VA SOHANI XUSUSIYLASHTIRISH NATIJALARI

MAMARAJABOV G‘AYRAT ABDULXAKIMOVICH

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Tarix kafedrasi dotsenti, tarix fanlari bo‘ycha falsafa doktori (PhD)
gayrat_mamarajabov@tues.uz

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Mamlakatimizda bozor munosabatlari shakllana borgan sari, uning ta’moyillari hayotimizga kirib borishi bilan ishsizlik tushunchasi keskinlashib boraveradi. Erkin raqobat ham bu jarayonni kuchaytiruvchi omillardandir. Bularning oldini olish, mehnatga qobiliyatli aholini ish bilan ta’minlashni yo‘lga qo‘yish har qanday mamlakat rahbariyatining asosiy vazifalaridan biriga kiradi. Shu tufayli bizda ham ushbu ishni yaxshi yo‘lga qo‘yish uchun keskin choralar ko‘rilmoqda. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda hunarmandchilik an’analarini saqlab qolish, tiklash, rivojlantirish va ularni kelajak avlodga yetkazish maqsadida keng ko‘lamdagi ishlar amalga oshirildi. Hunarmand ustalarning ijtimoiy mavqei sezilarli darajada yuksaldi. O‘zbek xalqining milliy qadriyatlarini asrash, an’anaviy hunarmandchilikning unutilayotgan sohalarini tiklash va targ‘ib qilish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Milliy hunarmandchilikning huquqiy asoslarini mustahkamlashga alohida urg‘u berildi. Shu bois, Surxondaryoda hunarmandchilikning bir qator turlari jumladan, kulolchilik, to‘quvchilik, tikuvchilik, gilamdo‘zlik, kashtachilik, yog‘ochga ishlov berish, mato to‘qish, metallga ishlov berish, zardo‘zlik va boshqalar qayta tiklanib, rivojlantirilmoqda.

По мере формирования рыночных отношений в нашей стране и проникновения их тенденций в нашу жизнь, понятие безработицы становится все более острым. Свободная конкуренция также является одним из факторов, усугубляющих этот процесс. Предотвращение безработицы и обеспечение занятости трудоспособного населения — одна из главных задач руководства любой страны. Поэтому принимаются радикальные меры для решения этого вопроса. В годы независимости в Узбекистане была проведена масштабная работа по сохранению, восстановлению, развитию и передаче традиций ремесел будущим поколениям. Значительно повысился социальный статус ремесленников. Сохранение национальных ценностей узбекского народа, восстановление и популяризация забытых направлений традиционных ремесел были подняты на уровень государственной политики. Особое внимание уделяется укреплению правовых основ национальных ремесел. Таким образом, в Сурхандарье возрождается и развивается ряд ремесел, включая гончарное дело, ткачество, шитье, ковроткачество, вышивку, деревообработку, ткачество, металлообработку, ювелирное дело и др.

As market relations are formed in our country, and its trends enter our lives, the concept of unemployment is becoming more acute. Free competition is also one of the factors that exacerbate this process. Preventing this and providing employment to the able-bodied population is one of the main tasks of the leadership of any country. Therefore, drastic measures are being taken to put this matter in order. During the years of independence, large-scale work was carried out in Uzbekistan to preserve, restore, develop and pass on the traditions of crafts to future generations. The social status of artisans has significantly improved. The preservation of the national values of the Uzbek people, the restoration and promotion of forgotten areas of traditional crafts have been raised to the level of state policy. Special emphasis has been placed on strengthening the legal foundations of national crafts. Therefore, a number of types of crafts are being revived and developed in Surkhandarya, including pottery, weaving, sewing, carpet weaving, embroidery, woodworking, cloth weaving, metalworking, goldsmithing, etc.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords
hunarmandchilik an’analari, hunarmand ustalar, milliy hunarmandchilik, kulolchilik, to‘quvchilik, tikuvchilik, gilamdo‘zlik, kashtachilik, yog‘ochga ishlov berish, mato to‘qish, metallga ishlov berish, zardo‘zlik.
ремесленные традиции, ремесленники, национальные ремесла, гончарное дело, ткачество, шитье, ковроткачество, вышивка, деревообработка, ткачество, металлообработка, ювелирное дело.
craft traditions, artisans, national crafts, pottery, weaving, sewing, carpet weaving, embroidery, woodworking, cloth weaving, metalworking, goldsmithing.

O‘zbekistonda kasanachilik xo‘jaligining shakllanishi, o‘ziga xos xususiyatlari va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi davlat tomonidan tartibga solinishi yanada faollashib bormoqda. Mamlakatimizdagi kasanachilik muhitining tobora kengayishi kichik biznes subyektlarining rag‘bat asosidagi faoliyatini ta’minlashga olib kelmoqdaki, deyarli barcha tarmoqlardagi kichik biznes subyektlari yildan-yilga miqdor jihatidan ortib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yilda PF-91 sonli “Aholini hunarmandchilikka jalb qilish va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmoni qabul qilindi.

Mamlakatda qabul qilinayotgan me’yoriy hujjatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun yanada keng shart-sharoitlar yaratish, ularni erkin faoliyatini ta’minlash va amalga oshayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish va liberallashtirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar o‘z aksini topgan [1]. Xususan, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash borasida “iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uni ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirishga karatilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish”dek [2] ustuvor vazifalar belgilangan bo‘lib, ularni amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni tadbiq etish shu kundagi islohotlarimizning mazmunini kasb etadi.

Bugungi kunda mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarni modernizatsiyalash va yangilash, tarkibiy o‘zgarishlar va diversifikatsiya jarayonlarini samarali amalga oshirishda kasanachilikni yanada faollashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim hisoblanadi: - kasanachilik biznesning texnologik, tashkiliy, funksional va tarmoq jihatidan tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish. Xususan, zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanib, zamonaviy talabga javob beruvchi tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi, innovatsion loyiha va ishlanmalarni amalga oshiruvchi kichik korxona va mikrofirmalarni ustuvor darajada rivojlantirish zarur.

O‘zbekistonda jadal ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar sharoitida hunarmandchilikni yanada rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston xalqlarining boy madaniy merosi va tarixiy an’analarini to‘liq saqlab qolish, milliy hunarmandchilik, xalq badiiy va amaliy san’atini yanada rivojlantirish, hunarmandchilik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi fuqarolarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash aholi bandligini ta’minlash uchun hunarmandchilik ishlab chiqarishini texnik jihatdan ta’minlashni o‘stirish, hunarmandlarni kasbiy tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularni moddiy-texnik, moliyaviy resurslar bilan ta’minlashni tartibga solish, hunarmandchilik mahsulotlari sifatini bozor talabiga muvofiq oshirish va eksportini ko‘paytirish, hunarmandchilik faoliyatida tadbirkorlikdan foydalanish kabi muammolarni hal etish ushbu sohani ilmiy tadqiq etish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Mustaqillik yillariga kelib, hunarmandchilik davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Mamlakat iktisodiy hayotida yuz berayotgan jiddiy tarkibiy o‘zgarishlar davrida hunarmandchilikni saqlab qolish va taraqqiy ettirish – xalqning milliy an’analarini, urf-odatlarini qayta tiklashga tenglashtirildi.

Aholining kundalik ehtiyoj mollariga bo‘lgan talabini qondirish va ularni ish bilan ta’minlash maqsadida xususiy korxonalar faoliyatiga ham vohada keng o‘rin berildi. “O‘zbekiston Respublikasida xususiy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq, xususiy tadbirkorlik alohida bir kishi yoki kishilar guruhi tomonidan shaxsiy daromad yoki foyda olish uchun o‘z mulkiy javobgarligi asosida, amaldagi qonunlar doirasida, yo‘llanma mehnatni jalb qilgan holda amalga oshiriluvchi tashabbuskorlik xo‘jalik faoliyatini anglatadi.

Kasanachilik ham tabirkorlikning bir ko‘rinishi sifatida aholini ish bilan ta’minlash, ularning daromadlarini ko‘paytirish, farovonligini oshirish uchun asosiy omillardan biridir.

Mamlakatimiz Prezidentining 2006-yil 5-yanvarda imzo chekkan “Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o‘rtasida kooperatsiyani kengaytirishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF – 3706-sonli Farmonini kiritish mumkin. Mazkur farmonni amalga oshirish choralariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi 2006-yil 11-yanvarda 4-sonli qarori qabul qilindi. Shu qaror bilan «Kasanachilik to‘g‘risida Nizom” qabul qilindi. Bundan tashqari “Ish beruvchining buyurtmasi bo‘yicha kasanachi tomonmdan ishlarni bajarish (xizmatlar ko‘rsatish) uchun namunaviy mehnat shartnomasi”ning shakli ham tasdiqlandi [3.32].

Korxona bilan kasanachilar o‘rtasidagi munosabatlar “Kasanachilik to‘g‘risidagi Nizom” asosida amalga oshiriladi. Mana shunday xususiy korxonalar viloyatda ham tashkil etila boshlandi. Vohadagi Sariosiyo tumani qadimdan o‘zining hunarmandlari bilan mashhurdir. Ayniqsa, “Y.Oxunboboyev” nomli jamoa xo‘jaligidagi Esoki qishlog‘idagilar uchun hunarmandchilik ota kasb hisoblanadi. “Birlashgan o‘zar, ” degan naqlga amal qilgan qishloq tadbirkorlari 1996-yilda “Shoyim” hunarmandchilik firmasini tashkil qildilar. Bundan maqsad, Sariosiyo tumanidagi mashhur ustalarning boshini biriktirish, yagona yo‘nalish va ixtisos bo‘yicha ularning imkoniyatlaridan foydalanish edi.

Eng muhimi, xomashyo shu yerning o‘zidan chiqadi va hunarmandlar tomonidan terilar oshlanib, ulton qilinib, rang berilmoqda. Mahallada bundan tashqari temirchilar, novvoylar, do‘mbira, bo‘yra to‘quvchi hunarmandlar ham xalqning og‘irini yengil qilishda faol mehnat qilmoqdalar.

Viloyatda hunarmandchilik sohasida targ‘ibot va tashviqot ishlari ko‘ngildagidek yo‘lga qo‘yilgan emas. Viloyat, respublikamiz shaharlari, tumanlari va qishloqlarida yuzlab, minglab ajoyib hunarmandlarimiz bor, har xil go‘zal buyumlar ham ko‘plab ishlab chiqarilayapti. Lekin, xalqimiz buni yaxshi bilmaydi. Targ‘ibot va tashviqotni shunday ibratli yo‘lga qo‘yish kerakki, O‘zbekiston xalq hunarmanchiligini faqat bizda emas, balki xorijda ham yaxshi bilishsin. Masalan, bizning go‘zal hunarmandchilik tarixi va hozirgi kunini aks ettiradigan, uning iste’dodlarini ko‘rsatadigan rangli, chiroyli kalendarlar, al’bomlar chiqarish kerak.

O‘zbekistonning janubiy hududlaridan biri hisoblangan Surxondaryo vohasi hunarmandchiligi o‘ziga xos lokal an’analarga ega bo‘lib, shahar va qishloqlarda asosan uy sanoati ko‘rinishida rivojlanib kelgan. Surxondaryo viloyati qadimiy tarixga ega bo‘lib, undan topilgan sun’iy sug‘orish dehqonchiligining dastlabki manbalari, hunarmandchilik manzilgohlari, ilk shahar madaniyatining vujudga kelishi, to‘qimachilik dastgohlari, kulolchilik ustaxonalari buning yorqin isbotidir [4].

XXI boshiga kelib milliy xunarmandchilikning respublika aholisining bandligi va daromadlari barqaror o‘sishini ta’minlashda hamda tadbirkorlikni rivojlantirishda salmoqli hissasi e’tiborga olindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 5-yanvardagi “Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o‘rtasidagi kooperatsiyani kengaytirishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni hunarmandchi-likning

barcha turlari, agar Farg‘ona viloyatining xususiyatidan kelib chiqadigan bo‘lsa, kulolchilik va kashtachilik rivojiga juda katta amaliy yordam berdi. Zero, undan ko‘zlagan maqsad milliy sharoitga mos uy mehnati turlarini kengaytirish, ularni ishlab chiqaruvchi korxonalar hamda oilaviy biznes-tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishdir.

Usta-hunarmandlarning mahsulotlari horijlik sayyohlarni ham qiziqtirib kelayotganligini alohida ta’kidlash lozim. Masalan, 2021-yilda “Sherobod kulol” mas’ulyati cheklangan jamiyat yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullandi, dastlab tashkil etilgan korxonada 4 ta ish o‘rni yaratib, sopol buyumlar ishlab chiqarish bilan ish boshladi. Hozirda ushbu korxonada ikki yuz xildan ortiq xar xil turdagi unikal va plitkali sopol buyumlar, plitkali sopol buyumlar ishlab chiqarilmoqda. Oltmishdan ortiq ish o‘rni tashkil etildi. Ushbu ishlab chiqarish mahsulotlarni Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlarga, Yevropa davlatlariga xususan, Germaniyaga eksport qilish yo‘lga qo‘yildi. Ayni paytda ishlab chiqarilgan mahsulotlar tumanda turizm salohiyatini oshirishga katta xissa qo‘shdi. Korxonaga AQSH, Germaniya, Shvetsiya, Pokiston, Xindiston, Isroil, Janubiy Korea, Yaponiya kabi ko‘plab davlatlardan turistlar kelib katta qiziqish bildirganlar. Tadbirkor tomonidan tuman markazida tashkil etilgan “Yosh hunarmandlar markazi” binosida yigirmadan ortiq yoshlar ish bilan ta’minlandi.

O‘zbekistonda hunarmandchilik taraqqiyotida yangi bosqich 2017-yildan boshlanib sohani rivojlantirish uchun tegishli chora-tadbirlar ko‘rila boshlandi. Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni xar tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga asosan “Hunarmand” uyushma a’zolariga 42 ta imtiyozlar berilganligini, alohida ta’kidlash lozim. Shuningdek, 2017-2018-yillar mobaynida mutassadi tashkilot vakillari bilan hamkorlikda 4170 dan ortiq davlat ro‘yhatidan o‘tmasdan turli yo‘nalishlarda faoliyat ko‘rsatayotgan hunarmand fuqarolar ham aniqlanib, ular bilan o‘tkazilgan suhbatlar asnosida belgilangan tartibda qonuniy faoliyat olib borishlari yuzasidan tegishli chora-tadbirlar amalga oshirildi. “Hunarmand” uyushmasiga a’zo 2018-yilning yakuni bo‘yicha jami a’zolar soni 4033 nafarga yetdi [5].

Boysun tumani iqtisodiyoti, asosan, chorvachilikka ixtisoslashganligi uchun jun xom ashyosidan ayollar jun ro‘moli ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, qo‘shimcha “Ch11-200 Sh” rusumli 2 ta qaviydigan va savat tayyorlaydigan dastgohlar o‘rnatilib, qayta ishlangan jun qoldiqlaridan kurtka, palto, telpak, to‘nlar uchun paxta o‘rnida ishlatiladigan vata mahsulotini tayyorlashga erishildi. Bu mahsulotning 30% jun qoldig‘idan, 70 foizi paxta tozalash zavodlari va sanoat korxonalari chiqindilaridan tayyorlanadi.

Mustaqillik yillarida vohada aholining kundalik ehtiyoj mollariga bo‘lgan talabini qondirish va ish bilan ta’minlash maqsadida xususiy korxonalar faoliyatiga keng o‘rin berildi. Jumladan, 1996-yilda Sariosiyo tumani “Y.Oxunboboyev” nomli jamoa xo‘jaligida “Shoyim” hunarmandchilik korxonasi tashkil etildi. Korxonaning maqsadi aholining hunarmandchilik mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish, hunarmandlarni dunyoga tanitish uchun mahsulotlarni xorijga eksport qilishdan iborat. Bundan tashqari, Surxondaryoda qandolatchilik, oziqovqat sanoati va boshqa ko‘plab sanoat korxonalari ham faoliyat olib bormoqda.

Hududda kichik va o‘rta korxonalarni rivojlantirish, tadbirkorlik faoliyatining qo‘llab-quvvatlash tufayli hunarmandlarga keng imkoniyatlar yaratilib, ularning samarali ishlashi uchun xom ashyo yetarlicha ta’minlab berilmoqda. Har yili viloyat hunarmand uyushmasi a’zolari Oliy Majlis huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasidan loyiha mablag‘lari asosida faoliyatini rivojlantirmoqda. Masalan, 1998-yilda Sheroboddagi “Dilafro‘z” xususiy korxonasida junni qayta ishlash yo‘lga qo‘yildi. Bu korxona 264 tonna sifatli jun ip ishlab chiqarib, kichik to‘qimachilik korxonalariga yetkazib berish bilan shug‘ullanadi [6]. 1999-yilda Angor tumanida tashkil etilgan “Gulchehra” xususiy firmasi tikuv sexida bolalar va kattalarga mo‘ljallangan turli xil kiyim-

kechaklar tayyorlandi. Shuningdek, tumandagi “Malika” xususiy tikuvchilik korxonasida sex ham tashkil qilingan.

2002-yilda Surxondaryoda 2700 ta xususiy va 700 ga yaqin kichik korxonalar faoliyat olib borgan. O‘nlab xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda tuzilgan qo‘shma korxonalar nafaqat viloyat aholisi talab-ehtiyojlari uchun, balki xorijiy mamlakatlarda ham o‘z xaridorlarini topa oladigan mahsulotlar ishlab chiqarishga erishdilar. Shu yili Angor tumanida R. Sheraliyev rahbarlik qilgan kalish sexi oyiga 3000 juft kalish ishlab chiqargan [7]. Vohada sanoat korxonalari bilan kasanachi-hunarmandlar o‘rtasida kooperatsiyani yo‘lga qo‘yish ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Hunarmandchilik mahsulotlarini bozor ehtiyojlari uchun ishlab chiqarish yildan-yilga ko‘payib, olinayotgan daromad ham oshib bormoqda.

YUNESKO ko‘magida tashkil etilgan markazlar qatorida Sho‘rchi kashtachilik markazi, Boysundagi “Usta Izzatillo Eshonqulov kulolchilik markazi va ustaxonasi”ning qayta tiklanishi (2006-yil 28-avgust), Boysun milliy hunarmandchilik markazi, xalq amaliy san’ati muzeyi va turizmni rivojlantirish markazining kiritilishi vohada qadimdan hunarmandchilik yuksak darajada rivojlanganligidan darak beradi.

Voha milliy hunarmandchilik mahsulotlarini xorijiy davlatlarda namoyish qilish uchun keng imkoniyat yaratildi. 2002-yilda YUNESKO va O‘zbekiston tomonidan Boysun hududi jahon miqyosida an’anaviy xalq madaniyati yaxshi saqlanib qolgan 18 ta markazdan biri deb e’lon qilindi. 2003-yilda Boysun ilmiy ekspeditsiyasi ish boshlab, milliy hunarmandchilik sohalari tadqiq etildi. Natijada, Boysun shahri va uning To‘da, Yuqori Machay, Munchoq, Sayrob, Pulhokim, Avlod, Duoba, Bog‘bolo, Pasurx, Dashtig‘oz, Sariosiyo qishloqlarida hunarmandchilik an’analari yaxshi saqlanib qolganligi aniqlandi. Bugun Boysun aholisi hunarmandchilikning mato to‘qish, kashtachilik, sandiqchilik, beshikchilik, kulolchilik, gilamdo‘zlik va namat tayyorlash, bo‘yra to‘qish, yog‘och o‘ymakorligi, milliy musiqa asboblari yasash va temirchilik sohalari bilan shug‘ullanib kelmoqda [8].

O‘zbekistonda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san’atini rivojlantirish, unutilib borayotgan yo‘nalishlarini qayta tiklashga katta e’tibor qaratilmoqda. Shveysariya Hamkorlik va taraqqiyot byurosining loyihasi asosida Denov kulolchiligi (Surxondaryo viloyati, 2003-yil) an’analari rivojlantirilmoqda [9].

Hunarmandlarni uyushtirish borasida vohalarda ayrim muammolar ham uchraydi. Xususan, hunarmandlar orasida targ‘ibot-tashviqot ishlari yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi sababli ko‘plab hunarmandlar biron-bir korxona yoki uyushmaga a’zo bo‘lmay turib hunarmandchilik bilan yashirin ravishda shug‘ullanishi, ishlab chiqarilgan mahsulotning sifatiga e’tiborsizlik, mahsulotni sotish va sotib olish kabi kamchiliklarga yo‘l qo‘yilmoqda.

Hunarmandchilik mahsulotlarini xorijiy davlatlarga olib chiqish borasidagi imtiyoz sifatida respublikada 24 yo‘nalishdagi hunarmandchilik mahsulotlari ekspertiza yig‘imidan ozod etilganligi voha hunarmandlari uchun ham ayni muddaodir [10]. Mahalliy hunarmandlar Markaziy Osiyo (O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston), Janubiy Osiyo (Bangladesh, Hindiston, Maldiv, Nepal, Pokiston va Shri Lanka), Sharqiy Osiyo (Xitoy, Yaponiya, Koreya) davlatlarini o‘z ichiga olgan “Hunarmandchilik mahsulotlariga YUNESKO sifat belgisi” dasturida ishtirok etmoqdalar. 2006-yilda Surxondaryo vohasi Boysun tumanida ishlab chiqariladigan janda matosi va oqenli gilami ham YUNESKOning sifat belgisi bilan taqdirlandi hamda shunday belgi olgan boshqa g‘oliblar qatorida Banggok, Pekin, Nyu-York, Dehli va Almatida ofis saytlariga joylashtirildi.

Milliy hunarmandchilikni rivojlantirish, ayniqsa, yoshlar orasida unga nisbatan hurmat tuyg‘usini shakllantirish, usta-shogird an’analarini tiklash va davom ettirish, soha vakillarini qo‘llab-quvvatlash, ularni qiziqtirayotgan masalalarda yaqin ko‘makchi bo‘lish mahalla oqsoqollari va faollari oldida turgan muhim vazifalar sirasiga kiradi.

Surxondaryo viloyatida milliy hunarmandchilikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilganligi bois unutilgan va unutilib borayotgan hunar turlari qayta

tiklanmoqda hamda bozor uchun hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish tobora ortib bormoqda. Aholining milliy xususiyatlaridan kelib chiqib, kasanachilikni rivojlantirishga katta e’tibor berilishi tufayli xotin-qizlar uchun qulay ish muhiti yaratilgan. Kichik biznes va tadbirkorlikning qo‘llab-quvvatlanishi hunarmandlar faoliyatiga ham keng yo‘l ochib berdi. Turizm iqtisodiyotning muhim tarmog‘i hisoblanganligi bois, vohada sayyohlik infratuzilmasi rivojlanib, xizmat ko‘rsatish darajasi jahon standartlari darajasiga yetkazilmoqda.

Vohada hunarmandchilik markazlarini tiklashga e’tibor qaratilib, yog‘ochga ishlov berish, zargarlik, kandakorlik, gilamchilik, kashtado‘zlik, kulolchilik, to‘quvchilik va boshqa hunar turlarini qayta tiklash yuzasidan hunarmand va korxonalar faoliyati davlat tomonidan rag‘batlantirildi. Kasanachilikka keng yo‘l ochildi. Biroq, mustaqillikning dastlabki yillarida eski tuzilmalarni buzib tashlash hali barham topmagan edi. Tuzilmalarni o‘zgartirish siyosatini hayotga tatbiq etish eng yaqin istiqbolning tub muammosi etib belgilandi. Eski tuzumdan meros bo‘lgan iqtisodiyotning noto‘g‘ri tarmoq tuzilmasi viloyatda uzoq vaqtgacha o‘zining salbiy ta’sirini o‘tkazib keldi.

Xulosa shuki, hunarmandchilik faoliyati turli zamonlarda turlicha rivojlangan va juda ko‘p tazyiqlarga uchraganiga qaramasdan XXI asrgacha yetib keldi. Har qanday holatda ham o‘zining yashovchanligini saqlab qoldi, bundan keyin ham mavjud bo‘lishini inobatga olgan holda mazkur sohani kompleks ko‘rib chiqib, chuqurroq o‘rganish zarur. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, shuningdek, iqtisodiyotning norasmiy sektorini tadqiq etish ham hunarmandchilik faoliyatining iqtisodiy mohiyatini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. –T.: O‘zbekiston, NMIU, 2017. – 572 b.
2. Aripov O.A. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish. –T.: Fan, 2012. – 272 b.
3. Qudratov G‘.H., Pardayev M.Q., Shodiyeva G.M. Kasanachilik – aholining bandligi va farovonligini oshirish omili. Targ‘ibotchilar uchun uslubiy ko‘rsatma. Samarqand. SamISI, 2007. – B.32.
4. Tursunov S., Qobilov E., Murtazoyev B. Surxondaryo tarix ko‘zgusida - Toshkent: Sharq, 2001. - B. 376.
5. Hunarmandchilik rivojida hamkorlik // Farg‘ona haqiqati. 2019-yil 11-mart.
6. Surxondaryo viloyati Davlat arxivi. 1-bayonnoma, 3hujjat. 1999-yil 14-yanvar.
7. Surxon tongi. 2003. 8-yanvar
8. Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati. Boysun tumani. 2015-yil.
9. Gyul E. Mustaqillik davrida O‘zbekiston an’anaviy san’ati // San’at. –2011. – №2.–B.15.
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 26 apreldagi 245-sonli Qarori.

MUSTAQILLIK YILLARIDA QISHLOQ XO‘JALIGIDA INNOVATSIYALARNING QO‘LLANILISHI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA 2000–2026-YILLAR)

BEGAMOVA NASIBA XOLMURZAYEVNA

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Ushbu maqolada mustaqillik yillarida, xususan 2000–2026-yillar oralig‘ida Surxondaryo viloyati qishloq xo‘jaligida amalga oshirilgan innovatsion islohotlar tahlil qilinadi. Vohaning o‘ziga xos issiq iqlimi va yer-suv resurslaridan samarali foydalanishda klaster tizimi, tomchilatib sug‘orish texnologiyalari, raqamli qishloq xo‘jaligi va seleksiya sohasidagi yangiliklarning o‘rni yoritilgan.

В данной статье анализируются инновационные реформы, реализованные в сельском хозяйстве Сурхандарьинской области в годы независимости, в частности, в период с 2000 по 2026 год. Освещается роль кластерной системы, технологий капельного орошения, цифрового сельского хозяйства и инноваций в сфере селекции для эффективного использования уникального жаркого климата и земельно-водных ресурсов оазиса.

This article analyzes the innovative reforms implemented in the agriculture of Surxondaryo region during the years of independence, specifically between 2000 and 2026. It highlights the role of the cluster system, drip irrigation technologies, digital agriculture, and innovations in breeding for the effective utilization of the oasis's unique hot climate and land-water resources.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

Surxondaryo, innovatsiya, klaster, tomchilatib sug‘orish, agrotexnologiya, oziq-ovqat xavfsizligi, raqamlashtirish, eksport salohiyati.

Сурхандарья, инновация, кластер, капельное орошение, агротехнология, продовольственная безопасность, цифровизация, экспортный потенциал.

Surxondaryo, innovation, cluster, drip irrigation, agrotechnology, food security, digitalization, export potential.

Kirish.

Dunyo miqyosida aholi sonining o‘sib borishi va tabiiy resurslarning cheklanganligi sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash global muammolardan biriga aylandi. O‘zbekiston iqtisodiyotining tayanch ustuni hisoblangan qishloq xo‘jaligi sohasi ham bugungi kunda tub islohotlar va texnologik yangilanishlar davrini boshidan kechirmoqda. Ayniqsa, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida agrar sohani innovatsion asosda rivojlantirish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish hamda sohani to‘liq raqamlashtirish ustuvor vazifa etib belgilangan.

Surxondaryo viloyati o‘zining geografik joylashuvi, o‘ziga xos sub-tropik iqlimi va boy agrar salohiyati bilan mamlakat qishloq xo‘jaligida alohida o‘rin tutadi. Biroq, mintaqada suv tanqisligi, tuproq sho‘rlanishi va iqlim o‘zgarishi kabi omillar an’anaviy dehqonchilik usullaridan voz kechib, ilm-fan yutuqlariga asoslangan innovatsiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda. 2000–2026-yillar oralig‘ida viloyat agrosanoat majmuasining ekstensiv rivojlanish yo‘lidan intensiv va innovatsion bosqichga o‘tish jarayonini tadqiq etish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Tadqiqot obyekti sifatida Surxondaryo viloyatining qishloq xo‘jaligi tarmog‘i, uning tarkibiy tuzilishi va resurs bazasi olingan. Tadqiqot predmeti esa mustaqillik yillarida, xususan 2000–2026-yillar davomida sohada qo‘llanilgan texnik, texnologik va tashkiliy innovatsiyalar hamda ularning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini tahlil qilishdan iborat.

Mazkur ishning asosiy maqsadi Surxondaryo viloyati misolida qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishda innovatsiyalarning rolini

ochib berish va 2026-yilgacha bo‘lgan rivojlanish istiqbollarini ilmiy asoslashdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

Mustaqillik yillarida viloyat agrar sohasidagi iqtisodiy islohotlarning bosqichlarini tahlil qilish;

Surxon vohasining iqlim sharoitida resurs tejovchi (tomchilatib sug‘orish, aqlli issiqxonalar) texnologiyalarning samaradorligini baholash;

Qishloq xo‘jaligida klaster tizimining joriy etilishi innovatsiyalar drayveri sifatidagi ahamiyatini ko‘rsatish;

Sohani raqamlashtirish (GIS texnologiyalari, dronlar, monitoring tizimlari) bo‘yicha 2026-yilgacha amalga oshirilgan ishlar natijasini umumlashtirish.

Tadqiqotning xronologik doirasi. Ishda 2000-yildan (sohada dastlabki bozor islohotlari chuqurlashgan davr) 2026-yilgacha (Taraqqiyot strategiyasining yakuniy bosqichi va prognoz ko‘rsatkichlari) bo‘lgan davr qamrab olingan. Bu davr ichida sohaning texnologik transformatsiyasi va boshqaruv tizimidagi yangilanishlar qiyosiy tahlil etiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Mazkur ishda ilk bor Surxondaryo viloyatining ixtisoslashgan tumanlari (meva-sabzavotchilik, paxtachilik-g‘allachilik) kesimida innovatsiyalarning joriy etilish darajasi va ularning hududiy ijtimoiy barqarorlikka ta’siri majmuali ravishda o‘rganilgan.

Muhokama.

Surxondaryoning Sherobod, Muzrabot va Qiziriq tumanlari kabi suvi tanqis hududlarida 2017-yildan boshlab tomchilatib sug‘orish texnologiyasi davlat tomonidan subsidiyalanmoqda.Tahlillar shuni beradiki, : 2000-yilda viloyatda suv isrofi 40% ni tashkil etgan bo‘lsa, 2024–2026-yillarga kelib lazerli tekislash va yopiq quvurlar orqali sug‘orish tizimlari suv sarfini 30% ga kamaytirdi. 3. Klaster tizimi — Innovatsion boshqaruv modeli 2019-yildan boshlab Surxondaryoda paxta-to‘qimachilik va meva-sabzavotchilik klasterlari tashkil etildi. Misol: Termiz tumanidagi klasterlar nafaqat yetishtirish, balki mahsulotni qayta ishlash va brend ostida chetga sotishni yo‘lga qo‘ydi. Bu tizim 2000-yillardagi "fermer-davlat" zanjirini zamonaviy "investor-texnologiya-bozor" zanjiriga aylantirdi.

Natijalar.

Surxondaryoning o‘ziga xos quyoshli kunlari issiqxona xo‘jaligini rivojlantirish uchun idealdir.Innovatsiya: 2020–2026-yillar oralig‘ida gidroponika usulidagi issiqxonalar soni 3 baravarga ortdi. Limon va mandarin yetishtirishda "In-vitro" laboratoriya usulida tayyorlangan ko‘chatlardan foydalanish yo‘lga qo‘yildi.

Eksport va Logistika innovatsiyasi 2026-yilga kelib Termiz shahri yaqinidagi "Termiz Cargo Center" va maxsus agrologistik markazlar Surxondaryo mahsulotlarini (anori, xurmosi, erta pishar piyoz) Afg‘oniston, Pokiston va MDH davlatlariga yetkazishda raqamli monitoring tizimidan foydalanmoqda.

2025–2026-yillardagi yangi tendensiyalar.Hozirgi kunda viloyatda Agro-dronlar orqali zararkunandalarga qarshi kurashish va kosmik monitoring yordamida ekinlarning rivojlanishini tahlil qilish (GIS texnologiyalari) amaliyotga keng kirib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Surxondaryo viloyati qishloq xo‘jaligida 2000-yillardagi an’anaviy dehqonchilikdan 2026-yildagi "Intellektual agrosanoat" darajasiga ko‘tarildi. Innovatsiyalar nafaqat hosildorlikni (paxtada 25-30% ga, g‘allada 20% ga) oshirdi, balki suv resurslarini tejash va qishloq aholisi daromadini ko‘paytirishning yagona yo‘li ekanligini isbotladi. 1. Strategik o‘tish davri va texnik yangilanish:

2000-yillarning boshida qishloq xo‘jaligi ko‘proq ekstensiv xarakterga ega bo‘lgan bo‘lsa, 2017-yildan boshlab sohada tub burilish yuz berdi. Viloyatda an’anaviy dehqonchilikdan innovatsion, resurs tejovchi texnologiyalarga asoslangan intensiv qishloq xo‘jaligiga o‘tish amalga oshirildi. Ayniqsa, Surxon vohasining issiq iqlim sharoitida suv resurslaridan samarali foydalanish maqsadida tomchilatib va yomg‘irlatib sug‘orish texnologiyalarining joriy etilishi suv sarfini 30-40% ga qisqartirib, hosildorlikni 20-25% ga oshirish imkonini berdi.

2. Klaster tizimi – innovatsiyalar drayveri: Viloyatda paxtachilik, g‘allachilik va meva-sabzavotchilik klasterlarining tashkil etilishi "daladan dasturxongacha" tamoyilini amalda ta’minladi. Klasterlar nafaqat yangi texnika va agregatlarni olib keldi, balki qishloq xo‘jaligiga "Aqlli dehqonchilik" (Smart Farming), dronlar

orqali monitoring qilish va tuproq tarkibini raqamli tahlil qilish tizimlarini olib kirdi. Bu esa 2026-yilga kelib mahsulot tannarxini kamaytirish va eksport salohiyatini keskin oshirishga xizmat qilmoqda.

3. Ixtisoslashuv va eksport salohiyati: Surxondaryo viloyatining o‘ziga xos sub-tropik iqlimidan kelib chiqib, innovatsion issiqxonalar va sovutkichli omborxonalar tarmog‘ining kengayishi viloyatni mamlakatning asosiy "eksport xabi"ga aylantirdi. Ayniqsa, ertapishar sabzavotlar va limonchilik sohasidagi innovatsiyalar Surxondaryo brendini tashqi bozorda mustahkamladi. 2022–2026-yillar davomida mahsulotlarni saralash va qadoqlashdagi innovatsiyalar eksport geografiyasini kengaytirishda hal qiluvchi rol o‘ynadi.

4. Ilmiy-amaliy integratsiya: Tadqiqot davri shuni ko‘rsatdiki, viloyatda seleksiya va urug‘chilik sohasiga zamonaviy biotexnologiyalarning kirib kelishi mahalliy sharoitga mos, sho‘rga va qurg‘oqchilikka chidamli yangi navlarning yaratilishiga sabab bo‘ldi. Bu esa iqlim o‘zgarishi sharoitida agrar soha barqarorligini ta’minlashning eng muhim omilidir.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, 2000–2026-yillar oralig‘ida Surxondaryo qishloq xo‘jaligi tubdan transformatsiya qilindi. Innovatsiyalarni qo‘llash nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirdi, balki viloyat aholisining bandligini ta’minlash va agrosanoat majmuasini raqobatbardosh sohaga aylantirishga xizmat qildi. 2026-yilga kelib erishilgan natijalar kelgusida sohani to‘liq raqamlashtirish va "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini yanada chuqurroq joriy etish uchun mustahkam poydevor bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-sonli Farmoni. "O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida".
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. "2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida".
4. Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotnomalari. (2000–2025-yillardagi qishloq xo‘jaligi ko‘rsatkichlari bo‘yicha statistik to‘plamlar).
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
6. Abdurahmonov Q.X. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti. Darslik. – Toshkent, 2018.
7. Pardaev M.Q. va boshqalar. Qishloq xo‘jaligida innovatsion texnologiyalar va ularning samaradorligi. – Samarqand, 2020.
8. Tursunov S. va boshqalar. Surxondaryo tarixi. – Toshkent: Sharq, 2004. (Viloyatning agrar salohiyati bo‘yicha tarixiy asoslar uchun).
9.Ergashev R.H. "Surxondaryo viloyatida tomchilatib sug‘orish texnologiyasining iqtisodiy samaradorligi". // O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi jurnali, 2021, №4.
9. Boboqulov A. "Janubiy hududlarda klaster tizimining rivojlanishi: muammo va yechimlar (Surxondaryo viloyati misolida)". // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2022.
10. Xolmo‘minov A. "Surxondaryo viloyatida meva-sabzavotchilikni innovatsion rivojlantirish istiqbollari". // Agro ilm, 2023.
11. Mamatov A. "Agrar sohada raqamli texnologiyalarni joriy etish: Surxondaryo tajribasi". // Science and Education, 2024.
4. Elektron resurslar
13. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi rasmiy sayti – agro.uz
14. Lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

O‘RTA OSIYO MUTAFAKKIRLARINING EKOLOGIK TARBIYA HAQIDAGI ILMIY-FALSAFIY QARASHLARI

ANNAYEVA ZARIFA MUSURMONQULOVNA

Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasi katta o‘qituvchisi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Ushbu maqolada O‘rta Osiyolik mutafakkirlarning ekologik tarbiya to‘g‘risidagi qarashlari tarixiy-manaviy manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda “Avesto”dagi tabiatga ehtirom, suv, yer, havo va olovni asrashga oid qarashlar, shuningdek, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abdurauf Fitrat kabi allomalarning ekologik madaniyat, gigiena, tabiatni sevish va atrof-muhitni muhofaza qilishga doir fikrlari yoritilgan.

В данной статье на основе историко-духовных источников анализируются взгляды мыслителей Средней Азии на экологическое воспитание. В исследовании освещаются идеи «Авесты» о почитании природы, охране воды, земли, воздуха и огня, а также экологические, гигиенические и нравственные взгляды таких мыслителей, как Абу Наср Фараби, Абу Али ибн Сина, Абу Райхан Беруни и Абдурауф Фитрат.

This article analyzes the views of Central Asian thinkers on environmental education based on historical and spiritual sources. The study examines the ideas in the Avesta concerning respect for nature and the protection of water, land, air, and fire, as well as the ecological, hygienic, and moral views of such scholars as Abu Nasr al-Farabi, Abu Ali ibn Sina, Abu Rayhan Beruni, and Abdurauf Fitrat.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

Ekologik tarbiya, O‘rta Osiyo, Avesto, tabiat, suv, havo, gigiena, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abdurauf Fitrat, Forobiy, ekologik madaniyat.

Экологическое воспитание, Средняя Азия, Авеста, природа, вода, воздух, гигиена, Абу Али ибн Сина, Абу Райхан Беруни, Абдурауф Фитрат, Фараби, экологическая культура.

Environmental education, Central Asia, Avesta, nature, water, air, hygiene, Abu Ali ibn Sina, Abu Rayhan Beruni, Abdurauf Fitrat, al-Farabi, ecological culture.

Ekologik tarbiya bugungi kunda global muammolardan biri hisoblanadi. Biroq bu masala zamonaviy davr mahsuli emas, balki qadimdan shakllangan ijtimoiy va ma’naviy qadriyatlar tizimining tarkibiy qismidir. O‘rta Osiyoda yashab ijod qilgan mutafakkirlar tabiatni asrash, uni e’zozlash va inson bilan tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlashga alohida e’tibor qaratganlar.

O‘rta Osiyoda ekologik tafakkur tasodifiy yoki zamonaviy hodisa emas. U xalqning turmush tarzi, dehqonchilik va chorvachilik madaniyati, iqlim sharoiti, suvga bog‘liq xo‘jalik an’analari bilan chambarchas bog‘liq holda shakllangan. Ayniqsa, qurg‘oqchil iqlim va sug‘orma dehqonchilikka asoslangan xo‘jalik tizimi tabiatga ehtiyotkorona yondashuvni taqozo qilgan. Shu sababli yer, suv, havo va olovga nisbatan hurmat O‘rta Osiyo xalqlari tafakkurida eng muhim qadriyatlardan biri bo‘lib kelgan.

O‘rta Osiyoda ekologik tarbiya haqidagi eng qadimiy va muhim manbalardan biri zardushtiylikning muqaddas kitobi — “Avesto”dir. Unda yer, tuproq, daryolar, ko‘llar, bog‘lar, tog‘lar, o‘simlik va giyohlar ulug‘lanadi. Ona zaminni e’zozlash, suvni hayot manbai sifatida qadrlash, quyosh, olov va havoni muqaddas deb bilish “Avesto”ning markaziy g‘oyalaridan biri sanaladi. Zardushtiylik ta’limotiga ko‘ra, insonning ruhan va axloqan komilligi uning ezgulikka intilishi, rost yo‘lni tanlashi, kasb-hunarni ulug‘lashi va Axuramazda farzlarini ado etishi bilan belgilanadi. Bunda mehnat, ayniqsa, yerga ishlov berish, don ekish, chorvani parvarishlash, cho‘lda bog‘ yaratish,

sho‘r yerlarni yuvish va ziroatni ko‘paytirish nafaqat iqtisodiy faoliyat, balki ma’naviy poklik mezoni sifatida ham talqin etiladi.[2. 266] Demak, “Avesto”da tabiatni obod qilish insoniy fazilatlarning amaliy ifodasi sifatida ko‘rilgan. “Avesto”da ekologik tarbiyaning muhim jihatlaridan biri — tabiat unsurlarini ifloslantirmaslik haqidagi qat’iy talabdir. Zardushtiylikda suv va havoni iflos qilish, suvga nopok narsalarni tashlash gunoh deb baholangan. Anhor va ariq bo‘ylarida mol boqish, otlarni bog‘lash, suvga tupurish, axlat supurish, toza yuvilmagan idishlarda suv olish odob-axloqqa zid harakat sifatida qoralanadi.[7. 99] Bu esa qadimgi ajdodlarimizning ekologik madaniyati nihoyatda yuksak bo‘lganini ko‘rsatadi.

“Avesto”ning “Vendidod” qismida nafaqat tibbiyot va gigiena, balki atrof-muhitni asrashga oid aniq ko‘rsatmalar ham berilgan. Yer, olov, suv va havoni ifloslantirish og‘ir gunoh ekani bir necha bor ta’kidlanadi. Quduq, hovuz, chashma va anhorlarni iflos qilganlarga jazo belgilanishi esa ekologik tartib-qoidalar diniy-axloqiy me’yor darajasiga ko‘tarilganini ko‘rsatadi. Bu holat qadimgi jamiyatda ekologik tarbiya faqat nasihat emas, balki ijtimoiy nazorat vositasi bo‘lganini anglatadi. Shuningdek, ichimlik suvi manbalari bo‘yiga mevali daraxtlar ekish, bog‘-rog‘ barpo etish, suvni pok saqlash bilan birga, inson salomatligini himoya qilishga xizmat qilgani alohida e’tiborga loyiqdir. Demak, “Avesto”dagi ekologik qarashlar tabiatni asrash, inson salomatligini saqlash va jamiyat farovonligini ta’minlashni yagona tizim sifatida ko‘radi.

O‘rta Osiyo tafakkurida ekologik tarbiyaning yana bir muhim ko‘rinishi tarixiy-geografik manbalarda namoyon bo‘ladi. Abul Hasan Ali Ma’sudiy Quyi Amudaryo vohasi haqidagi ma’lumotlarida Amudaryoning tog‘lardan boshlanib, Termiz yonidan o‘tishi va Xorazm vohasining ko‘plab kanallar orqali undan suv olishini qayd etadi. Bu ma’lumotlar qadimdan suv resurslaridan oqilona foydalanish va vohalarni obod etish madaniyati shakllanganini ko‘rsatadi. Abu Ishoq Istaxriy “Iqlimlar kitobi” asarida Turkiston xaritasini tuzib, Amudaryo va Sirdaryoning Orol dengiziga quyilishini ko‘rsatadi.[1. 145] Bu nafaqat geografik bilim darajasining yuksakligini, balki suv tizimlari va ularning hududiy hayotdagi ahamiyati chuqur anglanganini ham tasdiqlaydi. Demak, tarixiy-geografik tafakkurda tabiatni bilish va undan foydalana olish ham ekologik madaniyatning bir qismi bo‘lgan.

Abu Nasr Forobiy Sharq ilm-fani va falsafasining ulkan namoyandasi sifatida inson organizmi, dorivor o‘simliklar va hayvonot dunyosi haqidagi qarashlari bilan ekologik bilimlar rivojiga hissa qo‘shgan. Uning “Hindiston dorilari va dorivor o‘simliklari”, “Inson a’zolari haqida risola”, “Hayvon a’zolari haqida so‘z” kabi asarlari tabiatshunoslik, tibbiyot va fiziologiya sohasida muhim manbalar hisoblanadi. Forobiy asarlarida tabiatni ilmiy asosda o‘rganish g‘oyasi kuchli. U inson salomatligi, organizm faoliyati va tabiiy muhit o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglashga intiladi. Uning ilmiy yondashuvi ekologik tarbiya uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki ekologik tarbiya faqat hissiy munosabat emas, balki tabiat hodisalarini ilmiy tushunish, ularning sabab-oqibat aloqalarini anglashga ham asoslanadi. Forobiyning ilmiy qarashlari Yevropa olimlaridan ancha avval shakllangan bo‘lib, bu holat Sharq va O‘rta Osiyo ilmiy tafakkurining yuksak darajada bo‘lganini ko‘rsatadi. Uning merosida inson, tabiat va bilim uchligi o‘zaro uzviy bog‘langan.

O‘rta Osiyo mutafakkirlari orasida Abu Ali ibn Sino ekologik tarbiya masalasini eng chuqur ilmiy asosda yoritgan allomalardan biridir. U matematika, astronomiya, fizika, kimyo, biologiya, tibbiyot, dorishunoslik, ruhshunoslik, falsafa va pedagogika singari ko‘plab fanlar bilan shug‘ullangan qomusiy olim sifatida tabiat va inson salomatligi o‘rtasidagi aloqani keng qamrovda tushuntirgan. Ibn Sinoning “Al-Qonun fit-tibb”, “Ash-Shifo”, “An-Najot”, “Donishnoma” kabi asarlarida tashqi muhitning inson organizmiga ta’siri, parhez, sog‘liqni saqlash, shaxsiy gigiena va yuqumli kasalliklarning tarqalish omillari ilmiy jihatdan sharhlanadi. U suv, yer va havodagi mo‘tadillikning buzilishi kasalliklarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lishini ta’kidlaydi. Yashash joyining torligi, ozoda bo‘lmasligi, aholi zich joylashuvi va iflos havo yuqumli kasalliklarning keng tarqalishiga qulay sharoit yaratishini ko‘rsatadi. Ibn Sinoning “Agar havoda chang va g‘ubor bo‘lmaganida edi, inson ming yil umr ko‘rgan bo‘lar edi” degan mashhur fikri ekologik madaniyatning naqadar teran anglanganini bildiradi.[5. 45] Bu ibora bugungi kunda ham

havoni ifloslantirmaslik, atrof-muhitni ozoda saqlash, inson salomatligini ekologik omillar bilan bog‘liq holda tushunish nuqtai nazaridan nihoyatda dolzarbdir. Alloma tabiatni faqat moddiy ne’matlar manbai sifatida emas, balki insonning ruhiy va jismoniy quvvat oladigan makoni sifatida talqin qiladi. U ayrim kasalliklarni davolashda qum, tuproq, suv va o‘simliklardan foydalanish zarurligini ham ta’kidlaydi. Demak, Ibn Sino qarashlarida ekologik tarbiya, tibbiy madaniyat va ma’rifiy tarbiya yagona tizimni tashkil qiladi. Shuningdek, Ibn Sino yosh avlodni ilmli, ma’rifatli, tabiatni sevuvchi, insonparvar va mehnatsevar etib tarbiyalash g‘oyasini ilgari suradi. Shu jihatdan uning ekologik qarashlari nafaqat tibbiyot, balki pedagogika tarixida ham alohida o‘rin egallaydi.

Abu Rayhon Beruniy O‘rta Osiyo ilmiy tafakkurining eng yirik namoyandalaridan biri bo‘lib, uning asarlarida ekologik qarashlar nihoyatda keng va chuqur yoritilgan. “Saydana” asarida 1118 turdagi dorivor modda, jumladan, 750 ta o‘simlik va 101 tur hayvon haqida ma’lumot berilishi allomaning tabiat dunyosini qanchalik teran o‘rganganini ko‘rsatadi.[6. 88] U o‘simlik, hayvon, mineral va ulardan olinadigan mahsulotlar haqidagi bilimlarni tizimlashtirgan. Beruniyning tabiatga doir qarashlarida ekologik muvozanat g‘oyasi yaqqol seziladi. Uning inson tabiat qonunlarini qo‘pollik bilan buzsa, bir kun kelib tabiat bunga javoban kulfatlar keltirishi mumkinligi haqidagi fikri bugungi global ekologik muammolarni oldindan sezgan donishmandona ogohlantirish sifatida baholanishi mumkin. Bu qarash ekologik tarbiyaning eng muhim tamoyillaridan biri — tabiatga zo‘ravonlik qilmaslik g‘oyasini ifodalaydi. “Geodeziya” asarida Orol dengizi, Amudaryoning qadimgi o‘zanlari, Kalif va Uzboy haqidagi mulohazalari Beruniyning tabiiy jarayonlarni tarixiy-geologik o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda tushunganini ko‘rsatadi. U Qizilqum va Qoraqum hududlarining o‘tmishda suv ostida bo‘lganini dengiz hayvonlari qoldiqlari orqali izohlashga harakat qiladi. Bu esa tabiatga tarixiy-dinamik yondashuvning dastlabki ko‘rinishlaridan biridir. Beruniy tabiatshunos sifatida yer yuzidagi hayvonot va o‘simliklar ko‘payishga intilishi, yashash uchun kurashi haqidagi mulohazalarni ham ilgari suradi. Uning o‘simlik va hayvonlarning tashqi muhit bilan aloqasi, xulq-atvorining fasllarga ko‘ra o‘zgarishi haqidagi kuzatishlari ekologik tafakkurning ancha rivojlangan shakliga mansubdir. Shu sababli Beruniy merosi O‘rta Osiyoda ekologik bilimlarning ilmiy asoslarini shakllantirgan muhim manbalardan biri hisoblanadi.

Jadidchilik harakatining yirik namoyandasi Abdurauf Fitrat asarlarida ham ekologik tarbiyaning muhim jihatlari aks etgan. U atrof-muhitga, tabiatga, tozalik va ozodalikka bo‘lgan munosabatni jamiyat taraqqiyoti va komil inson tarbiyasi bilan bog‘liq holda ko‘radi. Fitratning “Munozara”, “Hind sayyohining qissasi”, “Rahbari najot” singari asarlarida shaharu qishloqlardagi tozalik, sanitariya, jismoniy mehnat, iqtisodiy tarbiya va sog‘lom turmush tarziga alohida urg‘u beriladi.[3. 77] Fitrat bolalar tarbiyasida pokizalik va nafosatni hal qiluvchi omillardan biri sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, tozalik katta yoshdagi inson uchun qanchalik muhim bo‘lsa, bolalar uchun undan ham zarurdir. Bu qarashning zamirida ekologik tarbiya, gigienik madaniyat va shaxsiy mas’uliyat tushunchalari yotadi. Fitratning tozalikni tarbiyaning ajralmas qismi deb bilishi ekologik tarbiyaning maishiy, ma’naviy va pedagogik jihatlarini birlashtiradi.

Yuqoridagi manbalar tahlili O‘rta Osiyoliklar ekologik tarbiya haqidagi qarashlarini bir necha asosiy yo‘nalishlarga ajratish imkonini beradi.

Birinchidan, tabiatni muqaddas ne’mat sifatida e’zozlash g‘oyasi ustuvor o‘rin tutadi. “Avesto”da yer, suv, havo, olovning muqaddaslashtirilishi ayni shu tamoyilni ifodalaydi.

Ikkinchidan, tozalik va gigiena madaniyati ekologik tarbiyaning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Fitrat va Ibn Sino asarlarida toza havo, pokizalik, yashash joylarining ozodaligi va shaxsiy gigiena masalalari inson salomatligining asosi sifatida ko‘rsatiladi.

Uchinchidan, suv resurslaridan oqilona foydalanish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Sug‘orish tizimlari, kanallar, anhorlar va bog‘larning bunyod etilishi O‘rta Osiyo xalqlari ekologik tafakkurining amaliy ifodasidir.

To‘rtinchidan, tabiat va inson salomatligi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik markaziy o‘rin egallaydi. Ibn Sino va Forobiy asarlarida tashqi muhitning inson organizmiga ta’siri, dorivor

o‘simliklar va tabiiy omillarning davolovchi xususiyatlari bu fikrni mustahkamlaydi.

Beshinchidan, ilmiy kuzatuv va tabiat hodisalarini anglash yo‘nalishi Beruniy va boshqa olimlar merosida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu esa ekologik tarbiya faqat axloqiy-chaqiriq emas, balki ilmiy tafakkur mahsuli ekanini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, O‘rta Osiyoliklarning ekologik tarbiya to‘g‘risidagi qarashlari juda qadimiy, teran va ko‘p qirrali tarixiy ildizlarga ega. Zardushtiylik va “Avesto”da tabiat unsurlarini muqaddaslashtirish, yer-suvni asrash, havoni pok saqlash g‘oyalari ilgari surilgan bo‘lsa, keyingi davrlarda bu qarashlar mutafakkirlar merosida ilmiy va pedagogik mazmun bilan boyib borgan. Abdurauf Fitrat ekologik tarbiyani tozalik, pokizalik va bolalar sog‘lig‘i bilan bog‘lagan bo‘lsa, Abu Nasr Forobiy tabiatni ilmiy o‘rganish asoslarini mustahkamlagan. Abu Ali ibn Sino tashqi muhit va inson salomatligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur tahlil etib, gigienik madaniyatga katta ahamiyat bergan. Abu Rayhon Beruniy esa tabiat hodisalarini kuzatish, o‘simlik va hayvonot dunyosini ilmiy tasniflash, ekologik muvozanat g‘oyasini ilgari surish orqali ekologik tafakkur taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan. Amir Temur davridagi sug‘orish inshootlari va bog‘dorchilik madaniyati esa ekologik bilimlarning amaliy boshqaruv darajasiga ko‘tarilganini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1) Hasanov H. O‘rta osiyolik geograf va sayyohlar. – Toshkent: O‘zbekiston, 1974.
2) Mualliflar jamoasi. Avesto vorislari (fotoalmanax). – Urganch: Xorazm, 2001.
3) Baratov P. O‘zbekiston tabiiy geografiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
4) Nigmatov A.M. O‘zbekistonning ekologik siyosati // Ekologiya xabarnomasi. – 2000. – №6. – B. 8.
5) Абу Али ибн Сино. Тиб қонунлари: 3 жилдли. 1-жилд. – Тошкент: Халқ мероси нашриёти, 1992. – 45 б.
6) Абу Райҳон Беруний. Избранные произведения. Т. II: Определение границ мест для уточнения расстояний между населенными пунктами (Геодезия). – Ташкент: Фан, 1966. – 83 с.
7) Собиров У. Экологик маданият шаклланиши тарихидан // Экология хабарномаси. – 2005. – №3. – Б. 17.

XX ASR BOSHLARIDA O‘ZBEKISTON HUDUDIDA HUNARMANDCHILIKNING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHI

ESHMO‘MINOV OZODBEK ZIYODULLA O‘G‘LI

Termiz davlat universiteti “Jahon tarixi” kafedrasi o‘qituvchisi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
eshmominovozodbek72@gmail.com

ABDURAXMONOV ISOQJON

Termiz davlat universiteti Magistratura bo‘limi, Tarix mutaxassisligi II-bosqich magistranti

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Maqolada XX asr boshlarida O‘zbekiston hududida hunarmandchilikning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o‘rni va rivojlanish jarayonlari yoritilgan. Hunarmandchilikning shahar va qishloqlarda keng tarqalishi hamda bozor munosabatlaridagi ishtiroki tahlil qilingan. Chorizm davrida hunarmandchilikka texnika kirib kelishi, ayrim tarmoqlarning qisqarishi va boshqalarning rivojlanishi ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, hududiy ixtisoslashuv (Rishton, Marg‘ilon, Chust va boshqalar) misolida an’anaviy hunarmandchilik markazlari tasvirlangan. Matnda hunarmandchilikning tarixiy ildizlari va uning iqtisodiy hamda madaniy ahamiyati ta’kidlangan.

В статье освещается роль и процессы развития ремесел в социально-экономической жизни Узбекистана в начале XX века. Анализируется широкое распространение ремесел в городах

и селах, а также их участие в рыночных отношениях. Показано внедрение техники в ремесла в период царизма, сокращение одних отраслей и развитие других. Также описаны традиционные центры ремесел на примере территориальной специализации (Риштан, Маргилан, Чуст и др.). В тексте подчеркиваются исторические корни ремесла, его экономическое и культурное значение.

The article covers the role of crafts in socio-economic life and development processes in the territory of Uzbekistan at the beginning of the 20th century. The prevalence of crafts in cities and villages and their participation in market relations have been analyzed. The introduction of machinery into crafts during the Tsarist period, the decline of some industries, and the development of others are shown. Traditional craft centers are also described, using the example of regional specialization (Rishton, Margilan, Chust, etc.). The text highlights the historical roots of handicrafts and their economic and cultural significance.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

Hunarmandchilik, XX asr boshlari, O‘zbekiston, Chorizm mustamlakachiligi, kosiblik, to‘quvchilik, texnika va mexanizmlar, Rishton, Marg‘ilon, Chust, Buxoro, Xiva, hududiy ixtisoslashuv, ustoz-shogird an’anasi, sanoatlashuv.

Ремесла, начало XX века, Узбекистан, царизм, колонизация, косыб, ткачество, техника и механизмы, Ришон, Маргилан, Чуст, Бухара, Хива, территориальная специализация, традиция мастера-ученика, индустриализация.

Crafts, beginning of the 20th century, Uzbekistan, colonization of Chorism, cosmology, weaving, techniques and mechanisms, Rishton, Marghilon, Chust, Bukhara, Khiva, territorial specialization, master-disciple tradition, industrialization.

XX asr boshlariga kelib, O‘zbekiston hududida yashovchi aholi hayotida dehqonchilik va chorvachilik bilan bir qatorda hunarmandchilik ham muhim o‘rin egalladi. Bu davrga kelib hunarmandchilik nafaqat shaharlar, balki qishloq hududlarida ham keng tarqalib, aholining kundalik turmushini ta’minlovchi asosiy iqtisodiy tarmoqlardan biriga aylandi. Hunarmandchilik mahsulotlari faqat ichki ehtiyojni qondirib qolmasdan, balki bozor munosabatlarining rivojlanishi natijasida ma’lum darajada tashqi savdo aylanmasida ham ishtirok eta boshladi. Shu boisdan, hunarmandlar jamiyatning iqtisodiy hayotida muhim o‘rin tutuvchi qatlam sifatida shakllandi.

Chorizm mustamlakachiligi davrida hunarmandchilik tizimi murakkab holatda rivojlandi. Statistik manbalarda kosib-hunarmandchilik ustaxonalari soni haqida turli xil va ba’zan bir-biriga zid ma’lumotlar uchraydi. Buning asosiy sababi, ko‘plab tadqiqotchilar faqat rasmiy ro‘yxatdan o‘tgan, soliq to‘lovchi ustaxonalarni hisobga olganlar. Natijada, o‘z uyida ishlaydigan, mustaqil ustaxonaga ega bo‘lmagan yoki dehqonchilik bilan qo‘shib hunar bilan shug‘ullanuvchi kosiblar ro‘yhatga olishdan chetda qolgan. Ayniqsa, qishloq hududlaridagi hunarmandlar hamda Buxoro va Xiva hududlaridagi kosiblar to‘g‘risidagi ma’lumotlar juda kam qayd etilgan.

Shu sababli, o‘sha davr hunarmandchiligining haqiqiy miqyosini aniqlash bugungi kungacha murakkab masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.[1:163] Tarixiy manbalarga ko‘ra, 1913 yilda Turkiston o‘lkasining o‘troq hududlarida umumiy hunarmandchilik korxonalari soni 108 mingga yaqin bo‘lgan. Ularning yillik mahsulot ishlab chiqarish hajmi 60 million so‘mni tashkil etgan bo‘lib, har bir korxonaga o‘rtacha 555 so‘mdan to‘g‘ri kelgan.[2:176] 1917 yil oktabr voqealaridan keyingi dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, faqat Turkistonning o‘troq hududlarida 95 709 ta kosiblik korxonalari mavjud bo‘lgan. Buxoro amirligi va Xiva xonligi hududlari bilan birgalikda bu ko‘rsatkich 105–118 ming atrofida deb baholanadi.[2:176] Bu raqamlar hunarmandchilikning o‘sha davrda qanchalik keng tarqalganini va iqtisodiy hayotda muhim rol o‘ynaganini ko‘rsatadi. XX asr boshlarida

O‘zbekiston hududida hunarmandchilikning juda ko‘plab turlari mavjud edi. Ular orasida quyidagilar alohida ajralib turadi: Kulolchilik, zargarlik, to‘quvchilik, tikuvchilik, temirchilik, duradgorlik, misgarlik, gilam to‘qish, kashtachilik, etikdo‘zlik, nonvoylik va qandolatchilik va hokozolar.

O‘zbekiston hunarmandchiligi juda qadimiy tarixga ega bo‘lib, uning ildizlari O‘rta Osiyo tarixi bo‘yicha eng qadimgi yozma manba bo‘lgan “Avesto” davriga, qadimgi yunon tarixchilari asarlariga va Abu Rayhon Beruniy kabi allomalarning yozuvlariga borib taqaladi. Qadimgi yunon tarixchilaring asarlarida ham o‘lkada hunarmandchilik mavjud ekanligi qayd etilgan. Ammo Sovet davlati bosqinidan so‘ng o‘lkada paxtachilikka kata e’tibor berilishi natijasida hududda hunarmandchilik inqirozga yuz tutdi. Masalan, Chorizm mustamlakachiligining birinchi yilida Toshkentning Shayxontohur qismida 567 ta to‘quvchilik korxonasi bo‘lgan bo‘lsa, 1912 yilga kelib ularning soni 42 taga tushib qolgan.[3:180]

Shunga qaramay ayrim hududlarda hunarmandchilikning ma’lum turlariga ixtisoslashuv shakllandi. Bu albatta tarixiy-iqtisodiy sharoitlar, tabiiy resurslar mavjudligi hamda avloddan-avlodga o‘tib kelgan kasbiy an’analar bilan bevosita bog‘liq edi. Shu jihatdan hududdagi ayrim markazlar o‘zining aniq yo‘nalishi bilan ajralib turadi. Masalan, Rishton kulolchilik san’ati bilan mashhur bo‘lib, bu yerda sopol buyumlar ishlab chiqarish juda qadimiy davrlardan shakllangan.

Marg‘ilon qadimdan ipakchilik va to‘quvchilik markazi sifatida tanilgan. Bu hududda pillachilik va ipak iplarini qayta ishlash uchun tabiiy sharoitlar qulay bo‘lib, aholining ko‘p qismi shu soha bilan shug‘ullangan. Marg‘ilon ustalari tomonidan to‘qilgan atlas, adras, beqasam kabi matolar o‘zining nafisligi, rang-barangligi va sifatli to‘qilishi bilan ajralib turgan. Ayniqsa, an’anaviy bo‘yash usullari va tabiiy bo‘yoqlardan foydalanish matolarga o‘ziga xos milliy estetik ko‘rinish bergan. Yana bir muhim markaz Chust bo‘lib, u pichoqchilik hunari bilan dong taratgan. Chust pichoqlari o‘zining mustahkamligi, o‘tkirligi va nafis bezaklari bilan mashhur bo‘lgan. Bu yerda temirga ishlov berish, uni toblash va bezash texnologiyalari avloddan-avlodga o‘tib kelgan kasbiy tajriba asosida rivojlangan. Pichoq soplari ko‘pincha suyak, yog‘och yoki metall bezaklar bilan ishlanib, har bir mahsulot nafaqat mehnat quroli, balki san’at asari sifatida ham qadrlangan.

Umuman olganda, bu kabi hududiy ixtisoslashuv O‘zbekiston hunarmandchiligining yuqori darajada rivojlanganini ko‘rsatadi. Har bir markaz o‘zining tabiiy resurslari, iqtisodiy ehtiyojlari va ustoz-shogird an’analari asosida shakllanib, milliy madaniyat va iqtisodiyotning muhim bo‘g‘iniga aylangan.

Tarixiy manbalarda O‘rta Osiyo hududi qadimdan rivojlangan shaharlar, savdo yo‘llari va yuqori darajada rivojlangan hunarmandchilik markazlari sifatida tasvirlangan. Chor Rossiyasi istilosi hunarmandchilik tizimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Bir tomondan, ayrim sohalarda texnik vositalar kirib kelib ishlab chiqarish hajmini oshirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, fabrika mahsulotlari raqobati natijasida ko‘plab mahalliy ustaxonalar qisqara boshladi.

Masalan, temir mahsulotlari, matolar va uy-ro‘zg‘or buyumlari Rossiyadan olib kelingan sanoat mahsulotlari bilan raqobatlasha olmadi. Natijada, ayrim hunarmandchilik tarmoqlari inqirozga yuz tutdi.

Shunga qaramasdan, qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq hunarmandchilik tarmoqlari, xususan, ketmon, omoch, o‘roq, bolta kabi asboblar ishlab chiqarish rivojlanishda davom etdi. Hunarmandlar ko‘pincha oilaviy asosda ishlagan. Ustaxonalar kichik bo‘lib, usta, uning oila a’zolari va shogirdlardan iborat bo‘lgan. Hunar avloddan-avlodga meros sifatida o‘tgan. Shogirdlik tizimi keng tarqalgan bo‘lib, shogird uzoq yillar davomida ustozdan hunar o‘rgangan va mustaqil ishlash huquqini olgan. XX asr boshlarida hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarish jarayoniga asta-sekin yangi texnika va mexanizmlar kirib kela boshladi. Masalan, g‘isht ishlab chiqarishda yangicha konstruksiyadagi kuydirish pechlari qo‘llanila boshlandi, Toshkentdagi quyish kichik korxonasida esa ishlab chiqarish “nafasini” yangilagan havo almashinuvi mexanizmi ishga tushirildi. Zargarlar uchun esa Rossiyadan qo‘l mehnatini yengillashtiruvchi, ammo aniqlikni oshiruvchi qo‘lda ishlaydigan prokat stanogi keltirildi va

shu tariqa hunar ustaxonalariga yangi “temir qo‘llar” kirib kela boshladi.

Shuningdek, tikuvchilar va to‘quvchilarning kundalik hayotiga ham texnika asta-sekin kirib bordi - igna va charxning o‘rnini tobora tikuv va to‘quv mashinalari egallay boshladi. Natijada, avval har bir ipga sabr bilan jon beradigan ustalar endi mashina tezligiga moslashishga majbur bo‘ldilar. To‘quvchilar va gilamchilar mahsulotlariga rang berishda esa turli sun’iy bo‘yoqlardan foydalanish kengaydi. Bu yangi bo‘yoqlar rang berish jarayonini bir necha barobar tezlashtirib, ishlab chiqarishni oshirdi, ammo shu bilan birga mahsulotlarning avvalgi tabiiy jilosi va nafisligini biroz so‘ndirgandek bo‘ldi. Paxtadan va ipakdan ip hamda mato to‘qishda yangi texnika joriy etilishi esa ishlab chiqarishni keskin oshirdi. Bu o‘zgarishlar to‘quvchilikni oddiy hunarmandlik darajasidan asta-sekin sanoatlashuv yo‘liga olib chiqdi. Natijada, Chor mustamlakachiligi yillarida to‘qimachilik, qalay quyish va boshqa hunarmandchilik tarmoqlari kengayib, asta-sekin kichik ustaxonalardan yirikroq korxona shakliga o‘ta boshladi - go‘yoki eski qo‘l mehnati bilan yangi mashina davri o‘rtasida ko‘prik qurilgandek edi.[4:183]

Bu jarayon ishlab chiqarishni tezlashtirgan bo‘lsa-da, mahsulotlarning an’anaviy sifati va qo‘lda ishlangan san’at qiymatini ma’lum darajada kamaytirdi. Turli hududlar o‘zining hunarmandchilik yo‘nalishi bilan ajralib turgan: Marg‘ilon – ipak matolar, Rishton – kulolchilik, Chust – pichoqchilik, Buxoro – zargarlik va zardo‘zlik, Xiva – naqshkorlik va yog‘och o‘ymakorligi, Samarqand – aravachilik va duradgorlik va hokozolar. Bu hududiy ixtisoslashuv milliy hunarmandchilikning yuqori darajada rivojlanganidan dalolat beradi. Umuman olganda, XX asr boshlarida O‘zbekiston hududida hunarmandchilik xalqning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim o‘rin tutgan. U nafaqat iqtisodiy ehtiyojlarni qondirgan, balki madaniy va ma’naviy hayotning ham ajralmas qismi bo‘lgan. Hunarmandchilik tizimi o‘zining murakkabligi, keng tarmoqliligi va tarixiy ildizlari bilan ajralib turadi. Mustamlaka davridagi o‘zgarishlarga qaramasdan, u milliy iqtisodiyotning asosiy tayanchlaridan biri bo‘lib qolgan. Bugungi kunda ham ushbu tarixiy tajriba O‘zbekistonning zamonaviy hunarmandchilik va kichik biznes rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. А.Тўхтаев. “Ўзбекистонда миллий ҳунармандчилик ва уни “социалистик” асосда саноатлаштиришнинг ижтимоий оқибатлари (1917 – 1941 йиллар)”.
2. История Узбекской ССР. В 4 – х томах. Т.II. – Т., 1968. - С. 176.
3. История Узбекской ССР. Т.II. – Т., 1968, - С.180.
4. История Узбекской ССР. Т. III. – Т., 1968. - С. 183.

MIRZO SOMIY SHAXSIY ARXIVIDAGI BA`ZI HUJJATLAR TAHLILI

KALANDAROVA FERANGIZ AZAMATOVNA

Buxoro davlat universiteti,
Ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ferangizazamatovna@gmail.com

Annotatsiya / Аннотация / Abstract
Mazkur maqolada Mirzo Somiy shaxsiy arxivida saqlanayotgan qo‘lyozma hujjatlarning tarkibi, mazmuniy xususiyatlari hamda saqlanish holati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida arxiv materiallari turkumlanib, ularning tematik va strukturaviy jihatlari aniqlangan. Xususan, she’riy asarlar, rasmiy yozishmalar, qoralama daftarlar hamda diniy mazmundagi matnlar muallifning serqirra ijodiy va ilmiy faoliyatini yoritib beradi. Shuningdek, hujjatlarning fizik holati va saqlanish darajasi o‘rganilgan. Maqolada arxiv materiallarining muzey fondiga kelib tushish tarixi ham tahlil qilinadi.
В данной статье проводится научный анализ состава, содержательных особенностей и состояния сохранности рукописей, хранящихся в личном архиве Мирзо Соми. В ходе исследования архивные материалы были классифицированы, а их тематические и структурные аспекты определены. В частности, поэтические произведения, официальная переписка, черновики и тексты религиозного содержания проливают свет на разнообразную творческую и научную деятельность автора. Также изучены физическое состояние и уровень сохранности документов. В статье также анализируется история поступления архивных материалов в музейный фонд.
This article analyzes the composition, content features, and preservation condition of manuscript documents stored in the personal archive of Mirzo Somiy. During the research process, archival materials were classified, and their thematic and structural characteristics were identified. In particular, poetic works, official correspondence, draft notebooks, and religious texts reflect the author’s multifaceted creative and scholarly activity. In addition, the physical condition and level of preservation of the documents were examined. The article also discusses the history of how these archival materials were incorporated into the museum collection.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords
shaxsiy arxiv, qo‘lyozma manbalar, tarixiy hujjatlar, Buxoro muzeyi, arxiv materiallari, yozma meros.
личный архив, рукописные источники, исторические документы, Бухарский музей, архивные материалы, письменное наследие.
personal archive, manuscript sources, historical documents, Bukhara Museum, archival materials, written heritage

Tarixiy merosni o‘rganishda shaxsiy arxiv hujjatlari muhim manba hisoblanadi. Mirzo Somiyga shaxsiy arxiviga tegishli qo‘lyozma materiallar XIX–XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ilmiy muhitni yoritishda alohida ahamiyatga ega. Mazkur hujjatlarni ilmiy asosda tadqiq etish milliy tarixni chuqurroq anglash, yozma merosni saqlash va arxivshunoslikni rivojlantirish nuqtayi nazaridan dolzarbdir.

Mirzo Somiy(1838-1907) mang‘it amirlaridan amir Muzaffar(1860-1885) va bir muddat amir Abdulahad(1885-1910) saroyida mirzolik qilgan. Undan nafaqat adabiy ijod namunalari, balki turli mazmundagi hujjatlar ham uning shaxsiy arxiv fondida saqlanib qolgan. Mirzo Somiy qalamiga mansub adabiy va tarixiy asarlarning aksariyati ilm ahliga ma’lum bo‘lsa-da, uning shaxsiy arxivi va undagi materiallarning tarkibi, mazmuni,

shuningdek, xolati hali o‘zining to‘liq tahlilini topganicha yo‘q. Ularni o‘rganish va tahlil etish, Mirzo Somiyning hayoti va faoliyatining to‘laqonli manzarasini hosil qilish va boyitishga yordam beradi. Bugungi kunda mazkur hujjatlarni madaniy merosning bir qismi va yozma yodgorlik sifatida tadqiq etish muhim ahamiyatga ega.

Mirzo Somiy qalamiga mansub yozma meros namunalari hozirgi paytda O‘zR FA Sharqshunoslik instituti, Buxoro davlat muzeyi va uning Buxoroda yashovchi avlodlari qo‘lida saqlanmoqda.

Buxoro muzeyida saqlanayotgan Somiy shaxsiy kolleksiyasiga oid materiallarni ma’no-mazmuni, tuzilishi va holatiga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- she’rlar;
- amir nomiga yozilgan xatlar;
- hukumat topshirig‘ining bajarilishi to‘g‘risidagi hisobotlar;
- qoralama daftar;
- turli kitoblardan parchalar;
- diniy mazmundagi hujjatlar;
- Somiy qalamiga mansub asarlar.

Yuqorida keltirilgan turkumlashdan shu narsa ayon bo‘ladiki, shaxsiy kolleksiya materiallari mazmuni jihatidan ancha keng qamrovli. Ya’ni, uning tarkibida muallifning kichik hajmdagi she’rlaridan tortib yirik asarlarigacha bo‘lgan qo‘lyozmalari mavjud. Shuningdek, mazmuniga ko‘ra tugallangan ijod namunalari bilan bir qatorda, tugallanmagan va qoralama vazifasini bajargan hujjatlar ham bor. Bundan tashqari shaxsiy kolleksiya materiallarining mazmuni turli soha va yo‘nalishlarga oid. Bulardan, she’riyat, tarix, tarixshunoslik, adabiyot, hadis ilmi, tafsir, islom tarixi, shariat ilmi, davlat boshqaruvi, harbiy ish kabi soha yo‘nalishlarini sanab o‘tish mumkin. Ularning mazmunidan ko‘rinib turibdiki, kolleksiya muallifi yuqorida sanab o‘tilgan ilm yo‘nalishlaridan yetarlicha bilim va salohiyatga ega bo‘lgan.

Shaxsiy kolleksiya materiallarini tuzilishiga ko‘ra tahlil qiladigan bo‘lsak, ularni quyidagicha turkumlash mumkin:

- bir varaqdan iborat xujjatlar;
- mayda kitobcha shaklidagi hujjatlar;
- to‘liq kitob shaklidagi asarlar.

Bir varaqdan iborat hujjatlarda asosan Somiyning she’rlari, maktublari, qoralama varaqlari, hisobotlari, hadislardan namuna, “Ixlos” surasining tahlili yozilgan. Turli kitoblarning butun qolgan sahifalari ham alohida bir varaqdan iborat. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, ba’zi hujjatlar kichkina varaqda yozilgan bo‘lsa (4 qator)[1], ayrim hujjatlar bo‘yiga juda uzun o‘lchamli qog‘ozlarda bitilgan (117 qator)[2]. Kichik kitobcha shaklidagi hujjatga esa Somiyning qoralama daftarini kiritish mumkin.

Hujjatlarning holatiga ko‘ra turkumlaydigan bo‘lsak, ularning aksariyati yaxshi holda saqlangan. Bir varaqdan iborat hujjatlar va kitoblarga umuman ziyon yetmagan. Ammo qoralama daftar va turli kitoblarning saqlanib qolgan sahifalari haqida bunday deya olmaymiz. Qoralama daftarning datlabki saxifalari mavjud emas va ba’zi sahifalarining yarmi yirtilgan. Turli mazmundagi kitoblardan ham bir va ikki sahifagina saqlanib qolgan bo‘lib, ular arab tilida yozilgan kitoblarning omon qolgan qismi hisoblanadi. Salkam 43 yil davomida muzeyda saqlanayotgan ijobiy ahvoldagi hujjatlarga qarab shuni aytish mumkinki, shikastlangan hujjatlar muzeyga topshirilgunga qadar shu ahvolda bo‘lgan. Chunki, muzeyning inventar kitobi va ushbu hujjatlarga yozilgan ilmiy pasportlarda hujjatlarning yuqorida ta’kidlangan saqlanish holati qayd etilgan. Ayrimlarini hisobga olmaganda, Mirzo Somiy shaxsiy arxiviga aloqador nuqsonli qo‘lyozma hujjatlar deyarli ta’mirlanmagan.

Mirzo Somiy shaxsiy arxiviga tegishli hujjatlar bugungi kunga qadar yetib kelishi va o‘rganilishida uning avlodlarining xizmatlari katta. Somiy qalamiga mansub ijod namunalarining ba’zilari uning o‘g‘li qori Fayzullo ibn Mirzo Somiy Bo‘stoniydan sotib olingan bo‘lsa, ba’zilari uning nevarasi Mo‘mina Fayzullayevna tomonidan muzey fondiga topshirilgan. Jumladan, muzey fondida “Из архива Мирза Азима Сами” nomi ostida Somiy shaxsiy arxivga oid hujjatlar to‘plami saqlanadi. Uning titul varag‘ida ushbu hujjatlarning muzey fondiga kelib tushish tarixi va qisqacha izohi keltirib o‘tilgan.

Ish yuritish hujjatlarini rus tilida olib borish rusum bo‘lgan sovet davriga xos muzey qaydlarini tarjimasiz, o‘z nomi bilan, rus tilida berishni ma’qul topdik.

Somiyning nevaralari tomonidan muzey fondiga topshirilgan qo‘lyozmalar muzey fondida “Рукописные тексты из личного архива известного Бухарского поэта и каллиграфа Мирза Азима Сами Бустони” nomi ostida saqlanadi[3]. Yig‘ma jilddagi hujjatlar turli soha va mazmunga oid ekanligini ko‘rishimiz mumkin[4].

Bundan tashqari, muzey fondida №13381/11 inventar raqami bilan “Рукописные листы из архива придворного каллиграфа Мирзо Азима Соми Бустони” nomli hujjatlar to‘plami ham o‘zida Somiy shaxsiy arxivning yana bir qator namunalarini jamlagan[7].

Ulardan biri №13381/11(23) inventar raqami ostida saqlanuvchi hujjat[8] bo‘lib, undagi rus atamalari arab imlosida ketma-ket yozilganligi bilan e’tiborimizni tortdi. Hujjatning o‘lchami 18x11sm, xati nasta’liq, qora siyohda yozilgan. Hujjatda rus ish yurituvchilarining lavozimlari uch qatorda ustuncha shaklida birma-bir yozilgan va Somiy ularni quyidagi ketma-ketlikda keltirgan:

Amalhoi mirzoi russiya(rus mirzolarining amallari):

1. Kalishoskiy registratur
2. Guberskiy sekretar
3. Kalishoskiy sekretar
4. Titularnoy sovetnik
5. Kalishoskiy essisvoy
6. Todovornoy sovetnik
7. Kalishoskiy sovetnik
8. Stotskiy sovetnik
9. Distutilnoy stotskiy sovetnik
10. Toiyniy sovetnik
11. Distutilnoy toyniy sovetnik

Yuqoridagi ro‘yxatdan ko‘rinib turibdiki, Somiy XIX asr oxiri XX boshlarida Turkistonda o‘rnatilgan Rossiya imperiyasining davlat-boshqaruvi va unda faoliyat ko‘rsatayotgan mirzolar (sekretarlar yoki hujjat yurituvchilar), ularning unvoni bo‘yicha egallagan lavozimlari ierarxiyasidan xabardor bo‘lgan. Hujjat ro‘yxatida yozilgan unvonlar tartib raqamlar bilan keltirilgan bo‘lib, ular quyidan yuqoriga qarab (o‘sib boruvchi) joylashtirilgan. Somiy hali saroyda faoliyat olib borayotgan bir davrda Buxoroda (yangi Buxoroda, ya’ni Kogonda) 1886-yil Rossiya siyosiy agentligi tashkil etilgan. Somiyning amir Abdulahad (1885-1910) saroyida o‘n yilcha xizmat qilganini inobatga oladigan bo‘lsak, uning agentlik bilan yozishmalar olib borishda mirzo sifatida ishtirok etganligini taxmin qilish, rus hukumatining amaldorlari va ularning nomlanishi haqida keng ma’lumotga ega bo‘lganligini anglash mumkin.

Bundan tashqari, №13381/11(24) raqami ostida yana bir ro‘yxat (rus harbiy unvonlarining ro‘yxati) mavjud bo‘lib, uning ham o‘lchami 18x11, nastaliq xatida, qora siyox bilan 4 qatorda yozilgan va har bir qatorda 5 ta unvonning nomi ketma-ketlikda (quyidan-yuqoriga qarab), tartib raqamlari bilan belgilab yozilgan. Somiy keltirgan rus harbiy unvonlar bilan XIX asr oxirida Rossiya imperiyasi piyoda qo‘shinlarida mavjud bo‘lgan harbiy unvonlar solishtirilganda, ularning deyarli bir xilligiga guvoh bo‘lamiz.

T/r	Amali askariya Rusiyya (Somiy ro‘yxati)	XIX asr oxirda Rossiya imperiyasidagi(piyoda askarlari) harbiy unvonlar
1	Prapirshik	Praporshik
2	Santperushik	Podporuchik
3	Perushik	Poruchik
4	Ishtabis kapitan	Shtabs- kapitan
5	Kapitan	Kapitan
6	Mayur	Mayor
7	Pudpulkuvnik	Pod-polkovik
8	Pulkuvnik	Polkovnik
9	Ginirol mayur	General-mayor
10	Ginirol litinant	General-leytenant

11	Ginirol adyutant	General ot infanterii (Injener -general)
12	Ginirol fakirmont	General-feldmarshal
13	Ginirol fadirmash	Genaralissimus[9]
14	Valikiy knyoz	Velikiy knyazь

Ro‘yxat imperiyaning ofiserlar (ober ofiser-katta ofiserlar tarkibi) dagi unvonlardan boshlangan. Bundan ko‘rinib turibdiki, Somiy nafaqat o‘zi kabi mirzolik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi rus amaldorlarining, balki harbiy faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lgan rus amaldorlari va ularning unvonlaridan ham yaxshigina xabador bo‘lgan.

Xulosa qilib aytganda, Mirzo Somiy shaxsiy arxivida saqlanayotgan qo‘lyozma hujjatlar nafaqat muallifning ijodiy merosini, balki XIX–XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ilmiy muhitni kompleks yorituvchi muhim tarixiy manba hisoblanadi. Mazkur materiallarning mazmuniy va strukturaviy jihatdan turkumlanishi, ularning tematik rang-barangligi hamda turli sohalarga oid bilimlarni mujassam etgani Somiyning serqirra shaxs ekanligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, hujjatlarning saqlanish holatini o‘rganish ularni restavratsiya va konservatsiya qilish zaruratini ham ko‘rsatadi. Arxiv materiallarini tizimli ravishda tadqiq etish va ilmiy muomalaga kiritish milliy tarixshunoslikni boyitish, yozma merosni asrab-avaylash hamda kelajak avlodlarga yetkazishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. Buxoro muzeyi qo‘lyozmasi. Inv. – №13373/11(34) (Hadis va uning tojik tilidagi tarjimasi).
2. Buxoro muzeyi qo‘lyozmasi. Inv. – №13373/11(6) (Mirzo Somiyning saroy xizmatiga qaytarishni so‘rab amirga qilgan murojaati).
3. Buxoro muzeyi qo‘lyozmasi. Inv. №14372/11.(Рукописные тексты из личного архива известного Бухарского поэта и каллиграфа Мирза Азима Сами Бустони).
4. Buxoro muzeyi qo‘lyozmasi. Inv. №13373/11(5). (Докладная Мирзо Азима эмиру о выполнении поручений); F
5. Buxoro muzeyi qo‘lyozmasi. Inv. №14372/11(2). (Книжка для записей с разными текстами).
6. Buxoro muzeyi qo‘lyozmasi. Inv. № 14372-2/11. (Рукопись. Книжка для записей с разными текстами).
7. Buxoro muzeyi qo‘lyozmalari. Inv. №13381/11(14) (Черновик. Отрывок рубаъи); 13381/11(16) (Запись стихов); 13381/11(17).(Касида.“Светилу Бухары”); 13381/11(18). (<Касида...Сомий>); 13381/11(19) (Запись стихов); 13381/11(20). (Разбор текста суры “Ихлос” Корана); 13381/11(22). (Панегирик эмиру Бухары); 13381/11(23). (Список должностей русских делопроизводителей); 13381/11(24). (Список русских военных званий).
8. Buxoro muzeyi qo‘lyozmasi. Inv № 13381/11(23). (Список должностей русских делопроизводителей).
9. Русская императорская армия-материал из Википедии-свободной энциклопедии. Манзил: https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A0%D1%83%D1%81%D1%81%D0%BA%D0%B0%D1%8F_%D0%B8%D0%BC%D0%BF%D0%B5%D1%80%D0%B0%D1%82%D0%BE%D1%80%D1%81%D0%BA%D0%B0%D1%8F_%D0%B0%D1%80%D0%BC%D0%B8%D1%8F#%D0%A7%D0%B8%D0%BD%D1%8B,_%D0%B7%D0%B2%D0%B0%D0%BD%D0%B8%D1%8F_%D0%B8_%D0%B7%D0%BD%D0%B0%D0%BA%D0%B8_%D1%80%D0%B0%D0%B7%D0%BB%D0%B8%D1%87%D0%B8%D1%8F. Мурожаат қилинган сана: 15.02.2023.

QUMQO‘RG‘ON SHAHRI TARIXIDAN

POLVONOV KOZIMBEK NAIMOVICH

Qarshi davlat universiteti dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Ushbu maqolada Qumqo‘rg‘on shahrining yaqin o‘tmish tarixi haqida so‘z yuritiladi. Jumladan, shahar toponimi, sovet davrida shahar shakllanishining omillari ilmiy adabiyotlar asosida yoritib berilgan. Aholi manzilgohiga shahar maqomi berilishi arxiv hujjati orqali aniqlangan hamda ilmiy muomalaga kiritilgan. Sovet davrida nashr etilgan statistik to‘plamlarda berilgan ma`lumotlardan foydalanilib, shaharning 1979, 1989 yillardagi aholi soni, jins tarkibi jadval ko‘rinishida ishlab chiqilgan. Shuningdek, 1970-1980 yillarda shaharda uy-joylar, ijtimoiy-madaniy muassasalar qurilishi, obodonlashtirish kabi masalalar yoritib berilgan. Shu bilan birga, sohalarda yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklar tahlilga tortilgan.

В данной статье рассматривается новейшая история города Кумкургана. В частности, на основе научной литературы освещаются топонимы города, факторы его формирования в советский период. Присвоение статуса города населенному пункту определяется по архивному документу и включено в научный оборот. Одновременно, используя данные статистических сборников, издававшихся в советский период, в табличной форме представлены данные о населении города в 1979, 1989 годах и его гендерном составе. Также рассматриваются вопросы жилищного строительства, социально-культурных институтов и благоустройства города в 1970-1980-е годы. При этом анализируются ошибки и недостатки, допущенные в этих областях.

This article discusses the recent history of the city of Kumkurgan. In particular, the toponym of the city, the factors of the formation of the city in the Soviet period are covered on the basis of scientific literature. The granting of the status of a city to a settlement is determined through an archival document and is included in scientific circulation. At the same time, using the data provided in statistical collections published during the Soviet period, the population of the city in 1979, 1989, and its gender composition are developed in the form of a table. Also, issues such as the construction of housing, socio-cultural institutions, and improvement in the city in the 1970s-1980s are covered. At the same time, errors and shortcomings made in the areas are analyzed.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

Qumqo‘rg‘on, shahar, sog‘liqni saqlash, shifoxona, tibbiyot xodimlari, uy-joy, obodonlashtirish, kutubxona, kinoteatr, maktab, telefon, radio.

Кумкурган, город, здравоохранение, больница, медицинский персонал, жильё, озеленение, библиотека, кинотеатр, школа, телефон, радио.

Qumkurgan, city, healthcare, hospital, medical staff, housing, landscaping, library, cinema, school, telephone, radio.

Kirish. O‘zbekiston shaharlarga boy o‘lka hisoblanadi. Respublikaning janubiy hududlaridan biri Surxondaryo viloyatida sakkizta shaharlar bo‘lib, ular orasida Qumqo‘rg‘on shahri o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi.

Qumqo‘rg‘on – shu nomdagi tuman markazi, shahar hisoblanib, viloyat markazi Termizgacha bo‘lgan masofa 90 km ni tashkil etadi. Adabiyotda keltirilishicha, Qumqo‘rg‘on – qumloq yerda vujudga kelgan qo‘rg‘on yoki saroy, karvonsaroy ma’nosini bildiradi[1].

Surxondaryo viloyati shaharlari tarixi ko‘pgina tadqiqotlarda o‘z aksini topgan. S.Tursunov, S.Shodmonova, J.Tursunov, Z.Daminova, A.Tog‘ayeva, E.Qobilov,

T.Pardayev, A.Tursunov kabilarning ishlarida voha shaharlari tarixiga oid ko‘plab materiallar berilgan. Shu bilan birga, ta’kidlash lozimki, S.Tursunov, Q.Eshboyev, A.To‘htayev, F.Xo‘janazarovlar tomonidan “Qumqo‘rg‘on tarixidan lavhalar” nomli monografiya nashr etilgan bo‘lib, unda asosan Qo‘mqurg‘on tumani tarixiga oid ma’lumotlar tahlil etilgan. Tadqiqotlarda Qumqo‘rg‘on shahri tarixi alohida mavzu sifatida o‘rganilmagan.

Materiallar va uslublar.

Tadqiqotni yoritishda asosan arxiv materiallari va ilmiy adabiyotlardan foydalanildi.

Maqolada Qumqo‘rg‘on shahrining yaqin o‘tmishi ilmiylik va tarixiylik tamoyiliga asoslanib, tizimli ravishda tahlil etilgan. Shuningdek, to‘plamlarda berilgan ma`lumotlarga tayangan holda statistik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari.

XX asrning 50-60 yillarida Surxondaryo viloyatida Surxon-Sherobod cho‘llarini o‘zlashtirish va sug‘orish ishlari jadal sur’atlar bilan amalga oshirilgan. Shu bilan birga, ekin maydonlarini kengaytirish va suv manbalaridan unumli foydalanish maqsadida “Janubiy Surxon suv ombori” qurila boshlangan. Suv omborining qurilishi 1958-1967 yillarda amalga oshirilgan bo‘lib, unda 29 millat vakillari ishtirok etgan. Suv havzasining qurilib, ishga tushirilishi va yangi yerlarning o‘zlashtirilishi natijasida foydalaniladigan yer maydonlari kengaygan hamda hosildorlik ortib borgan. 1958 yili “Janubiy Surxon suv ombori”ning qurilishi boshlanganda vohada qishloq ho‘jaligi ekinlarining umumiy maydoni 166, 6 ming gektar, jumladan, paxta maydoni 86, 3 ming gektar bo‘lgan bo‘lsa, suv ombori 1968 yilda ishga tushgach, ekin maydonlari 214, 8 ming gektarga, shundan paxta ekinlarining maydoni 111, 5 ming gektarga yetdi[2].

“Janubiy Surxon suv ombori”ning qurilishi bilan bir qatorda Sho‘rchi rayoni tarkibidagi Qumqo‘rg‘on shaharchasida ham qurilishlar keng ko‘lamda olib borilgan. Korxonalar, ijtimoiy-madaniy obyektlarning qurilishi uning qiyofasini o‘zgartirib yuborgan. Shu tariqa shaharchaning kelajagi nazarda tutilib, 1971 yil 23 sentabrda Qumqo‘rg‘onga shahar maqomi berilgan [3].

1977 yil mart oyida Surxondaryo viloyatining Sho‘rchi va Jarqo‘rg‘on tumanlari tarkibidagi ba’zi hududlar negizida Qumqo‘rg‘on tumani tuzilgan. Qumqo‘rg‘on shahri shu tumanning ma’muriy markazi sifatida e’tirof etilgan.

Statistik ma’lumotlarga qaraganda, shahar aholisi ko‘payib borgan. Shaharda 1979 yilda 8063 nafar, 1989 yilda 12048 nafar aholi istiqomat qilgan[4]. Aholi sonida ayollarning ulushi ortib borganligi kuzatiladi.

Qumqo‘rg‘on shahri aholisining o‘sishi.

Qumqo‘rg‘on shahrida shifoxonalar va ularda ishlovchi mutaxasislar miqdori ortib borgan. Shaharda 1972 yilda 17 nafar vrachlar ishlagan bo‘lib, o‘rinlar soni 150 tani tashkil etgan. 1976 yilda 33 nafar shifokor, 76 nafar o‘rta tibbiyot xodimi va 106 nafar kichik yordamchi xodimlar mehnat qilishgan. Shifoxonada 17 turdagi tibbiy yordam ko‘rsatilgan. Kasalxona 200 o‘ringa ega bo‘lib, jarrohlik, terapevt, tug‘ruq, bolalar va yuqumli kasalliklar bo‘limlarini o‘z ichiga olgan.

Shaharda yuqumli kasalliklar bilan kasallanish ko‘rilgan choralar natijasida kamaygan. Masalan, 1971 yil va 1972 yilning 9 oyi tahlil etilganda qorin tifi kasalligi bilan 5 tadan holat qayd etilgan bo‘lsa, dizenteriya 41 tadan 32 taga, sariq kasalligi 55 tadan 46 taga, OKZ (Ostriye kishechniye zabolevaniya – o‘tkir ichak kasalliklari) bilan kasallanganlar 132 tadan 87 taga pasaygan.

Kasalxonada malakali xodimlardan: trapevt vrachlar Z.A.Mustafayeva, K.M.Mustafayev, K.N.Nazarov, akusher-genikolog Z.S.Aleksenko, akusherka Y.S.Makarixina, infeksionist F.Y.Askaraliyeva, katta hamshira L.I.Feoktistova kabilar fidokorona mehnat qilishgan. 1972 yilgi ma’lumotlarga qaraganda, shifokorlarning 4 nafari birinchi malaka toifasiga ega bo‘lgan. Hakimlarning 3 nafari “Tibbiy xizmat a’lochisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan edi[5].

Shahar kasalxonasida jiddiy kamchiliklar ham mavjud bo‘ldi. Shifoxonada tez tibbiy yordam bo‘limi 1970 yilda tashkil etilgan bo‘lib, bo‘lim shahar va rayon aholisiga xizmat ko‘rsatgan. 1974 yilgi arxiv ma’lumotida qayd etilishicha, tez yordam bo‘limida 2 ta avtomashinadan bittasi ishlab turgan, ikkinchisi esa katta ta’mirlashga muhtoj bo‘lgan.

Kasalxonada o‘rinlar sig‘imi sezilarli darajada orqada edi. 1976 yilda Ittifoqda har 10 000 aholiga 118 tani tashkil etsa, shahar shifoxonasida esa 66 tani tashkil etgan. Shu sababli shifoxonaning jarrohlik bo‘limida bemorlarni muddatidan oldin chiqarish holatlari bo‘lgan, tez tibbiy yordam bo‘limi yetarlicha xodimlar bilan ta’minlanmagan edi. Bundan tashqari, shifoxonada yumshoq jihozlar, bolalarni parvarish qilish vositalari, issiq xalatlar, tagliklar va boshqalar yetishmagan. Tibbiyot xodimlarining bemorlarga qo‘pol munosabatda bo‘lishi, beparvoligi uchun shikoyatlar bo‘lib turgan. Bu holat shifoxonada shu yillarda sifatli tibbiy yordam madaniyati talab darajasida bo‘lmaganidan dalolat beradi.

Shaharda kommunal ho‘jalik bo‘limi tashkil etilgan. 1972 yilda shahar kommunal ho‘jaligi tomonidan yo‘l qurilishiga 70 000 rubl, yo‘laklar qurilishiga 9972 rubl sarflangan. Bundan tashqari, shaharni ko‘kalamzorlashtirish uchun 20003 rubl mablag‘ sarflangan.

1973 yilning 10 oyi davomida shahardagi eski ko‘chalarga 300 metr masofadagi elektr tarmoqlari o‘tkazilgan. Shahar ko‘chalaridagi 100 ta lampochkalar almashtirilib, 37 ta yoritgich va yoritgich ushlagichlari o‘rnatilgan, 700 metr masofadagi elektr leniyasi yo‘li tozalangan. Biroq, bu borada kamchiliklar ham bo‘ldi. Shaharda qo‘shimcha transformator o‘rnatilmaganligi sababli Vodoprovodnaya, Tupikovaya, Sadovaya, Drujba, Novaya, Montajnaya va Sentralnaya ko‘chalari to‘liq yoritilmagan edi[6].

Keyingi yillarda ko‘chalar, yo‘laklarni ta’mirlash va ko‘kalamzorlashtirish borasida qator ishlar amalga oshirilgan. 1976 yilda Qumqo‘rg‘on shahridagi Sentralnaya, Lenin, Uzbekskaya ko‘chalari asfalt qoplamasi bilan ta’mirlangan, yo‘laklarni ta’mirlashga 22 ming rubl sarflangan. Shu yili 22 ta bir qavatli, 10 ta ikki qavatli uylar ham ta’mirlashdan chiqarilgan. Stroitelnaya, Stadionnaya, Vodoprovodnaya va Moskovskaya ko‘chalariga yoritish chiroqlari o‘rnatilib, 17 ming xil daraxt ko‘chatlari ekilgan. 1989 yilning bahor oylarida shahar tashkilotlari tomonidan 36 ming tup mevali va manzarali daraxt ko‘chatlari ekilgan.

1973 yil 16 martdagi Qumqo‘rg‘on shahar sovetining №32-sonli qaroriga muvofiq shaharda madaniyat va istirohat bog‘i qurila borgan. Bundan tashqari, shaharda madaniyat markazi ish olib borgan. Madaniyat markazi tomonidan Ikkinchi jahon urushi ishtirokchilari, mehnat faxriylari bilan uchrashuvlar, adabiy kechalar o‘tkazilgan. 1976 yil mobaynida markaz 9 ta uchrashuvlar, 29 ta konsert, 1 marotaba kutubxonada seminar, 2 marta adabiy kecha tashkil etgan. 1976 yilda shaharda 43 517 kitob fondiga ega 7 ta kutubxona ishlab turgan. Kutubxonadagi kitoblar soni 1975 yilga nisbatan 1 800 taga, kitobxonlar soni 287 taga ortgan. 1980 yilga kelib shahar aholisiga 3 ta klub, 8 ta kutubxonalar xizmat qilgan va bir nechta kinoqurilmalar ishlab turgan[7]. Shaharda qurilish-montaj boshqarmasiga qarashli 250 o‘rinli klub, 100 o‘rinli “Qumqo‘rg‘on” nomli kinoteatr faoliyat ko‘rsatgan. 1984 yilda klub va kinoteatr reja asosida 8630 rubl miqdorida pul mablag‘larini yig‘ish amalda 10 546 rubl qilib bajarilgan. Bolalar uchun filmlar namoyish etish bo‘yicha 194 rubl o‘rniga 214 rubl miqdorida ijro etilgan.

Shaharda avtorkorxona tashkil etilgan bo‘lib, unda kadrlar qo‘nimsizligi kamayib borgan. Agar 1973 yilda qo‘nimsizlik 12 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 1974 yilda 10 foizni, 1975 yilda esa 7 foizni tashkil etgan, baxtsiz hodisalar qayd etilmagan.

Shaharda ichkilikbozlikka qarshi kurashishga qaratilgan harakatlar natijasini bergan. 1975 yilda spirtli ichimlik iste’mol qilgan 75 nafar kishilar ichki ishlar bo‘limida ro‘yxatga olingan bo‘lsa, 1977 yilda ularning soni kamayib, 16 ta bo‘lgan.

Qumqo‘rg‘on shahar fuqarolari shahar sovetiga muayyan masalalarda murojaatlar yo‘llagan. Masalan, 1976 yilda fuqarolar tomonidan jami 212 ta shikoyat va arizalar kelib tushgan. Shulardan 17 tasi Ikkinchi jahon urushi nogironlari tomonidan bo‘lib, uy-joylarni ta’mirlash, transport vositasi sotib olish va maishiy masalalarda murojaat qilishgan. Shuningdek, aholi ta’mirlash ishlari bo‘yicha 195 ta yozma ariza topshirganlar, jumladan, 84 tasi uy-joy masalalari, 18 tasi kvartira, 13 tasi yer ajratish, 30 tasi avtomobil sotib olish, 17 tasi maishiy xizmatlarni yaxshilash va 33 ta boshqa masalalar bo‘yicha bo‘lgan. 195 ta arizalardan faqat 126 tasi qanoatlantirilgan, xolos.

Shuningdek, 1976-1979 yillar davomida shahar aholisidan uy-joy, kommunal masalalari bo‘yicha 412 ta yozma, 348 ta og‘zaki murojaatlar qilingan[8].

Darhaqiqat, uy-joy masalasi shaharda muhim muammo hisoblanib, bu kadrlar masalasiga ham ta’sir ko‘rsatgan. Hududdagi yirik korxonalardan biri “Surxon” korxonasi ishchi-xizmatchilarining uy-joy bilan yetarlicha ta’minlanmasligi natijasida 1977 yilda 204 kishi korxonadan ketib qolgan yoki hamma ishchi-xizmatchilarning 32 foizini tashkil etgan bo‘lsa, 1978 yilning 11 oyida 16 foiz ishchilar ketib qolgan. Shahar aholisining uy-joyga bo‘lgan talabini qondirishga harakat qilingan, yillar davomida bu masalada ijobiy ishlar ham bajarilgan. Masalan, 1984-1986 yillar davomida 113 ta ho‘jalik yangi uylariga ko‘chib o‘tishgan edi.

Shahar ichki sug‘orish shaxobchalari 1989 yilga kelib talab darajasida bo‘lmagan. E’tiborsizlik oqibatida, ariqlar ustidan uy-joy qurilishi oqibatida suv yo‘llari yo‘qotib yuborilgan edi. Ana shular hisobga olinib, shahar markazi va Avtobaza posyolkasida bittadan suv chiqarish nasoslari o‘rnatib berilgan.

Shahar hududida o‘rta maktablar miqdori ortib borgan. 1972-1973 o‘quv yilida shaharda 2 ta o‘rta va 1 ta sakkiz yillik maktablar faoliyat ko‘rsatgan. 1979-1980 o‘quv yilida ham shaharda uchta № 1, 3, 27-maktablar bo‘lib, ularda 1923 nafar o‘quvchilar ta’lim olgan. 1986 yilda №1 va 3-o‘rta maktablarda 640 o‘rinli qo‘shimcha binolar qurilib, foydalanishga topshirilgan[9]. Shahar hududida 1989-1990 o‘quv yilida esa 5 ta maktablar faoliyat olib borgan. Bu paytga kelib shahar maktablarida muammolar to‘planib qolgandi. Masalan, Beruniy nomli 1-o‘rta maktabning eski binosi ta’mirlashga muhtoj, K.Marks nomli 27-o‘rta maktabning isitish tizimi butunlay ishdan chiqqan edi.

Yillar davomida shahar aholisi xonadonlarini ichimlik suvi, elektr energiya bilan ta’minlash, gazlashtirish ishlari amalga oshirilgan. Biroq, 1989-1990 yil kuz-qish mavsumida uy-joylar boshqarmasining bu borada kamchiliklarga yo‘l qo‘yganligi natijasida ko‘pgina tashkilotlar, maishiy xizmat ko‘rsatish shaxobchalari isitilmagan. Qishga tayyorgarlik ishlari qoniqarsiz olib borilganligi tufayli shahardagi “Gulshan” nomli bolalar bog‘chasi bir necha kun faoliyat yuritmagan. Gaz bilan ta’minlash idorasi xodimlarining o‘z ishlariga sovuqqonlik bilan qarashi natijasida Vodoprovodnaya ko‘chasidagi 11 uyning 1 va 2 xonadonlarida gaz portlashi sodir bo‘lgan va uylar yaroqsiz holga kelib qolgan[10].

Shahar aholisiga yillar davomida pochta va telefon xizmati turlari bo‘yicha birmuncha ishlar qilingan. 1990 yilga kelib shaharda rejadagi 4 ta aloqa bo‘limida barcha aloqa xizmati turlari bajarilgan. Shaharda 2 ta telefon stansiyasi bo‘lib, 1500 nomerdan iborat bo‘lgan. Biroq, shaharning 12 mingdan ortiq aholisi uchun atigi 10 nafar pochtachi xizmat qilgan, natijada gazeta va jurnallar, xatlar va har xil xabarlar o‘z egalariga kechikib yetkazilgan. 1990 yili xonadonlarni telefon, radio bilan ta’minlanishi qoniqarsiz ahvolda bo‘lgan. Shahar xonadonlarining telefon bilan ta’minlanishi 16 foizni, radio nuqtalari bilan ta’minlanganlik 10 foizni tashkil etgan[11].

Sovet hokimiyatining so‘nggi yillarida shaharda ishsizlik, notinch oilalar bo‘lganligi manbada qayd etilgan. 1990 yilda shahar aholisidan 311 kishi ish bilan ta’minlanmagan edi. Bundan tashqari, shahardagi 10 ta doimiy janjal qiluvchi oila, bolalarining tarbiyasiga e’tibor bermaydigan 3 ta oila, 11 ta tarbiyasi og‘ir bo‘lgan, voyaga yetmagan o‘smirlar[12] ichki ishlar bo‘limida hisobda turgan.

Xulosa va tavsiyalar. 1971 yil 23 sentabrda Surxon vohasidagi Qumqo‘rg‘on aholi maskaniga shahar maqomi berilgan. Shaharning yaqin o‘tmishida muayyan o‘zgarishlar yuz berdi. 1970-1980 yillarda shahar aholisi ko‘payib bordi, shuningdek, shaharda uy-joylar, ijtimoiy-madaniy muassasalar qurildi, obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi, qator yutuqlar qo‘lga kiritildi, shu bilan birgalikda, sohalarda xato va kamchiliklarga ham yo‘l qo‘yilgan.

Shaharlar tarixi munozarali va qiziqarli mavzular sirasiga kiradi. Bu boradagi O‘zbekiston shaharlari tarixiga oid ilmiy izlanishlarni amalga oshirishda mazkur tadqiqotda keltirilgan tahlillar muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. Nafasov T. O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1988. – B. 260.
2. Tursunov S. va boshq. Qumqo‘rg‘on tarixidan lavhalar. –T.: Yanginashr, 2019. – B. 130.
3. Sho‘rchi tuman davlat arxivi, S-154-fond, 1-ro‘yhat, 12-ish, 24-varaq.
4. Jadval “Vsesoyuznaya SSSR perepis naseleniya 1979. –Tashkent, 1980”, “Vsesoyuznaya SSSR perepis naseleniya 1989. –Tashkent, 1991” statistik to‘plamlarning 23 va 42 betlari ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan.
5. Sho‘rchi tuman davlat arxivi, S-154-fond, 1-ro‘yhat, 12-ish, 90-varaq.
6. Sho‘rchi tuman davlat arxivi, S-154-fond, 1-ro‘yhat, 40-ish, 219-varaq.
7. Sho‘rchi tuman davlat arxivi, S-154-fond, 1-ro‘yhat, 111-ish, 184-varaq.
8. Sho‘rchi tuman davlat arxivi, S-154-fond, 1-ro‘yhat, 107-ish, 166-varaq.
9. Sho‘rchi tuman davlat arxivi, S-154-fond, 1-ro‘yhat, 157-ish, 37-varaq.
10. Sho‘rchi tuman davlat arxivi, S-154-fond, 1-ro‘yhat, 178-ish, 17-varaq.
11. Sho‘rchi tuman davlat arxivi, S-154-fond, 1-ro‘yhat, 177-ish, 72-varaq.
12. Sho‘rchi tuman davlat arxivi, S-154-fond, 1-ro‘yhat, 178-ish, 94-varaq.

2010–2016 YILLARDA QASHQADARYO VA SURXONDARYO VILOYATLARIDA SHAHARSOZLIK VA OBODONLASHTIRISH JARAYONLARI: TARIXIY TAHLIL

TURSUNOV ANVAR SAYPULLAYEVICH

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Tarix kafedrasi dotsenti,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
avar061484@gmail.com

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Mazkur maqolada 2010–2016 yillarda Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida amalga oshirilgan shaharsozlik va obodonlashtirish jarayonlari tarixiy manbalar, arxiv hujjatlari, normativ-huquqiy hujjatlar hamda davriy matbuot materiallari asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda madaniyat va istirohat bog‘larini rekonstruksiya qilish, aholi dam olishi uchun zamonaviy infratuzilma yaratish, shahar ko‘chalari va transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish, yangi turar-joy massivlarini barpo etish, sanitariya-tozalash tizimini takomillashtirish hamda yirik ijtimoiy va sport-sog‘lomlashtirish obyektlarini qurish jarayonlari yoritilgan.

В данной статье на основе исторических источников, архивных документов, нормативно-правовых актов и материалов периодической печати проанализированы процессы градостроительства и благоустройства, осуществлявшиеся в Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областях в 2010–2016 годах. В исследовании освещены вопросы реконструкции парков культуры и отдыха, создания современной инфраструктуры для досуга населения, развития городских улиц и транспортных коммуникаций, строительства новых жилых массивов, совершенствования системы санитарной очистки, а также возведения крупных социальных и спортивно-оздоровительных объектов.

This article analyzes the processes of urban development and beautification carried out in the Kashkadarya and Surkhandarya regions during 2010–2016 based on historical sources, archival documents, legal and regulatory acts, and periodical press materials. The study examines the reconstruction of culture and recreation parks, the creation of modern infrastructure for public leisure, the development of urban streets and transport communications, the construction of new residential areas, the improvement of sanitary cleaning systems, and the establishment of major social, sports, and recreational facilities.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

Qashqadaryo viloyati, Surxondaryo viloyati, shaharsozlik, obodonlashtirish, urbanizatsiya, infratuzilma, Qarshi shahri, Termiz shahri, kurant, “Amudaryo” sport-sog‘lomlashtirish markazi.
Кашкадарьинская область, Сурхандарьинская область, градостроительство, благоустройство, урбанизация, инфраструктура, город Карши, город Термез, куранты, спортивно-оздоровительный центр «Амударья».
Kashkadarya Region, Surkhandarya Region, urban development, beautification, urbanization, infrastructure, Karshi City, Termez City, clock tower (Kurant), “Amudarya” Sports and Recreation Center.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin mamlakatda hududlarni kompleks rivojlantirish, zamonaviy shaharsozlik tamoyillarini joriy etish hamda aholi turmush darajasini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, 2010-yillardan boshlab respublikaning barcha hududlarida keng ko‘lamli bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari amalga oshirilib, shahar va qishloqlar infratuzilmasini modernizatsiya qilishga alohida e’tibor qaratildi. Mazkur jarayonlar nafaqat iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash, balki aholi uchun qulay yashash muhiti yaratish, hududlarning me’moriy qiyofasini yangilash va ularning investitsiyaviy hamda turistik jozibadorligini oshirishga ham xizmat qildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 29-dekabrdagi “2011-2015 yillarda madaniyat va istirohat bog‘larining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 322-sonli qarorida madaniyat va istirohat bog‘larini bosqichma-bosqich rekonstruksiya qilish va zamonaviy attraksionlar bilan jihozlash, ularning faoliyatini yanada takomillashtirish asosida aholi, ayniqsa bolalar va o‘smirlar, barcha yoshlarning madaniy dam olishlari uchun qulay shart-sharoit yaratish rejalashtirildi[1].

Ushbu qarorning ijrosini ta’minlash maqsadida Qashqadaryo viloyat hokimining 2011-yil 11-yanvardagi X-5/01-sonli qarori bilan viloyat dasturi qabul qilindi. Dastur bo‘yicha madaniyat va istirohat bog‘larining 3 tipdagi namunaviy loyihalari tayyorlandi[2]. Namunaviy loyihalar asosida istirohat bog‘larida aholining madaniy dam olishi uchun shart-sharoitlar yaratish, attraksionlar, suv havzalari, raqs va ko‘chma sirk uchun mo‘ljallangan maydonchalar, amfiteatrlar, qulay o‘rindiqlar, savdo va umumiy ovqatlanish nuqtalarini barpo etishga kirishildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 25-iyuldagi “Qarshi shahrini kelajakda qayta qurish rejasi va zamonaviy yo‘l-transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”gi PQ-2010-sonli qarorining ijrosini ta’minlash yuzasidan Qarshi shahrining ko‘chalari kengaytirilishi munosabati bilan uy-joylari buziladigan fuqarolarga yakka tartibdagi turar-joylar qurilishi uchun Qashqadaryo viloyat hokimining 2015-yil 12-martdagi qaroriga ko‘ra Qarshi tumani Yertepa qishloq fuqarolar yig‘ini hududidan 34 gektar yer maydoni ajratildi[3]. 2016-yil 27-fevralda esa, Qarshi tumani Yertepa QFY Nasaf massivining qishloq xo‘jaligida ishlatilib kelingan 23 gektar yer maydoni Qarshi shahar hokimligiga shahar ko‘chalarini kengaytirilishi munosabati bilan uy-joylari buziladigan fuqarolarga yakka tartibda uy-joy qurishi uchun berildi[4].

O‘zbekistonda zamonaviy shaharsozlik qoidalari joriy etilar ekan, aholiga sifatli kommunal xizmatlar ko‘rsatish talab etiladi. Biroq, shahar va tumanlarni chiqindilardan tozalash ishlari qoniqarsiz ahvolda bo‘lib, ularni tashib ketish uchun maxsus texnika vositalari yetishmas edi. Oqibatda mahallalarda maxsus tayyorlab qo‘yilgan chiqindixonalar vaqtida tozalanmas, ko‘chalar chetida maishiy va qattiq chiqindilar uyilib qolishi odatiy holga aylangan edi.

Maishiy chiqindilarini olib ketish sifatini yanada oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 3-dekabrdagi “Respublika aholi punktlarida sanitariya jihatidan tozalash tizimini rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 315-sonli qarori qabul

qilindi. Unga ko‘ra, qattiq maishiy chiqindilarni tashib ketish ishlari shaharlarda — sanitariya jihatidan tozalash bo‘yicha ixtisoslashtirilgan tashkilotlar tomonidan; tumanlar markazlarida, shahar posyolkalarida va qishloq aholi punktlarida — obodonlashtirish boshqarmalari tomonidan amalga oshirilishi ko‘zda tutildi[5].

Hisob-kitoblardan kelib chiqib, shaharlarda — 5 ta ko‘p kvartirali uy uchun 1 ta chiqindi to‘plash shoxobchasi, har bir punktni 4 ta konteyner bilan jihozlagan holda; tuman markazlarida — 5 ta ko‘p kvartirali uy uchun bitta axlat to‘plash shoxobchasi, har bir punktni 2 ta konteyner bilan jihozlagan holda; shahar posyolkalari va qishloq aholi punktlarida — 100 ta uy xo‘jaligiga bitta axlat to‘plash shoxobchasi tashkil etildi[6].

Qarshi, Shahrisabz va Termizda yo‘llarning kengaytirilishi juda katta hajmdagi qurilish chiqindilarining to‘planishiga sabab bo‘ldi va jiddiy muammoga aylandi. Shu sabab viloyat va shahar hokimliklari shaharlarni chiqindilardan tozalash uchun barcha choralarni ko‘rdilar. Jumladan, Qashqadaryo viloyat hokimining 2015-yil 2-iyuldagi X-246/07-sonli qarori bilan Shahrisabz shahrining “Chorsu” dehqon bozorini rekonstruksiya qilish davomida hosil bo‘lgan maishiy chiqindilarni chiqarib ketishga jalb qilingan texnikalarga yoqilg‘i-moylash mahsulotlarini sotib olish hamda drenaj kollektorlarni sozlash uchun tumanlar Obodonlashtirish boshqarmalarining ishlatilmay turgan mablag‘lari hisobidan Shahrisabz tuman Obodonlashtirish boshqarmasi hisob raqamiga 158 mln so‘m o‘tkazib berildi[7].

2015-yilda Qarshi shahridagi O‘zbekiston, Mustaqillik, Mahtumquli, Nasaf, Navoiy, Amir Temur va Xonobod ko‘chalarida obodonchilik ishlarining kengayishi, qolaversa, Qarshi va Shahrisabz shaharlarida “snos”ga tushgan uylar va maishiy binolarni buzib olish, chiqindilarni chiqarib ketishga jalb qilingan texnikalarga yoqilg‘i-moylash materiallarini sotib olish, shuningdek Kitob tumanidagi qabristonlarni obodonlashtirish uchun ko‘p miqdorda yoqilg‘i kerak edi. Shuni inobatga olib, Qashqadaryo viloyat hokimining 2015-yil 30-sentyabrdagi X-349/09-sonli qarori bilan barcha tumanlardagi Obodonlashtirish boshqarmalarining ishlatilmasdan turgan mablag‘laridan Qarshi shahar hokimligi byudjetiga 69, 2 mln so‘m, Shahrisabz tuman hokimligi byudjetiga 139, 5 mln so‘m va Kitob tuman hokimligi byudjetiga 51, 1 mln, jami 259, 8 mln so‘m ajratib berildi[8].

Bu davrning yana bir e’tiborli jihati – bu Qarshi shahrida kurantning qurilishi bo‘ldi. 2014-yil 3-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri raisligida o‘tkazilgan yig‘ilishda Qarshi shahrida kurant qurilishi belgilangan edi. Kurant O‘zbekiston va Mustaqillik ko‘chalarining kesishgan qismida qurilishi rejalashtirildi. Kurant qurilishini boshlash uchun 2015-yil 29-sentyabrda viloyat hokimligi tomonidan 500 mln so‘m ajratildi[9]. Ushbu inshootning loyiha-smeta hujjatlari Toshkent shahridagi “O‘zshaharsozlik LITI” DUK tomonidan tayyorlangan bo‘lib, shartnoma shartlariga ko‘ra, 103, 969 mln so‘mlik ishlar to‘liq bajarildi[10].

Kurant qurilishi ushbu ko‘chalarni obodonlashtirish bilan birga olib borildi. Xususan, Qashqadaryo viloyat hokimligi tomonidan 2016-yil 9-fevralda O‘zbekiston ko‘chasi “Barkamol avlod” binosi maydoni, Mustaqillik ko‘chasining kurant qurilayotgan Shimoli-sharqiy qismidagi mavjud maydonni rekonstruksiya qilish ishlarini tugallash uchun viloyat hokimligi yagona buyurtmachi xizmati injinering kompaniyasiga 600 mln so‘m, Buyuk Turon ko‘chasida yangi quriladigan obyektlarni oldiga vaqtinchalik to‘siqlar o‘rnatish va gul ko‘chatlari ekish xarajatlari uchun Qarshi shahar hokimligi byudjetiga 82 mln, jami 682 mln so‘m[11], 2016-yil 29-aprelda markaziy ko‘chalarga mavsumiy gul ko‘chatlari sotib olish uchun Qarshi shahar hokimligi byudjetiga 55 mln so‘m[12], 2016-yil 14-iyunda esa O‘zbekiston ko‘chasini ta’mirlash xarajatlari uchun viloyat hokimligi yagona buyurtmachi xizmati injinering kompaniyasiga 200 mln so‘m mablag‘ o‘tkazildi[13].

Shu tariqa, sirti oq marmar bilan qoplangan, milliy kolorit bilan bezatilgan, balandligi qariyb 30 metr bo‘lgan kurant qurilishi tugallandi. Inshootning umumiy qiymati 4384, 183 mln so‘m (shundan 4240, 441 so‘mni qurilish-tiklash ishlari, 143, 742 mln so‘mi buyurtmachining xarajatlari tashkil etgan. 2016-yil 1-iyul holatiga ko‘ra, inshootda 3152, 6 mln so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, amalga oshirilgan ishlar uchun

2993, 4 mln so‘m mablag‘ (jumladan Respublika byudjetidan 993, 2 mln so‘m, mahalliy byudjetdan 2000 mln so‘m) pudrat tashkilotlariga to‘lab berildi[14].

2014-2016 yillar oralig‘ida Qarshi shahridagi Mustaqillik ko‘chasida xiyobon barpo etildi. Maydonda ulkan favvoralar bunyod etildi. Qarshida 50 ta favvora qurilishi rejalashtirilgan bo‘lib, 2016-yil 1-iyul holatiga ko‘ra, ularning 28 tasi ishga tushirildi. Amir Temur ko‘prigi zamonaviy talablar asosida rekonstruksiya qilindi. Qashqadaryo daryosida 3 ta to‘g‘on qurildi. 51 katamaran, 2 turistik kater keltirildi. Qirg‘oq bo‘yidagi eski uylar buzilib, o‘rniga 14 ta kottej, 4 ta kafe-bar, bolalar maydonchalari, 4 ta sun’iy qoplamali sport maydonchasi barpo etildi. 24 gektarlik maydon obodonlashtirilib, 4000 dan ortiq daraxt ekildi[15].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 6-noyabrdagi “Termiz davlat universiteti huzurida “Amudaryo” sport sog‘lomlashtirish markazini barpo etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 322-sonli qarori qabul qilindi[16]. Qarorga asosan 2016-yil boshidan Surxon daryosining o‘ng qirg‘og‘i hududida ulkan qurilish-montaj ishlari avj oldi. 21 gektar yerni egallagan ushbu maydonda 50 dan ortiq obyekt qurilishi rejalashtirildi[17].

Olib borilgan ishlar natijasida sport-sog‘lomlashtirish markazi hududida daryoning qirg‘oqqa yaqin qismidagi orolda bolalar cho‘milish havzasi barpo etildi. Suvni bir maromda saqlash va tozalik uchun uning tubi va yon-qirg‘oqlari to‘liq betonlandi. Orolning g‘arbiy qismidan avtomobil yo‘li o‘tkazilib, ikki tomonidan ko‘prik qurildi. Shuningdek, obyektda 25 x 12 o‘lchamli yopiq suzish havzasi, 200 o‘ringa ega bolalar sog‘lomlashtirish markazi, 4 ta kichik stadion, 2 ta voleybol va 2 ta basketbol maydonlari, 2 ta qum qoplamaga ega tennis korti va 2 ta maxsus “xard” qoplamali tennis korti qurildi. Markaz hududidan qayiqlar to‘xtash joyi qurilishi uchun 250 kvadrat metr yer maydoni ajratildi (5-ilova)[18]. Futbol maydonchasi qurishi uchun 25x45 m=1200 kvadrat yer maydoni, “Корабль” kafesini qurish uchun 650 kvadrat metr joy berildi (6-ilova). Bu yerda avtodrom, avtoulovlar to‘xtash joyi (2002 kvadrat metr), tir, kafe va boshqa inshootlar ham barpo etildi[19]. Qurilish ishlariga jami 34 milliard so‘m sarflandi va 2017-yil 30-iyunda markaz ishga tushirildi[20].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, 2010–2016 yillarda Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida amalga oshirilgan shaharsozlik va obodonlashtirish ishlari hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim bosqichni tashkil etdi. Davlat va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan qabul qilingan qarorlar asosida madaniyat va istirohat bog‘lari rekonstruksiya qilinib, yangi dam olish maskanlari, sport majmualari va madaniy obyektlar barpo etildi. Bu esa aholining bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qildi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2010 й., 52-сон, 523-модда.
2. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 829-fond, 31-ro‘yxat, 151-ish, 46-49-varaqlar.
3. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 829-fond, 34-ro‘yxat, 109-ish, 180-187-varaqlar.
4. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 829-fond, 35-ro‘yxat, 29-ish, 158-159-varaqlar.
5. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 829-fond, 32-ro‘yxat, 130-ish, 39-varaq.
6. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2013 й., 49-сон, 632-модда.
7. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 829-fond, 34-ro‘yxat, 122-ish, 1-2-varaqlar.
8. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 829-fond, 34-ro‘yxat, 129-ish, 27-31-varaqlar.
9. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 829-fond, 34-ro‘yxat, 128-ish, 141-varaq.
10. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 829-fond, 35-ro‘yxat, 40-ish, 30-varaq.
11. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 829-fond, 35-ro‘yxat, 28-ish, 1-2-varaqlar.
12. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 829-fond, 35-ro‘yxat, 33-ish, 169-varaq.
13. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 829-fond, 35-ro‘yxat, 48-ish, 79-varaq.
14. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 829-fond, 35-ro‘yxat, 40-ish, 91-varaq.
15. “Халқ сўзи” газетаси, 2016 йил 1 июл. №128 (6563). –Б. 2.

16. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2015 й., 45-сон, 576-модда.
17. “Халқ сўзи” газетаси, 2016 йил 12 октябрь. №201 (6636). –Б. 1.
18. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 1092-fond, 1-ro‘yxat, 2230-ish, 410-varaq.
19. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 1092-fond, 1-ro‘yxat, 2231-ish, 1-141-varaqlar.
20. https://sputniknews.uz/20170630/Surxondaryoda-jahon-andazalariga-mos-bolalar-lageri-ochildi-5722400.html

ОТ “КАМОЛОТА” К СОЮЗУ МОЛОДЕЖИ: ИСТОРИЯ УСПЕХА И НОВЫЕ ГОРИЗОНТЫ МОЛОДЕЖИ ДЖИЗАКА

ХУДЖАНОВА МУНИРА ФАЙЗУЛЛАЕВНА
(PhD) старший преподаватель кафедры Всеобщей истории факультета истории, Джизакского государственного педагогического университета

МАШАРИПОВА ЛЮДМИЛА РУСЛАНОВНА
Студентка 2 курса исторического факультета ДжГПУ

Annotatsiya / Аннотация / Abstract
Maqolada O‘zbekistonda yoshlar siyosatining tarixiy retrospektivasi va transformatsiya bosqichlari: «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati faoliyatidan boshlab, hozirgi O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etilgunga qadar bo‘lgan davr ko‘rib chiqiladi. Muallif yoshlar bilan ishlash usullaridagi asosiy o‘zgarishlarni tahlil qilib, e’tiborni manzilli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga o‘tish jarayoniga qaratadi. Ishda Yoshlar ittifoqining Jizzax shahridagi faoliyati, uning AKT (IT) sektori, tadbirkorlikni rivojlantirishdagi o‘rni hamda hududda «Yoshlar daftari» tizimini joriy etish masalalari tahliliga alohida joy ajratilgan.
В статье рассматривается историческая ретроспектива и этапы трансформации молодежной политики в Узбекистане: от деятельности Общественного движения «Камолот» до создания современного Союза молодежи Узбекистана. Автор анализирует ключевые изменения в методах работы с молодежью, акцентируя внимание на переходе к адресной социальной поддержке. Особое место в работе отведено анализу деятельности Союза молодежи в городе Джизак, его роли в развитии IT-сектора, предпринимательства и реализации системы «Молодежной тетради» в регионе.
The article examines the historical retrospective and transformation stages of youth policy in Uzbekistan: from the activities of the "Kamolot" Public Youth Movement to the establishment of the modern Youth Union of Uzbekistan. The author analyzes key changes in methods of working with youth, emphasizing the transition to targeted social support. Particular attention is paid to the analysis of the Youth Union's activities in the city of Jizzakh, its role in the development of the IT sector, entrepreneurship, and the implementation of the "Youth Notebook" (Yoshlar daftari) system in the region.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords
O‘zbekiston yoshlar ittifoqi, Kamolot, Jizzax, yoshlar siyosati, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, Yoshlar daftari, IT-park.
Союз молодёжи Узбекистана, Камолот, Джизак, молодёжная политика, социальная поддержка, Yoshlar daftari, IT-парк.
Youth Union of Uzbekistan, Kamolot, Jizzakh, youth policy, social support, Yoshlar daftari, IT Park.

Молодёжная политика Узбекистана прошла несколько ключевых этапов, каждый из которых отражал требования своего времени и меняющиеся запросы

подрастающего поколения. Эпоха «Камолот» (2001–2017)

Общественное движение молодежи (ОДМ) «Камолот» было создано в 2001 году. На протяжении 16 лет оно выступало главным институтом консолидации молодежи вокруг идей национальной независимости. Организация делала ставку на массовость и воспитание гармонично развитого поколения через творчество и спорт.

Деятельность: В Джизакской области «Камолот» активно реализовывал проекты по поддержке одаренных детей. Проводились масштабные фестивали, спортивные игры «Баркамол авлод» и выделялись гранты для начинающих предпринимателей. [1, 3–6 стр.] Однако к 2017 году стало очевидно, что старые методы работы, носившие зачастую формальный характер, требуют обновления. Необходимы были механизмы для прямого решения проблем молодежной безработицы и социальной защиты, которые выходили за рамки только культурных мероприятий. [1, 9 стр.]

Создание Союза молодежи Узбекистана (с 2017 года)

30 июня 2017 года по инициативе Президента Шавката Мирзиёева на IV Курултае движения «Камолот» было принято историческое решение о его преобразовании в Союз молодежи Узбекистана. Этот день был официально объявлен Днём молодёжи в стране. [2, 12 стр.]

Ключевые отличия новой структуры:

Статус: Организация получила широкие полномочия и статус «моста» между государством и молодежью.

Защита прав: Приоритет сместился на практическую помощь: трудоустройство, профилактику правонарушений и социальную поддержку уязвимых слоев.

Инновации: Началось создание молодежных технопарков и внедрение системы льготного кредитования для молодежного бизнеса [3, 21 стр.].

Развитие и достижения в городе Джизак Джизакская область, благодаря своему промышленному потенциалу (автомобильный кластер ADM Jizzakh, текстильные предприятия), стала флагманом молодежных реформ. Здесь молодежная политика была тесно интегрирована с рынком труда [4, 4 -5стр.].

Ключевые направления в Джизаке:

Цифровизация: С открытием филиала IT-Парка в Джизаке при поддержке Союза молодежи тысячи юношей и девушек прошли курсы программирования, что позволило им работать на международном рынке (аутсорс), не уезжая из родного города [5, 6 стр.].

Проект «Молодежная тетрадь» (Yoshlar daftari): В Джизаке эта система стала ключевой. Она позволила не только вести учет нуждающихся, но и адресно выделять субсидии на покупку инструментов (швейные машины, сварочные аппараты, компьютеры) [5, 14 стр.].

Инфраструктура: В городе были построены современные молодежные центры, которые превратились в коворкинги и творческие лаборатории, ставшие местом притяжения для волонтеров и стартаперов [6, 16 стр.].

Современный этап: Агентство по делам молодежи В 2020 году для усиления государственного контроля была создана новая структура — Агентство по делам молодежи. Теперь в Джизаке и по всей стране действует тандем: Агентство управляет госбюджетом и программами, а Союз молодежи осуществляет общественный контроль и идеологическую работу [6, 45 стр.].

В Джизаке внедрили уникальную вертикаль: в каждой махалле (например, «Учтепа», «Иттифок») появился молодежный лидер. Они напрямую взаимодействуют с платформой yoshlardaftari.uz, обеспечивая прозрачность помощи [6, 4 стр.].

Социально-правовая трансформация и защита молодежи Переход от «Камолота» к Союзу молодежи ознаменовал смену приоритетов: от идеологического просвещения к прямой социальной защите. В Джизаке это проявилось в создании системы бесплатной юридической и психологической помощи для молодежи, оказавшейся в трудной жизненной ситуации.

Особое внимание уделяется профилактике правонарушений. Благодаря тесному сотрудничеству Союза молодежи с органами внутренних дел Джизака, за молодежью, склонной к правонарушениям, закрепляются

наставники из числа активистов и предпринимателей [6, 23 стр.].

Инновационные инструменты: «Молодежная тетрадь» в действии

Система «Yoshlar daftari» в Джизакской области стала не просто списком нуждающихся, а полноценным финансовым инструментом. Оплата контрактов: Ежегодно сотням студентов Джизакского государственного педагогического университета и Джизакского политехнического института Союз молодежи покрывает до 50% суммы платного контракта [7, 15 стр.].

Субсидии на самозанятость: В махаллях города, таких как «Учтепа» и «Дустлик», активно выдаются безвозмездные субсидии на приобретение орудий труда. Это позволило официально зарегистрировать тысячи самозанятых в сфере услуг и ремесленничества [7, 4 стр.].

Джизак — центр молодежного предпринимательства и IT. Джизакская область лидирует в создании Молодежных малых промышленных зон (МПЗ). Это уникальные территории, где молодым людям до 30 лет предоставляются готовые производственные площади с налоговыми преференциями. Производственный сектор: В МПЗ Джизака молодые предприниматели запускают линии по производству строительных материалов и текстиля, получая кредиты по линии «Семейного предпринимательства» под льготный процент [7, 47 стр.]. Цифровой прорыв: Программа «Один миллион программистов», реализуемая через IT-Парк Джизака, создала прослойку молодежи, работающей на экспорт IT-услуг. Это позволило значительно сократить уровень миграции молодежи из региона в столицу [7, 5 стр.].

Роль молодежных лидеров в махаллях С 2022 года в каждой из 500+ махаллей Джизакской области была введена должность молодежного лидера. Это «низовое» звено Агентства по делам молодежи, которое отвечает за персональную работу с каждым молодым человеком в возрасте от 14 до 30 лет. Лидеры проводят анкетирование и вносят данные в электронную систему, что исключает человеческий фактор и бюрократию при распределении помощи. [7, 12 стр.].

Период	Название	Основной фокус
2001 — 2017	ОДМ «Камолот»	Культурно-просветительская работа, фестивали, идеологическое воспитание.
2017 — 2020	Союз молодежи	Политическое участие, защита прав, системная поддержка бизнеса и образования.
С 2020 — н.в.	Агентство + Союз	Государственное управление, цифровизация помощи через систему «Молодежной тетради».

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1.Постановление Кабинета Министров РУз от 21 декабря 2021 года № 765 «О мерах по внедрению системы "Молодежной тетради"». [14–18 стр.]

2.Материалы внеочередного IV Курултая Общественного движения молодежи «Камолот» (июнь 2017 г.). [3–10 стр.]

3.Стратегия развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы. Раздел «Справедливая социальная политика». [45–48 стр.]

4. Официальный сайт Союза молодежи Узбекистана: yoshlarittifoqi.uz. Раздел «История и структура». [12–17 стр. электронного документа]

5. Единая электронная платформа «Yoshlar daftari»: yoshlardaftari.uz. Отчеты по работе махаллей Джизакской области. [2–5 стр.]

6. Национальная база данных законодательства РУз: lex.uz. Закон Республики Узбекистан «О государственной молодежной политике». [21–25 стр.]

7. Официальный сайт хокимията Джизакской области: jizzax.uz. Аналитическая справка о реализации молодежных программ в г. Джизак. [4–8 стр.]

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ УРОВЕНЬ ПРЕЗИДЕНТСКИХ ШКОЛ УЗБЕКИСТАНА

ХУДЖАНОВА МУНИРА ФАЙЗУЛЛАЕВНА — *студент Джизакского государственного педагогического университета*

УММАТОВ ОГАБЕК ОТАБЕК УГЛИ — *Джизакского государственного педагогического университета (PhD)*

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Mazkur annotatsiyada O‘zbekiston Respublikasidagi Prezident maktablarining tashkil etilishi, maqsadi va ta’lim tizimidagi o‘rni yoritilgan. Prezident maktablari iqtidorli o‘quvchilarni saralab olish, ularga zamonaviy va innovatsion ta’lim berish hamda xalqaro standartlar asosida chuqurlashtirilgan bilim berishga yo‘naltirilgan ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari hisoblanadi. Ushbu maktablarda STEAM yo‘nalishi asosida darslar olib borilib, o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, mustaqil izlanish va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Prezident maktablari mamlakatda raqobatbardosh, bilimli va yetuk kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

В данной аннотации раскрываются цели создания и роль Президентских школ в системе образования Республики Узбекистан. Президентские школы являются специализированными образовательными учреждениями, направленными на отбор и обучение одарённых учащихся по современным международным стандартам. Образовательный процесс основан на принципах STEAM-образования, что способствует развитию критического мышления, самостоятельности и творческого потенциала учеников. Президентские школы играют важную роль в подготовке конкурентоспособных и высококвалифицированных кадров для будущего страны.

This annotation describes the establishment, objectives, and significance of Presidential Schools in the Republic of Uzbekistan. Presidential Schools are specialized educational institutions aimed at selecting and educating gifted students according to modern international standards. The educational process is based on the STEAM approach, which promotes the development of critical thinking, independent research skills, and creativity among students. Presidential Schools play a significant role in preparing competitive and highly qualified specialists for the future development of the country.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

Prezident maktablari, ta’lim sifati, xalqaro ta’lim standartlari, iqtidorli o‘quvchilar, STEAM ta’lim.

Президентские школы, качество образования, международные образовательные стандарты, одарённые учащиеся, STEAM-образование.

Presidential Schools, quality of education, international educational standards, gifted students, STEAM education.

Процесс фундаментальной реформы системы образования в Республике Узбекистан в последние годы вышел на новый уровень. В частности, для поддержки талантливой молодежи и подготовки конкурентоспособных на международном уровне кадров были созданы Президентские школы. Деятельность этих учебных заведений регулируется рядом важных нормативно-правовых документов. В

частности, правовую основу этой системы заложили Постановление об учреждении Президентских школ в 2019 году и Указ об учреждении Администрации Президента по образовательным учреждениям[1.] Эти документы определяют главную задачу – приведение уровня образования в Президентских школах в соответствие с международными стандартами. Деятельность Президентских школ осуществляется на основе соответствующих постановлений Президента Республики Узбекистан и положений Кабинета Министров. Эти документы определяют следующие приоритетные направления:

- внедрение прозрачного механизма отбора талантливых учащихся;

-организация образовательного процесса на основе международных программ;

- широкое использование зарубежного педагогического опыта;

- формирование современной материально-технической базы.

Президентское агентство по образовательным учреждениям координирует деятельность этих школ, утверждает учебные планы и осуществляет контроль качества[2]. Эта система управления обеспечивает проведение образовательного процесса на основе последовательного и единого стандарта. Образовательный процесс в президентских школах организован на основе элементов международных образовательных программ. Тот факт, что обучение ведется преимущественно на английском языке, способствует повышению академической мобильности учащихся [3]. Предметы преподаются углубленно, а теоретические знания сочетаются с практическими занятиями.

Занятия, организованные по принципу STEAM (наука, технология, инженерия, искусство и математика), обеспечивают междисциплинарную интеграцию.

Система оценки также отличается от традиционных методов. Она учитывает не только уровень теоретических знаний учащегося, но и его способность анализировать проблему, принимать самостоятельные решения и применять их на практике. Это обеспечивает объективную оценку качества образования[4]. Учителя, работающие в президентских школах, набираются на конкурсной основе. В качестве основных критериев определяются их профессиональная квалификация, уровень владения иностранными языками и умение использовать современные педагогические технологии. Преподаватели регулярно участвуют в курсах повышения квалификации и изучают международный опыт[5]. Современная учебная среда, созданная в школах – лаборатории, компьютерные классы, библиотеки и научно-исследовательские центры – повышает эффективность образовательного процесса. Учащиеся имеют возможность связать теоретические знания с практическим опытом[6]. Ученики президентских школ активно участвуют в республиканских и международных научных олимпиадах, конкурсах и научных проектах. Их достижения на практике подтверждают высокий уровень образования. Тот факт, что выпускники поступают в престижные высшие учебные заведения, также является показателем качества образования, предоставляемого в этих школах [7]. Важной составляющей уровня образования являются также программы, направленные на развитие лидерских качеств учащихся, навыков работы в команде и повышение социальной ответственности.Уровень образования в президентских школах обеспечивается прочной правовой базой, современной системой управления, учебными планами, соответствующими международным стандартам, и деятельностью высококвалифицированных преподавателей. Эти школы стали инновационной моделью в системе образования Узбекистана, способствуя воспитанию молодежи с высоким интеллектуальным потенциалом, самостоятельным мышлением и конкурентоспособностью на мировой арене.

Деятельность президентских школ остается важным фактором развития качественного образования в стране, укрепления человеческого капитала и достижения устойчивого развития. Эта модель направлена на развитие у учащихся логического, критического и творческого мышления. Учащиеся закрепляют свои

знания посредством проектной работы, исследовательской деятельности и практического опыта [8].

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Постановление Президента Республики Узбекистан от 20 февраля 2019 года № ПП-4199 «Об организации Президентских школ».
2. Указ Президента Республики Узбекистан «О создании Агентства Президентских, творческих и специализированных школ», 2019 г.
3. Постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан по организации деятельности Президентских школ, 2019–2021 гг.
4. Официальный сайт Агентства Президентских образовательных учреждений: https://piima.uz
5. Материалы и отчёты Министерства народного образования Республики Узбекистан.
6. OECD (2019). Education Policy Outlook: Uzbekistan.
7. World Bank (2020). Uzbekistan Education Sector Analysis.
8. Bybee, R. (2013). The Case for STEM Education: Challenges and Opportunities. New York: Routledge.

MARKAZIY OSIYODA “YANGI MINTAQAVIYLIK”: HAMKORLIK, XAVFSIZLIK VA GEOSIYOSIY OMILLAR

XUJANOVA MUNIRA FAYZULLAYEVNA
Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

JALILOVA MUXAYYO SHAMSHIDDIN QIZI
Jizzax davlat pedagogika universiteti, Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (Tarix) yo‘nalishi 2-kurs magistri

Annotatsiya / Аннотация / Abstract
Ushbu maqolada Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik va integratsiya jarayonlarining hozirgi bosqichi tahlil qilinadi. Xususan, Combined Strategic Analysis Group kabi xalqaro tahliliy tuzilmalar faoliyati hamda ularning strategik qarorlar qabul qilishdagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvi doirasida mintaqaviy hamkorlikning rivojlanishi, siyosiy muloqotning faollashuvi va iqtisodiy aloqalarning kengayishi tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari mintaqada “yangi mintaqaviylik” shakllanayotganini ko‘rsatadi, biroq iqtisodiy, siyosiy va geosiyosiy omillar integratsiya jarayonining chuqurlashuvini cheklayotgani qayd etiladi.
В статье рассматриваются современные процессы региональной безопасности и интеграции в Центральной Азии. Особое внимание уделяется роли международных аналитических структур, таких как Combined Strategic Analysis Group, в формировании стратегических решений. Анализируется развитие регионального сотрудничества в рамках Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvi, а также усиление политического диалога и экономических связей. Делается вывод о формировании «нового регионализма», при этом сохраняющиеся экономические и политические ограничения препятствуют углублению интеграции.
This article analyzes the current stage of regional security and integration in Central Asia. It highlights the role of international analytical structures such as Combined Strategic Analysis Group in supporting strategic decision-making. The study also examines the development of regional cooperation within the framework of Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvi, including enhanced political dialogue and expanding economic ties. The findings

suggest the emergence of a “new regionalism, ” although economic, political, and geopolitical constraints continue to limit deeper integration in the region.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords
Markaziy Osiyo, mintaqaviy xavfsizlik, integratsiya, CSAG, mintaqaviy hamkorlik, geosiyosat, suv-energetika, iqtisodiy diplomatiya
Центральная Азия, региональная безопасность, интеграция, международные структуры, геополитика, региональное сотрудничество, водно-энергетические ресурсы
Central Asia, regional security, integration, international analytical structures, geopolitics, regional cooperation, water-energy issues

Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik va integratsiya masalalari xalqaro munosabatlar nazariyasi va amaliy siyosat kesishgan nuqtada faol o‘rganilmoqda. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar mintaqaning geosiyosiy o‘ziga xosligi, tarixiy rivojlanishi va iqtisodiy salohiyatini kompleks tahlil qilishga qaratilgan.Mintaqaviy integratsiya nazariyalari doirasida klassik yondashuvlar, xususan, Ernst B. Haas tomonidan ilgari surilgan neofunksionalizm konsepsiyasi integratsiyaning institutsional mexanizmlarini tushuntiradi.[1] Shuningdek, Robert O. Keohane va Joseph S. Nye tomonidan ishlab chiqilgan liberal institutsionalizm nazariyasi davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikning institutsional asoslarini yoritgan.[2] Zamonaviy yondashuvlardan biri — “yangi mintaqaviylik” konsepsiyasi — Bjorn Hettne tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u globalizatsiya sharoitida mintaqaviy integratsiyaning moslashuvchan va ko‘p darajali shakllarini izohlaydi.[3]

Markaziy Osiyo bo‘yicha maxsus tadqiqotlar orasida Alexander Cooleyning asarlari alohida ahamiyatga ega bo‘lib, unda mintaqadagi tashqi kuchlar raqobati va siyosiy iqtisodiy jarayonlar tahlil qilingan.[4] Shuningdek, Marlene Laruelle Markaziy Osiyoda identitet, geosiyosat va tashqi ta’sir omillarini keng yoritadi.[5] Sebastien Peyrouse esa mintaqadagi iqtisodiy va transport integratsiyasi masalalarini chuqur o‘rganadi.[6]

So‘nggi yillarda mintaqaviy hamkorlikning yangi bosqichi Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan bog‘liq holda ilmiy adabiyotlarda keng yoritilmoqda. Xususan, mintaqaviy siyosiy muloqot va integratsiyaning faollashuvi Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvi doirasida tahlil qilinmoqda.Xavfsizlik tadqiqotlari nuqtayi nazaridan esa xalqaro tahliliy tuzilmalar, jumladan, Combined Strategic Analysis Group faoliyati alohida e’tibor markazida turadi. Ushbu tuzilmalar tomonidan ishlab chiqiladigan strategik tahlillar zamonaviy xavfsizlik muhitini tushunishda muhim manba sifatida qaraladi.Shuningdek, mintaqaviy integratsiyani taqqoslash maqsadida European Union va Association of Southeast Asian Nations tajribasi keng o‘rganilgan.[7] Ushbu tadqiqotlar Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonining o‘ziga xos jihatlarini aniqlashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar mintaqaviy integratsiya va xavfsizlik masalalarini keng yoritgan bo‘lsa-da, xalqaro tahliliy tuzilmalar va “yangi mintaqaviylik” o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik yetarlicha chuqur o‘rganilmagan.

Mazkur tadqiqotda Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik va integratsiya jarayonlarini o‘rganish uchun sifatli (qualitative) tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot doirasida tizimli yondashuv asosida mintaqaviy xavfsizlik muhitining asosiy komponentlari va o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilindi.Shuningdek, taqqoslash usuli yordamida mintaqadagi integratsiya jarayonlari European Union va Association of Southeast Asian Nations tajribasi bilan qiyoslandi. Kontent-tahlil orqali rasmiy hujjatlar, ekspert materiallari va Combined Strategic Analysis Group kabi tahliliy tuzilmalar hisobotlari o‘rganildi.Mazkur metodlar mintaqaviy jarayonlarni kompleks va tizimli ravishda baholash imkonini berdi.

Muhokama va natijalar. Mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashda xalqaro va ko‘p tomonlama tahliliy tuzilmalarning o‘rni ham ortib bormoqda. Jumladan, CSAG (Combined Strategic Analysis Group) harbiy-strategik darajadagi tahlil va baholash ishlarini amalga oshiruvchi muhim ekspert platformalaridan biri

hisoblanadi. Mazkur tuzilma tarkibiga Amerika Qo‘shma Shtatlari hamda hamkor davlatlarning harbiy xizmatchilari va mutaxassislari kiradi.CSAG faoliyati, asosan, Markaziy qo‘mondonlik mas’uliyat hududida — ya’ni Yaqin Sharq, Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalarida — xavfsizlik muhitini kompleks tahlil qilishga yo‘naltirilgan. Ushbu tuzilma tomonidan ishlab chiqiladigan tahliliy materiallar va strategik prognozlar harbiy-siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, CSAG faoliyati Markaziy Osiyoda xavfsizlik muhitini chuqur tahlil qilish, mavjud tahdidlarni oldindan aniqlash va ularga mos strategik choralar ishlab chiqishda muhim analitik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.Umuman olganda, bunday tahliliy tuzilmalarning faoliyati mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashda nafaqat harbiy, balki siyosiy va strategik qarorlar samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi. Bu esa Markaziy Osiyo davlatlari uchun xalqaro xavfsizlik tizimlari bilan yanada yaqin hamkorlik qilish zaruratini kuchaytiradi.2018-yilda qayta tiklangan “Markaziy Osiyo sammiti” mintaqaviy hamkorlikning ramziy va muhim institutsional maydoni hisoblanadi. Biroq, Markaziy Osiyodagi mintaqaviy hamkorlikning Association of Southeast Asian Nations (ASEAN) kabi xalqaro tashkilot darajasida institutsionallashuvi ehtimoli hozircha pastligicha qolmoqda.

Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikning faollashuvi ko‘p jihatdan Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan tashqi siyosat transformatsiyasi bilan bog‘liq. Islom Karimov vafotidan so‘ng shakllangan yangi paradigma izolyatsion yondashuvdan ochiqlik, pragmatizm va ko‘p tomonlama hamkorlikka o‘tish bilan tavsiflanadi.Mazkur siyosat yaxshi qo‘shnichilikni mustahkamlash, iqtisodiy diplomatiyani rivojlantirish, transport-logistika aloqalarini kengaytirish hamda siyosiy dialogni institutsionallashtirish orqali mintaqaviy integratsiyani jadallashtirmoqda. O‘zbekistonning barcha qo‘shni davlatlar bilan chegaradoshligi uni mintaqada muhim geosiyosiy “bog‘lovchi halqa”ga aylantirib, integratsiya jarayonlarida faol tashabbuskor sifatida namoyon etmoqda.Natijada, so‘nggi yillarda siyosiy muloqotning kuchayishi, o‘zaro savdo hajmining ortishi hamda transport va energetika loyihalarining faollashuvi kuzatilmoqda. Bu jarayonlar Markaziy Osiyoda “yangi mintaqaviylik” shakllanayotganini ko‘rsatadi.Shu bilan birga, tarixan mintaqaviy hamkorlik geosiyosiy raqobat, iqtisodiy tafovutlar, o‘zaro ishonchning pastligi, suv-energetika nizolari va chegaraviy muammolar kabi omillar sababli cheklangan. Hozirgi transformatsiya ushbu muammolarni to‘liq bartaraf etmagan bo‘lsa-da, ularni yumshatish va institutsional yechimlar ishlab chiqish uchun zarur sharoit yaratmoqda.

Umuman olganda, hozirgi bosqichda mintaqaviy hamkorlik fragmentar aloqalardan tizimli va institutsionallashgan shaklga o‘tmoqda. Biroq uning barqarorligi siyosiy iroda, iqtisodiy islohotlar chuqurligi va tashqi geosiyosiy omillarga bog‘liq bo‘lib qolmoqda.Xususan, suv resurslari masalasi jiddiy ziddiyat manbaiga aylangan edi. Yuqori oqim davlatlari — Tojikiston va Qirg‘iziston — qish mavsumida elektr energiyasi ishlab chiqarish maqsadida suvdan foydalanishga intilgan bo‘lsa, quyi oqim davlatlari — O‘zbekiston va Qozog‘iston va boshqalar — yoz oylarida qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun suvdan foydalanishni maqsad qilgan.Biroq, so‘nggi yillarda davlatlar o‘rtasida yaxshi qo‘shnichilik va do‘stona munosabatlarning shakllanishi hamda hamkorlik muhitining mustahkamlanishi natijasida ijobiy siljishlar kuzatilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston va Qirg‘iziston 2021-yil mart oyida 750 million kVt·soat hajmidagi elektr energiyasi yetkazib berish bo‘yicha bitim imzoladi[8] Shuningdek, 2021-yil iyun oyida O‘zbekiston va Tojikiston gidroelektr stansiyasi qurilishi loyihasini birgalikda amalga oshirish yuzasidan kelishuvga erishdi[9]

Mazkur holat mintaqa ichidagi savdo hajmining oshishiga olib keldi. Xususan, O‘zbekiston misolida ko‘rilganda, Markaziy Osiyo doirasidagi o‘zaro savdo hajmi 2017-yil yakuniga kelib 3 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yilga kelib 6, 3 milliard AQSh dollariga yetdi.Mintaqa ichidagi hamkorlik nafaqat savdo aloqalarini kengaytirishga, balki iqtisodiy va sanoat kooperatsiyasini rivojlantirishga ham xizmat qilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Qozog‘iston bilan avtomobilsozlik, qishloq xo‘jaligi texnikasi ishlab chiqarish, to‘qimachilik hamda qishloq xo‘jaligi

mahsulotlari sohalarida hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan. Shuningdek, Tojikiston bilan maishiy texnika va qurilish materiallari ishlab chiqarish yo‘nalishida hamkorlikni rivojlantirmoqda.Bundan tashqari, O‘zbekiston Qirg‘iziston va Tojikiston bilan tog‘-kon sanoati, metallurgiya hamda to‘qimachilik tarmoqlarida qo‘shma loyihalarni amalga oshirish maqsadida investitsiya va taraqqiyot jamg‘armalarini tashkil etdi.

Markaziy Osiyo davlatlari qariyb 20 yil davom etib kelgan raqobat va ziddiyatlarni bartaraf etishga, shuningdek, mintaqaviy hamkorlik milliy va mintaqaviy taraqqiyotning muhim omili ekanini anglagan holda, hamkorlik muhitini mustahkamlash va uni institutsional shaklga keltirishga intilmoqda.Shu nuqtayi nazardan, rasmiy nomi “Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvi” bo‘lgan Markaziy Osiyo sammiti (CAS) ta’sis etildi. Mazkur tuzilma mintaqaviy integratsiyani institutsionallashtirish yo‘lidagi ilk qadam sifatida baholanishi mumkin. CAS sammiti ilk bor 2017-yilda O‘zbekiston tashabbusi va yetakchiligida o‘tkazildi.Shundan buyon sammit to‘rt marotaba tashkil etildi. Uning asosiy maqsadlari davlatlar o‘rtasida, avvalo, iqtisodiy sohada hamkorlikni rivojlantirish, umumiy madaniy va tarixiy merosni asrash va rivojlantirish, shuningdek, koronavirus pandemiyasi va Afg‘onistondagi vaziyat kabi mintaqaviy muammolarga birgalikda javob qaytarish hamda hamkorlikni kuchaytirishdan iborat bo‘ldi.

2022-yil iyul oyida bo‘lib o‘tgan to‘rtinchi sammitda Qosim-Jo‘mart To‘qayev bir qator tashabbuslarni ilgari surdi:

- XXI asrda Markaziy Osiyoni rivojlantirish maqsadida Do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va hamkorlik to‘g‘risidagi shartnomani tuzish;
- Xavfsizlik kengashlari kotiblarining muntazam maslahatlashuv mexanizmini yo‘lga qo‘yish;
- Ko‘p tomonlama formatlarda CAS o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik konsepsiyasini ishlab chiqish;
- Davlat chegaralarini delimitatsiya qilish bo‘yicha o‘zaro maqbul yondashuvlarni ishlab chiqishga qaratilgan ekspert platformasini tashkil etish;
- Chegaraoldi savdo va iqtisodiy markazlar tarmog‘ini shakllantirish;
- Astana International Financial Centre (AIFC)ni mintaqaviy loyihalarga investitsiyalarni rag‘batlantirish platformasi sifatida rivojlantirish;
- Mintaqaning transport va logistika salohiyatidan samarali foydalanish;
- Atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha CAS Loyiha ofisini tashkil etish.[10]

Markaziy Osiyo sammitining mazmuni va amaliy natijalaridan qat’i nazar, uning o‘zi ham muhim siyosiy ahamiyat kasb etadi. Avvalo, mintaqaning barcha davlatlari Markaziy Osiyoda uzoq vaqt hukm surgan izolyatsion tendensiyalardan voz kechish jarayonida ishtirok etmoqda.Sovet Ittifoqi parchalanganidan so‘ng betaraflik siyosatini e’lon qilgan va ko‘plab xalqaro tashkilotlarda faol ishtirok etmagan Turkmaniston ham ushbu sammitda faol qatnashdi. Bundan tashqari, dastlab Qirg‘izistonda o‘tkazilishi rejalashtirilgan uchinchi sammit Qirg‘iziston va Tojikiston o‘rtasidagi chegara mojarosi sababli xavfsizlik nuqtayi nazaridan murakkablashgan bir sharoitda, kutilmaganda Turkmaniston uni o‘z tashabbusi bilan o‘tkazdi.[11]

Ikkinchidan, hamkorlik darajasi milliy bosqichdan mahalliy bosqichgacha kengaydi. Farg‘ona vodiysi hududida — ya’ni O‘zbekistan, Qirg‘iziston va Tojikiston chegaralari tutashgan mintaqada — mahalliy hokimiyat organlari o‘rtasida hamkorlik va maslahatlashuv mexanizmi shakllantirildi. Shuningdek, transchegaraviy hamkorlik izchil ravishda rivojlantirildi.[12] Transchegaraviy jamoat transporti qatnovlari qayta tiklandi, chegaraoldi savdosi jonlandi hamda erkin iqtisodiy zonalar tashkil etildi. Yopiq chegaralar siyosatining bekor qilinishi natijasida chegara hududlari ajralish va qarama-qarshilik makonidan hamkorlik va integratsiya hududiga aylana boshladi.

Uchinchidan, 1990-yillarda shakllangan “intilish xarakteridagi integratsionizm” qayta tiklanib, ko‘p tomonlama hamkorlikni institutsionallashtirish bosqichiga o‘tmoqda. Markaziy Osiyoda mintaqaviy integratsiya harakati yangi hodisa emas. 1990-yillarda Sovet Ittifoqi parchalanishi oqibatida yuzaga kelgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy beqarorlikni bartaraf etish maqsadida Markaziy Osiyo davlatlari dastlab sammitlar o‘tkazgan hamda turli xalqaro tashkilotlarda ishtirok etgan. 2009-

yilgacha sammitlar jami olti marotaba tashkil etilgan.

Biroq Rossiya yetakchiligida Eurasian Economic Community tashkil etilgach, mintaqa davlatlari tomonidan mustaqil ravishda olib borilayotgan integratsiya jarayonlari to‘xtab qoldi.[13]

Shu kontekstda, yaqinda o‘tkazilgan CAS sammiti mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish va bosqichma-bosqich mintaqaviy integratsiya jarayonini ilgari surish istiqbollarini yorqinlashtirmoqda. Garchi ikki tomonlama hamkorlik tendensiyasi hanuzgacha ustun bo‘lib, Qirg‘iziston va Tojikiston o‘rtasidagi chegara nizolarini oldini olish yoki hal qilish uchun mintaqaviy ko‘p tomonlama tartibga solish mexanizmi hali shakllanmagan bo‘lsa-da, “Ipak yo‘li vizasi” joriy etilishi orqali “bitta Markaziy Osiyo turizm zonasi”ni yaratish hamda suv resurslari masalalariga birgalikda javob berish katta qadam bo‘lishi mumkinligi va Markaziy Osiyoda ko‘p tomonlama hamkorlikni institutsionallashtirish jarayoni davom etayotgani aytish mumkin.

Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik nafaqat iqtisodiy rivojlanishni, balki mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlash nuqtai nazaridan ham ijobiy jarayon hisoblanadi. Mintaqaviy hamkorlik yanada rivojlanadi va Markaziy Osiyo mintaqasi yanada integratsiyalashgan hududga aylanadi. Biroq, ushbu mintaqaviy hamkorlik yaqin kelajakda European Union yoki Association of Southeast Asian Nations kabi mintaqaviy tashkilotga aylanishi ehtimoli past.Buning sababi shundaki, mintaqaning ichki tuzilishi va salohiyati, shuningdek, tashqi omillar Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik va integratsiya jarayonini cheklaydi yoki to‘sqinlik qiladi. Iqtisodiy cheklovlarga quyidagilar kiradi: mintaqa ichidagi savdo hajmining pastligi, iqtisodiy hamkorlikning zaifligi, hamkorlikni ta’minlaydigan texnologiya va moliyaviy resurslarning yetishmasligi hamda har bir davlatning iqtisodiy yo‘nalishi va strategiyasidagi tafovutlar.

Besh Markaziy Osiyo davlati orasida Qirg‘iziston va Tojikiston nafaqat juda kichik iqtisodiy tizimga ega, balki sanoat va iqtisodiy bazasi juda zaif bo‘lib, migrant ishchilardan tushadigan pul o‘tkazmalari yalpi ichki mahsulotning taxminan 40 foizini tashkil qiladi.[14] Qolgan uchta davlat esa energiya resurslariga bog‘liq iqtisodiy tuzilishi sababli o‘zaro to‘ldiruvchi iqtisodiy hamkorlikni amalga oshirishda qiyinchiliklarga duch keladi.Siyosiy darajada, mintaqaviy integratsiya jarayonida barqarorlikning pasayishi ko‘p tomonlama diplomatiya sohasidagi tajriba yetishmasligi, siyosiy rivojlanish va mas’uliyatning pastligi hamda neopatrimonial siyosiy tizim sababli yuzaga kelmoqda. Bundan tashqari, qo‘shni davlatlardagi xavfsizlik beqarorligi mintaqaviy hamkorlikni barqaror va rejalashtirilgan shaklda rivojlantirishga to‘sqinlik qilmoqda. Xususan, Afg‘onistondagi vaziyat natijasida terrorizm, ekstremizm, giyohvand moddalar tarqalishi va qochqinlar oqimi bilan bog‘liq xavotirlar ortib bormoqda.[15]

Shu bilan birga, energiya va suv resurslari kabi resurslardan foydalanish bo‘yicha chegara nizolari va mojarolar Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik va integratsiya yo‘lida eng katta to‘siqlardan biri hisoblanadi. 1920-yillarda Moskva tomonidan chizilgan chegaralar Sovet Ittifoqi parchalangandan so‘ng ham aniq hal etilmagan bo‘lib, 30 yil davomida qo‘shni davlatlar o‘rtasida jiddiy ziddiyatlarga sabab bo‘lgan. 2021-yilning aprel oxiridan may boshigacha Qirg‘iziston va Tojikiston o‘rtasida Farg‘ona vodiysi hududida yuzaga kelgan qurolli chegara mojarosi uzoq yillar davomida shakllangan mintaqaviy hamkorlik va integratsiya muhitiga jiddiy tahdid solgan.[16] Bundan tashqari, har bir davlatdagi siyosiy va iqtisodiy beqarorlik — boylikning monopoliyasi, islohot tarafdorlari bilan qarshilar o‘rtasidagi ziddiyat, surunkali ishsizlik kabi muammolar — osonlik bilan hal qilinmaydi. 2023-yil 13-yanvar holatiga ko‘ra, Markaziy Osiyo davlatlari (CAS) o‘rtasidagi hamkorlik va qo‘llab-quvvatlashning sustligi yorqin kelajakni oldindan taxmin qilishni qiyinlashtirmoqda. Shu jihatdan, Markaziy Osiyodagi integratsiya harakati kechikishi yoki hatto yana bir bor to‘xtab qolishi mumkin.

Hozir Markaziy Osiyoda amalga oshirilayotgan mintaqaviy integratsiya harakati XX asr oxiridagi harakatdan farq qiladi. O‘shanda integratsionizm Sovet Ittifoqining kutilmagan parchalanishi va undan keyingi siyosiy-iqtisodiy beqarorlikni yengib o‘tishning passiv va mudofaviy o‘lchovi sifatida namoyon bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi integratsiya harakati mintaqaning potensialini qayta ko‘rib chiqish va mintaqaviy rivojlanishni ilgari surishga

qaratilgan faol va yetakchi kontseptsiya hisoblanadi. Bu — faol javob reaksiyasidir.

CAS davlatlari quruqlikka chiqmagan davlat sifatida geosiyosiy noqulayliklardan chiqish uchun birgalikdagi hamkorlik zarurligini yaxshi anglab turibdi. Xususan, ular Eurasia transportation corridor hamda China's Belt and Road Initiativening shakllanishida faol ishtirok etmoqda. Boshqacha aytganda, Markaziy Osiyoning mintaqaviy rivojlanishi uchun Sovet davrida Moskva markazida tashkil etilgan iqtisodiy-va transport tarmog‘ini yengib o‘tish va yangi iqtisodiy hamda transport tarmog‘ini barpo etish juda muhimdir.[17] Shuningdek, Eron yaqinda CAS bilan siyosiy va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga intilmoqda; buning misollariga yuqori darajadagi shaxslar o‘rtasida o‘zaro tashriflar va Tojikistonda dron fabrikasini tashkil etish kiradi.[18] Agar joriy yadroviy muzokaralar muvaffaqiyatli yakunlanib, Eronga nisbatan turli sanksiyalar bekor qilinsa, hamkorlik va almashinuvlar yanada mustahkamlanishi kutilmoqda. Birinchi tomondan, Eron Markaziy Osiyo uchun tranzit markazi bo‘lishni istaydi va bu davlatlarga Hind okeaniga chiqish imkonini yaratishda yordam berishiga ishonadi.[19] Boshqa tomondan, Eron Markaziy Osiyoni Eron va Sharq o‘rtasidagi “ko‘prik mintaqasi” sifatida hisoblaydi. Har bir CAS davlatlari Eronni turli sohalarda hamkor sifatida ko‘radi — savdo va tranzit yo‘laklaridan tortib energiya importi va xavfsizlik kafolati beruvchigacha.

Xulosa. Mazkur tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik va integratsiya jarayonlari yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Xususan, Combined Strategic Analysis Group kabi xalqaro tahliliy tuzilmalar faoliyati xavfsizlik muhitini chuqur tahlil qilish, tahdidlarni oldindan aniqlash va strategik qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, mintaqa davlatlari o‘rtasida siyosiy muloqotning faollashuvi, iqtisodiy aloqalarning kengayishi va transport-logistika tizimlarining rivojlanishi “yangi mintaqaviylik” shakllanayotganidan dalolat beradi.Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvi (CAS) kabi platformalar mintaqaviy hamkorlikni institutsionallashtirish yo‘lida muhim qadam bo‘lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, Shavkat Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan ochiq va pragmatik tashqi siyosat mintaqada o‘zaro ishonchni mustahkamlash va integratsiya jarayonlarini jadallashtirishga sezilarli hissa qo‘shmoqda.

Shunga qaramay, mintaqaviy integratsiya hali to‘liq shakllanmagan bo‘lib, u bir qator muammolar bilan cheklanmoqda. Jumladan, iqtisodiy tafovutlar, suv-energetika nizolari, chegaraviy kelishmovchiliklar hamda tashqi geosiyosiy omillar integratsiya jarayonining barqarorligini murakkablashtirmoqda. Shu sababli, Markaziy Osiyo yaqin istiqbolda European Union yoki Association of Southeast Asian Nations darajasidagi chuqur institutsional tuzilishga aylanishi ehtimoli pastligicha qolmoqda.

Umuman olganda, hozirgi bosqichda Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik fragmentar aloqalardan tizimli va ko‘p tomonlama integratsiya sari evolyutsiya qilmoqda. Ushbu jarayonning muvaffaqiyati esa siyosiy iroda, iqtisodiy islohotlarning izchilligi va mintaqa davlatlarining o‘zaro manfaatli hamkorlikni chuqurlashtirishga bo‘lgan tayyorligiga bevosita bog‘liqdir.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. Haas, E. B. (1958). The Uniting of Europe: Political, Social and Economic Forces 1950–1957. Stanford University Press.

2. Keohane, R. O. (1984). After Hegemony: Cooperation and Discord in the World Political Economy. Princeton University Press; Nye, J. S. (1977). Power and Interdependence. Little, Brown and Company.

3. Hettne, B. (1999). Globalization and the New Regionalism. Macmillan Press.

4. Cooley, A. (2012). Great Games, Local Rules: The New Great Power Contest in Central Asia. Oxford University Press.

5. Laruelle, M. (2015). The Central Asia–Afghanistan Relationship: From Soviet Intervention to Post-American Withdrawal. Lexington Books.

6. Peyrouse, S. (2017). Economic Aspects of the New Silk Road. Central Asia Program.

7. Acharya, A. (2014). Constructing a Security Community in Southeast Asia: ASEAN and the Problem of Regional Order. Routledge.

8. “Kyrgyzstan and Uzbekistan agree on mutual supply of 750 mln kWh of electricity” AKIpress (Mar 25, 2021)

9. “Uzbekistan in trade with Central Asia” euroreporter (Jun 20, 2022), https://www.eureporter.co/world/uzbekistan/2022/06/20/uzbekistan-in-trade-with-central-asia/ (accessed on Nov 17

10. Georgi Gotev, “Kazakhstan announces initiatives at fourth summit of Central Asia states, ” Euractive, July 22, 2022, https://www.euractiv.com/section/central-asia/news/kazakhstan-announces-initiatives-at-fourth-summit-of-central-asiastates/

11. Catherine Putz, “Central Asian Leaders Set to Meet in Turkmenistan for Third Consultative Meeting”, The Diplomat, Aug 5, 2021, https://thediplomat.com/2021/08/central-asian-leaders-set-to-meet-in-turkmenistan-for-third-consultative-meeting/ (accessed on Nov 14)

12. “Grassroots Peacebuilding: Cross-Border Cooperation in the Ferghana Valley”, Central Asia Program, Jan 2018, https://safe.menlosecurity.com/doc/docview/viewer/docN9FE9BA8FF9B4d38587e7e2dcb3347828f64686423618ac95123899 7a419178e35bedaa219489 (accessed on Nov 14

13. Golam Mostafa, “Eurasian Economic Union: Evolution, challenges and possible future directions”, Hanyang University, Journal of Eurasian Studies Vol.9, Issue 2, Jul 2018, https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1879366518300149 (accessed on Nov 14)

14. “Central Asian governments fret over shrinking remittances from Russia”, The Economist, Jun 2022,

15. Susanne Schmeidl, “(Human) security dilemmas: long-term implications of the Afghan refugee crisis”, Third world Quarterly, Vol 23, No 1, pp 7-29, 2002 (accessed on Nov 14)

16. Gavin Helf, “Border Clash Between Kyrgyzstan and Tajikistan Risks Spinning Out of Control”, USIP, May 2021, https://www.usip.org/publications/2021/05/border-clash-between-kyrgyzstan-and-tajikistan-risks-spinning-out-control (accessed on Nov 15)

17. Stefan Hedlund, “Uzbekistan’s bumpy ride out of Russia’s orbit”, GIS Online, Aug 2022, https://www.gisreportsonline.com/r/uzbekistan-russia-relations/ (accessed on Nov 15)

18. Eric Lob, “Iran’s drone factory in Tajikistan” Middle East Institute, June 3, 2022, https://www.mei.edu/publications/iransdrone-factory-tajikistan.

19. Seth J. Frantzman, “What does Iran’s drive for Central Asia partnerships look like?” The Jerusalem Post, July 2, 2022, https://www.jpost.com/international/article-710999.

TURKISTON ASSR DA YANGI IQTISODIY SIYOSATNING AMALGA OSHIRILISHIGA OID AYRIM MULOHAZALAR

AKBOEVA ZEBINISO DJALOLIDDINOVNA

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

XX asrning 20-yillarida Turkiston o‘lkasida amalga oshirilgan yangi iqtisodiy siyosat mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu davr tarixini o‘rganish bugungi kunda dolzarb ilmiy masalalardan biridir. Mazkur maqolada Turkiston ASSRda yangi iqtisodiy siyosatning joriy etilishi jarayoni va uning natijalari tahlil qilingan.

В 1920-е годы новая экономическая политика, проводимая в Туркестанском крае, оказала значительное влияние на социально-экономическую жизнь региона. Изучение истории данного периода является одной из актуальных научных задач современности. В данной статье анализируется процесс внедрения новой экономической политики в Туркестанской АССР и её результаты.

In the 1920s, the New Economic Policy implemented in the Turkestan region had a significant impact on the socio-economic life of the area. Studying the history of this period remains an актуал scientific issue today. This article analyzes the process of implementing the New Economic Policy in the Turkestan ASSR and its outcomes.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords
mahalliy aholi, Turkiston Kompartiyasi, T. Risqulov, Rossiya imperiyasi, yangi iqtisodiy siyosat, “harbiy kommunizm” siyosati.
местное население, Коммунистическая партия Туркестана, Т. Рыскулов, Российская империя, новая экономическая политика, политика «военного коммунизма».
local population, Turkestan Communist Party, T. Ryskulov, Russian Empire, New Economic Policy, “War Communism” policy.

Ma’lumki, Turkiston o‘lkasida XX asrning 20-yillarida amalga oshirilgan yangi iqtisodiy siyosat o‘lka hayotining turli jabhalariga o‘zining ta’sirini o‘tkazdi. Mazkur siyosatning amalga oshirilishidan ko‘zlangan asosiy maqsad o‘lkada qaror topgan bolsheviklar hukmronligini mustahkamlash va uni yangi bosqichga olib chiqish hisoblanar edi. O‘lkada amalga oshirilgan yangi iqtisodiy siyosat tarixini o‘rganish va tahlil etish sovet davri tarixini yoritishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Turkiston ASSRda 1920 yillarning boshlarida yuzaga kelgan vaziyat sovet davlatining barbod bo‘lish xavfini yanada kuchaytirib yubordi. Turkiston ASSR da bolsheviklar tomonidan yuritilgan nomaqbul iqtisodiy siyosat mahalliy xususiyatlarni e’tiborga olmaganligi uchun xalq xo‘jaligida o‘zining fojeali izlarini qoldirishi bilan birgalikda, o‘lka xalqlarining noroziligini keltirib chiqardi.

Turkiston o‘lkasidagi inqiroz, asosan, o‘troq yashovchi mahalliy aholining xo‘jalik hayotiga salbiy ta’sir qildi. Sal keyinroq o‘tkazilga hisob-kitoblarga qaraganda, o‘troq mahalliy aholining soni va xo‘jaliklari miqdori keskin kamayib ketgan. Faqat, rus aholisining soni va xo‘jaliklari o‘rtasida o‘sish ko‘zga tashdanadi [2, 65].

Turkiston o‘lka Musulmonlar Byurosining raisi bo‘lgan Turor Risqulov Turkiston Kompartiyasi III-O‘lka S’ezdida 1919 yil 6-iyunda qilgan ma’ruzasida shunday degan edi: “Farg‘onada Sovet hokimiyati yo‘q, u faqat rus aholsisi bor shaharlardagina mavjud. Musulmon qishloqlarida esa sovet hokmiyati mavjud emas, u yerlarda Nikolay davridagi tartibsizliklar hukm surmoqda, pristav va volost boshqaruvlarining o‘rniga komissar va qaroqchilar to‘dasi kelishgan” [4, 99].

Turor Risqulov o‘z ma’ruzasida partiya rahbarligi niqobi ostida ish yuritgan kommunistlarning ma’naviy qiyofasi naqadar tuban ekanligini ham ochib tashlaydi. Musulmonlar hech qanday gunohsiz otib tashlanayotganliklarini, sovetlarning o‘zi ularni “millatchi” qilayotganligi ko‘rsatiladi. Turkistonda sovet hokimiyati o‘rnatilganidan so‘ng, qisqa davr ichida bolsheviklar hukmronligi qanday oqibatlarga olib kelganligi milliy kommunist T.Risqulov tomonidan ana shunday tarzda tasvirlanadi.

Turkistonda 1917 yilning qishida boshlangan ocharchilik bolshevikcha rejimning og‘ir siyosati natijasida tobora kuchayib borar edi. !918 yilning 20-noyabrda Turkiston ASSR da Ocharchilikka qarshi kurashish Markaziy Komissiyasi tuzildi. Komissiya raisi T.Risqulov o‘z tarjimai holida yozganidek, “...haqiqatan ham, ko‘chalar, ariqlar bo‘yida va qishloqlarda o‘layotgan millionlab yo‘qsillar va bolalarni qutqarish kerak edi, o‘sha vaqtdagi hokimiyat bunga panja orasidan qarar edi” [6, 4-15].

Ma’lumki, Farg‘ona viloyatida ocharchilik 1917-1918 yil qishidan boshlangan edi. Bu ocharchilik 1921-1923 yillarda avjiga chiqdi. Ochlik oqibatida eng ko‘p bolalar qirilib ketdi. Bu davrda vodiydagi shaharlar atrofi och qolgan odamlar bilan to‘lib ketgan edi. Qishloqlar va shahar ko‘chalari har kuni ochlikdan o‘lgan o‘nlab va yuzlab odamlarning murdalariga to‘lib ketgan bo‘lib, bu holat dahshatli manzara hosil qilgan[5, 2]. Masalan, 1922 yildi Farg‘ona viloyati Ochlik muammolarini tugatish komissiyasiga bir qishloq vakilining xabar berishicha, u stansiyaga yetib kelguncha 30 chaqirimcha yo‘l ustida 17 nafar jasadni odeyal, yostiq va ketmonlarini changallagancha o‘lib

yotgan holida ko‘rgan. Bu sho‘rliklar balkim, ro‘zg‘orlaridagi so‘nggi buyumlarini olib, nonga ayirboshlash uchun bozorga otlanganlar va yo‘lda ochlikdan qazo qilganlar. Markazga jo‘natilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari va yoqilg‘ining miqdori oy sayin ko‘payib borardi. Hujjatda keltirilishicha, 1921-1922 yillarda Turkistondan Rossiyaga 4.400.000 pud g‘alla jo‘natilgan[7, 18]. O‘sha paytda don yetishtirishga ixtisoslashmagan Turkiston qishloq xo‘jaligi uchun bu katta miqdordagi hosil hisoblanadi. Chunki, Turkiston o‘lkasi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingach, o‘lkadagi g‘alla maydonlari hisobidan paxta ekiladigan maydonlar kengaytirilib, g‘alla Rossiyaning Markaziy guberniyalaridan bu yerga tashib kelinar edi. Turkistonda Bolsheviklar hokimiyat tepasiga kelgach, Rossiyadagi fuqarolar urushi natijasida, o‘zlkaga g‘alla keltirish deyarli to‘xtab qolgan edi[3, 79-80].

Sovet Rossiyasida 1921-1922 yillarda yuz bergan dahshatli ochachilik to‘g‘risida xorijlik olimlar o‘z fikrlarini bildirib, bu holatni “harbiy kommunizm” siyosatining natijasi deb hisoblaydi. Krestyanlarning ommaviy ravishda ekspluatatsiya qilinishi natijasida mamlakat tarixidagi eng yirik ocharchilik 1921-1922 yillarda bo‘lib, buning oqibatida taxminan 5 mln. kishi halok bo‘ldi.

Yangi iqtisodiy siyosatni amalga oshirish jarayonida bir qator ziddiyatlar namoyon bo‘ldi. Ularning eng asosiysi, yangi iqtisodiy siyosat prinsiplarining hukmron kommunistik mafkura g‘oyasiga mos kelmasligida ko‘rinadi. Yangi iqtisodiy siyosatning asosiy vazifasi faqat sovet tuzumini mustahkamlashga xizmat qilishi lozim edi. Biroq, kommunistik ta’limotda mulkchilik shakllarining xilma-xilligi, xususiy mulkchilik va tadbirkorlik iqtisodiy va siyosiy fikr erkinligi inkor etilardi. Yangi iqtisodiy siyosat yo‘lining ziddiyatlari uni Turkistonda amalga oshirishda ochiq-oydin ko‘zga tashlandi. Turkistonda yangi iqtisodiy siyosat bir qator yo‘nalishlar bo‘yicha markaziy Rossiyaga nisbatan birmuncha kechroq o‘tkazila boshlandi. Turkiston o‘lkasida “harbiy kommunizm” siyosatining ta’siri kuchli edi. Turkistondagi yangi iqtisodiy siyosat yo‘li Turkiston Kompartiyasining VI S’ezdi (1921 yil avgust) va Turkiston ASSR Sovetlarining X Syezdi (1921 yil sentyabr) qarorlarida tasdiqlandi [1, 133-136]. Ularda O‘lkaning iqtisodiy rivojlanishi Sovet tuzumining mustahkamlanishi va sotsializm qurilishi bilan bog‘landi. Bularning barchasi sog‘lom bozor munosabatlarini rivojlantirishga monelik qilib, o‘lkaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta’sir ko‘rsatar edi.

Turkiston ASSR MIK 1921 yil aprel-may oylarida respublika miqyosida yangi iqtisodiy siyosatni o‘tkazishga oid qator qarorlar qabul qilgan edi. Xo‘jalik boshqaruvining yangi sharoitlariga o‘tish boshqaruv sohalarini qaytadan tashkil etish bilan bog‘liq hisoblanadi. Turkiston o‘lkasining iqtisodiyotini dastlab TASSR Xalq Xo‘jaligi Markaziy Kengashi boshqarar edi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, yangi iqtisodiy siyosat yo‘lining o‘ziga xos xususiyati tovar pul munosabatlarining jonlanishi savdo va ayriboshlash shakllarining “Harbiy kommunizm”ga xos bo‘lgan turli cheklashlardan ozod bo‘lishi hisoblanar edi. Ammo, keyingi davrda bolshevik hukmdorlari tomonidan amalga oshirilgan siyosat natijasida mazkur iqtisodiy yangiliklar amalda yo‘qqa chiqarildi. Xususan, xususiy mulkchilik, tadbirkorlik bilan shug‘ullanish, bozor tamoyillarini tamoman inkor etish yo‘li tanlandi. Natijada, shusiz ham abgor ahvolda bo‘lgan Turkiston o‘lkasi iqtisodiyoti tanazzulga yuz tutdi. Bu esa, o‘z navbatida, Turkiston o‘lkasi xalq xo‘jaligi hayotiga o‘zining salbiy ta’sir ko‘rsatgan omillardan biriga aylandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Коммунистическая партия Туркестана в резолюсиях съездов и конференций. – Ташкент: “Узбекистан”, 1988. –С.133-136.

2. Отчёт о деятелности СНК и Экономического Совета Туркестанской Республики на 1 октября 1922 г. – Ташкент: Изд. ТЕС, 1922. –С.65.

3. Rajabov Q., Haydarov M. Turkiston tarixi (1917-1924 yy). – Toshkent: “Universitet”, 2002. 79-80 betlar

4. Рыскулов Т. Революсия и коренное население Туркестана. Част И. 1917-1919 гг. Ташкент: Узбекгосиздат, 1925. –С.99.

5. Farg‘ona viloyat Davlat Arxivi. 435-Fond, 174-ish, 2-varaq.
6. O‘zbekiston MA. 86-fond, 1-ro‘yxat, 1525-ish, 4-15 varaqlar.
7. O‘zbekiston MA. 18-fond, 2-ro‘yxat, 19-ish, 18-varaq.

SOVET MEHNAT MAKTABI VA PEDAGOGLARNI QAYTA TAYYORLASH MASALASI (XX ASR BOSHLARI)

ERGASHEV SUXROB MUXIDDINOVICH

Samarqand davlat universiteti assistenti,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
suxrob-muxiddinovich@mail.ru
Orcid:https://orcid.org/0009-0005-7481-0764

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Mazkur maqolada XX asrning 20-yillari O‘zbekiston hududida ta’lim tizimini shakllantirish, pedagog kadrlarni tayyorlash va “savodsizlikni” tugatish jarayonlari davriy matbuot materiallari asosida tahlil qilingan. 1920-yillar o‘rtalarida chop etilgan jurnal maqolalarda maktab tarmoqlari, qishloq hududlarida ta’limni tashkil etish, o‘qituvchilar yetishmovchiligi hamda ularni qayta tayyorlash masalalari keng yoritilgan. Tadqiqotda 1925-yilda chop etilgan maqolalar asosida o‘sha davr ta’lim siyosati, statistik ko‘rsatkichlar hamda sovet ta’lim tizimining ideologik yo‘nalishlari tahlil qilingan. Natijada ta’lim tizimining rivojlanishi bilan bir qatorda, uning siyosiy-mafkuraviy maqsadlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganligi ham aniqlangan.

В данной статье на основе материалов периодической печати проанализированы процессы формирования системы образования на территории Узбекистана в 1920-е годы XX века, подготовки педагогических кадров и ликвидации неграмотности. В журнальных статьях, опубликованных в середине 1920-х годов, широко освещались вопросы сети школ, организации образования в сельской местности, нехватки учителей, а также их переподготовки. В исследовании на основе статей, опубликованных в 1925 году, проанализированы образовательная политика того периода, статистические показатели и идеологические направления советской системы образования. В результате было установлено, что наряду с развитием системы образования она была тесно связана с политико-идеологическими целями.

This article analyzes the processes of the formation of the education system in the territory of Uzbekistan during the 1920s, the training of pedagogical personnel, and the elimination of illiteracy based on materials from periodical publications. Journal articles published in the mid-1920s widely covered issues such as the development of school networks, the organization of education in rural areas, the shortage of teachers, and their retraining. Based on articles published in 1925, the study examines the educational policy of that period, statistical indicators, and the ideological orientations of the Soviet education system. As a result, it was determined that along with the development of the education system, it was closely connected with political and ideological objectives.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

ta’lim tizimi, o‘qituvchilar tayyorlash, sovet maktabi, savodsizlikni tugatish, pedagog kadrlar, qishloq maktablari, sovet mafkurasi, pedagogika tarixi.

система образования, подготовка учителей, советская школа, ликвидация неграмотности, педагогические кадры, сельские школы, советская идеология, история педагогики.

education system, teacher training, Soviet school, elimination of illiteracy, pedagogical personnel, rural schools, Soviet ideology, history of pedagogy.

XX asr boshlarida Turkiston hududida ta’lim tizimini tubdan isloh qilish masalasi muhim ijtimoiy-siyosiy vazifalardan biri sifatida ko‘tarilgan. Sovet hokimiyati yangi-sovet mehnat maktabi ta’lim dasturi asosida jamiyatni modernizatsiya qilish va aholining savodxonlik darajasini oshirish maqsad qilgan. Manbalar tahlili ta’lim tizimi nafaqat ma’rifiy, balki mafkuraviy vosita sifatida ham qo‘llanilganidan dalolat beradi. 1920-yillar davomida nashr etilgan jurnal va matbuot materiallarida maktab tizimini shakllantirish, o‘qituvchilar tayyorlash hamda “savodsizlikni” bartaraf etish masalalari keng muhokama qilingan. Ayniqsa, qishloq hududlarida ta’limni rivojlantirish, pedagog kadrlar yetishmovchiligi hamda ta’lim muassasalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish masalasi dolzarb bo‘lgan. Rasmiy matbuot va tarixiy tadqiqot sahifalarida yoritilgan ilmiy qarash va statistik ma’lumotlarni xolisona, qiyosiy tahlil asosida ilmiy tahlil qilish muhim vazifaga aylanmoqda.

XX asr boshlarida chop etilgan ko‘plab ilmiy va publitsistik maqolalarda ta’lim tizimida sotsialistik g‘oyalarni targ‘ib qilish hamda pedagog kadrlarni yangi siyosiy mafkura talablariga mos tarzda tayyorlash muhim vazifa sifatida ko‘tarilgan. O‘sha davr mualliflari ta’lim tizimini jamiyatning ideologik qayta qurilishi jarayoni bilan uzviy bog‘lab ko‘rgan. Jadid ma’rifatparvari Munavvar qori Abdurashidxonov Turkiston o‘lkasida ta’lim tizimi duch kelgan inqirozni avvalgi davrda mustamlaka Rossiyasi hukmronligi hamda uning missioner siyosati ostida Turkiston maorifparvarlari og‘ir sharoitda faoliyat yuritganini ta’kidlagan. Uning fikricha, Sovet hokimiyatining dastlabki yillarda maorif sohasi vakillari ancha keng ko‘lamli reja va g‘oyalar bilan ishlash imkoniga ega bo‘lgan. Inqilobdan keyingi dastlabki besh yil davomida ta’lim tizimi sezilarli darajada rivojlanib, kelajak uchun katta umidlar uyg‘otgan. Biroq ma’lum bir davrdan so‘ng bu jarayon kutilmaganda sekinlashib, ta’lim sohasida turg‘unlik va tushkunlik yuzaga kelgan [6]. Muallif bunday holatning sabablarini ilmiy qarashlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar hamda urush bilan bog‘liq ijtimoiy-siyosiy vaziyat bilan izohlagan.

1925-yilda maktab tarmoqlarining tuzilishi masalasi haqida Arxangelskiy tomonidan yozilgan “O‘zbekiston xalq maorifi tizimining asosiy masalalari” nomli maqolada ta’lim muassasalari bir necha turga ajratib ko‘rsatiladi. Muallif maktab tizimini uch asosiy yo‘nalishga bo‘ladi:

1. umumiy ta’lim beruvchi birlashgan maktab;
2. umumiy kasanachilik yoki hunar yo‘nalishidagi maktab;
3. yuqori darajadagi kasb-hunar maktabi.

Mazkur tasnifda umumiy ta’lim maktablari masalasiga alohida to‘xtalib o‘tiladi. Unda qishloq va ovullarda maktablarni darhol 7 yillik ta’lim tizimiga o‘tkazish iqtisodiy jihatdan qiyinligi ta’kidlangan. Bundan tashqari, dehqon oilalaridagi bolalar shahardagi tengdoshlariga nisbatan ancha erta qishloq xo‘jaligi ishlariga jalb etilishi ham ta’lim muddatining qisqa bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Shu sababli o‘sha davrda qishloq hududlarida asosan 3-4 yillik maktablar faoliyat ko‘rsatgan. O‘qituvchilar sonining yetarli emasligi maktab tarmoqlarini kengaytirish va yangi sinflar tashkil etishga to‘sqinlik qilgani qayd etilgan. Shuning uchun qishloq hududlarida 3, 4 yoki 5 yillik maktablar qachon tashkil etilishi mumkin ekani haqidagi savollarga aniq muddat berish qiyin bo‘lgan. Muallifning ta’kidlashicha, bu masala faqat yetarli miqdorda pedagog kadrlar tayyorlangandan keyingina hal etilishi mumkin bo‘lgan [1. 18-21-b]. Sobiq Turkistonning yirik shaharlarida ham 7 yillik maktablar juda kam bo‘lib, deyarli mavjud emas darajada ekanligi qayd etilgan. Biroq ularni tashkil etish uchun ma’lum darajada moddiy va tashkiliy imkoniyatlar mavjudligi ham ta’kidlangan.

Arxangelskiy tomonidan keltirilgan tasnif sovet ta’lim siyosatining amaliy ko‘rinishini ifodalaydi. Unda umumiy ta’lim va kasb-hunar ta’limi parallel rivojlantirilishi ko‘zda tutilgan. Bu siyosat ishlab chiqarish bilan bog‘langan ta’lim modelini yaratishga qaratilgan.

1925-yilda nashr etilgan “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnalining “Ertalabki majlis” nomli bo‘limida 1925-yil 26-mart kuni o‘tkazilgan yig‘ilish materiallari e’lon qilingan. Mazkur yig‘ilishda Nikifirov tomonidan “O‘zbekistonda o‘qituvchilar tayyorlash va ularning bilim darajasini tekshirish” mavzusida ma’ruza taqdim etilgan. Ushbu ma’ruzada 1923-1924-o‘quv yili davomida O‘zbekiston hududida faoliyat yuritgan maorif muassasalari tarkibi, ularda ishlayotgan pedagoglar hamda tahsil olayotgan o‘quvchilar soniga oid muhim statistik

ma’lumotlar keltirilgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, o‘sha davrda jami 810 ta ijtimoiy tarbiya maktabi faoliyat ko‘rsatgan. Ushbu maktablarda 2212 nafar o‘qituvchi 63942 nafar o‘quvchiga ta’lim berib, maktablarda jami 2138 ta sinf mavjud bo‘lgan. Bu yilda 54 ta maktab-internat ham faoliyat yuritib, ularda 253 nafar pedagog 4599 nafar tarbiyalanuvchini o‘qitish va tarbiyalash bilan shug‘ullangan [2. 78-79-b]. Shuningdek, 13 ta maktabgacha ta’lim muassasalarida 69 nafar tarbiyachi faoliyat yuritib, ular 885 nafar bolaga tarbiya bergan. Maktablardan tashqari faoliyat yurituvchi bolalar muassasalari soni 67 tani tashkil etib, bu muassasalarda 322 nafar murabbiy 5484 nafar bolaga ta’lim-tarbiya bergani qayd etilgan. Keltirilgan statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 1925-yilda O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi hududida jami 377 ta ijtimoiy tarbiya muassasasi va ularda 2534 nafar o‘qituvchi faoliyat yuritgan hamda 69426 nafar o‘quvchi ta’lim olgan.

Nikifirov o‘z ma’ruzasida O‘zbekiston hududida savodsizlikni bartaraf etish bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar soni bir necha yuz kishidan iborat ekanini qayd etgan. Ularning aksariyati yirik shaharlarda, ayniqsa Toshkent kabi markaziy hududlarda faoliyat yuritayotganini ta’kidlagan. Ma’ruzada butun respublika bo‘yicha 1956 ta ta’lim muassasasi savodsizlikni tugatish ishlariga jalb etilgani haqida ham ma’lumot beriladi. Shu bilan birga, muallif hisob-kitoblarni amalga oshirayotganda an’anaviy eski usul maktablarini umumiy statistikaga kiritmaganini alohida ta’kidlagan. Unga ko‘ra, bu turdagi maktablarda 3365 nafar o‘qituvchi faoliyat yuritib, ular 101389 nafar o‘quvchiga ta’lim bergan. Biroq ushbu maktablar savodsizlikni tugatish jarayonini baholashda hisobga olinmagan [2. 78-79-b]. Mazkur holat diniy va an’anaviy ta’lim beruvchi eski maktablarda o‘qiyotgan yoshlar sovet statistikasida savodli qatlam sifatida e’tirof etilmaganini ko‘rsatadi. Natijada sovet ta’lim tizimi doirasidan tashqarida bilim olgan shaxslar rasmiy hisobotlarda “savodsiz” yoki savodsizlikni tugatish zarur bo‘lgan guruh tarkibiga kiritilgan bo‘lishi mumkin. Ma’ruzada yana O‘zbekiston aholisi soni taxminan 5 million kishi deb hisoblangan holda savodli aholining ulushi atigi 2 foizni tashkil etishi qayd etilgan. Nikifirovning hisob-kitobiga ko‘ra, savodsizlikni tugatish va ta’lim jarayonini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish uchun kamida 4000 nafar o‘qituvchi zarur bo‘lgan. Ammo o‘sha davrda mavjud pedagoglar soni 3365 nafarni tashkil etgan. Demak, ta’lim tizimining barqaror ishlashi uchun yana 635 nafar o‘qituvchi yetishmayotgani ta’kidlangan[2. 79-b]. Muallif bu fikr orqali sovet mehnat maktablari uchun malakali pedagog kadrlar tayyorlash masalasi muhimligini alohida qayd etgan. Biroq Nikifirov o‘z hisob-kitoblarida eski usul maktablarida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilar va u yerda tahsil olayotgan o‘quvchilarni hisobga olmagani, shu bilan birga savodli aholi ulushi atigi 2 foiz ekanini ta’kidlagani masalaning aniqligi va xolisligiga nisbatan ayrim shubhalarni ham keltirib chiqaradi.

XX asr boshlaridan pedagog kadrlarni qayta tayyorlash masalasiga jiddiy e’tibor qaratilgan bo‘lsa-da, matbuot sahifalarida mintaqadagi savodxonlik darajasi past ekani haqidagi ma’lumotlar tez-tez uchrab turadi. Masalan, ayrim maqolalarda Yevropa mamlakatlari bilan taqqoslab, u yerda har yuz kishidan atigi 3-4 nafari savodsiz bo‘lsa, Turkiston hududida esa har yuz kishining 91, 3 nafari savodsiz hisoblanishi qayd etilgan [3. 11-b]. Matbuotda keltirilgan savodsizlik darajasi an’anaviy maktab va madrasalarda tahsil olganlarni hisobga olmasdan tuzilgan bo‘lishi mumkin. Shu sababli bu statistik ma’lumotlar real savodxonlik darajasidan ko‘ra sovet ta’lim tizimining zarurligini ko‘rsatish uchun ishlatilgan bo‘lishi ehtimoli mavjud.

1925-yilda nashr etilgan “Maorif va o‘qituvchi” jurnali sahifalarida Rahim In’omning “Yangi kuch bilan” nomli maqolasi chop etilgan. Mazkur maqolada o‘sha davrda maktab masalasi juda murakkab muammo bo‘lib qolayotgani ta’kidlangan. Sovet mehnat maktablarini tashkil etish jarayoni oson kechmagan bo‘lsa-da, o‘lkada olib borilgan faol harakatlar natijasida ma’lum darajada ijobiy siljishlarga erishilgani qayd etilgan. Muallif maktab tizimini rivojlantirishdagi eng muhim omil sifatida ta’lim muassasalarini malakali o‘qituvchilar bilan ta’minlash masalasini ko‘rsatgan. Shu yo‘nalishda olib borilgan ishlar natijasida “qizil o‘qituvchilar” deb atalgan yangi pedagoglar guruhi shakllana boshlangan. Biroq ularning bilim darajasi va pedagogik tajribasi ko‘p hollarda yetarli darajada bo‘lmagan. Hatto ayrim o‘qituvchilar bilan suhbatlashilganda, ular 3-4 yil

ham muntazam ta’lim olmaganini tan olganlari qayd etilgan [4. 18-b]. Shu sababli o‘qituvchilarni qayta tayyorlash masalasi nihoyatda dolzarb bo‘lib qolgan. Muallifning ta’kidlashicha, avvalgi yil bu boradagi ishlar qoniqarli natija bermagan bo‘lsa-da, 1925-yilda o‘tkazilgan qayta tayyorlash kurslari ancha samarali bo‘lgan. Har qancha vaqt va sharoit cheklangan bo‘lsa ham, bu kurslarda qatnashgan o‘qituvchilar o‘z bilim darajasini deyarli ikki barobar oshirishga muvaffaq bo‘lgan. Natijada 1200 nafar pedagog yangi kuch sifatida ta’lim tizimiga kirib kelgani qayd etilgan. Biroq rasmiy jurnalning 1928-yil e’lon qilingan maqolalarida keltirilgan ma’lumotlar 1925-yildagi statistik ko‘rsatkichlar bilan ayrim jihatdan zid keladi. Chunki 1925-1928-yillar davomida qayta tayyorlangan o‘qituvchilar faoliyat boshlaganini hisobga olsak, bu jarayon savodxonlik darajasining oshishiga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatgan bo‘lishi kerak edi. Shuning uchun ayrim statistik ma’lumotlar mualliflarning butun respublika miqyosidagi ta’lim tizimi haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lmaganini yoki sovet ma’muriy tizimi sharoitida barcha haqiqatni ochiq bayon etish imkoniyati cheklanganini ko‘rsatishi mumkin.

Manbalarda qayta tayyorlash kurslaridan o‘tgan o‘qituvchilar, ayniqsa qishloq pedagoglari zimmasiga katta vazifa yuklatilgani ta’kidlanadi. Ular maktab tashkil etish va haqiqiy sovet mehnat maktablarini shakllantirish jarayonida faol ishtirok etishlari lozim bo‘lgan. O‘sha davrda O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi aholisining qariyb 85 foizi dehqonlardan iborat bo‘lgani sababli maktablar ham qishloq hayotiga yaqin bo‘lishi, dehqonlarning turmushini yaxshilash, xo‘jaligini rivojlantirish hamda kelajak istiqbolini ta’minlashga xizmat qilishi kerak deb hisoblangan [4. 18-b]. Shu nuqtai nazardan, har bir o‘qituvchi bu tamoyilni yaxshi anglab, qishloq maktablarini rivojlantirishga hissa qo‘shishi zarurligi ta’kidlangan. Agar pedagoglarning bilim darajasi yetarli bo‘lmasa, ular mustaqil ravishda o‘z ustida ishlashi lozimligi ham qayd etilgan. Bundan tashqari, o‘qituvchi faoliyati faqat maktab va sinf bilan chegaralanib qolmasligi, balki qishloq hayotining barcha jabhalarida faol ishtirok etishi kerakligi uqtirilgan. Muallifning fikricha, o‘qituvchi nafaqat pedagog, balki ijtimoiy faolligi yuqori bo‘lgan tashkilotchi va targ‘ibotchi bo‘lishi, xalq orasida ishlashi, ularning turmushini yaxshilashga ko‘maklashishi hamda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim bo‘lgan [4. 18-b]. Qishloqda muallim madaniy kuch sifatida qaralib, maktab atrofida jamiyatning turli qatlamlarini birlashtirishi va yangi madaniy tashabbuslarni boshlab berishi kerakligi alohida ta’kidlangan.

Matbuotda nashr etilgan maqolada 1925-yil xotin-qizlar maorifi oldinga siljiyotgan bo‘lsa-da, hali ham ko‘plab qishloqlarda ayollar ta’limdan uzoqda qolayotgani ma’lum qilingan [4. 18-b]. Shuning uchun o‘qituvchilar bu yo‘lda katta mahorat bilan ishlab, ayollar ta’limini rivojlantirishga alohida kuch sarflashi va keyingi yilda har bir qishloqda xotin-qizlar orasidan chiqqan madaniy kuchlar erkaklar bilan birgalikda faoliyat yuritishi kerakligiga urg‘u bergan. O‘qituvchilar o‘z bilim, usul va ta’lim tajribalarini keng xalq ommasi orasiga yoyib, haqiqiy sovet mehnat maktabini tashkil etishda chin dildan, inqilobiy ruh bilan ishlashga da’vat etilgan.

Sovet hukumatining XX asr boshlaridagi eng katta rejasi yoshlarni milliy qadriyat va qarashlaridan farqli o‘laroq sotsialistik g‘oya atrofida birlashtirishdan iborat bo‘lgan. Bunga misol, 1929-yil davriy nashrda N.Inoyatiyning “Maktabda dinga qarshi tarbiya” nomli maqolasidagi sho‘ro maktab bolalarini din va ijtimoiy hayotga ilmiy nuqtadan qaraydigan qilib tayyorlash bilangina kifoyalanmasdan, avval bolani kommunizm ruhida tarbiyalab, butun borlig‘i bilan eski turmushga va dinga dushman dahriy va sotsializm kurashchilari qilib tayyorlash lozimligiga urg‘u berilganida ham kuzatish mumkin [5. 25-b].

XX asr 20-yillarida ta’lim tizimi faqat bilim berish vositasi emas, balki yangi sovet jamiyatini shakllantirish vositasi sifatida qaraldi. Shu sababli maqolalarda sotsialistik g‘oyalarni targ‘ib qilish va pedagoglarni yangi mafkura asosida tayyorlash muhim vazifa sifatida ko‘rsatilgan. Bu jarayon Sovet davlatining umumiy siyosati bilan bog‘liq bo‘lib, ta’lim orqali yangi siyosiy ongni shakllantirish maqsad qilingan. 1920-yillarda sovet mehnat ta’lim tizimi rivojlanishida asosiy muammolardan biri o‘qituvchilar yetishmovchiligi bo‘lgan. 1923-1924 o‘quv yiliga oid ma’lumotlarda maktablarda o‘quvchilar ta’lim olgan bo‘lsa-da,

pedagog kadrlar soni yetarli bo‘lmagan. Maktab-internatlar, maktabgacha ta’lim muassasalari va boshqa bolalar tarbiya maskanlari faoliyat yuritsa-da mavjud imkoniyatlar aholining umumiy ta’lim ehtiyojini to‘liq qondira olmagan. Sotsialistik jamiyat uchun savodsizlikni tugatish kampaniyasi ham muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lgan. Respublikada minglab ta’lim muassasalari o‘quvchilarga bilim berish jarayonga jalb etilgan bo‘lsa-da, biroq eski usul maktablarida tahsil olayotgan o‘quvchilar rasmiy statistikada savodli aholi qatoriga kiritilmagan. Bu esa sovet ta’lim tizimi tashqarisidagi bilim tizimining e’tirof etilmaganini ko‘rsatadi.

Agrar davlat sifatida qaralgan O‘zbekiston SSRda qishloq maktablari uchun pedagog kadrlar tayyorlash masalasi ham murakkab bo‘lgan. Har bir markaziy hududlarda o‘qituvchilarni qayta tayyorlash kurslari tashkil etilib, qisqa muddatda ularning malakasini oshirishga harakat qilingan. Aholining katta qismi qishloqlarda yashagani sababli maktablar ham qishloq hayoti bilan bevosita bog‘lanishi kerakligi ta’kidlangan. O‘qituvchilar nafaqat ta’lim beruvchi, balki jamiyatda madaniy-ijtimoiy faol shaxs sifatida ham faoliyat yuritishi lozim bo‘lgan.

Bu davr sovet ta’lim siyosati mafkuraviy yo‘nalishga ega ekani bilan ham izohlanadi. Maktablarda diniy qarashga qarshi tarbiya olib borish, yoshlarni kommunistik ruhda tarbiyalash masalasi maqolalarda keng yoritilgan. Bu esa ta’lim tizimi orqali yangi ijtimoiy ongni shakllantirish maqsadi mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi.

Xulosa. XX asrning 20-yillarida O‘zbekiston hududida ta’lim tizimini shakllantirish jarayoni murakkab ijtimoiy va siyosiy sharoitlarda amalga oshirilgan. Davriy matbuot materiallari o‘sha davrdagi ta’lim siyosati va pedagogik muammolarni o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim tizimining rivojlanishida bir qator muammolar-o‘qituvchilar yetishmovchiligi, qishloq maktablarining kamligi, pedagoglarning malaka darajasining pastligi hamda ayollar ta’limining sustligi mavjud bo‘lgan. Shuningdek, savodsizlikni tugatish va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilgan. Biroq sovet ta’lim tizimi faqat ma’rifiy vazifani bajaribgina qolmay, balki yangi mafkuraviy qarashlarni shakllantirish vositasi sifatida ham xizmat qilgan. Shu sababli ta’lim jarayoni ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar bilan birga siyosiy maqsadlar bilan ham uzviy bog‘liq bo‘lgan.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Arxangelskiy. O‘zbekiston xalq ma’orifi usulining asosiy masalalari //Maorif va o‘qitg‘uvchi. –1925. № 1-son.
2. Ertalabki majls// Maorif va o‘qitg‘uvchi. –1925. № 4-son.
3. Lotinlashtirish ishida asosiy direktivlar. Alanga jurnali 1928 yil, yanvar. № 8-son.
4. Yangi kuch bilan// Maorif va o‘qitg‘uvchi. –1925. № 4-son.
5. Inoyatiy N. Maktabda dinga qarshi tarbiya// Maorif va o‘qitg‘uvchi.–1929 yil fevral-mart. № 2-3.
6. https://ziyouz.uz/matbuot/jadid-matbuoti/munavvarqori-abdurashidhonov-turkiston-shurolar-jumhuriyatidagi-maorifparvar-yoshlarga-hitob-1923/

“ИБРОҲИМБЕК ҚЎРБОШИ” – ТУРОН МУСТАҚИЛЛИГИ УЧУН КУРАШГАН СИЙМОНИНГ ЖАСОРАТИ ЁРИТИЛГАН АСАР

МАВЛУДА РАҲМОНОВА

*Ўзбекистон ФА Тарих институти
кичик илмий ходими*

Annotatsiya / Аннотация / Abstract
Россия империясининг Туркистонга нисбатан олиб борган босқинчилик сиёсати 1917 йилда ҳокимият тепасига келган большевиклар ҳукмронлиги даврида янада ўзининг авж нуқтасига чиқди. Бу даврда шаклланган миллий истиқлолчилик ҳаракати фаолиятининг пировард мақсадлари ўлкани мустамлакачилик зулмидан озод қилиш ва мустақилликка олиб чиқиш эди. Афсуски, совет ҳокимияти ўз ҳукмронлигининг дастлабки йиллариданоқ тоталитар тузумга қарши қаратилган ҳар қандай чиқишларга жавобан аёвсиз қонли кураш олиб борди.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords
Тарихчи олим профессор Қаҳрамон Ражабов муаллифлигида 2025 йилда “Фан” нашриётида чиқарилган “Иброҳимбек қўрбоши” (256 бет) монографиясида ўлкамиз тарихининг энг оғриқли даври ва қонли саҳифалари акс эттирилган

Тарихчи олим профессор Қаҳрамон Ражабов муаллифлигида 2025 йилда “Фан” нашриётида чиқарилган “Иброҳимбек қўрбоши” (256 бет) монографиясида ўлкамиз тарихининг энг оғриқли даври ва қонли саҳифалари акс эттирилган бўлиб, унда Туркистон минтақасидаги миллий истиқлолчилик ҳаракати раҳбарларидан бири Иброҳимбек қўрбоши (1889-1932) ва унинг мард сафдошлари фаолияти ҳақида сўз боради. Ушбу асар Шарқий Бухоро ҳудудида совет давлати ва унинг ҳарбий қўшинига қарши фидокорона курашган Иброҳимбек қўрбоши жасоратларини намаён қилувчи мукаммал китоб бўлиб, унга муаллифнинг 35 йилдан ортиқ давр мобайнида олиб борган илмий изланишлари ва тадқиқотлари натижаси киритилган.

Китобни ёзиш жараёнида муаллиф томонидан Ўзбекистон, Тожикистон ва Россия Федерациясида сақланаётган ўнлаб архив фондлари синчиклаб ўрганилган. Тўпланган маълумотлар бошқа тарихий манбалар, хусусан даврий матбуот материаллари ҳамда Туркистон ва Бухоронинг давлат, сиёсат арбобларининг хотиралари, қўрбошиларнинг авлодларидан ёзиб олинган оғзаки тарих материаллари билан танқидий солиштириб, қиёсий таҳлил қилинган.

Қаҳрамон Ражабов томонидан ёзилган “Иброҳимбек қўрбоши” (144 бет) ҳамда “Иброҳимбек қўрбоши ва сафдошлари жасорати” (400 бет) номли асарлар монография шаклида 2022 йили “Фан” нашриётида минг нусхада нашрдан чиқарилган эди. Бу китоблар Туркистондаги истиқлолчилик ҳаракати тарихи ҳамда қўрбошилар фаолияти билан қизиқувчи китобхонлар орасида тезда тарқалиб, оммалашиб кетгач, билдирилган таклиф ва талаблар асосида муаллиф 2025 йили юқорида номи келтирилган китобларнинг ихчамлаштирилган вариантини битта китоб ҳолига келтириб, 2 000 нусхада қайта нашрдан чиқаришга муваффақ бўлди.

Асарнинг иккинчи нашри муаллиф сўзбошиси билан бошланган бўлиб, жами 5 та боб, фойдаланилган манба ва адабиётлар рўйхати ҳамда илова қисмларидан таркиб топган.

Биринчи бобда совет ҳокимияти ва қизил армиянинг Бухоро давлатига ҳарбий тажовузи ва унинг оқибатлари масалалари

ўрин олган бўлиб, унда асосан Бухорога қизил армиянинг ҳужуми, амирлик ҳокимиятининг ағдарилиши ҳодисалари ҳамда Ҳисор экспедициясининг Шарқий Бухорога тажовузи ва совет ҳокимиятининг ўрнатилиши жараёнлари таҳлил этиб ўтилган. Хусусан, асарда келтирилган маълумотларга кўра, Бухорода советларнинг қуролли тажовузи билан амирлик ҳокимияти ағдарилгач, 1921 йилда бошлаб Шарқий Бухоро ҳудудидаги қўрбошилар гуруҳида умумий раҳбар сифатида Иброҳимбек босқинчи қизил армия ва совет режимига қарши мустақиллик ва озодлик курашига бел боғлайди.

Иккинчи бобда тўлиқ “бутун Шарқий Бухородаги марказий сиймо - Иброҳимбек” фаолияти ва унинг совет режимига қарши жанглардаги жасоратли тақдири ўз ифодасини топган. Чунончи, 31 ёшидан совет давлатига қарши кураш майдонига кириб, 1921-1926 йилларда Шарқий Бухоро ва Ўрта Бухородаги истиқлолчилик ҳаракатининг Олий бош қўмондони даражасига кўтарилган Иброҳимбек қўрбоши ўз олдига Бухоро тупроғини қизил аскарлардан тозалашни мақсад қилиб олган эди. “У қисқа муддат ичида 10 минг нафардан ортиқ аскар тўплаб, Кўлоб, Балжувон, Қоратегин, Дарвоз, Ҳисор вилоятларини қизил аскарлардан озод қилишга муваффақ бўлган”лиги асарда келтириб ўтилади. Бобда Иброҳимбек ва Салим Пошшо муносабатлари, Иброҳимбек қўшинининг ҳарбий стратегияси ва тактикаси масалалари, советлар ва қизил армияга қарши олиб борилган жанглар тафсилотлари тарихий манбалар, архив ҳужжатлари асосида очиб берилган.

Учинчи бобдан 1921 йил сентябрда бўлган Бухоро қўрбошиларининг қурултойида “Ислом лашкарбоши” унвонига сазовор бўлган Иброҳимбек қўрбошининг жасур сафдошлари ҳақидаги маълумотлар ўрин олган. Жумладан, қизил армияга қарши жангларда мардонавор курашган сафдошлар орасида ёши улуғ оқсоқол Абдуқаюм Парвоначи (1885-1932), Иброҳимбекнинг пири ва ўринбосари бўлган Исохон Эшон (1884-1932), Шарқий ва Ўрта Бухородаги советларга қарши қуролли ҳаракатнинг ғоявий раҳнамоси Сулаймон Салоҳиддинов [Эшони Судур] (1878-1932), Иброҳимбек қўрбошининг шахсий котиби Мирзақаюм Шеров (1898-1932), Иброҳимбекнинг сафдоши сифатида қуролли ҳаракатларда қатнашган Алимардон Додхоҳ (1888-1932), Мулла Ниёз Парвоначи Ҳакимов (1879-1932), Мулла Аҳмадбий Саидов (1878-1932), Азим Марқа Остонақулов (1881-1932), Тошмат Хўжабердиев (1894-1932), Арлот Полвон Элмирзаев (1890-1932), Эшон Полвон Баҳодирзода (1888-1932), Ортиқ Додхоҳ Аширов (1892-1932), Шоҳасан Имомқулов (1894-1932), Кўганбек Шералиев (1898-1932), Кўган Кенжаев (1904-1932)ларнинг аянчли тақдири тарихий маълумотлар ва манбаларга асосланиб ёритиб берилган. Бобда келтирилган маълумотга кўра, Иброҳимбек қўрбоши ва унинг 15 нафар мард сафдошлари СССР ОГПУнинг 1932 йил 13 апрелдаги ҳукми билан уларнинг барчаси бир кунда – 1932 йил 10 августда отиб ташланади.

“Иброҳимбек қўрбоши” асарининг 2-нашрига тегишли *тўртинчи бобда* 1921-1926 йилларда Шарқий Бухорода Иброҳимбек қўрбоши бошчилигида истиқлол жанглари ва ҳаёт-мамот кураши тасвирланган бўлиб, унда Шарқий ва Ўрта Бухорода қизил армияга қарши қуролли ҳаракатларда эришилган ғалабалар, истиқлолчилар курашининг умумхалқ ҳаракатига айланиши, Иброҳимбекнинг Сурхон воҳасидаги издошлари фаолияти ҳақида сўз боради.

Ўзбекистон Республикаси Давлат хавфсизлик хизмати архивида сақланаётган 577051-ишдаги Иброҳимбек қўрбоши ҳақидаги архив ҳужжатлари очиқланиши масаласи ҳамда 2021 йилда 25 августда ўтказилган очиқ суд қарорига кўра, совет даврида қатағон қилинган машҳур қўрбоши Иброҳимбек Чақабоев ва унинг 15 нафар сафдошлари оқланиши масалалари ушбу асарнинг *бешинчи бобида* тасвирлаб берилган. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 8 октябрдаги “Қатағон қурбонларининг меросини янада чуқур ўрганиш улар хотирасини абадийлаштиришга доир қўшимча чора-

тадбирлар тўғрисида”ги Фармони ижросини таъминлаш мақсадида Республика ишчи гуруҳи ҳамда тарихчи олимлар олиб борган катта ва машаққатли меҳнат, амалга оширилган илмий изланишлар натижаси ўлароқ, 2021 йилнинг 25 августида Иброҳимбек қўрбоши ва унинг сафдошларига совет даврида қўйилган айбловлар олиб ташланиб, тарихий адолат тикланди.

Асарнинг *илова* қисми алоҳида тарихий аҳамияга эга бўлиб, унда муҳим манбалар ҳисобланган Иброҳимбек ҳақидаги архив ҳужжатлари, Иброҳимбек сиймоси улуғланган шеърлар, халқ қўшиқлари, достонлардан парчалар ўрин олган. Аввалги нашрдан фарқли жиҳат шундаки, Иброҳимбек қўрбоши ва унинг сафдошларининг 1931-1932 йилларда ҳибсда бўлган вақтдаги тергов ҳужжатлари қисми олиб ташланиб, уларнинг ўрнига Ўзбекистон Республикаси Давлат хавфсизлик хизмати архивидан олинган 577051-сонли “Иброҳимбек иши” даги айрим материаллар ва суратлар биринчи марта илмий муомалага киритилган. Бундан ташқари, Сурхон воҳасидаги қизил армияга қарши шиддатли жангларда қатнашган Хуррамбек ва Ўтамбек каби Иброҳимбекнинг сафдош қўрбошилари фаолияти ҳақидаги янги маълумотлар акс эттирилган.

Шу ўринда алоҳида таъкидлаб ўтиш жоизки, профессор Қаҳрамон Ражабов ушбу илмий асар орқали тарих ихлосмандларига мустақиллик ва миллий истиқлол йўлида жон берган қаҳрамон юртдошларимиз ҳақидаги ҳақиқатларни етказиб беришни ўз олдига мақсад қилиб қўйган ва бунга эриша олган. Бу жиҳатдан асарнинг тарихий аҳамияти ва қиммати, юрт ўтмиши олдидаги вазифаси ва ўрни ниҳоятда беқиёсдир. Китобнинг 2-нашри ихчамлаштирилган ҳолатда нашр қилинганлиги ҳам ўқувчи учун қулайликларни яратади. Тавсия ва таклиф нуқтаи назаридан асарнинг нашр ададини кўпайтириш ва юртимиз кечмишида ўз жасоратлари билан из қолдирган Иброҳимбек қўрбоши ҳамда унинг сафдошлари каби бошқа истиқлолчилик ҳаракати намояндаларига оид монографиялар ва ҳужжатлар тўпламларининг сонини ошириш ҳақида фикрларни келтириб ўтиш лозим кўрилди.

АДАБИЁТ ВА МАНБАЛАР РЎЙХАТИ:

1. Заки Валидий Тўғон. Бўлинганни бўри ейди. – Тошкент: Шарқ, 1997.
2. Аҳмад Зиё. Туркистонда миллий озодлик ҳаракати. – Тошкент: Маънавият, 2000.
3. Иброҳимбек Лақай ҳақида ҳужжатлар тўплами. – Душанбе: Ирфон, 2005.
4. Туркистон қайғуси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2002.
5. Боймирза Ҳайит. Босмачилар: Туркистон миллий мустақиллик ҳаракати. – Анқара, 1993.
6. History бўйича Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004.
7. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси. Ўзбекистон тарихи. 3-жилд. – Тошкент: Фан, 2015.
8. Туркистон миллий истиқлол ҳаракати. – Тошкент: Академнашр, 2019.
9. Муҳаммаджон Шакурий. Жадидлар ва миллий уйғониш. – Тошкент: Шарқ, 2001.

ТУРКИСТОНДА СЎЛ ЭСЕРЛАР БИЛАН БОЛЬШЕВИКЛАР ЎРТАСИДА ПАРТИЯВИЙ ВА СИЁСИЙ КУРАШНИНГ ЯНГИ БОСҚИЧГА ЧИҚИШИ

БАХТИЁР САФАРОВ

Ўзбекистон ФА Тарих институти мустақил тадқиқотчиси

Annotatsiya / Аннотация / Abstract
Большевикларнинг фикрича, В.И.Лениннинг Брест-Литовск тинчлик шартномасини тузиш учун кураши немис қўшинларининг ҳужуми олдидан инқилобни ва совет ҳокимиятини вайрон қилишдан қутқарган эди. Янги ташкил этилган қизил армия немис империализмининг яхши қуролланган армиясига қарши тура олмади, халқ тўрт йиллик империалистик урушдан чарчаган эди. Мамлакат аҳолисининг катта қисми тинчлик тарафдори эди. Аммо тинчлик шартномасининг имзоланишига “сўл коммунистлар” ва сўл эсерлар қарши чиққан эдилар. Сўл эсерлар урушни давом эттиришни талаб қилганлар ва шу билан совет ҳокимиятининг шармандаларча енгилишини истамас эдилар.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords
Сўл эсерлар РКП(б) Марказий Қўмитасида Брест-Литовск тинчлик шартномасини тузиш мақсадида вақтинчалик келишмовчиликлардан фойдаланишга ҳаракат қилдилар ва олдинги фикрларини тезда ўзгартирдилар.

Сўл эсерлар РКП(б) Марказий Қўмитасида Брест-Литовск тинчлик шартномасини тузиш мақсадида вақтинчалик келишмовчиликлардан фойдаланишга ҳаракат қилдилар ва олдинги фикрларини тезда ўзгартирдилар. Агар 1917 йилда улар урушга ва дарҳол тинчлик ўрнатишга қарши чиққан бўлсалар, 1918 йил февраль ойининг охирида улар немис империализми билан “инқилобий уруш”ни давом эттиришга чақира бошладилар. Советларнинг IV Бутунроссия съездида уларнинг вакили Б.Д.Камков нафақат большевиклар билан муросага келишни, балки совет ҳукуматининг тинчлик сиёсатини қўллаб-қувватлашдан бош тортишини ҳам эълон қилди. Бундан ташқари улар “сўл коммунистлар” раҳбари Бухарингга В.И.Ленинни Халқ Комиссарлар Совети раҳбарлигидан четлаштириш ва сўл эсерлар ва сўл коммунистлардан янги ҳукумат тузиш билан мурожаат қилишди.

Советларнинг IV съезди сўл эсерлар партияси даъволарини кўриб чиқди. Съезд делегатларининг 785 нафари мутлоқ кўпчилик билан 261 нафари қарши, 115 нафари бетараф бўлган қурултой большевиклар фракциясининг шартномани ратификация қилиш тўғрисидаги резолюцияни қабул қилди. Натижада сўл эсерларнинг даъволари инкор этилди. Бу немис империализми билан урушни тугатди ва оғир имтиёзлар эвазига асосий мақсад бу мамлакатнинг, яъни Совет Россиясининг тинчлигини сақлаб қолиш эди. Советларнинг IV фавқулодда съездининг қарорига бўйсунмай, сўл эсерлар немис империализми билан урушни давом эттириш ва Германия элчиси Мирбахни ўлдиришга тайёргарлик кўришга киришдилар. Мирбахнинг ўлдирилиши, деб ёзади Б.Савинков, сўл эсерлар орқали французларнинг маълум иштирокида амалга оширилган. 1918 йил 6 июлда В.И.Ленин бошчилигидаги ҳукуматни ағдариш ва Брест-Литовск тинчлик шартномасини бузиш мақсадида сўл эсерлар томонидан кўтарилган қўзғолон қатъий бостирилади ҳамда унинг раҳбарлари ҳибсга олинади.

Бундай вазиятда Туркистондаги сўл эсерлар ўзларининг тактикаларини ўзгартирдилар. Улар большевикларга Брест-Литовск тинчлик шартномаси масаласида Марказдаги сўл эсерлар чақириғига рози эмасликларини билдирдилар ва

большевиклар билан ҳамфикр эканликларини таъкидлаганлар. Туркистондаги сўл эсерлар совет ҳокимияти учун курашамиз деб большевикларни ишонтирадилар. Бироқ, большевикларнинг якка ҳукмронликка уриниши сўл эсерларни бошқача тактика қилишга ундаган. Гарчи улар халқ учун мўлжалланган сўзлар билан ўзларининг Бутунроссия Марказий Ижроя Қўмитаси сиёсатини ҳар томонлама қўллаган бўлсаларда, аслида Туркистон МК ва маҳаллий ташкилот раҳбарлари ўзларининг рус ҳамфикрлари билан ғоявий жиҳатдан маҳкам боғланган эдилар. Лекин совет тарихшунослари Туркистон сўл эсерлар партиясини Бутунроссия сўл эсерлар инқилобий қўмитаси билан бирлашган, уларнинг сиёсатини ҳимоя қилган ва ишончли таянчи бўлган дейдилар. Айнан Туркистон сўл эсерлар партияси Марказий Комитети, Сўл эсерлар партияси Бутунроссия Марказий Қўмитасининг Брест-Литовск тинчлик шартномасини имзолашдан бош тортиш тўғрисидаги ғалати ва даҳшатли қарорга норозилик билдирмаганлар.

Туркистон сўл эсерлари ўзларининг Москвадаги ҳамфикрлари сиёсатини қўллаб-қувватлаганликлари уларни урушни давом эттириш тарафдори бўлганликларига оид фактлар талайгина. Туркистон большевиклари сўл эсерлардан “Улар ким билан, урушми ё тинчликми?” деган саволига аниқ жавоб талаб қилганлар. Сўл эсерлар етакчилари инкор этиб бўлмайдиган фактлар олдида жим турадилар. 1918 йил 21 августда Туркистон сўл эсерлар партияси Марказий Қўмитасининг аъзоси Черневский Туркистон АССР Халқ Комиссарлар Совети ва Марказий Ижроия Қўмитасининг қўшма йиғилишида ўз партияси номидан сўл эсерларнинг Москвадаги чиқишлари (қўзғолони) ҳамда Германия элчиси Мирбахнинг ўлдирилиши масаласида гапириб шундай дейди: “Бу фактлар шунчалик текширилмаганки, партия ташкилоти бу ҳақда аниқ бир нарса дейиш имконига эга эмас”.

Бу ҳолатлар Туркистон сўл эсерлар партияси раҳбарлари Черневский, Успенский, Домогатский, Нагайбаков ва бошқаларнинг Сўл эсерлар партияси Бутунроссия Марказий Қўмитаси билан яқин алоқаси борлигини ҳамда унинг сиёсатига тўлиқ бўйсунишини кўрсатади. Элчи Мирбахнинг ўлдирилиши ва Москвадаги қўзғолон улар томонидан большевикларга қарши курашни кучайтириш ва Туркистонда большевиклар ҳокимиятини ағдаришга тайёргарлик кўришга сигнал сифатида қабул қилинди.

Туркистон Компартияси Марказий Комитети аъзоси И.М.Фотеев 1918 йил 4 сентябрда большевикларнинг Скобелев (Фарғона)даги фавқулодда йиғилишида шундай дейди: “Мирбахнинг ўлдирилиши ҳақидаги хабарни олган Тошкент сўл эсерлари ҳам ўзларининг большевикларга қаршилик фаолиятларини сусайтира бошладилар. Туркистон АССР МИКда сўл эсерларнинг тасоддифий кўпчилиги аллақачон кўп масалаларда муваффақиятсизликка учрадилар”.

Фарғонадаги сўл эсерлар Москвада элчи Мирбахнинг ўлдирилишига ўзларининг қуйидаги муносабатларини билдириб, ўз қарорларида шундай келтирадилар: “Биз Мирбахнинг ўлдирилишини сўл эсерлар партиямиз томонидан инқилобий ҳаракат деб биламиз ва большевикларга қотилликни партиямизнинг аксилинқилобий ҳаракати сифатида қарашга асос бермаймиз”. Большевиклар Туркистон сўл эсерларининг мазкур қарорини марказдаги сўл эсерлар ҳатти-ҳаракатини қўллаб-қувватлаш деб атади. Туркистон сўл эсерлари Марказий Қўмитаси ва маҳаллий ташкилотлари Москвада элчи Мирбахнинг ўлдирилиши билан боғлиқ маълумотларни рад этди.

Сўл эсерлар партиясининг минтақавий органи Коммунистик партиянинг сиёсатини “сиёсий аҳмоқлик” деб атади ва империалистлар билан ҳеч қандай битим тузмасликка ва шармандали ҳолатни тан олмасликка оммани чақирди. Улар сўл коммунистлар назариясини қабул қилдилар, “тинчлик” халқаро империализмга таслим бўлган чарчаган ва паст синфлар томонидан олиб борилади.

Уларнинг иккинчи Фарғона вилоят конференцияси бу “назария”ни тўлиқ

маъқуллади ва ўзларининг Бутунроссия Марказий Қўмитаси каби, В.И.Ленинни ва Совет ҳукуматини ағдариб ташлашга чақирдилар. Шундай қилиб, ушбу конференциянинг большевикларга қарши курашишга чақирувчи резолюцияда: “Брест ва қўшимча Берлин шартномалари масъул органларни халқаро империализмга қарши курашда чарчашига ва унга мослашишга олиб келди. Бизнинг партиямиз (сўл эсерлар) доимо чарчоқ ва мослашишга қарши курашади”.

Туркистонда сўл эсерлар партияси худди “сўл коммунистлар” каби, омманинг сиёсий етакчилигини қўлга олишга тайёрланаётган эди. Большевиклар тақдири учун бу ниятларнинг зарарли эканлигини В.И.Ленин таъкидлаб, шундай деб ёзган эди: “Агар сиз сиёсий раҳбарликка интилсангиз, сиёсий вазифаларни ўйлаб кўришингиз керак ва бунинг йўқлиги сўлларни объектив равишда фақат битта маънога эга бўлган энг характерсиз ваъзгўйлик тарғиботчиларга айлантиради. Уларнинг довдирашлари билан совет республикасига қарши курашга ёрдам беради. Бунинг учун қулай, улар империалистларга бизни тузоқа туширишга ёрдам бермоқда”.

Юқорида келтирилган фактларнинг барчасига қарамай, большевиклар Туркистондаги сўл эсерлар сиёсати Бутунроссия Марказий Комитети сиёсати билан муштарак эканлигини таъкидлайдилар.Туркистондаги сўл эсерлар большевикларга қарши курашни бошлаганидан бир неча ой ўтиб, яна Бутунроссия Марказий Комитетидан ажралиб чиқишга уриндилар. Сўл эсерларнинг Туркистон АССР МИК аъзолари 1919 йил 18 февралдаги “Барча советларга ва партия ташкилотларига” деган хати бу борада характерлидир. Унда хусусан шундай ёзилган эди: “Туркистондаги сўл эсерларнинг дастури ва тактикасини ишлаб чиқиш, партия таркибига кирган ҳолда Бутунроссия Марказий Комитетидан бутунлай мустақил равишда амалга оширилди”.

Большевикларнинг айблашича сўл эсерлар Туркистон АССРнинг ташқи сиёсатига катта зарар етказдилар. Сўл эсерларнинг фикрича Туркистон учун асосий хавф Туркия ва Германиядан келишини таъкидлаганлар. Шунинг учун Германия билан тузилган битимга қарши бўлганлар. Пантуркизм ғояси кейинчалик большевиклар учун дастак бўлди.

Туркистон сўл эсерлари етакчиларининг барча фаолияти, уларни ички ва ташқи сиёсати муросасиз курашда ўтди. Сўл эсерлар большевикларни немис империализмига таслим бўлишда айлаган бўлсалар. Большевиклар сўл эсерларни инглиз империализмига Туркистонда давлат тўнтариши тайёрлашга моҳиятан ҳисса қўшганликда айблайдилар. Гўё сўл эсерлар инглиз қўшинларнинг Каспийбўйи минтақалари бостириб киришларига ва бутун республикани босиб олиши учун замин ҳозирладилар. Бунга 1918 йилда Туркистон АССР Ташқи ишлар халқ комиссарлиги лавозимига эгаллаган Туркистон сўл эсерлар партияси марказий қўмитаси аъзоси Домогатский муносиб роль ўйнади. У инглизлар билан совет Туркистонига ёрдам бериш тўғрисида келишишга эришиш хаёлига борди ва совет ҳукумати билан музокаралар олиб бориш учун Британия ҳукуматидан ҳеч қандай ваколатга эга бўлмаган разведкачи Ф.Бейли бошчилигидаги инглиз ҳарбий миссиясининг Ҳиндистон орқали Тошкентга етиб келишига ҳар томонлама ёрдам берди. Туркистонда бу инглизга тўлиқ ҳаракат эркинлиги берилди. Ф.Бейлининг ҳомийлиги шу қадар давом этдики, сўл эсер “дипломатлар” В.И.Лениннинг хорижий “вакиллар” фаолияти устида икки томонлама назорат ўрнатиш ҳақидаги кўрсатмасини бажармади.

В.И.Ленин Туркистон АССР ХКС раиси номига йўллаган телеграммасида: “Элчилар ва консулларга нисбатан биз сизларга кутиш ва уларни ўрганишни маслаҳат берамиз. Уларни уч марта кузатувга қўйиб, улар билан мулоқотда бўлган шубҳали шахсларни ҳибсга олишни маслаҳат берамиз”.

Британия қўшинлари Каспийорти минтақаси коммунистик комиссарлар ва 26 нафар Боку комиссарлари қатл этилгандан сўнг, улар аёллар, болалар ва қарияларни оммавий қатл қилишда портловчи ўқлардан фойдаланган ҳолда тинч аҳолига нисбатан

зўравонлик қила бошлаганлар. Туркистон АССР Ташқи ишлар халқ комиссари Домогатский инглиз империализмини моҳиятан қалқон қилишда давом этган. Сўл эсерлар Туркистон АССР ҳукуматини совет Россиясидан дипломатик изоляцияга ундадилар. Шу сабабдан улар Туркистон АССР РСФСРдан мустақил ташқи сиёсат юритиши чораларини кўришни таклиф қилган.

Туркистондаги сўл эсерлар ана шундай тактика остида республикада ўзларининг маҳаллий партия тармоғини кенгайтириш бўйича катта ташкилий ишларни бошлашга муваффақ бўлдилар. Фарғона вилоятида 1907 йилдан А.А.Аксетович эсерлар партияси мафкуравий етакчиларидан бўлган. Улар ўз партияси аъзоларидан тайинланган ва Туркистон МИҚга бўйсунувчи вилоятлар бўйича фавқулотда комиссарлар деб аталган комиссарлар орқали кўп ютуқларга эришганлар. Собиқ эсер Октябрь тўнтарилишидан кейин сўл эсерлар партиясига қўшилган Чегодаев Семиреченск (Еттисув) вилоятида диктаторлик ваколатига эга бўлган фавқулодда комиссар этиб тайинлаган. Фарғона вилояти бўйича М.Н. Куколь-Яснопольский фавқулодда комиссар этиб тайинланган.

Совет ҳокимиятини мустаҳкамлаш учун ҳаракат қилган бу “комиссарлар” большевикларга қарши маълум бир кураш олиб бордилар. Уларни таъқиб қилдилар ва маҳаллий коммунистик ташкилотларнинг тузилишига тўсқинлик қилдилар. Сўл эсерлар ўз ўрнини эгаллаб, советларда кўпчиликни ташкил этишга муваффақ бўлган. Бир қатор жойларда коммунистик ташкилотлар фаолиятига тўсиқ қўйганлар. Прежевалский округидан келган делегат Туркистон Коммунистик партияси (ТКП)нинг III съездида шундай дейди: “Сўл эсерлар партияси дастлаб кучлироқ эди. Улар бизга ҳар томонлама қаршилик кўрсатди, етарли кучга эга эди, ўз ташвиқотини янада кенгайтирди. Оммага кўпроқ ишчилар юборди ва шу билан биз яратган партия ҳужжатларини йўқ қилди ва улар бизнинг ишимизнинг бир қисмини нолга тушуришди”.

Сўл эсерлар Тошкент, Байрам-Али, Ўш, Туркистон ва Самарқанд большевикларига ҳам қаттиқ қаршилик кўрсатдилар. Бу қарама-қаршилик Туркистон Республикасининг деярли ҳамма жойида кузатилди. Улар ўз ишларининг асл мақсадларини яширишмади. “Аввалданоқ, - деди сўл эсер А.А.Аксетович ўз партиясининг Фарғона вилоят конференциясида, – бизнинг мақсад маҳаллий партия ячейкалари ва кучли ташкилотларини яратиш эди”

Сўл эсерлар партиясининг бошланғич тармоғини яратишда сезиларли фаоллиги 1918 йили май ойида пайдо бўла бошлади ва ўша йилнинг ёзи ва кузида давом этди. Сирдарё вилояти Тошкент уездининг Пискент қишлоғида 1918 йил сентябрь ойида 800 киши сўл эсерлар партиясига ёзилганлар. Биринчи навбатда сўл эсерлар партиясига маҳаллий бойлар ва улардан кейин оддий деҳқонлар қўшилади. Натижада бутун қишлоқ иккита лагерга бўлинади, бири большевиклар, иккинчиси сўл эсерлар.

Туркистоннинг баъзи шаҳарлари ва йирик қишлоқларида сўл эсерлар партияси тармоғининг ўсиши қуйидаги рақамлар орқали кўрсатилган. Масалан, Пишпек шаҳрида сўл эсерлар ташкилотига аъзолик 1918 йил август ойининг охирида 220 нафар киши, 1 ноябрда 700 нафар киши, ноябрь ойининг ўрталарида 1200 нафар кишига ўсган. Шу пайтда Пишпек шаҳрида 25 минг фуқаро истиқомат қилган. Верний шаҳрида сўл эсерлар ташкилотига 600 киши, 1918 йил декабрга келиб Ўшда 200 кишидан кўпроқ мазкур ташкилотлар яъни сўл эсерлар томонига ўтган. Уларнинг кўпроқ қисми Фарғона вилоятида бўлган: 1918 йил 7 ноябрда Қўқон шаҳрида 600 киши, Наманганда 300 киши, Шаҳрихонда 200 киши, Асакада 50 киши, Скобелов (Фарғона) да 100 киши, Қоратепада 10 киши, Сантода 43 киши ва Андижонда 10 га яқин кишилар сўл эсерлар партиясига ўтган.

Юқоридаги рақамлар сўл эсерлар партиясининг оммага, асосан, деҳқонларга маълум таъсири мавжудлигини кўрсатади. Бу маълумотлар тадқиқотчи К.Гусевнинг 1918 йил март-июль ойларида сўл эсерлар

партияси парчаланиб кетган, партия сафида мавжуд бўлмай қолган деган фикрлари асоссиз эканлиги кўрсатади. Худди шу даъво большевикларнинг сўл эсерлар партиясига қарши деҳқонлар учун кураши эди, чунки ўша пайтда Иттифоқ сўл эсерлардан юз ўгирган эди. Бу марказнинг йирик саноат районлари учун тўғри, лекин Совет Россияси, хусусан Туркистон ва Украина республикалари ҳудудларининг салмоқли қисми учун бу хулоса воқеаларга мос келмайди. 1918 йил март-июль ойларидан кейин Туркистон АССРнинг деҳқон районларида сўл эсерлар партиясининг таъсири заифлашмасдан, балки кучая бошлади.

Бунинг сабабларини В.И.Ленин шундай асослаб беради: “Пролетариат таъсири энг кам бўлган кичик буржуа аҳолисининг тебранишлари ушбу ҳудудларда алоҳида ёркинлик билан намоён бўлди: Большевиклар учун биринчи бўлиб, улар ер бериб, демобилизация қилинган аскарлар тинчлик хабарини олиб келишди. Шунинг учун улар Брест-Литовск тинчлик шартномасига борганларида, энг чуқур майда буржуа, ватанпарварлик туйғуларини “хафа қилган” большевикларга қарши эдилар. Пролетариат диктатураси, айниқса, ғалла энг кўп ортиқча бўлган жойларда, большевиклар бу ортиқча нарсаларни катта куч билан давлатга қатъий белгиланган нархларда ўтказишни таъминлашларини кўрсатганларида, деҳқонларга ёқмади. Урал деҳқонлари, Сибир, Украина Колчак ва Деникинга мурожаат қилади. Совет ҳокимияти тақдирини ва Колчак-Деникин ҳокимиятини охир-оқибат ҳал қилган коммунистларнинг деҳқонлар учун кураши 1918 йилнинг баҳорида ҳам, ёзида ҳам якунланмади”.

В.И.Ленининг бу хулосаларини Туркистон Республикасида содир бўлган воқеалар ҳам тасдиқлайди. Озиқ-овқатларни ўзлаштириш, бой эгалардан пахта заҳираларини реквизиция қилиш ва камбағаллар қўмиталари тузиш бой деҳқонларнинг, ўрта деҳқон ва деҳқонларнинг бир қисмининг ғазабини қўзғатади.

Сўл эсерлар партияси нафақат Совет ҳокимиятидан норози бўлганлар ҳисобига ўз сафларини кўпайтирди, балқи большевиклар ва Совет ҳокимиятига қарши кураш учун кучларни ҳам юборди.

РКП(б)нинг Фарғона вилоят конференциясида Қўқон коммунистларининг делегати сўл эсерлар фаолиятига таъсирли баҳо беради. “Большевиклар коммунистик партияси, деди у сўл эсерлардан социализм йўлидан бормайдиган, фақат ўз ҳаракатлари учун жавобгарликни ўз зиммасига олмасдан, ҳокимиятни қўлга олишни хоҳлайдиган одамларни кўради”.

Маҳаллий сўл эсерлар ташкилотлари совет ҳокимиятига қарши расман гапирмасдан, ўз курашларини совет ҳокимияти кучли бўлмаган жойларда чора-тадбирларни бузишга қаратди. Улар айниқса, ғалла монополияси тўғрисидаги декретга қарши эдилар. Верний округи советлари қурултойида (1918 йил 27 август) Коммунистик фракция раҳбари ушбу формонни амалга ошириш масаласини кўтарганда сўл эсерлар фракция раҳбари шундай дейди: “Вилоятда монополия қўлланилмайди ва фойдасиз камбағаллар қўмиталари фойдасиз”.

Сўл эсерлар қўлида бўлган Жалолобод округ кенгаши 42 нафар “маъқул” ва 3 нафар бетараф овоз билан шундай қарор қабул қилди: “Жалолобод вилоятида реквизицияга йўл қўйилмайди. На бой деҳқонлардан, на мусулмонлардан солиқ олиш мумкин эмас”. Сўл эсерлар ерларни миллийлаштириш тўғрисидаги қонундан қулоқ ва бой манфаатлари йўлида қандай фойдаланганликларини советларнинг иккинчи Тўқмоқ туман съезди томонидан белгиланган ердан фойдаланиш учун истеъмолчи-меҳнат нормасидан кўриш мумкин. 5 нафар катталардан иборат оила учун ушбу меъёрга кўра 25 десятина ер бор.

Баъзи хўжаликлар ишчиларни ёллаш, ерга ишлов бериш ва экиш имкониятига эга бўлган деҳқонларга ерни ижарага берган. Бойлар манфаатларини ҳимоя қилиш учун сўл эсерлар Тўқмоқ участкаси ишчиларини ва айрим коммунистларни йўлдан оздирар эдилар. Туркистон АССР ҳукуматининг

рухсатисиз 1918 йил кузида маҳаллий советлар вакилларининг участка йиғилишида Тўқмоқ округида ерларни тортиб олиш тўғрисида қарор қабул қилдилар. Меҳнаткашлар ва тажрибали большевиклар кўпроқ бўлган Пишпек округидан ажралиб чиққан сўл эсерлар ҳокимиятга ўз таъсирини кучайтирдилар ва улар орқали бой деҳқонлар манфаатларини моҳиятан ҳимоя қилувчи қарорлар қабул қилдилар.

Хуллас, большевиклар сўл эсерлар партияси раҳбариятида ҳамжиҳатликни йўқотишга ҳаракат қилдилар. Натижада сўл эсерларнинг бир қисми шу қадар иккиланиб қолдики, у коммунистлар билан қўшилишга тайёр эди, иккичи қисми большевикларни ағдариб ташлашга тайёр эди. Советлар ҳокимиятини сўзсиз ағдариш, пролетариат диктатурасини йўқ қилиш ва бутун ҳокимиятни Таъсис мажлисига ўтказиш тарафдорлари ҳам бор эди. Большевиклар сўл эсерларни оқ гвардиячилар билан ҳамкорликлари бор деган фитнани тарқатдилар. Ушбу ҳолат Туркистондаги сиёсий вазиятнинг қалтис қисмига таъсир қилди ҳамда беқарорликни келтириб чиқарди. Бундай партиявий ва сиёсий курашлар, тартибсизликлар маҳаллий партия ҳамда ташкилотларнинг ҳам фаолиятига жиддий таъсир қил.

АДАБИЁТ ВА МАНБАЛАР РЎЙХАТИ:

1. История Коммунистической партии Советского Союза, 1962.- С.271.
2. Партия в период инастранной военной интервенции и гражданской войны (1918 – 1920 гг.). Сборник документов. Москва, 1967, С.48.
3. Ўзбекистон Миллий архиви, 17-фонд, 1-рўйхат, 235- йиғма жилд, 123-варақ.
4. Фарғона вилоят давлат архиви, 111-фонд, 2-рўйхат, 4-йиғма жилд, 45-варақ.
5. Фарғона вилоят давлат архиви, 111-фонд, 2-рўйхат, 4-йиғма жилд, 197-варақ.
6. “Левый эсер”, №17, 27 ноября 1918 г.
7. 2-й Областной съезд партии левых социалистов революционеров интернационалистов Ферганский области 16 ноября 1918 г. // “Левый эсер”, №16, 21 ноября 1918 г.
8. Ленин. Тўла асарлар тўплами. Том.36. Б 289.
9. Фарғона вилояти ҳокимлиги архиви, 111-фонд, 2-рўйхат, 5 иш, 196-варақ.
10. Ленин. Тўла асарлар тўплами. Том.34. Б 42.
11. “Известия” (Фарғона вилоят газетаси). 1918 йил 26 сентябрь, 199-сон.
12. Ўзбекистон Миллий архиви, Р-25-фонд, 7-рўйхат, 15-иш, 14-варақ.
13. Труды IIIсъезда КПТ, Ташкент, 1919, стр.19.
14. 3-Уездный съезд советов // “Левый эсер”, №16, 21 ноября 1918 г.
15. Революция в Средней Азии. Сборник.1, Ташкент, 1928, С.91.
16. Житов К. Победа Великой Октябрьской социалистической революции в Узбекистане. Ташкент, 1957. –С.52.
17. Гусев К. Крах партии левых эсеров. Москва, 1963. С. 166.
18. Ленин. Тўла асарлар тўплами. Том 40. С.16-17.
19. Фарғона вилояти ҳокимлиги архиви, 111-фонд, 2-рўйхат, 15-иш, 24-варақ.
20. Фарғона вилояти ҳокимлиги архиви, 111-фонд, 2-рўйхат, 14-иш, 9-варақ.
21. Фарғона вилояти ҳокимлиги архиви, 111-фонд, 2-рўйхат, 25-иш, 3-варақ.

ENTREPRENEURIAL ACTIVITIES OF WOMEN CRAFTSMEN (ON THE EXAMPLE OF JIZZAKH REGION)

TURSUNOVA DILDORA *Jizzakh State Pedagogical University*

Annotatsiya / Аннотация / Abstract
Mazkur maqolada Jizzax viloyati misolida hunarmand ayollarning tadbirkorlik faoliyati, uning tarixiy ildizlari, bugungi rivojlanish bosqichi hamda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari tahlil qilingan.
В статье на примере Джизакской области анализируются предпринимательская деятельность женщин-ремесленниц, её исторические корни, современное развитие и механизмы государственной поддержки.
Женское предпринимательство, ремесленничество, Джизакская область, национальные традиции, малый бизнес, государственная поддержка, занятость, экономическое развитие, домашнее производство, ассоциация ремесленников.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords
Ayollar tadbirkorligi, hunarmandchilik, Jizzax viloyati, milliy an’analar, kichik biznes, davlat qo‘llovi, bandlik, iqtisodiy rivojlanish, kasanachilik, hunarmandlar uyushmasi.
Женское предпринимательство, ремесленничество, Джизакская область, национальные традиции, малый бизнес, государственная поддержка, занятость, экономическое развитие, домашнее производство, ассоциация ремесленников.
Women’s entrepreneurship, handicrafts, Jizzakh region, national traditions, small business, state support, employment, economic development, home-based work, handicraft association.

Researching the unique history of our people, we can recognize our national crafts, which are a unique expression of our culture. Crafts arose with human production activities, gradually separated from farming and animal husbandry during the development of society, and improved in connection with the development of technology within different socio-historical periods, and there are various specializations (pottery, carpentry, blacksmithing, coppersmithing, construction, stonemasonry, carving, embroidery, tanning, sewing, weaving, jewelry, degreaser, gilding, painting, shipbuilding, tinsmithing, etc.). Our grandmothers have been engaged in crafts since ancient times. Household and everyday items (carpets, clothing, embroidery for decorating rooms, etc.) were produced by women.

In Uzbekistan, women used to work at home in crafts such as needlework, embroidery, carpet weaving, and goldsmithing. Crafts have a tradition of master-discipleship, and specific rules, norms, and ethical criteria are followed, passed down from generation to generation. From this information, we can learn that women living in our country have always been engaged in some form of entrepreneurship. This indicates that women's entrepreneurship today dates back to the distant past.[1.]

Today, more than 17 million of Uzbekistan's population are women. To support their business projects and address their problems, a new system of training women in entrepreneurship, developing exemplary business plans, and providing them with practical assistance has been introduced in the regions. In Uzbekistan, comprehensive measures are being implemented to attract unemployed women to entrepreneurship and self-employment.

According to the draft "Roadmap" for the implementation of the Development Strategy for 2022-2026 in 2022, it is planned to develop a program for the development of women's entrepreneurship in the regions.

This includes:

-organizing "Women's Craft Centers" and clusters in each region;

-taking measures to improve the activities of women's entrepreneurship centers, opening regional centers;

-facilitating the sale of products produced by women entrepreneurs;

-it is intended to train women in entrepreneurship and involve them in business.[2.]

The "Tadbirkor Ayol" association, which aims to support women in Uzbekistan, was founded in 1991, and to date, 68 of its branches have been established in the regions. Over the past period, the association, in collaboration with local and international institutions, has implemented about 100 projects for women. As a result, more than 50 thousand women have acquired entrepreneurial skills, and 80 percent of them have been employed. 45 thousand women were trained in the basics and methods of doing business and were able to establish their own businesses. Thousands of new jobs were created. In January-December 2022, the share of small businesses in the total volume of industrial production amounted to 25.9%. In terms of regions, Jizzakh region took the lead, with the share of small businesses in the volume of industrial production accounting for 48.9%.[3.]

Today, 46 percent of the members of the "Hunarmand" Association of the Republic of Uzbekistan are women. It is noted that last year, 91, 534 new jobs were created within the framework of the handicraft development program. Of these, 17, 565 were for master craftsmen and 73, 969 were for apprentices. 68 percent of them were for women, and 44 percent were for young people. As a result of the work carried out by the Republican "Hunarmand" Association to develop women's crafts, the number of active members in the association by 2018 was 9, 823 (of which 4, 616 are women), while today, thanks to the allocated loans, subsidies, and the establishment of master-apprentice schools, the number of craftsmen employed in the industry is 103 thousand (of which 47 thousand are women), and the number of apprentices is 300 thousand (of which 153 thousand are women).[5.]

Women engaged in crafts also organize their activities on an entrepreneurial basis. Within the framework of the "Every Family is an Entrepreneur" program, about 126 thousand women were provided with preferential loans. More than 6 trillion soums of credit funds were allocated to about 215 thousand families to develop family entrepreneurship. Nearly 55, 000 women were trained by entrepreneurship and vocational centers, and were involved in handicrafts and homemaking. As part of the Five Important Initiatives adopted by the President of the Republic of Uzbekistan, Sh. Mirziyoyev, sewing workshops were established in remote areas, providing employment for 10, 000 women.[6.]

The President of the Republic of Uzbekistan signed the Resolution “On measures to further strengthen guarantees of women's labor rights and support entrepreneurial activity”. The document approved the proposal of the Women's Committee of the Republic of Uzbekistan, the “Oila” Scientific and Practical Research Center under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, the “Tadbirkor Ayol” Association of Businesswomen of Uzbekistan, the Chamber of Commerce and Industry and the Ministry of Economy and Industry to establish “Women's Entrepreneurship Centers” with the status of non-governmental non-profit organizations with the support of women's committees of the Republic of Karakalpakstan, regions and the city of Tashkent.

The following were proposed to be the main tasks of the centers:

In collaboration with the Ministry of Employment and Labor Relations, retraining women who are on long-term childcare leave and who are in a difficult economic situation in the labor market in professions that are in demand and assisting them in finding a job;

-attracting women who have expressed a desire to engage in entrepreneurship to the centers and assisting them in organizing entrepreneurial activities;

-developing women's skills in organizing and running their own business, providing consultative assistance in preparing business ideas, including organizing training in preparing a project business plan, selecting and applying various taxation regimes, accounting, using modern information technologies, and other areas;

-if necessary, assisting women entrepreneurs starting their business in allocating space in vacant buildings in neighborhoods;

- to provide necessary advice and practical assistance to women entrepreneurs and women who wish to engage in entrepreneurship in organizing their own business, including finding

reliable partners, assistance in purchasing mini-technologies and equipment, and assistance in the sale of manufactured products;

- to provide practical assistance to women artisans operating informally in registering, using taxes and other benefits through membership in the "Hunarmand" association, and obtaining preferential loans.

LIST OF USED LITERATURE:

1. Karimova N. O‘zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishning qonuniy asoslari. FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA [Jild: 02 Nashr: 12 (2023)] ISSN: 2992-8915.2-b.]

2. https://www.biznesrivoj.uz/articles/o-zbekistonda-ayollar-tadbirkorligini-rivojlantirish-dasturi-ishlab-chiqiladi

3. Statistika qo‘mitasi ma’lumoti.

4. https://handicraftman.uz/xotin-qizlarning-milliy-hunarmandchilikka-qiziqishi-ortmoqda.

5. Axrorova S. Mahalla boshqaruvida xotin-qizlarning ishtiroki. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 1 | ISSUE 3 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021. 212-221betlar

MUSTAQILLIK YILLARIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN BUNYODKORLIK ISHLARI (JIZZAX SHAHRI MISOLIDA)

ABDURASULOVA DILBAR TO‘RAYEVNA

Jizzax davlat pedagogika universiteti, Umumiy tarix kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Ma’lumki, mustaqillik yillarida Jizzax shaxrida barcha soxalarda katta ijobiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Ushbu maqola mustaqillik yillarida Jizzax shaxrida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari yoritib berilgan.

Известно, что за годы независимости в городе Джизак произошли большие положительные изменения во всех сферах. В данной статье освещаются созидательные работы, проведенные в городе Джизак за годы независимости.

It is known that during the years of independencye, great positive changes took placye in the city of Jizzakh in all areas. This article highlights the creative works carriyed out in the city of Jizzakh during the years of independencye.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

Jizzax shaxri, sog‘lom avlod, mustaqillik yillari, ma’naviy saloxiyatli yoshlar, amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, jismoniy tarbiya sport.

Город Джизак, здоровое поколение, годы независимости, молодые люди с духовной грамотностью, творчеством, физкультурой и спортом.

The city of Jizzakh, a healthy generation, years of independencye, young people with spiritual competencye, creative works, physical education and sports.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda katta ijobiy o‘zgarishlar ro‘y berdi, amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof e’tilmoqda. Yurtimizda amalga oshirilayotgan bunday o‘zgarishlarni Jizzax shahri misolida ham ko‘rishimiz mumkin.

Shaharni qayta qurish- deganda mavjud shaharlarni rejalashtirish va qurishni takomillashtirish hamda rivojlantirish bo‘yicha tadbirlar majmuasi tushuniladi. Bundan ko‘rinadiki, qayta qurish shahar hududini rivojlantirishga imkon beradi.[2.340-b].

1991 yilda O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, Jizzax shahrida ham qurilish sohasida yangi bosqich boshlandi. Avvalgi markazlashgan tizim o‘rniga mahalliy boshqaruv va bozor iqtisodiyoti elementlari joriy etildi. Bu holat qurilish korxonalarining faoliyatini qayta tashkil etishni taqozo etdi.[9.112-115 b]. Jizzax viloyatidagi shaharlarning ham qayta qurish, qiyofasini o‘zgartirish, tabiiy iqlim sharoitiga mos va o‘ziga xos landshaft ko‘rinishga ega bo‘lgan binolarni barpo etish shaharsozlik madaniyati rivojida muhim ahamiyatga ega. Jizzax viloyati iqlimi, tabiati, aholi joylashuvi xususiyatlari shaharlardagi qurilish ishlarini olib borishda asosiy omil bo‘ldi. Eng muhimi, shaharlar qurilishida aholi uchun qulaylik yaratish bosh mezonga aylandi. Davlat byudjeti va mahalliy hokimiyatlar mablag‘i hisobidan shaharlarining bosh rejalarini tuzish tartibi belgilandi.[10.30-b].

Jizzax shahrining bosh rejasi qaytadan ishlanib, zamonaviy inshootlar qurilishi, savdo majmualarining barpo etilishi ko‘zda tutilgan. Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 4 dekabridagi “Shahar va shaharchalarning bosh rejalarini hamda qishloq fuqarolar yig‘inlari hududlarini arxitektura-rejalashtirish jihatidan tashkil etish loyihalarini ishlab chiqish va amalga oishirsh tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 286-sonli qarori[2.]ga binoan viloyat shaharlari, tuman markazlari, ayniqsa, Jizzax shahrining qiyofasini tubdan o‘zgartirish bo‘yicha bosh reja asosida ishlar olib borilayotganligi e’tiborga molikdir. Markaziy ko‘chalar kengaytirilib, turar joy binolari qad ko‘tarmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov 2013 yilning 19 iyunida viloyatga tashrifi chog‘ida bosh reja asosida amalga oshirilayotgan qurilish va obodonlashtirish ishlari bilan atroflicha tanishdi. Shuningdek, Jizzax shahrining bosh rejasida, albatta, aylanma xalqa yo‘lining qurilishi ko‘zda tutilishi lozimligi xususida qimmatli maslahatlarini berdi.«Har bir shaharning bosh rejasi ustida ishlaganda, bino va yo‘llar qurayotganda, besh-o‘n yil emas, balki uzoq istiqbolni o‘ylab ish yuritish lozim. Ular har tomonlama mukammal manzara hosil qilsin, shu bilan birga, pishiq va mustahkam bo‘lsin, nafaqat bugungi, balki kelajak avlodlarimizga ham xizmat qilsin», – degan fikrlarni qayd etgan edi.[13.]

1991–1995 yillarda Jizzax shahrida asosan mavjud infratuzilmani saqlab qolish va ta’mirlash ishlari olib borildi. Shaharning markaziy ko‘chalarida yo‘l ta’miri, maktablar, bolalar bog‘chalari va sog‘liqni saqlash muassasalari binolarini kapital ta’mirlash ishlari amalga oshirildi.[4.78-82-b.]. Shuningdek, aholini ichimlik suvi va elektr energiyasi bilan ta’minlash tizimini barqarorlashtirishga qaratilgan loyihalar bajarildi.

1991 yilda Jizzax viloyatida qurilishga 249, 2 mln so‘m davlat mablag‘i ajratilgan bo‘lib, bu ajratilgan qurilish mablag‘larining 59, 0%ini tashkil etgan.1992 yilda uy-joy qurilishi va foydalanishga topshirish bo‘yicha yillik reja bor-yo‘g‘i 64%ga bajarilgan; viloyat bo‘yicha topshirilmay qolgan uy-joylar 117 ming kv.m yetgan (shuningdek maktab va bog‘cha o‘rinlari bo‘yicha ham rejalar bajarilmay qolgan). 1993 yilda Jizzax shahrida 10 dan ortiq yakka tartibdagi uy-joy massivlari qurilgan (masalan, Alisher Navoiy, Uchariq, Hamid Olimjon, Nazir Safarov, Oqqo‘rg‘onlik massivlari).Alisher Navoiy massivi (Paypoq to‘quv fabrikasi yoni) umumiy 102 gektar maydonga ega bo‘lib, 4 guruhga ajratilgan: shaxsiy uy-joylar, sport inshootlari, 2 ta maktab va 2 ta bolalar bog‘chasi uchun maydon, hamda ijtimoiy-madaniy markazlar maydoni.

1993 yilda Jizzax shahridagi 11 mingdan ziyod turar joy xonalarining barchasi aholiga xususiy mulk qilib berilgan. Shu davrda ayrim ob’yektlarda loyiha va bosh reja tasdiqlanmasdan qurilish boshlangani qayd etilgan; misol uchun «Olmazor» bozorida qurilish ishlari tartibsiz olib borilgan1994 yilda qurilishda ishlatilgan 82, 1 mln so‘m mablag‘dan faqat 20, 2 mln so‘mi davlat mablag‘i hisobiga bajarilgan (ya’ni 24, 6%). Manbada bu holat davlat mablag‘larining ulushi yildan-yilga kamayib, korxona-xo‘jaliklar, xususiy mablag‘ va bank krediti hisobidan qurilish ulushi ortib borgani bilan izohlangan.

1996–2000 yillarga kelib Jizzax shahrida qurilish ishlari nisbatan faollashdi. Bu davrda yangi turar joy massivlari barpo etildi, ko‘p qavatli uylar qurilishi boshlandi. Shahar kommunal xo‘jaligi ob’yektlari, jumladan suv ta’minoti va kanalizatsiya tarmoqlari bosqichma-bosqich yangilandi.[7.45-49-b]. Shu yillarda xususiy qurilish tashkilotlarining soni ham oshib bordi.

1995–2005 yillarda Jizzax shahrida asosan ijtimoiy, ma’muriy va infratuzilma ob’yektlari qurilishiga katta e’tibor qaratildi. Shahar markazidagi ko‘plab binolar rekonstruksiya qilinib, zamonaviy qiyofa berildi. Davlat muassasalari binolari, madaniyat uylari va ta’lim muassasalari ta’mirlandi yoki qayta qurildi.

Shuningdek, aholi uchun xizmat ko‘rsatuvchi ob’yektlar — savdo do‘konlari, bozorlar, maishiy xizmat binolari barpo etildi. Bu qurilishlar aholining kundalik ehtiyojlarini qondirishga xizmat qildi.Alisher Navoiy ko‘chasida tijorat banklari mablag‘lari hisobidan qad rostlagan 5 ta ko‘p qavatli turar joy binolari foydalanishga topshirildi. 2005–2015 yillar O‘zbekiston Respublikasi shaharlarida, xususan Jizzax shahrida qurilish va rekonstruksiya ishlari jadal sur’atlarda olib borilgan davr hisoblanadi. Ushbu yillarda ijtimoiy soha, ma’muriy binolar va muhandislik infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi.

2005–2015 yillarda Jizzax shahrida shahar va viloyat ahamiyatiga ega ma’muriy binolar qurilishi va rekonstruksiyasi amalga oshirildi. Xususan, shahar hokimligi binolari, davlat idoralari va jamoat muassasalari zamonaviy me’moriy talablar asosida ta’mirlandi.[5.63-65-b].

Ta’lim va sog‘liqni saqlash ob’yektlari Mazkur davrda shaharda umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik liseylar qurildi. Shuningdek, markaziy shifoxona, poliklinikalar va oilaviy shifokor punktlari faoliyati yaxshilandi.[8.88-92-b].

Yo‘l-transport va muhandislik infratuzilmasi Jizzax shahrida yo‘l-transport tarmog‘ini rivojlantirishga katta e’tibor berildi. Asosiy ko‘chalar asfaltlanib, ichimlik suvi, gaz va elektr tarmoqlari bosqichma-bosqich yangilandi.[11.101-104 b]. Savdo va xizmat ko‘rsatish binolari 2005–2015 yillarda shaharda savdo majmualari, bozorlar va maishiy xizmat ko‘rsatish binolari barpo etildi. Bu qurilishlar shahar iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qildi.[12.56-58 b].

O‘zbekiston va I.Karimov ko‘chalari hamda Temir yo‘l vokzali atrofining batafsil rejalashtirish loyixalari ishlab chiqilgan.

Mustaqillik ko‘chasining batafsil rejalashtirish loyihasiga asosan 3, 5 km. uzunlikdagi avtomabil yo‘li, 7 km. piyodalar yo‘laklari va muxandislik tarmoqlari (ichimlik suvi, elektr, gaz va oqova suv) tarmoqlari qurildi hamda imtiyozli bank kreditlari asosida 36 ta 3-4 qavatli 308 ta turar-joy va 116 ta savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish shaxobchalari qurildi. Shu bilan birgalikda “O‘z shahar qurilish invest” tamonidan 2017 yilda 5 ta va 2018 yilda 10 ta jami 630 ta xonadonga mo‘ljallangan 7 qavatli arzonlashtirilgan turar-joylari va bolalar maydonchalari qurilib foydalanishga topshirildi. Yo‘l bo‘yidagiYeski shahar markaziy dexqon bozori qayta rekonstruksiya qilinib, obodonlashtiridi.

Zamonaviy shaharsozlik loyihalari asosida A.Navoiy ko‘chasining 2, 6km. uzunlikdagi bosh reja loyihasi ishlangan bo‘lib, ushbu ko‘chada tasdiqlangan bosh rejaga asosan 32 ta ko‘p qavatli, birinchi qavati savdo va maishiy xizmat hamda ofis, yuqori qavatlari turar-joy binolari qurilishi rejalashtirilgan. Bugungi kunda ushbu hududda 12 ta ko‘p qavatli turar-joy binolari foydalanishga topshirilib, 20 ta binolarda qurilish ishlari yakunlanmoqda. Bundan tashqari ushbu yo‘l bo‘yida 11 ming 150 o‘rinli sport majmuasi, savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish binolari mahalla binosi, bank binosi, maktabgacha ta’lim binolari hamda dam olish maydonlari tashkil etilgan.

Shaharda zamonaviy shaharsozlik loyihalari asosida yana bir katta axamiyatdagi qurilish va bunyodkorlik ishlariga ega Toshkent va Temiryo‘lchilar ko‘chasini bog‘lovchi ko‘cha va Jizzax shahar Temir yo‘l vokzali oldi maydonining loyixasidir. Ushbu maydon 130.0 gektar hududni tashkil etib, birinchi bosqich ishlarida 13 ta 7 qavatli 810 ta uy-joylar, birinchi qavatida 107 ta savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish shahobchalarida qurilish-montaj ishlari yakunlandi shu bilan birgalikda ushbu hududda keyingi bosqichlarda dam olish maydonlari, mexmonxonalar va xizmat ko‘rsatish binolari, 3 ta umumta’lim maskanlari, 4 ta maktabgacha ta’lim binolari, qurilishi rejalashtirilgan.

Shaharning obodonlashtirish va aholiga dam olish uchun qulayliklar yaratish maqsadida mavjud 7 ta bog‘ va maydonlarni “Yoshlar shaharchasi”, “Istiqlol Bolalar bog‘i”, “Forum maydoni”, “BolalarIstiroxat bog‘i”, “Xamid Olijon xamda Zulfiya” xiyoboni, “Xotira” maydoni, “Sharof Rashidov” maydonlarida to‘liq ta’mirlash ishlari amalga oshirildi.

I.Karimov ko‘chasida joylashgan umumiy maydoni 5, 75 gektarni tashkil qiluvchi Bolalar Istiroxat bog‘ida ikkinchi bosqichda “Buxoro-shirin” MCHJ tomonidan bog‘ xududida kinoteatr, trenajyor zali va yopiq basseyn qurilishi boshlab yuborildi.

Jizzax shahrida bunyodkorlik ishlarini davom ettirish maqsadida shaharning yana bir asosiy yo‘llaridan biri 5.9 km. uzunlikdagi I.Karimov ko‘chasining loyiha taklifi ishlab chiqilgan. Bunda 126 taga yaqin zamonaviy binolar qurilishi rejalashtirilgan bo‘lib, 101 ta turar joy binolari 6 ta mexmonxonalar, ta’lim maskanlari 2 ta umumta’lim binolari, 3 ta maktabgacha ta’lim maskanlari, 4 ta xususiy sog‘likni saqlash ob’yektlari, dam olish maskanlari, savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish binolari hamda yo‘l va yo‘l infratuzilma ob’yektlari, muxandislik tarmoqlari va velotreklar barpo etilishi rejalashtirilgan.

2019-2020 yillarda shaharning O‘zbekiston ko‘chasining 1, 5 km uzunlikdagi qismida 48 ta ko‘p qavatli turar joy binolri 4 ta xizmat ko‘rsatish ob’yektlari 2 ta umumta’lim maktab binolari, 2 ta maktabgacha ta’lim maskani, 2 ta xususiy klinikalar va boshqa turdagi binolar qurilishi rejalashtirilgan bo‘lib, hozirda ushbu hududdda amaliy ishlar boshlangan.

Bundan tashqari A.Navoiy va O‘zbekiston ko‘chalarini birlashtiruvchi Sh.Rashidov (O.Azimov) ko‘chasining 1, 3 km. qismi qayta rekonstruksiya qilinib, yo‘l bo‘yidagi mavjud xiyobonni qayta ta’mirlash, yo‘l bo‘yida turizm ob’yektlari, biznes syentr binolari, viloyat qurilish bosh boshqarma binosi qurilishi, mavjud binolarni zamonaviy shaharsozlik talablari asosida qayta ta’mirlash, maktabgacha ta’lim binolarini qayta rekonstruksiya qilish ishlarini amalga oshirish rejalashtirilgan.

2019-2020 yillarda bosh reja asosida bunyodkorlik ishlarini davom ettirish maqsadida O‘zbekiston ko‘chasini Toshkent ko‘chasi va I.Karimov ko‘chalari bilan birlashtirish va Toshkent ko‘chasini to‘lig‘icha batafsil rejalashtirish loyihasini ishlab chiqish hamda qurilish ishlarini amalga oshirish rejalashtirilgan.

2021 yilning yanvar-dekabr oylarida 1 205, 5 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2020 yilning yanvar– dekabrga nisbatan 115, 1 foizni tashkil etdi. Jizzax shahrida 2021 yilning yanvar-dekabr oylarida umumiy maydoni 66, 3 ming kv.m. (2020 yil yanvar-dekabriga nisbatan 98, 0 foiz) uy-joy foydalanishga topshirildi. Kommunal qurilishda – 15, 0 km suv tarmoqlari va - 4, 0 km. gaz tarmoqlari ishga tushirilib, 2020 yilning mos davriga nisbatan – 182, 0 foiz suv tarmoqlari va 102, 0 foiz gaz tarmoqlarini tashkil qildi.[6.28-b].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Jizzaxda bo‘lib o‘tgan uchrashuvda shaharni kengaytirish bo‘yicha rejalarni ma’lum qildi. “Jizzax shahri aholisi bugungi kunda 180 mingdan oshib, kelgusi besh yilda 230 mingga etishi kutilmoqda. Lekin shaharning infratuzilmasi 50 yil ichida ancha eskirib, hali ham 50 ming aholiga mo‘ljallangan desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz. Shu bois, shaharning qiyofasini, infratuzilmasini tubdan yaxshilash, aholi va tadbirkorlar uchun munosib sharoit yaratish bo‘yicha, alohida dasturni amalga oshiramiz.”[1]

Mustaqillik yillarida Jizzax shahrida amalga oshirilgan qurilish va bunyodkorlik ishlari shaharning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutdi. Yangi turar-joy massivlari, ijtimoiy soha ob’yektlari, yo‘l-transport infratuzilmasi va xizmat ko‘rsatish binolarining barpo etilishi aholi turmush darajasini yaxshilashga xizmat qildi. Shu bilan birga, shahar qiyofasi zamonaviy me’moriy talablar asosida shakllandi. Biroq qurilish ishlarining jadal olib borilishi shahar ekologiyasiga ham muayyan ta’sir ko‘rsatdi. Atmosfera havosining ifloslanishi, qurilish chiqindilarining ko‘payishi hamda yashil hududlarni saqlab qolish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etdi. Shu sababli so‘nggi yillarda qurilish jarayonlarini ekologik talablarga mos holda tashkil etish, yashil maydonlarni kengaytirish, sanitar-gigiyenik me’yorlarga qat’iy rioya qilishga alohida e’tibor qaratildi. Umuman olganda, Jizzax shahrida bunyodkorlik ishlari va shahar ekologiyasi o‘zaro bog‘liq jarayon sifatida rivojlanib bormoqda.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Jizzaxda bo‘lib o‘tgan uchrashuvdagi ma’ruzasidan 2023.
2. Babajanov A.R., Muqumov A.M., Sharipov S.R. Hududlarni rivojlantirish(o‘quv qo‘llanma). T: 2019.B 340.

3. Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 4 dekabridagi “Shahar va shaharchalarning bosh rejalarini hamda qishloq fuqarolar yig‘inlari hududlarini arxitektura-rejalashtirish jihatidan tashkil etish loyihalarini ishlab chiqish va amalga oishirsh tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 286-sonli qarori.
4. Jizzax viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. — Toshkent, 2003. - B 78–82
5. Jizzax viloyati hokimligi yillik hisobotlari. Jizzax, 2012, - B 63–65.
6. Jizzax shahrining statistic axborotnomasi 2021 yanvar-dekabrJizzax 2022. - B -28.
7. O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi hisobotlari. — T. 2001. - B 45–49.
8. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi va Sog‘liqni saqlash vazirligi ma’lumotlari. Toshkent, 2013, - B. 88–92.
9. O‘zbekiston Respublikasi tarixi. 4-jild. — Toshkent: Sharq, 2011. - B. 112–115.
10. O‘zbekiston shaharlarining eng yangi tarixi. Kollektiv monografiya. (Mas’ul muharrir: Ziyayeva D.H.). Toshkent: Yangi nashr, 2017. - B. 30.
11. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. «O‘zbekiston shaharlari infratuzilmasi», Toshkent, 2014, - B. 101–104.
12. Iqtisodiy islohotlar va shahar rivoji. Ilmiy to‘plam, Toshkent, 2015, - B 56–58.
13. Qarshi: Buguni obod, ertasi nurafshon // Xalq so‘zi. №179 (6362), 15 sentyabr 2015.

YANGI DAVRDA SHAHAR MUQADDAS QADAMJOLARI TOPOGRAFIK QIYOFASINING O‘ZGARISHI VA ULARNING TASNIFI

TURSUNOV JAVLON AKROM O‘G‘LI

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Ziyoratgohlar ma’naviy, ijtimoiy va madaniy makonning eng muhim tayanch nuqtalari hisoblanadi. Ushbu maqolada Yangi davrda shahar muqaddas qadamjolari topografik qiyofasining o‘zgarishi va ularning tasnifi to‘g‘risidagi ma’lumotlar tahlil qilingan.

Святилища являются важнейшими опорами духовного, социального и культурного пространства. В статье анализируются изменения топографического облика сакральных мест города и их классификация в Новое время.

Sanctuaries are the most important pillars of spiritual, social and cultural space. The article analyzes changes in the topographic appearance of sacred places of the city and their classification in the New Age.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

Samarqand, islom dini, diniy ziyoratgohlar, dahmalar, madaniy merosni tasniflash.
Самарканд, ислам, религиозные святилища, дахмы, классификация культурного наследия.
Samarkand, Islam, religious sanctuaries, dakhmas, classification of cultural heritage.

Kirish. Samarqand kontekstida Islom madaniyati va fanining qadimiy markazi, YUNESKOning Jahon merosi ob’ekti-ziyoratgohlar shahar topografiyasini shakllantirishda, muqaddas hududlarni belgilashda, shuningdek, uning aholisining kundalik hayotida alohida rol o‘ynaydi. Ziyoratgohlarni o‘rganish tarixiy, madaniy, antropologik va shahar tahlilini o‘z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi. Samarqandda muqaddas makon tarixiy binolar, jamoat markazlari (mahallalar) va ziyorat yo‘llari bilan chambarchas bog‘langan. Samarqand ziyoratgohlari nafaqat diniy, balki muhim ijtimoiy va ramziy ahamiyatga ham ega. Ular shahar makonini shakllanishida ishtirok etadi, ma’naviy faoliyat markazlarini belgilaydi, shahar navigatsiyasida qo‘llanma bo‘lib xizmat

qiladi, mahalliy va shahar miqyosidagi o‘ziga xosliklarni shakllantiradi. Bundan tashqari, ziyoratgohlar Islom an’analari doirasida ham, xalq mafkurasi doirasida ham individual va jamoaviy ziyoratgohlar, jamoat xotirasi elementlari, yig‘ilishlar va marosimlar o‘tkaziladigan joylarga aylanadi.

Adabiyotlar tahlil va metodologiya. Samarqanddagi ziyoratgohlarning tasnifi va tipologiyasi haqida gapiradigan bo‘lsak, ularni turli mezonlarga ko‘ra tasniflash mumkin: kelib chiqishi (tabiiy yoki texnogen), namoyon bo‘lish shakli (moddiy va nomoddiy), maqomi (rasmiy yoki xalq tomonidan tan olingan), muqaddaslik darajasi darajasi (mahalliy va transmintaqaviy ziyoratgohlar). Biroq, tarixiy topografiya doirasida eng samarali usul-bu funktsional-semantik va fizik-shaharsozlik xususiyatlariga asoslangan tipologiyadir. Quyida ana shu usul bilan shahar muqaddas qadamjolarini ajratamiz.

1. Diniy ziyoratgohlar. Bu an’anaviy ravishda muqaddas makonning eng ko‘zga ko‘ringan va mazmunli elementlari hisoblanadi. Bularga masjidlar, maqbaralar, madrasalar, xonaqoh va aniq diniy funksiyaga ega bo‘lgan boshqa binolar kiradi. Samarqandda bunday yodgorliklar ko‘pincha nafaqat muqaddas obidalar, balki shahar muhitining me’moriy dominantlari hisoblanadi. Bunday muqaddas qadamjolarga Amir Temur maqbarasi, Amir Temur jome masjidi, Shoxizinda kompleksi kabilarni misol qilib ko‘rsatish mumkin.

Ushbu ob’ektlar ziyoratchilar, sayyohlar va tadqiqotchilarni jalb qiladigan davlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan muhofaza qilinadigan rasmiy maqomga ega bo‘lgan ziyoratgohlardir.

2. Dahmalar. Ushbu turkum diniy arboblar, shayxlar, olimlar va hurmatga sazovor odamlar dafn etilgan joylarni qamrab oladi. Musulmon urf-odatlarida, ayniqsa tasavvufda, bunday dahmalar ziyorat va ibodat markazlariga aylangan. Samarqandda bunday ko‘plab joylarni ko‘rsatish mumkin. Masalan, Xo‘ja Doniyor maqbarasi dinlararo ehtirom joyidir. Dahma ustida XX asr boshiga qadar maqbara qurilmagan. Shuning uchun ushbu muqaddas qadamjo ulug‘ kishining dahmasi sifatida ziyorat qilinib kelingan. Masjidlar va madrasalarda yaqinidagi islom ulamolarining qabrlari ham bunga misol bo‘la oladi. Masalan Faqih Abulaysning avlodi bo‘lgan Fazlulloh Abullays dahmasi shunday yodgorliklar qatoriga kiradi. Ular ko‘pincha yirik maqbaralar kabi yorqin me’morchilik namunasi emas, lekin xalq orasida, ayniqsa mahalliy jamoalar orasida katta nufuzga ega bo‘lib kelgan.

Tabiiy va toponimik ziyoratgohlarga toifasiga ma’lum mo‘jizalar, hodisalar yoki azizlarning ismlari bilan bog‘liq bo‘lgan buloqlar, daraxtlar, tepaliklar, g‘orlarni kiritish mumkin. Misol tariqasida Hazrati Dovud ziyoratgohi, Samarqand shahri aholisi orasida ziyota qilinadigan Bibi Seshanba yoki Bibi Chorshanba kabi ziyoratgohlarni kiritish mumkin. Ushbu ziyoratgohlar asosan xalq an’analarida shakllanadi va ko‘pincha yirik me’moriy yodgorliklar bilan yonma-yon joylashgan.

Mahallalardagi lokal ahamiyatga ega bo‘lgan ziyoratgohlar ko‘plab tumanlarida kam ma’lum bo‘lgan, ammo mahalliy jamoalar uchun muhim bo‘lgan ibodat ob’ektlari mavjud - bular eski qabrlar, kichik masjidlar, yodgorlik toshlari bo‘lishi mumkin. Ular mahalliy muqaddas markazlarni tashkil etib, mahalla aholisi u yerda marosimlar o‘tkazadilar. Ushbu ziyoratgohlar shaharning “og‘zaki tarixi” da yashaydi va rasmiy registrlarda deyarli eslatilmagan.

Natijalar va muhokama. 1991-yilda mustaqillikka erishgandan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi milliy va madaniy tiklanishning yangi bosqichiga o‘tdi. Bu davr nafaqat tarixiy xotirani tiklash, balki diniy va ma’naviy merosni faol tiklash bilan ham ajralib turdi. Shu nuqtai nazardan, Samarqand ziyoratgohlari muqaddas va madaniy makonning bir qismi sifatida alohida ahamiyat kasb etdi. Ularning ta’siri, ayniqsa, shahar muhitini tiklash, sayyohlik infratuzilmasini shakllantirish, ijtimoiy an’analarni tiklash va jamiyatning ma’naviy yo‘nalishlarini qayta ko‘rib chiqish jarayonlarida sezilarli bo‘ldi.

Samarqand shahri o‘ziga xos madaniy meros va ko‘plab islom va islomgacha bo‘lgan ziyoratgohlarga ega bo‘lib, tarixiy markazlarni saqlash va rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturining asosiy ob’ektlaridan biriga aylandi. Mustaqillik davrida uning muqaddas ob’ektlari - masjidlar, maqbaralar, qabrlar, ziyoratgohlar faqat muzey yoki arxeologik yodgorliklar sifatida qabul qilinmay, shahar aholisi va ziyoratchilarning kundalik hayotiga qaytib, diniy, ma’naviy va ijtimoiy funksiyaga ega bo‘ldi.

Sovet davrida Samarqandning ko‘plab ziyoratgohlari asl funksiyalarini yo‘qotdilar. Maqbaralar va masjidlardagi diniy marosimlar taqiqlangan yoki cheklangan, ob’ektlar muzeylar, omborlar, madaniy muassasalar sifatida ishlatilgan. Biroq, mustaqillikning tiklanishi bilan muqaddas ob’ektlarni qayta qurish jarayoni boshlandi. 1990-yillarning oxiridan boshlab masjidlar, maqbaralar va ziyoratgohlarning ommaviy ochilishi va tiklanishi boshlandi. Ularning aksariyati yana juma va bayram namozlari o‘tkaziladigan ibodat joylariga aylandi. Masalan, Xo‘ja Doniyor maqbarasi yana dinlararo ziyorat markaziga aylandi. Shohizinda majmuasi aniq tashkil etilgan transport yo‘nalishi bilan rasmiy ravishda tan olingan ziyorat markaziga aylandi. Ushbu jarayon muqaddas qadamjolarning asl funksiyasini qaytarib berdi, aholi va tarixiy makon o‘rtasidagi aloqani kuchaytirdi va ajdodlarga, urf-odatlarga va ma’naviy davomiylikka hurmat asosida shahar o‘zini o‘zi anglashning yangi tizimini shakllantirishga yordam berdi.

Mustaqillik davrida O‘zbekiston hukumati keng ko‘lamli shaharsozlik va restavratsiya dasturlarini amalga oshirdi, uning doirasida muqaddas ob’ektlar shahar muhitini me’moriy qayta tashkil etish markazlariga aylandi. Ziyoratgohlar atrofidagi shahar infratuzilmasini qayta qurish va rivojlantirish ana shu tariqa boshlandi. Ko‘pgina ziyoratgohlar yangi jamoat joylari, bog‘lar, maydonlar, sayyohlik zonalarining yadrosiga aylandi. Masalan, Shohizinda hududida yo‘laklar rekonstruksiya qilindi, ko‘chalar kengaytirildi, ziyoratchilar va sayyohlar uchun qulay infratuzilma yaratildi. Xo‘ja Doniyor maqbarasi atrofida 2015-yilda dam olish maskanlari barpo etildi, kechki tashriflar uchun yoritilgan maydon tashkil etildi. Amir Temur maqbarasining perimetri bo‘ylab sovet davridagi tartibsiz binolar buzildi va maqbaraning milliy ziyoratgoh maqomini ta’kidlaydigan yangi jamoat maydoni tashkil etilgan. Ushbu yondashuv ziyoratgohlarning shahar tuzilmasiga qayta integratsiyalashuviga yordam berdi, ularni tarix, ma’naviyat va kundalik hayot uchrashadigan zamonaviy va dolzarb makonlarga aylantirdi.

Mustaqillik yillarida ziyoratgohlar milliy o‘ziga xoslikni shakllantirish omillaridan biriga aylandi. Postsovet davrida ziyoratgohlarning eng muhim rollaridan biri ma’naviy ildizlarga murojaat qilish orqali milliy o‘ziga xoslikni tarbiyalash edi. Tarixning jismonan aniq izlari sifatida muqaddas joylar mafkuraviy va madaniy siyosatning asosiy vositalariga aylandi. Muqaddas joylarni tiklash va ommalashtirish orqali davlat buyuk o‘tmish bilan ma’naviy uzviylikni mustahkamlashga, O‘zbekistonning Islom va sivilizatsiya an’analarini saqlovchi rolini ta’kidlashga intildi. O‘quv dasturlarida, sayyohlik marshrutlarida, davlat siyosatida ziyoratgohlarning, ayniqsa Amir Temur, Mirzo Uluqbek, Burhoniddin Marginoniy kabi buyuk tarixiy shaxslar nomi tiklandi. Bu esa yangi avlodning tarixiy va madaniy o‘ziga xosligini shakllantiradi.

Samarqandning muqaddas qadamjolari mustaqil O‘zbekistonning turizm siyosatining asosiy elementlariga aylandi. Hukumat ichki va xalqaro turizmni jalb qilishda ma’naviy va madaniy merosning ahamiyatini angladi, bu shahar infratuzilmasi, biznes va xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Muqaddas qadamjolar shahar bo‘ylab sayyohlik yo‘nalishlarining asosi, xalqaro konferentsiyalar va madaniy festivallar o‘tkaziladigan joylar, muzey va ta’lim dasturlari markazlariga aylandi. Amir Temur maqbarasi, Shohizinda, Amir Temur jome masjidi, Registon kabi ziyoratgohlar atrofida yangi mehmonxonalar, kafelar, hunarmandchilik do‘konlari, suvenirlar do‘konlari paydo bo‘ldi. Bu shaharning tarixiy markazini jonlantirishga yordam berdi va uning iqtisodiy rivojlanishiga turtki berdi. Shunday qilib, ziyoratgohlar nafaqat madaniy, balki shahar tarkibidagi iqtisodiy jihatdan muhim o‘sish nuqtalariga aylandi.

Mustaqillik davrida ziyoratgohlarni nafaqat o‘tmishning qadimiy obyektlari, balki ma’naviy hayotning muhim nuqtasi sifatida qayta ko‘rib chiqish jarayoni yuz berdi. Ziyoratgohlarga tashrif buyurishning yangi madaniyati shakllandi. Muqaddas qadamjolar nafaqat ziyorat joyi, balki o‘quv ma’ruzalari, madaniy tadbirlar, ekskursiyalar joyiga aylandi. Bu shahar muhitini insoniylashtirishga, ma’naviy madaniyatni rivojlantirishga va madaniy xilma-xillikni e’zozlashga yordam beradi.

1991 yildan keyin O‘zbekiston siyosiy va madaniy tarixning yangi bosqichiga o‘tdi. Ushbu bosqich o‘tmishni qayta baholash, ma’naviy va diniy an’analarni tiklash va muqaddas

qadamjolarning shahar hayotidagi rolini qayta ko‘rib chiqish davri bo‘ldi. Samarqand kabi tarixiy shaharlarda, muqaddas ob’ektlar asrlar davomida shaharning qiyofasi, tuzilishi va topografiyasini belgilab bergan, keng ko‘lamli rekonstruktsiya qilish, tiklash va ba’zi hollarda tarixiy binolarning ayrim qismlarini buzish jarayonlari yuz berdi.

Ushbu harakatlar ikki xil xususiyatga ega edi: bir tomondan ular madaniy merosni saqlashga qaratilgan bo‘lsa, boshqa tomondan ular asllik, haqiqiy muhitni yo‘qotish va tarixiy topografiyaning o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘ldi. Muqaddas joylar nafaqat masjidlar, maqbaralar, xonaqoh va ziyoratgohlar, balki ular bilan bog‘liq ko‘chalar, maydonlar, hovlilar, qabristonlar, mahallalar hamdir. Aynan shu murakkab muhitda marosimlar, e’tiqodlar va ijtimoiy amaliyotga boy shaharning tuzilmasi shakllandi. Mustaqillik ushbu muhitni o‘rganish va tushunish uchun yangi imkoniyatlar ochdi, lekin shu bilan birga shaharsozlik o‘zgarishlarining keng ko‘lamli jarayonlari ham boshlandi.

Mustaqillik davri shaharsozlik siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sovet davrida vayron qilingan, o‘z holiga tashlab qo‘yilgan yoki buzilgan asosiy muqaddas qadamjolarni tiklash edi. Shohizinda ansambli, Amir Temur maqbarasi, Amir Temur jome masjidi, Xo‘ja Abdu Darun va Xo‘ja Doniyor maqbaralari hamda ko‘plab mahalla ziyoratgohlariga katta e’tibor qaratildi. Shohizinda ansambli 1990-yillarning oxiridan boshlab ko‘p yillik rekonstruksiya obyektiga aylandi. Ishlar me’moriy shakllarni tiklash, peshtoqlarni mustahkamlash, me’moriy qoplamalarni almashtirish, atrofdagi hududlarni obodonlashtirishni o‘z ichiga olgan. Bu ansamblning buyukligini tiklashga va uni ziyorat va turizm markaziga aylantirishga imkon berdi. Rekonstruksiya ishlari muqaddas qadamjolarning kengayishiga olib keldi. Majmuaga olib boruvchi ko‘chalar to‘g‘irlandi, eski binolar buzildi, keng zinapoyalar, ochiq joylar va xiyobonlar yaratildi. Ansambl atrofida shu vaqtgacha mavjud bo‘lgan siyob buyum bozori (chuqur bozor) uchun alohida bino qurildi.

Sovet davrida zich turar-joy binolarida bo‘lgan Amir Temur maqbarasi atrofidagi hudud ham xuddi shunday jarayonni boshdan kechirdi. Mustaqillikka erishgandan so‘ng, bu hudud tartibsiz tuzilmalardan tozalandi, uning milliy va muqaddas ramz maqomi mustahkamlandi. Shunga qaramay, ushbu va boshqa holatlarda rekonstruksiya ishlari shaharsozlik sohasidagi katta o‘zgarishlar, jumladan, eski mahallalarni buzish, mahalla infratuzilmasining yo‘q bo‘lib ketishi, an’anaviy turmush tarzining bir qismini yo‘qotish bilan birga olib borildi.

Samarqandda yirik ziyoratgohlarni tiklash bilan bir qatorda eski mahallalarning katta qismini buzish jarayoni ham amalga oshirildi. Bu, ayniqsa, kichik ziyoratgohlar-qabrlar, masjidlarga oiddir. Ba’zi hollarda infratuzilma loyihalarini amalga oshirish, yo‘llarni kengaytirish yoki sayyohlik yo‘nalishlarini obodonlashtirish jarayonida bunday ob’ektlar yo‘q qilinish xavfi ostida bo‘lgan. Rasmiy yodgorliklar ro‘yxatida qayd etilmagan ziyoratgohlar to‘g‘ri qayd etilmagan va o‘rganilmagan holda yo‘qolgan, ularning tarixi faqat mahalliy aholi xotirasida saqlanib qolgan.

Mustaqillik sharoitida yangi muqaaddas qadamjolar yuzaga kelish jarayoni ham yuzaga keldi. Unda ilgari neytral yoki yarim vayron bo‘lgan ob’ektlar yangi maqomga ega bo‘ldi. Bunga masalan, qayta tiklangan va muomalaga kiritilgan Imom al Buxoriy majmuasi, Imom Motrudiy maqbarasi, Hazrati Dovud ziyoratgohlarini kiritish mumkin. Bu kabi jarayonlar ma’naviy hayotning tiklanishiga yordam beradi, lekin makon funksiyalarining o‘zgarishi bilan ham bog‘liq. Shu bilan birga, muqaddas obyektlarning katta qismi muzeylashtirildi, sayyohlik yo‘nalishlarining bir qismiga aylandi, madaniy markazlar tarkibiga kiritildi, madaniy tadbirlar uchun maydonchalar sifatida ishlatila boshlandi. Bu esa yodgorliklarning saqlanishini ta’minladi, ammo ularning tashrif maqsadlari o‘zgardi. Masalan, Bibixonim maqbarasi endi faqat ziyorat joyi emas, chunki tashrif rejimi va ichki makon sayyohlarga qaratilgan.

Shunday qilib, mustaqillik sharoitida Samarqanddagi muqaddas qadamjolarning o‘zgarishi ikki qarama-qarshi yo‘nalishdagi harakat sifatida namoyon bo‘ldi: bu bir tomondan, muqaddas q1adamjolar tiklanishi, mustahkamlanishi va institutlashishida ko‘rilsa, boshqa tomondan, ilgari shahar muhitining barcha darajalariga singib ketgan kundalik,

mahalliy, sezilmaydigan muqaddaslikning yo‘qolib borishi ham yuz bermoqda.

Mustaqillik yillarida muqaddas qadamjolar bilan bog‘liq yana bir parallel jarayon -ularni zamonaviy sharoitlarga moslashtirish kuzatildi. Bunda ular muqaddaslikni saqlab qoldi, lekin qo‘shimcha, ko‘pincha dunyoviy funksiyalarga ham ega bo‘ldi. Bu bu funksiyalar quyidagicha ifodalanadi:

1. Madaniy turizm ob’ektlari;
2. Ommaviy tadbirlar uchun joylar;
3. Ta’lim va ma’rifiy ishlar uchun joylar;
4. Shahar brendi elementlari.

Masalan, Samarqandning eng muhim muqaddas majmualaridan biri bo‘lgan Shohizinda ansambli yangi davrda bir vaqtning o‘zida diniy ziyorat markazi, turistik diqqatga sazovor joy va madaniy o‘ziga xoslik ramziga aylandi. Uning hududida ziyoratlar, xalqaro ekskursiyalar va madaniy tadbirlar o‘tkazila boshlandi. Shunday qilib, makon gibrid rejimda ishlaydi, bu erda muqaddaslik va dunyoviylik bir-birini istisno qilmaydi, balki doimiy muvozanatda birga yashaydi. Xuddi shunday, Xodja Doniyor maqbarasi, Registon ansambli atrofi obodonlashtirilganidan keyin nafaqat diniy markazga, balki ma’ruzalar, ko‘rgazmalar, konferentsiyalar o‘tkaziladigan ta’lim va ma’rifiy makonga aylandi. Ba’zida bu erda maktab o‘quvchilari va talabalar uchun ekskursiyalar tashkil etiladi, bu shaharning ta’lim infratuzilmasining elementi sifatida ziyoratgohga yangi funksiyani yuklaydi.

Moslashuvning yana bir shakli-ichki turizm va shahar brendini rivojlantirish uchun muqaddas ob’ektlardan foydalanish hisoblanadi. Munitsipal hokimiyatlar shaharning reklama materiallari, logotiplari, ramzlarida muqaddas joylarning tasvirlaridan foydalanadilar. Masalan, Sherdor peshtoqi Samarqandning sayyohlik brendlarining bir qismiga aylandi. Bunday holda, ziyoratgoh vizual va ramziy manba sifatida ishlaydi, bu shaharni jozibadorligini ta’minlaydi.

Mustaqillik yillarida Samarqand shahar muqaddas qadamjolari yetarlicha transformatsiyaga uchradi. Trasformatsion modellari bo‘yicha quyidagicha tasniflash mumkin:

-omon qolgan va faol faoliyat yuritadigan ziyoratgohlar

-qisman yo‘qolgan va moslashtirilgan yodgorliklar

-butunlay vayron qilingan yoki ko‘chirilgan qadamjolar

-tarixiy muhitda qayta tiklangan ziyoratgohlar

XX asrda urushlar, siyosiy o‘zgarishlar va mafkuraviy tazyiqlar natijasida yuz bergan vayronagarchiliklarga qaramay, Samarqandning bir qator muqaddas joylari nafaqat saqlanib qolgan, balki o‘tmish va hozirgi zamon o‘rtasidagi jonli aloqani saqlab, faol faoliyat ko‘rsatishda davom etmoqda. 1991 yilda O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng, ma’naviy tiklanish jarayoni boshlandi, uning doirasida Samarqandning muqaddas qadamjolari yangi hayotga ega bo‘ldi. Ular nafaqat restavratsiya va madaniy dasturlarning mavzusi, balki ommaviy ziyorat, jamoaviy ibodat, diniy ta’lim va ma’naviy aloqa joylariga aylandi.

Ana shunday muqaddas qadamjolardan eng muhimlaridan biri Shohizinda majmuasi hisoblanadi. Majmuada sovet davrida ham o‘zining muqaddasligini yo‘qotmadi va bugungi kunda O‘zbekistonning turli mintaqalari va qo‘shni davlatlardan ziyoratchilar har kuni oqib keladigan faol muqaddas qadamjodir.

Xodja Doniyor maqbarasi yahudiy, nasroniy va islom an’analarida Doniyor payg‘ambar sifatida tanilgan shaxsdir. Uning maqbarasi Siyob daryosi yaqinidagi hududda joylashgan bo‘lib, joy dinlararo ahamiyatga ega, unga nafaqat musulmonlar, balki boshqa din vakillari ham tashrif buyurishadi. Sovet davrida maqbara tarixiy va madaniy yodgorlikka aylantirildi, ammo o‘sha paytda ham muqaddasligini yo‘qotmadi. Mustaqillik yillarida u muqaddas joy rasmiy maqomini oldi, qayta tiklandi va obod infratuzilmaga ega bo‘ldi. Ushbu ob’ektlar davlat nazorati yoki ommaviy turizm bilan bog‘liq bo‘lmagan muqaddaslikning mahalliy shaklini saqlab qoldi va shahar ma’naviy hayotining norasmiy topografiyasining muhim qismini tashkil qildi.

Samarqandning muqaddas qadamjolari faqat Registon, Shohizinda, Amir Temur maqbarasi va Jome masjidi emas, balki shaharning tarixiy-madaniy va ma’naviy xotirasining muhim qismini tashkil etuvchi unchalik sezilmaydigan, mahalliy, ko‘pincha yarim tashlab ketilgan yodgorliklarning ulkan qatlami hamdir.

XX asr davomida, ayniqsa sovet davrida, ko‘plab arxitektura va muqaddas qadamjolar vayron qilindi, yo‘qotildi yoki yangi, diniy bo‘lmagan funksiyalarga moslashtirildi.

Mustaqillik sharofati bilan ularni qayta ko‘rib chiqish, tiklash, qisman qayta qurish va zamonaviy shahar muhitiga kiritish jarayoni boshlandi. Biroq, barcha yodgorliklarni saqlab qolishning iloji bo‘lmadi. Ba’zilari butunlay yo‘qolgan, boshqalari esa faqat qisman saqlanib qolgan. Ba’zi obyektlar moslashtirilgan, ya’ni funksiya va makon mazmuni bo‘yicha o‘zgartirilgan.

Samarqand yodgorliklarining qisman yo‘qolishiga ta’sir ko‘rsatgan asosiy omillarni bir nechtasini keltirish mumkin. Ulardan birinchisi, vaqt, iqlim sharoiti va tizimli parvarishning etishmasligi tufayli me’moriy tuzilmalarning tabiiy qarishi va eskirishi hisoblanadi. Ikkinchidan, sovet davrida diniy ob’ektlar o‘zlarining funksional maqsadlaridan mahrum bo‘lgan, tahqirlangan, omborlar, ustaxonalar, turar-joy binolari uchun o‘zgartirilgan paytda katta zarar etkazilgan. Uchinchi muhim sabab urbanizatsiya hisoblanadi. Ayniqsa 1960-1980 yillarda, eski mahallalar yangi turar-joy massivlari, yo‘llar va ma’muriy binolar qurilishi uchun buzilganda, muqaddas qadamjolarga zarar yetkazildi. Shunday maskanlar qatoriga Mirzo Xudoyquli masjid, tahoratxona, maktab, madrasasi, Labi Chashma mahallasi masjidi, Moturid mahallasi masjidi, Samarqand arkidagi Mulla Xoja Baqi mahallasi masjidi va tahoratxonasi, Xoni Shaxid Muhammad Shayboniyxon mahallasi masjidi, Mulla Qozi Abdurasul mahallasi masjidi, Qo‘shhovuz mahallasidagi Arifjonboy madrasasi, So‘fi Roziq mahallasi madrasasi, Mulla Qalandar mahallasi masjidi, Bog‘ibaland mahallasi masjidi, Abulxayrboy mahallasi maktabi, Ibrohimxo‘ja mahallasi tahoratxonasi, Shoxkashon mahallasi masjid, maktab va tahoratxonasi, Zingaron mahallasi masjid va tahoratxonasi, Urguti mahallasi 4 hujrali masjidi, Moturid mahallasi Sangin masjidi kabi muqaddas joylarni kiritish mumkin.

Mustaqillik davrida bunday muqaddas qadamjolarning bir qismi restavratsiya dasturlariga kiritilgan, ammo aniq hujjatlar yo‘qligi, mablag‘ yetarli emasligi yoki shoshilinch yondashuv tufayli restavratsiyalar ko‘pincha yuzaki, dekorativ, ba’zan esa asl elementlarni zamonaviy taqlidlar bilan almashtirish bilan amalga oshirilgan.

Samarqanndning saqlanib qolgan va faol faoliyat ko‘rsatayotgan ziyoratgohlar bilan bir qatorda, shahar tarixida nafaqat moddiy shaklini, balki tirik ma’naviy landshaftdagi o‘rnini ham yo‘qotib, butunlay vayron qilingan yoki majburan ko‘chirilgan ko‘plab ziyoratgohlar mavjud. Ushbu yo‘qotishlar tarixiy falokatlar bilan bir qatorda modernizatsiya va urbanizatsiya siyosati va mahalliy xotira qiymatiga befarqlik bilan bog‘liqdir.

Samarqandning vayron qilingan va ko‘chirilgan ziyoratgohlarini o‘rganish tarixiy qayta qurishning muhim vazifasi bo‘lib, shaharning ma’naviy hayotining unutilgan qatlamlarini tiklashga imkon beradi. Ushbu ob’ektlar, jismonan yo‘q bo‘lib ketgan bo‘lsada, arxiv manbalarida, qariyalarning og‘zaki hikoyalarida, mahalla nomlarida, arxiv hujjatlarida yashashni davom ettirmoqda.

Bunday qadamjolarning yo‘qolishi shahar toponimikasiga ham salmoqli ta’sir ko‘rsatadi. Sabablar esa turlicha: fathlardan tortib sovet modernizatsiyasiga qadar Samarqandning muqaddas me’morchiligini yo‘q qilishning birinchi keng ko‘lamli omili harbiy bosqinlar va dinastiyaviy mojarolar bo‘ldi. XIII asrda, mo‘g‘ullar bosqini paytida, urushdan oldingi me’morchilikning katta qismi, shu jumladan ilk islom davridagi masjidlar va maqbaralar vayron qilingan. Arxeologlar hali ham qadimgi Afrosiyob hududida tuproq qatlamlari ostida ilgari noma’lum bo‘lgan ibodat joylarining poydevorlarini topmoqdalar.

XIX asrning ikkinchi yarmida, Samarqand Rossiya imperiyasi tarkibiga kirganida, maqbaralar va qabristonlarning bir qismi harbiy qal’alar, kazarmalar va yangi ko‘chalar qurilishi jarayonida vayron qilingan. Masalan, Amir Temur arkining yo‘qotilishi va o‘rnida harbiy uchun kazarmaning qurilishi shahar toponimikasini butunlay o‘zgartirib yubordi. Biroq, yo‘qotishlarning eng katta to‘lqini sovet davrida, ayniqsa 1930-1970 yillarda, diniy muassasalar muntazam ravishda yopilib, muqaddas ob’ektlar buzib tashlangan yoki dunyoviy ehtiyojlar uchun o‘zgartirilgan paytda sodir bo‘ldi. Sovetlarning «diniy aqidaparastlikka qarshi kurash» siyosati ko‘plab ziyoratgohlarni, ayniqsa kichik maqbaralar va mahalla masjidlarini demontaj qilish bilan birga olib borildi. Ulardan ba’zilari butunlay vayron qilingan, boshqalari omborlar, oshxonalar, sport zallariga aylantirilgan. Ba’zi ziyoratgohlar faqat

guvohlar xotirasida, eski fotosuratlar va xaritalarda saqlanib qolgan.

To‘liq vayron bo‘lishdan tashqari, ba’zi muqaddas joylar ko‘chirilgan. Bu amaliyot ko‘pincha sobiq sovet davrida shahar qurilishi o‘zgarganda obyektni «saqlash» maqsadida qo‘llanilgan. Biroq, ziyoratgohlarni ko‘chirish, qoida tariqasida, nafaqat jismoniy jihatdan, balki muqaddas qadamjo haqida xotirani yo‘qotishni ham anglatadi. Chunki bunday ob’ektlarning ma’nosi ko‘p jihatdan ularning joylashuvi, muhiti, mahallaning ma’naviy muhiti bilan aloqalariga bog‘liq.

Masalan, sovet davrida Shayboniylar maqdarasining buzib tashlanishi va uning ichida joylashgan shayboniylar dahmasini registon ansambli yaqiniga ko‘chirilihsi nafaqat butun boshli madrasaning yo‘q qilinishi, ayni paytda shayboniylar bilan bog‘liq xotiraning o‘chirilishi va shahar toponimikasida sezilarni o‘zgarishlarga olib keldi.

Xulosa. Samarqandning hozirgi kungacha saqlanib qolgan va faol faoliyat yuritishda davom etayotgan ziyoratgohlari shaharning ma’naviy landshaftining jonli timsollaridir. Ular diniy, tarixiy, madaniy va ijtimoiy ahamiyatga ega. Ularni zamonaviy shahar sharoitida saqlash, va rivojlantirish an’analarni hurmat qiladigan nozik yondashuvni talab qiladi.

Aynan shu ziyoratgohlar orqali Samarqandning zamonaviy o‘ziga xosligi muqaddas va dunyoviy, o‘tmish va hozirgi zamon uyg‘un ravishda birga yashaydigan shahar sifatida shakllanadi. Samarqandning qisman yo‘qolgan va moslashtirilgan yodgorliklari madaniy xotiraning maxsus qatlami bo‘lib, unda bir vaqtning o‘zida vayronagarchilik izlari, restavratsiya izlari va eski ob’ektlar uchun yangi hayot shakllarini ko‘rish mukin. Ular madaniy meros nafaqat me’moriy shakl, balki tarixiy muhit, marosim funksiyasi, joy xotirasi ekanligini namoyish etadilar. Yodgorliklarni moslashtirish har doim ham qo‘l kelavermaydi. Ba’zi hollarda ularni o‘zgaruvchan shahar sharoitida saqlash qiyin kechadi. Ushbu jarayonlar professional ilmiy yondashuv, mahalliy hamjamiyatning ishtiroki va asllikni saqlash bilan birga bo‘lishi muhimdir. Shundagina, hatto qisman saqlanib qolgan yodgorliklar ham o‘tmishdagi izlarni emas, balki tirik shahar madaniyatining faol qismiga aylanishi mumkin.

Samarqandning butunlay vayron qilingan yoki ko‘chirilgan ziyoratgohlari shaharning murakkab tarixining tilsiz dalilidir, unda muqaddas makon bir necha bor unutilgan, vayron qilingan. Jismonan yo‘qotishlarga qaramay, ushbu ziyoratgohlarning aksariyati odamlar xotirasida, nomlarda, hatto ulardan parcha qolmagan taqdirda ham yashashni davom ettirmoqdalar. Masalan, Qo‘sh hovuz masjidi va Usmonboy uyining buzilib, o‘rniga Osiyo mehmonxonasi qurilgan bo‘lsada, joy nomi hamon saqlanib, shahar muhitiga majmua haqida eslatib turadi. Shaharning jadal o‘sishi va modernizatsiya sharoitida Samarqand ma’naviy topografiyasining uzluksizligini saqlab qolish uchun nafaqat moddiy ob’ektlarni saqlab qolish, balki yo‘qolgan joylar xotirasini yozib olish va uzatish ham muhimdir. Shunday qilib, hatto jismonan yo‘q bo‘lib ketgan bo‘lsa ham, ular avlodlarni bog‘laydigan va o‘tmishga hurmatni rivojlantiradigan shahar o‘ziga xosligining langari sifatida o‘z vazifalarini bajarishda davom etmoqdalar.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1) Muallif ushbu xulosaga M.A. Nabirayeva tomonidan tuzilgan o‘rta asrlar Samarqand topografik xaritasini o‘rganish asosida kelgan.

2) Абрамов М. Гузары Самарканда. Ташкент-1989. - С. 11-12

3) Каттаев К. Самарқанднома. Тошкент-2017. 65-66 бетлар.

4) Абу Хофс Нажмиддин Умар ан-Насафий ас-Самарқандий. Қандия. Тадқиқот, таржима, сўзбоши, изоҳ ва луғатлар муаллифи Комилхон Каттаев. Самарқанд-2016. 20-бет

5) Каттаев К.Самарқанднома. Тўртинчи тўплам. Тошкент: Mashhur-press, 2017. 60-b.

6) Абу Хофс Нажмиддин Умар ан-Насафий ас-Самарқандий. Ал-қанд фи тарихи Самарқанд (Қандия) Тадқиқот, таржима, сўзбоши, изоҳ ва луғатлар муаллифи Комилхон Каттаев. Тошкент, “Qaqnus” нашриёти 2020. 28-b.

7) Вяткин В.Л. Отчет о раскопках, произведенных в октябре 1904 года в местности Намазгох близ г. Самарканда // Известия Русского комитета для изучения Средней и

Восточной Азии в историческом, археологическом, лингвистическоми этнографическом отношениях. № 7. 1907, - С. 12-20

8) Кочнев Б.Д. Средневековые загородные культовые сооружения Средней Азии. Ташкент: Фан, 1976. - С. 35-36.

9) Кочнев Б.Д. Средневековые загородные культовые сооружения Средней Азии. Ташкент: Фан, 1976. - С. 3.

10) O‘zMA, I-18 fondi, 1-ro‘yxat, 9854-ish, 4-bet.

11) Абрамов М. Гузары Самарканда. Ташкент-1989. С.47

12) Справочная и статистическая свидения по Самаркандский области. СКСО. Вып.1. 1891, - С. 1.

13)

ЎЗБЕКИСТОНДА ИҚТИСОДИЁТ СОҲАСИНИ ЛИБЕРАЛЛАШТИРИШ ВА БОЗОР ИНФРАТУЗИЛМАСИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ

ҲАМРОЕВ ШУҲРАТ ШАРОФОВИЧ

Низомий номидаги Ўзбекистон миллий педагогика университети мустақил тадқиқотчиси

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Мақолада Ўзбекистонда мустақилликнинг дастлабки йилларида бозор иқтисодиётига ўтиш жараёнлари, “ўзбек модели”нинг шаклланиши, иқтисодий ислоҳотларнинг асосий йўналишлари ҳамда бозор институтларини ривожлантиришнинг тарихий ва институционал жиҳатлари таҳлил қилинган.

В статье проанализированы процессы перехода Узбекистана к рыночной экономике в первые годы независимости, формирование «узбекской модели», основные направления экономических реформ, а также исторические и институциональные аспекты развития рыночных институтов..

The article analyzes the processes of Uzbekistan’s transition to a market economy during the early years of independence, the formation of the “Uzbek model, ” the main directions of economic reforms, as well as the historical and institutional aspects of the development of market institutions.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

Бозор иқтисодиёти, ўзбек модели, иқтисодий ислоҳотлар, хусусийлаштириш, бозор институтлари, иқтисодий трансформация, макроиқтисодий барқарорлик.

Рыночная экономика, узбекская модель, экономические реформы, приватизация, рыночные институты, экономическая трансформация, макроэкономическая стабильность.

Market economy, Uzbek model, economic reforms, privatization, market institutions, economic transformation, macroeconomic stability.

Ўзбекистон Республикасининг мустақилликка эришиш арафасида ва истиқлолнинг дастлабки йилларида бозор иқтисодиётига ўтиш жараёнининг ўзига хос жиҳатлари ҳам алоҳида аҳамиятга эга бўлган. Марказлашган режали иқтисодиётдан воз кечиш ва мустақил иқтисодий сиёсатни шакллантириш жараёни амалга оширилган. Бу жараён миллий иқтисодий модель ишлаб чиқиш ва уни амалиётга жорий этиш билан боғлиқ бўлиб, бу жараён босқичма-босқич трансформация тамойилига асосланди.

Бозор иқтисодиётига ўтишда эволюцион ёндашув танланиб, давлатнинг иқтисодиётдаги иштироки сақланган ҳолда бозор механизмлари босқичма-босқич жорий этилди. Миллий манфаатлар устуворлиги асосида иқтисодий мустақилликни таъминлаш сиёсати амалга оширилди. Бу эса ташқи иқтисодий қарамликни камайтириш ва

ички ишлаб чиқаришни ривожлантиришга хизмат қилди.

Хусусийлаштириш жараёни иқтисодий ислоҳотларнинг марказий йўналишига айланиб, давлат мулкини трансформация қилиш орқали бозор муносабатларининг институционал асослари шакллантирилди. Қишлоқ хўжалигини ислоҳ қилиш жараёни доирасида аграр секторни диверсификация қилиш, фермер хўжаликларини ривожлантириш ва ер муносабатларини ислоҳ қилиш орқали бозор механизмларини жорий этишга алоҳида эътибор қаратилди.

Мамлакатнинг узоқ йиллар давомида аграр йўналишда ривожланганлиги қишлоқ ҳудудларида бандлик муаммосини ҳал этишни иқтисодий сиёсатнинг устувор йўналишларидан бири сифатида белгилашни тақозо этди. Шу нуқтаи назардан, фермер хўжаликларини ривожлантириш орқали аграр секторда ислоҳотларни чуқурлаштириш, ишлаб чиқариш ва бошқарув жараёнларига бозор тамойилларини кенг жорий этиш ҳамда қишлоқ аҳолисининг турмуш даражасини оширишга қаратилган комплекс чора-тадбирлар амалга оширилди.

Хусусан, қишлоқ жойларда аҳолини иш билан таъминлашнинг муҳим механизмларидан бири сифатида оилавий тадбиркорлик ва деҳқон хўжаликларини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилди. Бунда шахсий ёрдамчи хўжаликлар доирасида чорвачиликни, жумладан, қорамол, қўй ва эчки парваришини кенгайтириш орқали аҳолининг иқтисодий фаоллигини ошириш ва даромад манбаларини диверсификация қилишга эришилди. Натижада жаҳон молиявий ва иқтисодий кризиси шароитида мазкур йўналишда муайян ижобий иқтисодий ва ижтимоий самараларга эришилганлиги кузатилди.

Ушбу стратегик мақсадларни амалга ошириш доирасида соҳани институционал жиҳатдан қўллаб-қувватлашга қаратилган қатор норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинди. Жумладан, Ўзбекистон Республикасининг “Хусусий мулк тўғрисида”, “Корхоналар тўғрисида”, “Инвестиция фаолияти тўғрисида”ги қонунлари ҳамда “Ўзбекистон иқтисодиётини ислоҳ қилиш концепцияси” тўғрисидаги президент фармони бозор муносабатларининг ҳуқуқий асосларини шакллантиришда муҳим аҳамият касб этди.

Мазкур ҳуқуқий база мамлакатда бозор иқтисодиётига ўтишнинг миллий модели – “ўзбек модели”нинг шаклланишини таъминлади. Ушбу модель давлатнинг фаол иштироки, миллий манфаатлар устуворлиги, ислоҳотларнинг босқичма-босқич амалга оширилиши ҳамда ижтимоий барқарорликни таъминлаш каби фундаментал тамойилларга асосланди. Шу жиҳатдан, мазкур ёндашув тезкор либераллаштиришга асосланган “шок терапияси” моделидан фарқли равишда, иқтисодий трансформация жараёнини изчил ва мувозанатли равишда амалга оширишга қаратилганлиги билан характерланади. Бу эса иқтисодий барқарорликни сақлаш, ижтимоий ҳимояни таъминлаш ва бозор институтларини босқичма-босқич шакллантириш имконини берди.

XX аср 90-йилларининг бошларида иттифоқдош республикалар ўртасидаги хўжалик алоқаларининг издан чиқиши ҳамда СССРнинг парчаланиши учун зарур сиёсий ва иқтисодий шарт-шароитларнинг етилиши натижасида давлат ва жамият ҳаётида чуқур тизимли инқироз ҳолати юзага келди. Айниқса, Ўзбекистон иқтисодиётининг узоқ йиллар давомида бир ёқлама, хомашёга ихтисослашган тарзда шакллантирилганлиги, унинг диверсификация қилинмаганлиги ва аҳоли эҳтиёжларига мос комплекс ривожланиш йўлига ўтказилмаганлиги ижтимоий ишлаб чиқариш тизимида жиддий таркибий номутаносибликларни келтириб чиқарди. Мазкур номутаносибликлар иқтисодиёт тармоқлари ўртасидаги дисбаланс, қайта ишлаш саноатининг етарли даражада ривожланмаганлиги ва ички бозорнинг импортга қарамлигининг юқорилигида намоён бўлди.

Мустақилликнинг дастлабки босқичида амалга оширилган иқтисодий ислоҳотлар, аввало, ушбу таркибий номутаносибликларни бартараф этиш, иқтисодиётни диверсификация қилиш ва

қайта ишлаш саноатини ривожлантиришга қаратилди. Бу жараён ўз навбатида бозор иқтисодиётига ўтишнинг объектив зарурати сифатида намоён бўлди.

Республикада мавжуд иқтисодий ва ижтимоий-сиёсий шароит бозор иқтисодиётига ўтишни объектив зарурат сифатида белгилаган бўлса-да, маъмурий-буйруқбозлик тизими элементларининг сақланиб қолиши мазкур жараённинг тўлиқ ва самарали амалга оширилишига тўсқинлик қилди. Хусусан, рақобат муҳитининг чекланганлиги, тадбиркорлик фаолиятини ташкил этишдаги ортиқча транзакцион харажатлар ҳамда давлатнинг иқтисодиётга юқори даражада аралашуви эркин бозор механизмларининг шаклланишини секинлаштирди. Аммо бундай давлатнинг монополистик сиёсати янги Ўзбекистон даврида ўз изига туша бошлади.

Шу билан бирга, иқтисодиётда монополистик тузилмаларнинг устуворлиги ва тадбиркорлик субъектлари ҳуқуқларининг етарли даражада таъминланмаганлиги ишлаб чиқариш самарадорлигининг пасайишига ва иқтисодий фаолликнинг чекланишига олиб келди. Бу эса иқтисодиётда инқирозли тенденцияларнинг чуқурлашувига сабаб бўлди. Бироқ, мазкур мураккаб шароитда бозор инфратузилмасини шакллантиришга қаратилган дастлабки институционал қадамлар амалга оширилди. Хусусан, товар ва хомашё бозорларини ривожлантириш мақсадида биржалар, бизнес-инкубаторлар, аудиторлик ва консалтинг компаниялари, савдо уйлари, аукционлар ҳамда реклама хизматлари каби бозор институтлари ташкил этилди. Мазкур жараёнда давлат буюртмалари тизимининг бекор қилиниши муҳим аҳамият касб этиб, ресурсларни марказлашган тақсимлаш амалиётидан воз кечишга замин яратди.

Бунинг ўрнига товарлар бозорини шакллантирувчи биржа механизмлари жорий этилди. Жумладан, 1991-йилдан бошлаб республикада универсал агросаноат биржалари, улгуржи савдо тизимлари ва товар-хомашё биржалари фаолият кўрсата бошлади. Шунингдек, 1992-йилда қабул қилинган “Биржалар ва биржа фаолияти тўғрисида”ги қарор мазкур соҳанинг ҳуқуқий-институционал асосларини мустаҳкамлади. Бозор муносабатларининг ривожланиши молия бозори, хусусан суғурта тизимининг шаклланишини ҳам тақозо этди. Натижада давлат иштирокида “Ўзбекинвест”, “Ўзагросуғурта”, “Кафолат” каби йирик суғурта компаниялари ташкил этилди, шунингдек хусусий ва қўшма суғурта компаниялари фаолияти йўлга қўйилди. Бу эса иқтисодий рискларни бошқариш ва тадбиркорлик фаолиятини ҳимоя қилиш механизмларини ривожлантиришга хизмат қилди.

Умуман олганда, мустақиллик арафаси ва дастлабки йилларда иқтисодий трансформация жараёнлари мамлакатда сиёсий ва ижтимоий ислоҳотлар билан узвий боғлиқ ҳолда кечган. Иқтисодиётни барқарорлаштириш ва хусусийлаштириш жараёнлари амалга оширилиб, давлат мулкини трансформация қилиш ва ишлаб чиқаришни диверсификация қилишга қаратилган чора-тадбирлар татбиқ этилди. Бозор механизмларини жорий этиш ва институционал базани шакллантириш орқали миллий иқтисодиётнинг янги модели – “ўзбек модели” қарор топди. Бу жараёнда молия-кредит тизими, бозор инфратузилмаси ва асосий иқтисодий институтлар ривожлантирилди. Шу билан бирга, инфляция даражасини пасайтириш ва макроиқтисодий барқарорликни таъминлаш бўйича самарали сиёсат юритилди. Хусусий тадбиркорлик ва кичик бизнесни ривожлантиришга қаратилган институционал ислоҳотлар амалга оширилиб, солиқ имтиёзлари, лицензиялаш жараёнларини соддалаштириш ва тадбиркорлик муҳитини яхшилаш чоралари кўрилди.

Хулоса қилиб айтганда, мустақилликнинг дастлабки йилларида ташқи иқтисодий алоқаларни кенгайтириш, хорижий инвестицияларни жалб этиш ва халқаро иқтисодий ҳамкорликни ривожлантиришга қаратилган ислоҳотлар Ўзбекистонда бозор иқтисодиёти институтларининг шаклланишига хизмат қилди. Мазкур жараёнлар иқтисодий барқарорликни таъминлаш билан бирга, мамлакатда

инвестиция муҳитини мустаҳкамлаб, кейинги босқичларда барқарор иқтисодий ўсиш учун зарур асос ва пойдеворни яратди.

АДАБИЁТ ВА МАНБАЛАР РЎЙХАТИ:

1. Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. – Тошкент: Ўзбекистон. 2009. – Б. 26.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон – бозор муносабатлари сари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993. – Б. 10-13.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон – бозор муносабатларига ўтишнинг ўз йўли. – Тошкент: 1993.
4. Муртазаев А., Исмоилов Ш. Иқтисодий ислоҳотлар ва бозор муносабатлари. – Тошкент: 1996. – Б. 37-45.
5. Муҳаммаджонов А.А. Ўзбекистон иқтисодиёти: Тарих ва муаммолар. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001. – Б. 87-90.
6. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси. – Тошкент: 1990. – № 3. – Б. 31-33. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси. – Тошкент: 1994. – № 1, 5.
7. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1998, – № 9, ҳамда «Хусусий тадбиркорликда ташаббус кўрсатиш ва уни рағбатлантириш тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармони // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – Тошкент: 1995. – № 4.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Иқтисодий ислоҳотларни янада чуқурлаштириш, хусусий мулк манфаатларини ҳимоя қилиш ва тадбиркорликни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги Фармони // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, – Тошкент: 1995 й., – № 7-8.
9. Ўзбекистон Республикасининг “Ер тўғрисида”ги Қонуни, 1992-йил 28-февраль // “Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгаш Ахборотномаси”, 1992, – № 5. – Б. 113-119.
10. Ўзбекистон Республикасининг “Хусусий мулк тўғрисида”ги Қонун 31-октябрь 1991-йил, “Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгаш Ахборотномаси”, 1991, – № 11.
11. Ўзбекистон Республикасининг Қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент: 1991. – № 1, 2, 4.
12. Ўзбекистоннинг энг янги тарихи. (Фан доктори илмий даражасига талабгорлар учун ўқув қўлланма). – Тошкент: 2013. – Б. 101.
13. Эрматов Р. Фермерлик ҳаракати ва унинг истиқболлари. – Тошкент: Шарқ, 1998. – Б. 21-34.
14. Юсупов Ю. Удалось ли Узбекистану за 30 лет независимости создать рыночную экономику // Central Asian Bureau for analytical reporting. https://cabar.asia/ru/udalos-li-uzbekistanu-za-30-let-nezavisimosti-sozdat-rynochnuyu-ekonomiku.
15. “Инвестиция фаолияти тўғрисида”ги Қонун 30-апрель 1993 йил “Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгаш Ахборотномаси”, 1993, – № 9.
16. “Корхоналар тўғрисида”ги Қонун 21-декабрь 1991-йил, “Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгаш Ахборотномаси”, 1992, – № 1.
17. “Ўзбекистон Республикаси хусусийлаштириш дастури”, – Тошкент: 1993, – Б. 6-18.
18. “Ўзбекистон Республикасида давлат мулкини хусусийлаштириш тўғрисида”ги Қонун, 1991-йил 19-август, “Халқ сўзи”, – № 163.

INTERFAOL JARAYONIDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH USULLARI

XOLMUMINOVA OYGUL JUMAYEVNA

Termiz davlat pedagogika instituti dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Ushbu maqolada interfaol ta’lim jarayonida innovatsion metodlardan foydalanishning ahamiyati, mazmuni va samaradorligi yoritilgan. Interfaol usullar orqali o‘quvchilarning faolligi, mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvi rivojlanishi tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida ta’lim sifatini oshirish, o‘quv jarayonini samarali tashkil etish usullari ko‘rib chiqilgan. Maqolada interfaol metodlarni qo‘llash orqali o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishning amaliy jihatlari bayon etilgan.

В данной статье рассматриваются важность, содержание и эффективность использования инновационных методов в интерактивном процессе обучения. Анализируется развитие активности, самостоятельного мышления и творческого подхода учащихся посредством интерактивных методов. Также рассматриваются методы повышения качества образования и эффективной организации учебного процесса с использованием современных педагогических технологий. В статье описываются практические аспекты формирования знаний, навыков и компетенций у учащихся посредством применения интерактивных методов.

This article highlights the importance, content, and effectiveness of using innovative methods in the interactive learning process. It analyzes how interactive methods contribute to the development of students’ activity, independent thinking, and creative approach. Additionally, the study examines ways to improve the quality of education and effectively organize the learning process through modern pedagogical technologies. The article also describes practical aspects of forming students’ knowledge, skills, and competencies by applying interactive methods.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

Interfaol ta’lim, innovatsion metodlar, pedagogik texnologiyalar, ta’lim jarayoni, o‘quvchilar faolligi, mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, zamonaviy ta’lim, ta’lim samaradorligi, o‘qitish usullari.

Интерактивное обучение, инновационные методы, педагогические технологии, образовательный процесс, студенческая активность, самостоятельное мышление, творческий подход, современное образование, эффективность обучения, методы преподавания.

interactive learning, innovative methods, pedagogical technologies, educational process, student activity, independent thinking, creative approach, modern education, learning effectiveness, teaching methods

Zamonaviy ta’lim texnologiyalarini tashkil etishda qo‘yiladigan muxim talablardan biri ortiqcha ruxiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdan iboratdir, qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil kilish, shuningdek, o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma hamda malakalar darajasini baholash, o‘quvchidan amaliy mashg‘ulotga qizikishni uyg‘otish, o‘qituvchidan yuksak pedagogik maxorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Pedagogik texnologiyalarning qo‘llanilishidan maqsad shundaki, bunda o‘quvchilarning o‘tilgan mavzularni oson o‘zlashtirishi va malakalarini oshirishidan iborat.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda bu borada katta tajriba to‘plangan bo‘lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmokda. Ushbu maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalarning bir qancha metodlarini muxandislik grafikasi darslariga moslashtirib tatbiq qilish muammolari o‘rganilgan.

Pedagogik yo‘nalishda darslarni quyidagi interfaol metodlari orkali tashkil etish mumkin:

- “Fikrlash kengligi shajarasi” metodi.
- “Charxpalak” metodi.
- “Men JIF (jamoada ijodiy faoliyat) tashkilotchisi” metodi.
- “Qarorlar shajarasi” metodi.
- “6x6x6” metodi.
- “Fazoviy shakl” metodi.
- “B-B-B” metodi.

Biz quyida yuqorida aytilgan metodlarning ayrimlarini, jumladan, “Fikrlash kengligi shajarasi” metodini tatbiq kilinishini yoritamiz.

“Fikrlash kengligi shajarasi” metodi

Mazkur metod muayyan mavzu yuzasidan bor ma’lumotni jamlash sanalib, keng va har tamonlama fikr yuritish, shuningdek, o‘z tasavvurlari va fikrlash kobiliyatidan ijobiy foydalanish borasida ma’lum ko‘nikma hamda malakalarni hosil kilishga rag‘batlantiradi.

Mazkur metodni guruh yoki yakka tartibda o‘tkazish mumkin. Bu metod o‘quvchining olgan bilimini - mustahkamlashda hamda bilim darajasini kengaytirish imkoniyatini yaratadi. Ushbu “Fikrlash kengligi shajarasi” metodida berilgan mavzularning turlarini, farklarini, vazifasini hamda foydalilarini bilishda va fikrlay olishda eng yaxshi uslub hisoblanadi.

Mashg‘ulotlar jarayonida “Fikrlash kengligi shajarasi” metodidan foydalanishda bir necha qoidalarga amal kilishni talab etiladi. Ushbu qoidalar kuyidagilar:

O‘qituvchi qo‘llayotgan metodi shartlarini hamda ajratilgan vaqt (20 dakika) ichida ishlab tugatish kerakligini o‘quvchilarga tushuntirib o‘tadi.

O‘qituvchi beriladigan mavzularni konvertlarga joylashtirib yoki mavzu yozilgan qog‘ozlarni stol ustiga teskari qilib, ya’ni qog‘ozdagi mavzu yozilgan tomonini tagiga qo‘yib, qog‘ozlarni yoyib qo‘yadi.

O‘qituvchi o‘quvchilarni ikkitadan guruhlarga ajratib chiqadi. Har bir guruhlarga bittadan oq qog‘oz berib chikadi, so‘ngra har bir guruxdan bitadan o‘quvchi chiqib qo‘yilgan variantlardan bittadan oladi. So‘ngra har bir guruh tushgan mavzuni berilgan oq qog‘ozning o‘rtasiga yozadi va shartga binoan davom ettiradi. Metod shartiga “Chizik turlari” misolida berilgan savolning turlari yoziladi.

Ajratilgan turlarning qalinligi yoziladi. Turlarning vazifasi yoziladi. Bu ajratilgan turlarining xamda mavzuning darslarda ishlatiladigan turli atamalari yoziladi. Ushbu usulda o‘qituvchi mavzuga qarab shartlarni tuzadi.

Vaqt tugagach, o‘qituvchi jadvallarning to‘g‘riligini va qancha ma’lumot to‘planganligiga qarab o‘quvchilarning bilim va fikrlash qobiliyati sinaladi. Mazkur metodni qo‘llashdan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarni muammo xususida keng va chuqur fikr yuritishga rag‘batlantirish ekanligini e’tibordan chetda qoldirmagan holda ularning faoliyatlarini baholab borishning har qanday usulidan voz kechish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur metodni ta’lim tizimida qo‘llashning yutuqli tomoni shundaki, o‘kuvchilarda fanga nisbatan qizikishini oshiradi, o‘quvchilar bir-birlari bilan fikr almashishni va to‘g‘ri qarorga kelish qobiliyatlarini shakllantirish bilan bir qatorda o‘quvchilarning ongi oshadi, o‘rtaga tashlangan mavzu yuzasidan o‘quvchilar chukur yondashadi hamda bildirayotgan fikrlarga ko‘prok misol keltirishga va shu fikr borasida ko‘proq ma’lumot jamlashga erishadi. Ba’zi bir bilimi sayoz o‘quvchilar shu metod orqali ilg‘or o‘quvchilardan o‘zlariga tegishli ma’lumotlarni olishga muvaffaq bo‘ladilar.

Bu metodning yana bir afzallik tomoni shundaki, o‘qituvchi o‘tayotgan dars soatidagi mavzu yuzasidan shu soatning o‘zida ma’lum vaqt ichida mazkur metodni qo‘llash yoki faol bo‘limlari yakunlangandan so‘ng o‘sha o‘tilgan mavzularni shu metodda qo‘llash mumkin bo‘ladi.

O‘qituvchi talabalarga dars berar ekan, u an’anaviy va yangi texnologiyalar uyg‘unligidan foydalanishi mumkin. Ma’lumki, pedagogik texnologiya pedagogning talabalarga ta’sir qilishni tashkil etish bo‘yicha kasbiy ahamiyatga molik malakalar tizimini aniqlab beradi, pedagogik faoliyatning texnologikligini anglash usullarini taklif etadi. Turli-tuman musobaqa tarzida uyushtiriladigan bahs- munozaralar,

muammoli vaziyatlar va “Aqliy xujum”, “Bumerang”, “Klaster”, “Sirli sandiq” kabi interaktiv usullarni qo‘llash talabalarni nafakat chet tillarga bo‘lgan kiziqishlarini orttirish, balki chet tilni amaliy tarzda egallash imkoniyatini bermokda.

Aytaylik, pedagogika mutaxassisligi bo‘yicha “Education” mavzusida ingliz tili darsi olib borilyapti. Albatga tanlangan materialimiz dars mavzusiga mos bo‘lgani kabi, ko‘llamokchi bo‘lgan usulda ham aynan shu mavzuga tegishli so‘z va iboralar aks etsa maqsadga muvofik bo‘ladi. Bunda biz “Sirli sandiq”usulini qo‘llaymiz. Chiroyli sandiqcha yasab, uning ichiga hoxlagan o‘kuv qurrlini solib, talabalarga savollar bilan murojaat qilishimiz mumkin. Ular sandiqcha ichidagilarni ko‘rmasliklari lozim. O‘qituvchi yoki hohlovchi talaba sandiqchani ko‘tarib, talabalarga sandiqcha ichidagi narsalarni nomini aytmasdan, uni ingliz tilida tasvirlab berishi, qolganlar ularning nomlarini aytishlari lozim:

1. It is made of wood, and the part that writes is called lead (pencil)

2. If your drawing doesn’t turn out well, you can rub it out with it (eraser)

3. It is a book that explains what words mean (dictionary)

4. A book that contains information about a particular subject (textbook)

5. With it you can listen to music as loud as you like without bothering others

(headphone)

6. It is set of large printed sheets of folded paper containing news, articles (newspaper)

So‘zlarni tez va to‘gri topgan talabaga dars oxirida qo‘shimcha rag‘batlantirish balini qo‘yishimiz mumkin.

Ushbu interaktiv usulni talabalarni 2 ta komandaga bo‘lib teskari holda qo‘llash mumkin. Ya’ni talaba jismni ushlab, uni ingliz tilida ta’riflab beradi.

Katta hajmdagi ta’lim muassasalari: bog‘cha, maktab, litsey, institutlarning rasmlarini “Sirli sandiqqa” solib, situatsiyalar tuziladi. Ular asosida talabalar o‘zaro savol-javob mashklari o‘tkazishlari mumkin. Shuningdek, o‘rganilgan so‘z va iboralarni “Bir so‘z bilan fikrni bayon qiling” ko‘rinishidagi mashq bilan mustahkamlash mumkin:

1. The first year of formal education for children aged 5 or 6

2. A place where children go to be taught

3. A place where students get secondary, special,

professional education

4. An educational institution where students study for degrees

(Bachelor, Master)

Keyingi usulni kuyidagicha tashkil qilishimiz mumkin. Guruhni 4 ta komandaga bo‘lib (yoki 3 ta va h.k.), faqat mavzu yozilgan 4 ta vatman qog‘ozi beriladi. Har bir komanda ma’lum bir vaktning ichida mavzuga oid so‘zlarni topib yozishi kerak. Yozilgan so‘zlarning to‘g‘riligi va sonining ko‘pligiga qarab, ball qo‘yib, o‘rin beriladi. Bu usul ham talabalar o‘rtasida juda qiziqarli, jonli tarzda o‘tadi.

Yuqoridagi va shunga o‘xshash usullarni ko‘llar ekanmiz, kuyidagi xulosaga kelamiz. Xorijiy tillarni o‘qitish ko‘p qirrali faoliyat bo‘lib, har bir O‘qituvchi o‘z faoliyatida yangidan-yangi uslublarni yaratishi mumkin. Yangi pedagogik texnologiyalarni darsda tatbiq etish, o‘z navbatida darsga ijodiy yondashishni, talabalarni faollashtirishni, ularning bilish faoliyatini anik maqsadlarga yo‘naltirishni ta’minlashda muxim axamiyat kasb etadi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. Ishmuxamedov R., Abduqodirov A. — “Ta’limda innovatsion texnologiyalar”. Toshkent, 2019.

2. Saidov S. — “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat”. Toshkent, 2018

3. Tolipov O‘., Usmonov M. — “Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot”. Toshkent, 2017.

4. Ziyamuxamedov B. — “Innovatsion ta’lim texnologiyalari”. Toshkent, 2020.

5. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. — “Zamonaviy pedagogik texnologiyalar”. Toshkent, 2016.

6. Кларин М.В. — “Инновационные модели обучения”. Москва, 2015.

7. Полат Е.С. — “Современные педагогические и информационные технологии”. Москва, 2017.

THE ESSENCE, STRUCTURE, AND SIGNIFICANCE OF COGNITIVE LEARNING SKILLS IN THE PERSONALITY DEVELOPMENT OF SENIOR SCHOOL STUDENTS

KHOLMUMINOVA OYGUL JUMAYEVNA

Termez State Pedagogical Institute Department of Pedagogy, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical, Sciences Associate Professor.

KUDRATOVA RUZIGUL NURIDDIN QIZI

1st year master's student in the specialty Theory and History of Pedagogy

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Zamonaviy ta'lim tizimlarida o‘quvchilarning kognitiv o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirish nafaqat o‘quv muvaffaqiyatini, balki shaxsni har tomonlama shakllantirishni ta'minlashga qaratilgan asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. Kognitiv o‘rganish ko‘nikmalari o‘quvchilarga bilimlarni mustaqil ravishda idrok etish, qayta ishlash, tahlil qilish va qo‘llash imkonini beruvchi murakkab intellektual qobiliyatlar to‘plamini ifodalaydi. Ushbu maqolada kognitiv o‘rganish ko‘nikmalarining mohiyati va tuzilishi o‘rganiladi va ularning yuqori sinf o‘quvchilarining shaxsiyatini rivojlantirishdagi ahamiyati o‘rganiladi. Kognitiv ko‘nikmalar, tanqidiy fikrlash, o‘zini o‘zi boshqarish, motivatsiya va ijtimoiy yetuklik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikka alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqot pedagogik va psixologik adabiyotlarning nazariy tahliliga asoslangan bo‘lib, o‘quvchilarning mustaqilligi, mas'uliyati, ijodkorligi va umrbod o‘rganishga tayyorligini shakllantirishda kognitiv o‘rganish ko‘nikmalarining rolini ta'kidlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kognitiv o‘rganish ko‘nikmalarini tizimli rivojlantirish o‘quvchilarning intellektual o‘sishiga va zamonaviy axborot jamiyati muammolariga moslasha oladigan har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishga sezilarli hissa qo‘shadi.

В современных системах образования развитие когнитивных навыков обучения стало одним из ключевых приоритетов, направленных на обеспечение не только академических успехов, но и всестороннего формирования личности. Когнитивные навыки обучения представляют собой сложный набор интеллектуальных способностей, позволяющих учащимся самостоятельно воспринимать, обрабатывать, анализировать и применять знания. В данной статье исследуется сущность и структура когнитивных навыков обучения и рассматривается их значение в развитии личности старшеклассников. Особое внимание уделяется взаимосвязи между когнитивными навыками, критическим мышлением, саморегуляцией, мотивацией и социальной зрелостью. Исследование основано на теоретическом анализе педагогической и психологической литературы и подчеркивает роль когнитивных навыков обучения в формировании самостоятельности, ответственности, креативности и готовности учащихся к обучению на протяжении всей жизни. Результаты показывают, что систематическое развитие когнитивных навыков обучения вносит значительный вклад в интеллектуальный рост учащихся и формирование всесторонне развитой личности, способной адаптироваться к вызовам современного информационного общества.

In modern education systems, the development of students’ cognitive learning skills has become one of the key priorities aimed at ensuring not only academic success but also the comprehensive formation of personality. Cognitive learning skills represent a complex set of intellectual abilities that enable learners to perceive, process, analyze, and apply knowledge independently. This article explores the essence and structure of cognitive learning skills and examines their significance in the personality development of senior school students. Special attention is paid to the interrelationship between cognitive skills, critical thinking, self-regulation, motivation, and social maturity. The study is based on theoretical analysis of pedagogical and psychological literature and highlights the role of cognitive learning skills in shaping learners’ independence, responsibility, creativity, and readiness for lifelong learning. The findings suggest that systematic development of cognitive learning skills contributes significantly to students’ intellectual growth and the formation

of a well-rounded personality capable of adapting to the challenges of the modern information society.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords
Kognitiv o‘rganish qobiliyatlari, o‘rganish qobiliyati, yuqori sinf o‘quvchilari, shaxsiyatni rivojlantirish, tanqidiy fikrlash, o‘zini o‘zi boshqarish, ta'lim jarayoni.
когнитивные навыки обучения, учебные компетенции, старшеклассники, развитие личности, критическое мышление, саморегуляция, образовательный процесс.
cognitive learning skills, learning competence, senior school students, personality development, critical thinking, self-regulation, educational process.

The rapid development of science, technology, and information flows in the twenty-first century has significantly transformed the goals and content of education. Modern schools are no longer focused solely on transmitting ready-made knowledge; instead, they aim to develop students’ abilities to learn independently, think critically, and apply knowledge creatively in various life situations. In this context, cognitive learning skills have gained particular importance as a fundamental component of educational competence.

Senior school students occupy a special place in the education system, as this stage coincides with intensive intellectual, emotional, and social development. During this period, learners form stable cognitive interests, professional intentions, and value orientations that largely determine their future life paths. Therefore, the development of cognitive learning skills at this stage plays a crucial role not only in academic achievement but also in the holistic formation of personality.

This article aims to analyze the essence and structure of cognitive learning skills and to reveal their significance in the personality development of senior school students.

The Essence of Cognitive Learning Skills

Cognitive learning skills can be defined as a system of mental actions and intellectual abilities that ensure effective acquisition, processing, and application of knowledge. These skills allow students to actively engage in the learning process, transform information into personal experience, and use it for problem-solving.

From a pedagogical perspective, cognitive learning skills include the ability to:

understand and interpret educational information;

analyze, compare, and generalize facts and concepts;

identify cause-and-effect relationships;

formulate hypotheses and conclusions;

apply knowledge in new and non-standard situations.

Psychologically, cognitive learning skills are closely linked to mental processes such as perception, attention, memory, thinking, and imagination. Their development enhances students’ intellectual autonomy and contributes to the formation of conscious and purposeful learning activity.

Unlike simple memorization, cognitive learning skills emphasize meaningful learning, reflection, and internal motivation. They transform students from passive recipients of information into active subjects of the educational process.

The Structure of Cognitive Learning Skills

Cognitive learning skills have a complex and multi-component structure. Researchers generally distinguish several interrelated components:

1. Motivational Component

The motivational component reflects students’ cognitive interests, learning needs, and internal motivation. It determines the willingness to engage in learning activities and overcome difficulties. For senior school students, motivation is often connected with future professional goals and self-realization.

2. Cognitive-Operational Component

This component includes specific intellectual operations and strategies such as analysis, synthesis, comparison, classification, abstraction, and generalization. These operations form the core of cognitive activity and enable students to work with educational content effectively.

3. Informational Component

The informational component involves the ability to search, select, evaluate, and organize information from various sources. In the modern digital environment, this component is particularly important, as students must navigate large volumes of information critically and responsibly.

4. Reflective Component

Reflection allows students to evaluate their learning processes and outcomes, identify strengths and weaknesses, and adjust strategies accordingly. Reflective skills contribute to self-regulation and continuous improvement of learning activities.

5. Volitional Component

The volitional component includes perseverance, self-control, and responsibility. These qualities help students maintain focus, complete tasks, and achieve learning goals despite challenges.

Together, these components form an integrated system that ensures the effectiveness and sustainability of cognitive learning skills.

The Role of Cognitive Learning Skills in the Personality Development of Senior School Students

The development of cognitive learning skills has a profound impact on the personality formation of senior school students. This influence manifests in several key aspects:

Intellectual Development

Cognitive learning skills enhance higher-order thinking abilities such as critical and creative thinking. Students learn to question information, justify opinions, and generate original ideas. This intellectual maturity is essential for academic success and informed decision-making.

Formation of Independence and Responsibility

As students acquire cognitive learning skills, they become more independent in planning and managing their learning activities. This independence fosters a sense of responsibility for learning outcomes and personal development.

Development of Self-Regulation and Reflection

Self-regulation enables students to set goals, monitor progress, and evaluate results. Reflective skills promote self-awareness and realistic self-assessment, which are important characteristics of a mature personality.

Social and Communicative Development

Cognitive learning skills support effective communication, collaboration, and argumentation. Through group work and discussions, students develop respect for others’ opinions and the ability to defend their viewpoints constructively.

Preparation for Lifelong Learning

In a rapidly changing world, the ability to learn continuously is a vital personal quality. Cognitive learning skills form the foundation for lifelong learning, adaptability, and professional mobility.

Pedagogical Conditions for Developing Cognitive Learning Skills

Effective development of cognitive learning skills requires purposeful pedagogical conditions, including:

learner-centered teaching approaches;

problem-based and inquiry-based learning;

integration of information and communication technologies;

creation of a supportive and motivating learning environment;

encouragement of reflection and self-assessment.

Teachers play a key role in guiding students toward active and conscious learning by designing tasks that stimulate thinking and creativity.

Cognitive learning skills represent a crucial element of modern education and a key factor in the personality development of senior school students. Their essence lies in enabling meaningful, independent, and reflective learning, while their structure encompasses motivational, cognitive-operational, informational, reflective, and volitional components. The development of these skills contributes to intellectual growth, independence, responsibility, social competence, and readiness for lifelong learning. Therefore, systematic and purposeful formation of cognitive learning skills should be regarded as a priority task of contemporary education aimed at preparing students for successful participation in modern society.

REFERENCES:

1. Bloom, B. S. (1956). Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. New York: Longman.
2. Bruner, J. S. (1966). Toward a Theory of Instruction. Cambridge, MA: Harvard University Press.
3. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
4. Piaget, J. (1972). The Psychology of the Child. New York: Basic Books.
5. Zimmerman, B. J. (2002). Becoming a self-regulated learner: An overview. Theory Into Practice, 41(2), 64–70.
6. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (2001). A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing. New York: Longman.
7. OECD. (2019). Future of Education and Skills 2030. Paris: OECD Publishing.
8. Schunk, D. H. (2012). Learning Theories: An Educational Perspective. Boston: Pearson.

XIX ASRINING 2-YARMI VA XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGI SHAHARLARIGA TARIXIGA OID TARIXIY MANBALARDA YORITILISHI XUSUSIDA

SHARAPOV SAIDUSMON SAIDAHMADOVICH
Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasi o‘qituvchisi

ABDIYEVA MARG‘IYONA CHORI QIZI
Termiz davlat universiteti Tarix fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Mazkur maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Buxoro amirligining janubiy-sharqiy hududlari shaharlari tarixining tarixiy manbalarda yoritilishi tahlil qilinadi. Unda Rossiya imperiyasi bosqini ta’sirida hududlarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati, boshqaruv tizimi, savdo aloqalari hamda aholining etnik tarkibi yoritilgan. Shuningdek, arxiv hujjatlari, rus va mahalliy manbalar asosida shaharlardagi soliq siyosati, ko‘chirish jarayonlari va savdo munosabatlarining o‘ziga xos xususiyatlari ilmiy tahlil qilingan.

В данной статье анализируется отражение истории городов юго-восточных регионов Бухарского эмирата во второй половине XIX – начале XX века в исторических источниках. Рассматривается влияние колониальной политики Российской империи на политическое, экономическое и социальное значение данных территорий, систему управления, торговые связи и этнический состав населения. На основе архивных документов, русских и местных источников исследуются особенности налоговой политики, переселенческих процессов и торговых отношений в городах.

This article analyzes the representation of the history of cities in the southeastern regions of the Bukhara Emirate in historical sources of the late 19th and early 20th centuries. It examines the impact of Russian imperial expansion on the political, economic, and social significance of these regions, as well as their administrative system, trade relations, and ethnic composition. Based on archival documents and both Russian and local sources, the study highlights the features of taxation policy, migration processes, and trade relations in urban areas.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

Buxoro amirligi, janubiy-sharqiy hududlar, shaharlar tarixi, Rossiya imperiyasi, mustamlakachilik siyosati, savdo aloqalari, etnik tarkib, soliq siyosati, arxiv manbalari, Surxon vohasi.

Бухарский эмират, юго-восточные регионы, история городов, Российская империя, колониальная политика, торговые отношения, этнический состав, налоговая политика, архивные источники, Сурхандарьинская долина.
Bukhara Emirate, southeastern regions, urban history, Russian Empire, colonial policy, trade relations, ethnic composition, taxation policy, archival sources, Surkhandarya region.

Rossiya imperiyasi o‘zining mustamlakachilik siyosatida birinchi masala iqtisodiy manfaatlar yotgan bo‘lsada, ruslar mahalliy aholini o‘z ta’siriga tushirishda va aholidan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanish uchun bir qancha muammolarga duch keladi bu masalalarni hal qilish uchun ko‘chiruvchilik siyosatidan ham foydalanadi. Natijada bir qancha yangi rus aholisi turar joylari paydo bo‘ldi. Ulardan ham siyosiy ham iqtisodiy va madaniy maqsadlar ko‘zlangan edi. Shaharlarga aholining ko‘chib kelishi va joylashuviga oid ma’lumotlarni ilmiy o‘rganish jarayonida quyidagi ma’lumotlar Turkiston general-gubernatorligi qoshidagi diplomatik amaldor hamda Rossiyaning Buxorodagi siyosiy agentligi fondlarida Surxon vohasi tarixiga tegishli ijtimoiy-siyosiy, iktisodiy va savdo aloqalariga doir ko‘plab ma’lumotlar mavjud bo‘lib, ularda ruslar bosqinini aks ettiruvchi ma’lumotlar uchraydi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivida saqlanayotgan Buxoro amirligi qo‘shbegisining arxivi fondi xujjatlarida vohada XIX-XX asr boshlarida kechgan tarixiy jarayonlar, ya’ni ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va savdo sohalarida ro‘y bergan ijobiy va salbiy o‘zgarishlar o‘z aksini topgan. Yuqorida nomlari ko‘rsatilgan arxiv fondlaridagi hujjatlarda voha tarixiga oid muhim ma’lumotlar mavjud bo‘lib, ularning aksariyatidagi ma’lumotlarda ham ruslar bosqinini yorituvchi manbalar uchraydi.

Muhammad Ali Baljuvoniyning “Tarixi nofeiy” nomli asari Buxoro amirligining XIX-XX asr boshlaridagi siyosiy tarixini yoritib beruvchi manbalardan xisoblanadi. Asarda Denov, Boysun, Sarijo‘y, Sariosiyo va Sherobod shaharlaridagi siyosiy vaziyatlar hakida muhim ma’lumotlarni ko‘rishimiz mumkin. Rus tilida bitilgan yozma manbalar majmuasiga bevosita o‘sha davrda yashab, xarbiy xarakatlar va mustamlakachilik siyosatini amalga oshirishda ishtirok etgan harbiy amaldorlar, rus olimlari va tarixchilari tomonidan yaratilgan tarixiy asarlar, xotiralar, rasmiy xabarlar va xisobotlarni kiritish mumkin. Ular bevosita o‘sha davr voqealari guvohlari va tarixiy jarayonlar ishtirokchilari tomonidan yozib koldirilganligi bilan muhim xisoblanadi. Rossiya mustamlakachiligi davrida chop etilgan adabiyotlarda asosan XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligidagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot, Buxoro-Rossiya munosabatlari, amirlikning imperiya vassaliga aylantirilishi bilan bog‘liq siyosiy masalalar bayon etilgan.

Rossiya imperiyasi Buxoro amirligini o‘ziga vassal qilib olganidan so‘ng bu hududlarga ko‘plab yevropalik tadqiqotchilar kelib, turli jabhalarda tadqiqotlar olib bordilar. Rus mualliflari asarlarining deyarli barchasi Rossiya imperiyasining o‘sha davrdagi siyosiy, mustamlakachilik manfaatlariga mos ruxda yozilgan bo‘lib, ularda imperiyaning bosqinchilik siyosati “sivilizatsiyalashtiruvchilar missiyasi” sifatida oqlab ko‘rsatilgan. Mazkur asarlarda voqelik chuqur tahlil qilinmasdan, masalaga faqat bir tomonlama, ya’ni Rossiya imperiyasi manfaatlari nuqtai nazaridan yondashilgan. Mahalliy xalqlar manfaatlarini hisobga olmaslik, Rossiya mustamlakachiligi va zo‘ravonlik siyosatini xaspo‘shlab ko‘rsatish mustamlaka davri mualliflariga xos xususiyat hisoblanadi.

Ushbu davr manbalarida Qashqadaryo vohasida 1868 yilda Amudaryo bo‘yi tekisliklari qirg‘oqlarida qo‘ng‘irotlar urug‘i istiqomat qilib, ular amirning o‘g‘li katta To‘ra tarafida bo‘lib, keyinchalik bu hududlarga ya’ni Amudaryo Ko‘hitang tog‘ining shimoliy-g‘arbiy hududlarida turkmanlar ham istiqomat qilganligi haqidagi ma’lumotlar uchraydi. Shuningdek, turkmanlarning “non talab” urug‘i ushbu hududlarga kelib joylashgan. Turkmanlarning yana asosiy bir qismi Sherobod bekligiga qarashli Amudaryo qirg‘oqlariga kelib joylashib, o‘troq va yarim o‘troq turkmanlarga aylanadi.

XX asr boshlarida Qashqadaryo viloyati aholisining asosiy qismi Qarshi, Beshkent, Koson, G‘uzor, Chiroqchi, Kitob shaharlari va yirik qishloqlar atrofida yashagan bo‘lib, asosan o‘zbeklarning mang‘it, saroy, qavchin, qutchi,

qipchoq, xitoy, qirq, qatag‘on, mirishkor, yuz, kenagas, turk, qalmoq, qang‘li, guyut, qiyot, qo‘ng‘irot, major, mang‘it, mo‘lton, mo‘g‘ul hamda paymoq, urug‘larini tashkil etgan.

1920 yilgi tarixiy manbalarga asoslanib, Buxoro amirligida soliqlar siyosati nihoyat darajada noqonuniy, xalq ommasini talon-taroj qilishdan iborat bo‘lib, soliqlar haddan tashqari ko‘payib ketgan edi. Masalan, amlokdor yerlardan 50 foiz, vaqf yerlardan 24, 8 foiz, mulki xiroj 15 foiz, mulki hur 10, 12 foizga ko‘payib ketdi. Hatto Buxoro amirligi davridagi janubiy-sharqiy shaharlarda soliq siyosatida o‘ta qattiq talonchilik siyosati orqali xalq ommasini og‘ir ahvolga solib qo‘yganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar mavjud. Denov, Sherobod, Boysun, G‘uzor hamda Kitob shaharlarida amlokdorlik yerlaridan 55, 8, vaqf yerlaridan 24, 2 mulki hur yerlaridan 1, 6 va amir yerlaridan 12, 1 foiz miqdorda ortiqcha soliqlar olingan. Bu esa mahalliy aholining jiddiy noroziligiga va xalq harakatlariga sababchi bo‘lgan.

Tarixiy manbalarga asoslangan holda 1924 yilga kelib, Buxoro amirligi hududida tashkil topgan Buxoro Respublikasi aholisining soni, milliy tarkibi, joylashishi bo‘yicha quyidagi tarixiy manbalarga e’tibor berilsa, shaharlarda aholining ijtimoiy, milliy tarkibini aniqlash imkoniyatiga ega bo‘lamiz. 1924 yil Buxoro Xalq Sovet Respublikasida 1531015 nafar aholi istiqomat qilganligi aniqlandi.

Buxoro aholisining shaharlar bo‘yicha joylashishini tahlil etsak, quyidagi ma’lumotga ega bo‘lamiz. Buxoro amirligining janubiy sharqiy shaharlarida G‘uzor shahri chorva mollari bilan savdo qiladigan shahar sifatida mashhur edi. Shaharga Surxon vohasidan Buxoro, Samarqanddan va boshqa qo‘shni hududlardan chorva mollari olib kelinar edi. Manbalarning qayd etishicha, Ko‘lob-Boysun-G‘uzor savdo yo‘lida butun yoz davomida jun, zig‘ir, kunjut, bug‘doy-shuningdek, hunarmandchilik uchun zarur bo‘lgan xom ashyolar ortilgan karvonlar harakati muntazam davom etgan. Buxoro amirligining janubiy-sharqiy shaharlari mashhur rus sayyohi N.Maevning qayd etishicha, asosiy savdo sotiq markazi sifatida muhim o‘rin tutadi. Ushbu hududda butun Buxoro xonligida uch xil pul: tillo, kumush tanga va mis pul muomalada bo‘lgan. Bir tilloning qiymati 21 tanga, bir tanga esa 44 mis pulga teng bo‘lgan. Bu davrdagi shaharlarda savdo hajmining tashkil etgan mahsulotlar chetga chiqarilgan yoki chetdan keltirilgan. Mahsulot (tovar) lar miqdorini aniqlash ancha qiyin chunki bu yerda qonunlar amalda qo‘llanilmaydi.

Savdo-sotiq bilan shug‘ullandigan kishilar asosan ikki toifaga: savdogar ya’ni yirik savdo bilan shug‘ullanadiganlar, xalqaro savdo aloqalarida ishtirok etadigan kishilarga va do‘kondorlar ular asosan mahalliy mahsulot bilan savdo qiladigan kishilarga bo‘lingan. Savdo aloqalarida dallollarning o‘rni ham katta bo‘lgan. Masalan, etnograf olim O.A.Suxarevaning ta’kidlashicha, bosh dallol chorva mollari bilan savdo qiladigan bozorni doimo o‘z nazorati ostida saqlagan. Davlat esa karvon yo‘llarini qo‘riqlash, shaharlarda karvonsaroylar, sardobalar qurish, bozorlarni kengaytirish va umuman savdo-sotiq bilan bog‘liq bo‘lgan inshootlarni qurishni o‘z zimmasiga olgan. Bundan tashqari savdo-sotiqning rivojidan bevosita manfaatdor bo‘lgan katta boylar, savdogarlar, amaldorlar ham bunday inshootlarni qurishga o‘z mablag‘larini sarflagan.

Shuningdek, Boysun daryo vohasida qo‘ng‘irotlarning 3125 aholisi Surxondaryo havzasi bo‘ylarida 9325, Amudaryo vohasi Termiz yaqinida 3125 ta, G‘uzor daryo vohasi yuqori qismida 8875 ta, G‘uzor daryo vohasining quyi qismida 4170 ta, Sherobod daryosi suv havzasi yaqinida 18, 385 ming qo‘ng‘irot aholisi istiqomat qilganligi manbalarda o‘z aksini topgan.

Buxoro amirligining janubiy shaharlari aholisining ko‘pchiligi o‘zbeklar va tojik aholisini tashkil etib, ularning urf-odatlari, e’tiqodlari umumiy o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ba’zi shaharlarda aholining ko‘pchiligini o‘zbeklar va tojiklar tashkil etganligini quyidagi misollarda ko‘rish mumkin. Masalan, Sherobod shahri va uning atrofidagi qishloq aholisining 18, 7 foizini tojiklar, Boysunda 47 foiz, Sariosiyoning Yurchi shahrida 64 foizini tojiklar tashkil etadi.

O‘zbeklarning joylashishi masalasida janubiy shaharlar quyidagi holatda izohlangan edi. Masalan, Surxondaryo viloyatining g‘arbiy hududlarida o‘zbeklar-83, 079 kishini (64 foiz), sharqida ya’ni Kulob viloyatida o‘zbeklar-28, 540 (21, 9 foiz), Sherobod uezdining qishloq aholisi o‘rtasida o‘zbeklar-73, 5 foiz, shimolda,

Yurchida-60 foiz, Qo‘rg‘ontepa viloyati janubida-58, 4 foiz, Dushanbe shahri shimolida-34, 3 foiz, Ko‘lob viloyati janubida va Ko‘lob tumanida 42, 1 foizni o‘zbeklar tashkil etgan edi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. Шарапов, С. С. (2024). Административная Деление И Торговые Отношение Юго-Восточных Городов Бухарского Эмирата В Конце XVIII-Начале XX Века. International Journal of Formal Education, 3(3), 54-59.
2. Шарапов. С. С. (2024). Административная Деление И Торговые Отношение Юго-Восточных Городов Бухарского Эмирата В Конце XVIII-Начале XX Века. International Journal of Formal Education, 3(3), 54-59.
3. Шарапов.С. С. (2024). Административная Деление И Торговые Отношение Юго-Восточных Городов Бухарского Эмирата В Конце XVIII-Начале XX Века. International Journal of Formal Education, 3(3), 54-59.
4. Шаропов. С. С. (2023). БУХОРО АМИРЛИГИ ЖАНУБИ-ШАРҚИЙ ҲУДУДИ ШАҲАРЛАРИНИНГ АЙРИМ ХУСУСИЯТЛАРИ.
6. Саидусмон Шарапов. (2023). БУХОРО АМИРЛИГИНИНГ ЖАНУБИ-ШАРҚИЙ ХУДУДЛАРИ ШАҲАРЛАРИДА ИЖТИМОИЙ АҲВОЛИ. Scientific Impulse, 1(12), 239-245.
7. Н.А.Маев. Бухоро хонлиги очерклари, Т.: «Fan va texnologiya», 2012, 65- бет.
8. Кун А.Л. Очерки Шагрисебзского бекства. - Санкт-Петербург: тип. В. Безобразова, 1880. – стр-33.
9. А.Р. Мухамеджанов – Населенные пункты Бухарского эмирата // Ответственный редактор – академик АН Р Уз.Ташкент: Университет, 2001. Стр. 12
10. А.Ю.Якубовский.Феодальное общества Средней Азии и его торговля с Восточной Европой.X-XV вв. Материалы по истории Узбекской, Таджикской ССР.Л.1953 год.стр.5
11. Хакимова К.З. Крестьянское двежения в Бухарском ханстве в последней терети XIX века (по материалом архива қушбеги эмира Бухарского). - Т., 1964 г.
12. Территория и население Бухары и Хорезма. Стр-144.
13. Ў.Мавлонов. Қашқадарё воҳасининг сўнгги ва ўрта асрлардаги савдо ва маданий алоқалари. Иқтисод ва ҳисобот журнали. № 10-сон, 1993 йил, 44 б.
14. Ў.Мавлонов. Қашқадарё воҳасининг сўнги ва ўрта асрлардаги савдо ва мадаий алоқалари. Иқтисод ва ҳисобот журнали. № 10-сон, 1993 йил, 50 б.
15. Территория и население Бухары и Хорезма. Стр-187-189.
16. Кармишева Б. Очерки этнической истории южных районов. Таджикистана и Узбекистана 1976. Стр-39.

SURXONDARYO OKRUGIDA QO‘YCHILIK SOHASI BO‘YICHA OLIB BORILGAN CHORA VA TADBIRLAR: NATIJALAR VA MUAMMOLAR

QOSIMOV ABDISATTOR CHORIYEVICH

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Tarix kafedrasi katta o‘qituvchisi t.f.f.d (PhD)
abdisattor_qosimov@tues.uz

Annotatsiya / Аннотация / Abstract
Ushbu maqolada sovet davrida qo‘ychilik sohasini davlat nazoratiga olish bo‘yicha bir qancha amalga oshirilgan chora va tadbirlari, O‘zbekistonning janubi, Surxondaryo okrugida tashkil etilgan qo‘ychilik sovxozlari faoliyati, qorako‘l qo‘ylari, qo‘ychilik sohasini sovet davlati tomonidan rivojlantirishdan asosiy maqsadi, naslli qo‘zilar yetishtirishda Qumqo‘rg‘on rayonida teri oshlash zavodining ahamiyatihaqida, Butunittifoq qishloq xo‘jaligi ko‘rgazmasi, xalqaro mo‘yna auksioni tashkil etilishi, zotdor qo‘ylarning mehnat unumdorligini oshirish, O‘zbekistonda qo‘y mahsulotining tannarxi haqida, hisori qo‘ylar mahsuldorligi, qo‘zilatish mavsumlarining borishi borasidagi ishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar tahlil etilgan.

В данной статье рассмотрен ряд мер и мероприятий, предпринятых в советский период по постановке овцеводческой отрасли под государственный контроль, деятельность государственных овцеводческих хозяйств, созданных в Сурхандарьинском районе юга Узбекистана, каракольских овец, основных цель развития советским государством овцеводческой отрасли, разведение овец в Кумкурганской области, сведения о значении фабрики, организация Всесоюзной сельскохозяйственной выставки, международного пушного аукциона, повышение производительности труда племенной овец, цены на продукцию овцеводства в Узбекистане, влияние на продуктивность овец и ход сезонов ягнения.

In this article, a number of measures and measures taken during the Soviet period to bring the sheep breeding industry under state control, the activities of the state sheep farms established in the Surkhandarya district of the south of Uzbekistan, Karakol sheep, the main goal of the development of the sheep breeding industry by the Soviet state, breeding sheep in the Kumkurgan region information about the importance of the factory, the organization of the All-Union Agricultural Exhibition, the international fur auction, the increase in labor productivity of breeding sheep, the price of sheep products in Uzbekistan, the effect on sheep productivity, and the progress of the lambing seasons were analyzed.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

Surxondaryo okrugi, chorva mollari, yem-xashak, jun, go‘sht mahsulotlari, zotli qo‘chqor, mayin qorako‘l terisi, qorako‘l qo‘ylar, sovxozlar, qo‘y terilari, mo‘ynalar, sur qorako‘l terilari, qorako‘lchilik sovxozlari, hisori qo‘ylar.

Сурхандарьинская область, животноводство, корма, шерсть, мясные продукты, чистопородный баран, мягкая черная овечья шкура, черная овца, совхозы, овечьи шкуры, меха, черные шкуры, овцеводческие совхозы, гисарские овцы.

Surkhondarya region, livestock, fodder, wool, meat products, purebred ram, soft black sheep skin, black sheep, state farms, sheep skins, furs, black sheep skins, sheep breeding state farms, Hisari sheep.

Kirish va dolzarbligi. Sovet davrida chorvachilik, xususan, qo‘ychilik sohasini davlat nazoratiga olish bo‘yicha bir qancha chora va tadbirlar amalga oshirildi. Bu tadbirlarni O‘zbekistonning janubi, Surxondaryo okrugida tashkil etilgan qo‘ychilik sovxozlari faoliyatida ko‘rish mumkin.

Yozma manbalarda Qiziriq Bandixon hududlarida istiqomat etgan aholi xo‘jaligida chorvachilik muhim o‘rin tutganligi haqida ma’lumotlar mavjud. Arabnavis mualliflar (Al-Yaqubiy, Ibn Xavqal) ma’lumotlariga ko‘ra Termiz viloyatida joylashgan shaharlardan biri Xushvarang (Xashura) chorva mollari va jundan tayyorlangan maxsulotlari bilan mashxur bo‘lgan.

Qiziriq hududining tabiiy sharoiti chorvachilik bilan shug‘ullanishga mos bo‘lib, bu tarmoq iqtisodiyotda yetakchi o‘rinni tutgan. Shu sababli chorva mollarini boqish ko‘paytirish borasida katta tajribaga ega bo‘lganlari holda, chorva mollariga oid turli xil atamalarni ham qo‘llaganlar.

Metodlar va o‘rganilish darajasi. Maqolada umumiy qabul qilingan usullar-tarixiy tahlil, qiyosiy taqqoslash, xronologik ketma-ketlik tamoyillari asosida qo‘ychilik sohasi tarixi bayon etilgan. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, mahalliy aholini turmush tarzini yuksaltirish, moddiy-turmush darajasini o‘sishga imkoniyat yaratib berish, cho‘ponlar uchun zamonaviy uy-joylar qurish, moddiy-ma’naviy sohada to‘liq shart-sharoitlarni yaratib berish masalasi ikkinchi darajali siyosat sifatida qabul qiligan edi.

Tahlil va natijalar. Jarqo‘rg‘on tumani. Urush yillarida viloyatda chorvachilik ham katta zarar ko‘rgan edi. Chunki front va mamlakat ichkarisi ehtiyojlari uchun chorva mollari hisobga olinmasdan so‘yib yuborildi. Buning ustiga urush davrida chorvachilik sohasida mehnat qiladigan mutaxassislar yetishmas edi. Shuning uchun to‘rtinchi besh yillik (1946-1950 yy) va

undan keyingi besh yilliklarda chorva mollari tuyog‘ini ko‘paytirish, uning nasldorligini oshirish, yem-xashak bazasini takomillashtirish, agrar sektorning bu muhim tarmog‘i moddiy bazasini mustahkamlashdan iborat bo‘ldi.

Chorvadorlar mehnat musobaqasining yetakchi shakllari sog‘in sigirlardan olinadigan sut miqdorini oshirish, qirqib olinadigan jun, go‘sht mahsulotlarini ko‘paytirish edi. 1946-1948 yillarda Jarqo‘rg‘ondagi “Surxon, ” “N.Boymurodov” va boshqa jamoa va davlat xo‘jaliklarida eng yaxshi chorvadorlar har yuz bosh ona qo‘ydan 115-117 tadan qo‘zi olishga muvaffaq bo‘ldilar. 1950-yillarda bir qator xo‘jaliklarda yem-xashak uzatish, ildizli ozuqalarni yuvish va qirqish uchun moslamalar joriy qilindi.

Elektromexanik va ot kuchi bilan ishlaydigan yuritmalar qo‘llanildi. Ayrim chorvachilik fermalari aralash va dag‘al ozuqalarni maydalab berishga kirishdilar. Sigirlarni asta-sekinlik bilan mexanik sog‘ish joriy etildi. Qorako‘lchilik xo‘jaliklarida qo‘ylarning junini olish uchun elektromexanik agregatlar ishga tushirildi. [1. 146-147 b]

“N.Boymurodov” nomli jamoa xo‘jaligida 1968 yil 1 yanvargacha 18940 bosh qo‘y va echkilar (shundan qorako‘l qo‘ylar 18215 bosh) bor edi. Jamoa chorvadorlari barcha mollarni asrash va ko‘paytirish sohasida anchagina jonbozlik ko‘rsatdilar.

Jamoada zotli qo‘chqor va boshqa mollar boqildi. Bu davrda dong taratgan chorvador kadrlar yetishib chiqdi. A.Ravshanov, T.Ro‘ziev, X.Xolmurodov, N.Ortikov, T.Xidirov va E.Xolmurodovlar qoramollarni boqqan bo‘lsalar, X.Pirimqulova, U.Azamovalar sut sog‘uvchi, A.Xolmurodov, M.Isroilov, A.Abdurahmonov, N.Bakirovlar jamoada cho‘ponlik qildilar. [2. 26-b]

“Sotsializm” xo‘jaligi esa 1966 yil davlatga 107, 5 tonna go‘sht, 274 tonna sut, 20, 3 tonna jun sotdi. [3. 251- b]

1973 yili “Y.Oxunboboev” jamoa xo‘jaligi chorvadorlari chorva maxsulotlaridan 98 tonna go‘sht, 315 tonna sut, 65 ming dona tuxum yetishtirdilar. Chorva mollari uchun 475 tonna silos, 416 tonna beda pichani, 500 tonna senaj, ming tonna dag‘al xashak to‘pladilar. [4.]

1975 yili shu jamoa xo‘jalik chorvadorlari har bir sigirdan 2950 kg sut, har yuz bosh sigirdan o‘ntadan buzoq, yuz bosh sovliqdan bir yuz qirqtagacha qo‘zi, yuz bosh cho‘chqadan ikki mingtagacha cho‘chqa bolasi olindi. Shu yili jamoa xo‘jaligi chorvadorlari 150 sentner pichan, 500 sentner ko‘k poya, 2500 tonna silos, 400 tonna dag‘al xashak, 200 tonna beda tayyorlab rejalarini ortig‘i bilan bajardilar. [5.]

Qo‘ychilik sohasini sovet davlati tomonidan rivojlantirishdan asosiy maqsad mamlakat iqtisodiyotini yuqori darajaga ko‘tarish, xorijga eksport qilishi, mahsulot tannarxini oshirish, sifatli mahsulot chiqarishga e’tibor berishi, jahon ko‘rgazmalarida ishtirok etib, yuqori oliy mukofotlarni egallashdan iborat edi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki mahalliy aholini turmush tarzini yuksaltirish, moddiy-turmush darajasini o‘sishga imkoniyat yaratib berish, cho‘ponlar uchun zamonaviy uy-joylar qurish, moddiy-ma’naviy sohada to‘liq shart-sharoitlarni yaratib berish masalasi ikkinchi darajali siyosat sifatida qabul qiligan edi. Shunga qarmay mahalliy cho‘ponlar, hamda mutaxassislar qo‘ychilikni yanada samarali va salmoqli qilish borasida tinimsiz amaliy ishlarni bajarib borib, qo‘ychilikni taraqqiy etishiga bor imkoniyatlarni ishga soldilar. Jumladan yangi qo‘y nasllarni yaratish, hamda hosimli, go‘sht beradigan qo‘y zotlarni yaratish masalasida e’tiborli ishlarni bajardilar. Jumladan. Surxondaryo viloyatida ham sun’iy nuqsonli qo‘zilarni so‘yish va terini birinchi qayta ishlash, saqlash jarayonida kelib chiqib, sun’iy nuqsonli va yaroqsiz terilar bo‘lmasligi uchun kolxoz va sovxozlarda markazlashtirilgan qo‘zi so‘yish markazlari tashkil qilish, bu ishga tajribali kishilarni qo‘yish tadbirlari ko‘rildi.[6.]

Viloyatda naslli qo‘zilar yetishtirishda xo‘jaliklarda ko‘p hollarda e’tiborsizlik qilib kelindi. Masalan, 1972 yil mayda Termiz go‘sht kombinatiga xo‘jaliklardan keltirilgan qo‘yning 15 tasida so‘yilgandan so‘ng ichidan qo‘zi chiqdi. Qo‘zilarning juni mayin qorako‘l terisi Qumqo‘rg‘on rayonida teri oshlash zavodiga yuborildi. Shu usulda sifatli qo‘y teri olish tajribasi yo‘lga qo‘yilib borildi. Tajribali chorvador A.Abdullaev boshchiligida brigada tashkil etilib, unga 2894 bosh sovliq berildi. Qo‘ylar bo‘rdoqiga boqilib, ulardan ham chala qo‘zilar olinib, terisi topshirildi.[7.]

Ittifoq qo‘y teri yetishtirish bo‘yicha dunyoning yetakchi davlatlaridan biri bo‘ldi. Qo‘y terilari namunalari doimiy ravishda Butunittifoq qishloq xo‘jaligi ko‘rgazmasi

(VDNX)da namoyish etib turildi. 1959 yili Boysun va Sherobod rayonlardagi sovxozlarida yetishtirilgan mahsulotlar ko‘rgazmaga qo‘yildi. Ko‘rgazmada qorako‘l qo‘ylarni yetishtirish jarayoni, yaylovlari, cho‘ponlarning fotosuratlari ham namoyish qilindi. Shuningdek, ko‘rgazmaga qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi N.S.Gigineyshvili tomonidan ixtiro qilingan platina va bronza rangdagi qorako‘l terilari ham namoyish etildi. Tajribalar Qumqo‘rg‘on rayonidagi “Sayxon” sovxozida o‘tkazilib, bu turdagi qorako‘l terilari Ittifoqda faqat mana shu xo‘jalikda tayyorlandi.[8. 42-49]

1955 yil Leningrad auksionida 700 ming dona qo‘y terilari sotildi. Bu mahsulotlar asosan, O‘zbekiston, Turkmaniston, Qozog‘iston respublikalarida yetishtirilgan edi.[9.24-27betlar.] 1956 yil Leningrad shahrida 27-Xalqaro mo‘yna auksioni tashkil etilib, unda turli-tuman mo‘ynalar bilan birga naslli qo‘ylarning mo‘ynalar savdosi qizg‘in bo‘ldi. Auksionda 19 ta davlatdan 119 ta mo‘yna firmalarining vakillari ishtirok etdi.[10.19-22.betlar]

Auksionda 880 ming dona turli navdagi qo‘y terilari sotuvga qo‘yilib, unda Qozog‘iston, Turkmaniston qorako‘l terilariga nisbatan O‘zbekiston mahsulotiga xorijliklar katta qiziqish bilan qaradi va yuqori baholadi. Auksionda qozoqqo‘y terilariga umuman talab bo‘lmadi. O‘zbekiston xo‘jaliklarida tayyorlangan qo‘y terilari Turkmaniston mahsulotiga nisbatan bir necha baravar yuqori sotildi. Qo‘y terilari asosan Angliya, AQSh, Gollandiya, Finlandiya, Shveysariya, Avstriya, Shvesiya, Kanada fermalari tomonidan sotib olindi.

Auksion doirasida xalqaro ko‘rgazma ham tashkil etilib, unda 900 ming qo‘y terilari namoyish qilindi. Ko‘rgazmaga qo‘yilgan kulrang va qora qo‘y terilarining 80 foizi sotildi. Sur qorako‘l terilari 9-12 dollar atrofida sotildi.[11.22-29 betlar]

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO)ning ma’lumot berishicha, 1967 yil dunyo bo‘yicha yiliga 20 mln. dona qo‘y terilari tayyorlangan. Jahon bozorida esa 40-45 mln. dona qorako‘l teriga ehtiyoj mavjud edi.[12. 7]

Ittifoqda jahon bozorlari talabidan kelib chiqib, sifatli qo‘y terilarini yetishtirishni ko‘paytirishga e’tibor qaratildi. Naslli va zotdor qo‘ylarning mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot yetishtirishni ko‘paytirish, uning sifatini yaxshilash, xarajatlarni kamaytirish tadbirlari olib borildi. Zotdor qo‘y terilarinpi ishlab chiqarish mavsumiy bo‘ldi. Qo‘ychilikda asosiy e’tibor moddiy, mehnat, moliyaviy resurslar hamda tabiiy boyliklardan imkoni boricha oqilona va samarali foydalanishga, har bir xo‘jalikda eng kam mehnat va mablag‘ sarflash evaziga qo‘y terilari mahsuloti yetishtirishni butun choralar bilan ko‘paytirishga va uning sifatini yaxshilashga qaratildi.

Qorako‘lchilik mahsulotlari uchun narx belgilashda mahsulot yetishtirishning hududiy xususiyatlari hisobga olinmadi. Holbuki, cho‘l, chala cho‘l va tog‘ etagi zonalarida qorako‘lchilik mahsuloti yetishtirish va uni realizatsiya qilish sharoiti, hamda yem-xashak va mehnat resurslari bilan ta’minlanish darajasi bir xil emas edi, shu sababli narxlar zona xususiyatlariga qarab tabaqalashtirishni talab etdi.

Surxondaryo viloyatida 1966 yili bir dona qo‘y terilari yetishtirish uchun 9, 5 rubl sarflangan bo‘lsa, 1973 yili bu 17, 6 rubl bo‘ldi. O‘zbekistonda qo‘y mahsulotining tannarxi respublika bo‘yicha o‘rtacha darajadan ancha past bo‘lgan ko‘plab xo‘jaliklar faoliyat olib bordi. Masalan, “Sayrob”, “Sayxon”, “Darband”, “Kommunizim” sovxozlar shular jumlasidandir. Bu xo‘jaliklarda nasli va zotdor qo‘y terilarning tannarxi 13-14, 5 rubldan, 1 sentner junning tannarxi 175-223 rubldan va 1 sentner qo‘y go‘shtining tannarxi 60-65 rubldan oshmadi.[]

1950 yil respublikada 5 ta naslchilik zavodi bo‘lgan bo‘lsa, 1983 yilga kelib ular soni 8 ta edi. Ularning har birida 75-80 ming bosh qorako‘l qo‘ylari boqildi. [13. 296-b]

XX asrning 60-yillarida xo‘jaliklarning qorako‘l tayyorlash rejasi ortig‘i bilan bajarildi. Masalan, 1969 yil Surxondaryo viloyati Qorako‘lchilik tresti reja bo‘yicha 222600 dona qo‘y terilarini tayyorlashi lozim bo‘lib, amalda 320194 dona teri davlatga topshirilib, reja 143, 8 foizga bajarildi.[14. 81-b]

Qorako‘l terisi qimmatbaho eksport tovar hisoblanadi. Agar qo‘ylarning 400 ga yaqin turi bo‘lsa, faqat bitta qorako‘l turidan qimmatbaho mo‘yna olinadi. XX asrning 70 yillarida umuman qo‘ylarning Turkmanistonda 93 foizini, O‘zbekistonda 84 foizini, Qozog‘istonda 20 foizini qorako‘l qo‘ylar tashkil etdi.[15.]

Respublika viloyatlarida qorako‘lchilik trestlari tashkil etildi. Masalan, 1977 yili Surxondaryo viloyati qo‘ychilik sovxozlari trestiga 15 ta sovxoz birlashtirildi.[16. 3-5 betlar] “Sayrob”, “Kommunizim”, “Vandob”, “Sangardak”, “Sayxon”, “SSSR 50 yilligi”, “O‘zbekiston”, “Chorvador” kabi sovxozlar shular jumlasidandir. Biroq turli sabablarga ko‘ra qorako‘lchilik sovxozlarida teri tayyorlash rejasi to‘la bajarilmadi. Viloyatda 1978 yil rejaga nisbatan 29889 dona qorako‘l teri kam yetishtirildi.[17. 12-15 betlar]

Sherobodda 1966 yil rayon bo‘yicha qorako‘l teri 102, Pilla 105 foiz, jun 109 foiz, poliz 104 foiz, sut 106 foizga bajarildi.

1971-1975 yillarda Sherobodning davlatga mahsulot yetkazib berishni quyidagi raqamlardan ham ko‘rishimiz mumkin.

Mahsulot turi	**1971**	**1972**	**1973**	**1974**	**1975**
Sut (tonna)	1290	1430	1600	1690	1760
Go‘sht (tonna)	270	280	300	310	310
Jun (tonna)	167, 3	176, 3	176, 3	180, 3	180, 3
Qorako‘l (teri, ming dona)	12, 1	13, 6	14, 6	17, 6	19, 1

Surxon vohasida ma’lumki qo‘yning ikki turi ko‘paytirilib, boqilgan. Bular qorako‘l (qorako‘l terisi yetishtiriladigan qo‘ychilik) va dumbali qo‘ylar. Surxondaryoda dumbali qo‘ylar boqish keng tarqalib, uning quyidagi turlari mavjud: qoziqi, joydori, (qozoqi va hisori qo‘y chatishmasi), hisori. Hisori qo‘ylar asosan Denov va Boysun tumanlarida ko‘p boqilgan. Yaylovlarni tabiiy sharoiti va foydalanishiga qarab quyidagi turlarga bo‘lingan, tog‘ bag‘ri va cho‘l yaylovlari, ya’ni pastki tog‘ oldi va cho‘l zonasi rayonlaridagi kuzgi-qishki-bahorgi yaylovlar, o‘rta tog‘ rayonlaridagi bahorgi-yozgi yaylovlar, yuqori tog‘ rayonlaridagi yozgi yaylovlar.

Denov, Sherobod va Boysun tumanlaridagi tog‘ oldi hududlarida asosan eng ko‘p yog‘ va go‘sht qiladigan hisori qorako‘llar boqilib, yoz oylarida tog‘ zonalariga haydalgan. Bu qo‘ylarning juni qiriq, ya’ni dag‘al bo‘lgan. Sherobod hududida qo‘ylarning boshqa turlari boqilib, bu qo‘ylar: isliqi qoraqo‘y (hisori qoraqo‘ylarga qaraganda kichikroq, juni ham mayinroq bo‘lgan, qozoqi qo‘y ham deb atalgan, g‘aljaki (Afg‘oniston territoriyasidan o‘tgan), chibalang (arabi, qorako‘l), ko‘rg‘o‘za (qozoqi va chibalangdan urchigan) va sarjiparang (Sarjiboy tomonidan yaratilgan) turlarga bo‘linadi.

Xulosa. Shunday qilib, Surxon-Sherobod vohasida ota-bobolarimiz asosan hisor qoraqo‘y va isliqi qoraqo‘ylarni boqishgan bo‘lib, bu qo‘ylar tana va dumba tuzilishiga qarab xam turli xilda nomlangan. Masalan, kapkirt dumba, oyna dumba, shalpi duma turlariga bo‘lingan. Agar kapkirt dumba turi yaxshi boqilsa dumbasining og‘irligi 30-35 kg gacha yetgan. Oyna dumbali turi ko‘proq tanasiga yog‘ bog‘lagan. Shalpi dumbali turi ham kapkirt dumbali turlicha og‘irlikda yog‘ bergan, biroq chorvadorlar bu turdan qo‘chqor tanlashmagan. Sababi, shalpi dumbali hisori va isliqi qoraqo‘ylar semirgandan keyin uning yurishini dumbasi anchagina qiyinlashtirgan. Shuning uchun cho‘ponlar sovuqlarga beli va bo‘yni uzun, boshi va tumshug‘i cho‘zinchoq, kapkirt dumbali qo‘chqorlarni tanlashgan va bir qo‘chqorni ikki yildan ortiq qo‘ymagan. Bunda ota-bobolarimiz ko‘p narsalarni hisobga olishgan. Qo‘zilayotgan sovliqni azoblamasligi, naslning buzilib, maydalashib ketmasligi, ko‘p go‘sht va yog‘ qilishligi hamda yaylovlarda qiynalmay harakat qilishligi kabi jihatlar e’tiborga olingan. Hisori va isliqi qoraqo‘ylar surxon vohasining turli bekliklarida iqlim sharoiti va yaylovlardagi o‘t-o‘lanlarning kuchli yoki kuchsizligiga, porimli (yoqimli) yoki porimsiz (yoqimsiz)ligiga hamda boqilishiga qarab turlicha vaznda bo‘lganlar. Masalan, hisori qo‘ylar Denov va Sariosiyo hududlarida, Hisor tog‘ bag‘irlarida 180-200 kilogrammgacha, isliqi qoraqo‘ylar esa 90-110 kilogrammgacha go‘sht-yog‘ qilgan. Shuning uchun ham ota-bobolarimiz hisori va isliqi qora qo‘ylarni asosan go‘shti va yog‘i uchun boqishgan.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. Жарқўрғон тарихидан лавҳалар - Турсунов Сайпулло, Тўхтаев Абдиғани, Аннаева Зарифа, 146-147 бетлар
2. Собиқ Н.Боймуродов жамоа хўжалиги тарихи. –Термиз., 1994 йил, 26-б.
3. Турсунов С.Н, Қобилов Э.О. ва бошқалар. –Т., “Шарқ, ” 2001 йил, 251- б.
4. Жарқўрғон ҳақиқати. 1974 йил, 3-феврал.
5. Жарқўрғон ҳақиқати. 1976 йил, 24-25 феврал
6. Валиев У. Давлатга сифатли қоракўл тери // Қизил Ўзбекистон 1960 йил, 8 апрел.
7. Эргашев А. Ҳам гўшт, ҳам тери. // Совет Ўзбекистон, 1965 йил 26 май.
8. Каракулеводство и звероводство. – Москва. 1955. - №4. – С. 42-49.
9. Каннсепалский А.С. Качество каракуля совхозов и колхозов за 1954-1955 гг. // Каракулеводство и звероводство. – Москва. 1956. - №1. – С. 24-27.
10. Каплин А.А. Итоги 27-го Международного пушного ауксиона в Ленинграде // Каракулеводство и звероводство. – Москва.1956.- №6.–С.19-22.
11. Бойко Д.Ф., Кансеполский А.С. Ленинградский пушной ауксион и очередные задачи каракулеводства // Каракулеводство и звероводство. – Москва. 1956. - №6. – С. 22-29.
12. Закиров М.Д. Каракул Узбекистана.–Ташкент: Узбекистан, 1970. – С. 7.
13. Зокиров.М. ва бошқалар. Қоракўлчилик. Тошкент.Ўқитувчи, 1983. – Б.296.
14. Абиркулов А. Проблемы размешения и развытия животноводства в Узбекистане.- Ташкент. Фан, 1984, –С 81.
15. Қашқадарё ВДА, 498-фонд, 1-рўйхат, 143”а”-иш, 21-варақ.
16. Жилякова В.С., Чепелева А.К. Основы каракулеводства. Алма-Ата. Кайнар. 1976. –С. 3-5.
17. Қашқадарё вилояти давлат архиви, 498-фонд, 1-рўйхат, 219-иш, 12-15 варақлар.

KUTUBXONALARDA FAN, TA’LIM, MADANIYAT VA BIZNES UCHUN ELEKTRON AXBOROT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

MARUF ABDUSHUKUROV

Adib Sobir Termiziy nomidagi Surxondaryo Viloyat axborot-kutubxona markazi direktori

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Ushbu maqolada raqamli transformatsiya davrida kutubxonalarda fan, ta’lim, madaniyat va biznes sohalari uchun elektron axborot resurslaridan (EAR) foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llari tahlil qilingan. Surxondaryo viloyat axborot-kutubxona markazi hamda milliy va xalqaro ma’lumotlar bazalari (ProQuest, ERIC, Unilibrary.uz) tajribasi misolida infratuzilmani modernizatsiya qilish, Single Sign-On (SSO) tizimi, bulutli texnologiyalar hamda sun’iy intellektni joriy etish masalalari yoritilgan. Shuningdek, foydalanuvchilarning raqamli savodxonligini oshirish va "yashil kutubxona" hamda "maker space" konsepsiyalarini rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

В данной статье анализируются пути повышения эффективности использования электронных информационных ресурсов (ЭИР) в библиотеках для сферы науки, образования, культуры и бизнеса в эпоху цифровой трансформации. На примере опыта Сурхандарьинского областного информационно-библиотечного центра, а также национальных и международных баз данных (ProQuest, ERIC, Unilibrary.uz) освещены вопросы модернизации инфраструктуры, внедрения системы Single Sign-On (SSO), облачных технологий и искусственного интеллекта. Также даны практические рекомендации по повышению цифровой грамотности пользователей и развитию концепций "зеленой библиотеки" и "maker space".

This article analyzes the ways to increase the efficiency of using electronic information resources (EIR) in libraries for science, education, culture, and business in the era of digital transformation.

Based on the experience of the Surxondaryo Region Information-Library Center, as well as national and international databases (ProQuest, ERIC, Unilibrary.uz), the issues of infrastructure modernization, implementation of Single Sign-On (SSO) systems, cloud technologies, and artificial intelligence are highlighted. Practical recommendations are also provided for improving users' digital literacy and developing the concepts of "green library" and "maker space."

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords
Elektron axborot resurslari, raqamli transformatsiya, Single Sign-On (SSO), sun’iy intellekt, bulutli texnologiyalar, raqamli savodxonlik, yashil kutubxona, maker space, Unilibrary.uz, ma’lumotlar analitikasi.
Электронные информационные ресурсы, цифровая трансформация, Single Sign-On (SSO), искусственный интеллект, облачные технологии, цифровая грамотность, зеленая библиотека, maker space, Unilibrary.uz, аналитика данных.
Electronic information resources, digital transformation, Single Sign-On (SSO), artificial intelligence, cloud technologies, digital literacy, green library, maker space, Unilibrary.uz, data analytics.

Raqamli transformatsiya davrida kutubxonalar faqatgina bosma nashrlarni saqlovchi joy emas, balki ilm, ta’lim, madaniyat va biznes sohalarini birlashtiruvchi axborot markaziga aylanib bormoqda. Bugungi kunda elektron axborot resurslari (EAR) — raqamli ma’lumotlar bazalari, elektron kitoblar, onlayn jurnallar, dissertatsiyalar, statistik ma’lumotlar to‘plamlari — nafaqat kutubxonachilar, balki olimlar, tadbirkorlar va talabalarning ham muhim bilim manbaiga aylangan. Shu boisdan, bu resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, ularni keng jamoatchilikka yetkazish va integratsiyalash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

O‘zbekiston kutubxonalarida elektron resurslardan foydalanish hajmi yildan yilga ortib bormoqda. Kutubxonalar infratuzilmasini takomillashtirish elektron axborot resurslaridan samarali foydalanishning eng muhim shartidir. Zamonaviy texnik jihozlar, tezkor internet, qulay o‘quv zallari va mutaxassis yordami foydalanuvchilarga qulay ilmiy muhit yaratadi. Masalan, Adib Sobir Termiziy nomidagi Surxondaryo viloyat axborot kutubxona markazida 350 o‘ringa mo‘ljallangan o‘quv zallari, 36 ta kompyuter va bepul Wi-fi tarmog‘i mavjud bo‘lib, bu talabalar va tadqiqotchilarga samarali ilmiy izlanish olib borish imkonini beradi.

Elektron resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishning yana bir muhim yo‘nalishi — milliy va xalqaro ma’lumotlar bazalariga to‘liq kirish imkonini ta’minlashdir. O‘zbekiston Milliy kutubxonasi tomonidan yaratilgan diss.natlib.uz, press.natlib.uz va nodir.natlib.uz bazalari ilmiy tadqiqot, matbuot merosi va tarixiy manbalarni bir joyda jamlagan yagona axborot markazidir. Shu bilan birga, xalqaro konsorsiumlar, jumladan EIFL orqali ProQuest, ERIC, e-Duke Journals kabi global ilmiy bazalarga ulanish imkoniyati mavjud. Bu esa o‘zbek kutubxonachilari va foydalanuvchilariga jahon ilmiy adabiyotlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tanishish imkonini beradi. Biroq ilg‘or elektron resurslar o‘z samarasini foydalanuvchilar ularni to‘g‘ri ishlata bilgan taqdirdagina beradi. Shu bois, kutubxonalar foydalanuvchilarni raqamli resurslardan foydalanish ko‘nikmalariga o‘rgatish bo‘yicha treninglar, video qo‘llanmalar, seminar va vebinarlarni muntazam o‘tkazishi lozim. Milliy kutubxona media portali orqali onlayn darslar, qidiruv strategiyalari bo‘yicha video ko‘rsatmalar va amaliy mashg‘ulotlar foydalanuvchilar savodxonligini oshiradi. Resurslarni yagona platformalarda integratsiyalash ham samaradorlikni oshiruvchi muhim omildir. Yagona elektron kataloglar tizimi, Single Sign-On (SSO) tizimi orqali bir akkaunt bilan bir nechta bazalarga kirish imkoniyati, shuningdek, 24/7 ishlaydigan mobil ilovalar foydalanuvchilarga qulay sharoit yaratadi. Bunday tizim axborot bo‘shliqlarini bartaraf etadi, takrorlanishni kamaytiradi va kutubxonalar o‘rtasida resurs almashinuvini kuchaytiradi.

Fan, ta’lim, madaniyat va biznes sohalarida elektron resurslardan foydalanish natijasida ko‘plab ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Ilmiy tadqiqotchilar uchun ProQuest va ERIC bazalari yangi ilmiy maqolalar va dissertatsiyalarga tezkor kirish imkonini beradi. Biznes sohasida esa Polpred.com kabi iqtisodiy bazalar bozor tahlili, innovatsion g‘oyalar va iqtisodiy prognozlar bo‘yicha muhim ma’lumotlarni taqdim etadi. Madaniyat sohasida nodir.natlib.uz bazasidagi raqamlashtirilgan qo‘lyozmalar, tarixiy hujjatlar va arxiv materiallari milliy merosni saqlash va o‘rganishda muhim o‘rin tutadi. Kelajak kutubxonasi innovatsion texnologiyalar, xususan, sun’iy intellekt va mashinaviy o‘rganish asosida rivojlanadi. Intellektual qidiruv tizimlari foydalanuvchining ehtiyojini oldindan tahlil qilib, unga eng mos resurslarni taklif etadi. Virtual reallik (VR) texnologiyalari yordamida esa foydalanuvchilar uzoqdagi fondlar yoki laboratoriyalarni virtual tarzda “tashrif buyurishlari” mumkin. Shuningdek, elektron resurslarni interaktiv ta’lim formatlariga moslashtirish, xavfsizlikni ta’minlash va foydalanuvchi maxfiyligini himoya qilish ham dolzarb masalalardandir. Shu bilan birga, raqamli savodxonlikning pastligi, infratuzilmaning ayrim hududlarda yetarli darajada rivojlanmagani, moliyaviy cheklovlar va hamkorlikning sustligi kabi muammolar mavjud. Ularni hal qilish uchun kutubxonalar va davlat muassasalari o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish, xalqaro grantlar orqali yangi texnologiyalarni joriy etish va xodimlarning malakasini oshirish zarur.

Kutubxonalar raqamli transformatsiya sharoitida endilikda nafaqat ma’lumot manbasi, balki bilim ishlab chiqaruvchi va uzatuvchi markaz sifatida faoliyat yuritmoqda. Bu jarayon fan, ta’lim, madaniyat va biznes sohalarining o‘zaro uyg‘unlashuviga xizmat qiladi. Elektron axborot resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, birinchi navbatda, raqamli infratuzilmani mustahkamlash, foydalanuvchilarning axborot madaniyatini oshirish hamda kutubxonachilarning yangi kompetensiyalarini rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liqdir.

Raqamli savodxonlik darajasi — elektron resurslardan samarali foydalanishning eng asosiy mezonlaridan biridir. Shu sababli, zamonaviy kutubxonalar o‘z foydalanuvchilari uchun muntazam o‘quv-trening dasturlarini yo‘lga qo‘yishlari zarur. Bunday o‘quv mashg‘ulotlari nafaqat foydalanuvchilarga ma’lumot izlashni o‘rgatadi, balki ularni ilmiy etika, manbalardan to‘g‘ri foydalanish va plagiatga qarshi madaniyat bilan ham tanishtiradi. Milliy kutubxona tajribasida yaratilgan onlayn videodarslar, qo‘llanmalar va vebinarlar bu borada samarali amaliyot sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shuningdek, kutubxona infratuzilmasini modernizatsiya qilish bugungi kun talabidir. Qulay o‘quv zallari, mobil ilovalar, 24/7 onlayn kirish imkoniyatlari, yagona foydalanuvchi identifikatsiyasi (Single Sign-On) tizimi orqali foydalanuvchilar uchun qulaylik yaratish kerak. Bu esa kutubxona xizmatlarini yanada interaktiv va ochiq muhitga aylantiradi. Unilibrary.uz platformasida barcha oliy ta’lim muassasalari kutubxonalari fondlarini yagona tizimda jamlash orqali resurslar takrorlanishini kamaytirish va ularning to‘liq hajmda foydalanilishini ta’minlash mumkin.

Fan, ta’lim, madaniyat va biznes sohalarida elektron resurslardan foydalanish natijasida bir qator ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Ta’lim tizimida masofaviy ta’limni qo‘llab-quvvatlash, o‘qituvchi va talabalar uchun yangi didaktik imkoniyatlar yaratish, o‘quv jarayoniga integratsiyalashgan resurslardan foydalanish — zamonaviy ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Biznes sohasida esa elektron axborot resurslari bozor tahlillari, marketing strategiyalari, iqtisodiy ko‘rsatkichlarni tahlil qilish va xalqaro tajribalarni o‘rganish imkonini beradi. Madaniyat yo‘nalishida esa raqamlashtirilgan meros — qo‘lyozmalar, fotosuratlar, tarixiy hujjatlar va san’at asarlari — milliy o‘zlikni saqlash va targ‘ib qilishda beqiyos ahamiyatga ega. Shu bilan birga, elektron resurslardan foydalanish jarayonida bir qator tizimli muammolar mavjud: infratuzilmaning ayrim hududlarda yetarli emasligi, xalqaro bazalarga kirish uchun yuqori moliyaviy xarajatlar, foydalanuvchilarning raqamli ko‘nikmalarining pastligi va kutubxonalar o‘rtasida axborot almashinuvi mexanizmlarining sustligi. Ushbu muammolarni hal etish uchun davlat dasturlari doirasida kutubxona infratuzilmasini modernizatsiya qilish, xalqaro grantlar va konsorsiumlar bilan hamkorlikni kengaytirish, xodimlarning malakasini oshirish hamda ilmiy-texnik loyihalarni qo‘llab-

quvvatlash zarur. Yana bir muhim yo‘nalish – bu sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etishdir. Sun’iy intellekt yordamida foydalanuvchilarning qidiruv odatlari tahlil qilinib, ularning ehtiyojlariga mos resurslar avtomatik tarzda tavsiya etilishi mumkin. Bunday “aqlli kutubxona” modeli foydalanuvchilarga vaqtni tejash, eng kerakli ma’lumotni topish va individual bilim olish imkonini beradi.

Kelajakda kutubxonalar “raqamli ekotizim” sifatida jamiyatning barcha qatlamlari bilan integratsiyalashgan holda faoliyat yuritadi. Ular ilmiy tadqiqotlarni tezlashtiradi, ta’lim sifatini oshiradi, madaniy merosni asraydi va biznes subektlarini ishonchli axborot bilan ta’minlaydi. Shu jihatdan, kutubxonalarning ijtimoiy roli yanada kengayadi — ular nafaqat ma’lumot tarqatuvchi, balki innovatsiya yaratuvchi muassasaga aylanadi.

So‘nggi yillarda butun dunyoda elektron axborot resurslaridan foydalanish bo‘yicha yondashuvlar tubdan o‘zgarib bormoqda. AQSH, Janubiy Koreya, Singapur va Yevropa mamlakatlarida kutubxonalar ilmiy va biznes hamkorlik markazlariga aylangan. Masalan, Yevropa Ittifoqining “OpenAIRE” platformasi ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar va tadqiqot natijalarini ochiq tarzda saqlash va ulardan erkin foydalanish imkonini beradi. Bunday ochiq ma’lumotlar ekotizimi ilm-fanning rivojlanishini tezlashtiradi, natijalarni baham ko‘rish va takroriy tadqiqotlardan qochishga yordam beradi.

O‘zbekiston uchun ham shunday tizimlarni joriy etish nihoyatda muhimdir. Bugungi kunda Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti kutubxonasi, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, shuningdek, viloyat axborot-kutubxona markazlarida elektron katalog va ma’lumotlar bazalari kengayib bormoqda. Shu bois, yagona milliy elektron kutubxona konsorsiumini yaratish – dolzarb vazifalardan biridir.

Bu konsorsium orqali nafaqat ilmiy va o‘quv resurslar, balki biznes axborot manbalari, marketing tadqiqotlari, sanoat yangiliklari ham bir tizimda jamlanishi mumkin. Bu esa tadbirkorlar, investorlar va startaplar uchun ishonchli ma’lumot manbai vazifasini bajaradi. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida ma’lumot – eng qimmat resursga aylanib borayotgan bir davrda, kutubxonalar ushbu resursni tahlil qilish va foydalanuvchiga yetkazishda muhim o‘ringa ega. Elektron resurslarning yana bir ustun jihati — statistik tahlil imkoniyatlarining mavjudligidir. Kutubxona xodimlari foydalanuvchilarning eng ko‘p murojaat qilgan mavzulari, vaqt oralig‘i, so‘rov turlari va foydalanish chastotasini avtomatik tarzda kuzatib borishlari mumkin. Bu ma’lumotlar keyingi rejalashtirishda, fondni boyitishda va foydalanuvchi ehtiyojiga mos xizmatlar yaratishda muhim ahamiyatga ega. Kutubxonachilarning kasbiy tayyorgarligi ham bu jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. Elektron resurslardan foydalanish, ma’lumotlarni indeksatsiya qilish, metama’lumotlar bilan ishlash, axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha maxsus malaka oshirish dasturlari yo‘lga qo‘yilishi lozim. Bugungi kunda EIFL (Electronic Information for Libraries) xalqaro tashkiloti tomonidan o‘tkazilayotgan treninglar va grant dasturlari bu yo‘nalishda katta imkoniyatlar yaratmoqda. O‘zbekiston kutubxonachilari ham ushbu tashabbuslarda faol ishtirok etish orqali o‘z malakasini oshirib, global axborot maydoniga kirib borish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar. Shuningdek, kutubxona marketingi masalasi ham e’tibordan chetda qolmasligi lozim. Elektron axborot resurslarining mavjudligini keng jamoatchilikka yetkazish, foydalanuvchilar orasida targ‘ib qilish, ijtimoiy tarmoqlar, veb-saytlar va mobil ilovalar orqali reklama qilish – samaradorlikni oshiruvchi asosiy omillardandir. Har bir foydalanuvchi o‘z sohasiga mos resurslar borligini bilishi kerak. Shu maqsadda kutubxonalarda “Elektron resurslar haftaligi”, “Raqamli savodxonlik kuni”, “Onlayn o‘qish marafoni” kabi tadbirlarni yo‘lga qo‘yish foydali natijalar beradi.

Raqamli texnologiyalar tez sur’atda rivojlanayotgan hozirgi davrda kutubxonalar sun’iy intellekt yordamida avtomatik kataloglashtirish, matn tanib olish (OCR), ko‘p tilli tarjima tizimlari, audio-kitoblar ishlab chiqish kabi funksiyalarni kengaytirishi mumkin. Bu texnologiyalar nogironligi bo‘lgan foydalanuvchilar uchun ham teng imkoniyat yaratadi

Masalan, ko‘zi ojizlar uchun ovozli resurslar, eshitishida nuqsoni bo‘lganlar uchun subtitrli

video materiallar yaratish orqali inklyuziv axborot muhiti shakllanadi.Bundan tashqari, ekologik jihatdan ham elektron resurslardan foydalanish foydalidir. An’anaviy bosma nashrlar sonini kamaytirish orqali qog‘oz sarfi, tashish va saqlash xarajatlari qisqaradi. Bu esa “yashil kutubxona” konsepsiyasiga mos keladi va barqaror rivojlanish maqsadlariga hissa qo‘shadi.

Raqamli transformatsiya jarayonida kutubxonalar oldida turgan yana bir muhim vazifa — ochiq ma’lumotlar (Open Data) siyosatini qo‘llab-quvvatlash va ilmiy natijalarni ochiq platformalarda joylashtirishni rag‘batlantirishdir. Dunyo tajribasida ilmiy maqolalar, grant loyihalari, tadqiqot hisobotlari va statistik ma’lumotlarning ochiq bazalarda e’lon qilinishi ilmiy raqobatbardoshlikni oshirmoqda. Bu jarayon ayniqsa Yevropa hududida keng rivojlangan bo‘lib, OpenAIRE platformasi orqali minglab ilmiy ishlar erkin foydalanishga taqdim etilgan. Bunday tajribani milliy miqyosda ham kengaytirish, oliy ta’lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda ochiq arxivlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli kutubxona tizimlarida “bulutli texnologiyalar”dan foydalanish ham samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Bulutli saqlash tizimlari katta hajmdagi ma’lumotlarni xavfsiz saqlash, tezkor yangilash va masofadan turib boshqarish imkonini beradi. Bu ayniqsa hududiy kutubxonalar uchun qulay bo‘lib, ularning texnik imkoniyatlarini tenglashtirishga xizmat qiladi. Yagona bulutli infratuzilma orqali barcha viloyat axborot-kutubxona markazlari o‘z resurslarini markazlashgan holda boshqarishi mumkin.

Shuningdek, kutubxonalarda ma’lumotlar analitikasi (data analytics) asosida boshqaruv tizimini joriy etish dolzarbdir. Foydalanuvchilarning qidiruv odatlari, yuklab olingan materiallar statistikasi, eng ko‘p o‘qilayotgan mavzular tahlili asosida fondni boyitish strategiyasini ishlab chiqish mumkin. Bu esa resurslarni rejalashtirishda aniq va samarali qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Raqamli boshqaruv modeli kutubxona faoliyatini shaffof va natijador tizimga aylantiradi.

Innovatsion rivojlanishning yana bir istiqbolli yo‘nalishi — “maker space” va kovorking zonalarini tashkil etishdir. Zamonaviy kutubxonalar faqat o‘qish joyi emas, balki g‘oya va loyihalar yaratiladigan kreativ maydonga aylanmoqda. 3D-printerlar, multimedia studiyalar, startaplar uchun maslahat burchaklari tashkil etilishi yoshlar va tadbirkorlar uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Bu orqali kutubxonalar innovatsion ekotizimning faol ishtirokchisiga aylanadi.

Raqamli xavfsizlik masalasi ham alohida e’tibor talab etadi. Elektron ma’lumotlar bazalarida foydalanuvchi ma’lumotlarini himoya qilish, kiberxavfsizlik choralarini kuchaytirish, litsenziyalangan dasturiy ta’minotdan foydalanish — ishonchli axborot muhitini yaratishning asosiy shartidir. Axborot xavfsizligi siyosati aniq me’yoriy hujjatlar asosida yo‘lga qo‘yilishi zarur.

Shu bilan birga, kutubxonalarning ijtimoiy missiyasi ham kengayib bormoqda. Raqamli platformalar orqali masofaviy xizmat ko‘rsatish, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun moslashtirilgan interfeyslar yaratish, turli yosh toifalari uchun maxsus kontent ishlab chiqish — ijtimoiy inklyuzivlikni ta’minlaydi. Ayniqsa, sun’iy intellekt asosidagi ovozli yordamchilar va avtomatik tarjima tizimlari turli til va imkoniyatga ega foydalanuvchilar o‘rtasidagi axborot to‘siqlarini kamaytiradi.

Kelgusida O‘zbekistonda yagona milliy raqamli kutubxona ekotizimini yaratish strategik ahamiyatga ega. Bu tizim orqali barcha oliy ta’lim muassasalari, ilmiy markazlar, arxivlar va muzeylar o‘z resurslarini integratsiyalashgan platformada taqdim etishi mumkin. Natijada, ilmiy hamkorlik kuchayadi, resurslar takrorlanishi kamayadi va iqtisodiy samaradorlik ortadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, elektron axborot resurslaridan samarali foydalanish nafaqat kutubxona sohasining rivojlanishi, balki jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish, raqamli iqtisodiyotga o‘tish va ilm-fan, ta’lim, madaniyat hamda biznesning barqaror o‘sishiga xizmat qiluvchi strategik omildir. Shu sababli, bu yo‘nalishda milliy siyosatni mustahkamlash, kutubxonalar o‘rtasida yagona elektron tarmoq yaratish va foydalanuvchilar uchun ochiq, qulay hamda interaktiv axborot muhitini shakllantirish eng ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. Komilov, D. (2022). Elektron kutubxonalar va zamonaviy axborot texnologiyalari. Toshkent: Ilm-fan nashriyoti. [Online: https://elibrary.uz/elektron-kutubxonalar]
2. Nazarov, I. (2021). Kutubxonalar faoliyatida raqamli transformatsiyaning o‘rni. Toshkent: Fan nashriyoti. [Online: https://elibrary.uz/raqamli-transformatsiya]
3. EIFL. (2023). Electronic Information for Librariyes: Supporting Open Access and Digital Literacy. [Online: https://www.eifl.net/resourcyes/open-accyess-and-digital-literacy]
4. O‘zbekiston Milliy kutubxonasi. (2024). Unilibrary.uz – Elektron ma’lumotlar bazasi orqali ilmiy resurslardan foydalanish imkoniyatlari. [Online: https://unilibrary.uz/resources]

YANGI O‘ZBEKISTONDA NOGIRONLIGI BO‘LGAN SHAXSLARNI IJTIMOIY HIMOYA QILISH TIZIMINING RIVOJLANISHI: TARIXIY-HUQUQIY TAHLIL

TURSUNOV UKTAM SAYPULLAYEVICH

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: utursunov089@gmail.com

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish tizimining rivojlanishi tarixiy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda 2016–2025-yillar oralig‘ida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari va islohotlar asosida nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqiy maqomi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari hamda reabilitatsiya tizimining takomillashuvi yoritilgan. Natijalar ushbu sohada davlat siyosati izchil rivojlanib borayotganini ko‘rsatadi.

New Uzbekistan, persons with disabilities, social protection, rehabilitation, legal framework, social policy, inclusive society.

This article analyzes the historical and legal development of the social protection system for persons with disabilities in New Uzbekistan. It examines regulatory legal acts, state programs, and reforms adopted between 2016 and 2025, focusing on the legal status of persons with disabilities, mechanisms of social support, and improvements in the rehabilitation system. The results show that state policy in this area is steadily developing and strengthening.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

Yangi O‘zbekiston, nogironligi bo‘lgan shaxslar, ijtimoiy himoya, reabilitatsiya, normativ-huquqiy asoslar, ijtimoiy siyosat, inklyuziv jamiyat.

Новый Узбекистан, лица с инвалидностью, социальная защита, реабилитация, нормативно-правовая база, социальная политика, инклюзивное общество.

New Uzbekistan, persons with disabilities, social protection, rehabilitation, legal framework, social policy, inclusive society.

So‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy davlat tamoyillarini rivojlantirish, aholining zaif qatlamlarini, xususan nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonda nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquq va manfaatlarini ta’minlash, ularning jamiyat hayotida to‘liq ishtirok etishi uchun zarur huquqiy, tashkiliy va institutsional shart-sharoitlarni yaratish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda.

Mazkur yo‘nalishda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Xususan,

tibbiy-ijtimoiy ekspertiza tizimining modernizatsiyasi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash jamg‘armalarining tashkil etilishi, “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi hamda Ijtimoiy himoya milliy agentligining faoliyati ushbu sohadagi institutsional islohotlarning muhim bosqichlarini tashkil etadi.

Shu bilan birga, nogironligi bo‘lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish, ularni zamonaviy tibbiy va texnik vositalar bilan ta’minlash, ta’lim va mehnatga jalb etish imkoniyatlarini kengaytirish masalalari ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa ijtimoiy himoya tizimining nafaqat huquqiy, balki amaliy samaradorligini oshirish zaruratini yuzaga keltiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Sog‘liqni saqlash vazirligining qarori, 2016 yil 16-yanvarda 2752 raqam bilan ro‘yxatdan o‘tgan qarorga asosan 16 yoshgacha bo‘lgan nogiron bolalarni tibbiy-mehnat ekspert komissiyalarida ko‘rikdan o‘tkazish qoidalari tasdiqlandi. Unga asosan, konsultativ xulosani sirtdan chiqarish huquqini beruvchi kasalliklar va patologik holatlar ro‘yxatida 34 ta kasallik ko‘rsatib, 5 bo‘limga ajratildi. Bular quyidagilardir:

I bo‘lim. Ichki a’zolar kasalliklari;

II bo‘lim. Asab tizimining kasalliklari va ruhiy buzilishlar;

III bo‘lim. Xirurgik kasalliklar va anatomik nuqsonlar hamda deformasiyalar;

IV bo‘lim. Ko‘z va uning qo‘shimcha apparati kasalliklari va jarohatlari;

V bo‘lim. Quloq, tomoq va burun kasalliklari[1].

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilgan islohotlar davrida nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda ularning jamoat birlashmalariga nisbatan davlat e’tibori kuchaydi. Shundan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2018 yil 9 martdagi 190-sonli qarori bilan “O‘zbekiston Respublikasi Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligining Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi to‘g‘risida” gi Nizomi tasdiqlandi. Jamg‘armaning mablag‘lari nogironligi bo‘lgan shaxslarni protez-ortopediya buyumlari, texnik reabilitasiya vositalari va kreslo-aravachalar bilan ta’minlash, ularni ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari faoliyatiga ko‘maklashish va ixtisoslashtirilgan ish o‘rinlarini tashkil etishga sarflanishi belgilandi[2].

2020-yil 15-oktyabr kuni “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. 49-moddadan iborat bo‘lgan mazkur Qonun bilan avvalgisidan farqli ravishda ish beruvchining aybi bilan mehnatda mayib bo‘lgan yoki kasb kasalligiga chalingan nogironligi bo‘lgan shaxslar tibbiy ko‘rsatmalarga binoan ish beruvchining (tashkilotning tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’iy nazar) mablag‘lari hisobidan reabilitasiya qilishning texnik va maxsus transport vositalari bilan ta’minlanishi ko‘zda tutildi[3].

2023-yil 1-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-82-son farmoni imzolandi. Ushbu hujjatga muvofiq Prezident huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. Uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri boshqarmalari hamda tuman, shaharlarda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari tashkil etildi. Agentlik o‘z faoliyatini boshqa davlat organlari va tashkilotlari, ularning mansabdor shaxslaridan mustaqil ravishda amalga oshiradi[4].

Nogironligi bo‘lgan odamlar uchun to‘g‘ri ovqatlanish sog‘liqni tiklashga yordam beradigan muhim jihatlardan biridir. To‘g‘ri ovqatlanish nafaqat sog‘liq masalasi, balki hayot sifatini oshirishga ham xizmat qiladi. Oziq-ovqat tanlash va parhezga to‘g‘ri yondashuv nogironligi bo‘lgan odamlarning umumiy salomatligi va kayfiyatini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin. Bundan tashqari, muvozanatli ovqatlanish quvvatni oshiradi va kayfiyatni yaxshilaydi. Nogironligi bo‘lgan odamlar uchun muvozanatli ovqatlanish tarkibida oqsil, vitaminlar va mikroelementlarga boy oziq-ovqatlar bo‘lishi kerak. Oqsil yetishmasligi energiya yo‘qotilishiga, organlar va miya faoliyatining buzilishiga va immunitetning pasayishiga olib kelishi mumkin, bu esa kasalliklarning kuchayishiga olib keladi.

Sifatli oziq-ovqatlarning nogironligi bor kishilar sog‘ligini ta’minlashda muhim o‘rin

tutishini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2025-yil 19-mart kuni “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni parvarish qilish uchun mo‘ljallangan tibbiy buyumlar hamda Nogironligi bo‘lgan bolalar uchun maxsus shifobaxsh oziq-ovqat mahsulotlarining ro‘yxatlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 175-son qarorini chiqardi. Qarorga muvofiq, Nogironligi bo‘lgan shaxslarni parvarish qilish uchun mo‘ljallangan 30 turdagi tibbiy buyumlar va 8 xildagi oziq-ovqatlar ro‘yxati belgilandi[5].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Yangi O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish tizimi izchil rivojlanib, bosqichma-bosqich takomillashib bormoqda. Ushbu jarayonda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va davlat dasturlari nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini ta’minlash, ularni ijtimoiy hayotga keng jalb etish hamda munosib turmush sharoitlarini yaratishga xizmat qilmoqda.

Ayniqsa, tibbiy-ijtimoiy ekspertiza tizimining modernizatsiyasi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash jamg‘armalarining tashkil etilishi, maxsus qonunchilik bazasining shakllanishi hamda Ijtimoiy himoya milliy agentligining faoliyati sohada institutsional yondashuvning kuchayganini ko‘rsatadi. Bu esa nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun reabilitatsiya, ta’lim va mehnatga yo‘naltirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. 16 yoshgacha bo‘lgan nogiron bolalarni tibbiy-mehnat ekspert komissiyalarida ko‘rikdan o‘tkazish Qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016-y., 3-son, 27-modda // https://lex.uz/docs/-2874678
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 09.03.2018 yil 9-martdagi 190-son “O‘zbekiston Respublikasi Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligining Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 12.03.2018-y., 09/18/190/0877-son // https://lex.uz/docs/-3582441
3. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.10.2020-y., 03/20/641/1389-son // https://lex.uz/docs/-5049511
4. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.06.2023-y., 06/23/82/0327-son // https://lex.uz/ru/docs/-6480342
5. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.03.2025 y., 09/25/175/0268-son // https://lex.uz/docs/7443868

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA QURILISH SOHASIDA ME’YORIY-HUQUQIY ASOSLAR VA SOHADA KADRLAR FAOLIYATI TAHLILI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)

MIRZAYEV HUSNIDDIN XOLMO‘MINOVICH

Termiz davlat pedagogika instituti Tarix kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Mazkur maqolada mustaqillik yillarida O‘zbekistonda qurilish sohasining me’yoriy-huquqiy asoslari va Surxondaryo viloyati misolida soha kadrlarining faoliyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda qurilish tizimini tartibga soluvchi qonunlar, Prezident farmon va qarorlari hamda ularning amaliy ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, hududiy kadrlarning kasbiy shakllanishi, lavozimlar bo‘yicha o‘sish dinamikasi va boshqaruv tizimidagi o‘rni biografik ma’lumotlar asosida tahlil etiladi. Natijada qurilish sohasi rivojida huquqiy islohotlar va kadrlar salohiyatining o‘zaro bog‘liqligi ilmiy jihatdan asoslanadi.

В данной статье анализируются нормативно-правовые основы строительной отрасли в Узбекистане в годы независимости и деятельность кадров на примере Сурхандарьинской области. Рассматриваются законы, указы и постановления Президента, регулирующие строительную сферу, а также их практическое значение. Также на основе биографических данных анализируется профессиональное становление кадров, динамика их карьерного роста и роль в системе управления. В результате научно обосновывается взаимосвязь правовых реформ и кадрового потенциала в развитии строительной отрасли.

This article analyzes the normative-legal framework of the construction sector in Uzbekistan during the years of independence and examines personnel activities using Surkhandarya region as an example. It explores laws, presidential decrees, and resolutions regulating the construction sphere and their practical significance. Based on biographical data, the study also analyzes the professional development of personnel, career progression, and their role in the management system. As a result, the interrelation between legal reforms and human resource potential in the development of the construction sector is scientifically substantiated.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

qurilish sohasi, me’yoriy-huquqiy asoslar, kadrlar siyosati, Surxondaryo viloyati, urbanizatsiya, davlat boshqaruvi, infratuzilma rivoji.

строительная отрасль, нормативно-правовая база, кадровая политика, Сурхандарьинская область, урбанизация, государственное управление, развитие инфраструктуры.

construction sector, legal framework, personnel policy, Surkhandarya region, urbanization, public administration, infrastructure development.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida, xususan, qurilish sohasida ham keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Ushbu jarayonlar hududiy infratuzilmani modernizatsiya qilish, shahar va qishloq aholi punktlarini obodonlashtirish hamda zamonaviy me’morchilik va qurilish standartlarini joriy etish bilan bevosita bog‘liq bo‘ldi. Ayniqsa, Surxondaryo viloyatida qurilish sohasi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning muhim drayverlaridan biriga aylandi.

Mazkur sohada samarali natijalarga erishishda kadrlar salohiyati, ularning kasbiy tayyorgarligi, boshqaruv tajribasi hamda amaliy faoliyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Qurilish tizimida faoliyat yuritgan mutaxassislarning mehnat yo‘li nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta’minlagan, balki hududiy rivojlanish strategiyalarini amalga oshirishda ham muhim rol o‘ynagan.

Surxondaryo viloyatida qurilish sohasi kadrlarining shakllanishi va rivojlanishi turli davrlarda turli bosqichlarni bosib o‘tdi. Ularning bir qismi texnik va muhandislik ta’limi asosida yetishib chiqqan bo‘lsa, boshqalari iqtisodiy boshqaruv va davlat xizmatida to‘plagan tajribasi orqali yuqori lavozimlarga erishgan. Ushbu jarayonlar kadrlar harakatchanligi va professional o‘sish dinamikasini yaqqol namoyon etadi.

O‘zbekiston Respublikasida qurilish sohasini rivojlantirish va uni zamonaviy talablar darajasiga olib chiqish bevosita mustahkam huquqiy baza shakllantirilishi bilan bog‘liq. Mazkur yo‘nalishda qabul qilingan qonunlar, Prezident farmon va qarorlari sohaning institutsional asoslarini mustahkamlash, kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Xususan, “O‘zbekiston Respublikasi qurilish sohasi xodimlari kunini belgilash to‘g‘risida”gi Qonun qurilish sohasi vakillarining mehnatini e’tirof etish va ularning ijtimoiy maqomini oshirishga qaratilgan muhim huquqiy asos hisoblanadi. Bu esa soha xodimlarining motivatsiyasi va kasbiy nufuzini oshirishga xizmat qiladi.

Prezidentning 2018-yil 22-fevraldagi qarori iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida loyiha ishlari hamda muhandis-loyihalovchilarni

tayyorlash tizimini takomillashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, qurilish sohasida malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bu hujjat kadrlar siyosatini modernizatsiya qilishda muhim bosqich bo‘lib, amaliy va ilmiy yondashuvni kuchaytiradi.

2003-yil 7-maydagi farmon kapital qurilish sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan bo‘lib, qurilish jarayonlarida bozor mexanizmlarini joriy etish va samaradorlikni oshirishni nazarda tutadi. Bu hujjat qurilish tizimida boshqaruvning yangi bosqichini boshlab bergan normativ asoslardan biridir.

2017-yil 1-maydagi farmon Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi faoliyatini tubdan takomillashtirish orqali soha boshqaruvida institutsional islohotlarni kuchaytirdi. Shu yili qabul qilingan mukofotlash to‘g‘risidagi farmon esa qurilish sohasi xodimlarini rag‘batlantirish va ularning mehnatini qadrlashga qaratilgan.

2018-yil 3-apreldagi farmon qurilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirishga xizmat qilib, boshqaruv jarayonlarini markazlashtirish va samaradorlikni oshirishni ko‘zda tutadi. 2018-yil 22-maydagi farmon esa loyiha va qurilish ishlarini amalga oshirish tartibini optimallashtirish orqali byurokratik to‘siqlarni kamaytirish va investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan.

2019-yil 10-yanvardagi farmon urbanizatsiya jarayonlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, shaharsozlik siyosatini modernizatsiya qilish, aholi yashash hududlarini rejalashtirish va infratuzilmani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Surxondaryo viloyatida qurilish sohasi kadrlarining faoliyati tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu yo‘nalishda faoliyat yuritgan mutaxassislarning kasbiy shakllanishi aniq biografik ma’lumotlarda qayd etilgan lavozimlar zanjiri asosida bosqichma-bosqich rivojlangan.

Bahodir Qarshievich Nazarov faoliyatida ishlab chiqarish va nazorat yo‘nalishidagi izchil o‘sish kuzatiladi. U 1994–2008 yillarda “Surxon kombinati”da nazoratchi, muhandis-texnolog hamda laboratoriya va texnika nazorati bo‘limi boshlig‘i lavozimlarida ishlagan. Keyinchalik 2008–2009 yillarda viloyat davlat arxitektura-qurilish nazorati inspeksiyasida muhandis-laborant va bosh mutaxassis, 2009–2015 yillarda esa qurilishda standartlashtirish va sertifikatlash bo‘limida yetakchi mutaxassis bo‘lib faoliyat yuritgan. 2015 yildan boshlab viloyat hokimligi tizimi va inspeksiya rahbarlik lavozimlariga o‘tgan.

Panji Qobilovich Tangriyevning mehnat faoliyati moliya va boshqaruv tizimi bilan bog‘liq holda rivojlangan. U 1991–1992 yillarda Angor tuman moliya bo‘limida iqtisodchi, keyinchalik taftishchi-nazoratchi va bosh iqtisodchi lavozimlarida ishlagan. 1994–1997 yillarda moliya bo‘limi mudiri o‘rinbosari, 1997–2000 yillarda viloyat moliya boshqarmasi rahbar o‘rinbosari darajasiga ko‘tarilgan. 2000–2004 yillarda viloyat moliya boshqarmasi boshlig‘i, 2004–2009 yillarda esa hokim o‘rinbosari sifatida faoliyat yuritgan. Keyingi yillarda Boysun tumani hokimi (2009–2014) va turli boshqaruv hamda kommunal soha lavozimlarida ishlagan.

Ashur Vahobovich Ismoilovning faoliyatida ishlab chiqarish korxonalari boshqaruvi asosiy o‘rin tutadi. U 2000–2007 yillarda “Termizsanoatfuqarqurilish” MChJ ishlab chiqarish bo‘limi boshlig‘i, 2007–2008 yillarda “Termizsanoatbeton” MChJ, 2008–2009 yillarda “Garob-Shifo” MChJ ishlab chiqarish bo‘limi rahbari sifatida ishlagan. 2009 yildan boshlab “Jayhun Oks qurilish binkor” MChJ rahbari lavozimida faoliyat yuritmoqda.

Alisher Tursunpulatovich Salohitdinov faoliyatida esa muhandislik, tuman boshqaruvi va viloyat darajasidagi qurilish tizimi lavozimlari ketma-ketligi kuzatiladi. U 1996–1999 yillarda mexanizatsiyalashgan qurilish jamlanmasida bosh muhandis, 1999–2001 yillarda tuman arxitektura bo‘limi boshlig‘i, 2001–2003 yillarda hokim o‘rinbosari, 2009–2012 yillarda Muzrabot tumani hokimi o‘rinbosari sifatida ishlagan. 2013–2016 yillarda Termiz shahar hokimi bo‘lgan va 2017 yildan boshlab viloyat qurilish boshqaruvi hamda bank tizimi yo‘nalishida faoliyat yuritgan.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida qurilish sohasi bo‘yicha amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar ushbu tarmoqning huquqiy, tashkiliy va institutsional asoslarini tubdan yangiladi. Qabul qilingan qonunlar, Prezident farmon va qarorlari qurilish jarayonlarini tartibga solish, davlat boshqaruvi

tizimini modernizatsiya qilish hamda urbanizatsiya jarayonlarini samarali boshqarishga xizmat qildi.

Surxondaryo viloyati misolida o‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, qurilish sohasi kadrlarining shakllanishi va rivojlanishi me’yoriy-huquqiy islohotlar bilan bevosita bog‘liq holda kechgan. Kadrlar faoliyati bosqichma-bosqich rivojlanib, ishlab chiqarish, muhandislik-texnik, iqtisodiy hamda davlat boshqaruvi yo‘nalishlarida shakllangan. Bu jarayon ularning kasbiy kompetensiyasi va boshqaruv salohiyatining oshishiga xizmat qilgan.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Қонуни. “Ўзбекистон Республикаси қурилиш соҳаси ходимлари кунини белгилаш тўғрисида”.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 22 февралдаги “Иқтисодиёт базавий тармоқларидаги лойиҳа ишларини ҳамда муҳандис-лойиҳаловчиларни тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори.
3. Ўзбекистон Республикаси биринчи Президентининг 2003 йил 7 майдаги “Капитал қурилишда иқтисодий ислоҳотларни янада чуқурлаштиришнинг асосий йўналишлари тўғрисида”ги Фармони.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 1 майдаги “Ўзбекистон Республикаси Давлат архитектура ва қурилиш қўмитаси фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 10 августдаги “Мамлакатимиз қурилиш соҳаси ходимларидан бир гуруҳини мукофотлаш тўғрисида”ги Фармони.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 3 апрелдаги “Қурилиш соҳасида давлат бошқаруви тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 22 майдаги “Капитал қурилишда лойиҳа ва қурилиш ишларини амалга ошириш тартибини оптималлаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 10 январдаги “Урбанизация жараёнларини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони.
9. Сурхон воҳаси қурувчи бунёдкорлари тарихидан. Тузувчи му аллифлар С. Турсунов ва бошқ. Маъсул муҳаррир Т.Пардаев. – Тошкент: «Yosh avlod matbaa», 2022. – 162 б.

MUSTAQILLIK YILLARIDA SURXONDARYO VILOYATI ICHKI ISHLAR IDORALARIDA KADRLAR SALOHIYATI

SUVONOV JAMSHID MASHRAB O‘G‘LI

Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
suvonovjamshid1993@gmail.com

Annotatsiya / Аннотация / Abstract
Mazkur maqolada mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyati ichki ishlar idoralari tizimida kadrlar salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari tarixiy manbalar hamda arxiv hujjatlari asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda xizmatga nomzodlarni tanlab olish tizimi, xodimlarning jismoniy va intellektual tayyorgarligini takomillashtirish, kasbiy mahoratini oshirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, chet tillarini o‘qitish hamda ustoz-shogird an’analarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, ichki ishlar idoralari xodimlarining salomatligini muhofaza qilish, sport va kasbiy tanlovlar orqali malakali kadrlarni rag‘batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarning natijalari ochib berilgan.

В данной статье на основе исторических источников и архивных документов проанализированы процессы формирования и развития кадрового потенциала в системе органов внутренних дел Сурхандарьинской области в годы независимости. В исследовании освещены вопросы отбора кандидатов на службу, совершенствования физической и интеллектуальной подготовки сотрудников, повышения их профессионального мастерства, внедрения современных информационно-коммуникационных технологий, обучения иностранным языкам, а также развития традиций наставничества. Кроме того, раскрыты результаты мероприятий, направленных на охрану здоровья сотрудников органов внутренних дел, а также на стимулирование квалифицированных кадров посредством спортивных и профессиональных конкурсов.

This article analyzes the processes of formation and development of personnel capacity in the system of internal affairs bodies of Surkhandarya region during the years of independence based on historical sources and archival documents. The study highlights the system of recruiting candidates for service, improving the physical and intellectual training of personnel, enhancing professional skills, introducing modern information and communication technologies, teaching foreign languages, and strengthening mentorship traditions. In addition, the article reveals the outcomes of measures aimed at protecting the health of internal affairs personnel and encouraging qualified staff through sports and professional competitions.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

Surxondaryo viloyati, ichki ishlar idoralari, kadrlar salohiyati, kadrlar siyosati, professional tayyorgarlik, malaka oshirish, chet tillarini o‘qitish.

Сурхандарьинская область, органы внутренних дел, кадровый потенциал, кадровая политика, профессиональная подготовка, повышение квалификации, обучение иностранным языкам.

Surkhandarya region, internal affairs bodies, personnel capacity, personnel policy, professional training, advanced training, foreign language education.

O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar idoralari tizimida kadrlar salohiyatini yuksaltirish va xizmatga munosib nomzodlarni tanlab olish jarayoni 2000-yillarning o‘rtalariga kelib yangi sifat bosqichiga ko‘tarildi. Xususan, Surxondaryo viloyati va respublikaning boshqa hududlarida bu jarayon shaffoflik, adolat va qat’iy mezonlar asosida tashkil etildi. Ma’lumotlarga ko‘ra, tizimga nomzodlarni saralashda nafaqat jismoniy tayyorgarlik, balki intellektual salohiyat va ma’naviy yetuklik birlamchi talab etib belgilandi.

O‘rganilayotgan davrda nomzodlarning kasbiy mahoratini shakllantirish quyidagi faktik ko‘rsatkichlar va tartib-taomillar orqali amalga oshirilgan:

1. Jismoniy tayyorgarlik. Nomzodlarning jismoniy sog‘lomligi va tashqi ko‘rinishi qat’iy natsional va sohaviy standartlarga muvofiqlashtirildi. Bunda:

Bo‘y o‘lchami: Erkaklar uchun kamida 170 sm, ayollar uchun esa 165 sm etib belgilandi. Maxsus bo‘linmalar (masalan, yo‘l-patrul xizmati) uchun esa bu ko‘rsatkich 180 smdan kam bo‘lmasligi talab etilgan.

Normativlar: Jismoniy chiniqishni tekshirishda erkaklar uchun turnikda tortilish (14 tadan yuqori "a’lo"), 100 metrga yugurish (13, 5 soniyadan kam "a’lo") va 3000 metrga yugurish (12, 01 daqiqadan kam "a’lo") kabi murakkab sinovlar o‘rnatilgan. Ayollar uchun esa kompleks kuch ishlatish mashqlari va 1000 metrga yugurish (4, 15 daqiqadan kam "a’lo") mezonlari qo‘llanilgan.

2. Intellektual salohiyat. Xodimlarning intellektual darajasini aniqlash maqsadida jami 108 ta savoldan iborat kompleks test sinovlari joriy etilgan. Ushbu testlar uchta asosiy yo‘nalishni qamrab olgan:

Umumta’lim fanlari: Dunyoqarash va umumiy bilimlarni aniqlash uchun 36 ta savol (har bir to‘g‘ri javob uchun 1, 1 ball).

Ma’naviy-axloqiy va siyosiy tayyorgarlik: Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni tushunish darajasini baholash uchun 36 ta savol (har bir to‘g‘ri javob uchun 2, 1 ball).

Mantiqiy fikrlash va psixologik barqarorlik: Kasbiy layoqatni aniqlash uchun 36 ta savol (har bir to‘g‘ri javob uchun 3, 1 ball).

Sinovlarning umumiy maksimal balli 226, 8 ballni tashkil etgan bo‘lib, bu tizim nomzodlarning tahliliy fikrlash qobiliyatiga berilayotgan yuqori e’tiborni ko‘rsatadi.

3. Jamoatchilik nazorati. Surxondaryo viloyatida ham tanlov jarayonlari "Mahalla", "Kamolot" (hozirgi Yoshlar ittifoqi), "Nuroniy" jamg‘armalari, xotin-qizlar qo‘mitalari vakillari hamda nomzodlarning ota-onalari ishtirokida ochiq-oshkora o‘tkazilgan. Bu esa "tanish-bilishchilik" va "oshna-og‘aynigarchilik" kabi salbiy holatlarning oldini olishda muhim ijtimoiy to‘siq bo‘lib xizmat qildi.

4. Kasbiy mahorat. Tanlovdan muvaffaqiyatli o‘tgan nomzodlar darhol xizmatga jalb etilmay, uch oylik maxsus tayyorgarlik o‘quv kurslariga yuborilgan. Ushbu kurslar davomida ularga huquqiy bilimlar, saf tayyorgarligi, jangovar va jismoniy mahorat sirlari o‘rgatilgan. Ayniqsa, Serjantlar tarkibini tayyorlash va malakasini oshirish markazlarining faoliyati ushbu jarayonda hal qiluvchi rol o‘ynagan[1].

2006-yil O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga Xitoy Xalq Respublikasining Favqulodda va Muxtor Elchisi Yuy Xunsyun rahbarligidagi delegatsiya tashrif buyurib, tizimni modernizatsiya qilishga qaratilgan orgtexnika va aloqa vositalari majmuasini beg‘araz tuhfa sifatida taqdim etgan. Ushbu delegatsiyani va taqdim etilgan texnik vositalarni O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining o‘rinbosari, polkovnik H. Ibragimov qabul qilib olgan. Yangi avlod kompyuter va aloqa vositalari xodimlarning axborot bilan ishlash madaniyatini oshirib, jinoyatchilikka qarshi kurashda an’anaviy usullardan zamonaviy, tezkor-tahliliy usullarga o‘tish imkonini berdi[2].

Ichki ishlar idoralari xodimlari sonining ortishi ularning salomatligini saqlash va jismoniy tayyorgarligini yuqori darajada ushlab turish masalasini kun tartibiga chiqardi. Taqdim etilgan manbalarga ko‘ra, bu borada IIV Markaziy gospitali negizida amalga oshirilgan islohotlar Surxondaryo viloyati IIB xodimlari salohiyatini mustahkamlashda ham tayanch vazifasini o‘tagan. 2000-yilda muassasa 402 bemorni qabul qilish quvvatiga ega bo‘ldi. 2009-yilda soha xodimlarining intellektual va jismoniy quvvatini tiklash uchun quyidagi ixtisoslashgan bo‘limlar xizmatidan keng foydalanildi:

- Xirurgiya va reanimatsiya: Umumiy jarrohlik, ko‘z kasalliklari, urologiya, travmatologiya va neyroxirurgiya bo‘limlarining faoliyati yo‘lga qo‘yildi.
- Diagnostika imkoniyatlari: MRT, kompyuter tomografiyasi, rentgenangiofiyografiya, endovaskulyar jarrohlik, exo-kardiografiya va EKG kabi zamonaviy usullar joriy etildi.
- Reabilitatsiya va fizioterapiya: 70 o‘rinli statsionar hamda 150 qabulga mo‘ljallangan bo‘limda sauna, suv osti massaji, tuzli vanna va igna bilan davolash usullari yo‘lga qo‘yildi. Bu infarkt va insult kasalliklaridan keyingi tiklanish jarayonlarida yuqori samara berdi[3].

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarini zamonaviy pedagogik axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qitish davr talabiga aylandi. Bu jarayon ichki ishlar idoralari tizimida ham o‘z aksini topib, xodimlarning professional tayyorgarligini tubdan isloh qilishda muhim omil bo‘ldi. Xususan, 2012-yil 10-dekabrdagi “Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-sonli qaror mamlakatimizda, jumladan, Surxondaryo viloyatida ham xorijiy tillarni puxta biladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqdi. Mazkur hujjat asosida ichki ishlar organlari xodimlarining intellektual salohiyatini oshirish maqsadida ta’lim standartlari CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) – ya’ni til bilishning umumevropa talablariga muvofiqlashtirildi[4].

Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 8-maydagi 124-sonli qarori[5] asosida viloyat miqyosidagi soha xodimlariga chet tillarini o‘rgatishda grammatik nazariyadan ko‘ra, muloqotga

asoslangan metodikaga ustuvorlik berildi. Bu xodimlarning xorijlik mutaxassislar bilan muzokara olib borish, internet ma’lumotlarini tahlil qilish va chet tilidagi adabiyotlarni o‘qib tushunish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qildi.

IIV Akademiyasida soha xodimlarini tayyorlashda o‘quv soatlari hajmi sezilarli darajada oshirildi. Xususan, chet tili faniga ajratilgan 216 soatlik dastur 254 soatga yetkazilib, kafedra shtat birliklari 5 taga ko‘paytirildi. Bunday o‘zgarishlar viloyat ichki ishlar xodimlarining malaka oshirish jarayonlarida ham o‘z in’ikosini topdi.

Barcha chet tili xonalari zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlandi. Masalan, an’anaviy lingafon xonalari zamonaviy kompyuter sinflariga aylantirilib, zarur adabiyotlar va dasturiy ta’minot bilan to‘ldirildi. Bu profilaktika inspektorlari va boshqa xodimlarning intellektual salohiyatini oshirishga sharoit yaratdi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2014-yil 31-martdagi 116-sonli buyrug‘i va O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi Respublika ilmiy-amaliy innovatsion markazi bilan hamkorlikda amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, viloyatdagi ko‘plab xodimlar ingliz tilini o‘rganish bo‘yicha malaka oshirishdi. Shuningdek, 2013-yil 15-martdagi IIV ko‘rsatmasiga binoan, professor-o‘qituvchilar tomonidan namunaviy-mavzuviy rejalar asosida mashg‘ulotlar o‘tkazilib, xodimlardan muntazam ravishda test sinovlari qabul qilish yo‘lga qo‘yildi[6].

Surxondaryo viloyati ichki ishlar idoralari tizimida kadrlarning professional tayyorgarligini oshirish va "ustoz-shogird" an’analarini mustahkamlash masalalari tadqiq etilayotgan davrning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu borada 2015-yilda O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi tinglovchilarining viloyat IIB bazasida o‘tayotgan ish o‘rganish amaliyoti doirasida soha faxriylari bilan tashkil etilgan uchrashuvlar alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday muloqotlar jarayonida faxriylar o‘zlarining hayotiy tajribalari bilan o‘rtoqlashib, yosh mutaxassislarga sohaning o‘ziga xos "sir-asrorlarini" tushuntirganlar hamda kelgusida yetuk xodim bo‘lib yetishish uchun tajribali xodimlardan unumli foydalanish va ulardan doimiy ravishda ish o‘rganish lozimligini ta’kidlaganlar. Viloyat IIB boshlig‘ining o‘rinbosari, podpolkovnik A. Tursunovning qayd etishicha, amaliyot o‘tayotgan tinglovchilar o‘zlariga biriktirilgan murabbiylar bilan hamkorlikda shahar hududida sodir etilayotgan jinoyatlarni ochishda, qidiruvdagi jinoyatchilarni topishda faol ishtirok etib, tergov harakatlari, tezkor-qidiruv va profilaktik tadbirlarda bevosita tajriba oshirdilar[7].

Mustaqillik yillarida ichki ishlar idoralari xodimlarining jismoniy tayyorgarligi va jangovar salohiyatini oshirish masalasi tizimli islohotlarning uzviy qismiga aylandi. Soha xodimlarining nafaqat xizmat vazifalarini bajarishda, balki nufuzli sport musobaqalarida ham faol ishtirok etishi ularning professional mahoratini mustahkamlashga xizmat qilganini ko‘rish mumkin. Buning yaqqol tasdig‘i sifatida Surxondaryo vohasining markazi – Termiz shahrida «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati markaziy kengashi tashabbusi bilan sharq yakka-kurashining «kombat aykido» turi bo‘yicha bolalar, o‘smirlar va kattalar o‘rtasida o‘tkazilgan mamlakat chempionatini keltirish o‘rinlidir. Mazkur nufuzli musobaqada Transportdagi IIB Toshkent temir yo‘l bekati tarmoq IIB reabilitatsiya etish markazi vzvod komandiri, kichik serjant Elyor Otaqulov respublika ichki ishlar idoralari sharafini munosib himoya qilib, tizimdagi jismoniy tayyorgarlik darajasi yuqori ekanligini amalda namoyon etdi. E.Otaqulov «kombat aykido»ning «nokdaun» yo‘nalishi bo‘yicha 65 kilogramm vazn toifasida dastlab qashqadaryolik sportchi bilan kurashib uni mag‘lub etdi, keyingi bosqichda esa samarqandlik yakka-kurash ustasi ustidan g‘alaba qozonib, o‘z mahoratini isbotladi. Yarim finalda navoiylik sportchiga imkoniyatni boy bergan bo‘lsa-da, uchinchi o‘rin uchun kechgan murosasiz bahsda murabbiylari o‘rgatgan usullarni mohirona qo‘llab, o‘z raqibini ochkolar bo‘yicha dog‘da qoldirdi va shohsupaning uchinchi pog‘onasidan joy oldi[8].

2015-yilda Ichki ishlar vazirligi miqyosida o‘tkazilgan “Eng yaxshi tergovchi” ko‘rik-tanlovining respublika bosqichi natijalari Surxondaryo viloyati ichki ishlar idoralari

kadrlar salohiyatining yuqori ekanligini amalda isbotladi. Mazkur tanlovda ishtirokchilarning shijoati va intiluvchanligi tahlil qilinib, “Eng yaxshi tergovchi” nominatsiyasi bo‘yicha Surxondaryo viloyati Boysun tumani IIB tergov guruhi katta tergovchisi, katta leytenant Samar Rashidov faxrli ikkinchi o‘rinni egalladi (ushbu o‘rinni Farg‘ona viloyati Qo‘qon shahar IIB vakili, katta leytenant Sohibjon Yo‘ldoshev bilan birgalikda egallagan)[9]. Tanlovning mutloq g‘olibligi xorazmlik leytenant Yusupjon Yusupovga nasib etgan bo‘lsa, uchinchi o‘rinlarni Qashqadaryo viloyati Koson tumani IIBdan katta leytenant Oybek Hayitov, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus shahar IIBdan katta leytenant Matirza Seytnazarov hamda Toshkent viloyati O‘rta Chirchiq tumani IIBdan leytenant Nigora Ashirmatovalar bo‘lishib olishdi[10].

Umuman olganda, Surxondaryo viloyati ichki ishlar idoralari tizimida kadrlar salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar xizmat faoliyatining samaradorligini oshirish, malakali mutaxassislarni tayyorlash hamda hududda jamoat xavfsizligi va huquq-tartibotni ta’minlashning institutsional asoslarini mustahkamlashga xizmat qilgan. Tadqiqot natijalari kelgusida ichki ishlar organlari tizimida kadrlar siyosatini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. Xizmatga munosiblar tanlab olindi // “Postda” gazetasi, 2006-yil 23-dekabr, №51 (3685)-son.
2. Xitoyliklar tuhfasi // "Postda" gazetasi. 2006-yil 12-avgust. – №32 (3666) -son.
3. Salomatlik yo‘lida sobitqadamlik // "Postda" gazetasi. 2009-yil 31-oktyabr. 44 (3834)-son.
4. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, 1091-fond, 1-ro‘yxat, 128-ish, 31-varaq.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 8-maydagi 124-son “Uzluksiz ta’lim tizimining chet tillar bo‘yicha davlat ta’lim standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. https://lex.uz/uz/docs/-2165717. Murojaat qilingan sana: 11.09.2024
6. Chet tillarni o‘rganish – zamon talabi // “Postda” gazetasi, 2015-yil 4-aprel, № 14 (4115).
7. “Postda” gazetasi, 2015-yil 18-aprel, № 16 (4117).
8. "Postda" gazetasi, 2015-yil 25-aprel. №17 (4118).
9. Surxondaryo viloyati ichki ishlar boshqarmasi hisobot materiallari. 2015-yil. 19-bet.
10. Surxondaryo viloyati ichki ishlar boshqarmasi hisobot materiallari. 2015-yil. 10-bet.

MUSTAQILLIK YILLARIDA SURXONDARYO VILOYATI ICHKI ISHLAR IDORALARI XODIMLARINING KASBIY VA INTELLEKTUAL SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

SUVONOV JAMSHID MASHRAB O‘G‘LI

Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
suvonovjamshid1993@gmail.com

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Annotatsiya: Mazkur maqolada mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyati ichki ishlar idoralari xodimlarining kasbiy va intellektual salohiyatini rivojlantirish jarayonlari tarixiy manbalar, arxiv hujjatlari hamda davriy matbuot materiallari asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda xodimlarning malakasini oshirish, xizmat tayyorgarligini takomillashtirish, huquqiy va tibbiy bilimlarini mustahkamlash, xalqaro huquq normalarini o‘zlashtirish hamda ma’naviy-axloqiy tarbiyasini yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlar yoritilgan.

В данной статье на основе исторических источников, архивных документов и материалов периодической печати проанализированы процессы развития профессионального мастерства и интеллектуального потенциала сотрудников органов внутренних дел Сурхандарьинской области в годы независимости. В исследовании освещены мероприятия,

направленные на повышение квалификации сотрудников, совершенствование служебной подготовки, укрепление их правовых и медицинских знаний, освоение норм международного права, а также повышение уровня духовно-нравственного воспитания.
This article analyzes the processes of developing the professional skills and intellectual potential of the employees of the internal affairs bodies of Surkhandarya region during the years of independence based on historical sources, archival documents, and periodical press materials. The study highlights measures aimed at improving employees’ qualifications, enhancing professional training, strengthening their legal and medical knowledge, mastering international legal norms, and promoting their moral and ethical development.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords
Kalit so‘zlar: Surxondaryo viloyati, ichki ishlar idoralari, intellektual salohiyat, malaka oshirish, profilaktika inspektori, militsiya tayanch punkti, xalqaro huquq normalari.
Сурхандарьинская область, органы внутренних дел, интеллектуальный потенциал, повышение квалификации, профилактический инспектор, опорный пункт милиции, нормы международного права.
Surkhandarya region, internal affairs bodies, intellectual potential, professional development, prevention inspector, police support station, international legal norms.

Surxondaryo viloyati ichki ishlar idoralari xodimlarining kasbiy mahoratini oshirish va intellektual salohiyatini mustahkamlash masalasi 2000-yillarning birinchi yarmida tizimli xarakterga ega bo‘lib, xodimlarning nafaqat jangovar tayyorgarligi, balki ularning tibbiy-profilaktik bilimlari va ma’naviy-axloqiy darajasini yuksaltirishga qaratilgan kompleks tadbirlar bilan tavsiflanadi. Xususan, 2004-yilda O‘zbekiston Respublikasi IIV Markaziy shifoxonasida Ichki qo‘shinlar Bosh boshqarmasiga qarashli harbiy qismlar tibbiyot xizmati boshliqlari uchun tashkil etilgan ikki kunlik uslubiy o‘quv seminari soha xodimlarining tibbiy ta’minotini yaxshilashda muhim bosqich bo‘ldi. Tadbirni IIV Ichki qo‘shinlar Bosh boshqarmasi tibbiyot bo‘limi boshlig‘i, podpolkovnik T. To‘rayev ochib berib, joriy yilda shaxsiy tarkib o‘rtasida kasalliklarning oldini olish borasida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar va kelgusidagi vazifalarga to‘xtalib o‘tdi. Seminar davomida IIV Sanitariya-epidemiologiya nazorati Bosh markazi bo‘lim boshlig‘i, podpolkovnik R. Kunishev tomonidan xodimlarga harbiy qismlarda epidemiologiyaga qarshi kurashish va profilaktika choralarini tashkil etish bo‘yicha atroflicha tushunchalar berildi. Mashg‘ulotlar yakunida ishtirokchilar xizmat jarayonida qo‘llaniladigan hujjatlar va kasalliklar profilaktikasi bo‘yicha olingan bilimlari yuzasidan test sinovlarini topshirdilar[1].

Surxondaryo viloyati ichki ishlar idoralari xodimlarining kasbiy malakasini oshirish va intellektual salohiyatini yuksaltirishda mintaqaviy hamkorlik hamda sohaga doir xalqaro huquqiy normalarni o‘zlashtirishga alohida e’tibor qaratildi. Xususan, 2005-yilning 10-fevralida Qarshi shahrida Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari IIBlarining tergov boshqarmalari bo‘lim, bo‘linma va guruh boshliqlari ishtirokida o‘tkazilgan mintaqaviy yig‘ilish bu boradagi amaliy tadbirlarning muhim bo‘lagi bo‘ldi. Qashqadaryo viloyati IIB boshlig‘i, polkovnik V.Xodjaev raisligida o‘tgan ushbu tadbirda Surxondaryo viloyati IIB boshlig‘i o‘rinbosari, podpolkovnik X.Shernaev, shuningdek, Qashqadaryo viloyati IIB boshlig‘i o‘rinbosarlari podpolkovnik R.Zohirov, mayor A.Muzaffarov hamda polkovnik Yu.Xudoyberganovlar ishtirok etib, xodimlarning o‘tgan 2004-yildagi faoliyati va joriy yildagi vazifalarini tahlil qildilar[2].

Yig‘ilishda xodimlarning intellektual salohiyatini oshirishning asosi sifatida ularning huquqiy bilimlarini boyitish masalasi ko‘rildi. Respublika IIV Tergov bosh boshqarmasi boshlig‘i, polkovnik A.Sharafutdinov va boshqarmaning mas’ul xodimi, polkovnik A.Sattorovlar o‘z ma’ruzalarida xodimlarning

“Huquqni muhofaza qilish idoralariga oid xalqaro hujjatlar to‘plami”ga kiritilgan, O‘zbekiston tomonidan tan olingan 75 ta xalqaro hujjat bo‘yicha bilimlarini mustahkamlash zarurligini ta’kidladilar. Shuningdek, xodimlarning fuqarolar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, murojaatlar bilan ishlashda inson huquqlari va erkinliklarini tushuntira olish mahoratini shakllantirish hamda soha vakillarining kasbiy mas’uliyatini oshirish bo‘yicha tizimli vazifalar belgilandi. Yakunda muhokama etilgan masalalar yuzasidan xodimlarning kasbiy mahoratini yanada yuksaltirishga xizmat qiluvchi tegishli qarorlar qabul qilindi[3].

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mustaqillik yillarida ichki ishlar idoralari xodimlarining jismoniy va intellektual salohiyatini oshirish maqsadida respublika bo‘yicha 3414 tadan ortiq militsiya tayanch punktlari barpo etilib, ular zamonaviy kompyuter va aloqa vositalari bilan jihozlandi. Xodimlarning jismoniy chiniqishi uchun 2485 ta militsiya tayanch punktlari infratuzilmasida sport maydonchalari, jumladan futbol, basketbol, voleybol maydonlari, havzalar, trenajyor xonalari tashkil etildi. 2088 ta militsiya tayanch punktlarida mahalla yoshlari uchun turli yo‘nalishdagi to‘garaklar, 2054 tasida esa kichik biznes xonalari, tikuv-bichuv, duradgorlik va milliy hunarmandchilik ustaxonalari ochildi. Surxondaryo viloyatidagi tayanch punktlari ham ushbu infratuzilma bilan ta’minlanib, xodimlarning xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga xizmat qildi[4].

2005-yil 29 yanvar kuni O‘zbek Milliy akademik drama teatrida O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar va Xalq ta’limi vazirliklari, Respublika Oqsoqollar kengashi va "Mahalla" xayriya jamg‘armasi, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi bilan hamkorlikda o‘tkazilgan "Namunali militsiya tayanch punktlari" respublika tanlovining yakuniy bosqichi va g‘oliblarni taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi. Shuni ta’kidlash joizki, bunday tanlovlar uch yildan beri 4 ta hudud bo‘yicha muntazam ravishda o‘tkazilgan. Tanlovlar "Jasorat ko‘rsatgan profilaktika inspektori", "Aholi o‘rtasida katta obro‘-e’tibor qozongan eng faol profilaktika inspektori", "Voyaga yetmaganlar bilan ishlash bo‘yicha eng faol profilaktika inspektori", "Eng faol mahalla oqsoqoli", "Eng faol mahalla posboni", "Eng faol diniy ma’rifat va ma’naviy axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslahatchi", "Ichki ishlar idoralari xodimining eng sadoqatli ayoli" nominatsiyalari bo‘yicha tashkil etilgan[5].

Tanlovda "Eng namunali militsiya tayanch punkti" nominatsiyasi bo‘yicha to‘rtta shartli hududning birinchisida g‘oliblik Toshkent shahar Sobir Rahimov tumani "Eski shahar" mahallasidagi 190-militsiya tayanch punktiga berildi.

Tanlovning ikkinchi hududi, ya’ni Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatlari bo‘yicha Andijon viloyati Qo‘rg‘ontepa tumanidagi 171-militsiya tayanch punkti g‘olib deb topildi.

Uchinchi hudud, ya’ni Samarqand, Sirdaryo, Jizzax, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari o‘rtasidagi bellashuvda g‘oliblikni Sirdaryo viloyati Sirdaryo shahar "7-Haqiqat" mahallasida joylashgan 14-militsiya tayanch punkti qo‘lga kiritdi.

To‘rtinchi hudud, ya’ni Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy va Xorazm viloyatlari bo‘yicha Navoiy viloyatining Zarafshon shahridagi "Geolog" mahallasida joylashgan 21-militsiya tayanch punkti eng namunali deb topildi.

G‘olib militsiya tayanch punktlari respublika Ichki ishlar vazirligi tomonidan ajratilgan "Damas" avtomashinasi bilan taqdirlandilar.

Mard o‘g‘lonning turmush o‘rtog‘i Zamira Bobojonova "Ichki ishlar idoralari xodimining eng sadoqatli ayoli" nominatsiyasi g‘olibi bo‘ldi. Shuningdek, Toshkent shahar Yakkasaroy tumani ichki ishlar boshqarmasida profilaktika inspektori bo‘lib ishlagan Mansur Turg‘unovning turmush o‘rtog‘i Zulayxo Samatova, Mirzo Ulug‘bek tumani ichki ishlar boshqarmasida profilaktika inspektori bo‘lib faoliyat ko‘rsatgan Erkin Samatovning turmush o‘rtog‘i Adolat Jumayeva, shu tumanda profilaktika inspektori bo‘lib ishlagan Muhiddin Amonovning turmush o‘rtog‘i Maqsuda Mingto‘rayeva, Toshkent viloyati, Piskent tumani ichki ishlar bo‘limida profilaktika inspektori bo‘lib xizmat qilgan Maxmud Abdullayevning turmush o‘rtog‘i Roxat Abdullayevalarga ham ana shu nominatsiya sovg‘alari nasib etdi.

Ko‘rik-tanlovning "Eng namunali militsiya tayanch punkti" nominatsiyasi bo‘yicha o‘rinlar quyidagicha taqsimlandi: ikkinchi o‘rin Qashqadaryo viloyati Koson tumani, "Ravot" mahallasidagi 67-sonli, Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumani Mirzo Ulug‘bek nomli mahalladagi 239-sonli, Buxoro shahri Furqat nomli mahalladagi 26-militsiya tayanch punktlariga berildi. Uchinchi o‘rinlarga esa Namangan viloyati, Namangan shahar "Qizilqupruq" mahallasidagi 61-sonli, Samarqand shahar, G‘iyosiddin Jamshid nomli mahalladagi 49-sonli, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Beruniy shahar, "Xorazm" mahallasidagi 3-militsiya tayanch punktlari sazovor bo‘lishdi[6].

Bundan tashqari tanlovning "Jasorat ko‘rsatgan profilaktika inspektori" nominatsiyasida Namangan viloyati, Yangiqo‘rg‘on tumani ichki ishlar bo‘limi profilaktika inspektori Rustamjon Do‘smatov, "Aholi o‘rtasida katta obro‘-e’tibor qozongan eng faol profilaktika inspektori" nominatsiyasida Buxoro shahar ichki ishlar bo‘limi profilaktika inspektori Akrom Boboev, "Voyaga yetmaganlar bilan ishlash bo‘yicha eng faol profilaktika inspektori" nominatsiyasida Farg‘ona viloyati, Buvayda tumani ichki ishlar bo‘limi profilaktika inspektori Sardor Toshpo‘latov, "Jinoyatchilikka qarshi kurashishda eng faol mahalla oqsoqoli" nominatsiyasida Jizzax shahar "Olmazor" mahalla fuqarolar yig‘ini raisi G‘ani Obidov, "Eng faol mahalla posboni" nominatsiyasida Toshkent viloyati Bo‘ka tumanidagi "Qoraqo‘yli" mahallasi posboni Salimjon Fozilov, "Eng faol diniy ma’rifat va ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslahatchi" nominatsiyasida Toshkent shahar Akmal Ikromov tumanidagi "O‘rikzor" mahallasi maslahatchisi Ra’no Tursunxo‘jayeva g‘olib deb topildi. Shuningdek, tanlov yakuniga ko‘ra xizmat faoliyatida ijobiy natijalarni qo‘lga kiritgan bir guruh profilaktika inspektorlari rag‘batlantiruvchi sovg‘alar bilan taqdirlandilar[7].

Surxondaryo viloyati ichki ishlar idoralari tizimida "kadrlar taqdirini kadrlar tanlash, joy-joyiga qo‘yish va tarbiyalash hal qiladi" degan konseptual yondashuv asosida xodimlarning kasbiy mahoratini oshirishning yangi mexanizmlari joriy etildi. Xususan, kadrlarni tanlov asosida saralab olish imkoniyati yaratilishi natijasida safga faqat munosib, intiluvchan va shijoatli yoshlarni qabul qilish yo‘lga qo‘yildi, bu esa ayniqsa serjantlar tarkibini shakllantirishda o‘zining ijobiy natijasini berdi. Xodimlarning kasbiy mahoratini oshirish bilan bir qatorda ularning moddiy va ma’naviy rag‘batlantirilishi, yashash sharoitlarini yaxshilash, dam olish va salomatliklarini tiklash ishlari tizimli ravishda amalga oshirildi; xususan, faxriy va boquvchisini yo‘qotgan oilalarni qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratildi.

Xodimlarning xizmat faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida moddiy-texnik baza tubdan yangilandi: Muzrabot tumani IIB uchun yangi ma’muriy bino, Sariosiyo tumani IIB uchun qo‘shimcha bino qurib bitkazildi, Termiz shahar IIB binosi esa kapital ta’mirdan chiqarildi. Shu bilan birga, texnika va aloqa vositalari bilan ta’minlanish darajasi yaxshilanib, patrul-post, yo‘l-patrul va kinologiya xizmatlari faoliyati tubdan qayta tashkil etildi. Viloyatning janubiy sarhadlarida tinchlik va osoyishtalikni saqlash maqsadida xodimlarning hushyorligi oshirilib, tuman markazlari, shaharcha va qishloqlarda profilaktika ishlari kuchaytirildi[8].

Mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyati ichki ishlar idoralarida amalga oshirilgan kadrlar siyosati xodimlarning kasbiy va intellektual salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan izchil islohotlar bilan tavsiflanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirish jarayonida kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo‘yish, malakasini oshirish va ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Tahlillar xodimlarning kasbiy tayyorgarligini mustahkamlash maqsadida turli seminarlar, o‘quv mashg‘ulotlari va malaka oshirish tadbirlari muntazam tashkil etilganligini ko‘rsatadi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. Postda gazetasi. 2004-yil 18-noyabr. 47 (3575)-son.

2. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, 1091-fond, 1-ro‘yxat, 125-ish, 10-varaq.
3. Mintaqaviy yig‘ilish // “Postda” gazetasi – 2005. – 10-fevral. № 6-son (3587).
4. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, 1091-fond, 1-ro‘yxat, 125-ish, 16-varaq.
5. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, 1091-fond, 1-ro‘yxat, 125-ish, 19-varaq.
6. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, 1091-fond, 1-ro‘yxat, 125-ish, 21-varaq.
7. Ichki ishlar idoralarining asosiy tayanchi. “Postda” gazetasi. 2005-yil 3-fevral. 5 (3586)-son.
8. Asrlarga teng yillar // Postda gazetasi. – 2006. – 29-iyul. – № 30 (3664).

SURXONDARYO VILOYATIDAGI IJTIMOIY HAYOT ASOSIDA SHAKLLANGAN TOPONIMLAR

JUMAYEV MUSTAFO ERKIN O‘G‘LI

Termiz davlat universiteti
Jahon tarixi kafedrasi o‘qituvchisi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Mazkur maqolada Surxondaryo vohasida shakllangan ayrim toponimlar ijtimoiy hayot va turmush tarzi bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. Xususan, Tallashqon, Saurtepa, Mirishkor va Pattakesar kabi joy nomlarining kelib chiqishi, semantik mazmuni hamda tarixiy-etnografik xususiyatlari yoritilgan. Ushbu toponimlar orqali hudud aholisining xo‘jalik faoliyati, ijtimoiy munosabatlari va madaniy an’analari aks etishi asoslab beriladi.

В данной статье анализируются некоторые топонимы Сурхандарьинской долины в контексте их формирования на основе социальной жизни и образа жизни населения. В частности, рассматриваются происхождение, семантическое содержание и историко-этнографические особенности таких географических названий, как Таллашкон, Сауртепа, Миришкор и Паттакесар. На основе данных топонимов обосновывается отражение хозяйственной деятельности, социальных отношений и культурных традиций населения региона.

This article analyzes several toponyms of the Surkhandarya oasis in relation to their formation based on social life and lifestyle of the population. In particular, the origin, semantic meaning, and historical-ethnographic features of place names such as Tallashqon, Saurtepa, Mirishkor, and Pattakesar are examined. These toponyms are used to demonstrate the reflection of economic activities, social relations, and cultural traditions of the local population.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

Surxondaryo vohasi, toponimika, joy nomlari, ijtimoiy hayot, turmush tarzi, etimologiya, Tallashqon, Saurtepa, Mirishkor, Pattakesar, etnografiya.

Сурхандарьинская долина, топонимика, географические названия, социальная жизнь, образ жизни, этимология, Таллашкон, Сауртепа, Миришкор, Паттакесар, этнография.

Surkhandarya oasis, toponymy, place names, social life, lifestyle, etymology, Tallashqon, Saurtepa, Mirishkor, Pattakesar, ethnography.

Surxondaryo vohasi O‘zbekistonning qadimiy tarixiy-madaniy hududlaridan biri sifatida o‘zining boy etnomadaniy merosi, murakkab ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va rang-barang toponimik qatlamlari bilan ajralib turadi. Mazkur hududda shakllangan joy nomlari nafaqat tabiiy-geografik omillar, balki aholi turmush tarzi, xo‘jalik faoliyati, ijtimoiy munosabatlari hamda tarixiy voqealar bilan bevosita bog‘liq holda vujudga kelgan. Shu bois toponimlar muayyan hududning tarixiy xotirasi, ijtimoiy hayoti va madaniy an’analarini aks ettiruvchi muhim tarixiy-lisoniy manba sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ijtimoiy hayot va turmush tarzi asosida shakllangan joy nomlari hudud aholisi o‘rtasidagi iqtisodiy faoliyat, suv taqsimoti, kasb-hunar tizimi, etnik tarkib va kundalik hayot jarayonlari haqida muhim

ma’lumot beradi. Bunday toponimlar orqali aholining yashash sharoiti, xo‘jalik yuritish usullari, tabiiy muhit bilan munosabati hamda ijtimoiy aloqalari haqida aniq tasavvur hosil qilish mumkin. Surxondaryo vohasidagi Tallashqon, Saurtepa, Mirishkor va Pattakesar kabi joy nomlari aynan ijtimoiy hayot, turmush tarzi va xo‘jalik faoliyati bilan chambarchas bog‘liq holda shakllangan bo‘lib, ularning etimologik tahlili hudud tarixini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Mazkur maqolada Surxondaryo vohasining ayrim toponimlari misolida joy nomlarining ijtimoiy hayot va turmush tarzi asosida shakllanish jarayonlari, ularning semantik mazmuni hamda tarixiy-etnografik xususiyatlari tahlil qilinadi.

Tallashqon Sherobod tumanidagi qishloqlardan biri bo‘lib, uning nomi ham tarixiy, ham semantik jihatdan e’tiborga loyiqdir. XIX asrning ikkinchi yarmida ushbu hududga tashrif buyurgan N.A. Maev qishloqning o‘simlik dunyosi uncha boy emasligini qayd etgan. Bu kuzatish hududning tabiiy sharoiti, ayniqsa suv resurslari bilan bog‘liq muammolar mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. “Tallashqon” so‘zi mazmunan “tallashgan”, “tortishuvli” degan ma’nolarni anglatadi.[1.91] Shundan kelib chiqib, bu nom aynan ushbu hududda suv uchun ko‘p tortishuvlar, kelishmovchiliklar bo‘lganini ifodalashi mumkin. Demak, Tallashqon toponimi tabiiy resurslar, xususan suv taqsimoti bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarning tarixiy aks-sadosi sifatida shakllangan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

Sovet davrida hududdagi ko‘plab tarixiy joy nomlari mafkuraviy mezonlar asosida o‘zgartirilgani ma’lum. Shu jarayonda Tallashqon qishlog‘iga ham “Pravda” nomi berilgan edi. Biroq mustaqillik yillarida milliy toponimlarni tiklash siyosati doirasida bu tarixiy nom qayta joriy qilindi. Jumladan, Surxondaryo viloyati hokimining 1992-yil 15-iyundagi 105-sonli qaroriga binoan Angor rayonidagi “Tallimaron” davlat xo‘jaligi tarkibidagi “Pravda” nomli mahalla yana “Tallashqon” deb qayta nomlandi.[2. 101-115] Bu holat toponimlarning faqat geografik emas, balki tarixiy xotira va milliy o‘zlikni tiklash vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Surxondaryo vohasidagi yana bir diqqatga sazovor toponim — Saurtepa nomidir. U Sho‘rchi shahridan yetti kilometr janubda joylashgan manzilgoh nomi sifatida uchraydi. “Saurtepa” so‘zining birinchi qismi bo‘lgan “savr” arab tilida “buzoq”, “ho‘kiz” ma’nolarini bildiradi. Bu nom sharqona astronomik tasavvurlar bilan ham bog‘liq bo‘lib, quyoshning yillik ko‘rinma harakatidagi burjlardan birining nomi hisoblanadi. Ma’lumki, ekliptikadagi o‘n ikki burj orasida Hamal, Savr, Javzo, Saraton, Asad, Sunbula, Mezon, Aqrab, Qavs, Jadiy, Dalv va Hut burjlari mavjud. Shu ma’noda Savr oyi 22-apreldan 21-maygacha bo‘lgan davrni anglatadi.[3.59]

Saurtepa toponimining shakllanishi bilan bog‘liq xalqona izohlar ham mavjud. Rivoyatlarga ko‘ra, ushbu qishloq o‘rnidagi tepalik atrofida mahalliy aholi sumalak sayllari va Navro‘z bayramlarini o‘tkazgan. Nuroniy otaxonlarning aytishicha, ba’zan savr kunlarida kuchli shamol esib, do‘l-jala yog‘gan, qor-bo‘ron esa tepalik ustidagi qora uy va chaylalarni vayron qilgan. Natijada aholi bu joyni Savrtepa deb atay boshlagan. Bu izoh toponimning nafaqat astronomik, balki tabiat hodisalari va xalq xotirasidagi voqealar bilan bog‘liq holda shakllanganini ko‘rsatadi. Demak, Saurtepa nomi xalq meteorologik kuzatuvlari, mavsumiy marosimlar va mahalliy geografik muhit bilan uzviy aloqada vujudga kelgan.

Mirishkor toponimi Surxondaryo viloyatining Oltinsoy tumanida uchrashi bilan birga, Qashqadaryo, Buxoro va Namangan viloyatlarida ham shu nomdagi qishloqlarning mavjudligi bilan e’tiborni tortadi. Bu esa mazkur nomning keng tarqalgan tarixiy-lisoniy qatlamga mansubligini ko‘rsatadi. Ushbu toponimning kelib chiqishi haqida bir necha ilmiy va xalqona talqinlar mavjud. Bir talqinga ko‘ra, “mirishkor” so‘zi “o‘z ishining mohir ustasi”, “omilkor” degan ma’nolarni anglatadi. Shu bilan birga, o‘zbek xalqi tarkibida “mirishkor” yoki “merishkor” nomli qadimiy qabila mavjud bo‘lib, bu qabila nomi “ov hokimi”, “ov amiri” degan ma’noda talqin qilinadi.[4. 279]

Tadqiqotchi B. Karmisheva ushbu toponimning etimologiyasini “mir+i+shikor” shaklida izohlaydi. Unga ko‘ra, “mir” — boshliq, “shikor” esa ovchi yoki ov ma’nolarini bildiradi. Natijada “mirishkor” qadimda professional ovchilar jamoasining boshlig‘i yoki ov bilan

shug‘ullanuvchi guruhni anglatgan. [5. 86] Vaqt o‘tishi bilan bunday jamoalarga nisbatan qo‘llangan nom etnonimga aylangan, keyinchalik esa ular yashagan hudud ham shu nom bilan atalgan. Bu holat toponimlarning ko‘pincha etnonim va kasb-hunar nomlari bilan bog‘liq tarzda shakllanishini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, “mirshikor” va “mirishkor” shakllari o‘rtasidagi farqni ham inobatga olish zarur. Aslida “mirshikor” shakli tarixiy va semantik jihatdan to‘g‘ri bo‘lib, “mir” va “shikor” so‘zlaridan tarkib topgan. “Mir” so‘zi “amir”ning qisqargan shakli sifatida “boshliq”, “rahbar” ma’nosini beradi. Xuddi shu kabi “mirob” — suvchilar boshlig‘i, “mirshab” — qorovullar boshlig‘i ma’nosida ishlatilganidek, “mirshikor” ham ovchilar boshlig‘ini anglatadi. [6. 33] Shunday ekan, “mirishkor dehqon” kabi iboralar semantik nuqtayi nazardan to‘g‘ri emas. Ehtimol, mazkur toponim ayrim mansab egalari yoki ov bilan shug‘ullanuvchi guruhlar yashagan hudud nomi sifatida shakllangan bo‘lishi mumkin. Bu esa Mirishkor toponimining ijtimoiy mavqe va kasbiy faoliyat bilan bog‘liq holda paydo bo‘lganini ko‘rsatadi.

Pattakesar Surxondaryoning Amudaryoga quyilish joyi yaqinida vujudga kelgan qishloq nomi bo‘lib, uning etimologiyasi ham ko‘p qatlamli talqinlarga ega. “Patta” so‘zi bir nechta ma’nolarda qo‘llanadi. Birinchi talqinga ko‘ra, “patta” — talon, ruxsatnoma yoki chek ma’nolarini bildiradi. Qadimda va o‘rta asrlarda Pattakesar hududida kechuv bo‘lganligi sababli, bu kechuvdan o‘tish uchun maxsus ruxsatnoma talab qilingan va u “patta” deb atalgan. Shu bois bunday hujjat olinadigan joy “pattaguzar” deb yuritilgan, keyinchalik fonetik o‘zgarish natijasida bu nom “Pattakesar” shakliga aylangan bo‘lishi mumkin.

Ikkinchi talqinda “patta” so‘zi guvohnoma yoki hujjat ma’nosida tushuniladi va bu ham kechuv bilan bog‘liq yorliq ma’nosiga yaqin keladi. [7. 239] Uchinchi taxminga ko‘ra esa, “patta” o‘tin uchun chopiladigan butalar, ayniqsa to‘qay teragi ma’nosida ishlatiladi. Ushbu hududda o‘tin chopiladigan va sotiladigan joy mavjud bo‘lgani uchun ham qishloq shu nom bilan atalgan bo‘lishi ehtimol qilinadi. Yana bir qarashga ko‘ra, “patta” daryo bo‘yidagi tikanli chakalakzor yoki turangi o‘simligini bildirgan va ana shu butazorlarni kesib, yer ochish, tozalash va o‘zlashtirish natijasida paydo bo‘lgan manzilgoh Pattakesar deb atalgan. Demak, Pattakesar toponimi bir vaqtning o‘zida transport-kommunikatsiya, savdo, tabiiy o‘simlik qoplami va yer o‘zlashtirish jarayonlari bilan bog‘liq murakkab tarixiy qatlamni aks ettiradi.

Mazkur nomga doir qiziqarli dalillardan biri hindlarning “Mahobhorat” asarida ham uchraydi. Unda saklar, toxarlar va kannlarning sovg‘alari qatorida patta daraxtidan olingan matolar esga olinadi. Bu ma’lumot “patta” so‘zining qadimgi davrlarda daraxt yoki o‘simlik bilan bog‘liq ma’no kasb etgan bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Pattakesar qishlog‘ida dastlab turkmanlarning ersari urug‘iga mansub o‘lam, mukri, beshteri, dali, kamachi, surxi va shayx kabi avlodlari joylashganligi ham tarixiy-etnik jihatdan muhimdir. Bundan tashqari, Amudaryoning eng yirik kechuvi ham aynan shu yerda bo‘lgan. N.A. Maev ham Pattakesar nomini “patta butalarni kesmoq” ma’nosida izohlagan. Bu esa toponimning o‘simlik qoplami va yer o‘zlashtirish jarayonlari bilan bog‘liqligini yanada mustahkamlaydi.[1. 164]

Yuqorida tahlil qilingan Tallashqon, Saurtepa, Mirishkor va Pattakesar kabi toponimlar Surxondaryo vohasining tarixiy, xo‘jalik, etnik va madaniy hayoti haqida muhim ma’lumot beradi. Ularning har biri muayyan hududning tabiiy muhiti, aholi mashg‘uloti, xalq tasavvuri, siyosiy sharoiti va tarixiy xotirasi bilan bevosita bog‘liq holda shakllangan. Shuningdek, bu nomlarda turkiy, arabiy va forsiy qatlamlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu esa Surxondaryo vohasining ko‘p madaniyatli va ko‘p qatlamli tarixiy makon ekanini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Surxondaryo vohasi toponimlarini tarixiy-etimologik jihatdan o‘rganish hududning o‘tmishini tiklash, xalqning qadimiy dunyoqarashi va xo‘jalik hayotini anglash hamda milliy tarixiy xotirani mustahkamlashda katta ahamiyatga ega. Tallashqon, Saurtepa, Mirishkor va Pattakesar kabi joy nomlari nafaqat geografik belgi, balki vohaning tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy munosabatlari va etnomadaniy jarayonlarini aks ettiruvchi muhim manbalardir. Shu bois bunday toponimlarni ilmiy asosda tadqiq etish va ularni tarixiy manbalar bilan solishtirgan holda tahlil qilish Surxondaryo vohasi tarixini chuqurroq anglash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Маев Н.А. Бухоро хонлиги очерклари / тарж. И. Ботиров. – Тошкент, 2012. – Б. 91.
2. Surxondaryo viloyati davlat arxivi (SVDA), 1091-fond, 1-ro‘yxat, 30-ish, 101–115-varaqlar
3. Эшбоев Т. Шўрчи шуҳрати ва инсон қудрати. – Тошкент: «Янги аср авлоди», 2007. – Б. 59.
4. Ўзбекистон жой номлари изоҳли луғати / Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Давлат тилини ривожлантириш департаменти. – Тошкент, 2024. – Б. 279.
5. Кармышева Б. Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана (по этнографическим данным). – Москва, 1976. – С. 86
6. Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент: «Ёш гвардия», 1987. – Б. 133
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 239.

O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS: ILM-FAN, TEXNIKA VA TA’LIM SOHASINING G‘OYAVIY-MAFKURAVIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING STRATEGIK USTUVORLIGI

XOLIQULOV MUHAMMAD QAXOR O‘G‘LI

Samarqand davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi, assistent o‘qituvchi

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Mazkur maqolada O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish jarayonida ilm-fan, texnika va ta’lim sohasining g‘oyaviy-mafkuraviy xavfsizligini ta’minlashning strategik ahamiyati tahlil qilingan. Ilmiy salohiyatning iqtisodiy taraqqiyot, texnologik yangilanish, milliy xavfsizlik hamda ma’naviy barqarorlikdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, mamlakatda ilm-fan va ta’lim tizimida mavjud muammolar, ularning milliy manfaatlarga ta’siri hamda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan global, iqtisodiy, ijtimoiy va gumanitar tahdidlar ilmiy asosda baholangan.

В данной статье анализируется стратегическое значение обеспечения идеологической и нравственной безопасности науки, техники и образования в процессе закладки основ Третьего Возрождения в Узбекистане. Подчеркивается роль научного потенциала в экономическом развитии, технологических инновациях, национальной безопасности и духовной стабильности. Также на научной основе оцениваются существующие проблемы в системе науки и образования страны, их влияние на национальные интересы и возможные глобальные, экономические, социальные и гуманитарные угрозы.

This article analyzes the strategic importance of ensuring the ideological and ideological security of science, technology and education in the process of laying the foundation of the Third Renaissance in Uzbekistan. The role of scientific potential in economic development, technological innovation, national security and spiritual stability is highlighted. Also, the problems existing in the science and education system of the country, their impact on national interests and possible global, economic, social and humanitarian threats are assessed on a scientific basis..

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

Uchinchi Renessans, Yangi O‘zbekiston, ilm-fan, texnika, ta’lim, innovatsiya, milliy xavfsizlik, g‘oyaviy-mafkuraviy xavfsizlik, ma’rifat, taraqqiyot strategiyasi, yosh olimlar, intellektual salohiyat.

Третье Возрождение, Новый Узбекистан, наука, техника, образование, инновации, национальная безопасность, идеологическая и нравственная безопасность, просвещение, стратегия развития, молодые ученые, интеллектуальный потенциал.

Third Renaissance, New Uzbekistan, science, technology, education, innovation, national security, ideological and ideological security, enlightenment, development strategy, young scientists, intellectual potential.

Bugungi globallashuv va keskin raqobat sharoitida har bir davlatning taraqqiyot darajasi, avvalo, uning ilm-fan, texnika va ta’lim tizimining rivojlanganligi bilan belgilanadi. Ilmiy salohiyat nafaqat iqtisodiy o‘sish va texnologik yangilanishning asosiy omili, balki jamiyatning ma’naviy barqarorligi, mafkuraviy mustahkamligi va milliy xavfsizligining ham muhim tayanchidir. Shu ma’noda, O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish jarayonida ilm-fan, texnika va ta’lim sohasining g‘oyaviy-mafkuraviy xavfsizligini ta’minlash strategik ustuvor vazifaga aylanmoqda.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida milliy manfaatlar ustuvorligi, davlat suvereniteti va hududiy yaxlitligini saqlash, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ta’minlash masalalari muhim yo‘nalish sifatida belgilangan. Bu jarayonda ilm-fan va ta’lim sohasi nafaqat innovatsion rivojlanishning drayveri, balki jamiyatni turli g‘oyaviy-mafkuraviy tahdidlardan himoya qiluvchi intellektual qalqon vazifasini ham bajaradi. Chunki ilmiy asoslangan tafakkur, tanqidiy fikrlash va ma’rifatli yondashuv mavjud bo‘lgan jamiyatda turli buzg‘unchi g‘oyalar, asossiz da’volar va mafkuraviy bosimlar keng ildiz ota olmaydi[2;210-410].

Shu bois O‘zbekistonda Uchinchi Renessans g‘oyasi doirasida ilm-fan, texnika va ta’lim tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish bilan bir qatorda, ushbu sohalarning g‘oyaviy-mafkuraviy xavfsizligini mustahkamlash, ularni ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish masalasi ham dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada ilm-fan va ta’lim sohasining milliy manfaatlar tizimidagi o‘rni, mavjud muammolar hamda ularning g‘oyaviy-mafkuraviy xavfsizlik nuqtayi nazaridan tahlili yoritiladi.

Har qanday mamlakatdagi ilm-fan, texnika va ta’lim-tarbiya jarayonining rivojlanganlik darajasi *birinchidan,* aholining moddiy va ma’naviy manfaatlarini qondirishning past, o‘rta va yuqori darajada ekanligini ifodalovchi ko‘rsatgich; *ikkinchidan,* moddiy va ma’naviy manfaatlarni qondirishning taktik va strategik yo‘nalishlarini ilmiy jihatdan asoslab beruvchi “kompas”; *uchinchidan,* moddiy ehtiyoj bilan ma’naviy manfaat o‘rtasidagi uyg‘unlikning holatini ifodalovchi omillardan biri ekanligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Resprublikasining Konstitutsiyasida: “Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’uldirlar”[1] (2-modda), degan qoidaga amal qilgan holda davlat hokimiyati mamlakat fuqarolarining ma’naviy, g‘oyaviy mafkuraviy xavfsizligini ta’minlashning istiqbolli strategik yo‘nalishlarining rejasini ishlab chiqadi. Unda mazmun-mohiyatini milliy manfaatlar ustuvorligi tashkil qiluvchi quyidagi qoidalar: 1) davlatning yaxlitligi va suverenitetini; 2) fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini amalga oshirish; 3) mamlakatning barqaror rivojlanishini ta’minlash; 5) hududiy daxlsizligini saqlash uchun xavfsiz sharoitlar yaratish va shu kabilar borasida eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ma’naviy-madaniy o‘zgarishlarni amalga oshirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan bo‘ladi. Shu bilan birga bu istiqbolli strategik rejada xalqimizning ilm-fan, texnika va ta’lim sohasidagi milliy manfaatlarni himoya qilishning g‘oyaviy-mafkuraviy xavfsizligini ta’minlash masalasiga ham alohida e’tibor qaratilishi zarurligini taqozo etadi. Zero, Sh.M.Mirziyoyev yozganidek: “Hozirgi paytda dunyo miqyosida raqobat qanday keskin tus olib borayotganligini hammamiz ko‘rib turibmiz. Bu shiddatli raqobatga faqat zamonaviy ilm-fan, yuqori texnologiyalar va innovatsion yutuqlarni keng joriy etish orqali munosib javob bera olamiz”[2;237].

Demak, bugungi sharoitda O‘zbekiston davlati jahondagi ilm-fan, texnika va ta’lim sohasidagi barcha istiqbolli strategik yo‘nalishlar bo‘yicha bo‘layotgan raqobat kurashida yetakchi

o‘rinlarni egallash juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday darajaga yetkazish uchun esa ilm-fan, texnika va ta’lim sohasida barcha erishgan yutuqlarimizning g‘oyaviy-mafkuraviy xavfsizligini ta’minlash masalasiga alohida urg‘u berish kerak bo‘ladi. Chunki, ilm-fan, texnika va ta’lim sohasidagi yutuqlarimizni ko‘rolmaydigan kimsalar, ilmiy jamoalar, tashkilotlar tomonidan har xil tuhmat toshlari otilishi, qisqaroq qilib aytganda g‘oyaviy-mafkuraviy tahdidlardan iborat bo‘lgan xatti-harakatlar sodir etilishi mumkin. Shu sababli

xalqimizning milliy ma’naviy manffatlarini qondirishga qaratilgan ilm-fan, texnika va ta’lim sohasidagi yutuqlarimizni har xil buzg‘unchi g‘oya va mafkuralar tahdididan himoya qilish, ularga qarshi “Jaholatga qarshi – ma’rifat” g‘oyasi asosida qarshi kurashishni tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish orqali, ularning g‘oyaviy-mafkuraviy xavfsizligini ta’minlash masalasining optimal variantlarini ishlab chiqib kun tartibiga qo‘yiladi. Bordi-yu, ularning g‘oyaviy-mafkuraviy xavfsizlinini ta’minlamaslik esa xalqimizning tarix sahnasida zaif bo‘lib qolishiga sabab bo‘ladi.

Mustaqil O‘zbekiston sharoitida ilm-fan quyidgicha:

a) hayot sifatini yaxshilash, ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va boshqalarni rivojlantirishning muhim omili;

b) davlat xavfsizligini ta’minlashning eng muhim vositasi;

v) texnologik yangilanish va iqtisodiy o‘sish manbai;

g) milliy iqtisodiyotning global raqobatbardoshligini ta’minlash asosi;

d) milliy innovatsion tizimni qurish platformasi;

d) samarali ilmiy-texnik siyosatni shakllantirish asosi sifatida qaralib kelindi va kelinmoqda.

Afsuski, mamlakatimiz ilm-fani rivojlantirish masalasiga “panja orasida” qarash holatlari ham yuz berdiki, bu o‘ziga xos bo‘lgan bir qator quyidagi muammolarni:

1) uzoq yillar mobaynida ilmiy-tadqiqot va amaliy ishlanmalarni surunkali tarzda moliyalashtirilmasligi;

2) tadqiqotchilar sonining sezilarli kamayishi, ilmiy kadrlarning yosh jihatdan qarishi;

3) o‘tgan asrning 90 -yillarida asosan vayron bo‘lgan fanning amaliy sohasining tanazzulga uchrashi;

4) oliy o‘quv yurtlarining ilmiy faolligining nisbatan pastligi (bir nechta istisnolardan tashqari);

5) jamiyatda ilmiy bilimlar obro‘sining qadrsizlanishi va shu kabilarni keltirib chiqardi.

Bunday muammolarning paydo bo‘lishi natijasida ilmiy-texnik, innovatsion va ta’lim sohalarini rivojlantirishning sur’ati va tuzilishi milliy manfaatlarning g‘oyaviy-mafkuraviy xavfsizlik tizimining ehtiyojlarini va iqtisodiyotning ilg‘or texnologiyalarga va malakali kadrlarga bo‘lgan talabini to‘la qondira olmay qoldi. Shu bilan birga, mamlakatimizdagi ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqish sektori tomonidan taqdim etilgan jahon darajasidagi ba’zi ilmiy natijalar, umuman olganda, yangiliklarga mahalliy ishlab chiqaruvchilarning sezuvchanligi past bo‘lganligi sababli qo‘llanilmay koldi. Bu holat ilmiy va texnologik salohiyatning deformatsiyasi (tanazzuli, inqirozi) bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi tahdidlarni:

1) global xarakterdagi tahdidlar - harbiy - texnik strategiyaning kechikishi, ilmiy, texnologik va ekologik xavfsizlik darajasining pasayishi, tashqi texnologik diktatsiyalash, iqtisodiyotning yoqilg‘i va xom ashyo yo‘nalishini saqlash;

2) iqtisodiy xarakterdagi tahdidlar - yoqilg‘i - energetika kompleksi, mashinasozlikning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishda o‘sib borayotgan muammolar, an’anaviy tarmoqlarda turg‘unlik, xizmat ko‘rsatish sohasining progressiv tanazzuli;

3) perspektiv xarakterdagi tahdidlar - axborotlashtirish va yangi texnologik tartibga o‘tish jarayonidagi kechikish, jamiyatni mintaqaviy va ijtimoiy jihatdan beqarorlashtirish, eskirgan va ekologik xavfli texnologiyalarni keng qo‘llash, milliy va madaniy makonni yemirishga qaratilgan axborotlashgan ijtimoiy mahsulotlarni tarqatish;

4) gumanitar va psixologik xarakterdagi tahdidlar - ilmiy bo‘lmagan g‘oyalarning tarqalishi, avlodlar davomiyligining yo‘qolishi, madaniy qadriyatlarning ahamiyatining pasayishi, jamiyatda tajovuzkorlik darajasining

oshishi, ilmiy va ta’limiy poydevorning buzilishi va millatning intellektual qatlamining pasayishi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish jarayoni ilm-fan, texnika va ta’lim sohasining har tomonlama rivojlanishini, ayniqsa ularning g‘oyaviy-mafkuraviy xavfsizligini ta’minlashni strategik ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Chunki zamonaviy taraqqiyot sharoitida ilmiy salohiyat nafaqat iqtisodiy o‘sish va texnologik yangilanish omili, balki milliy xavfsizlik, ma’naviy barqarorlik va mafkuraviy mustahkamlikning asosiy tayanchiga aylanmoqda.

Ilm-fan va ta’lim tizimidagi mavjud muammolar – moliyalashtirishdagi uzilishlar, ilmiy kadrlar salohiyatining pasayishi, innovatsion natijalarning amaliyotga yetarli darajada joriy etilmasligi, ilmiy bilim nufuzining susayishi – mamlakatning global raqobatbardoshligiga va milliy manfaatlar tizimiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida global, iqtisodiy, ijtimoiy va gumanitar xarakterdagi tahdidlarning kuchayishiga zamin yaratadi.

Shu bois ilm-fan, texnika va ta’lim sohasida tizimli islohotlarni davom ettirish, milliy innovatsion tizimni mustahkamlash, yosh ilmiy kadrlarni qo‘llab-quvvatlash, ilmiy natijalarni ishlab chiqarish va jamiyat hayotiga keng tatbiq etish, shuningdek, “Jaholatga qarshi – ma’rifat” tamoyili asosida g‘oyaviy-mafkuraviy immunitetni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Faqatgina ilmiy tafakkur, ma’rifat va innovatsion yondashuv ustuvor bo‘lgan jamiyatgina Uchinchi Renessans maqsadlariga erisha oladi. Demak, ilm-fan va ta’lim sohasining g‘oyaviy-mafkuraviy xavfsizligini ta’minlash – bu nafaqat sohaviy vazifa, balki milliy taraqqiyot va davlat mustaqilligini mustahkamlashning muhim strategik omilidir.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitsiyasi.//(Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son)
2. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Uchinchi nashr. –T.: O‘zbekiston nashriyoti. 2022-yil.
3. Rahmatov M. Yangi O‘zbekiston uchinchi renessans ostonasida. –T.: Zamin nashr. 2021-yil. –B.212.

MAGISTRLAR MINBARI

O‘ZBEKISTON JANUBIY HUDUDLARIDA BOJXONA TIZIMINING RIVOJLANISHI: SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA

BEKTASHEV MADI SHODI O‘G‘LI

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
1-kurs magistranti

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Mazkur maqolada mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyatida bojxona tizimining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va modernizatsiya jarayonlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda hududning strategik geografik joylashuvi, ayniqsa Afg‘oniston bilan chegaradoshligi bojxona tizimi rivojiga ta’sir etuvchi muhim omil sifatida yoritilgan. Shuningdek, bojxona organlarining huquqiy asoslari, ularning asosiy vazifalari, tashqi savdo operatsiyalarini tartibga solishdagi o‘rni hamda bojxona faoliyatining raqamlashtirilishi masalalari ko‘rib chiqilgan.

В данной статье анализируются формирование, этапы развития и модернизация таможенной системы в Сурхандарьинской области в годы независимости. В исследовании подчеркивается стратегическое географическое положение региона, особенно его граница с Афганистаном, как важный фактор, влияющий на развитие таможенной системы. Также рассматривается правовая база таможенных органов, их основные задачи, их роль в регулировании внешнеторговых операций и вопросы цифровизации таможенной деятельности.

This article analyzes the formation, stages of development and modernization of the customs system in Surkhandarya region during the years of independence. The study highlights the strategic geographical location of the region, especially its border with Afghanistan, as an important factor influencing the development of the customs system. It also examines the legal framework of customs authorities, their main tasks, their role in regulating foreign trade operations, and the issues of digitization of customs activities.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

bojxona tizimi, Surxondaryo viloyati, bojxona organlari, bojxona nazorati, tashqi savdo, Termiz bojxonasi, tranzit salohiyati, bojxona infratuzilmasi, raqamli bojxona, logistika integratsiyasi
таможенная система, Сурхандарьянская область, таможенные органы, таможенный контроль, внешняя торговля, таможня Термеза, транзитная пропускная способность, таможенная инфраструктура, цифровая таможня, интеграция логистики
customs system, Surkhandarya region, customs authorities, customs control, foreign trade, Termez customs, transit capacity, customs infrastructure, digital customs, logistics integration

Zamonaviy iqtisodiy globallashuv sharoitida bojxona tizimi davlatning tashqi iqtisodiy siyosatini amalga oshiruvchi asosiy institutlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Bojxona organlari davlat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash, tashqi savdo operatsiyalarini tartibga solish, bojxona to‘lovlarini undirish hamda kontrabanda va noqonuniy iqtisodiy faoliyatga qarshi kurashish kabi muhim funksiyalarni bajaradi. Bojxona tizimining mohiyati va vazifalari bojxona qonunchiligi va davlat siyosati orqali belgilangan bo‘lib, u tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning asosiy mexanizmi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida bojxona tizimi mustaqillikdan so‘ng shakllana boshladi. Xususan, 1991-yil 25-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni asosida bojxona organlari tashkil etilib, milliy bojxona tizimining institutsional asosi yaratildi. 1992-yil 10-avgustdagi PF–451-sonli farmonga muvofiq esa Davlat bojxona qo‘mitasi tashkil etilib, uning shtatlari 1277 nafar xodimdan iborat etib belgilandi. Bu davr bojxona tizimining

shakllanish bosqichi bo‘lib, asosiy e’tibor bojxona organlarini tashkil etish, huquqiy bazani yaratish va chegaralarda bojxona nazoratini yo‘lga qo‘yishga qaratildi.

Surxondaryo viloyati bojxona tizimining rivojlanishida alohida strategik hudud hisoblanadi. Viloyatning Afg‘oniston bilan chegaradoshligi va Termiz shahri orqali o‘tuvchi xalqaro transport yo‘llari uning bojxona-logistika tizimidagi ahamiyatini oshiradi. Tarixiy jihatdan ham Termiz hududida bojxona faoliyati ancha erta shakllangan bo‘lib, 1893-yilda Pattakesar bojxona posti tashkil etilgan va u asosan Afg‘oniston yo‘nalishidagi savdo operatsiyalarini nazorat qilgan.

1991–2000-yillar davomida bojxona tizimi shakllanish bosqichini bosib o‘tdi. Ushbu davrda bojxona operatsiyalari asosan qo‘lda amalga oshirilgan bo‘lib, texnik vositalarning yetishmasligi va infratuzilmaning rivojlanmaganligi sababli yuklarni rasmiylashtirish jarayoni uzoq davom etgan. Shuningdek, bojxona tizimi hali yagona standart asosida ishlamaganligi sababli hududiy darajada turli muammolar mavjud edi. Surxondaryo viloyatida Termiz bojxona posti va chegara nazorat punktlari asosiy bojxona infratuzilmasi sifatida faoliyat yuritgan.

2000–2016-yillar bojxona tizimining rivojlanish va institutsional mustahkamlanish bosqichi sifatida tavsiflanadi. Ushbu davrda bojxona organlarining funksiyalari kengaytirilib, ularning huquqni muhofaza qiluvchi organ sifatidagi maqomi mustahkamlandi. Xususan, 1997-yil 8-iyuldagi PF–1815-sonli farmon asosida bojxona organlariga tezkor-qidiruv faoliyatini mustaqil amalga oshirish huquqi berildi. Bu esa bojxona tizimini faqat nazorat organi emas, balki iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlovchi muhim institutga aylantirdi.

Mazkur davrda bojxona tizimining asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat bo‘ldi: davlat bojxona siyosatini amalga oshirish, bojxona chegarasi orqali o‘tuvchi tovar va transport vositalarini nazorat qilish, bojxona to‘lovlarini undirish hamda kontrabanda va boshqa huquqbuzarliklarga qarshi kurashish. Bu funksiyalar bojxona organlarining rasmiy faoliyat yo‘nalishlari sifatida belgilangan bo‘lib, ularning iqtisodiy tizimdagi o‘rni yanada mustahkamlandi.

Surxondaryo viloyatida ushbu davrda bojxona faoliyati sezilarli darajada kengaydi. Termiz bojxona posti orqali o‘tuvchi yuk oqimlari ortib, Afg‘oniston bilan savdo aloqalari rivojlandi. Natijada viloyat mintaqaviy tranzit hududga aylana boshladi. Shu bilan birga, bojxona infratuzilmasi modernizatsiya qilinib, yangi texnik vositalar joriy etildi.

2016-yildan keyingi davr bojxona tizimining modernizatsiya va raqamlashtirish bosqichi sifatida ajralib turadi. Ushbu davrda bojxona tizimini tubdan isloh qilish, uni xalqaro standartlarga moslashtirish va logistika tizimi bilan integratsiyalashga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, elektron deklaratsiya tizimi joriy etilib, bojxona rasmiylashtiruvi jarayonlari avtomatlashtirildi. Natijada yuklarni rasmiylashtirish vaqti bir necha kunlardan bir necha soatgacha qisqartirildi.

Shuningdek, bojxona organlari faoliyatini soddalashtirish va tadbirkorlar uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida “yagona darcha” tamoyili asosida xizmat ko‘rsatish tizimi joriy etildi. Bu tizim orqali eksport-import operatsiyalarini amalga oshirish jarayoni ancha yengillashtirildi.

Surxondaryo viloyatida bojxona tizimining modernizatsiyasi hududning tranzit salohiyatini oshirishga xizmat qildi. Termiz bojxona kompleksi Markaziy Osiyoni Janubiy Osiyo bilan bog‘lovchi muhim logistika tuguniga aylana boshladi. Ayniqsa, Afg‘oniston orqali o‘tuvchi savdo yo‘llarining faollashuvi bojxona tizimining ahamiyatini yanada oshirdi.

Biroq bojxona tizimining rivojlanishiga qaramay, qator muammolar ham mavjud. Jumladan, ayrim chegara punktlarida infratuzilmaning yetarli emasligi, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish darajasining pastligi hamda logistika tizimi bilan integratsiyaning sustligi ushbu sohaning to‘liq samarali ishlashiga to‘sqinlik qilmoqda. Shuningdek, malakali kadrlar yetishmasligi va bojxona jarayonlarida ayrim byurokratik to‘siqlarning mavjudligi ham dolzarb muammolardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyatida bojxona tizimi bosqichma-bosqich shakllanib, rivojlanib va modernizatsiya qilindi. 1991-yildan boshlab huquqiy asoslar yaratildi, 2000–2016-yillarda tizim institutsional jihatdan mustahkamlandi,

2016-yildan keyin esa raqamlashtirish va modernizatsiya jarayoni jadallashdi. Hududning strategik geografik joylashuvi, Afg‘oniston bilan savdo aloqalari va davlat tomonidan olib borilgan islohotlar bojxona tizimining rivojlanishida muhim omil bo‘ldi. Kelgusida bojxona tizimini yanada takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va logistika tizimi bilan integratsiyani kuchaytirish orqali Surxondaryo viloyatini mintaqaning muhim bojxona-logistika markaziga aylantirish mumkin.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

4. Салихова Ф.Т., Рахматов Э.Ж., Аскаров Ж.Т. Божхона ҳуқуқи: дарслик. — Тошкент: ТДЮУ, 2019. — 160 б.
5. Kurpayanidi K.I. Bojxona ishi: darslik. Farg‘ona: AL-FERGANUS, 2022. – b. 122.
6. Зияева Д.З. и др. Божхона иши тарихи: монография. — Т.: Янги аср авлоди, 2015. — 220 б.
7. O‘zbekiston Respublikasi. Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida: 472-I-son Qonun, 1997-yil 29-avgust // 2018-yil 18-oktabrdagi O‘RQ-502-son Qonuni tahririda
1. Қосимова Д., Ташходжаев М. Божхона менежменти: дарслик. — Т.: Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи, 2020. — 244 б

MUSTAQILLIK DAVRIDA IMOM TERMIZIYGA E’TIBOR

XUDAYBERGANOV MA’RUF OLIMKULOVICH

Termiz davlat unversiteti Tarix fakulteti,
Tarix ta’lim yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Аннотация / Annotatsiya /Abstract
Surxon vohasi olimu fuzalolarining hayoti va ijodini o‘rganish, ularning ilm-fan va ma’naviyatimizning yuksalishiga munosib hissasini yosh avlod ongiga singdirish, xalqimizni Surxon vohasining allomalar tomonidan yaratilgan ma’naviy meros bilan tanishtirish bugungi kunda davlatimizning asosiy dasturlaridan biri bo‘lmoqda.
Изучение жизни и деятельности ученых Сурханского оазиса, привитие их достойного вклада в развитие науки и духовности в сознании молодого поколения, приобщение нашего народа к духовному наследию, созданному учеными Сурханского оазиса, является одной из важнейших задач. основные программы нашего государства сегодня.
Studying the life and work of scientists of the Surkhan oasis, instilling their worthy contribution to the development of science and spirituality in the minds of the young generation, introducing our people to the spiritual heritage created by the scholars of the Surkhan oasis is one of the main programs of our state today.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords
maqbara, majmua, inshoot, farmon, alloma, marosim, kutubxona, hadis.
мавзолей, комплекс, строение, указ, аллома, ритуал, библиотека, хадис.
mausoleum, complex, structure, decree, alloma, ritual, library, hadith.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2016-yil 28-oktabrdagi №-08/1-76-sonli “Buyuk muhaddis Abu Iso Termiziyning boy ilmiy-ma’naviy merosini o‘rganish va xotirasini abadiylashtirilishiga doir chora-tadbirlarning bajarilishi to‘g‘risida”gi 128-bayonnomasi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-fevraldagi “Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori xalqimiz, millatimiz tarixi va taraqqiyotiga hissa qo‘shgan o‘tmish alloma olimlarimizning ruhlarini shod etib, alloma-fuzalolar tomonidan yaratilgan ilm-fan yutuqlari natijalarini kengroq o‘rganish hayotda foydalanish uchun muhim ijobiy dastur bo‘ldi [1:5-b]. Shuningdek, qarorning asosiy maqsadi islom dinining, Qur’oni Karim va hadis ilmining asl mohiyatini, hadisshunoslik maktabining ilmiy-ma’naviy asoslarini, Imom Termiziy hamda Termiziy allomalar, yurtimizdan yetishib chiqqan mutafakkir zotlar merosini har tomonlama chuqur o‘rganish va keng targ‘ib qilishni ham qamragan. Eng muhimi, qarorda yuksak insoniy g‘oyalar va tabarruk qadriyatlarimizni o‘zida ifoda etgan manbalarni tizimli asosda tadqiq etish, ulardan diniy ta’lim, ma’naviy-axloqiy tarbiya ishlarida foydalanish maqsadida zarur darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar, ommabop nashrlar, ilmiy-amaliy tavsiyalar tayyorlash yuzasidan doimiy ish olib borish dolzarb masala sifatida qayd etib o‘tilgan. Insoniyat ma’naviy hayotiga xavf solayotgan turli mafkuraviy xurujlar avj olayotgan bugungi kunda ajdodlarimizning ma’naviy merosini chuqur o‘rganish, ulardagi ezgu g‘oya va ta’limotlarni keng xalq ommasiga yetkazish va shu asosda yoshlarda sog‘lom dunyoqarashini kuchaytirish, ularni azaliy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash borasidagi ishlarni yanada jadallashtirish to‘g‘risidagi ko‘rsatma bugungi ilmiy tadqiqotlarning asosiy masalasiga aylandi.

Mustaqillik tufayli tariximizni butun bo‘y-basti bilan o‘rganish imkoniyatiga, ajdodlarimiz qoldirgan boy merosdan faxrlanish tuyg‘usiga, qolaversa, ota-bobolarimiz boshlab bergan ezgu ishlarning davomchisi bo‘lish sharafiga muyassar bo‘ldik.

Mustaqillik tufayli tariximiz tiklandi, ota-bobolarimiz ruhi shod bo‘ldi, xalqimizning turmushi farovonlashdi, Respublikamiz dunyoning ilg‘or davlatlari darajasiga ko‘tarildi, fan va madaniyati yuksaldi. Xullas, intellektual salohiyatni yuksaltirishning barcha imkoniyatlari yaratilmoqda. Buning natijasida vatanimizda ilm-fanning rivojlanishi yoshlarimizning ilm cho‘qqilarini egallashi uchun barcha shart-sharoitlar mavjud.

Surxon vohasi jahon sivilizatsiyada alohida o‘rin tutadi. Xalqimiz, millatimizning dunyo miqyosida tanilishida munosib o‘rni bor. Xalqimiz ma’naviyati teran ilmiy-tafakkurga ega bo‘lib, milliy tuyg‘ular, qadriyatlarni yanada boyitishga imkoniyat yaratdi. Ajdodlarimiz yaratgan ma’naviy merosni o‘rganish, uni avlodlarga targ‘ib etish beqiyos ilmiy tafakkurni talab etadi. O‘zbek xalqining ma’naviy barkamollikka erishishida uning buyuk siymolarining xizmati cheksiz, ularning ijodiy va ilmiy meroslari tengsizdir [2: 7-b].

Diniy-milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an’ana va marosimlarimizni o‘rganishda xalqimizning ijodiy ma’naviy-axloqiy merosi alohida ahamiyatga egadir. Ayniqsa, inson shaxsi uning amalga oshirgan ijobiy ishlari bilan bog‘liq manbalarni o‘rganish, dunyoviy va diniy ilmlarga qo‘shgan hissasi haqida fikrlarga ega bo‘lish, buyuk shaxslarning jamiyat, insoniyat tafakkuri taraqqiyotidagi faoliyatini targ‘ib qilish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Ilmiy salohiyat, diniy bilimlarni targ‘ib etgan insonlar nomi bilan bog‘liq voqea-hodisalarni aks ettiruvchi tabarruk ziyoratgohlar, unda dafn etilgan shaxslarning martabasini mukammal o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish tufayli xalqimiz ma’naviyatini yanada boyitish muhim ahamiyatga egadir [3:23-b].

Zamonaviy sharqona uslubda to‘la qayta ta’mirlangan Imom Abu Iso at-Termiziy maqbarasi 2017-yil 2-iyul kuni ochildi [4:39-b].. Mustaqillikdan so‘ng milliy qadriyatlarimiz, muqaddas dinimizga oid an’analarning qayta tiklanishi xalqimizning ma’naviy-ma’rifiy yuksalishida muhim omillardan biriga aylandi. Abu Iso Termiziy maqbarasi tarixi ayrim olimlarning fikricha, taxminan XI-XII asrlarga borib taqaladi. 1905-1909-yillarda Sherobod viloyatini boshqargan Mirzo Salimbek tomonidan Imom Termiziy yodgorligida ta’mirlash ishlari olib borildi, xususan, unga

ayvon qo‘shildi. Uning ma’lumotiga ko‘ra, maqbaraga tutash masjid Mirzo Ulug‘bekning o‘g‘li Abdulatif Mirzo tomonidan qurilgan.

1990-yilda O‘zbekistonda Imom Termiziy tavalludining 1200 yilligi xalqaro miqyosda nishonlandi. Shu munosabat bilan va 2001-yilda Termizning 2500 yillik tadbirlari sababli Imom Termiziy maqbarasi va unga yondosh masjidda ta’mirlash ishlari olib borildi.

2016-yilda ziyoratgohni mutlaqo yangicha ko‘rinishga keltirish ishlari boshlandi. Qisqa vaqt ichida ziyoratgohda besh yuz o‘rinli masjid, kutubxona va kichik anjumanlar zali, erkaklar va ayollar tahoratxonasi, oshxona kompleksi, besh ayvon, jami 1, 75 gektar maydonda katta hajmdagi ishlar amalga oshirildi [5:79-b]. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 14-fevral kuni “Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan, Termiz shahrida “Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi”, 2020-yil 8-iyunda esa Termiz shahrida “Imom Termiziy” o‘rta maxsus islom ta’lim muassasasi tashkil etildi. Imom Termiziyning “Sunan at-Termiziy”, “ash-Shamoil an-Nabaviyya”, “Ilal as-sag‘ir”, “Tasmiyatu ashobi rosulillah” (“Rosululloh safdoshlari”), “Jomi’ as-sunan” asaridan saylanma hadislar” kabi asarlari arab tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilindi. Shuningdek, Imom Termiziy haqida “Termizlik ikki alloma”, “Muhaddis va faqih alloma”, “Imom Abu Iso Muhammad Termiziy”, “Imom Abu Iso Termiziy hayoti va ijodi sahifalari”, “Imom Termiziy”, “Termizning bezavol qal’alari yoxud Termiz tarixi”, termiziylar merosi haqida “Termizlik allomalar asarlarining qo‘lyozmalari katalogi”, “Imom Termiziyning “Al-Jomi’ as-sahih” asariga kirish” va yana boshqa ko‘plab kitoblar nashr qilindi. Bundan tashqari, Muhammad Termiziy merosini o‘rganish bo‘yicha ilmiy konferensiya va anjumanlar tashkil qilindi, ko‘plab maqola va ma’ruzalar chop etildi. Maqolalar va tarjimalar nashrida Ubaydulla Uvatov, Mirzo Kenjabek, Jo‘rabek Cho‘tmatov, Jaloliddin Hamroqulov, Hamidulla Aminovlarning xizmatlarini alohida ta’kidlash lozim.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. С.Н.Турсунов, Б.Х.Муртазоев, Ж.О.Чўтматов “Имом абу исо ат-термизий алломалар”. -Тошкент;. “TAFAKKUR”, 2021.
2. У. Уватов О.Жўраев, 2021 © “Shamsuddinxon Boboxonov” Имом Термизий, Тошкент, 2021.
3. Buyuk yurt allomalari. Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi: U.Uvatov. – T.:O‘zbekiston, 2018.
4. Mirzo Kenjabek. Termiz tazkirasi. Buyuk termiziylar. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.
5. Odilxon qori Yunusxon o‘g‘li. Muhaddis va faqih alloma. – T.: “Movarounnahr”, 2017.
6. U. Uvatov. Ikki buyuk donishmand (Abu Iso at-Termiziy, Al-Hakim at-Termiziy). – T.: “Sharq”, 2005.
7. U. Uvatov, I. Usmonov. Termizlik ikki alloma. Abu Iso Muhammad Termiziy, Hakim Termiziy. – T.: Toshkent islom universiteti, 2017.

SURXON VOHASI HUDUDLARIDA MADANIY MEROS OB’EKTLARINI O‘RGANILISH TARIXI

QARSHIYEV BEKZOD ZOKIRJON O‘G‘LI

Termiz davlat universiteti
Tarix yo‘nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya / Аннотация / Abstract
Mazkur maqolada Surxon vohasi hududlaridagi madaniy meros ob’ektlarini o‘rganish tarixining shakllanish bosqichlari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqotda XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi dastlabki topografik va o‘lkashunoslik kuzatuvlari, Sovet davrida olib borilgan arxeologik ekspeditsiyalar hamda mustaqillik yillaridagi zamonaviy ilmiy va texnologik yondashuvlar yoritilgan. Shuningdek, Ayritom, Qoratepa, Fayoztepa, Dalvarzintepa va Kampirtepa

yodgorliklarining ilmiy o‘rganilishi, ularning O‘zbekiston arxeologik maktabi shakllanishidagi o‘rni hamda Surxon vohasining jahon ilmiy maydonidagi ahamiyati ochib berilgan.
В данной статье проводится системный анализ этапов изучения объектов культурного наследия Сурхандарьинской долины. Рассматриваются первые топографические и краеведческие исследования конца XIX – начала XX века, археологические экспедиции советского периода, а также современные научно-технологические подходы периода независимости. Особое внимание уделено изучению памятников Айртам, Кара-тепе, Фаяз-тепе, Дальверзин-тепе и Кампиртепа, их роли в формировании узбекской археологической школы и значению региона в мировом научном пространстве.
This article provides a systematic analysis of the historical stages of studying cultural heritage sites in the Surkhandarya region. It examines early topographic and regional studies of the late 19th and early 20th centuries, archaeological expeditions of the Soviet period, and modern scientific and technological approaches of the independence era. Special attention is given to the study of major sites such as Ayrtam, Kara-Tepe, Fayaz-Tepe, Dalverzin-Tepe, and Kampir-Tepe, their role in the formation of the Uzbek archaeological school, and the international significance of the Surkhan Valley.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords
Surxon vohasi, madaniy meros, arxeologiya, Termiz, Ayritom, Qoratepa, Fayoztepa, Dalvarzintepa, Kampirtepa, Kushon davri, arxeologik ekspeditsiya, raqamli arxeologiya, UNESCO, Boysun, O‘zbekiston tarixi.
Сурхандарьинская долина, культурное наследие, археология, Термез, Айртам, Кара-тепе, Фаяз-тепе, Дальверзин-тепе, Кампиртепа, кушанский период, археологическая экспедиция, цифровая археология, ЮНЕСКО, Байсун, история Узбекистана.
Surkhan Valley, cultural heritage, archaeology, Termez, Ayrtam, Kara-Tepe, Fayaz-Tepe, Dalverzin-Tepe, Kampir-Tepe, Kushan period, archaeological expedition, digital archaeology, UNESCO, Boysun, history of Uzbekistan.

Surxon vohasi O‘zbekistonning janubiy qismida joylashgan bo‘lib, qadimdan turli sivilizatsiyalar chorrahasi va Buyuk Ipak yo‘lining muhim bo‘g‘inlaridan biri sifatida shakllangan hududlardan biri hisoblanadi. Uning geografik joylashuvi Hindiston, Eron, Xitoy hamda O‘rta Osiyo sivilizatsiyalarini bog‘lovchi tabiiy ko‘prik vazifasini bajargan. Shu sababli ushbu vohada qadimiy davrlardan boshlab turli madaniyat va e’tiqodlarga mansub ko‘plab moddiy va nomoddiy madaniy meros ob’ektlari shakllangan. Surxon vohasining tarixiy ildizlari ibtidoiy jamiyat davriga, xususan paleolit davriga borib taqaladi. Zarautsoy qoyatosh rasmlari bu davr san’atining yuksak namunasi bo‘lib, inson tafakkurining ilk badiiy ifodalarini aks ettiradi. Shuningdek, Sopollitepa va Jarqo‘ton yodgorliklari O‘rta Osiyodagi dastlabki shaharsozlik madaniyatining shakllanish bosqichlarini ko‘rsatadi. Yunon-Baqtriya va Kushon davrlarida esa Termiz va uning atrofida Qoratepa, Fayoztepa, Ayritom kabi yirik buddaviy yodgorliklar bunyod etilib, voha diniy, ma’muriy va savdo markaziga aylangan. Islom davrida esa Termiz allomalari maktabi shakllanib, Sulton Saodat majmuasi, Hakim at-Termiziy maqbarasi, Jarqo‘rg‘on minorasi kabi me’moriy inshootlar vujudga kelgan. Shu bois Surxon vohasida mavjud madaniy meros ob’ektlari nafaqat O‘zbekiston tarixini, balki butun Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi taraqqiyotini o‘rganishda muhim ilmiy manba vazifasini bajaradi.

Surxon vohasi hududlaridagi madaniy meros ob’ektlarini o‘rganish tarixi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Chor Rossiyasi davriga to‘g‘ri keladi. Bu davrda voha Buxoro amirligining janubiy hududlari tarkibida bo‘lib, Rossiya imperiyasi siyosiy nazorati kuchaygan sari mintaqaning tabiiy-geografik sharoiti, tarixiy obidalari va harbiy-strategik imkoniyatlari o‘rganila boshlandi. Dastlabki izlanishlar asosan harbiy xaritalar tuzish, daryo yo‘llarini aniqlash, qadimiy shahar xarobalari haqida ma’lumot yig‘ish va mavjud tarixiy ob’ektlarni tasvirlash bilan bog‘liq edi. Aynan shu davrda Eski Termiz,

Sulton Saodat majmuasi, Jarqo‘rg‘on minorasi kabi yodgorliklar haqida ilk yozma qaydlar paydo bo‘ldi. Bu jarayonda rus harbiy ofitserlari va sharqshunoslari tomonidan tayyorlangan hisobotlar muhim o‘rin tutgan bo‘lib, Gorshenin A.P. hamda Zamyatin D.N. kabi tadqiqotchilarning ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning kuzatuvlari vohaning moddiy merosini tavsiflashda dastlabki ilmiy bosqich vazifasini o‘tadi.

Surxon vohasining ilmiy jihatdan ilk o‘rganilgan yodgorliklaridan biri Ayritom hisoblanadi. U qadimiy Termizdan sharqda joylashgan bo‘lib, XX asrning 30-yillarida M.Ye. Masson rahbarligidagi Termiz arxeologik kompleks ekspeditsiyasi tomonidan tizimli ravishda o‘rganilgan. Ayniqsa, Ayritom frizining topilishi O‘rta Osiyo buddaviy san’atining eng muhim yodgorliklaridan biri sifatida katta ilmiy qiziqish uyg‘otdi. Mazkur frizda yunon-gandhar uslubining ta’siri yaqqol ko‘rinib, u vohaning qadimda xalqaro madaniy aloqalar markazi bo‘lganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida mashhur sharqshunos V.V. Bartold Termiz va Baqtriya tarixiga oid yozma manbalarni tahlil qilib, “Antioxiya” va “Tarmita” atamalarini Termizning qadimgi nomlari sifatida ilmiy muomalaga kiritdi. Garchi u arxeologik qazishmalar olib bormagan bo‘lsa-da, uning manbashunoslik yo‘nalishidagi izlanishlari keyingi arxeologik tadqiqotlar uchun mustahkam nazariy poydevor yaratdi.

XX asrning 20–40-yillarida Surxon vohasi madaniy merosini o‘rganish tarixida yangi bosqich boshlandi. Bu davrda tasodifiy kuzatuvlar va tavsifiy qaydlar o‘rnini ilmiy metodologiyaga asoslangan tizimli arxeologik ekspeditsiyalar egalladi. Sovet hokimiyatining shakllanishi bilan O‘zbekiston hududida arxeologiya davlat miqyosidagi ustuvor ilmiy yo‘nalishlardan biriga aylandi. 1920-yillarda tashkil etilgan “Uzkomstaris” – qadimiy yodgorliklarni muhofaza qilish qo‘mitasi Surxon vohasidagi yodgorliklarni hisobga olish va ularni dastlabki ilmiy tavsiflash jarayoniga asos soldi. 1926–1927-yillarda professor B.P. Denike rahbarligidagi Moskva Sharq xalqlari madaniyati muzeyi ekspeditsiyasi Termiz va uning atrofida qazish ishlarini olib bordi. Bu ekspeditsiya davomida antik va ilk o‘rta asr qatlamlariga oid sopol buyumlar, tangalar va devoriy suratlar aniqlanib, ilmiy muomalaga kiritildi. Mazkur tadqiqotlar vohada ilmiy arxeologiyaning shakllanishiga xizmat qildi.

1930-yillardan boshlab M.Ye. Masson rahbarligida Termiz arxeologik kompleks ekspeditsiyasi faoliyat boshladi. Bu ekspeditsiya O‘zbekiston Fanlar qo‘mitasi va Leningrad Ermitaji bilan hamkorlikda olib borilib, Surxon vohasi tarixini o‘rganishda burilish yasadi. Aynan shu davrda Ayritom, Qoratepa, Chingiztepa va Fayoztepa hududlarida dastlabki ilmiy qazishmalar amalga oshirildi. Ushbu izlanishlar natijasida Termizning tarixiy qatlamlari davrlashtirilib, uning antik, Kushon va ilk o‘rta asr bosqichlari alohida davrlar sifatida belgilandi. Natijada Surxon vohasi mustaqil arxeologik makon sifatida ilmiy xaritada o‘z o‘rnini topdi.

XX asrning o‘rtalari va 1980-yillar Surxon vohasi madaniy merosini o‘rganish tarixida tizimlashuv va ilmiy maktab shakllanish davri bo‘ldi. Bu yillarda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, Leningrad Ermitaji va Moskva Sharqshunoslik instituti bilan hamkorlikda keng ko‘lamli qazishmalar olib borildi. Ayniqsa, Kushon davri madaniyatiga oid topilmalar vohaning nafaqat O‘zbekiston, balki jahon arxeologiyasidagi o‘rnini belgilab berdi. Qoratepa buddaviy monastir majmuasi milodiy I–III asrlarga oid bo‘lib, 1960–1970-yillarda B.Ya. Staviskiy rahbarligida tizimli ravishda o‘rganildi. Mazkur tadqiqotlar buddizmning O‘rta Osiyo orqali tarqalishida Termiz vohasining markaziy rolini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Fayoztepa majmuasi esa 1968-yilda aniqlanib, L.I. Albaum boshchiligida olib borilgan qazishmalar natijasida buddaviy san’atning yuksak namunalaridan biri bo‘lgan Budda haykali topildi. Ushbu topilma O‘zbekiston hududidagi buddaviy madaniyatning taraqqiyot darajasini ko‘rsatib berdi.

Dalvarzintepa qadimiy shahri ham Surxon vohasining muhim arxeologik yodgorliklaridan biri sifatida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Denov tumanida joylashgan ushbu shaharda G.A. Pugachenkova rahbarligidagi ekspeditsiya 1967–1975-yillarda qazishmalar olib bordi. 1972-yilda aniqlangan mashhur “Dalvarzintepa xazinasi”, ya’ni 34 kilogrammdan ortiq tilla buyumlar jamlanmasi Kushon davri iqtisodiy va madaniy yuksalishining yorqin daliliga aylandi. Bu davrda G.A. Pugachenkova, B.A. Litvinskiy va E.V.

Rtveladze kabi olimlar Surxon vohasi arxeologiyasining ilmiy maktabini shakllantirdilar. Pugachenkova tomonidan Dalvarzintepa, Fayoztepa va Kampirtepa me’moriy tizimi chuqur tahlil qilindi, Litvinskiy esa Kushon davri madaniyatining mintaqaviy aloqalarini o‘rgandi. E.V. Rtveladze esa Termiz va Kampirtepaning tarixiy topografiyasi, tangalari va mudofaa tizimlarini tahlil qilib, ularni O‘zbekiston arxeologiyasining klassik ob’ektlariga aylantirdi. Natijada Surxon vohasi XX asrning o‘rtalaridan boshlab Markaziy Osiyo arxeologiyasining yadro hududlaridan biri sifatida tan olindi.

Mustaqillik yillarida Surxon vohasi madaniy merosini o‘rganish yangi sifat bosqichiga ko‘tarildi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, davlat siyosatida madaniy merosni asrash, tadqiq qilish va jahon ilmiy hamjamiyatiga taqdim etish ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. Bu davrda arxeologik tadqiqotlar metodologiyasi ham sezilarli ravishda yangilanib, zamonaviy texnologiyalar va xalqaro hamkorlikka asoslangan yondashuvlar shakllandi. Akademik E.V. Rtveladze boshchiligida olib borilgan Kampirtepa qazishmalari vohaning antik davr shaharsozlik tarixini qayta ko‘rib chiqishga imkon berdi. Olim ushbu yodgorlikni Aleksandr Makedonskiy tomonidan asos solingan Oks Aleksandriyasi bilan bog‘lash haqidagi ilmiy gipotezani ilgari surdi. Kampirtepadan topilgan qo‘rg‘on devorlari, buddaviy inshootlar va tangalar asosida ushbu yodgorlikning 3D raqamli modellari ham yaratildi.

2000-yillardan boshlab O‘zbekiston–Fransiya, O‘zbekiston–Germaniya va O‘zbekiston–Chexiya qo‘shma ekspeditsiyalari faoliyat yurita boshladi. Bu hamkorliklar natijasida Fayoztepa, Dalvarzintepa, Ko‘lbuloq va Qiziltepa kabi yodgorliklarda yangi arxeologik qatlamlar ochildi. Mazkur tadqiqotlar Surxon vohasini xalqaro ilmiy maydonga yanada yaqinlashtirdi. Shu bilan birga, vohaning nomoddiy madaniy merosi ham xalqaro miqyosda e’tirof etildi. Boysun madaniy muhiti 2001-yilda YuNESKO tomonidan “Insoniyatning og‘zaki va nomoddiy merosi durdonalari” ro‘yxatiga, 2008-yilda esa Reprezentativ ro‘yxatga kiritildi. Bu vohaning xalqona madaniyati, urf-odatlari, marosimlari va og‘zaki ijod namunalari jahon miqyosida tan olinganini anglatadi. “Boysun bahori” xalqaro festivali esa Surxon vohasining madaniy merosini ommalashtirish, turizm salohiyatini oshirish va xalqaro madaniy aloqalarni rivojlantirishda muhim vositaga aylandi.

So‘nggi yillarda Surxon vohasi yodgorliklarini o‘rganishda GIS tizimlari, 3D modellashtirish va raqamli arxivlashtirish texnologiyalari keng joriy etilmoqda. Ushbu usullar yordamida yodgorliklarning aniq koordinatalari, saqlanish holati va hududiy joylashuvi kompleks ravishda tahlil qilinmoqda. O‘zbekiston Milliy Arxeologiya Markazi tomonidan yodgorliklarni raqamli ma’lumotlar bazasiga kiritish ishlari olib borilayotgani bu boradagi eng muhim yangiliklardan biridir. Natijada mustaqillik davrida Surxon vohasining moddiy va nomoddiy madaniy merosini o‘rganish ilmiy, texnologik va xalqaro integratsiya asosida butunlay yangi bosqichga ko‘tarildi.

Umuman olganda, Surxon vohasi hududlarida madaniy meros ob’ektlarini o‘rganish tarixi O‘zbekiston arxeologiyasi va madaniyatshunosligining shakllanishida muhim o‘rin tutuvchi evolyutsion jarayon hisoblanadi. XIX asr oxiridagi tasodifiy kuzatuvlardan boshlangan ushbu yo‘l XX asrda tizimli ekspeditsiyalar, sovet davrida mustahkam ilmiy maktablar va mustaqillik yillarida raqamli hamda xalqaro tadqiqotlar bosqichiga qadar rivojlandi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida Surxon vohasi qadimgi Baqtriya va Kushon davri sivilizatsiyalarining markazlaridan biri sifatida tan olindi. Qoratepa, Fayoztepa, Dalvarzintepa va Kampirtepa kabi yodgorliklar ushbu hududning jahon arxeologiyasi uchun ham naqadar muhim ekanini ko‘rsatdi. Boysun madaniy muhitining YuNESKO tomonidan e’tirof etilishi esa vohaning xalqona qadriyatlarini xalqaro miqyosda tanitdi. Kelajakda Surxon vohasi madaniy merosi bo‘yicha tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish, raqamli arxivlarni kengaytirish, yosh arxeologlar maktabini rivojlantirish va bu merosni jahon miqyosida targ‘ib etish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. Ртвеладзе Э.В. Великий шелковый путь: от истоков до наших дней. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999.
2. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. “Зараутсой” моддаси. – Тошкент: Миллий энциклопедия, 2002.
3. Асқаров А.А. Сополлитепа. – Тошкент: Фан, 1973.
4. Пугаченкова Г.А. Термез. Шахристан и окрестности. – Тошкент: Фан, 1966.
5. Турсунов С.Н. Сурхондарё тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2004.
6. Массон М.Е., Ртвеладзе Э.В., Литвинский Б.А. Археологические исследования в Южной Бактрии. – Тошкент: Фан, 1981.
7. Замятин Д.Н. Русские военно-топографические исследования в Туркестане (1870–1900 гг.). – Санкт-Петербург: Географиздат, 1999.
8. Древности Термеза. – Тошкент: Фан, 1972.
9. Горшенин А.П. Очерки по истории Средней Азии в XIX веке. – Москва: Наука, 1958.
10. Бартольд В.В. Сочинения. Т. I. – Москва: Наука, 1963.
11. Денике Б.П. Отчет о раскопках в Старом Термезе в 1926–1927 гг. – Москва, 1928.
12. Гуломов Я. Краткий очерк истории археологических исследований в Узбекистане. – Тошкент: Фан, 1950.
13. Массон М.Е. Древний Термез и его окрестности. – Тошкент, 1940.
14. Ставиский Б.Я. К истории археологического изучения Кара-тепе. – Москва, 1964.
15. Пугаченкова Г.А. Дальверзин-тепе – кушанский город на юге Узбекистана. – Тошкент: Фан, 1978.
16. Альбаум Л.И. Раскопки буддийского храма в Фаяз-тепе (новые данные) // Советская археология. – 1975. – № 2. – С. 202–214.
17. Пугаченкова Г.А. Из художественной сокровищницы Дальверзин-тепе. – Тошкент: Изд-во им. Г. Гуляма, 1980.
18. Ртвеладзе Э.В. Кампиртепа – античный город на Амударье. – Тошкент: Фан, 1983.
19. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008.
20. Шайдуллаев Ш.Б., Stride R., Augustinova A. Археологические исследования в Бандиханском районе Сурхандарьинской области (2002–2003 гг.) // Ўзбекистон археологияси: кеча ва бугун. – Тошкент, 2005.
21. UNESCO. The Cultural Space of Boysun. – Paris, 2008.
22. Хўжаев А.А. Рақамли археология: Ўзбекистон археологик ёдгорликларини 3D моделлаштириш тажрибаси // Ўзбекистон археологияси. – 2020. – № 3 (20). – Самарқанд.

TALABALAR MINBARI

SURXON VOHASIDAGI BIR GO‘SHA TARIXI

ASHURALIYEVA LAYLO PANJI QIZI

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi.

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Ushbu maqola ‘’G‘ur-g‘ur’’ nomining kelib chiqish tarixini va qishloqdagi tarixiy diqqatga sazovor joylar; Oqtepa, Beshshahid, Qo‘shshahid va Qizilmozor, Ismoiltepa, Zartepa kabi joy nomlari haqida ma’lumot beradi.

В данной статье представлена информация о происхождении названия «Гур-Гур» и исторических достопримечательностях села; такие топонимы, как Октепа, Бешшахид, Кошшахид и Кызылмазар, Исмоилтепа и Зартепа.

This article provides information about the origin of the name "G‘ur-G‘ur" and the historical landmarks in the village; place names such as Oktepa, Beshshahid, Qoshshahid and Kyzylmazar, Ismoiltepa, and Zartepa.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

G‘ur-g‘ur, Oqtepa, Beshshahid, Qo‘shshahid, Qizilmozor, Ismoiltepa, Zartepa, Oqtepa.
Гур-гур, Октепа, Бешшахид, Кошшахид, Кызылмазар, Исмаилтепа, Зартепа, Октепа.
Gur-gur, Oktepa, Beshshahid, Qoshshahid, Kyzylmazar, Ismailtepa, Zartepa, Oktepa.

Kirish. Har bir qishloq, hudud yoki mahallaning nomi o‘zida chuqur tarixiy, madaniy va ijtimoiy ma’nolarni mujassam atadi.Joy nomlari xalqning tili, turmushi, tabiat bilan munosabati, e’tiqodi va tarixi haqida ma’lumot beradi. Shu jihatdan ‘’ G‘ur- g‘ur’’ mahallasi nomining kelib chiqish tarixi ham ilmiy jihatdan o‘rganishga arzigulik mavzulardan biri. Mahalliy aholining aytishicha, 1940-yillarda aholi soni ortib boradi va ualrning suvga bo‘lgan ehtiyoji ham ortaveradi. 1970-yilda odamlarni suv bilan ta’minlash maqsadida “Amuzang” kanali qaziladi va qishloqlarga suv asta- sekin yetib boradi, biroq kanalning pastki qismida yashovchi aholiga suv yetib bormaydi, chunki qishloq arig‘idagi suv noodatiy ovoz chiqaradi ya’ni “g‘ur-g‘ur, g‘ur-g‘ur, g‘ur-g‘ur”.Ovoz juda baland bo‘lgani bilan suv yerlarga yetib bormay g‘oyib bo‘laveradi. Dastlab, odamlar bu holatga yechim topa olishmaydi, izlanishlar natijasida: ariq ostida katta g‘or bo‘lganligi va shu g‘or og‘zida katta ming(gilli tosh qadimda dengiz suvlaridan va qumlardan paydo bo‘lgan tosh) toshlar borligi va shu toshlar orasidan suv oqib o‘tib baland shovqin hosil qilayotganligi aniq boladi vas hu bilan birga qishloq nomi ham G‘ur-g‘ur deb atala boshlaydi.

Asosiy qism. Mahallaning g‘arb tomonidan Surxandaryo daryosi oqib o‘tadi, qadimda bu yerda kulolchilik rivojlangan. Misol qilib Oqtepa, Ismoiltepa, Zartepa kabi tepaliklarni olishimiz mumkin.Qadimgi afsonalarda aytilishicha, ushbu tepaliklarni odamlar xo‘rjinlarda qum tashib qurishgan. Bu tepaliklar qadimda odamalr o‘rtasida aloqa vazifasini bajargan, tepaliklar ustiga odamlar chiqib bir birlari bilan gaplashishgan. Tepaliklar baland bo‘lgan bemalol u tepalik bilan bu tepalik ustidagi odamlar bir birini gaplarini tushunishgan.Shuningdek, bayram va sayllarda tepaliklar ustida baxshilar o‘lan va dostonlar kuylashgan. Tepaliklar o‘rtasida Zartepa karvonsaroy vazifaini bajargan.Karvonlar bu yerda to‘xtab o‘zaro mahsulotlar almashgan, mahalliy xalqning asosiy ishi kulolchilik bo‘lgan. 1980-yilda qishloq odamlari o‘z yerlaridan ko‘za, sopol buyumlarini topishgan va

shu yili Allamurodov Mamarajab ismli tarix fani o‘qituvchisi ilmiy izlanishlari natijasida qadimgi yer osti yo‘lini topadi, u taxminan 1.5 metr balandlikda bo‘lib devorlari g‘ishtdan qurilgan bo‘ladi. Taxminiy farazlarga ko‘ra buy yo‘l qadimda odamlarga dushmanlardan yashirinish uchun va tepaliklar o‘rtasida aloqa almashishga xizmat qilgan.Aytishlaricha, yerosti yo‘li uzun bo‘lib, u Amudaryodan Afg‘onistongacha yetgan.1917-1920-yillarda Qizilarmiya askarlari hududimizga bostirib kela boshlaydi, mahalliy xaql dehqonchilik bilan shug‘ullanayotgan paytda armiya askarlari oldidan chiqqan barcha odamalrni begunoh o‘ldirib ketaverishadi. Xalq tilida begunoh o‘ldirilgan odamalar shahid deb nomlanadi va ular ko‘milgan joylarni ‘’Beshshahid’’ ‘’ Qo‘shshahid ‘’ deb atashadi.

Qishloq daryoga yaqin bo‘lganligi bois qadimda odamlarning asosiy mehnat faoliyati kulolchilik va g‘isht yasash bo‘lgan, shu bois ham dastlab qishloq nomi ‘’Kirpich’’ bo‘lgan (kirpich, forscha- g‘isht degan ma’noni bildiradi.) Keyinchalik, qishloq aholisining ko‘pchiligini qo‘ng‘irot urug‘i vakillari tashkil etgani uchun 1955-1960-yillarda qishloq nomi ‘’ Qo‘ldovli’’deb atala boshlandi.(qo‘ldovli eski o‘zbek tilida kuchli, mart degan ma’noni anglatadi, forschda, qo‘ldovli ‘’ dov ya’ni tov, tog‘ so‘zidan olingan bo‘lib, tog‘da yashovchi xalqlarni anglatgan (qo‘ngi’rot urug‘I ham shu ma’noda).

Xulosa. Tarixiy joylar va tarixiy obidalar bu xalqning o‘zak negizi hisoblanadi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. Asqarov A. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994.
2. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. – Toshkent: Sharq, 1998.
3. Masson M.E. Surxondaryo arxeologik yodgorliklari. – Toshkent: Fan, 1976.
4. Rtveladze E.V. Qadimgi Termiz va Surxon vohasi tarixi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2001.
5. Pugachenkova G.A. Janubiy O‘zbekistonning qadimgi madaniyati. – Toshkent: Fan, 1966.
6. Hasanov H. Geografik nomlar siri. – Toshkent: O‘zbekiston, 1985.
7. Nafasov T. O‘zbekiston toponimlari izohi. – Toshkent: Fan, 1988.
8. Qorayev S. Toponimika asoslari. – Toshkent: Universitet, 2006.
9. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 1–12-jildlar. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2006.
10. Surxondaryo viloyati tarix va madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish boshqarmasi materiallari.
11. Termiz davlat universiteti Tarix fakulteti ilmiy maqolalari va konferensiya to‘plamlari.
12. Mahalliy oqsoqollar va qariya aholidan yozib olingan og‘zaki tarixiy ma’lumotlar.
13. Arxiv materiallari: Surxondaryo viloyat davlat arxivi hujjatlari.
14. Internet manbalari:

- O‘zbekiston Milliy kutubxonasi
- ZiyoNET ta’lim portali
- O‘zbekiston Fanlar akademiyasi

ZARDUSHTIYLIK BUDDIZM KABI XITOYDA KENG TARQALMAGANLIGI SABABLARI

CHORIYEV DALER ALI O‘G‘LI

Termiz davlat universiteti
Tarix fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya / Аннотация / Abstract
Zardushtiylik (zardusht dini) — insoniyat tarixidagi eng qadimgi yakkaxudolik (monoteistik) dinlardan biri bo‘lib, miloddan avvalgi I ming yillikda shakllangan. Bu dinning asoschisi Zardusht (Zoroastr) hisoblanadi. Zardushtiylik qadimgi Eron va Markaziy Osiyo hududlarida keng tarqalgan.

Bu dinning asosiy muqaddas kitobi Avesto bo‘lib, unda diniy marosimlar, axloqiy qoidalar va falsafiy qarashlar bayon etilgan
Зороастризм — одна из древнейших монотеистических религий в истории человечества, сформировавшаяся в 1-м тысячелетии до нашей эры. Основателем этой религии является Зороастр. Зороастризм широко распространен в древнем Иране и Центральной Азии. Главной священной книгой этой религии является Авеста, описывающая религиозные ритуалы, моральные правила и философские взгляды.
Zoroastrianism (Zoroastrianism) is one of the oldest monotheistic religions in human history, formed in the 1st millennium BC. The founder of this religion is Zoroaster. Zoroastrianism is widespread in ancient Iran and Central Asia. The main holy book of this religion is the Avesta, which describes religious rituals, moral rules, and philosophical views.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords
Zardushtiylik, Buddizm, Eron, Hindiston Xuanzang Meditatsiya Zardushtiylik uchta asosiy shior bilan mashhur: Yaxshi o‘ylash (Humata), Yaxshi gapirish (Hukhta) va Yaxshi ish qilish (Hvarshta).
Зороастризм, буддизм, Иран, Индия. Медитация Сюаньцзан. Зороастризм известен своими тремя главными девизами: «Хорошо думать» (Хумата), «Хорошо говорить» (Хухта) и «Хорошо делать» (Хваршта).
Zoroastrianism, Buddhism, Iran, India Xuanzang Meditation Zoroastrianism is known for its three main mottos: Thinking Well (Humata), Speaking Well (Hukhta), and Doing Well (Hvarshta)

Zardushtiylik – ilgarigi diniy tasavvurlar va kup xudochilikka asoslangan diniy e'tiqodlarni takror Zardusht isloh qilishi oqibatida yuzaga kelgan dindir. Bu qadimiy din haqida bir-birini istisno etuvchi fikrlar hanuz davom etib keladi. Ko‘p tadqiqotchilar Zardusht tarixiy shaxs bo‘lib, milodgacha 589-512 yillarda yashab ijod etgan birinchi ilohiyotchi, faylasuf, tabiyotshunos va shoir ekanini e'tirof etadilar. Bu haqiqatga yaqindir.

Zardushtiylik paydo bo‘lgan vaqt quldorlik tuzumi endigina paydo bo‘layotgan davr edi. U urug‘-qabilachilik tuzumi yemirilib aholi qullar va quldorlarga bo‘linayotgan davr bo‘lgan. Bu din eng avval O‘rta Osiyo, so‘ng Eron, Ozorbayjonda qaror topgan edi.

Zardo‘shtning diniy islohotini tushunish uchun o‘sha davr Movarounnahr ijtimoiy - iqtisodiy ahvoli va siyosiy vaziyatini e’tiborga olish kerak. Gap shundaki, Movarounnahr iqlimining nisbatan mo‘tadilligi, geografik jihatdan ikki qit’a o‘rtasida joylashgani sababli savdo-sotiqning kuchayishi bu yerlarda sun’iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik ertaroq vujudga kelishiga sabab bo‘lgan. Ayni chog‘da xunarmandchilik, chorvachilik va ovchilik ham rivojlangan. Bu hududda yilqichilikning rivojlanishi, ayniqsa, Farg‘ona vodiysida qorabayir zotiga o‘xshash otlar boqish keng ko‘lam olgani ham ijtimoiy hayotda katta rol o‘ynaydi. Uning ustiga mis va qo‘rg‘oshin konlariga boy bo‘lgan Oltoyning yaqinligi bu yerda temirchilik, misgarlik rivojiga asos bo‘ldi. Zardo‘sht yashagan davrda o‘troqlik turmushi afzalligi yaqqol namoyon bo‘lgan, ammo unga qabilalar o‘rtasidagi qirg‘inbarot urushlar raxna solayotgan edi. Urushlar ko‘pincha xarajatlar bir qabila va elatning o‘z xudolariga ko‘plab qurbonliklar qilish odatlari zaminida ham yuzaga kelardi. O‘z davrining koxinlari, sehrgarlari va mo‘’tabar qariyalari bilan keng munozaralar olib borgan Zardo‘sht yuqoridagi odatlarini bartaraf etish va xalqlarga tinch mehnat bilan shug‘ullanish imkonini yaratish uchun ko‘pxudolik e’tiqodlariga va otashparastlikka barham berib, yakkaxudolik (arabcha Alloh) ga sig‘inishni targ‘ib etish deb bildi.

Shoh Vishtasia farmoniga binoan «Zardo‘sht 1200 bobdan iborat pandnomasi «Avesto»ni oltin taxtachalarga yozib, shohning otashkadasiga topshirgan» - deydi Firdavsiy. Keyinchalik u «Kitob» 12 ming ho‘kiz terisiga bitilgan, makedoniyalik Aleksandr Sharqni zabt etganda uning nodir nusxasini Elladaga eltib, kerakli joylarini tarjima qildirgan, qolganini yoqtirgan» «Avesto» eng qadimiy yakka

xudochilikka asoslangan dinnning birinchi muqaddas kitobi bo‘lib, e’tiborli tarixiy manba va madaniyat yodgorligi hisoblanadi. Unda dastlabki falsafiy qarashlar bilan diniy - afsonaviy tasavvurlar uyg‘unlashib ketadi; shu zaminda ma’naviy - axloqiy barkamol odam ezgulikni barqaror qila oladigan kurashchan, adolatparvar insonni shakllantirish g‘oyasi markaziy o‘rinni egallaydi.

Zardusht yashagan davrda o‘troqlik hayoti afzalligi yaqqol namoyon bo‘lgan. O‘z davrining kohinlari, sehrgarlari va mo‘'tabar qariyalari bilan keng munozaralar olib borgan Zardusht xalqlarga tinch mehnat bilan shug‘ullanish imkonini yaratish uchun kupxudolik e'tiqodlariga va otashparastlikka barham berib, yakkaxudolikka sig‘inishni targ‘ib etish deb bilgan va shu vazifani bajargan.

Zardushtiylik eradan avvalni VII-VI asrlarga xos bo‘lgan din sifatida undan oldingi urug‘-qabilachilik dinlari negizida paydo bulgan yakkaxudolik dini. U eramizning to VII-IX asrlargacha turli shaklda davom etib, so‘ngra uning o‘rnini islom egallagan. U dastavval Xorazm vohasida shakllanib, Yaqin va O‘rta Sharqgacha tarqalib, ayrim asoratlari haligacha saqlanib kelmoqda.

Zardo‘shtning diniy islohoti o‘z-o‘zidan yuzaga kelgan emas. G‘arbiy Evropa va rus tadqiqotchilarining fikricha, milodgacha bo‘lgan 3-2 ming yilliklarda Markaziy Osiyoda oriy deb atalgan qabila yashagan. A. P Primakning aytishicha, oriylar ko‘chmanchi chorvadorlar bo‘lishgan. Ularda yozma adabiyot bo‘lmagan, ammo hayratomuz og‘zaki ijod iste’dodiga ega bo‘lib, ular yaratgan o‘ziga xos ashula, gimnlar, o‘git-nasihat shaklidagi qo‘shiqlar avloddan-avlodga o‘tib borgan. Umuman, Sharqda qadimda inson ichki olamini munavvar etish, niyati bilan amal mushtarakligiga jiddiy ahamiyat berish diniy va falsafiy fikrlarning markazida turgan. Angliyadagi Oksford universitetining professori Maks Myo‘ller Pomir atrofida yashagan oriy qabilalarining Hindistonga, bir qismi Evropa va Eronga ko‘chib ketishganini ta’kidlab, ular, albatta o‘zlari bilan birga shu erdagi osori-atiqalar (mifologiya)ni ham olib ketishgan, deydi.

Demak Evropa va Hindistonga hamda Yaqin va O‘rta Sharqqa tarqalgan ko‘p xudolik asoslari avvalo Markaaziy Osiyoda vujudga kelgan, shu bilan birga Zardo‘sht asos solgan yakka xudolik din ham boshqa joyda yashayotgan xalqlar e’tiborini o‘ziga jalb etgan.

Masalan, Zardo‘shtiylik dini bo‘yicha katta va izchil tadqiqot olib borayotgan ingliz olimasi Meri Boys bunday deydi: «Zardo‘shtiylikning ulug‘vor va original ta’limotlari butun Yaqin Sharq hududida ta’sir etib, uning asosida iudaizm rivojlangan, xristianlik va islom paydo bo‘lgan». Shuningdek, buddizmning maxayana oqimi ham Zardo‘shtiylikdan oziqlangan. «Shuning uchun, - deydi u, - jahon dinlarining barcha jiddiy adqiqotchilari Zardo‘shtiylikni o‘rganadilar».

Agar Zardo‘shtiylik qadimgi Movarounnahr va Baqtriyadagina emas, balki Araxoziya, Sakiston (hozirgi Afg‘oniston va Shimoliy Hindiston), fore, Midiya, Parfiya, Assuriya, Vaviloniya, Lidiya va Kappodoniya (Kichik Osiyo), Gretsiya, Suriya, falastin hududlariga ham tarqalganini hisobga olinsa, haqli ravishda uni jahonga tarqalgan birinchi din deyish mumkin. Zardo‘shtiylikning Markaziy Osiyoda vujudga kelganligi, u jahon madaniy hayoti (tsivilizatsiyasi)ga ko‘rsatgan zo‘r ta’sirini inkor etish qiyin. Bu din haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lishimizda avvalo ingliz D. J. Bulger, so‘ngra frantsuz tadqiqotchilari A. Dyupliz va A. Dyuperondan minnatdor bo‘lishimiz lozim. 1755 yilda Dyuperon Hindistonga ilmiy safar qilib, u erdagi Zardo‘shtiy (mazdakiy)lar orasida uch yil yashadi, ularning ibodatlari, urf-odatlari bilan yaqindan tanishdi va «Avesto» ni frantsuz tiliga tarjima qildi. Hozir «Avesto»ning to‘rtdan bir qismining eng nodir nusxasi Bombaydagi Kama Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda. U 1915 yilda ko‘chirilgan bo‘lib, 672 betdan iborat. «Avesto» ning qarbiy Evropa, Eron va hind tillari orqali bizga ma’lum bo‘lgani uchun undagi nomlar va terminlar, aftidan asliga to‘g‘ri kelmaydi. Ko‘pgina osori atiqalar, ismlar, joylarning nomlari hindcha tusda yoki hindi – evropa tillariga xos shakl olgan. Undagi turkona jihatlar kam qolgan. Har bir sohada birinchi ish, birinchi qadam, birinchi kashfiyot bag‘oyat qadirlanib, insoniyat bu qadamini boshlab bergan kishilarni minnatdorchilik tuyg‘ulari bilan doimo eslab turishni o‘z burchi hisoblagan. Shu ma’noda jahon dinlari keyingi 2, 5-1, 5 ming yil davomida takomillashgan, ularning marosimlari,

urf-odatlari, rasm-rusumlari nechoglik xilma-xil tus olgan bo‘lmasin, ular baribir Zardo‘sht asos solgan yakka xudochilik e’tiqodlarining vorisi hisoblanishi kerak. Ulug‘ vatandoshimiz Zardo‘sht Sepitomaning tarixida, madaniy taraqqiyotda o‘ynagan buyuk rolini tiklash orqali o‘z milliy qadriyatlarimizni ham tiklagan bo‘lamiz.

Zardushtiylik dini ta'limotini quyidagi uch tarixiy qismga bo‘lish mumkin; 1. Eng qadimiy qismi miloddan avvalgi 3-ming yillikda vujudga kelgan Yashtlardir; ularda urug‘chilik tuzumidagi e'tiqodlar, ko‘p xudolik tasavvurlari tasvirlangan; 2. Gatlar deb atalgan qismidir. Bunda Axuramazda nomli xudo haqida fikrlar yozilgan; 3. Qadimiy ko‘pxudolilik va keyingi yakkaxudolilik g‘oyalari orasidagi kurash sharoitlarida eramizdan avvalgi V asrda har ikkisini kelishtirgan mazdahiylik dini shakllangan. «Avesto» bu dinning oxirgi va asosiy qismini bayon etgan. Zardushtiylikning asosiy g‘oyalari olimdagi barcha tartiblar, ezgulik (yaxshilik) va yomonlikdagi, ziyo va zulmat, hayot va o‘lim o‘rtasidagi kurashga bog‘liq; dunyodagi barcha ezguliklarni Ahuramazda, yomonliklarni Ahriman ifodalaydi; bu kurashda odam asosiy kuch va rolni o‘ynaydi, u tanlash erkinligiga ega, u o‘z g‘ayrati bilan bu dunyoda adolat topishiga ta'sir eta oladigan kurashdir.

Zardushtiylik uchta asosiy shior bilan mashhur: Yaxshi o‘ylash (Humata), Yaxshi gapirish (Hukhta) va Yaxshi ish qilish (Hvarshta)[1].

Bu tamoyillar inson hayotining asosiy maqsadi sifatida qaraladi. Zardushtiylikda olov muqaddas hisoblanadi. Ammo bu olovga sig‘inish emas, balki olov orqali poklik va ilohiy nur ifodalanadi. Shu sababli ibodatxonalarida doimo olov yonib turadi.

Zardushtiylik Ahamoniylar imperiyasi davrida davlat dini sifatida rivojlangan. Keyinchalik u Sosoniylar imperiyasi davrida ham muhim o‘rin tutgan.

Bugungi kunda Zardushtiylik izdoshlari asosan Eron va Hindiston (parsilarda) yashaydi[2].

Nega Zardushtiylik Buddizm kabi Xitoyda keng tarqalmagan?

Buddizm Hindistondan chiqib, Buyuk Ipak yo‘li orqali Xitoyga kirib kelgan va aynan savdogarlar, rohiblar orqali faol yoyilgan[3]. Zardushtiylik esa asosan Eron hududi bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘proq mahalliy va davlat dini sifatida shakllangan. U xalqaro missionerlik xarakteriga ega emas edi. Buddizm faol targ‘ibot qilgan din edi: Rohiblar boshqa mamlakatlarga borib ta’lim bergan Matnlar tarjima qilingan Mahalliy madaniyatga moslashgan

Masalan, Xuanzang kabi rohiblar Hindistonga borib, keyin Xitoyda buddaviylikni rivojlantirgan. Zardushtiylikda esa bunday faol missionerlik deyarli bo‘lmagan[4].

Buddizm Xitoyda imperatorlar tomonidan qo‘llab-quvvatlangan: Han Mingdi davrida buddaviylik rasman kirib kelgan Keyinchalik ko‘plab sulolalar uni rivojlantirgan. Zardushtiylik esa Xitoyda davlat darajasida qo‘llab-quvvatlanmagan, faqat ayrim savdogar jamoalari orasida mavjud bo‘lgan. Buddizm Xitoy falsafasiga (konfutsiychilik va daosizmga) moslashib ketgan: Meditatsiya (chan, zen), Axloqiy tizimlar uyg‘unligi

Zardushtiylik esa qat’iy dualistik (yaxshilik–yomonlik) tizimga ega bo‘lib, Xitoy falsafasiga kamroq mos tushgan. Buddaviy matnlar tezda xitoy tiliga tarjima qilingan va keng yoyilgan[5].

Zardushtiylikning asosiy kitobi-Avesto esa murakkab til (avesto tili) bo‘lib, keng tarjima qilinmagan. Zardushtiylik Arab istilolaridan keyin o‘z markaziy hududlarida zaiflashib ketgan. Shu sababli tashqi hududlarga keng yoyilish imkoniyati kamaygan[6].

Xulosa o‘rnida aytish kerakki, Zardushtiylikning Xitoyda keng tarqalmaganiga asosiy sabablar: missionerlikning sustligi siyosiy qo‘llab-quvvatlashning yo‘qligi, falsafiy moslashuvchanlikning kamligi, tarixiy inqirozlar. Aksincha, buddaviylik faol targ‘ibot, moslashuvchanlik va imperatorlar yordami tufayli Xitoyda chuqur ildiz otgan.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. Аманов Т., Маткаримов К. O‘zbekiston etnografiyasi.– Toshkent: Fan, 2008.

2. Наимов Б. Surxon vohasi tarixi va madaniyati.– Termiz: Surxon, 2015.
3. Арипов А. O‘zbek xalqining moddiy madaniyati.– Toshkent: Universitet, 2002.
4. Холмирзаев Н. Janubiy O‘zbekiston etnografik xususiyatlari.– Toshkent, 1999.
5. Саъдиев А. O‘zbekiston xalq og‘zaki ijodi va an’analari.– Toshkent: Sharq, 2007.
6. Termiz arxeologik ekspeditsiyasi materiallari (Dalvarzintepa, Jarqo‘rg‘on, Kampirtepa
7. K.Imomov, T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, O, Safarov. O‘zbek xalq og‘zaki poetic ijodi.-Toshkent; O‘qituvchi, 1990.

TEMUR VA TEMURIYZODA

TURSUNBOBOYEVA MARHABO

Termiz davlat universitetining
Tarix fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya / Аннотация / Abstract
Mazkur maqolada Amir Temur va temuriyzodalar faoliyati, ularning davlat boshqaruvi, ilm-fan, madaniyat hamda bunyodkorlik sohalaridagi xizmatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, Temuriylar davrida Movarounnahr va Xuroson hududlarida yuz bergan siyosiy, iqtisodiy va madaniy yuksalish jarayonlari yoritilgan. Maqolada temuriy hukmdorlarning ilm ahliga bo‘lgan e’tibori, me’morchilik va adabiyot rivojiga qo‘shgan hissasi tarixiy manbalar asosida ochib beriladi.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords
Amir Temur, Temuriylar, Movarounnahr, Xuroson, davlat boshqaruvi, madaniyat, ilm-fan, bunyodkorlik, me’morchilik, tarixiy meros, uyg‘onish davri, temuriyzodalar.

Saroymulkxonim 1341-yilda Zangirsoyda (Qashqadaryo) tug;ilgan.U 1341-1346-yillarda Movarounnahr ya’ni Chig‘atoy ulusi taxtiga, 4-yil hukmronlik qilgan 22-xon Sulton Qozonxon Yasovur O‘g‘lonning qizi edi.

1346 -yilda Qozonxon taxtdan mahrum etilib, qatl qilinganida Saroymulkxonim 5 yoshda edi. Uni yoshligida Mehribona der edilar. Saroymulkxonim 14 yoshida ya’ni 1355-yilda Movarounnahr hukmdori Qazag‘onning nabirasi Amir Husayn nikohiga kiradi.

Saroymulkxonimning qomati tik, yanoqlari bilinar-bilinmas bo‘rtib turgan, oppoq yuzlari ajinsiz, bodomqovoqlari ustiga hiloldek egilgan qoshlari ingichka va qora edi.

1366-1370-yillarda Amir Temur va Amir Husayn o‘rtasida Movarounnahr taxti uchun bo‘lgan jangda Amir Temur g‘alaba qozonadi va Movarounnahr taxti bilan birga Amir Husayn haramidagi ayollarni ham oladi. Jumladan, ular orasida;Tarmashirinxonning qizi, Suyunch Qutlug‘, Bayon sulduzning qizi Ulus og‘o, Yasovurning qizi Islom og‘o hamda Tag‘oy Turkon xotun shu bilan bir qatorda Saroymulkxonim ham bor edi.

Amir Temur 3 oydan so‘ng Saroymulkxonimni o‘z nikohiga oladi. Albatta, Saroymulxonimgacha Amir Temurning boshqa ayollari ham bor edi. Aslini olganda, Amir Husayn Amir Temurning qaynog‘asi hisoblanadi. Negaki, Temur 1352-yilda Husaynning singlisi Uljoy Turkon og‘aga uylangan edi. Ammo o‘sha davrda g‘olib tomon mag‘lub tomonnig boyliklari bilan bir qatorda uning haramidagi ayollarni ham qo‘shib olardi. Amir Temur Saroymulkxonimga uylanganidan so‘ng, ‘’Ko‘ragoniy ‘’ ya’ni xonning kuyovi degan nomni oladi. Saroymulkxonim esa, haramdagi barcha malikalardan ulug‘rog‘i hisoblanib, ‘’Katta xonim’’ yoxud Bibixonim unvoniga sazovor bo‘ladi. Albatta, bunday e’zozga Musharraf bo‘lishiga uning aql-zakovat, did-farosat egasi ekanligi sabab bo‘lgan. Ayrim tarixchilar Saroymulxonimni Saroymalikaxonim deb ataydilar, ularning fikriga qaraganda, malika-podsho ma’nosini anglatib, Saroymalikaxonim esa-saroyning podsho xonimi degan ma’noni beradi.

Saroymulkxonim insonparvar, vatanni sevuvchi, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy

madaniy hayotidan ham anchagina xabardor edi. Hattoki, Sohibqironning harbiy yurishlarida ham birga bo‘gan.

Saroymulkxonim ziyrakligi, aqli -farosati bilan lol qoldirar, saltanatni boshqarishda yuzaga kelgan muammolarni ham brtaraf eta olardi. Amir Temur Saroymulkxonimga oshkora bo‘ysunmasada, uning maslahatlariga ehtiyoj sezardi. Saroymulkxonim Temurning eng ishonchli qo‘shin boshlig‘i hisoblangan,

Amir Temur fikriga ko‘ra:’’100 ming kishilik qo‘shindan ko‘ra, puxta o‘ylangan birgina reja ustundir’’.

Amir Temurning harbiy yurishlari vaqtida, saltanat ishlarini boshqarish Saroymulkxonim zimmasiga tushardi.

Temurning Eronga yurishi vaqtida, Isfaxon qamali ko‘pga cho‘zilib, qo‘shinning ozuqasi tugab, qolgan mablag‘ esa qo‘shinni ta’minlashga ojizlik qilardi.

Shunda Temur Samarqandga Saroymulkxonimga maktub yo‘llaydi. Maktubda;’’Qo‘shinning zaxirasi tugadi, xazinadan zar yuboring‘’ deyilgandi, Saroymulkxonim maktubning orqa tomoniga;’’Ulug‘ Amir, zaringiz tugagan bo‘lsa, siyosatingiz ham tugadimi?’’-deb yozib yuboradi.

Amir Temur Saroymulxonimning javob maktubini o‘ylay -o‘ylay soqchilariga yon -atroflarga soqilib yotgan suyaklarni yig‘ishni buyuradi.Ushbu suyaklardan katta -kichik hajmda qirqiladi va muhr bosib pul sifatida ishlatadilar. Isfaxon egallanganidan so‘ng suyaklar zarga almashtiriladi.

Ispaniya elchi Rui Gonsales de Klavixoning bergan ma’lumotlariga qaraganda, Amir Temurning elchilarni qabul qilish marosimiga xotinlari ham ishtirk etgan. Xususan, Temur 1404-yilning 8-sentabr dushanba kuni Dilkusho bog‘ida ispaniya qiroli Genrix lll yuborgabn elchi Klavixoni Dilkusho bog‘ida qabul qiladi. Qabul marosimida Temurning yonida Saroymulkxonim boshliq boshqa ayollari ham yuzlariga parda tortib turardilar deydi ispan elchisi.

Jang-u jadal bilan olingan mamlakatlardan birining aholisini itoat qildirolmadan Amir Temur nima qilishin bilmay yeti kecha -kunduz o‘ylab so‘ng Samarqandga Saroymylkxonim nomiga maktub yo‘llaydi va elchini Movarounnahr tomon yuboradi. Elchi uzoq masofalarni bosib o‘tar ekan, Samarqanga yetay deganda, nafasini rostlamoq uchun bir joyga to‘xtaydi va kutilmaganda, o‘yga toladi shunda u; ‘’Amir Temur Bibixonimni ko‘rmaganiga ancha vaqt bo‘ldi, balki unga atab g‘azal yozgandir deya, maktubni ochadi. Maktubda g‘azal emas, balki bor yo‘g‘i ikki jumla bitilgan edi;’’Olgan mamlakatimning xalqini itoatda tutmoqqa kuchim yetmayapti. Qanday maslahat berasan ?’’ deb yozilgan edi.

Chopar Samarqandga yetib kelib, Ko‘ksaroyga kirib, Bibixonimga maktubni topshiradi. Oqila ayol ushbi maktubni o‘qilganini sezadi va javob maktubini shunday yo‘llayki, elchi uni yetkazsin-u ammo nima deganini tushunmasin deya bir tadbir o‘ylaydi.Shunda xizmatchilarini chaqirtirib falon yerdagi chakalakzorning bitta daraxtini ham qoldirmay kesib tashlanganlar deb buyuradi. ular bilan birga elchini ham yuboradi. Xizmatchilar aytilgan ishni bajarib bo‘lganlaridan so‘ng endi to‘nkalarni qo‘parib, chakalakzor o‘rnini tep -tekis shudgorga aylantiringlar degan buyruq oladilar. So‘ng uning o‘rniga yangi nihollar ekadilar, Bibixonim ham nihol ekishga qatnashadi. Ish yakunlanganidan so‘ng, Bibixonim elchini chaqirib;

- Yo‘lga chiqadigan vaqting bo‘ldi, otlan, -debdi.

Elchi hayron bo‘lib;

- Sohibqironga javob yozmaysizmi?-debdi.

Bibixonim;_- yo‘q yozmayman sen sohibqironga bu yerga ko‘rganlarini aytib bersang kifoya deb elchini jo‘natib yuboribdi.

Elchi Temur huzuriga yetib kelgach

-Xo‘sh xat keltirdinmi? -debdi Temur.

-Yo‘q. Malikam xat yozmadilar faqat bu yerga ko‘rganlaringni aytib bersang kifoya dedilar deya bo‘lgan voqealarni aytib beribdi. Shunda Temur elchini xatni o‘qiganini payqabdi.

Temur Bibixonimni nima demoqchi ekanligini anglabdi va elchini jazolashni ham unutib yuboribdi.

Bibixonim Temurga bosib olgan mamlakat aholisini itoatda tutmoq uchun keksa

oqsoqollarni xizmatidan butunlay bo‘shatib, o‘rniga yoshlarni tayinlashni maslahat beribdi.

Amir Temur Bibixonim aytganidek ish ko‘ribdi. Tez orada mamlakat aholisi boshini itoatda tutadigan bo‘lib qolibdi.

Bibixonim haqida boshqa bir afsona; Amir Temurning yurishi vaqtida Bibixonim davlat ishlarini boshqarar, tunda fuqorolarning dilidagi sir-u asrorni bilmoq uchun erkakcha kiyimda shaharni kezib chiqardi. Shunday kunlarning birida hujrada suhbatlashib o‘tirgan uch mullavachcha suhbatini eshiti qolibdi.

Talabalardan biri- uzoq tog‘ qishloqlaridan kelib o‘qiyotgan faqir bir oilaning farzandi ekanligi bilinib turar, va u ichi bir armon va havaf bilan;

_- Eh, qaniydi bir marta bo‘lsa ham Bo‘stonsaroy dasturxonida qo‘yiladigan noz-u ne’matlardan ta’tib ko‘rsaydim armonim qolmasdi, -debdi.

Ikkinchi talaba – kelishgan qomatli bo‘lib o‘qishdan ko‘ra, o‘ziga ko‘proq e’tibor berishi ko‘rinib turar va uning orzusi;

-Eh, qaniydi Bibixonimdek, sohibjamol mening mashuqam bo‘lsa, deya ko‘zini yumib hayollarga cho‘mibdi.

Uchinchi talaba shunda shu ham orzu bo‘ldimi deya; “Men Sohibqirondek bo‘lishni orzu qilaman” - debdi. U so‘zida davom etib: “Ana shunda, barchan oz-u ne’matlar ham Bibixonimdek ayollar ham meniki bo‘ladi’’- debdi.

Ertsiga saroy soqchilari Bibixonim topdhirig‘I bilan tundagi uch Talabani saroygs olib borishibdi. Ular nima bo‘layotganidan xabarsiz, nima gunoh qilganlarini o‘ylab turgan bir vaqtda yuziga parda tortilgan holda Bibixonim ularning oldiga kelibdi va talabalarga;

-Orzularing bo‘lsa menga so‘ylanglar, qo‘limdan kelsa, bajo aylayman debdi.

To‘satdan berilgan savolgan talmovsirab qolgan talabalar tundagi sahbatni kimdir xonimga yetkazibdi deb o‘ylabdilar.

Shunda Bibixonim birinchi talabaga yuzlanib -sening orzuinga yetmoqlik mushkul emas, buning uchun seni saroy oshpazining qiziga uylantirib qo‘yaman debdi.

So‘ng “Bibixonimday sohibjamol xotinim bo‘lsaydi” - deya orzu qilgan ikkinchi talabaga yuzlanib;

Men buyuk sohibqiron Amir Temurning jufti haloliman.Biroq, senga Movarounnahr-u Xurosondagina emas, Shom-u Iroqda ham husnda tengi yo‘q kanizimni turmushga beraman debdi.

Uchinchi talaba yuzlanar ekan, Bibixonim: “Sening ishing osonroq, balki qiyin bo‘lishi ham mumkin” - debdi.

Shunda sohibqirondek kuchli bo‘lishni orzu qilgan talabaga qilich va sovutni in’om qilibdi va yuragingga o‘t va olov bo‘lsa buyog‘i o‘zingga bog‘liq debdi.

Tez orada ushu voqealar qirq kunlik masaofada turgan Amir Temur qulog‘iga yetibdi. Oqila va zehnda tengi yo‘q ayoliga tahsinlar o‘qibdi.

Amir Temurning Bibixonimdan farzandi bo‘lmagan. Shuning uchun ham Shohrux Mirzo, Jahongir Mirzo, Sulton Xalil Mirzo, Mirzo Ulug‘bek kabi shahzodalarning tarbiyasi bilan Amir Temurning eng ishonchli kishisi sifatida shug‘ullangan

-Ayrim ma’lumotlar Shohrux Mirzoni Bibixonimning o‘g‘li ekanligini tasdiqlaydilar. Ammo u Temurning boshqa xotini Tag‘oy Turkon og‘aning o‘g‘li hisoblanadi.

Mirzo Ulug‘bekning ilm fan bilan shug‘ullanishida Bibixonimning o‘rni beqiyosdir. Xususan, Astronom ilmi bilan shug‘ullanishida Amir Temurni Bibixonim ko‘ndirib bergan.

Shu boisdan ham Bibixonimga nisbatan Ulug‘bekning hurmati cheksiz edi.

Samarqanda Bibixonim madrasasi mavjud bo‘lib, uni Amir Temur xotiniga atab qurdirgan degan ma’lumotlar uchaydi. Boshqa bir adabiyotlarning bergan ma’lumotlariga qaraganda, Amit Temur maqbara qurdirayotganida, Bibixonim o‘zi va onasi uchun maqbara qurishga ruxsat so‘raydi. Bu ishga o‘zi boshchilik qiladi.

Ushbu maqbaraning qurilishi 1399-yil 10-marta boshlanib, 1404-yilda yakunlanadi. Masjid hovlisi to‘rt tomondan ravoq va peshtoqlar bilan o‘ralgan.umumiy sahni 167x109 m bo‘lib,

burchaklarida baland minoralar bo‘lgan u 31 metrni tashkil etgan.

Ushbu masjid Amir Temur Juma masjidi deb ham atalgan va u nomoz o‘qiladigan joy hisoblangan.

Ushbu masjid Buxoro xoni Abdulaxon ll tomonidan tag tugi bilan vayron qilingan edi deya ta’kidlansa, boshqa bir ma’lumotlar 1868-yilda ruslar bosqini arafasida eng katta talofat yetgan degan ma’lumotlar uchraydi.

1897-yilgi zilzila oqibatida maqara ichidagi Usmon Mus’hafi maqbara hovliga o‘rnatiladi. Ushbu Qur’on tosh ustunlar ustida qo‘yilgan bo‘lib, u Mirzo Ulug‘bek tomonidan yasatirilgan.

Amir Temur 1405 – yilda Xitoyga yurishi vaqtida to‘satdan vafot etadi. Uning vafotidan so‘ng shahzodalar orasida taxt uchun kurash ichki nizolar kuchayadi. Albatta Saroymulkxonimga nisbatan ham tazyiqlar ortib boradi.

1408 -yilda Sulton Xalil Mirzoning xotini Shodimulk xonim tomonidan Bibixonim zaharlab o‘ldiriladi.Bibixonim qabri Samarqandda joylashgan bo‘lib, 3 marta ochilgan. Buning asosiy sabablaridan biri uni boyliqlar bilan ko‘milgan deb o‘ylashgan.1-marta 1871- yilda 2-marta 1926-yilda o‘g‘rilar tomonidan va 3-marta 1941 -yilda sovetlar tomonidan qabr ochiladi. Qabr ochilganida Bibixonimni bir qo‘li yo‘qligiga guvoh bo‘ladilar.

Xulosa qilib, shuni aytishim joizki, sovet davrida Amit Temur

nomi qoralangan. Ayrim tarixchilar uni ilmsiz edi deya ta’kidlasalar boshqa bir tarixchilar Temur ilmsiz bo‘lgani uchun johil edi deb qoralaydilar.Albatta, mustaqillik yillaridan so‘ng bunday qora dog‘lar olib tashlandi, . Movarounnahrda markazlashgan davlat asoschisi islom dinini yoyishda 8-buyuk hukmdor hisoblanmish Amir Temur nomi oqlandi va Ulug‘bekdek buyuk astronom olimni tarbiyasiga boshchilik qilgan Bibixonim nomi cheksiz xurmat bilan tilga olindi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1996.
2. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent: Sharq, 2002.
3. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – Toshkent: O‘zbekiston, 1996.
4. Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi. – Toshkent: Cho‘lpon, 1994.
5. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Yulduzcha, 1989.
6. Bo‘riboy Ahmedov. Amir Temur. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1995.
7. Turg‘un Fayziyev. Temuriy malikalar. – Toshkent: Yozuvchi, 1994.
8. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. O‘zbekiston tarixi. III jild. – Toshkent: Fan, 2015.
9. Temur va Ulug‘bek davri tarixi. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1996.
10. History бўйича Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2004.

TEMURIYLAR DAVRIDA TERMIZ SHAHRINI TUTGAN O‘RNI

ESHBOYEV MAHMUD NORQOBIL O‘G‘LI

Termiz davlat universiteti
Tarix fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya / Аннотация / Abstract
Termiz shahrining tutgan strategik o‘rni, uning aholisi. Termiz shahrini savdo-karvon yo‘llari chorrahasida joylashgani. Temuriylar davriga kelib yirik savdo tuguniga aylandi.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords
Temuriylar davri, savdo aloqalari, Termiz shahri, aholi, Amir Temur, Amudaryo.

XIV - XV asrlar shahar hayotining eng yuksak davri bo‘ldi. Yangi Termiz eski shahardan maydoni jihatdan to‘rt barobar katta edi. Dunyoning ko‘plab shaharlarini ko‘rgan ispan elchisi Ryu Gonsales de Klavixo Termizning ulkan hududini ko‘rib hayratga tushgan edi. Uning uchun Samarqand podsholigi Termizdan boshlangan. Termizni tasvirlagan xitoylik sayohatchilar ulardagi mo‘l-ko‘lchilik va obodonchilikni alohida qayd etganlar. Jumladan kechayu kunduz faoliyat ko‘rsatadigan do‘konlar va oshxonalar o‘ziga xos hammomlar xorijliklarni lol qoldirgan.

Biz kelib tushgan Termid (Termiz) ancha-muncha aholi yashaydigan kattagina shahar ekan. Atrofi devor bilan o‘ralmagan, bu yerda bog‘-rog‘lar ko‘p, suv mo‘l edi. Shahar haqida men sizga faqat shuni aytishim mumkinki, unga kirganimizdan so‘ng shu qadar ko‘p yo‘l yurdikki, bizga ajratilgan binoga yetib kelganimizda batamom holdan qolgan edik. Butun yo‘l davomida har xil narsalar bilan savdo qilinayotgan gavjum maydonlar va ko‘chalardan o‘tdik.

Temuriylar davri manbalarida xalqaro savdo yo‘lidagi aholi maskani, Amudaryo bo‘yidagi savdo karvonlari o‘tadigan joy sifatida Termiz shahri ko‘rsatilgan. Amir Temur saltanatida va undan so‘ng Mirzo Shohrux hukmronligi davrida Termiz janubda Hindistondan va g‘arbda Xurosondan Hirot yo‘nalishi bilan Movarounnahrga va undan shimol ham sharqda joylashgan

o‘lkalarga yoki Xitoydan Samarqand va janubiy yo‘nalishi Hisori Shodmon orqali yuradigan savdo karvonlari to‘xtab o‘tadigan Buyuk ipak yo‘lidagi muhim shahar edi. Termiz juda katta aholi gavjum bog‘ rog‘lari ko‘p, obod shahar bo‘lishi bilan bir qatorda, Movarounnahrning boshqa yirik shaharlaridan farqli olaroq, tashqi devori yo‘q edi.

Termizning ravnaq topishi hamda ahamiyatining oshishiga sabab bo‘lgan omillardan biri bu Amudaryodagi muhim kechuvlarni va xalqaro savdoni muhim markazini qo‘riqlashdir. Shu munosabat bilan Amudaryo ustidan Termiz ko‘prigi qurilgan. Ko‘prik mahalliy ustalar tomonidan qurilganligi haqida ma’lumot muhim xulosalarga kelishga imkon beradi. Sohibqironning Termizdagi hozirgacha saqlanib qolgan qadimiy obidalarning qurilishida va ta’mirlanishida katta hissasi bor.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda Termiz shahri qadimdan ham yirik shaharlardan biri bo‘lgan. Arab bosqinchiligi davrida va mo‘g‘ul bosqinchiligi davrida shahar dushmanlarga munosib qarshilik ko‘rsatgan. Amir Temur va Temuriylar davriga kelib esa Termiz shahri mutloq rivojlandi. Termiz shahri o‘zining aholisi, bog‘-rog‘lari va hududiy jihatidan ham ajralib turgan.

Ayniqsa, Termiz shahrini savdo yo‘llari chorrahasida joylashganligi juda katta ahamiyatga ega edi. Bu bir tomonlama Termiz shahrini rivojlanishiga olib kelgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan Temuriylar davlatini yuksalishiga olib keldi. Yana shuni xulosa o‘rnida aytishimiz kerakki, Amir Temurning hokimiyat tepasiga chiqishi aynan Termiz shahrida ro‘y bergan. Termizlik Sayid Baraka

tomonidan hokimiyat ramzi bo‘lmish bayroq va
tug‘ berilishi bunga yaqqol misoldir.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. Termizning muxtasar tarixi. Jaloliddin Mirzo, — Termiz: "Kitob nashr" nashriyoti, 2025. 45-46 b.
2. Gonsales Rui De Klavixo. Samarqandga — Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406). Tarjimon O. Tog‘ayev. — T.; "O‘zbekiston", 2010 — 143-144 b.
3. Akbar Zamonov O‘zbekiston tarixi. III qism. Temuriylar, shayboniylar va ashtarxoniylar davri. Darslik / A. Zamonov — Toshkent: “Bayoz”, 2023. 315 b.

QADIMGI YUNONISTONDA AYOLLARNING IJTIMOIY VA HUQUQIY MAVQEI

ABDURAIMOVA MARJONA ABDUVAHOB QIZI

Termiz davlat universiteti
Tarix fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Mazkur maqolada qadimgi Yunonistonda ayollarning ijtimoiy va huquqiy mavqei ilmiy asosda tahlil qilinadi. Xususan, Afina va Sparta jamiyatlari misolida ayollarning jamiyatdagi o‘rni, ularning huquqlari, oilaviy hayotdagi roli hamda ijtimoiy cheklovlar yoritiladi. Afina jamiyatida ayollarning siyosiy va huquqiy jihatdan cheklanganligi, ularning erkak vasiylik tizimi ostida yashaganligi tahlil qilinadi. Shu bilan birga, Sparta ayollarining nisbatan erkinroq mavqei va jismoniy hamda ijtimoiy hayotdagi faolligi ko‘rib chiqiladi. Maqolada, shuningdek, qadimgi va zamonaviy davrlar o‘rtasida ayollarning huquqiy maqomidagi o‘zgarishlar ham tahlil etilib, gender tengligi masalasining tarixiy ildizlari ochib beriladi. Tadqiqot natijalari qadimgi jamiyatlarda ayollarning o‘rni va zamonaviy gender tengligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni yoritishga xizmat qiladi.

В данной статье на научной основе анализируется социально-правовой статус женщин в Древней Греции. В частности, на примерах афинского и спартанского обществ освещается роль женщин в обществе, их права, роль в семейной жизни и социальные ограничения. Анализируются политические и правовые ограничения женщин в афинском обществе, их жизнь под мужской опекой. Одновременно рассматривается относительно более свободное положение спартанских женщин и их активность в физической и социальной жизни. В статье также анализируются изменения правового статуса женщин между античностью и современностью, раскрываются исторические корни проблемы гендерного равенства. Результаты исследования позволяют пролить свет на связь между ролью женщин в античных обществах и современным гендерным равенством.

This article analyzes the social and legal status of women in ancient Greece on a scientific basis. In particular, the role of women in society, their rights, role in family life, and social restrictions are highlighted using the examples of Athenian and Spartan societies. The political and legal limitations of women in Athenian society, their living under the male guardianship system, are analyzed. At the same time, the relatively freer position of Spartan women and their activity in physical and social life are considered. The article also analyzes the changes in the legal status of women between ancient and modern times, revealing the historical roots of the issue of gender equality. The results of the research serve to shed light on the connection between the role of women in ancient societies and modern gender equality.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

Qadimgi Yunoniston, ayollar mavqei, gender tengligi, Afina, Sparta, huquqiy maqom, ijtimoiy rol, patriarxal jamiyat, epikleros

Древняя Греция, статус женщин, гендерное равенство, Афины, Спарта, правовой статус, социальная роль, патриархальное общество, эпиклерос.
Ancient Greece, status of women, gender equality, Athens, Sparta, legal status, social role, patriarchal society, epicleros.

Bugungi kunda jamiyatda inson huquq va erkinliklari, xususan gender tengligi masalasi muhim ijtimoiy-huquqiy tamoyillardan biridir. Biroq, tarixiy taraqqiyot jarayoniga nazar tashlansa, qadimgi jamiyatlarda bunday tenglik tamoyillari buzilganligini ko‘rishimiz mumkin. Birgina Qadimgi Yunonistonda ayollarning ijtimoiy va huquqiy maqomi cheklangan bo‘lib, ular asosan oilaviy hayot doirasida faoliyat yuritgan. Ushbu holat patriarxal tuzumning ustuvorligi hamda ijtimoiy munosabatlarning an’anaviy shakllari bilan izohlanadi. Shu jihatdan, qadimgi yunon jamiyatida ayollarning o‘rni va ularga bo‘lgan munosabatni ilmiy asosda tahlil qilish nafaqat tarixiy, balki zamonaviy gender tadqiqotlari uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Qadimgi Yunonistonda ayollarning huquqiy mavqei ko‘pincha cheklangan bo‘lib, ular asosan oilaviy hayot doirasi bilan chegaralangan ijtimoiy guruh sifatida qaralgan. Ular siyosiy huquqlardan mahrum etilgan va jamoat hayotida to‘liq ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘lmagan. Biroq zamonaviy davrga kelib, ayollarning huquqiy maqomi tubdan o‘zgarib, gender tenglik tamoyillari huquqiy darajada mustahkamlandi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 58-moddasida xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi aniq belgilab qo‘yilgan bo‘lib, bu qoida jamiyatda tenglikni ta’minlashning muhim huquqiy asoslaridan biri hisoblanadi. [1:36]

Yunonistonda qadimgi va zamonaviy davrlarda ayollarning ijtimoiy holati hamda huquqiy mavqei mamlakat tarixiy taraqqiyoti davomida yuz bergan siyosiy va jamiyat o‘zgarishlari bilan bevosita bog‘liq holda shakllangan. Maykl Skott o‘zining “Qadimgi Yunonistonda ayollarning yuksalishi” maqolasida qadimgi yunon jamiyatida ayollarning o‘rni va ularning ijtimoiy mavqeidagi ayrim o‘zgarishlarni tahlil qiladi. Ushbu jarayonlarni tushunishda qadimgi manbalarda keltirilgan qarashlar ham muhim ahamiyatga ega. Jumladan, Fukidid tomonidan qayd etilgan quyidagi fikr bu davrda ayollarning jamiyatdagi ko‘rinmas va cheklangan maqomini ifodalaydi: “Eng buyuk shon-sharaf [ayollar uchun] odamlar orasida, xoh maqtovda, xoh malomatda eng kam tilga olinadigan narsadir.” [2:6] Bu iqtibos qadimgi Yunonistonda ayollarning ijtimoiy hayotdan deyarli chetlatilganini va ularning faoliyati ko‘pincha jamiyatdan tashqarida qolganini ko‘rsatadi.

Qadimgi Afinadagi ayollar huquqqa ega bo‘lmaganlar va ular erkak kirios (xo‘jayin) boshchiligidagi oikos (uy xo‘jaligi) tarkibiga kirganlar. Afina jamiyatida xotinning huquqiy atamasi damar sifatida tanilgan, bu so‘z "bo‘ysunmoq", “bo‘ysunuvchi xotin” ma’nosini bergan. Qadimgi yunon faylasufi Ploton esa jamiyatdagi bunday tengsizlik haqida birinchilardan bo‘lib erkak va ayollar tengligi g‘oyasini ilgari surgan. [3:65]

Qadimgi Yunonistonda nikohgacha bo‘lgan davrda ayollar otasi yoki boshqa erkak qarindoshlari nazorati ostida bo‘lgan. Nikoh tuzilgach esa ayolning huquqiy vasiyligi otadan erga o‘tgan. Erkaklar odatda o‘rtacha 30 yoshda turmush qurgan bo‘lsa, ayollar uchun nikoh yoshi taxminan 14 yoshni tashkil etgan. Mazkur ijtimoiy-huquqiy tizim qizlarning nikohga qadar bokiraligini saqlash va ularning oilaviy hamda ijtimoiy nazorat ostida bo‘lishini ta’minlashga xizmat qilgan. Qadimgi Yunoniston, xususan Afina huquqiy tizimida erkak merosxo‘r bo‘lmagan hollarda oilaning mulki va nasl davomiyligini saqlash uchun epikleros instituti qo‘llanilgan. Agar oila boshlig‘i vafot etib, erkak voris qolmagan bo‘lsa, uning qizi epikleros, ya’ni merosga “bog‘langan merosxo‘r” maqomiga ega bo‘lgan shaxs sifatida tan olingan. Bunday vaziyatda ayol mulkning to‘liq egasi emas, balki uni saqlab turuvchi vositachi sifatida qaralgan va uning asosiy vazifasi oilaviy mulkni boshqa urug‘ga o‘tib ketmasligini ta’minlash bo‘lgan.

Shu sababli, ko‘plab hollarda epikleros o‘z otasining yaqin erkak qarindoshiga turmushga berilgan. Bu amaliyot oilaviy mulkning bir urug‘ ichida saqlanishini va merosning begona shaxslarga o‘tib ketmasligini ta’minlashga xizmat qilgan. Bunday nikohlar ko‘pincha shaxsiy tanlovdan ko‘ra, huquqiy va ijtimoiy majburiyatlar asosida shakllangan. Shunga qaramay, Afina jamiyatida ayollar ma’lum darajada mulkiy huquqlarga ega bo‘lgan. Ular seplar, sovg‘alar va meros orqali mulkka ega bo‘lishi mumkin edi. Biroq ushbu mulk ustidan to‘liq tasarruf etish huquqi cheklangan bo‘lib, ularning erkak vasiy ayol nomidan mol-mulkni boshqarish va uni tasarruf etish vakolatiga ega edi. Bu holat ayollarning iqtisodiy mustaqilligini sezilarli darajada cheklagan.

Bundan tashqari, Afina qonunchiligi ayollarning iqtisodiy faoliyatini ham ma’lum darajada cheklangan. Ayollar kichik miqyosdagi savdo bilan shug‘ullanishlari mumkin bo‘lgan, biroq ularning bitimlari odatda “medimnos arpa” (don o‘lchovi) qiymatidan oshmagan. Bu cheklov ayollarning yirik iqtisodiy operatsiyalarda ishtirok etishini to‘sib, ularni, asosan, mayda savdo va uy xo‘jaligi iqtisodiyoti bilan bog‘lab qo‘ygan. Umuman olganda, qadimgi Afina huquqiy tizimi ayollarga ma’lum mulkiy va iqtisodiy imkoniyatlar bergan bo‘lsa-da, ularning mustaqilligi qat’iy huquqiy va ijtimoiy nazorat ostida bo‘lgan hamda erkak vasiylik instituti orqali boshqarilgan.

Qadimgi Afinada ayollar hech qachon fuqarolik maqomiga ega bo‘lmagan. Shu sababli ular huquqiy jihatdan ham, siyosiy ishtirok nuqtayi nazaridan ham Afina fuqarolik tizimidan tashqarida qolgan. Afina demokratiyasi faqat voyaga yetgan erkak fuqarolar ishtirokiga asoslangan bo‘lib, ayollar bu siyosiy tuzilma doirasiga kiritilmagan. Natijada, ayollar na xalq yig‘inlarida (ekklesia), na sud va davlat boshqaruvi organlarida ishtirok etish huquqiga ega bo‘lmagan va ular demokratik jarayonlardan to‘liq chetlatilgan. [4:302]. Qadimgi Afinada qiz bolalar odatda rasmiy ta’lim muassasalariga qatnashmagan. Ular asosan onalari yoki uy xo‘jaligidagi ayollar tomonidan uy ishlarini yuritish, to‘qimachilik va oilaviy vazifalarni bajarish kabi ko‘nikmalarga o‘rgatilgan. Bu holat Afina jamiyatida ayollarning asosiy ijtimoiy roli uy va oila doirasi bilan cheklanganligini ko‘rsatadi.

Shunga qaramay, diniy-madaniy tadbirlarda ayollarning ishtiroki muhim ahamiyat kasb etgan. Xususan, Afina ma’budasi sharafiga o‘tkaziladigan Panafeya bayrami davomida ayollar ommaviy yurishlar va marosimlarda qatnashgan.[5:72]. Ushbu bayramlar ayollarning jamoat oldida nisbatan erkinroq ko‘rinishiga imkon bergan kam sonli holatlardan biri bo‘lgan. Afinalik ayollarning kundalik hayoti asosan ginekeya deb ataluvchi uyning ayollar uchun ajratilgan qismida o‘tgan. Ular odatda jamoat joylariga chiqmagan va ijtimoiy harakatlari qat’iy nazorat ostida bo‘lgan. Agar zarurat tug‘ilsa, ayollar tashqariga faqat yaqin erkak qarindoshlari yoki xizmatkorlar hamrohligida chiqqan. Biroq diniy bayramlar, xususan Panafeya kabi ommaviy tadbirlar davomida bu qat’iy cheklovlar ma’lum darajada yumshatilgan. Bunday marosimlarda ayollar bezatilgan bayram liboslarida ishtirok etib, shahar hayotining diniy va madaniy jihatlarida faol ko‘rinish berganlar.

Yunonistonlik shoira Safo asarlari ayollarga bag‘ishlangan bo‘lib, unda shaxsiy tuyg‘ular — sevgi, sog‘inch, rashk, go‘zallik va insoniy kechinmalar tasvirlangan.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023. - 36-bet.
2. Scott, Michael The Rise of Women in Ancient Greece 2009-yil, noyabr. (History Today jurnali, Vol. 59, Issue 11)
3. X.E.Xolmuminov, S.H.Choriyev Jahon tarixi (Qadimgi Yunoniston va Rim tarixi). O‘quv qo‘llanma. Modern Science and Research. – Toshkent, 2025. 67-bet.
4. Robinson, Eric W..Ancient Greek democracy: readings and sources. Wiley - Blackwell, 2004-302-bet.
5. Yu.S. Krushkol. “Qadimgi dunyo tarixi” II qism. Toshkent- 1975. 72-bet.
6. A.Alimuhammedov. Antik adabiyot tarixi. – Toshkent, O‘qituvchi nashriyoti, 1975. 83-bet.

BAXSHICHILIK SAN'ATI — MILLIY O‘ZLIK VA MADANIY MEROS DAVOMIYLIGI

ABDUG‘AFFOROV AVRANGZEB JAMSHIDOVICH

Termiz davlat universiteti
Tarix fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Ushbu maqolada o‘zbek xalq og‘zaki ijodining noyob namunasi bo‘lgan baxshichilik san'ati, uning voha hududlaridagi o‘rni va bugungi kunda ushbu nomoddiy madaniy merosni asrab-avaylash borasida amalga oshirilayotgan davlat ahamiyatiga molik ishlar tahlil qilinadi.

В данной статье анализируется искусство бахши, уникальный пример узбекского народного устного искусства, его место в оазисных регионах, а также работа на государственном уровне, проводимая сегодня для сохранения этого нематериального культурного наследия.

This article analyzes the art of Bakhshi, a unique example of Uzbek folk oral art, its place in oasis regions, and the state-level work being carried out today to preserve this intangible cultural heritage.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

Baxshichilik san'ati, dostonchilik, voha madaniyati, do‘mbira, Sherobod baxshichilik maktabi, nomoddiy madaniy meros, xalq og‘zaki ijodi (Folklor), Alpomish dostoni, Qo‘biz ovozi, Xalqaro baxshichilik.

Искусство бахши, эпическая поэзия, культура оазисов, домбира, школа бахши Шерабада, нематериальное культурное наследие, устное народное искусство (фольклор), алпомский эпос, голос ко'биза, международный бахши.

The art of Bakhshi, epic poetry, oasis culture, do‘mbira, Sherabad Bakhshi School, intangible cultural heritage, oral folk art (Folklore), Alpomish epic, Qo‘biz voice, International Bakhshi.

Milliy qadriyatlar sarchashmasi

O‘zbekistonning janubiy hududlari, xususan, Surxondaryo va Qashqadaryo vohalari qadimdan xalq og‘zaki ijodiyotining jonli laboratoriyasi bo‘lib xizmat qilgan. Baxshichilik san'ati shunchaki musiqiy ijro emas, balki xalqning ko‘p asrlik tarixi, etik va estetik qarashlari hamda qahramonlik dostonlarini o‘zida mujassam etgan yirik madaniy qatlamdir. Voha iqlimi va hayot tarzi bilan uyg‘unlashgan ushbu san'at turi asrlar davomida "ustoz-shogird" an'anasi asosida avloddan-avlodga o‘tib kelmoqda.

Hududiy maktablar va badiiy o‘ziga xoslik

O‘zbek dostonchilik maktablari orasida **Sherobod baxshichilik maktabi** alohida nufuzga ega. Ushbu maktab o‘zining do‘mbra jo‘rligidagi "bo‘g‘iz ovozi" (ichki ovoz) uslubi bilan ajralib turadi. Baxshilar ijrosidagi "Alpomish", "Go‘ro‘g‘li" turkumidagi dostonlar xalqimizning mardlik, vatanparvarlik va insonparvarlik kabi oliyjanob fazilatlarini tarannum etadi. Vohaning har bir adiri va qishlog‘ida yangraydigan bu sado milliy g‘urur ifodasi sifatida qabul qilinadi.

Davlat siyosati va strategik rivojlanish

So‘nggi yillarda mamlakatimizda baxshichilik san'atini ilmiy o‘rganish va uni kelajak avlodga bezavol yetkazish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarorlari asosida: -Termiz shahrida Xalqaro baxshichilik san'ati festivalining muntazam o‘tkazilishi; -Respublika baxshichilik san'ati markazining tashkil etilishi; -Oliy va o‘rta maxsus ta'lim tizimida baxshichilik yo‘nalishlarining ochilishi ushbu san'atning institutsional asoslarini mustahkamladi. Bu kabi islohotlar baxshichilikni nafaqat milliy meros, balki jahon madaniyatining ajralmas qismi sifatida e'tirof etilishiga xizmat qilmoqda.

Madaniy diplomatiya va global ahamiyat

Baxshichilik san'atining YuNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosining reprezentativ ro‘yxatiga kiritilishi ushbu san'atning xalqaro miqyosdagi nufuzini belgilab berdi. Bu e'tirof voha san'atining umumbashariy ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Bugungi kunda yosh ijrochilarning zamonaviy

texnologiyalar va sahnashtirish imkoniyatlaridan foydalangan holda dostonlarni talqin etishi baxshichilikning yashash qobiliyati yuqori ekanligini isbotlamoqda.

Surxondaryo va Qashqadaryo vohalari azaldan o‘zbek xalqining boy ma’naviy merosi shakllangan muhim madaniy hududlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Ayniqsa, baxshichilik san’ati ushbu vohalarda xalqning tarixiy xotirasi, milliy tafakkuri va ma’naviy qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan noyob madaniy hodisa sifatida shakllangan. Baxshi nafaqat doston ijrochisi, balki xalq donishmandi, ma’naviy targ‘ibotchi va tarixiy voqealarni avlodlarga yetkazuvchi ma’rifatparvar shaxs sifatida qadrlangan. Shu bois baxshichilik san’ati xalq hayotining ajralmas qismi bo‘lib, unda millatning orzu-intilishlari, erk va ozodlik haqidagi qarashlari, axloqiy tamoyillari hamda estetik didi mujassam bo‘lgan.

Voha hududlarining tabiiy-geografik sharoiti, qadimiy karvon yo‘llari chorrahasida joylashgani hamda ko‘chmanchi va o‘troq madaniyatlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi baxshichilik san’atining rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Ayniqsa, Surxon vohasida shakllangan baxshichilik an’analari xalqning kundalik turmushi, mehnat jarayonlari va marosimlari bilan chambarchas bog‘liq holda taraqqiy etgan. To‘ylar, sayillar, hosil bayramlari hamda xalq yig‘inlarida baxshilar doston kuylab, jamiyatning ma’naviy birligini mustahkamlashga xizmat qilgan. Shu jihatdan baxshichilik faqatgina san’at turi emas, balki xalqni birlashtiruvchi ijtimoiy-ma’naviy institut vazifasini ham bajargan.

O‘zbek xalq dostonchiligi maktablari orasida Sherobod baxshichilik maktabi o‘zining qadimiyligi va ijro uslubining betakrorligi bilan alohida ajralib turadi. Ushbu maktab vakillari do‘mbra jo‘rligida “bo‘g‘iz ovozi” orqali doston kuylashi bilan boshqa hudud baxshilaridan farqlanadi. Bunday ijro usuli doston mazmunining dramatik ta’sirchanligini oshirib, tinglovchini voqealar rivojiga ruhiy jihatdan yaqinlashtiradi. Ayniqsa, “Alpomish”, “Avazxon”, “Go‘ro‘g‘li”, “Rustamxon” kabi dostonlarda xalqning qahramonlik ruhi, vatanparvarlik g‘oyalari va adolat haqidagi qarashlari yorqin ifodasini topgan.

“Alpomish” dostoni o‘zbek xalqining milliy qahramonlik eposi sifatida baxshichilik san’atida muhim o‘rin egallaydi. Ushbu doston orqali xalqning mardlik, sadoqat, oilaparvarlik va el-yurtga muhabbat kabi qadriyatlari targ‘ib etiladi. Baxshilar tomonidan doston ijro etilishi jarayonida nafaqat matn kuylanadi, balki obrazlarning ruhiy holati, dramatik voqealar va milliy urf-odatlar ham badiiy vositalar orqali jonlantiriladi. Natijada tinglovchi nafaqat voqeani eshitadi, balki uni qalban his etadi. Bu esa baxshichilik san’atining tarbiyaviy va ma’naviy ahamiyatini yanada oshiradi.

Baxshichilik san’ati uzoq asrlar davomida “ustoz-shogird” an’anasi asosida rivojlanib kelgan. Yosh iste’dod egalari tajribali baxshilar yonida yillar davomida tahsil olib, dostonlarni yod olgan, ijro mahoratini egallagan hamda xalqona falsafani o‘rgangan. Mazkur an’ana san’atning tabiiy davomiyligini ta’minlagan eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Chunki baxshichilik faqat matnni yod olish emas, balki ovoz imkoniyatlari, sahna madaniyati, tinglovchi bilan muloqot va milliy ruhni his etish kabi murakkab ijro mahoratini talab qiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda baxshichilik san’atini asrab-avaylash va rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Ayniqsa, mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarni tiklash va tarixiy merosni qayta o‘rganish jarayonida baxshichilikka alohida e’tibor qaratildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan Termiz shahrida Xalqaro baxshichilik san’ati festivalining tashkil etilishi ushbu san’atning xalqaro miqyosdagi nufuzini yanada oshirdi. Festival doirasida dunyoning turli mamlakatlaridan folklor jamoalari, olimlar va san’atkorlarning ishtirok etishi baxshichilikning umuminsoniy qadriyat sifatida e’tirof etilayotganidan dalolat beradi.

Shuningdek, Respublika baxshichilik san’ati markazining faoliyati ushbu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borish, baxshilar ijodini o‘rganish va yosh iste’dodlarni qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimida baxshichilik yo‘nalishlarining ochilishi esa mazkur san’atning ilmiy-nazariy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Natijada baxshichilik san’ati professional ta’lim tizimi orqali rivojlanib, yangi

avlod ijrochilarining shakllanishiga keng imkoniyat yaratilmoqda.

Baxshichilik san’atining UNESCO tomonidan Insoniyat nomoddiy madaniy merosining reprezentativ ro‘yxatiga kiritilishi uning jahon madaniy merosidagi o‘rnini yanada mustahkamladi. Bu e’tirof nafaqat o‘zbek xalqining boy ma’naviy merosiga berilgan yuksak baho, balki baxshichilik san’atining umumbashariy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatuvchi muhim omildir. Chunki baxshichilikda insonparvarlik, tinchliksevarlik, jasorat va ezgulik kabi umuminsoniy g‘oyalar ilgari suriladi.

Zamonaviy davrda baxshichilik san’ati yangi shakl va uslublar bilan boyib bormoqda. Yosh baxshilar multimedia vositalari, sahna texnologiyalari va zamonaviy musiqa elementlaridan foydalanib, dostonlarni yangi talqinda ijro etmoqda. Shu bilan birga, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali baxshichilik namunalarining keng targ‘ib qilinishi ushbu san’atning xalqaro auditoriyaga chiqishiga xizmat qilmoqda. Bu jarayon baxshichilikning zamon bilan hamnafas ravishda rivojlanayotganini va uning yashovchanlik salohiyati yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, baxshichilik san’ati o‘zbek xalqining ko‘p asrlik tarixiy xotirasi, ma’naviy olami va milliy tafakkurini aks ettiruvchi noyob madaniy hodisadir. Surxondaryo va Qashqadaryo vohalarida shakllangan baxshichilik an’analari xalqning milliy o‘zligini anglash, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda madaniy merosni asrab-avaylashda muhim o‘rin tutadi. Shu sababli baxshichilikni ilmiy jihatdan chuqur o‘rganish, uni targ‘ib qilish va kelajak avlodlarga yetkazish bugungi kunning dolzarb ma’naviy vazifalaridan biri hisoblanadi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. Alpomish (Doston). Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantidan. – Toshkent: "Sharq" NMAU, 2010.
2. Jirmunskiy V. M., Zarifov H. T. Uzbekskiy narodniy geroicheskiy epos (O‘zbek xalq qahramonlik eposi). – Moskva: "Gozlitizdat", 1947.
3. Mirzayev T. O‘zbek xalq baxshilari (Metodologik-biografik tadqiqot). – Toshkent: "Fan", 2014.
4. Sodiqov Q. O‘zbek dostonchilik maktablari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari. – Termiz, 2018.
5. Xalqaro baxshichilik san’ati festivali materiallari. – Termiz: "Surxon nashriyoti", 2019–2023.
7. Zarifov H. O‘zbek dostonchiligi va baxshilari (Saylanma). – Toshkent: "Adabiyot va san’at", 1970.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Baxshichilik san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-4265-sonli qarori. – Toshkent, 2019-yil 1-aprel.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MILLIY SIYOSATNING AYRIM JIHATLARI

YUSUPOVA OZODA XOLNAZAR QIZI

Termiz davlat universiteti
Yuridik fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya / Аннотация / Abstract
Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida milliy masala va davlatning milliy siyosat haqida fikr yuritilgan.
В данной статье рассматриваются национальные вопросы и национальная политика государства в Республике Узбекистан.
millat, milliy masala, milliy siyosat, millatlararo munosabatlar, millik birlik, milliy tuyg‘u, an’ana, urf-odat, bag‘rikenglik.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords
millat, milliy masala, milliy siyosat, millatlararo munosabatlar, millik birlik, milliy tuyg‘u, an’ana, urf-odat, bag‘rikenglik.

нация, национальные вопросы, национальная политика, межэтнические отношения, национальное единство, национальное чувство, традиции, обычаи, толерантность.
nation, national issue, national policy, interethnic relations, national unity, national feeling, tradition, customs, tolerance.

Insoniyat tarixiy taraqqiyotidan ayonki, har bir millatning, xalqning mavjudligini, o‘tmishini namoyon etuvchi o‘z tarixi, madaniyati, tili, urf-odat va an’analari bor. Milliy jarayonlarning asosiy xarakterli tomoni shundaki, insonning aql-zakovati yuksalib borgan sari ushbu munosabatlarning ahamiyati ortib bormoqda. Dunyodagi mavjud bo‘lgan birorta millat yoki elat, ular kam sonli bo‘lgan taqdirda ham ixtiyoriy ravishda boshqa millatlar bilan qo‘shilib ketmagan, har bir millatga xos bo‘lgan xususiyatlar rivojlanib borishi jarayonida boshqa millatlar bilan munosabatlarni takomillashtirib borgan. Milliy masala, milliy birlik doimo insoniyat jamiyatining ravnaqiga katta ta’sir ko‘rsatib kelgan. Chunki “millat o‘z millatiga sadoqatni, uning siyosiy mustaqilligini va o‘z xalqi farovonligiga xizmat qilishni, millatning madaniy va ma’naviy yuksalishini, millatning yashash sharoitlarini, yashash hududini, iqtisodiy zaxiralarini va ma’naviy qadriyatlarini amalda saqlab qolish maqsadida milliy o‘zlikni anglash asosida birlashishni targ‘ib etadi. U vatanparvarlikka yaqin milliy tuyg‘uga suyanadi. Bu g‘oya qarama-qarshi sinfiy manfaatlarga qaramasdan, jamiyatning turli qatlamlarini birlashtirishga intiladi”. [1, 213-214-b.]

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi hududida hukm surayotgan millatlararo totuvlik va barqarorlik davlatimizda amal qilayotgan oqilona milliy siyosatning natijasidir. Mamlakatimizda mustaqillikning qo‘lga kiritilishi milliyligimizni anglash, boy ma’naviy qadriyatlarimizni qaytadan tiklash jarayonida ajdodlarimiz tomonidan tarixiy rivojlanishda bizgacha yetib kelgan ko‘pgina urf-odatlar, an’analar, qadriyatlar va jamiyatdagi millatlararo totulik va dinlararo bag‘rikenglikka nisbatan munosabat ijobiy tomonga o‘zgardi. Ayni davrda milliy va diniy bag‘rikenglik dunyoda tinchlik va barqarorlikni asrash hamda diniy ekstremizm, fundamentalizm va aqidaparastlikka qarshi kurashni, butun jahon hamjamiyatining hamkorligini nazarda tutadi. Ushbu tamoyilga asoslangan O‘zbekiston turli millat va din vakillarga mansub qadriyatlarni asrab-avaylash, barcha fuqarolar o‘z urf-odat, ana’analarini, e’tiqodini amalga oshirishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berish, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlash, ular o‘rtasidagi qadimiy mushtarak an’analarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratmoqda. Har qanday demokratik davlatda yashovchi fuqarolarning millati, irqi, diniy e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi va mavqeyidan qat’iy nazar teng huquqli ekanligini ta’minlash uning asosiy tamoyili hisoblanadi. O‘zbekiston ko‘p millatlilik va ko‘p dinlilik sharoitida bag‘rikenglik asosida siyosat yuritib, millatlararo va dinlararo munosabatlarda hurmat va totuvlik ruhi bilan ajralib kelgan. Shu bois O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq bu masalaga alohida ahamiyat berildi. Ko‘p millatlilik sharoitida turli millat vakillarining ijtimoiy kayfiyatini ma’naviy-ma’rifiy ehtiyojlarini qondirishni o‘ylamaslik keyinchalik og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkinligi sobiq sho‘rolar davridagi tarixdan ma’lumdir.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi barcha millat vakillari uchun o‘z milliy xususiyatlarini yuksaltirish kafolatlarini yaratib bermoqda. Bu haqida Asosiy qomusimizning 4-moddasida shunday deyiladi: “O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analarini hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi”. [2, 5-b.] Mamlakatni yuksaltirishda uni taraqqiy etgan mamlakatlar safiga olib chiqishda ko‘p millatli davlatlarda istiqomat qiluvchi barcha ijtimoiy etnik guruhlarning manfaatlarini e’tiborga olish muhimdir. Hozirgi davrda O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha millat vakillari o‘rtasida o‘zaro ishonch, bir-birini hurmat qilish, jamiyatni yuksaltirish yo‘lida ahillik va totuvlikni yuzaga keltirish asosiy vazifa hisoblanadi. Jamiyat hayotini yuksaltirishda barcha millatlarni milliy manfaatlarini e’tiborga olish asosiy talablardan biridir. Chunki O‘zbekistonning o‘tmishida Chor Rossiyasi va sovet davlati milliy chekka o‘lkalarda yuritgan zo‘ravonlik, milliy

kamsitishga asoslangan siyosat natijasida mahalliy millat vakillarining milliy manfaatlarga e’tiborsizlik, milliy kamsitish, mahalliy boshqaruv sohasida ularning faoliyatini cheklash, tub yerli aholini jamiyat hayotidagi o‘rnini seza olmaslik jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan zaminlarni yuzaga keltirgan. Mamlakatimizda milliy o‘zlikni saqlab qolish, etnik qadriyatlarni rivojlantirish bilan bog‘liq jarayonlarga, yaqin o‘tmishdagidan farqli ravishda, millatchilikning o‘sishi deb emas, balki tabiiy-tarixiy jarayon sifatida qaralmoqda va tegishli tashkiliy asoslar yaratilmoqda:

– O‘zbekiston Respublikasining davlat milliy siyosati davlat va uning idoralarining milliy masala va millatlararo munosabatlar sohasidagi qarashlari tizimini, asosiy tamoyillari, ustuvor yo‘nalishlari va vazifalarini o‘zida ifodalaydi;

– davlat milliy siyosati millatlararo munosabatlarni yanada takomillashtirish, turli millat va elat vakillarining konstitusiyaviy huquq va erkinliklarini ta’minlashning umumiy dasturini shakllantirishda asos bo‘lib xizmat qiladi;

– davlat milliy siyosati O‘zbekiston Respublikasida yashovchi turli millat va elat vakillarining intilishlarini mamlakatning birligi hamda yaxlitligini saqlash manfaatlari bilan uyg‘unlashtirishi, ularning har tomonlama hamkorligini mustahkamlash, milliy madaniyatlarini asrab-avaylash, rivojlantirishga qaratilgan ishlarning asoslarini belgilaydi;

– davlat milliy siyosati O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, umume’tirof etilgan xalqaro huquqiy me’yorlar, xalqaro huquqiy shartnomalarda belgilangan huquq va erkinliklar hamda majburiyatlarni amalga oshirish, mamlakatda yashovchi millat va elat vakillarining huquq va erkinliklarini ta’minlaydi.

O‘zbekiston milliy siyosatining tamoyillari:

1. Yaratuvchanlik qudratiga ega milliy mansubligidan qat’iy nazar fuqarolarning tengligini ta’minlash, ijtimoiy hayotda teng huquqli ishtirokini kafolatlashga asoslanadi;

2. O‘zbekiston milliy siyosatining “Ko‘p millatlilik – O‘zbekistonning boyligi” degan g‘oyaga asoslanadi;

3. Millatlar manfaatlarini uyg‘unlashtirish;

4. Har bir millat iste’dodi va salohiyatini to‘la ro‘yobga chiqarish. [3, 25-b.]

Shunindek, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish insonparvar demokratik tamoyillarga asoslangan huquqiy fuqaroviy jamiyat qurishning asosiy shartlaridan biri ekanligini, millatlararo totuvlik mamlakat va mintaqa davlatlari ijtimoiy va milliy xavfsizligi, barqarorligini mustahkamlash, izchil taraqqiyotini ta’minlash hamda ular o‘rtasidagi integratsiya jarayonining yanada chuqurlashuvida muhim ahamiyat kasb etishini, jamiyatda millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etishini hamda O‘zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini yanada oshirishini e’tirof etadi;

O‘zbekiston Respublikasining davlat milliy siyosati Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, O‘zbekiston Respublikasi imzolagan xalqaro huquqiy hujjatlar va xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga asoslanadi;

– mazkur davlat milliy siyosati barcha darajadagi davlat boshqaruv, qonun chiqaruvchi va ijroiya idoralarining milliy masala va millatlararo munosabatlarni tartibga solish, bu sohadagi muammo va tahdidlarni aniqlash, ularni bartaraf etish yo‘llarini ko‘rsatadi va yechib beradi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda “Millatlararo munosabatlarni mustahkamlash, mamlakatimiz hududida va undan tashqarida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida xalqaro hamkorlikni va chet mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarni rivojlantirish, vatandoshlarni qo‘llab-quvvatlash va xorijdagi O‘zbekiston diasporalari bilan yaqin hamkorlik qilish, O‘zbekistonning jahon maydonidagi obro‘-e’tibori va imidjini yuksaltirish” [4, 309-b.]; strategiyasi amalga oshirilmoqda.

Xulosa qilib aytganda mamlakatimizda har bir oila va shaxsning millatidan qat’i nazar ijtimoiy himoyalash davlat tomonidan kafolatlangan. Millatlararo munosabatlardagi ziddiyatlar ijtimoiy-siyosiy yo‘l, ya’ni tinchlik yo‘li orqali hal qilinishi belgilab qo‘yilgan. Ayni davrda O‘zbekiston Respublikasining millatlararo munosabatlar sohasida olib borayotgan oqilona siyosati mamlakatimizda osoyishtalik va hamjihatlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Milliy tarkib jihatdan murakkab bo‘lgan O‘zbekistonda millatlararo

munosabatlarda teng huquqlilikni ta’minlashda bu borada qabul qilingan huquqiy hujjatlarning o‘rni katta ekanligini ham ta’kidlash lozim.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2023, 5-bet.
2. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2020, 309-bet.
3. Rashidov Oybek. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag‘rikenglik. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2022, 25-bet.
4. Davlatova Sh.Sh. Ijtimoiy-siyosiy fanlarga oid atamalarning izohli lug ‘ati. Termiz, “Bekshox print servis”, 2024, 213-214-betlar.Umarov I. Tarixiy demografik jarayonlarda Termiz shahrining o‘rni // Surxondaryo: ilm va tafakkur. Ilmiy maqolalar jurnali. 2020-yil 1-son, 75-76 betlar.
1. V.A. Kozlovskiy. Termiz shahrining tarixi. Toshkent, “Qizil O‘zbekiston” gazetasi nashriyoti, 1959-yil, 18-bet.
2. V.A. Kozlovskiy. Termiz shahrining tarixi. Toshkent, “Qizil O‘zbekiston” gazetasi nashriyoti, 1959-yil, 18-bet.
3. Surxondaryo viloyati davlat arxivi. 519-Fond, 1-ro‘yxat, 26.-ish, 26-varaq, Kommunist, gazetasi. 1941-y.

BODIHAVO QISHLOG‘INING TARIXIY-GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI, ETNIK TARKIBI VA ETNOMADANIY HAYOTI

OCHILDIYEVA SITORA ESHONQUL QIZI

Termiz davlat universiteti
Tarix ta’lim yo‘nalishi 2-talabasi

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Mazkur maqolada Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumani Voxshuvor-2 mahallasi tarkibidagi Bodihavo qishlog‘ining tarixiy shakllanishi, toponimik xususiyatlari, tabiiy-geografik joylashuvi, etnik tarkibi, urug‘-qabila munosabatlari, an’anaviy xo‘jalik faoliyati hamda urf-odatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, qishloq hududida mavjud rivoyatlar, xususan Sofi Olloyor bilan bog‘liq og‘zaki ma’lumotlar, mahalliy tarixiy xotira namunalari sifatida yoritiladi. Maqolada Bodihavo qishlog‘ining tarixiy-etnografik jihatdan kam o‘rganilgan maskan ekani asoslanib, uning moddiy va nomoddiy madaniy merosi, shifobaxsh buloqlari, tarixiy yodgorliklari hamda dehqonchilik va chorvachilikka asoslangan turmush tarzi ilmiy nuqtayi nazardan tavsiflanadi.

В данной статье анализируются историческое формирование, топонимические особенности, природно-географическое положение, этнический состав, родоплеменные отношения, традиционные формы хозяйственной деятельности и обычаи села Бодихаво, расположенного в составе махалли Вохшувор-2 Алтынсайского района Сурхандарьинской области. Также рассматриваются существующие на территории села устные предания, в частности материалы, связанные с Софи Оллояром, как элементы локальной исторической памяти. В статье обосновывается, что село Бодихаво является малоизученным историко-этнографическим объектом, и с научной точки зрения характеризуются его материальное и нематериальное культурное наследие, целебные источники, исторические памятники, а также образ жизни, основанный на земледелии и скотоводстве.

This article analyzes the historical formation, toponymic features, natural and geographical location, ethnic composition, clan-tribal relations, traditional economic activities, and customs of Bodihavo village, located in the Vokhshuvor-2 mahalla of Altinsay district in Surkhandarya region. The study also examines local oral traditions, particularly narratives associated with Sofi Olloyor, as elements of local historical memory. The article substantiates that Bodihavo village remains a relatively underexplored historical and ethnographic site, and provides a scientific description of its tangible and intangible cultural heritage, healing springs, historical monuments, as well as its lifestyle based on agriculture and livestock breeding.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords
Bodihavo qishlog‘i, Oltinsoy tumani, Surxondaryo viloyati, etnografiya, og‘zaki tarix, toponimika, Sofi Olloyor, qishloq tarixi, etnik tarkib, urug‘lar, urf-odatlar, dehqonchilik, chorvachilik, tarixiy yodgorliklar, mahalliy rivoyatlar, shifobaxsh buloq, nomoddiy madaniy meros.
село Бодихаво, Алтынсайский район, Сурхандарьинская область, этнография, устная история, топонимика, Софи Оллояр, история села, этнический состав, роды, обычаи и традиции, земледелие, скотоводство, исторические памятники, местные предания, целебный источник, нематериальное культурное наследие.
Bodihavo village, Altinsay district, Surkhandarya region, ethnography, oral history, toponymy, Sofi Olloyor, village history, ethnic composition, clans, customs and traditions, agriculture, livestock breeding, historical monuments, local legends, healing spring, intangible cultural heritage.

Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumani Voxshuvor-2 mahallasi tarkibidagi Bodihavo qishlog‘i hududiy joylashuvi, tabiiy-iqlimiy sharoiti, etnik tarkibi hamda mahalliy an’analari bilan o‘ziga xos maskanlardan biri hisoblanadi. Mazkur hudud keng jamoatchilikka unchalik tanish bo‘lmagan, ilmiy jihatdan yetarli darajada o‘rganilmagan qishloqlardan sanaladi. Ayniqsa, uning vujudga kelish tarixi, toponimik xususiyatlari, mahalliy rivoyatlari hamda moddiy va nomoddiy madaniy merosi bugungi kunga qadar kompleks tarzda tadqiq etilmagan.

Bodihavo qishlog‘i nomining kelib chiqishi haqida mahalliy aholi orasida turli qarashlar mavjud. Aholi vakillarining ta’kidlashicha, qishloq nomi fors-tojik tillaridagi “bodi” va “havo” so‘zlari bilan bog‘liq bo‘lib, u “shamolli havo” yoki “shamol esib turadigan joy” ma’nolarini anglatadi.[8, 33] Mazkur izoh hududning tabiiy-geografik sharoiti bilan ham muayyan darajada uyg‘unlashadi. Shu bilan birga, qishloqning tashkil topish davri va dastlabki aholisi masalasida aniq yozma manbalar mavjud emas. Bu esa Bodihavo tarixini asosan og‘zaki tarix, xalq xotirasi va rivoyatlar asosida tiklash zaruratini yuzaga keltiradi.

Mahalliy og‘zaki an’analarda qishloq tarixining Sofi Olloyor nomi bilan bog‘liq talqini alohida o‘rin egallaydi. Rivoyatlarga ko‘ra, Sofi Olloyor ushbu hududga yaqin qishloqqa kelib joylashganidan so‘ng, bu yer aholisi undan Bodihavo atrofidagi ilonlarni haydab yuborishni so‘ragan. Shundan keyin Sofi Olloyorning yaqin safdoshlaridan biri ilonlar malikasi joylashgan deb tasavvur qilingan Morxona degan maskanga borib, duo yozilgan qog‘ozni tosh yoniga qoldirgan. Rivoyatda aytilishicha, shundan so‘ng ilonlar bir kecha ichida hududni tark etgan. Hozirgi kunda ham mahalliy aholi Morxona hududida ilonlar malikasi bilan bog‘liq tosh mavjudligini tilga oladi. Shuningdek, ayrim qarashlarga ko‘ra, hududda ilonlar saqlanib qolgan bo‘lsa-da, ularning “zahri yo‘qolgan” deb hisoblanadi. Albatta, bunday ma’lumotlar tarixiy haqiqatdan ko‘ra ko‘proq xalq rivoyati va mifologik tasavvurlar mahsuli sifatida baholanishi lozim[2. 45].

Bodihavo qishlog‘ining tabiiy-iqlimiy xususiyatlari ham uning o‘ziga xosligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Mahalliy kuzatuvlarga ko‘ra, qishloq iqlimi atrof hududlarga nisbatan birmuncha salqinroq bo‘lib, bahor fasli kechroq kirib keladi, daraxtlar esa nisbatan kech uyg‘onadi. Yoz mavsumi ham unchalik issiq bo‘lmaydi. Bu holat, ehtimol, qishloqning relef xususiyatlari va tog‘oldi hududida joylashgani bilan bog‘liq. Qishloqning uch tomoni tekisliklar bilan o‘ralgan bo‘lsa, shimoliy qismi tog‘ bilan tutashgan. Ana shu geografik sharoit mahalliy aholining turmush tarzi va xo‘jalik faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan.

Hududning tabiiy resurslaridan foydalanish masalasida aholi tomonidan tog‘ imkoniyatlaridan samarali foydalanilayotgani kuzatiladi. Xususan, tog‘larda o‘sadigan yovvoyi pista mahsulotlaridan yog‘ olishda foydalaniladi. Bundan tashqari, toza ichimlik suvi ham tog‘ manbalaridan quvurlar orqali qishloqqa olib kelinadi. Bu esa tog‘ resurslarining qishloq xo‘jaligi va maishiy hayotdagi muhim o‘rnini ko‘rsatadi. Bodihavo sharq tomondan Voxshivor qishlog‘i, g‘arb tomondan Chinor qishlog‘i, janubi-g‘arb tomondan esa Oqsuv qishlog‘i bilan

chegaradoshdir. Ayniqsa, Oqsuv qishlog‘ida asosan tojik millatiga mansub aholi istiqomat qilishi qo‘shni hududlar o‘rtasidagi etnomadaniy aloqalarni o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi[5.101].

Bodihavo va uning atroflarida tarixiy yodgorliklar ham mavjud bo‘lib, ular hanuz yetarli darajada ilmiy o‘rganilmagan. Mahalliy aholi tomonidan tilga olinadigan Sariq tol, Bolalik tepa, Munchoq tepa, Ilonqara va Morxona kabi obyektlar qishloqning tarixiy-madaniy landshaftida muhim o‘rin tutadi. Ushbu obyektlarning nomlari va ular bilan bog‘liq rivoyatlar hududning qadimiy o‘zlashtirilish jarayonlari, e’tiqodiy qarashlari hamda mahalliy xotira tizimini yoritishda muhim manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Shu bois, mazkur joylarni arxeologik, etnografik va toponimik jihatdan alohida o‘rganish maqsadga muvofiqdir[3. 81].

Qishloq aholisining etnik tarkibi asosan o‘zbeklardan iborat bo‘lib, aholining barchasi islom diniga e’tiqod qiladi. Antropologik jihatdan esa mahalliy aholi tarkibida yevropoid va mongoloid irqiy belgilarining uchrashi qayd etiladi. Qishloqda bir necha urug‘ vakillari istiqomat qiladi. Mahalliy qarashlarda eng yirik urug‘lardan biri sifatida Qarabchi urug‘i tilga olinadi.[7. 145] Yoshi ulug‘lar orasida saqlanib qolgan ma’lumotlarga ko‘ra, ushbu urug‘ning hududga kelib joylashuvi ham Sofi Olloyor nomi bilan bog‘lanadi. Qorabchi urug‘ining asoschisi sifatida Qurbonbek nomi tilga olinadi va u Sofi Olloyorning yaqin safdoshi sifatida e’tirof etiladi. Rivoyatlarga ko‘ra, ilonlar hududni tark etganidan keyin aynan shu shaxs qishloqqa asos solgan.

Og‘zaki ma’lumotlarda yana bir muhim jihat shuki, qishloqqa dastlab kelib joylashgan aholi qo‘shni hududlar bosimi sabab o‘ziga ittifoqchilar izlay boshlagan. Shu jarayonda turkiy urug‘lardan bo‘lgan Qoraboyto‘plarning mazkur hududda to‘xtab, keyinchalik shu yerda qolib ketgani aytiladi. Natijada qishloqda turli urug‘ vakillari shakllanib, umumiy hisobda yetti urug‘ vakillari istiqomat qilgani qayd etiladi. Biroq urug‘lar xilma-xilligiga qaramay, ularning urf-odatlari va turmush tarzida jiddiy tafovut kuzatilmaydi. Bu esa uzoq yillar davomida bir hududda yashash natijasida shakllangan etnomadaniy uyg‘unlikdan dalolat beradi.

Bodihavo qishlog‘ida shifobaxsh manba sifatida tanilgan “Qo‘tir buloq” ham mavjud. Mahalliy qarashlarga ko‘ra, ushbu buloq suvi oshqozon-ichak bilan bog‘liq ayrim kasalliklarni davolashda foydali hisoblanadi. Buloq suvi doimiy ravishda oqib turmaydi, biroq u paydo bo‘lgan davrlarda boshqa qishloq va tumanlardan ham odamlar kelib, undan foydalanishadi. Buloq atrofida dam olish uchun mo‘ljallangan lagerlarning mavjudligi ushbu maskanning mahalliy rekreatsion ahamiyatini ham ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bunday shifobaxsh manbalar xalq tabobati, muqaddas joylar fenomeni va mahalliy e’tiqodiy amaliyotlar nuqtayi nazaridan ham o‘rganilishi lozim.

Qishloqning nomoddiy madaniyati, xususan urf-odatlari ham an’anaviy o‘zbek qishloq hayotiga xos jihatlarni o‘zida mujassam etadi. Bola tug‘ilgach aqiqa marosimini o‘tkazish, o‘g‘il bolalar uchun xatna to‘yi uyushtirish, qiz bolalarga muayyan yoshga yetgach yoshga oid marosimlar o‘tkazish, shuningdek, nikoh oldi sovchilik, unashtiruv va to‘y marosimlarining bosqichma-bosqich amalga oshirilishi ana shunday an’analar jumlasidandir. Sovchilik jarayonida kuyov tomonning ijtimoiy-madaniy holati qiz tomoni tomonidan sinchiklab surishtirilishi, oilalar o‘zaro mos kelgan taqdirda unashtiruv marosimining o‘tkazilishi va undan keyin katta to‘y berilishi mahalliy nikoh institutining muhim tarkibiy qismidir. Qishloq to‘ylari shahardagi to‘ylardan farq qilishi esa qishloq muhiti uchun xos an’anaviylikning saqlanib qolganidan dalolat beradi.

Bodihavo aholisining asosiy mashg‘uloti dehqonchilik va chorvachilikdan iborat. Dehqonchilikda uzum va olma yetishtirish yetakchi o‘rin tutadi. Mahalliy aholi ushbu mahsulotlarning ta’mi boshqa hududlarda yetishtiriladigan mevalardan farq qilishini ta’kidlaydi. Bundan tashqari, bug‘doy, arpa va makkajo‘xori kabi ekinlar asosan oilaviy ehtiyoj uchun yetishtiriladi, ortib qolgan qismi esa bozorga olib chiqiladi. Aholining asosiy mehnati tomorqa bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayonda nafaqat erkaklar, balki ayollar ham faol ishtirok etadi. Tuman markazidan nisbatan uzoqda joylashganligi sababli bozorlarga qatnash murakkabroq bo‘lsa-da, qishloqning o‘zida haftaning dushanba va payshanba kunlari bir

kunlik bozor tashkil etilishi ichki iqtisodiy faollikning mavjudligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Bodihavo qishlog‘i Surxondaryo vohasining kam o‘rganilgan, ammo tarixiy-etnografik jihatdan muhim maskanlaridan biridir. Uning tarixi asosan og‘zaki xotira, rivoyatlar va mahalliy qarashlar orqali saqlanib qolgan bo‘lib, bu holat hududni kompleks ilmiy tadqiq etish zaruratini yanada kuchaytiradi. Qishloqning toponimik xususiyatlari, tabiiy muhitga moslashgan xo‘jalik shakllari, urug‘-qabila tarkibi, shifobaxsh buloqlari, tarixiy yodgorliklari va an’anaviy marosimlari uni etnografik hamda tarixiy tadqiqotlar uchun istiqbolli obyektga aylantiradi. Kelgusida Bodihavo qishlog‘i bo‘yicha dala tadqiqotlari, og‘zaki tarix materiallarini yig‘ish, arxeologik kuzatuvlar va toponimik tahlillar olib borilishi hududning haqiqiy tarixiy qiyofasini tiklashda muhim ilmiy natijalar berishi mumkin.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. — Т.: Ўқитувчи, 1994.
2. Мирзаев Р. Сўфи Оллоёрга замон боқажак. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 16–42.
3. Турсунов Н. Либосларда акс этган ўзига хослик // Тафаккур. — 2003. — № 3.
4. Турсунов Н. Нон ва дастурхон // Мулоқот. — 2003. — № 4.
5. Турсунов Н. Сурхон одамларини биласизми? // Мулоқот. — 2002. — № 4.
6. Турсунов С. ва бошқ. Сурхондарё вилоятида тарихий археологик ва маданий ёдгорликларни муҳофаза қилиш. — Термиз, 1993.
7. Турсунов С., Пардаев Т., Курбонов А., Турсунов Н., Ўзбекистон тарихи ва маданияти – Сурхондарё этнографияси / С. Турсунов ва бошқ.; умумий таҳрир И. М. Жабборов. — Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. — 276 б.
8. Турсунов С.Н., Умаров И., Пардаев Т. Ўзбекистонда топономик номлар ва уларнинг тарихи. – Термиз: Сурхон-нашр, 2017. – Б. 48.

ESKI TERMIZ VA UNING TARIXIY-MADANIY YODGORLIKLARI

BEKMIRZAYEVA MUNIRA TOJIMURODOVNA

Termiz davlat universiteti
Tarix ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Ushbu maqolada Eski Termizning qadimgi va o‘rta asrlardagi tarixiy taraqqiyoti, shaharsozlik xususiyatlari, mudofaa tizimi, savdo yo‘llari, hunarmandchilik markazlari hamda vohaning muhim tarixiy-madaniy yodgorliklari yoritilgan. Shuningdek, Termizning O‘rta Osiyo sivilizatsiyasidagi o‘rni va uning boy moddiy-ma’naviy merosi tahlil qilingan.

В данной статье рассматривается историческое развитие Древнего Термеза в античный и средневековый периоды, особенности градостроительства, система обороны, торговые пути, ремесленные центры, а также важнейшие историко-культурные памятники региона. Кроме того, проанализировано значение Термеза в развитии цивилизации Центральной Азии и его богатое материальное и духовное наследие.

This article examines the historical development of Old Termez during the ancient and medieval periods, including its urban planning features, defense system, trade routes, craft centers, and significant historical and cultural monuments of the region. It also analyzes the role of Termez in the development of Central Asian civilization and its rich material and spiritual heritage.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

Eski Termiz, Tarmita, Surxon vohasi, tarixiy-madaniy yodgorliklar, shaharsozlik, mudofaa tizimi, savdo yo‘llari, Jarqo‘rg‘on minorasi, Termiz hokimlari saroyi, hunarmandchilik.

Старый Термез, Тармита, Сурхандарьинская долина, историко-культурные памятники, градостроительство, оборонительная система, торговые пути, Джаркурганский минарет, дворец правителей Термеза, ремесленничество.
Old Termez, Tarmita, Surkhandarya oasis, historical and cultural monuments, urban planning, defense system, trade routes, Jarqo‘rg‘on minaret, Termez rulers’ palace, craftsmanship.

Qadimiy Termiz O‘rta Osiyo tarixida alohida o‘rin tutgan yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlardan biri hisoblanadi. Uning tarixiy taraqqiyoti tabiiy-geografik sharoit, qulay strategik joylashuv, savdo yo‘llariga yaqinlik, mudofaa imkoniyatlari hamda boy madaniy qatlamlarning shakllanishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Termizning qadimgi va o‘rta asrlar tarixini o‘rganishda shahar qurilishi, uning topografiyasi, tarixiy yo‘llar, me’moriy obidalar, saroylar, hunarmandchilik markazlari hamda vohadagi yirik yodgorliklar muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Qadimgi davrlarda shahar va qishloqlarning tepaliklar ustida qurilishi bejiz bo‘lmagan. Bunday tepaliklar, avvalo, tabiiy mudofaa inshooti vazifasini bajargan. Shahar tepalik ustida joylashgan bo‘lsa, uning himoyasi ancha mustahkam bo‘lgan, dushman uchun bunday manzilni zabt etish nihoyatda qiyin kechgan. Shu sababli qadimgi shahar asoschilari maskan tanlashda balandlik, suvga yaqinlik va himoya uchun qulay sharoitlarga katta e’tibor qaratganlar. Termiz asoschilari ham shahar uchun nihoyatda qulay joyni tanlagan edilar. Uning daryo bo‘yida joylashgani mudofaa salohiyatini yanada kuchaytirgan. Yillar va asrlar davomida madaniy qatlamlarning to‘planib borishi natijasida shahar tepaligi balandlashgan, hozirgi kunda ayrim joylarda qal’a balandligi 20 metrdan ziyod bo‘lib, qadimda undan ham balandroq bo‘lgani taxmin qilinadi. Katta tepalik ustiga qurilgan, murakkab mudofaa inshootlari bilan mustahkamlangan bunday qal’a dushman ko‘ziga deyarli zabt etib bo‘lmas manzil sifatida ko‘ringan.

Qadimiy Termizning tarixi juda uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Tarmita nomi bilan mashhur bo‘lgan Termiz shahar qal’asiga miloddan avvalgi I ming yillik o‘rtalarida asos solingan. Shaharning nomi qadimgi baqtriy tilidagi “Taro Maetha” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “daryoning narigi sohilidagi manzilgoh” degan ma’noni anglatadi.[1. 14] Miloddan avvalgi 327-yilda Aleksandr Makedonskiy bu qal’ani Oks bo‘yidagi Aleksandriya deb ataganligi qayd etiladi. Miloddan avvalgi III asrda esa shahar Antioxiya Tarmita nomi bilan mashhur bo‘lgan. Termiz IV–V asr arman manbalarida “Drmat”, VII asr xitoy manbalarida “Tami”, IX–XI asr arab-fors manbalarida esa “Tarmid”, “Tarmiz” va “Tirmiz” shakllarida tilga olinadi. Bu holat shaharning turli davrlarda turli siyosiy va madaniy hududlar bilan yaqin aloqada bo‘lganidan dalolat beradi.[2. 145]

Yunon-Baqtriya podsholigi davrida Termiz Baqtriyaning eng yirik shaharlaridan biri bo‘lib, o‘lkaning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida muhim o‘rin egallagan. Bu davrda shahar 10 gektardan ortiq hududni egallab, Shimoliy Baqtriyaning yirik markazlaridan biri hisoblangan. Kushonlar davrida esa Termiz yanada ravnaq topdi. Shahar Baqtriyaning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida katta rol o‘ynadi, unda mahobatli ma’muriy va jamoat binolari qurildi, hunarmandchilik va savdo-sotiq taraqqiy etdi. Aynan shu davrda Termiz Amudaryo bo‘yidagi asosiy port shaharlardan biriga aylandi. Shahar portidan chiqqan katta qayiq va kemalar qadimgi Xorazm tomon, hatto Uzboy orqali Kaspiy dengizigacha suzib borgan. Shuningdek, Kushonlar davrida Termiz buddaviylik dini va madaniyatining O‘rta Osiyodagi eng yirik markazlaridan biri sifatida tanilgan, ilm-fan rivoj topgan muhim markaz vazifasini o‘tagan.

Kushonlar saltanati inqirozidan keyin Termiz ma’lum vaqt alohida hokimlik sifatida sosoniylar, eftaliylar va keyinchalik Turk xoqonligi tarkibida bo‘lgan. VIII asr boshlarida shahar arab xalifaligiga qo‘shib olingan. IX asrda u somoniylar davlati, XI–XII asrlarda g‘aznaviylar, qoraxoniylar va saljuqiylar davlati tarkibiga kirgan. Ayniqsa, IX–XIII asrlar Termiz tarixida yuksalish davri bo‘ldi. Bu davrda shahar qal’a, shahriston va raboddan iborat murakkab tuzilishga ega bo‘lib, 500 gektardan ortiq hududni egallagan. Ko‘plab yangi ma’muriy binolar, masjidlar, karvonsaroylar, hammomlar qurilgan, obodonchilik ishlari keng ko‘lamda

olib borilgan. O‘rta asr mualliflari Termizni Shimoliy Toharistonning iqtisodiy va madaniy markazi sifatida tilga olganlar.

Termizning iqtisodiy ravnaqida hunarmandchilik alohida o‘rin egallagan. XI–XIII asrlarda kulolchilik, shishasozlik va temirchilik tarmoqlari yuqori taraqqiyot bosqichiga ko‘tarilgan. Hunarmandlar alohida mahallalarda yashagan va ishlab chiqarish bilan shug‘ullangan. Masalan, kulolchilik mahallalaridan biri rabodning shimoliy qismida joylashgan bo‘lsa, shishasozlar va temirchilar shahristonning janubiy qismida faoliyat yuritganlar. Bundan tashqari, Termizda sovun ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu yerda tayyorlangan sovun boshqa shaharlarga olib borib sotilgan va unga ehtiyoj katta bo‘lgan. To‘qimachilik va ko‘nchilik ham rivojlangan tarmoqlar sirasiga kirgan. Termiz hunarmandlari tayyorlagan mahsulotlar uzoq o‘lkalarda ham qadrlangan. Xususan, sovun, attorlik buyumlari va qayiqlar Sharq mamlakatlarida yuksak baholangan.

Shahar iqtisodiy hayotida kemasozlar, ya’ni qayiqchilar ham muhim rol o‘ynagan. Termizda maxsus qayiqlar qurilgan, ularning bir qismi boshqa hududlarga sotilgan. Kemasozlar savdogarlarning mollarini Amudaryodan o‘tkazib berish bilan shug‘ullanganlar va bu ish ularga sezilarli daromad keltirgan. Bu davrda Termizning savdo shahri sifatidagi mavqei juda oshgan. Shaharda o‘ndan ortiq karvonsaroylar mavjud bo‘lgan. Bozorlarning nihoyatda gavjumligi tufayli mahalliy aholi qadimiy Termiz xarobalarini uzoq vaqtgacha “shahri g‘ulg‘ula” deb atab kelgan.[3. 104] Rivoyatlarga ko‘ra, Termiz bozorlarining shovqini hatto Balxda ham eshitilib turgan. Bu, albatta, shaharning savdo-sotiqdagi ulkan nufuzini obrazli tarzda ifodalovchi ta’rifdir.

Termizning yirik savdo va aloqa markazi sifatidagi ahamiyati Chag‘oniyon bilan bog‘liq yo‘nalishlarda ham yaqqol ko‘rinadi. Hozirgi Eski Termiz bilan Budrach — Chag‘oniyon o‘rtasidagi masofa 120 kilometrni tashkil etgan. Shu bois bir farsax Chag‘oniyonda taxminan 5 kilometrga teng bo‘lgan.[4. 111] Termizdan Chag‘oniyonga ketuvchi dastlabki manzil Sarminjon, ya’ni Jarminkondan keyin Darzanji yoki Darzanki, ya’ni Dorzangi hisoblangan. Ayrim manbalarda bu manzil Darzanka yoki Darazanj nomlari bilan ham tilga olinadi. Qudama ibn Ja’far bu joyni “ko‘plab aholisi zich joylashgan qishloq” deb tavsiflaydi, Ibn Havqal uni “chiroyli shaharcha” deb ataydi, “Hudud ul-olam”da esa shaharcha ma’nosidagi “shaxrak” sifatida tilga olinadi. V.V. Bartold Dorzangi mavzesini Jaloyir qishlog‘i yonida, Bandixonsoyning Surxondaryoga quyilish joyi yaqinida joylashtirgan. E.V. Rtveladze esa bu yodgorlik maydoni 50 gektarni tashkil etganini qayd etadi va Dorzangi shaharchasini aynan shu hududda lokalizatsiya qilish asosli ekanini ta’kidlaydi.

Chag‘oniyonning IX–XIII asr boshlariga oid tarixiy mavzelarining aksariyati Termiz–Chag‘oniyon va undan keyingi Chag‘oniyon–Hamaravon savdo yo‘lida joylashgan bo‘lgan. Bu holat Termizning nafaqat voha ichidagi, balki mintaqaviy savdo-kommunikatsiya tizimidagi markaziy o‘rnini ko‘rsatadi. Yana bir muhim yo‘nalish Termiz bilan “Temir darvoza” oralig‘idagi tarixiy yo‘l bo‘lib, u hozirgi Eski Termiz hududidan shimolga qarab Kaptarxona, Angor, Qorasuv va Sherobod vohalarini kesib o‘tgan. Yo‘l Sheroboddaryoning yuqori oqimi bo‘ylab, uning chap va o‘ng qirg‘oqlari yoqalab Sayrob va Darband qishloqlari orqali Darband va Sho‘rob qishloqlari oralig‘idagi Oqqo‘tolga, undan keyin esa Chak-Chak dovoniga yaqin daraga tutashgan. Bu yo‘l Termizni ichki hududlar va tog‘li mintaqalar bilan bog‘lab turgan muhim strategik tarmoq bo‘lgan.

Eski Termiz hududi tarixiy yodgorliklarga nihoyatda boy bo‘lgan. B.N. Kastalьskiyning Termizni sug‘orish rejasi loyihasiga tarixiy obidalar joylashgan Eski Termiz hududi ham kiritilgan edi. Uning reja-loyihasida bir qator yodgorliklar ko‘rsatilgan: Chingiztepa, Abdulla Termiziy — ya’ni al-Hakim at-Termiziy maqbarasi, Sherobod yo‘lidagi 1032-yilda qurilgan minora xarobasi, hozirgi kunda yo‘qolib ketgan Xo‘ja Varrux xarobasi, Zurmala minorasi xarobasi, Qirqqiz xarobasi, 1904-yilda buzilib ketgan Afg‘onmozor xarobasi, Kokildorota xarobasi, Balandota tepaligi, Sulton Saodat maqbarasi, Tallitog‘ora xarobasi, Burxi Sarmaz xarobasi, Rupenoi xarobasi va Nog‘oraxon. Ushbu ro‘yxatning o‘ziyoq Eski Termiz hududi naqadar boy tarixiy-madaniy qatlamlarga ega bo‘lganini ko‘rsatadi.

B.N. Kastalskiy Eski Termiz xarobalari orasidan o‘tuvchi sug‘orish tizimi haqida ham muhim ma’lumotlar qoldirgan. Uning

yozishicha, Salovatga kirib keluvchi ariq qishloq boshida ikki tarmoqqa bo‘lingan: birinchi tarmoq Sulton Saodat, Afg‘onmozor va Qirqqiz tomonga qarab ketgan, ikkinchi tarmoq esa Turkiston chegara batalyoni joylashgan hududga yo‘nalgan. U sug‘oriladigan umumiy maydonni 3000 desyatina deb ko‘rsatadi. Bu ma’lumotlar Termiz atrofida qadimdan rivojlangan sug‘orish va dehqonchilik tizimi mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi[5. 7].

Termiz tarixida shahar chetidagi hokimlar saroyi alohida o‘rin tutadi. XI–XIII asrlarga oid eng noyob yodgorliklardan biri bo‘lgan bu saroy shaharning sharqiy qismida, yam-yashil bog‘lar orasida, 10 gektardan ortiq maydonni egallagan. To‘g‘ri to‘rtburchak shaklda qurilgan saroy maxsus mudofaa devori bilan o‘ralgan bo‘lib, devorlar tashqaridan minoralar bilan mustahkamlangan. Shimoliy devorda 17 ta, sharqiy devorda 7 ta minora bo‘lgan. Devorlarda maxsus shinaklar ham mavjud edi. G‘arbiy devorda ikkita darvoza bo‘lib, ular pishiq va xom g‘ishtdan terilgan, xuddi shunday darvozalar sharqiy va shimoliy devorlarda ham mavjud bo‘lgan. Mazkur maydonning janubiy qismida uchta katta asosiy bino joylashgan. Ulardan faqat bittasi arxeologlar tomonidan to‘liqroq ochib o‘rganilgan, qolganlarida esa tekshiruvlar kichik maydonlar bilan cheklangan. Bu binolarning asosiy qismi keyingi davrlarda yerni o‘zlashtirish jarayonida buzib tashlangan.

Termiz nafaqat iqtisodiy va me’moriy markaz, balki ma’naviy va ilmiy markaz ham bo‘lgan. O‘rta asrlarda bu yerda islom dunyosida mashhur ko‘plab allomalar va ijodkorlar yashab, faoliyat ko‘rsatganlar. Hadisshunos alloma Iso at-Termiziy, qomusiy olim va mutasavvif Hakim at-Termiziy hamda shoir Sobir Termiziy shular jumlasidandir. Bu holat Termizning faqat savdo va hunarmandchilik markazi emas, balki ilm-fan, tasavvuf va adabiyot rivoj topgan muhit bo‘lganini ham ko‘rsatadi.

Shahar tarixidagi eng fojeali voqea 1220-yil bilan bog‘liq. Yozma manbalarda qayd etilishicha, mo‘g‘ul-tatar bosqinchilari Termizni ishg‘ol qilish chog‘ida shahar aholisi qattiq qarshilik ko‘rsatgan. Bundan g‘azablangan Chingizxon Termizni yer bilan yakson qilishga buyruq bergan. Og‘ir janglardan so‘ng shahar taslim bo‘lgan, bosqinchilar uni talab, o‘t qo‘yib yuborgan. Aholining bir qismi qirib tashlangan, qolgan qismi esa haydab ketilgan. Bu voqealar Termiz tarixidagi eng qora va mash’um sahifa bo‘lib, shundan keyin shahar uzoq vaqt o‘zini tiklay olmagan. Qirg‘in va asirlikdan omon qolgan aholining bir qismi keyinchalik Salovat deb atalgan hududga ko‘chib o‘tgan. Shunga qaramay, termizliklarning jasorati tarixda chuqur iz qoldirdi. XIV asrda zarb qilingan tangalarda va yozma manbalarda Termiz “Erlar shahri” deb qayd etilgan.[6. 46] Ehtimol, bu nom shaharning bosqinchilarga ko‘rsatgan mardonavor qarshiligi evaziga berilgan bo‘lsa kerak. Keyingi davrlarda ham Termiz o‘z ahamiyatini yo‘qotmadi. Temuriylar va Buxoro xonliklari davrida u Amudaryo bo‘yidagi muhim strategik qal’a sifatida faoliyat ko‘rsatgan. Qal’ada kechuvni himoya qiluvchi kuchli harbiy garnizon joylashgan bo‘lib, bu holat Termizning janubiy hududlarni nazorat qilish va harbiy-siyosiy xavfsizlikni ta’minlashdagi o‘rnini yaqqol ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Termiz qadimgi va o‘rta asrlar tarixida ko‘p qatlamli taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan shahar sifatida namoyon bo‘ladi. Uning tepalik ustida bunyod etilgan mudofaa tizimi, Amudaryo bo‘yidagi qulay geografik o‘rni, Chag‘oniyon va “Temir darvoza”ga olib boruvchi savdo yo‘llari, rivojlangan hunarmandchilik va kemasozlik tarmoqlari, sug‘orish tizimlari, boy tarixiy obidalari, hokimlar saroyi, Jarqo‘rg‘on minorasi singari yodgorliklari, shuningdek, ilm-fan va ma’naviyat markazi sifatidagi nufuzi bu shaharning O‘rta Osiyo sivilizatsiyasidagi beqiyos o‘rnini ko‘rsatadi. Termiz nafaqat voha tarixining, balki butun O‘zbekiston tarixiy-madaniy taraqqiyotining muhim bo‘g‘inlaridan biri bo‘lib, uning boy merosini chuqur o‘rganish va asrab-avaylash bugungi kunda ham dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Сурхандарья. Добро пожаловать в неповторимый край! — Ташкент: Uzbekistan.travel, [nashr yili ko‘rsatilmagan]. — 70 с.

2. Турсунов С.Н., Умаров И., Пардаев Т. Ўзбекистонда топономик номлар ва уларнинг тарихи. – Термиз: Сурхон-нашр, 2017. – б. 48

3. Raimov Mamasoat Safar o‘g‘li. Eski Termiz haqida tarixiy ma’lumotlar // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. — 2024. — 4-jild, 6-son. — B. 101–105.

4. Камолиддин Шамсиддин. Письменные источники для изучения истории Средней Азии эпохи Саманидов (IX–X вв.): учебное пособие для студентов исторических факультетов высших учебных заведений. — Ташкент: Voris nashriyoti, 2025. — 228 с.

5. S.Tursunov, T.Pardaev, A.Payg‘amov, N.Narzullaeva. Surhon vohasi moddiy madaniyat tarixi. – T.: Muharrir, 2013. – B. 7.

6. Sh.Pidaev. Qadimiy Termiz. T.: Fan. 2001.

DALVARZINTEPA – KUSHON DAVRI SHAHAR MADANIYATINING NOYOB ARXEOLOGIK YODGORLIGI

TURDIYEVA AZIZA YO‘LDOSH QIZI

Termiz davlat universiteti
Tarix ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatida joylashgan Dalvarzintepa yodgorligining tarixiy taraqqiyoti, arxeologik o‘rganilish jarayoni, shaharsozlik xususiyatlari hamda Kushon davridagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti yoritilgan. Shuningdek, yodgorlikdan topilgan noyob arxeologik topilmalar, jumladan oltin xazina, buddaviylik ibodatxonalari, haykallar va hunarmandchilik buyumlari asosida Dalvarzintepaning Markaziy Osiyo sivilizatsiyasidagi o‘rni tahlil qilingan.

В данной статье рассматривается историческое развитие археологического памятника Далверзинтепа, расположенного в Сурхандарьинской области, процесс его изучения, особенности градостроительства, а также социально-экономическая и культурная жизнь в период Кушанской империи. Особое внимание уделено уникальным археологическим находкам, включая золотой клад, буддийские храмы, скульптуры и ремесленные изделия, на основе которых анализируется роль Далверзинтепы в цивилизации Центральной Азии.

This article examines the historical development of the Dalvarzintepa archaeological site located in the Surkhandarya region, the process of its study, its urban planning features, and the socio-economic and cultural life during the Kushan Empire. Special attention is given to unique archaeological findings, including the golden treasure, Buddhist temples, sculptures, and craft artifacts, which highlight the significance of Dalvarzintepa in the civilization of Central Asia.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

Dalvarzintepa, Kushon imperiyasi, Xodzo, arxeologik qazishmalar, oltin xazina, buddaviylik, ibodatxona, hunarmandchilik, shaharsozlik, Surxon vohasi.

Далверзинтепа, Кушанская империя, Ходзо, археологические раскопки, золотой клад, буддизм, храм, ремесленничество, градостроительство, Сурхандарьинская долина.

Dalvarzintepa, Kushan Empire, Khodzo, archaeological excavations, golden treasure, Buddhism, temple, craftsmanship, urban planning, Surkhandarya oasis.

Surxondaryo viloyati Sho‘rchi tumanidagi hozirgi Leninobod qishlog‘i hududida joylashgan Dalvarzintepa Markaziy Osiyoning eng muhim arxeologik yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Mazkur tarixiy obidani ilmiy jihatdan o‘rganish ishlari 1962-yildan boshlangan bo‘lib, keyingi o‘n yilliklar davomida olib borilgan tadqiqotlar natijasida Dalvarzintepaning qadimgi Kushon davri shahri sifatidagi ulkan ahamiyati aniqlangan. Ushbu yodgorlik miloddan avvalgi I asrdan milodiy IV asrgacha bo‘lgan davrda, ayniqsa Kushon imperiyasi hukmronligi davrida yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markaz sifatida ravnaq topgan.

Dalvarzintepa umumiy maydoni 36 gektarni tashkil etuvchi, qalinligi 10 metrgacha yetadigan boy madaniy qatlamga ega yirik manzilgohdir. Shaharning ichki qismi qariyb yetti gektar maydonni egallagan bo‘lib, u chordevor va xandak bilan o‘rab olingan. Chordevor xom g‘ishtdan bunyod etilib, uning usti loy bilan suvalgan. Hozirgi kunda yodgorlik atrofdan qaraganda 12, 5 metr balandlikdagi tepalik ko‘rinishida saqlanib qolgan. Devorlar bo‘ylab harbiy mudofaa maqsadida maxsus minoralar bunyod etilgan bo‘lib, bu shaharning mudofaa tizimi puxta rejalashtirilganidan dalolat beradi. Shahar markaziy qismida badavlat aholi va zodagonlar mahallalari, janubiy qismida esa asosan hunarmandlar, xususan kulollar yashagan mahalla joylashgan.

Ilmiy adabiyotlarda Dalvarzintepa qadimiy manbalarda tilga olingan Xodzo shahri bilan bog‘lanadi va ayrim tadqiqotlarda u qadimgi Kushonlar davlatining dastlabki poytaxti sifatida talqin qilinadi. Shu bois yodgorlikning qadimiy nomi ham “Xodzo” bo‘lgani ehtimol qilinadi.[3. 98] “Dalvarzintepa” atamasi esa keyingi davrlarda mahalliy xalq tomonidan shakllangan nom sifatida izohlanadi. Mazkur so‘zning tarkibiy tahliliga ko‘ra, “dal” — qishloq yoki yer, “varzin” — yuksalish yoki balandlik, “tepa” esa baland joy ma’nolarini anglatadi. Shunga ko‘ra, Dalvarzintepa “balandlikdagi qishloq” yoki “yuksalgan joy” sifatida talqin qilinadi.[2. 16] Yana bir rivoyatda bu nom qadimda shu yerda hukmronlik qilgan afsonaviy qahramon Dol yoki Zol nomi bilan bog‘lanadi. Xalq og‘zaki ijodida arablar ushbu shaharni Hazrati Alining rahnamoligida egallagani, undan keyin esa shaharda hayot butunlay so‘ngani haqida ham naql saqlanib qolgan.

Dalvarzintepa yodgorligini ilmiy o‘rganish XX asrning 60-yillarida yangi bosqichga ko‘tarildi. 1959-yilda San’atshunoslik institutida “Tasviriy san’at va me’morlik” bo‘limi negizida “O‘zbekiston san’atshunosligi ekspeditsiyasi” tashkil etilib, aynan shu ilmiy jamoa tomonidan Dalvarzintepada dastlabki arxeologik tadqiqotlar olib borildi. 1967-yildan e’tiboran esa qazish ishlari keng ko‘lam kasb etdi. Ushbu ekspeditsiyalarda taniqli olimlar, jumladan, ekspeditsiya rahbari G.A. Pugachenkova, arxeologlar T. Belyayeva, B. Turg‘unov, E.V. Rtveladze, restavratorlar V. Lunev, N. Sotnikova va X. Xusnutdinxo‘jayev faol qatnashganlar. Ularning sa’y-harakatlari natijasida Dalvarzintepaning shahar tuzilishi, diniy inshootlari, turar joylari va moddiy madaniyati haqida qimmatli ma’lumotlar qo‘lga kiritildi.

Qadimgi shaharning shimoliy qismida Baqtriya ma’budasiga bag‘ishlangan ibodatxona hamda devoriy rasmlar aniqlangan. Bundan tashqari, ushbu hududda miloddan avvalgi I asr boshlariga oid buddaviylik ibodatxonasining xarobalari topilgan bo‘lib, u O‘zbekiston hududidagi eng qadimgi buddaviylik ibodatxonalardan biri sifatida alohida ilmiy ahamiyatga ega. Bu topilmalar Dalvarzintepaning nafaqat siyosiy va iqtisodiy, balki diniy va madaniy markaz sifatida ham yuksak mavqega ega bo‘lganini tasdiqlaydi. Kushon davrida bu yerda shahar hayoti, turar joylar, diniy inshootlar va hunarmandchilik markazlari jadal rivojlangan.

Dalvarzintepa tadqiqotlarining eng katta yutuqlaridan biri 1972-yilda amalga oshirilgan qazish ishlari bilan bog‘liq. Qadimgi shahar ko‘chalari o‘rganilayotgan chog‘da uy deb taxmin qilinayotgan binolardan birida og‘irligi 35 kilogramm 712 gramm 13 milligramm bo‘lgan oltin buyumlar xazinasi topilgan.[1. 77] Ushbu topilma nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo arxeologiyasi tarixidagi eng muhim topilmalardan biri sanaladi. Shuningdek, qazishmalar davomida fil suyagidan yasalgan turli xil buyumlar, dunyodagi eng qadimgi shaxmat donalari deb baholanayotgan I–II asrlarga oid namunalar, qimmatbaho toshlardan ishlangan zargarlik buyumlari, tangalar hamda Yunon-Baqtriya davriga mansub nafis sopol ashyolar topilgan. Bu topilmalar Dalvarzintepaning yuqori darajada rivojlangan moddiy madaniyat markazi bo‘lganidan dalolat beradi. Bugungi kunda ushbu artefaktlar Toshkent shahridagi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San’atshunoslik instituti fondida saqlanmoqda.

Dalvarzintepa topilmalarining ilmiy va madaniy ahamiyati 1970-yillarda keng jamoatchilik e’tiborini tortgan. O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi Sharof Rashidov qadimshunoslar bilan uchrashgan, 1973-yil 2-aprelda esa topilmalar yuzasidan matbuot konferensiyasi o‘tkazilgan. Aynan shu voqealardan keyin G.A. Pugachenkovaning “Dalvarzintepaning badiiy xazinasi” asari rus va fransuz tillarida nashr

etilgan. Shuningdek, yozuvchi Murodjon Mahmudovning “Yombi” qissasi ham mazkur topilmalar asosida yaratilgan. Dalvarzintepani o‘rganishda yapon olimi, professor Kyudzo Kato alohida jonbozlik ko‘rsatgan. U 2002-yilda “Do‘stlik” ordeni bilan mukofotlangan bo‘lib, bugungi kunda Dalvarzin yaqinidagi 43-maktab uning nomi bilan ataladi. Tatyana Belyayeva va Bahodir Turg‘unov ham Dalvarzintepa sirlarini ochishda katta ilmiy hissa qo‘shgan olimlar sifatida e’tirof etiladi.

Dalvarzintepadan topilgan eng diqqatga sazovor topilmalardan yana biri Budda haykalidir. Ma’lumotlarga ko‘ra, mexanizator N. Murodov Dalvarzintepaning shimolidagi kichik tepalikni tekislash chog‘ida tuproq orasidan odam boshi shaklidagi haykalni topib olgan. Bu Budda haykali bo‘lib, u mazkur hudud aholisi o‘z vaqtida buddaviylik diniga e’tiqod qilganini yana bir bor tasdiqlaydi. Ushbu topilma Dalvarzintepaning diniy hayoti va e’tiqod tizimi haqida muhim tarixiy dalil sifatida baholanadi.

Arxeologik qazishmalar davomida Dalvarzintepaning qariyb 6000 kvadrat metrga yaqin qismi ochib o‘rganilgan. 2, 5 metrdan 3, 5 metrgacha bo‘lgan madaniy qatlam uchta qurilish bosqichiga ajratilgan.[5] Har bir qatlamdan turar joy qoldiqlari, jez quyish ustaxonalari, g‘alla o‘ralari va turli mehnat qurollari aniqlangan. Biroq uy-joylar nisbatan kam ochilganligi sababli bu jihat hali to‘liq o‘rganilgan deb bo‘lmaydi. Madaniy qatlamlarda tashlandiq uy-joylar o‘rnida yonboshlagan holda yotgan murdalar va ko‘p miqdordagi alohida suyaklarning topilishi ham muhim ilmiy ahamiyatga ega. Ushbu antropologik materiallar Dalvarzintepada yashagan aholining antropologik jihatdan yevropeoid irqiga mansub bo‘lganini ko‘rsatadi.

Topilmalar Dalvarzintepa aholisining xo‘jalik hayoti haqida ham muhim tasavvur beradi. Aholining asosiy mashg‘uloti dehqonchilik va chorvachilik bo‘lgan. Donni qayta ishlashda yorg‘uchoqdan foydalanilgan. Topilgan hayvon suyaklari esa aholining uy hayvonlarining deyarli barcha turlarini boqish bilan shug‘ullanganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, shaharda jez quyish hunari ancha rivojlangan. Jezdan tayyorlangan o‘roq, iskana, bigiz, igna, nayza va o‘q uchlari, turli zeb-ziynat buyumlari buning yaqqol dalilidir. Topilmalar orasida to‘qimachilik taraqqiy etganidan darak beruvchi jez ignalar, bigizlar, urchuqlar va boshqa ashyolar ham mavjud. Bundan tashqari, Dalvarzintepa aholisi kulolchilik, ustachilik va zargarlik bilan ham faol shug‘ullangan. Demak, bu yodgorlik o‘z davrida ko‘p tarmoqli hunarmandchilik va ishlab chiqarish markazi bo‘lgan.

Xulosa qilib aytganda, Dalvarzintepa Surxondaryo vohasining eng yirik va eng qadimiy shahar yodgorliklaridan biri sifatida O‘zbekiston tarixida alohida o‘rin egallaydi. U Kushon davri shaharsozligi, diniy hayoti, hunarmandchiligi, xo‘jalik tizimi va moddiy madaniyatini o‘rganishda beqiyos manba bo‘lib xizmat qiladi. Arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan boy xazinalar, ibodatxonalar, haykallar, hunarmandchilik buyumlari va turar joy qoldiqlari Dalvarzintepaning qadimgi sivilizatsiya markazlaridan biri bo‘lganini to‘liq tasdiqlaydi. Shu bois Dalvarzintepani o‘rganish nafaqat Surxondaryo vohasi, balki butun Markaziy Osiyo qadimgi tarixini yoritishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. Ешбоев Т. Шўрчи шуҳрати ва инсон қудрати. — Тошкент, 2007. — Б. 33.
2. Қораев С. Топонимика. – Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2006. – Б. 16.
3. Турсунов С. Н. Сурхондарё вилояти топонимлари. — Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. — Б. 149.
4. Пугаченкова Г. А. и др. Далварзинтепа — кушанский город на юге Узбекистана. — 1978.
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Dalvarzintepa

SARIOSIYO TUMANINING ENTOLOGIYASI VA TARIXIY-ETNOGRAFIK XUSUSIYATLARI

MUXAMMADALIYEVA FERUZA ABDURASHID QIZI

Termiz davlat universiteti
Tarix ta'lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatining shimoliy qismida joylashgan Sariosiyo tumanining etnik tarkibi, tarixiy shakllanish jarayoni va ayrim qishloqlarning tarixiy-toponimik xususiyatlari yoritilgan. Hududda o‘zbek va tojik aholisining uzoq yillar davomida yonma-yon yashashi natijasida shakllangan etnomadaniy muhit, mahalliy guruhlarning joylashuvi, til, turmush tarzi va xo‘jalik faoliyatiga doir jihatlar tahlil qilingan. Shuningdek, ayrim qishloq nomlarining kelib chiqishi va ularning tarixiy xotira bilan bog‘liqligi ko‘rsatib berilgan.

В данной статье рассматриваются этнический состав, историческое формирование и топонимические особенности Сариасийского района, расположенного в северной части Сурхандарьинской области. Анализируется этнокультурная среда, сложившаяся в результате многолетнего сосуществования узбекского и таджикского населения, их расселение, язык, образ жизни и хозяйственная деятельность. Также освещается происхождение названий отдельных населённых пунктов и их связь с исторической памятью.

This article examines the ethnic composition, historical development, and toponymic features of Sariosiyo district located in the northern part of Surkhandarya region. It analyzes the ethnocultural environment formed through the long-term coexistence of Uzbek and Tajik populations, including their settlement patterns, language, lifestyle, and economic activities. The study also highlights the origins of certain village names and their connection with historical memory.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

Sariosiyo, Surxondaryo, etnik tarkib, o‘zbeklar, tojiklar, etnografiya, toponimika, qishloqlar tarixi, etnomadaniy muhit, tarixiy xotira.

Сариасийо, Сурхандарья, этнический состав, узбеки, таджики, этнография, топонимика, история сёл, этнокультурная среда, историческая память.

Sariosiyo, Surkhandarya, ethnic composition, Uzbeks, Tajiks, ethnography, toponymy, village history, ethnocultural environment, historical memory.

Surxondaryo viloyatining shimoliy qismida joylashgan Sariosiyo tumani o‘zining tabiiy-geografik sharoiti, murakkab etnik tarkibi hamda boy tarixiy-madaniy an’analari bilan ajralib turadigan hududlardan biridir. Tuman tog‘li va tog‘oldi mintaqasida joylashgani sababli, bu yerda tarixiy taraqqiyot davomida turli etnik guruhlarning shakllanishi, o‘zaro aralashuvi va madaniy uyg‘unlashuvi yuz bergan. Hudud nomining etimologiyasi ham uning tabiiy va xo‘jalik hayoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, “sar” — bosh, “osiyo” esa — tegirmon ma’nosini anglatadi. Shu asosda Sariosiyo toponimi “tegirmon boshi” mazmunini ifodalab, hududdagi suv manbalari va an’anaviy xo‘jalik bilan aloqador tarixiy nom sifatida talqin qilinadi.[1. 199]

Tarixan Sariosiyo hududi qadimgi Chag‘oniyon vohasining tarkibiy qismi bo‘lgan. Keyingi davrlarda esa u alohida ma’muriy hudud sifatida shakllangan. Tuman 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan bo‘lib, 1962-yil 24-dekabrda Denov tumani tarkibiga qo‘shib yuborilgan.[2] Tarixiy taraqqiyot jarayonida bu hudud turli etnik qatlamlarning maskani sifatida rivojlangan. Asosiy aholini o‘zbek va tojiklar tashkil etgan bo‘lsa-da, ayrim davrlarda ruslar, tatarlar, turkmanlar hamda boshqa guruhlar ham hudud etnik tarkibining boyishiga ta’sir ko‘rsatgan.

Sariosiyo tumanining etnik tarkibida tojik aholisi alohida o‘rin egallaydi. Ular asosan tumanning tog‘li qismlarida zich joylashgan bo‘lib, Hisor tog‘lari, Qashqadaryo tomoni va ularga tutash hududlardan ko‘chib kelib o‘rnashgan etnik guruhlar sifatida tavsiflanadi. Tojik aholi tarixan Kishtut, Xufar, Xondiza, Istoch, Vochax, Maland va Zoxona kabi qishloqlarda yashab kelgan. Mazkur qishloqlarning Hisor tizmasi etaklarida joylashuvi bu hududlarda o‘ziga xos tog‘li etnografik muhit shakllanishiga zamin yaratgan. Mahalliy ma’lumotlarda vaqachi, zevar, qarshi, niluchi, xupari, kaltatoy va Boysun tojiklari kabi ichki guruhlar ham qayd etiladi. Bu holat Sariosiyo tojiklarining ichki guruhlarga bo‘lingan holda tarixiy shakllanganini ko‘rsatadi.[3. 101]

Antropologik jihatdan Sariosiyo tojiklari orasida ayrim umumiy belgilar kuzatiladi. Ularning ko‘pchiligida yuz tuzilishining nisbatan ingichkaligi, qalin qosh, qirraburunlik, qora soch va jigarrang ko‘zlar, shuningdek oqish yoki bug‘doyrang tana rangi uchrashi qayd etiladi. Biroq ayrim mahalliy guruhlar orasida lahja, turmush tarzi va madaniy unsurlarda ma’lum farqlar ham mavjud. Ular asosan tojik tilining mahalliy lahjalarida so‘zlashadilar. Bu lahjalarda turkiy, xususan o‘zbekcha unsurlarning faol qo‘llanishi hududda o‘zbek va tojik aholisining uzoq yillar davomida yonma-yon yashab, yaqin iqtisodiy va madaniy aloqalarda bo‘lganini ko‘rsatadi.

Madaniy jihatdan Sariosiyo tojiklari Hisor tojiklari doirasiga mansub bo‘lib, ayrim urf-odatlari, sheva xususiyatlari va turmush tarzi bilan ajralib turadi. Ularning an’anaviy mashg‘ulotlari tog‘li sharoitga moslashgan dehqonchilik va chorvachilikdan iborat bo‘lgan. Ayniqsa, Hisor zotli qo‘ylarni boqish mahalliy xo‘jalik hayotida muhim o‘rin tutgan. Shu bilan birga, tekislik va tog‘oldi hududlarida yashovchi o‘zbek aholisi bilan iqtisodiy va madaniy aloqalar muntazam davom etgan. Bu esa Sariosiyo hududida etnik guruhlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va madaniy yaqinlashuv jarayonining kuchli bo‘lganidan dalolat beradi.[4. 109]

Sariosiyo o‘zbeklari ham tuman aholisining asosiy qismini tashkil etuvchi tarixiy-etnik qatlamlardan biridir. Ular tumanning deyarli barcha hududlarida, ayniqsa vodiy va tog‘oldi qismlarida istiqomat qiladilar. Mahalliy o‘zbek aholining muhim qismi tarixan “Saroy” deb atalgan yirik qabilaviy uyushmaga mansub bo‘lgan. Saroylar XIV–XV asrlarda Dashti Qipchoq hududida shakllanib, XVI asrda Movarounnahrga kirib kelgan va keyinchalik mahalliy qatlamlar bilan aralashib, o‘zbek xalqi tarkibiga singib ketgan. Bu jarayon Sariosiyo hududida ham kuzatilgan bo‘lib, XX asr boshlariga kelib etnik uyg‘unlashuv yanada kuchaygan.

O‘zbek aholisining xo‘jalik hayotida dehqonchilik va chorvachilik yetakchi o‘rin tutgan. Tog‘li va tog‘oldi hududlarda Hisor zotli qo‘ylarni boqish keng tarqalgan bo‘lib, bu hududning tabiiy sharoitiga moslashgan iqtisodiy faoliyat shakli sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbek aholisi o‘zbek tilining mahalliy shevalarida so‘zlashadi, ushbu shevalarda esa ayrim tojikcha unsurlar ham uchraydi. Bu holat ham ikki asosiy etnik qatlamning uzoq muddatli o‘zaro ta’siri bilan izohlanadi.

Tumandagi ayrim qishloqlar tarixiy-toponimik va etnik tarkibi jihatidan alohida e’tiborga loyiqdir. Jumladan, hozirgi Shohimardon qishlog‘i turli davrlarda bir necha nom bilan atalgan. Dastlab u Beshkappa deb yuritilgan bo‘lib, bu nom hududda dastlab beshta kappa bo‘lgani bilan izohlanadi. Keyinchalik qishloq Somonqishloq deb atalgan. Mahalliy og‘zaki ma’lumotlarga ko‘ra, bu nom hududda somonning ko‘pligi bilan bog‘liq bo‘lgan. So‘ngra qishloq Anderey nomi bilan ham yuritilgan. 1998-yildan keyin esa qishloq nomi Shohimardon shaklida mustahkamlangan. Bu qishloq nomlarining almashinuvi hudud tarixida ijtimoiy xotira, mahalliy rivoyat va tarixiy shaxslar ta’siri mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi.[5]

Shohimardon qishlog‘ining etnik tarkibi ham rang-barangdir. Bu yerda tojiklar, o‘zbeklar, qo‘ng‘irotlar, turkmanlar hamda ayrim boshqa guruhlar yashab kelgan. Qo‘ng‘irotlar Boysun qo‘ng‘irotlari va Qashqadaryo qo‘ng‘irotlariga ajralishi, turkmanlarning esa ko‘chib kelgan qatlam sifatida eslanishi hududdagi etnik tarkibning ko‘p qatlamli ekanini tasdiqlaydi. Tojik aholi orasida Hisor tog‘lari va Xufar hududidan kelgan guruhlar qayd etiladi. Bu holat qishloq aholisining uzoq davrlar davomida migratsion oqimlar ta’sirida shakllanganini ko‘rsatadi.

Shohimardon atrofiga tutash hududlarda ham tarixiy-etnografik jihatdan muhim qishloqlar joylashgan. Telpakchinor qishlog‘i ma’lum davrda Lelingrad nomi bilan yuritilgan bo‘lib, unda asosan tojiklar istiqomat qilgan.[6] Xilapo‘nkit qishlog‘i esa iqtisodiy markaz sifatida tilga olinadi: bu yerda atrof qishloqlardan keltirilgan paxta to‘plangan va paxta zavodi faoliyat yuritgan. Sadven sovxoz qishlog‘i tarixan uzumchilik bilan mashhur bo‘lib, unda turkmanlar, nemislar, tatarlar, turklar, qo‘ng‘irotlar va ruslar yashagani qayd etiladi. Parseyz qishlog‘i esa nomining o‘zgarishi bilan diqqatga sazovor bo‘lib, uning yangi nomi sovet davri ijtimoiy-siyosiy jarayonlari bilan bog‘liq holda shakllangan deb qaraladi.

Tuman hududida boshqa tojik guruhlari ham mavjud bo‘lgan. Masalan, Hisor tog‘lari tomonidagi Shoturut qishlog‘idan ko‘chib kelgan guruhlar Sariosiyo markazida o‘rnashgan bo‘lib, ular mahalliy ravishda Shoturut tojiklari deb atalgan.[7] Honim qishlog‘ida esa Sangardak hududidan ko‘chib kelgan tojik guruhlari yashagani qayd etiladi. Bu holat tuman hududida ko‘chish va qayta joylashish jarayonlari tarixan faol kechganidan dalolat beradi.

Tojikiston chegarasi yaqinida joylashgan Dashnaobod qishlog‘i aholisi ham tarixiy xotira va nasab an’analari bilan ajralib turadi. Mahalliy qarashlarga ko‘ra, bu yer aholisi o‘z nasabini Shahrisabzdagi barlos urug‘i bilan bog‘laydi. Qishloq aholisi asosan dehqonchilik bilan shug‘ullanadi va hudud anorchilik bilan mashhurligi qayd etiladi. Dashnaobodga yaqin joylashgan Bo‘yraposht qishlog‘i esa qadimdan o‘zbeklar yashab kelgan maskan sifatida tilga olinadi. Uning nomi bilan bog‘liq rivoyatlar hududning diniy va tarixiy xotirasi bilan bevosita bog‘liqdir.[6]

Umuman olganda, Sariosiyo tumani tarixiy shakllanishi jihatidan murakkab va ko‘p qatlamli etnik tarkibga ega hududlardan biri hisoblanadi. Bu yerda o‘zbek va tojik xalqlarining uzoq yillar davom etgan yonma-yon hayoti, ularning til, xo‘jalik, madaniyat va turmush tarzidagi o‘zaro ta’siri natijasida o‘ziga xos etnografik muhit vujudga kelgan. Ayniqsa, ayrim qishloqlarning nomlanishi, etnik tarkibi va migratsion jarayonlar bilan bog‘liq tarixiy xotira elementlari Sariosiyo tumanini tarixiy-etnografik jihatdan chuqur o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Shu bois mazkur hudud aholisining etnik tarkibi, tarixiy taraqqiyoti va qishloqlarning tarixiy-toponimik xususiyatlarini o‘rganish Janubiy O‘zbekiston etnografiyasi uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. Турсунов С.Н., Умаров И., Пардаев Т. Ўзбекистонда топономик номлар ва уларнинг тарихи. – Термиз: Сурхон-нашр, 2017. – б. 48/
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Sariosiyo_tumani
3. Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. — Т.: Ўқитувчи, 1994
4. Турсунов С., Пардаев Т., Курбонов А., Турсунов Н., Ўзбекистон тарихи ва маданияти – Сурхондарё этнографияси / С. Турсунов ва бошқ.; умумий таҳрир И. М. Жабборов. — Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. — 276 б.
5. Dala yozuvlari. Sarosiyo tumani Telpakchinor qishlog‘i. 2025-yil.
6. Dala yozuvlari. Sarosiyo tumani Dashnobod qishlog‘i. 2025-yil.
7. Dala yozuvlari. Sarosiyo tumani Shoturut qishlog‘i. 2025-yil

CHAG‘ONIYONNING TARIXIY-GEOGRAFIK O‘RNI VA SIYOSIY TARAQQIYOTI

ASHIROVA DAVLATBIBI SHAROFIDDINOVNA

Termiz davlat universiteti
Tarix ta'lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya / Аннотация / Abstract
Mazkur maqolada Chag‘oniyonning tarixiy-geografik joylashuvi, siyosiy taraqqiyoti hamda O‘rta Osiyo tarixidagi o‘rni yoritilgan. Unda viloyatning hududiy chegaralari, markaziy shaharlari, tarixiy manbalardagi nomlanishlari, diniy hayoti va arablar bosqini davridagi siyosiy holati tahlil

qilingan. Shuningdek, Chag‘oniylar sulolasining shakllanishi, hukmdorlari faoliyati hamda hududning ilmiy-madaniy hayotiga qo‘shgan hissasi manbalar asosida ochib berilgan. Chag‘oniyonning nafaqat siyosiy, balki madaniy va ilmiy markaz sifatidagi ahamiyati ham ko‘rsatib o‘tilgan.

В данной статье освещаются историко-географическое положение Чагониёна, его политическое развитие и место в истории Средней Азии. Анализируются территориальные границы области, ее центральные города, названия, встречающиеся в исторических источниках, религиозная жизнь и политическая ситуация в период арабского завоевания. Также на основе источников раскрываются процесс формирования династии Чагонидов, деятельность ее правителей и вклад региона в научно-культурное развитие. Подчеркивается значение Чагониёна не только как политического, но и как культурного и научного центра.

This article examines the historical and geographical location of Chaghaniyan, its political development, and its role in the history of Central Asia. It analyzes the region’s territorial boundaries, major urban centers, names found in historical sources, religious life, and political circumstances during the Arab conquest. The study also discusses the emergence of the Chaghaniyan dynasty, the activities of its rulers, and the region’s contribution to scientific and cultural development on the basis of historical sources. Particular attention is paid to the significance of Chaghaniyan not only as a political center but also as a cultural and intellectual hub.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

Chag‘oniyon, Sag‘oniyon, O‘rta Osiyo, tarixiy geografiya, siyosiy taraqqiyot, Chag‘oniylar sulolasi, arab bosqini, buddaviylik, Chag‘onxudot, Ahmad as-Sag‘oniy.

Чагониён, Саганиён, Средняя Азия, историческая география, политическое развитие, династия Чагонидов, арабское завоевание, буддизм, Чагонхудот, Ахмад ас-Сагани.

Chaghaniyan, Saghaniyan, Central Asia, historical geography, political development, Chaghaniyan dynasty, Arab conquest, Buddhism, Chaghankhudat, Ahmad al-Saghani.

Chag‘oniyon, arabcha manbalarda Sag‘oniyon shaklida uchraydigan, Oks — Amudaryoning yuqori havzasida joylashgan muhim tarixiy viloyatlardan biri bo‘lgan. Viloyatning bosh shahri ham aynan shu nom bilan atalgan. Chag‘oniyoniy, Chag‘oniy kabi nisbalarning paydo bo‘lishi ham mazkur hudud nomi bilan bog‘liqdir. Shuningdek, Chag‘oniyondan oqib o‘tuvchi daryoning Chag‘onrud deb atalishi, hozirgi Surxondaryo bilan uyg‘unlashuvi hamda mahalliy hukmdorlarning Chag‘onxudot unvoni bilan ulug‘lanishi shu tarixiy nomning siyosiy va geografik ahamiyatini ko‘rsatadi.

Tarixiy manbalarga ko‘ra, Chag‘oniyon markazi Termizdan to‘rt kunlik yo‘l, ya’ni 24 farsax, Quvodiyondan esa uch kunlik masofada joylashgan. V.V. Bartold Chag‘oniyon markazini hozirgi Denov o‘rnida bo‘lgan deb hisoblasa, Le Strenj uni bir oz shimolroqda, hozirgi Sariosiyo atrofida joylashgan deb ko‘rsatadi. Keyingi tadqiqotlarga ko‘ra esa, milodiy VI asrdan boshlab Chag‘oniyonning iqtisodiy-siyosiy markazi hozirgi Denov shahridan 6 kilometr janubi-sharqda, Qizilsuvning Surxondaryoga quyilish joyidagi Budrach shahriga ko‘chgan. Bu shahar miloddan avvalgi I asrdan milodiy XVI asrgacha mavjud bo‘lgan.[1. 85]

Xitoy sayyohi Szyan Szanning milodiy 630-yillar atrofidagi ma’lumotlariga qaraganda, arablar bostirib kelishi arafasida Chag‘oniyonda buddaviylik dini hukmron bo‘lgan. U yerda rohiblar soni uncha ko‘p bo‘lmasa-da, beshgacha ibodatxona mavjud edi. Bu ma’lumot hududda islomdan oldingi davrda diniy hayot ancha rivojlanganini ko‘rsatadi.

Sug‘d yozuvlarida Chag‘oniyon elchisi VII asrda Samarqand shohi huzurida bo‘lganligi ko‘rsatilgan. Arxeologlar fikricha, chagoniyenliklar baqtriya tilining biror shevasida so‘zlashgan. Manbalarda shahar, viloyat nomi Sofoniyen tarzida ham uchraydi. XVII asr tarixchisi Mahmud ibn Vali “Bahr ul-asror” asarida Sofoniyenni Chagoniyen ham atashadi deb yozgan. X asrda yaratilgan “Hudud al-olam”da ham Chagoniyen. Arxeologlar mahalliy (baqtriya) tiliga bog‘liq so‘z deb qaraydi. [2]

VIII asr boshlarida Chag‘oniyon arab bosqini bilan yuzma-yuz keladi. Tarixchi Tabariyning yozishicha, 86-hijriy yilda (705-yil) Chag‘oniyon hukmdori noib Qutayba ibn Muslimga bo‘ysunishga majbur bo‘lgan. Keyinchalik, 119-hijriy yilda (737-yil) esa Chag‘onxudot arablarning ittifoqchisi sifatida tilga olinadi. Bu holat Chag‘oniyonning dastlab qarshilik, keyinchalik esa siyosiy moslashuv yo‘lini tanlaganini bildiradi.

Chag‘oniyon tarixida mahalliy sulolalar ham muhim o‘rin tutadi. Tadqiqotchilarning qayd etishicha, Chag‘oniylar sulolasining asoschisi Muhtoj Chag‘oniy bo‘lgan. Ammo uning hukmronlik sanalari aniq emas. Sulolaning nasab zanjiri “Ash’ori hamasroni Rudakiy” asarida batafsilroq yoritilib, unda Amir Abu Yahyo Tohir ibn Abul Abbos Fazl ibn Abu Bakr Muhammad ibn Abu Said Muzaffar ibn Muhtoj Chag‘oniy nomi keltiriladi. Shu ma’lumot orqali Abu Bakrning asl ismi Muhammad, Abu Said Muzaffar esa uning otasi ekani anglashiladi. Demak, Muhtoj Chag‘oniy sulola asoschisi bo‘lib, u biz bilgan Abu Bakr Muhammadning bobosi hisoblanadi.[3]

Ma’lumotlarga ko‘ra, Abu Bakr Muhammad 930-yilda Chag‘oniyonda hukmronlikni boshlagan. Shundan kelib chiqib, undan oldin bu hududni uning otasi Abu Said Muzaffar va bobosi Muhtoj Chag‘oniy boshqargani taxmin qilinadi. Shu asosda sulola hukmronligining boshlanishi 900-yillar bilan bog‘lanadi. [4]Chag‘oniylar sulolasi hukmronligi taxminan XI asrning 30-yillarigacha davom etgan. Sulolaning ma’lum so‘nggi vakillaridan biri Faxr ud-Davla Chag‘oniy bo‘lib, u 1010–1018-yillarda Chag‘oniyonda amirlik qilgan.[5]

Ibn Havqal ma’lumotlariga ko‘ra, Muhtojlar sulolasi asli Chag‘onxudotlar avlodidanmi yoki arab amirlaridan chiqqanmi, bu aniq emas. Ammo bu suloladan chiqqan eng mashhur hukmdorlardan biri Ahmad (Abu Ali) ibn Abu Bakr Muhammad bo‘lgan. U Ahmad ibn Abubakr Muhammad ibn Muzaffar ibn Muhtoj Sag‘oniy nomi bilan ham tanilgan bo‘lib, Chag‘oniyon hukmdorlari sulolasiga mansub edi. 327-hijriy yilda (939-yil) u otasi o‘rniga Xurosonga noib etib tayinlangan. U Buvayhiylar va Ziyoriylarga qarshi muvaffaqiyatli janglar olib borib, Ray shahrini egallagan. Keyinchalik 331-hijriy jumod ul-oxir oyida (943-yil fevral–mart) sulh tuzilgan.[6. 85]

Chag‘oniyonning siyosiy hayotida undan ham oldingi davr voqealari ham muhimdir. Manbalarda qayd etilishicha, Buxoro ostonasidagi hal qiluvchi jangda eftaliylar hukmdori Gatifar halok bo‘lgan. Mag‘lubiyatdan keyin eftaliylar janubga chekinib, Chag‘oniyon hokimi Faganishni hukmdor etib saylaganlar. Ko‘p o‘tmay Xisrav I yurish qiladi va Faganish uning hokimiyatini tan oladi. Ushbu ma’lumot Chag‘oniyonning ilk o‘rta asrlardayoq mintaqaviy siyosatda faol ishtirok etganini ko‘rsatadi.[7. 56]

Chag‘oniyon nafaqat siyosiy, balki ilmiy-madaniy markaz sifatida ham mashhur bo‘lgan. Ayniqsa, Ahmad ibn Muhammad as-Sag‘oniy nomi bu borada alohida ahamiyatga ega. U asli chag‘oniyonlik bo‘lib, dastlabki bilimni o‘z yurtida olgan, keyinchalik Buxoro va Samarqandda tahsilni davom ettirgan. 998-yildan boshlab u o‘z ilmiy faoliyatini Abu Sahl Ko‘hiy rahbarligidagi Bag‘dod observatoriyasi bilan bog‘lagan. Ahmad as-Sag‘oniy yirik munajjim va geograf olim sifatida tanilgan bo‘lib, Beruniy ma’lumotiga ko‘ra, u ustozidan keyin buyuk yulduzshunos sifatida e’tirof etilgan.

Umuman, Chag‘oniyon o‘zining qulay geografik o‘rni, siyosiy markaz sifatidagi nufuzi, diniy hayoti, mahalliy sulolalari hamda ilm-fan rivojiga qo‘shgan hissasi bilan O‘rta Osiyo tarixida alohida o‘rin egallaydi. Bu hudud nafaqat tarixiy voqealarning muhim sahnasi, balki yirik siyosiy arboblar va olimlar kamol topgan madaniy makon sifatida ham qadrlanadi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. Boboyeva S. R. Termiz va Chag‘oniyonning tarixiy toponimikasi va geografiyasi (milodiy V asrdan XIX asrga qadar). — Toshkent: Metodist nashriyoti, 2024. — 144 b.

2. Chag‘oniyon tarixi / tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi A. Xidirov. — Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2002. — 226 b.

3. Annaev T., Shaydullaev Sh. Surxondaryo tarixidan lavxalar. — T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1991.

4. Berdiev B., Annaev T. Surxon vohasining so‘nggi o‘rta asrlar davri tarixiy geografiyasi va toponimikasi // Jayxun. — TerDU xabarlari, 2008.

5. Boboeva S., Ikromov N. Termiz va Chag‘oniyning al-Hakim at-Termiziy davri tarixiy toponimikasi // “Al-Hakim at-Termiziy ҳaётu va merosi”, “O‘zbek kurashi tarixi, taraqqiyoti va istiqbollari” xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. I qism. — Termiz, 2009.

6. Камаиддинов Ш. О средневековйх городах области Термиза // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. — 1993.

7. Камалиддин Ш. С. Древнетюркская топонимия Средней Азии. — Т.: Шарқ, 2006.

OQ OSTONA MAQBARASI: TARIXIY-MADANIY MEROS VA XALQ E’TIQODI MISOLIDA

MUXAMMADALIYEVA FERUZA ABDURASHID QIZI

Termiz davlat universiteti
Tarix fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Mazkur maqolada Surxondaryo viloyatida joylashgan Oq Ostona maqbarasining tarixiy, me’moriy va ma’naviy jihatlari tahlil qilinadi. Maqbaraning kelib chiqishi, unga oid xalq og‘zaki rivoyatlari, ramziy belgilar tizimi hamda ziyoratgoh sifatidagi o‘rni yoritib berilgan. Shuningdek, maqbaraning Somoniylar davriga oidligi, undagi ramziy tasvirlar va ularning kosmologik talqini ilmiy asosda izohlangan.

В данной статье анализируются исторические, архитектурные и духовные аспекты мавзолея Ок Остона, расположенного в Сурхандарьинской области. Освещаются вопросы происхождения мавзолея, связанные с ним устные народные предания, система символических знаков, а также его роль как места паломничества. Кроме того, обосновывается принадлежность мавзолея к эпохе Саманидов, а также даётся научная интерпретация содержащихся в нём символических изображений и их космологического значения.

This article analyzes the historical, architectural, and spiritual aspects of the Oq Ostona mausoleum located in the Surkhandarya region. It examines the origin of the mausoleum, related oral traditions, the system of symbolic signs, and its role as a pilgrimage site. Furthermore, the study substantiates its attribution to the Samanid period and provides a scientific interpretation of its symbolic representations and their cosmological meanings.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

Oq Ostona, maqbara, ziyoratgoh, Somoniylar davri, Abu Hurayra, ramziy belgilar, chillaxona, xalq e’tiqodi, me’moriy yodgorlik.

Ок Остона, мавзолей, место паломничества, эпоха Саманидов, Абу Хурайра, символические знаки, чиллахана, народные верования, архитектурный памятник.

Oq Ostona, mausoleum, pilgrimage site, Samanid period, Abu Hurayra, symbolic signs, chillakhana, folk beliefs, architectural monument.

O‘zbekiston hududida qadimdan shakllanib kelgan ziyoratgohlar tizimi xalqning diniy e’tiqodi, ma’naviy qadriyatlari hamda tarixiy xotirasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu jihatdan Surxondaryo viloyatining shimoli-sharqiy hududida, Telpak-Chinor qishlog‘i yaqinida joylashgan Oq Ostona maqbarasi alohida ilmiy va madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan maskanlardan biridir. Mazkur maqbara xalq orasida muqaddas ziyoratgoh sifatida e’tirof etilib, u Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) sahobalaridan biri – avliyo Abu Hurayra nomi bilan bog‘lab talqin qilinadi. Xalq og‘zaki an’analariga ko‘ra, aynan shu joy Abu Hurayraning ko‘milgan joyi yoki u bilan bog‘liq qadamjo sifatida qaraladi.

Tarixiy manbalar va ilmiy taxminlarga ko‘ra, Oq Ostona maqbarasi X asr oxiri – XI asr boshlariga mansub bo‘lib, u Somoniylar davrida qurilgan deb hisoblanadi. Bu davr Markaziy Osiyo hududida islomiy me’morchilikning rivojlangan bosqichlaridan biri bo‘lib, maqbara ham ana shu davrning me’moriy an’analarini o‘zida mujassam etgan. Shu bilan birga, mazkur obida atrofida shakllangan qarashlar ko‘proq xalq og‘zaki ijodi va e’tiqodiy tasavvurlarga asoslangan bo‘lib, ilmiy va diniy manbalar bilan to‘liq tasdiqlanmaganini ham qayd etish lozim.

Maqbaraning me’moriy tuzilishi dastlab to‘rtburchak shaklda, markaziy gumbaz bilan qurilgan bo‘lib, uning har bir burchagida kichik gumbazlar mavjud bo‘lganligi haqida ma’lumotlar uchraydi. Vaqt o‘tishi, tabiiy ofatlar hamda inson faoliyati natijasida ushbu qo‘shimcha gumbazlar vayron bo‘lgan. Natijada maqbara keyinchalik qayta tiklanib, soddalashtirilgan holda to‘rtburchak shaklda qayta qurilgan. Bugungi kunda uning ko‘rinishi ana shu rekonstruksiya jarayonlari natijasida shakllangan holatda saqlanib qolgan.

Maqbaraning kirish qismida joylashgan murakkab shaklli belgilar alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Ushbu belgilar yetti burchakli yulduz shaklida ishlangan bo‘lib, ular shartli ravishda o‘ng va chap tomonga ajratilgan. O‘ng tomondagi belgi “erkaklarga tegishli”, chap tomondagi esa “ayollarga tegishli” deb talqin qilinadi. Chap tarafdagi belgi dunyodagi hayot, qalb va yaratuvchanlikning umumiy modelini aks ettiradi. U mikrokosm, ya’ni inson qalbining ramziy ifodasi sifatida qaraladi. Ushbu belgida hayotning ichki kosmik kuchga ega ekanligi, uning markazdan tashqariga qarab aylana shaklida rivojlanishi tasvirlangan. Tashqi qatlam ichki qatlamga nisbatan soddaroq bo‘lib, hayotning bosqichma-bosqich murakkablashuvini anglatadi. Belgida har bir oddiy “kurtak”ning o‘z o‘rniga egaligi, hayotning mutanosibligi va uzluksiz rivojlanishi g‘oyasi ifodalangan. Bu esa hayotning cheksizligi va yaratuvchanlik mohiyatini anglatadi.

Shuningdek, ushbu belgi ehtimoliy ravishda ayollik, ya’ni hayotni yaratish va davom ettirish timsoli sifatida talqin qilinadi. Unda yangi hayot “kurtagi”ning mavjudligi, uning olov belgisi ortida tasvirlanishi esa uyg‘onish, yangilanish va yaratilish jarayonlarini ifodalaydi. Bu jihatdan mazkur belgi o‘lim emas, balki hayot va uning davomiyligini anglatadi. O‘ng tomondagi belgi esa simmetrik fazoviy o‘lchovlar tizimini ifodalab, ayrim tadqiqotchilar tomonidan Somoniylar davriga xos bayroq ramzlari bilan bog‘lanadi. Ushbu belgilar xalq orasida baxt, omad, fayz-u baraka keltiruvchi timsollar sifatida ham talqin qilinadi.

Yetti burchakli yulduz shaklining qo‘llanishi ham o‘ziga xos ramziy ma’noga ega. Axborotchilar ta’kidlashicha, bu shakl dunyoning yetti kunda yaratilgani, osmonning yetti qavatligi va yerning yetti qatlamdan iboratligi haqidagi diniy-kosmologik tasavvurlar bilan bog‘liq. Shu sababli “yetti” soni muqaddaslik va mukammallik timsoli sifatida qabul qilinadi.

Maqbara atrofidagi hudud ham ziyoratchilar uchun muhim ahamiyatga ega. Ziyoratgohga boradigan yo‘lning har ikki tomoni qabriston bilan o‘ralgan bo‘lib, bu holat insonni hayotning o‘tkinchiligi haqida o‘ylashga undaydi. Ziyoratga kelgan odamlar ushbu maskanni “mushkulni oson qiladigan joy” hamda “tilaklar ijobat bo‘ladigan qadamjo” sifatida e’tirof etadilar. Shu sababli bu yerga niyat qilib borish, duo qilish va ruhiy taskin topish odat tusiga kirgan.

Xalq orasida keng tarqalgan rivoyatlarga ko‘ra, bu joyga kelgan avliyo nihoyatda pok inson bo‘lgan va u o‘z hayoti davomida odamlarga yaxshilik qilgan. Uning vafotidan so‘ng qabr ustida nur paydo bo‘lganligi haqidagi rivoyat ushbu maskanning muqaddas deb e’tirof etilishiga sabab bo‘lgan. Shuningdek, ziyoratchilar orasida bu yerda qilingan duolar ijobat bo‘lishi, chin dildan niyat qilgan insonlarning tilaklari amalga oshishi haqidagi qarashlar keng tarqalgan. Ba’zi afsonalarda esa bu joyda duo qilgan bemorlarning sog‘aygani, ayniqsa ruhiy tushkunlik holatida kelgan insonlarning yengillik topgani ta’kidlanadi. Albatta, bu qarashlar ilmiy asosga ega emas, balki xalq og‘zaki e’tiqodi mahsuli sifatida qaraladi.

Maqbara ichida diqqatni tortadigan asosiy unsurlardan biri bu – tug‘ hisoblanadi. Ushbu tug‘ning qo‘yilishidan maqsad mazkur joy Abu Hurayraning qadamjosi ekanligini bildiradi. Rivoyatlarga ko‘ra, Abu Hurayra VII asr o‘rtalarida bu hududga kelib, islom dinini targ‘ib qilgan. Keyinchalik hududda ocharchilik, vabo

va o‘lat kasalliklari tarqalgan davrda xalq orasida muqaddas insonlar qabri mavjud bo‘lsa, yurt balolardan asraladi degan e’tiqod paydo bo‘lgan. Shu sababli Abu Hurayraning qabridan tuproq olib kelinib, ushbu joyga qo‘yilgan va qabr borligini ifodalash uchun tug‘ bilan belgilangan. Dastlab bu joy qabr ko‘rinishida bo‘lgan.

2005-yilda Oq Ostona bobo maqbarasiga ramziy qabr toshi o‘rnatilgan bo‘lib, u sandiq shaklida yasalgan va uning o‘lchamlari 215×55×45 sm ni tashkil etadi. Qabrtosh ustiga Qur’on oyatlari va duolar bitilgan. Shunga qaramay, Oq Ostona bobo haqida batafsil yozilgan lavha yoki tarixiy hujjatlar mavjud emasligi ham e’tiborga molik jihatlardan biridir.

Maqbara hududidan sal yuqoriroqda joylashgan chillaxona ham muhim diniy-amaliy ahamiyatga ega maskan hisoblanadi. “Chilla” so‘zi “qirq kun” ma’nosini anglatadi. Rivoyatlarga ko‘ra, qirq kun chilla saqlagan inson tushlarni ravshan ko‘ra boshlaydi, yetmish kun davom ettirsa, ruhiy darajasi yanada yuksaladi, yuz kun davom ettirilgan taqdirda esa inson hatto kunduz kuni ham yulduzlarni ko‘rishi mumkin degan qarashlar mavjud. Chilla saqlashdan asosiy maqsad insonning dunyoviy ishlardan vaqtincha chekinishi, nafsini jilovlashi va ruhiy poklanishga erishishidir.

Chillaxonaning ichki tuzilishi ham o‘ziga xos bo‘lib, u qabr shakliga o‘xshash tarzda qurilgan. Unda ayvon va mayyit qo‘yiladigan lahadga o‘xshash joy mavjud. Bu yerga kirgan inson o‘zining oxiratdagi holati haqida tafakkur qilishi, hayotning mazmuni va o‘tkinchiligi haqida o‘ylashi lozim. Shu jihatdan chillaxona nafaqat ibodat maskani, balki ma’naviy tarbiya va o‘zini anglash joyi sifatida ham xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Oq Ostona maqbarasi nafaqat tarixiy-me’moriy obida, balki xalqimizning boy ma’naviy merosi, diniy e’tiqodi va madaniy qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan muqaddas maskandir. Ushbu ziyoratgoh asrlar davomida shakllangan e’tiqod va umid ramzi sifatida xalq qalbida yashab kelmoqda. Bugungi kunda ham u insonlarni yaxshilikka, sabr-toqatga va poklikka chorlab, ma’naviy kamolot sari yetaklovchi maskan sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Shu bois uni asrab-avaylash va kelajak avlodlarga yetkazish har birimizning muhim burchimizdir.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. Аннаев Т., Шайдуллаев Ш. Сурхондарё тарихидан лавҳалар. – Тошкент, 1997. – 33 б.
2. Қобилов Э. Сурхон воҳаси хўжалиги. – Тошкент, 2013.
3. Тафасов Т., Нафасова В. Ўзбек тили топонимларининг ўқув изоҳли луғати. – Тошкент, 2007. – 24 б.
4. Абдураҳмонов Ғ., Муталлибов С. Девони луғотут-турк (индекс-луғат). – Тошкент: Фан, 1967. – 54 б.
5. Оқостона бобо мақбараси // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2000–2006.
6. „Оқ Остона бобо ёдгорлик мажмуасини зиёрат қилишди“ // Сурхон тонги. – 2022. – 7 октябрь.
7. Оқостона бобо мақбараси: https://uz.wikipedia.org/wiki/Oqostona_bobo_maqbarasi

CHO‘NTOSH QISHLOG‘I TARIXI: SHAKLLANISHI, IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI VA ETNOMADANIY XUSUSIYATLARI

ASHIROVA DAVLATBIBI SHAROFIDDINOVNA

Termiz davlat universiteti
Tarix fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya / Аннотация / Abstract
Mazkur maqolada Surxondaryo viloyati Denov tumanida joylashgan Cho‘ntosh qishlog‘ining shakllanish tarixi, nomlanish jarayoni, aholining etnik tarkibi, xo‘jalik faoliyati hamda urf-odat va an’analari tahlil qilinadi. Shuningdek, hududga oid xalq og‘zaki rivoyatlari va tarixiy xotiralari asosida uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bosqichlari yoritib berilgan.

В данной статье рассматриваются этапы формирования, процесс наименования, этнический состав населения, хозяйственная деятельность, а также традиции и обычаи кишлака Чонтош, расположенного в Деновском районе Сурхандарьинской области. Кроме того, на основе устных народных преданий и исторической памяти освещаются этапы социально-экономического развития данного региона.

This article examines the formation history, naming process, ethnic composition, economic activities, and cultural traditions of the Chontosh village located in Denov district of the Surkhandarya region. It also highlights the stages of socio-economic development of the area based on oral traditions and historical memory.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

Cho‘ntosh, qishloq tarixi, Denov tumani, etnik tarkib, chorvachilik, dehqonchilik, kolxoz, xalq og‘zaki ijodi, urf-odatlar, marosimlar.

Чонтош, история кишлака, Деновский район, этнический состав, животноводство, земледелие, колхоз, устное народное творчество, традиции, обряды.

Chontosh, village history, Denov district, ethnic composition, livestock farming, agriculture, kolkhoz, oral traditions, customs, rituals.

Har bir hududning o‘ziga xos tarixi, shakllanish jarayoni va madaniy qadriyatlari mavjud bo‘lib, bu jihatlar uning tarixiy taraqqiyotini va ijtimoiy hayotini belgilab beradi. Surxondaryo viloyatining Denov tumani hududida joylashgan Cho‘ntosh qishlog‘i ham ana shunday qadimiy va o‘ziga xos tarixga ega maskanlardan biri hisoblanadi. Ushbu hududning paydo bo‘lishi, nomlanishi va rivojlanish bosqichlari avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan tarixiy xotiralar, og‘zaki rivoyatlar hamda mahalliy aholi xotirasida saqlanib qolgan ma’lumotlar orqali yoritiladi. Shu bois mazkur maqolada Cho‘ntosh qishlog‘ining shakllanish tarixi, aholisi, xo‘jalik faoliyati hamda urf-odat va an’analari keng tahlil qilinadi.

Axborotchilar tomonidan berilgan ma’lumotlarga ko‘ra, Cho‘ntosh qishlog‘i hududiga dastlab sakkizta oila ko‘chib kelib joylashgan. Ushbu oilalar har biri alohida adirlik hududni egallab, mustaqil tarzda yashay boshlagan. Vaqt o‘tishi bilan bu oilalarning soni ortib, hududda aholi zichligi oshgan va natijada doimiy yashash manzili sifatida shakllangan.

Aholi sonining ortishi bilan hududga nom berish zarurati yuzaga kelgan. Qishloq joylashgan hududning yuqori qismida, adirliklar orasida balandroq joyda joylashgan bir tosh mavjud bo‘lgan. Ushbu tosh tashqi ko‘rinishi jihatidan chumichga o‘xshagani sababli dastlab hudud “Chum tosh” yoki “Chumichli tosh” deb atalgan. Keyinchalik esa bu nom talaffuz jarayonida fonetik o‘zgarishlarga uchrab, asta-sekin “Cho‘ntosh” shakliga kelgan. Mazkur toshning kelib chiqishi haqida aniq ilmiy ma’lumotlar mavjud emas, biroq ayrim rivoyatlarda uning osmondan tushganligi haqida taxminlar ilgari suriladi. Bu esa hudud nomining shakllanishida tabiiy obyektlar va xalq tasavvurlarining muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi.

Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, ayniqsa XX asrning 20-yillari atrofida Cho‘ntosh hududida kolxoz tizimi shakllangan. Mahallada yagona kolxoz faoliyat yuritib, u “Qizildehqon” nomi bilan atalgan. Ushbu kolxozga Allayor buva rahbarlik qilgan bo‘lib, u uzoq yillar davomida kolxoz raisi sifatida samarali faoliyat olib borgan. Allayor buva qozoq millatiga mansub bo‘lib, uning rahbarligi davrida qishloq xo‘jaligi va mahalla infratuzilmasi rivojiga katta e’tibor qaratilgan. Xususan, kolxoz idorasi yonida chorvachilik fermasi tashkil etilgan, shuningdek uning yaqinida separatxona barpo etilgan bo‘lib, bu yerda asosan ayollar mehnat qilgan. Allayor buva o‘zining tashkiliy qobiliyati va fidokorona mehnati bilan mahalla taraqqiyotiga sezilarli hissa qo‘shgan va hudud tarixida muhim o‘rin egallagan shaxslardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Cho‘ntosh mahallasining dastlabki aholisi asosan chorvachilik bilan shug‘ullangan. Ayniqsa qo‘ychilik va qoramolchilik rivojlangan bo‘lib, bu soha aholi turmush tarzining asosiy qismi hisoblangan. Hozirgi kunda ham mazkur an’anaviy xo‘jalik turi saqlanib qolgan bo‘lib, aholining bir qismi chorvachilik bilan

shug‘ullanishda davom etmoqda. Bundan tashqari, parrandachilik ham hududda rivojlanib borayotgan sohalardan biri hisoblanadi.

Aholi dehqonchilik bilan ham faol shug‘ullangan. Kolxoz davrida paxtachilik yetakchi tarmoq bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunda turli xil qishloq xo‘jaligi ekinlari yetishtirilmoqda. Bu esa hudud iqtisodiyotining diversifikatsiyalashganligini va zamonaviy talablarga mos ravishda rivojlanib borayotganini ko‘rsatadi.

Hudud aholisi tarkibi ham o‘ziga xos etnik xususiyatlarga ega. Dastlabki aholi asosan Samarqand hududidan ko‘chib kelgan bo‘lib, ularning bir qismi barlos turkiy urug‘lariga mansub bo‘lgan. Vaqt o‘tishi bilan ular shu hududda doimiy yashab qolgan va mahalliy aholi tarkibiga singib ketgan. Hozirgi kunda Cho‘ntosh hududida asosan o‘zbeklar istiqomat qilsa-da, tojiklar hamda ma’lum darajada qozoq urug‘lariga mansub aholi vakillari ham yashaydi. Ular o‘zaro aralashib, qarindoshlik aloqalarini mustahkamlab kelmoqda. Bu esa hududda etnik bag‘rikenglik va ijtimoiy uyg‘unlik muhitining shakllanganini ko‘rsatadi.

Cho‘ntosh hududida tabiiy va sun’iy sug‘orish tizimlari ham muhim o‘rin tutadi. Xususan, bu yerda Hazarbog‘ va Yangi Ariq nomli ikki kanal mavjud bo‘lib, ular uzoq yillardan buyon aholini suv bilan ta’minlab kelmoqda. Ushbu kanallar qishloq xo‘jaligi rivojida, ayniqsa dehqonchilik sohasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Hududning urf-odat va an’analari ham uning madaniy hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu yerda boshqa hududlardagi kabi to‘y marosimlari keng nishonlanadi va ular mahalliy an’analar asosida o‘tkaziladi. Bundan tashqari, “Bibi Ravshan” marosimi ham muhim urf-odatlardan biri sifatida qayd etiladi. Shu bilan birga, hozirgi kunda deyarli unutilib borayotgan, ammo ilgari keng tarqalgan marosimlardan biri “Yil ayrilish” marosimidir. Ushbu marosim asosan bahor faslida, yangi yil kirib kelishi munosabati bilan o‘tkazilgan bo‘lib, u yangi davrni kutib olish, tabiatning yangilanishini nishonlash va odamlar o‘rtasida ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashga xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, Cho‘ntosh qishlog‘i o‘zining boy tarixiy o‘tmishi, o‘ziga xos nomlanish tarixi, an’anaviy xo‘jalik faoliyati va rang-barang etnomadaniy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu hudud tarixini o‘rganish orqali nafaqat mahalliy tarixni, balki umuman Surxondaryo vohasining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish jarayonlarini chuqurroq anglash mumkin. Cho‘ntosh qishlog‘i misolida xalq og‘zaki ijodi, tarixiy xotira va zamonaviy taraqqiyot uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘lib, bu esa uni ilmiy tadqiqotlar uchun muhim obyektlardan biriga aylantiradi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1) Аннаев Т., Шайдуллаев Ш. Сурхондарё тарихидан лавҳалар. – Тошкент, 1997. – 33 б.
2) Қобилов Э. Сурхон воҳаси хўжалиги. – Тошкент, 2013.
3) Тафасов Т., Нафасова В. Ўзбек тили топонимларининг ўқув изоҳли луғати. – Тошкент, 2007. – 24 б.
4) Абдураҳмонов Ғ., Муталлибов С. Девони луғотут-турк (индекс-луғат). – Тошкент: Фан, 1967. – 54 б.

1937–1938-YILLARDAGI SOVET REPRESSIYALARI VA ULARNING SURXONDARYO VOHASIDAGI OQIBATLARI (JARQO‘RG‘ON TUMANI HOZIRGI ANGOR HUDUDI MISOLIDA)

BOYQOBILOVA SEVINCH SHAVKATOVNA

Termiz davlat universiteti
Tarix ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya / Аннотация / Abstract
Mazkur maqolada 1937–1938-yillardagi sovet siyosiy repressiyalarining Surxondaryo vohasiga, xususan Jarqo‘rg‘on tumani Angor hududiga ko‘rsatgan ta’siri arxiv hujjatlari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda “katta terror” siyosatining mohiyati, uning ijtimoiy qatlamlarga ta’siri, ayblovlar tizimi hamda jazolash mexanizmi yoritiladi.

В данной статье на основе архивных материалов анализируется влияние советских политических репрессий 1937–1938 годов на Сурхандарьинский регион, в частности на территорию Ангор Джаркурганского района. Рассматриваются сущность политики «большого террора», её влияние на социальные слои населения, система обвинений и механизм наказания.
This article analyzes the impact of the Soviet political repressions of 1937–1938 on the Surkhandarya region, particularly the Angor area of Jarqo‘rg‘on district, based on archival materials. The study explores the nature of the “Great Terror, ” its influence on different social groups, the structure of accusations, and mechanisms of punishment.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords
Repressiya, katta terror, NKVD, quloq, diniy arboblar, sovet siyosati, Surxondaryo, Jarqo‘rg‘on, Angor, jinoyat kodeksi, tarixiy xotira.
Repression, Great Terror, NKVD, kulak, religious figures, Soviet policy, Surkhandarya, Jarqo‘rg‘on, Angor, criminal code, historical memory.
Репрессии, большой террор, НКВД, кулак, религиозные деятели, советская политика, Сурхандарья, Джаркурган, Ангор, уголовный кодекс, историческая память.
education, wisdom, traditions of teacher discipleship, science of truth, science of religion, military education, religious education, moral education, honest work, wise teacher, national value, understanding of the world.

XX asrning 30-yillari oxiri Sovet Ittifoqi tarixida eng keskin siyosiy repressiyalar davri sifatida ajralib turadi. Ushbu davr tarixshunoslikda “katta terror” nomi bilan atalib, u davlat tomonidan jamiyatni to‘liq nazorat qilish, siyosiy muxolifatni bartaraf etish hamda sovet mafkurasiga zid deb topilgan barcha ijtimoiy qatlamlarni yo‘q qilishga qaratilgan siyosat sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur repressiv siyosat O‘zbekiston hududida ham keng miqyosda amalga oshirilgan bo‘lib, ayniqsa qishloq joylarda yashovchi aholi qatlamlariga og‘ir zarba bergan. Surxondaryo viloyati, xususan Jarqo‘rg‘on tumani “Angor” qishlog‘i misolida ushbu jarayonning mahalliy darajadagi ko‘rinishi yaqqol aks etadi.

Arxiv hujjatlarida qayd etilishicha, ushbu hududda yashagan bir qator shaxslar turli ayblovlar asosida repressiya qurboniga aylangan. Jumladan, 1875-yilda tug‘ilgan Ko‘chkinov Namoz sobiq amirlik davri amaldori bo‘lib, sovet davrida “quloq” sifatida belgilangan. Qamoqqa olingan vaqtda u kolxoz a’zosi bo‘lganiga qaramay, siyosiy jihatdan ishonchsiz shaxs sifatida baholangan. Unga qo‘yilgan ayblovlar orasida kolxozchilar orasida aksilinqilobiy targ‘ibot olib borish, amirlik davridagi hayotni maqtash hamda sovet tuzumiga nisbatan salbiy fikrlar bildirish kabi bandlar mavjud bo‘lgan. Mazkur ayblovlar O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-qismi doirasida baholanib, 1937-yil 1-dekabrda NKVD huzuridagi “uchlik” qarori bilan u 10 yil muddatga mehnat tuzatish lageriga hukm qilingan. Bu holat sobiq ijtimoiy mavqega ega shaxslarning sovet tizimi tomonidan tizimli ravishda yo‘q qilinganini ko‘rsatadi.[3]

Madiev Oltiboy ishi esa repressiya siyosatining yanada murakkab va keskin jihatlarini ochib beradi. 1880-yilda tug‘ilgan ushbu shaxs amirlik davrida oqsoqol lavozimida faoliyat yuritgan. U avval ham jinoyatlarda ayblanib, 1934-yilda 8 yilga qamalgan, biroq 1936-yilda muddatidan oldin ozod etilgan. Shunga qaramay, uning ijtimoiy kelib chiqishi va avvalgi faoliyati sababli u yana repressiya qurboniga aylangan. 1937-yil 22-avgustda qayta qamoqqa olinib, unga ruxsatsiz hududga qaytish, qishloq xo‘jaligiga zarar etkazish va kolxoz faollariga tahdid qilish kabi ayblovlar qo‘yilgan. Natijada 1937-yil 25-oktabrda NKVD “uchligi” qarori bilan u oliy jazoga hukm qilingan. Eng muhim jihati shundaki, u oqlanmagan bo‘lib, bu holat repressiya qurbonlari orasida hali ham tarixiy adolat tiklanmagan shaxslar mavjudligini ko‘rsatadi. Shuningdek, uning katta oilaga ega bo‘lgani (ko‘plab farzandlari va ikki turmush o‘rtog‘i borligi) repressiyaning nafaqat shaxsga, balki butun oilaga og‘ir ijtimoiy zarba berganini anglatadi.[6. 33-34]

Shuningdek, Mamatraimov Chori, Ernafasov Ochil va Hamidov Temur kabi shaxslar ham sovet repressiya siyosatining qurbonlari sifatida qayd etiladi. Ularning barchasiga nisbatan qo‘llanilgan asosiy ayblov “Sovet hukumatiga qarshi targ‘ibot olib borish” bo‘lib, bu ayblov o‘sha davrda eng keng qo‘llanilgan va umumiy xarakterga ega bo‘lgan. Mamatraimov Chori 8 yil muddatga qamoq jazosiga hukm qilingan bo‘lsa, Ernafasov Ochil va Hamidov Temur 10 yilga ozodlikdan mahrum etilgan. Ayniqsa, Hamidov Temurning diniy arbob — eshon sifatida faoliyat yuritgani uning jazolanishida asosiy omillardan biri bo‘lgan. Bu esa sovet hukumatining diniy qatlamga nisbatan murosasiz siyosat olib borganini ko‘rsatadi.

Mazkur holatlarni umumlashtirgan holda shuni ta’kidlash mumkinki, repressiya siyosati aniq jinoyatlarga emas, balki shaxsning ijtimoiy kelib chiqishi, kasbi va mafkuraviy qarashlariga asoslangan holda amalga oshirilgan. “Quloq”, “sobiq amaldor” yoki “diniy shaxs” kabi tamg‘alar jazolash uchun etarli asos sifatida xizmat qilgan. Ayblovlar esa ko‘pincha umumiy va noaniq shaklda bo‘lib, siyosiy xarakter kasb etgan.

Repressiya siyosati jamiyatda chuqur ijtimoiy va psixologik oqibatlarga olib kelgan. Ko‘plab oilalar parokanda bo‘lib, etim bolalar soni ortgan, iqtisodiy hayot izdan chiqqan va jamiyatda qo‘rquv muhit shakllangan. Ayniqsa, diniy hayotning keskin cheklanishi milliy-ma’naviy qadriyatlarning susayishiga olib kelgan.

Bugungi kunda ushbu tarixiy voqealarni o‘rganish muhim ilmiy va ijtimoiy ahamiyatga ega. Repressiya qurbonlarini oqlash, ularning nomini tiklash va tarixiy adolatni qaror toptirish mustaqil O‘zbekiston tarixshunosligining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, bu kabi tadqiqotlar jamiyatda tarixiy xotirani mustahkamlash va yosh avlodni tarixiy saboqlar asosida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Tadqiqotda tilga olingan Jarqo‘rg‘on tumani “Angor” qishlog‘i bugungi kunda Surxondaryo viloyatining ma’muriy-hududiy tuzilishida muhim o‘rin egallagan alohida hudud — Angor tumani markazi sifatida faoliyat yuritadi. 1930-yillar arxiv hujjatlarida “qishloq” sifatida qayd etilgan ushbu aholi punkti keyingi davrlarda ijtimoiy-iqtisodiy va demografik rivojlanish jarayonlari natijasida kengayib, ma’muriy maqomini bosqichma-bosqich o‘zgartirib bordi. Ma’lumki, sovet davrida aholi punktlarining maqomi ularning iqtisodiy salohiyati, aholisi soni va infratuzilma rivojlanish darajasiga qarab belgilangan. Shu nuqtai nazardan, Angor hududi ham dastlab oddiy qishloq sifatida shakllangan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan yiriklashib, hududiy boshqaruv tizimida alohida ahamiyat kasb eta boshladi. Natijada u mustaqil tuman markaziga aylanish darajasiga etdi. Bugungi kunda Angor nafaqat tarixiy aholi punkti, balki Surxondaryo viloyatining muhim ma’muriy markazlaridan biri hisoblanadi. Bu holat tarixiy manbalarda qayd etilgan “Angor qishlog‘i” tushunchasining zamonaviy ma’muriy birlik — Angor tumani markazi bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi [1. 16]. Shunday qilib, arxiv hujjatlarida uchraydigan Angor qishlog‘i atamasi hududning tarixiy bosqichini ifodalasa, hozirgi Angor shahri uning rivojlanish natijasida shakllangan zamonaviy ko‘rinishini aks ettiradi.

Xulosa qilib aytganda, 1937–1938-yillardagi repressiyalar Surxondaryo viloyati, xususan Jarqo‘rg‘on tumani “Angor” qishlog‘i aholisi hayotida chuqur iz qoldirdi. Oddiy dehqonlar, jamoa xo‘jaligi a’zolari va diniy arboblar asossiz ayblovlar bilan jazolangan. Ushbu jarayon sovet tuzumining totalitar mohiyatini yaqqol namoyon etadi va bugungi kunda uni chuqur o‘rganish tarixiy xotirani tiklashda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1) Lapasov A.Ch. Istiqlol yo‘li: Angor rayonining 40 yilligiga. - Termiz., 1992 yil, 43 b.
2) Lapasov A.Ch. Istiqlol yo‘li: Angor. - Termiz., “Jayxun”, 1992 yil.
3) Surxondaryo VDA. 377-fond, 1-ro‘yxat, 3-ish, 19 v.
4) Tursunov S.N, Qobilov E.O, Pardaev T.R, Murtazoyev B. Sur xondaryo tarixi. T., “Sharq”, 2004.
5) Tursunov S.N., To‘xtaev A.Q. Jarqo‘rg‘on. - T., “Fan”, 2008.
6) Tursunov S.T. va boshq. Angor tumani tarixi / monografiya– Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat, 2025. – 264 b.

XO‘JA SAMANDAR TERMIZIYNING HAYOTI, ILMIY MEROSI VA DINIY-MA’RIFIY FAOLIYATI

ABDUVOHID SATTAROV
ZAFAR O‘G‘LI

Termiz davlat universiteti
Tarix ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya / Аннотация / Abstract
Mazkur maqolada XVII–XVIII asrlar Markaziy Osiyo tarixida muhim o‘rin tutgan mutasavvif va olim Xo‘ja Samandar Termiziyning hayoti, ilmiy merosi hamda diniy-ma’rifiy faoliyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda uning “Dastur ul-muluk” asari, tasavvufiy qarashlari va jamiyat ma’naviy hayotiga qo‘shgan hissasi yoritilgan. Shuningdek, uning murshidlik faoliyati va tarixiy shaxs sifatidagi o‘rni ilmiy asosda ochib berilgan.
В статье анализируется жизнь, научное наследие и религиозно-просветительская деятельность известного суфийского мыслителя XVII–XVIII веков Ходжи Самандара Термези. Особое внимание уделяется его труду «Дастур ул-мулук», суфийским взглядам и вкладу в духовную жизнь общества. Также раскрывается его роль как наставника и исторической личности.
This article analyzes the life, scientific heritage, and religious-educational activities of Khoja Samandar Termizi, a prominent Sufi thinker of the 17th–18th centuries. Special attention is given to his work “Dastur ul-Muluk, ” his Sufi views, and his contribution to the spiritual life of society. The study also highlights his role as a spiritual mentor and historical figure.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords
Xo‘ja Samandar Termiziy, tasavvuf, Dastur ul-muluk, murshid, darvishlik, Buxoro xonligi, diniy hayot, ma’rifat, tarix.
Ходжа Самандар Термези, суфизм, Дастур ул-мулук, наставник, дервишество, Бухарское ханство, религиозная жизнь, просвещение, история.
Khoja Samandar Termizi, Sufism, Dastur ul-Muluk, spiritual mentor, dervish life, Bukhara Khanate, religious life, enlightenment, history.

XVII–XVIII asrlar Markaziy Osiyo tarixida diniy-ma’rifiy hayot, tasavvuf ta’limoti hamda ilm-fan rivoji alohida ahamiyat kasb etgan davr hisoblanadi. Bu davrda yashab ijod etgan olimlar va mutasavviflar nafaqat diniy, balki ijtimoiy-ma’naviy hayotga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Ana shunday siymolardan biri Xo‘ja Samandar Termiziy bo‘lib, u o‘zining ilmiy merosi, tasavvufiy qarashlari va ma’rifiy faoliyati bilan ajralib turadi. Uning hayoti va faoliyati Buxoro xonligi davridagi diniy muhitni, tasavvuf ta’limotining jamiyatdagi o‘rnini hamda ilmiy tafakkurning rivojini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

Xo‘ja Samandar Termiziy XVII asrning 30-yillarida, taxminan 1630-yilda tug‘ilgan. Uning tug‘ilgan joyi turli manbalarda turlicha talqin qilinadi, biroq aksariyat tadqiqotchilar uni Termiz bilan bog‘laydi.[3] Bu haqda u o‘zining mashhur “Dastur ul-muluk” asarida ham ma’lumot berib o‘tadi. Uning to‘liq ismi Xo‘ja Samandar Muhammad ibn Baqo Termiziy bo‘lib[1], “Samandar” so‘zi taxallus sifatida ishlatilgan. Ushbu taxallus ramziy ma’noga ega bo‘lib, “olov ichida yashovchi” degan ma’noni anglatadi va mutasavvifning ruhiy poklanish yo‘lidagi matonatini ifodalaydi[2]

Xo‘ja Samandar dastlabki ilmni Termizda olgan, keyinchalik esa Buxoro va Balx kabi yirik ilmiy markazlarda tahsilini davom ettirgan. U o‘z davrining yetuk bilimdonlaridan biri sifatida tarixchi, olim va diniy arbob sifatida tanilgan. Shu bilan birga, u tasavvuf yo‘lini tanlab, darvishlik hayot tarzini kechirgan. Uning hayotidagi muhim jihatlardan biri — dunyoviy lavozimlardan voz kechib, ruhiy kamolot sari intilishi bo‘lgan.

Manbalarda qayd etilishicha, Xo‘ja Samandar Termiziy hayoti davomida turli hududlarda yashagan va ko‘chib yurishga majbur bo‘lgan. U

ma’lum vaqt Hisor, Nasaf va Samarqand hududlarida istiqomat qilgan. Nasafda ikki marotaba diniy lavozimda faoliyat yuritgan, Samarqandda esa qozilik mansabini egallagan. Biroq u ushbu lavozimlarda ishlagan davrida ham sodda va kamtar hayot tarzini saqlab qolgan. Bu holat uning tasavvufiy qarashlariga sodiqligini ko‘rsatadi.[4]

Xo‘ja Samandar Termiziy tasavvufiy hayot tarzini chuqur o‘zlashtirgan mutasavvif sifatida tanilgan. U xonaqohlarda yashab, ibodat, zikr va riyozat bilan shug‘ullangan, nafsni tiyish va ruhiy poklanishga katta e’tibor qaratgan. Uning fikricha, inson kamoloti faqat ilm olish bilan emas, balki ruhiy poklanish orqali ham amalga oshadi. Shu sababli u umrining katta qismini darvish sifatida o‘tkazib, Allohga yaqinlashish yo‘lida xizmat qilgan.

Xo‘ja Samandar Termiziyning ilmiy merosida “Dastur ul-muluk” asari alohida o‘rin tutadi. Ushbu asar hijriy 1107-yil (milodiy 1695-yil) yozilgan bo‘lib, unda tarixiy voqealar, davlat boshqaruvi tamoyillari, axloqiy-me’yoriy qarashlar keng yoritilgan. Asarning katta qismi tarixiy voqealarning izchil bayoniga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, unda hukmdorlar va jamiyat a’zolari uchun muhim pand-nasihatlar ham berilgan. Xususan, unda adolatli boshqaruv, vazir va mulozimlarning fazilatlari, elchilar faoliyati, sabr-toqat, jasorat va ehtiyotkorlik kabi masalalar keng yoritilgan.

Bundan tashqari, “Anisul-fuqaro” asari ham Xo‘ja Samandar Termiziy nomi bilan bog‘liq bo‘lib, u 1734-yilda yozilgan. Garchi ushbu asar uning tomonidan yozilmagan bo‘lsa-da, u mutasavvifga bag‘ishlangan bo‘lib, uning faoliyati va qarashlarini aks ettiradi. Bu esa uning zamondoshlari orasida qanchalik katta obro‘-e’tiborga ega bo‘lganini ko‘rsatadi.

Xo‘ja Samandar Termiziy diniy jihatdan payg‘ambar avlodiga mansub bo‘lganligi sababli ham jamiyatda alohida hurmatga ega bo‘lgan. Buxoro xoni tomonidan unga yer va mulk berilishi, soliqlardan ozod etilishi uning ijtimoiy mavqeining yuqori bo‘lganidan dalolat beradi. U xalq orasida murshid, ya’ni yo‘l ko‘rsatuvchi sifatida tanilgan bo‘lib, odamlar unga maslahat so‘rab murojaat qilganlar. U esa ularni halollik, sabr, saxovat va ma’rifat yo‘liga da’vat etgan.

Xo‘ja Samandar Termiziyning faoliyati faqat diniy ibodat bilan cheklanmagan. U jamiyatni isloh qilish, insonlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlash, ma’naviy tarbiya berish kabi vazifalarni ham o‘z zimmasiga olgan. Bu esa uni nafaqat mutasavvif, balki ma’rifatparvar shaxs sifatida ham e’tirof etishga asos bo‘ladi.

Uning vafot sanasi aniq ma’lum emas, biroq ayrim manbalarga ko‘ra, u 1734-yildan keyin ham hayot bo‘lgan va 100 yoshdan ortiq umr ko‘rgan.[6] Hozirgi kunda uning qabri Surxondaryo viloyatining Qumqo‘rg‘on tumanidagi Qoptuqay qishlog‘ida joylashgan bo‘lib, u yerda maqbara barpo etilgan. Ushbu maskan ziyoratgoh sifatida ham ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, Xo‘ja Samandar Termiziy XVII–XVIII asrlar Markaziy Osiyo tarixida muhim o‘rin tutgan mutasavvif, olim va ma’rifatparvar shaxs hisoblanadi. U o‘zining tasavvufiy qarashlari, ilmiy merosi va murshidlik faoliyati orqali jamiyatning ma’naviy hayotiga katta hissa qo‘shgan. Ayniqsa, “Dastur ul-muluk” asari orqali davlat boshqaruvi, axloqiy qadriyatlar va inson kamoloti haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Uning hayoti va faoliyati nafaqat tarixiy, balki diniy va ijtimoiy jihatdan ham chuqur o‘rganishga loyiqdir.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. Samandar Termiziy X..Dastur ul-muluk. – Moskva: 1971. – 372 b. (foto-faksimile nashr; fors tilidan tarjima J. Esonov).
2. Samandar Termiziy X. Dastur ul-muluk // Ubaydi Zokoniy. Hikoyoti latif. – Dushanbe: 1990.
3. Samandar Termiziy X. Dastur ul-muluk: 22-fasl, 242–246-b.; 3-b.
4. Muhammad Bade’ ibn Muhammad Sharif Maleho. Muzakkirul-as’hob. – Inv. № 710. – 330-b.
5. Samandar Termiziy X. Dastur ul-muluk // Surxon tongi. – 1994. – IX–XI sonlar.
6. Samandar Termiziy X. Dastur ul-muluk // Vatanparvar. – 1994. – may.

ADOLAT-BARQAROR BOSHQARUV ASOSI

BOLTAYEVA SHAHNOZA OLIM QIZI

Termiz davlat universiteti
Tarix ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va uning shoh asari bo‘lmish “Boburnoma”da aks etgan vatanparvarlik g‘oyalari chuqur tahlil qilingan. Tadqiqotda Boburning Amir Temur saltanatini tiklash yo‘lidagi siyosiy intilishlari, Shayboniylar sulolasi bilan bo‘lgan harbiy to‘qnashuvlari va o‘z vatanini tark etishga majbur bo‘lgan fojiali taqdiri yoritilgan. Muallif Boburning musofirlikda chekkan iztiroblarini uning ruboiylari va tarixiy xotiralari orqali ochib beradi. Shuningdek, maqolada Boburning davlat boshqaruvidagi mardligi, xiyonatga nafrati va dushmanlariga nisbatan ko‘rsatgan insonparvarlik fazilatlari, xususan, Kobul va Hindistonda amalga oshirgan bunyodkorlik ishlari bayon etilgan. Maqola yakunida Boburning O‘rta Osiyodagi mag‘lubiyati Hindistonda buyuk bir sulolaning asoslanishiga sabab bo‘lgani tarixiy mantiq nuqtai nazaridan baholanadi.

В данной статье представлен глубокий анализ идеи патриотизма, отраженной в жизни Захириддина Мухаммада Бабура и его шедевре «Бабур-наме». В исследовании освещаются политические стремления Бабура по восстановлению империи Амира Темура, его военные столкновения с династией Шейбанидов и трагическая судьба, вынудившая его покинуть родину. Автор раскрывает страдания Бабура в изгнании через его рубаи и исторические воспоминания. Также в статье описываются мужество Бабура в государственном управлении, его ненависть к предательству и гуманные качества по отношению к врагам, в частности, созидательная работа, проведенная им в Кабуле и Индии. В заключении статьи исторически обосновывается, что поражение Бабура в Центральной Азии послужило основой для создания великой династии в Индии.

This article presents a profound analysis of the ideas of patriotism reflected in the life of Zahiriddin Muhammad Babur and his masterpiece, the "Baburnama". The research highlights Babur's political aspirations to restore the empire of Amir Temur, his military clashes with the Shaybanid dynasty, and the tragic fate that forced him to leave his homeland. The author reveals Babur's sufferings in exile through his rubais and historical memoirs. Furthermore, the article describes Babur's courage in state administration, his hatred for betrayal, and his humane qualities toward his enemies, specifically focusing on the creative and constructive work he performed in Kabul and India. In conclusion, the article evaluates from a historical perspective how Babur's defeat in Central Asia became the catalyst for the foundation of a great dynasty in India.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

Zahiriddin Muhammad Bobur, “Boburnoma”, Vatanparvarlik va vatan sog‘inchi, Temuriylar sulolasi, Shayboniyxon, Samarqand, Kobul va Hindiston, Boburiylar sulolasi (Buyuk Mo‘g‘ullar), Davlat boshqaruvi, Harbiy strategiya va mardlik, Insonparvarlik.

Захириддин Мухаммад Бабур, «Бабур-наме», патриотизм, тоска по родине, династия Темуридов, Шейбани-хан, Самарканд, Кабул, Индия, династия Бабуридов (Великие Моголы), государственное управление, военная стратегия, гуманизм.

Zahiriddin Muhammad Babur, "Baburnama", patriotism, nostalgia for the homeland, Timurid dynasty, Shaybani Khan, Samarkand, Kabul, India, Baburid dynasty (Mughal Empire), state administration, military strategy, humanism.

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining “Boburnoma”asarida vatanga bo‘lgan muhabbatini aks ettirgan. Har bir inson borki vatan sog‘inchisiz yashay olmaydi. Shu bilan ham o‘zbek davlatining yirik nomoyondasi desak adashmaymiz. Bobur Amir Temur va Temuriylar

avlodidan bo‘lgani bilan Shayboniylar sulolasi bilan bo‘lgan jangda o‘z yurtini tashlab boshqa yurtga ketishga majbur bo‘ladi. Bobur bilan hamma yaqinlari ketishmaydi, unga sodiq bo‘lganlargina uning yonida turishgan. Bobur qayerga bormasin o‘zining madaniyatini olib kirgan shaxs. Bobur Hindistonda o‘zining Boburiylar sulolasiga asos solidi. Shunday bo‘lgani bilan o‘zi tug‘ilib o‘sgan Andijondan yoki o‘sha davlatning bir qismidan biror nima savdo orqali borsa o‘z yurtini sog‘inishi yaqqol ko‘zga tashlanadi. “Boburnoma” asarida vatanga bo‘lgan muhabbatini quyidagi ruboiy orqali bayon etadi:

Tole yo‘qki jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,
Har ishni qildim-xatolig‘ bo‘ldi.
O‘z yerni qo‘yib, Hind sori yuzlandim,
Yo rab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi?

Buyuk davlatni tuzgan har bir ajdodimiz Boburdek aziyat chekmagan. Ajdodlarimiz o‘z yurtini kengaytirgan, ammo Bobur o‘zga yurtda musofirlikda davlat barpo etgan. Andijondan so‘ng Kobul va Hindistonga borib o‘rnashadi.

Boburning bosh maqsadi bobosi Amir Temur saltanatini qayta tiklash va boshqarish edi. Eng yaqin qarindoshlarining fitna-yu xiyonatlarini kechirdi, dushmanlari bilan sulh tuzishni maqul ko‘rdi, suyukli egachisi Xonzodabegimni ashaddiy dushmani Shayboniyxon nikohiga ham kirishga rozi bo‘ldi, Hindiston sultoni Ibrohim Lo‘diy jangda maxv etilgach, uning onasi Baydaga ko‘p muruvvatlar ko‘rsatib, saroyidan joy berdi.

1502-1503-yillar, yani Zahiriddin Muhammad Bobur Temuriyzodalarning o‘zaro nizo va kurashlaridan ozor chekib, yengilib, borar yerini bilmay, Toshkentdagi xon dodalari, qarindoshlari tomon otlangan payt, Andijon yoki Samarqandni egallab olish emas u endi Shayboniyxonga qarshi kurashishni bosh maqsad deb bilgan.

“Boburnoma”da keltirishicha: “Bizning kishilarimiz yaxshi va yomon – hammasi ikki yuz qirq kishi edi. Barcha beklar va yigit – yalang bilan so‘zlashib, shunga qaror qildikki, Shayboniyxon Samarqandniyaqinda olib, hanuz el unga va u elga ko‘ngillari bir to‘xtamga kelmagan. Ushbu fursatda bir ish qilsak – qila olamiz. Agar Samarqand qo‘rg‘onida shoti qo‘yib, o‘g‘irlik bilan olsak – Samarqand eli ham bizniki bo‘ladi. Ne choralari bor? Agar bizga madad qilmasalar, o‘zbak uchun ham urushmaydilar. Samarqandni qo‘lga kiritgandan so‘ng har ne tangrining xoxishi bo‘lsa o‘sha bo‘lgusidir” – deya ta’kidlaydi.

Bobur harbiy yurishlari davomida qo‘rqmaslik, jon fidoyilik, lashkarni o‘ziga ergashtirish, urush maydonida shaxsiy mardlik ko‘rsatish, xiyonatga nafrat, oddiy askar jasoratini qadrlash, har bir muxorabaga yangicha yondashish, boy beeilgan jangdan anduxga tushmasdan saboq olish kabi hislatlarni o‘zida tarbiyaladi va shularga amal qildi.

Bobur 1512-yili Samarqand shahriga kirib boradi va bobosi Amir Temur, otasi Umarshayx mirzo saltanat qilgan poytaxt taxtiga ma’lum muddat o‘tirishga muvaffaq bo‘ladi. Keyinroq u Buxoro xoni Ubaydulla bilan jangda shikast topadi. Bu mag‘lubiyat Boburning asl maqsadi barbod bo‘lishiga kata xavf tug‘dirgan holat edi. Shu muddatda u Eron shohi Ismoil Safaviydan harbiy yordam so‘raydi va bu yordami uchun u Samarqand masjidida xutbada Ismoil Safaviy nomi va shia mazhabini kiritib o‘qishni taklif etadi. Sof sun’iy tariqatiga mansub Samarqand aholisi Boburga ixlos bilan qarasa-da, uning bu harakatini maqullamaydi. U shaharni tark etishga majbur bo‘ladi.

Bobur Samarqandni qo‘ldan boy bergandan so‘ng u qir- adirlika bosh olib ketadi. U bilan sanoqli va ishongan odamlar ketishadi. Ular Kobulga qarab ketayotganda u bilan qo‘shilgan odamlar ham qishni qish yozni yoz demay yo‘l yurganlar. Bobur Kobulga borishidan oldin tog‘lar orasiga yetishganda unga xiyonat qilganlar ham bo‘ldi. Orada u Andijonga ammalari yoniga ham borib turardi. Kobulga kelishganda unga madaniyati yoqmaganini ham ta’kidlab o‘tadi va u yerga borib kiyimsizlarga kiyim kiydirgani ma’lum bo‘ladi. Bobur Kobuldan keying yurishlarini Hindistonga tomon yuzlanadi, har bir yerga borganda uning madaniyatini, aholisini, tabiatini o‘rganadi. Bobur brogan yurtida bog‘ – rog‘lar barpo etgan.

Xulosa qilib aytganda, Bobur bobosi Amir Temurning davlatini tiklashga urinadi lekin u qo‘ldan ketadi. Shayboniyxon bilan uch marta kurashadi, lekin oxir – oqibat yengiladi. U o‘zi ishongan askarlari bilan yo‘lga otlanadi, qayerga bormasin uni ta’qib etganlar ham bor edi. Boburga o‘z ammasi tomonidan tortiq etilgan qiz ham u bilan birga ketadi. U ammalarini qarindosh – urug‘ini ko‘rgani Andijonga kelib turgan. Boburni bu taqdiri bo‘lmaganda u

Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solmagan bo‘lar edi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. Z.M.Bobur. Boburnoma. Yangi kitob. Toshkent – 2019. – 86 b.
2. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. Toshkent - 1998. – 192 b.
3. S.G‘ulomov. Boburiylar davlati harbiy san’ati. Toshkent -2010. 72 b.

JARQO‘TON YODGORLIGI VA UNDA ILK DAVLATCHILIK ASOSLARINING SHAKLLANISHI

BOLTAYEVA SHAHNOZA OLIM QIZI

Termiz davlat universiteti
Tarix ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Ushbu maqolada Jarqo‘ton yodgorligining bronza davri tarixidagi o‘rni, uning ilk shahar-davlat sifatidagi ahamiyati hamda davlat boshqaruvi tizimining shakllanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Muallif Jarqo‘tonni Oks sivilizatsiyasining muhim markazlaridan biri sifatida baholab, undagi ark, shahriston, qabriston, olov ibodatxonasi, hunarmandchilik buyumlari va piktografik belgilar asosida ijtimoiy-siyosiy va madaniy taraqqiyot darajasini yoritadi. Shuningdek, maqolada Jarqo‘tonda din va davlat boshqaruvining o‘zaro uyg‘unligi, teokratik boshqaruv unsurlari, dafn marosimlari, aholi xo‘jaligi, hunarmandchiligi va savdo munosabatlari haqida ilmiy mulohazalar bayon etilgan. Tadqiqot natijalari Jarqo‘ton yodgorligining O‘zbekiston hududida ilk davlatchilik va shahar madaniyati tarixini o‘rganishda muhim manba ekanini ko‘rsatadi.

В данной статье анализируется значение археологического памятника Джаркутан в истории бронзового века, его роль как одного из первых городов-государств, а также особенности формирования системы государственного управления. Автор рассматривает Джаркутан как важный центр цивилизации Окса и на основе археологических находок (арк, шахристан, некрополь, огненный храм, ремесленные изделия, пиктографические знаки) раскрывает уровень социально-политического и культурного развития. Также в статье освещается взаимосвязь религии и государственной власти, элементы теократического управления, погребальные обряды, хозяйственная деятельность населения, ремесло и торговые связи. Результаты исследования свидетельствуют о важности памятника Джаркутан для изучения ранней государственности и городской культуры на территории Узбекистана.

This article analyzes the significance of the Jarqo‘ton archaeological monument in the history of the Bronze Age, its role as one of the earliest city-states, and the features of the formation of state governance. The author considers Jarqo‘ton as an important center of the Oxus civilization and, based on archaeological findings (citadel, shahristan, cemetery, fire temple, craft artifacts, pictographic signs), reveals the level of socio-political and cultural development. The article also highlights the interrelation between religion and state power, elements of theocratic governance, burial practices, economic activities, craftsmanship, and trade relations. The results demonstrate that the Jarqo‘ton monument is an important source for studying early statehood and urban culture in the territory of Uzbekistan.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

Jarqo‘ton, bronza davri, ilk davlatchilik, shahar-davlat, Oks sivilizatsiyasi, davlat boshqaruvi, teokratik boshqaruv, olov ibodatxonasi, piktografik yozuv, qabriston, hunarmandchilik, savdo yo‘llari.

Джаркутан, бронзовый век, ранняя государственность, город-государство, цивилизация Окса, государственное управление, теократия, огненный храм, пиктографическое письмо, некрополь, ремесло, торговля.

Jarqo‘ton, Bronze Age, early statehood, city-state, Oxus civilization, state governance, theocracy, fire temple, pictographic writing, cemetery, craftsmanship, trade.

O‘zbekiston hududi qadimiy sivilizatsiyalar va boy madaniy-tarixiy meros maskani sifatida jahon ilm-fanida alohida o‘rin egallaydi. Mamlakatimiz hududida olib borilayotgan arxeologik tadqiqotlar xalqimizning uzoq o‘tmishi, ilk davlatchilik an’analari hamda qadimgi madaniy jarayonlarni ilmiy asosda yoritishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, Surxondaryo vohasida joylashgan yodgorliklar O‘rta Osiyo tarixining eng qadimgi bosqichlarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Shu jihatdan Jarqo‘ton yodgorligi nafaqat arxeologik ob’ekt, balki ilk shahar madaniyati, ijtimoiy tabaqalanish va boshqaruv tizimlarining shakllanishini yorituvchi noyob manbalardan biridir.

Jarqo‘ton yodgorligi Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanida joylashgan bo‘lib, O‘zbekiston hududidagi eng muhim bronza davri yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotchilar uni ko‘pincha ilk shahar-davlat yoki shahar tipidagi manzilgoh sifatida baholaydilar. Yodgorlikning maydoni qariyb 100 gektarni tashkil etadi. Uning keng hududni egallagani, ichki tuzilmasining murakkabligi, mudofaa va ibodat inshootlarining mavjudligi Jarqo‘tonning oddiy qishloq emas, balki rivojlangan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy markaz bo‘lganini ko‘rsatadi.

Jarqo‘tonda dastlabki arxeologik qazish ishlari 1973-yildan boshlangan bo‘lib, keyinchalik A. Asqarov, Sh. Shaydullayev, Shirinov kabi olimlar tomonidan bu yodgorlik keng ko‘lamda o‘rganildi. Tadqiqotlar natijasida Jarqo‘ton bronza davriga oid yirik markaz ekani aniqlandi. Arxeologik ma’lumotlarga tayangan holda, ayrim olimlar Jarqo‘tonda shahar belgilarining shakllanganini qayd etadilar. U yodgorlik “Oks sivilizatsiyasi”ning muhim tarmoqlaridan biri sifatida ham talqin qilinadi. Mazkur sivilizatsiya O‘rta Osiyoning janubiy hududlarida miloddan avvalgi III ming yillik oxiri – II ming yillik boshlarida shakllangan yuksak madaniy jarayonlar bilan bog‘liqdir.

Jarqo‘tonning ijtimoiy-siyosiy tuzilmasini o‘rganishda uning ichki me’moriy qismlari muhim ahamiyat kasb etadi. Arxeologik qazishmalar natijasida bu yerda ark, shahriston, qabriston, ibodatxona, saroy xarakteridagi inshootlar, hunarmandchilik buyumlari va turli zeb-ziynat namunalarining topilishi Jarqo‘tonda murakkab ijtimoiy tuzilma shakllanganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, ilk davlatlar tipologiyasi, arxeologik belgilar va boshqaruv shakllari muhokama etilgan ilmiy adabiyotlarda Jarqo‘tonning maqomi borasida turli qarashlar mavjud. Jumladan, ayrim tadqiqotchilar uni Baqtriyaning shimoliy qismida joylashgan yirik qishloq sifatida ham ta’riflaganlar. Biroq keyingi qazishmalar va topilmalar Jarqo‘tonning oddiy manzilgohdan ko‘ra murakkabroq, markazlashgan tuzilishga ega bo‘lganligini ko‘rsatmoqda.

1994–2003-yillar davomida Jarqo‘tonda O‘zbekiston–Germaniya qo‘shma arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan qo‘shimcha ilmiy izlanishlar olib borildi. Bu tadqiqotlar, asosan, ark, shahriston va qabriston hududlarida amalga oshirildi. Olingan natijalar Jarqo‘tonning ijtimoiy hayoti, dafn marosimlari, me’moriy tuzilishi va xo‘jalik faoliyatiga doir muhim ma’lumotlarni aniqlashtirish imkonini berdi.

Jarqo‘ton yodgorligi Sopolli madaniyati va ilk sivilizatsiya belgilarini o‘rganishda ham muhim ob’ekt sanaladi. G. Chayld tomonidan ilgari surilgan ilk sivilizatsiya belgilari nazariyasi nuqtai nazaridan qaralganda, Jarqo‘tonda urbanizatsiya, hunarmandchilik, diniy markazlashuv, ijtimoiy tabaqalanish va boshqaruv unsurlarining mavjudligi kuzatiladi. Bu esa Jarqo‘tonni janubiy O‘rta Osiyodagi dastlabki sivilizatsion markazlardan biri sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Miloddan avvalgi III ming yillikning oxiri va II ming yillikning boshlarida O‘rta Osiyoning janubiy hududlarida iqtisodiy yuksalish, aholi manzilgohlarining hududiy kengayishi va jamoa tarkibining murakkablashuvi kuzatilgan. Aynan shu jarayonlar Jarqo‘ton misolida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu davrga oid muhim belgilar qatorida yozuvga o‘xshash ramziy belgilarning shakllanishi alohida e’tiborni tortadi. Ilgari ayrim belgilar kulollarning tamg‘asi sifatida talqin etilgan bo‘lsa, Jarqo‘ton va Shahdodda olib borilgan izlanishlar ularning piktografik xarakterga ega ekanini ko‘rsatdi. Jarqo‘tondan

topilgan sopol buyumlarda 47 xil belgi aniqlangan bo‘lib, ular orasida xoch, omoch, arava, narvon va aylana shakllari ko‘p uchraydi. Bunday belgilar qadimgi jamiyatda axborotni ifodalash va ramziy muloqot vositalarining shakllanayotganidan dalolat beradi.

Jarqo‘ton qabristoni ham yodgorlikning ijtimoiy va ma’naviy hayotini o‘rganishda muhim manba vazifasini bajaradi. Qabrlar, asosan, yer ostida joylashgan bo‘lib, yuzada oval yoki yumaloq cho‘kma ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Ularning chuqurligi 40 sm dan 170 sm gacha yetadi. Dafn marosimlarida murdani bukilgan holatda ko‘mish an’anasi saqlangan: erkaklar, odatda, o‘ng yonboshiga, ayollar esa chap yonboshiga yotqizilgan. Bu marosimning barqarorligi o‘sha davr jamiyatida dafn rasm-rusumlari ancha qat’iy me’yorlashganini ko‘rsatadi.

Qabrlardan sopol idishlar, qurol-yarog‘lar, bezak buyumlari va hayvon suyaklarining topilishi qadimgi aholining o‘limdan keyingi hayotga ishonchi va diniy tasavvurlarini yoritadi. Hayvon suyaklari diniy marosimlar doirasida qurbonlik amaliyoti mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. 65 ta qabrdan bronza buyumlar aniqlangan bo‘lib, ular orasida mehnat qurollari, ignalar, pichoqlar, bilaguzuklar, to‘g‘nog‘ichlar, chakka halqalari, shuningdek, kremniydan tayyorlangan o‘q uchlari va tosh munchoqlar uchraydi. Bu topilmalar Jarqo‘ton aholisi hunarmandchilik, metallga ishlov berish va bezak buyumlari tayyorlash sohasida muayyan yutuqlarga erishganini ko‘rsatadi.

Jarqo‘ton shahar-davlatining boshqaruv tizimini tahlil qilishda “Jarqo‘ton olov ibodatxonasi” alohida o‘rin tutadi. Oltinchi tepalikda joylashgan ushbu inshoot nafaqat ibodatxona, balki saroy-ibodatxona funksiyasini ham bajargan bo‘lishi mumkin. Miloddan avvalgi II ming yillikka oid bu noyob otashkada diniy markazlashuv va hokimiyat ramzi sifatida qaraladi. U qadimgi e’tiqodlar tizimi, keyinchalik zardushtiylik bilan bog‘lanadigan olovga sig‘inish an’analari shakllanishining ilk bosqichlarini aks ettirishi mumkin. Shu bilan birga, Jarqo‘tonda markazlashgan diniy tizim shakllana boshlagan bo‘lsa-da, jamoa hayotida ajdodlar ruhi, hayvonlarga sig‘inish kabi arxaik diniy qarashlar ham saqlanib qolgan.

Jarqo‘tondagi boshqaruv tizimi ko‘p jihatdan diniy institutlar bilan bog‘liq bo‘lganini taxmin qilish mumkin. Shu ma’noda, u teokratik boshqaruv unsurlariga ega bo‘lgan jamiyat sifatida tavsiflanadi. Teokratik boshqaruvda oliy hokimiyat diniy rahnamolar yoki muqaddas kuch bilan bog‘langan hokimiyat vakillari qo‘lida bo‘ladi. Jarqo‘tonda ibodatxona va saroy funksiyalarining birlashuvi, diniy markazning siyosiy boshqaruvdagi o‘rni ana shu holatni ko‘rsatadi. Bu esa ilk davlatchilik shakllarida din va siyosatning o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lganini tasdiqlaydi.

Jarqo‘ton iqtisodiy hayotida dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo muhim o‘rin egallagan. Daryo bo‘yidagi unumdor yerlar dehqonchilikning rivojlanishiga qulay sharoit yaratgan. Aholi arpa, bug‘doy va dukkakli ekinlar yetishtirgan, hosilni yig‘ib olishda tosh va bronzadan tayyorlangan o‘roqlardan, donni qayta ishlashda esa yanchgich va maydalagichlardan foydalangan. Dehqonchilik bilan bir qatorda bog‘dorchilik ham rivojlangan. Hunarmandchilik esa metallga ishlov berish, sopolchilik, to‘qimachilik va bezak buyumlari tayyorlash shaklida taraqqiy etgan. Bronzadan turli mehnat qurollari, qurol-yarog‘lar va zeb-ziynat buyumlari tayyorlangan.

Savdo aloqalari ham Jarqo‘ton taraqqiyotida muhim omil bo‘lgan. Pul munosabatlari shakllanmagan davrda mahsulot ayirboshlash asosiy iqtisodiy vosita sifatida xizmat qilgan. Jarqo‘ton orqali o‘tgan savdo yo‘llari, xususan, Badaxshondan keltirilgan lojuvard toshining g‘arb va janubga uzatilishi bu hududning mintaqalararo almashinuv tizimidagi o‘rnini ko‘rsatadi. Bu holat Jarqo‘tonni nafaqat ichki xo‘jalik markazi, balki kengroq iqtisodiy aloqalar tarkibidagi muhim bo‘g‘in sifatida baholash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, Jarqo‘ton yodgorligi O‘zbekiston hududida ilk urbanizatsiya, davlatchilik va murakkab ijtimoiy munosabatlar shakllanishini o‘rganishda muhim ilmiy manbalardan biridir. Bu yodgorlik bronza davrida janubiy O‘rta Osiyoda yuz bergan siyosiy, iqtisodiy, diniy va madaniy jarayonlarni kompleks ravishda yoritib beradi. Arxeologik topilmalar Jarqo‘tonda shaharsozlik, diniy markazlashuv, hunarmandchilik, dafn

marosimlari va savdo aloqalari rivojlanganini ko‘rsatadi. A. Asqarov, Sh. Shaydullayev va boshqa olimlarning tadqiqotlari Jarqo‘tonning ilmiy jihatdan chuqur o‘rganilishiga katta hissa qo‘shgan. Shu bois Jarqo‘ton yodgorligi nafaqat milliy tariximizning muhim qismi, balki qadimgi Sharq sivilizatsiyalari tizimidagi o‘rnini aniqlashda ham alohida ahamiyatga ega.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. Asqarov A. Jarqo‘ton. – Toshkent: Fan, 1983. – 136 b.
2. Shaydullayev, Sh. O‘zbekiston hududida davlatchilikning paydo bo‘lishi va rivojlanish bosqichlari: diss. avtoref. – Samarqand, 2009. – 24 b.
3. Boqiyev A., Shaydullayev, A., Yo‘ldosheva, Z. Oks sivilizatsiyasi. – Toshkent: Yangi Nashr, 2015. – 160 b.
4. Asqarov A. O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015. – 304 b.

BOYSUN TUMANI PANJOBLIK TOJIKLARINING O‘ZIGA XOS URF-ODATLARI

RAHMONOV ULUG‘BEK FAYZULLAYEVICH

Termiz davlat universiteti Tarix fakulteti
1-bosqich talabasi
ulugbekraxmonov180@gmail.com

Аннотация / Аннотация / Abstract

Ushbu maqolada Surxon vohasi, xususan Boysun, Denov, Oltinsoy va Sariosiyo tumanlarida yashovchi tojik aholisining an’anaviy urf-odat va marosimlari etnografik jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada sunnat to‘ylari doirasida o‘tkaziladigan “so‘yish” marosimi hamda erkaklar davrasida bajariladigan “to‘piq yutish” odatining mazmun-mohiyati, ijro etilish tartibi va ijtimoiy ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, ushbu urf-odatlarning urug‘-jamoa munosabatlarini mustahkamlash, avlodlar o‘rtasida an’anaviy qadriyatlarni saqlash va ijtimoiy birlikni ta’minlashdagi o‘rni tahlil qilinadi. Maqolada mahalliy etnografik kuzatuvlar asosida urf-odatlarning zamonaviy holati va ularning jamiyat hayotidagi davomiyligi ham ko‘rib chiqiladi.

В данной статье проводится этнографический анализ традиционных обрядов и обычаев таджикского населения, проживающего в Сурхандарьинском оазисе, в частности в Байсунском, Денауском, Олтынсайском и Сариасийском районах. В исследовании рассматриваются содержание, порядок исполнения и социальное значение обряда «сўйиш», проводимого в рамках обрядов обрезания, а также обычая «тўпиқ ютиш», практикуемого в мужской среде. Особое внимание уделяется роли данных традиций в укреплении родственных и общинных связей, сохранении межпоколенческих культурных ценностей и обеспечении социальной сплочённости. На основе местных этнографических наблюдений также анализируется современное состояние этих обычаев и их преемственность в современном обществе.

This article provides an ethnographic analysis of the traditional customs and rituals of the Tajik population living in the Surkhan oasis, particularly in the Boysun, Denov, Oltinsoy, and Sariosiyo districts. The study examines the meaning, execution, and social significance of the “soyish” ritual performed within circumcision ceremonies, as well as the “topiq yutish” custom practiced among men. It also highlights the role of these traditions in strengthening kinship and community relations, preserving intergenerational cultural values, and ensuring social cohesion. Based on local ethnographic observations, the article further explores the contemporary state of these customs and their continuity in modern society.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords
Surxon vohasi, Boysun tumani, tojiklar, etnografiya, urf-odatlar, sunnat to‘yi, so‘yish marosimi, to‘piq yutish, urug‘ tizimi, an’anaviy madaniyat, marosimlar, jamoaviylik.
Surkhan oasis, Boysun district, Tajiks, ethnography, customs, circumcision ceremony, soyish ritual, topiq yutish, kinship system, traditional culture, rituals, social cohesion.
Сурхандарьинский оазис, Байсунский район, таджики, этнография, обычаи, обряд обрезания, обряд «сўйиш», «тўпиқ ютиш», родственная система, традиционная культура, обряды, социальная сплочённость.

Har bir xalqning milliy o‘ziga xosligini belgilovchi muhim omillardan biri uning urf-odatlari, an’analari va turmush tarzidir. Ayniqsa, tog‘li hududlarda yashovchi aholi orasida qadimdan shakllangan urf-odatlar bugungi kungacha saqlanib kelayotgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan Surxondaryo viloyatining Boysun tumani o‘zining boy tarixiy-madaniy merosi, etnografik xususiyatlari hamda turli millat vakillarining o‘ziga xos turmush tarzi bilan ajralib turadi.

Boysun hududida yashovchi panjoblik tojiklar ham o‘ziga xos urf-odatlari, marosimlari va qadriyatlari bilan boshqa etnik guruhlardan farqlanadi. Ularning kundalik hayoti, oilaviy marosimlari, bayramlari va an’analari xalqning tarixiy ildizlari, ijtimoiy munosabatlari hamda madaniy qarashlarini aks ettiradi. Mazkur urf-odatlar asrlar davomida shakllanib, avloddan-avlodga o‘tib kelmoqda.

Ko‘hitang tog‘ tizmasi bo‘ylab joylashgan qishloq va vohalar qadim zamonlardan buyon o‘ziga xos tabiiy-geografik muhitda shakllangan aholi maskanlari hisoblanadi. Mazkur hududlarda asosan tog‘li dehqonchilik, chorvachilik hamda hunarmandchilik bilan shug‘ullanuvchi aholi istiqomat qilib kelgan. Hudud aholisi turmush tarzining shakllanishida tabiiy sharoit, suv manbalari va yer resurslari muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Shu bilan birga, mintaqaning etnik tarkibi uzoq tarixiy jarayonlar natijasida tarkib topgan bo‘lib, unda turli davrlarda yashagan sak-massaget qabilalari, keyinchalik eftalitlar, sosoniylar, arablar va mo‘g‘ullar davriga oid madaniy qatlamlar izlari kuzatiladi[1:216].

XVI–XIX asrlarda mazkur hudud Buxoro amirligi tarkibiga kirgan bo‘lib, Panjob qishlog‘i Pasxurt bekligi hududidagi muhim aholi punktlaridan biri sifatida shakllangan. Aholining asosiy qismini tojiklar tashkil etib, ular tog‘li hudud sharoitiga moslashgan dehqonchilik, bog‘dorchilik, chorvachilik hamda buloq suvlari asosida sug‘orma dehqonchilik bilan shug‘ullanganlar. Ushbu xo‘jalik tarmoqlari mahalliy aholi iqtisodiy hayotining asosini tashkil etgan.

Panjob qishlog‘i aholisi ijtimoiy tuzilmasida urug‘-qabila tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, oshiqli, shexonilar, kanonilar, sa’noni va shahistonagi urug‘lari hudud aholisi tarkibida alohida o‘rin egallaydi[2:15, 92]. Har bir urug‘ o‘ziga xos tarixiy ildizlar, ijtimoiy munosabatlar va madaniy qadriyatlarga ega bo‘lib, ular orqali jamiyat ichidagi ijtimoiy tartib va hamjihatlik ta’minlangan. Xususan, oshiqli urug‘ida mehnatsevarlik, o‘zaro yordam va jamoaviylik an’analari ustuvor bo‘lsa, shexonilar urug‘ida oilaviy barqarorlik, hurmat va axloqiy me’yorlarga sodiqlik muhim o‘rin tutadi. Kanonilar urug‘i vakillarida diniy qadriyatlar va oilaviy an’analarga amal qilish kuchli rivojlangan bo‘lsa, sa’noni urug‘ida jamoaviylik, o‘zaro hurmat va ijtimoiy barqarorlikka intilish kuzatiladi. Shahistonagi urug‘i esa tarixiy xotira, ota-bobolar merosiga sodiqlik va hamkorlik tamoyillarini saqlab kelayotganligi bilan ajralib turadi.

Mazkur urug‘lar doirasida shakllangan urf-odatlar va an’analar avloddan-avlodga o‘tib, bugungi kunda ham mahalliy aholining ijtimoiy va madaniy hayotida muhim o‘rin egallab kelmoqda.

Voha hududida yashovchi tog‘li tojik aholisining to‘y marosimlari o‘zining murakkab tuzilishi va ko‘p qatlamli urf-odatlari bilan ajralib turadi. Ushbu marosimlar tizimida alohida o‘rin tutuvchi an’analardan biri — sunnat to‘ylari doirasida o‘tkaziladigan “so‘yish” marosimidir[3:15]. Mazkur urf-odat XIX asr

oxiri — XX asr boshlaridan boshlab shakllanib, asta-sekin keng tarqalgan an’anaga aylangan. Biroq bu marosimni barcha aholi qatlamlari birdek amalga oshira olmagan, chunki uni o‘tkazish katta moddiy xarajatlarni talab etgan. “So‘yish” marosimi Surxon vohasining Boysun tumani qishloqlari, jumladan Sayrob, ichki va tashqi Panjob, Denov, Oltinsoy hamda qisman Laylagon hududlarida keng tarqalgan[4:112]. Ushbu marosim asosan bolalar uchun tashkil etiladigan sunnat to‘ylari bilan bog‘liq bo‘lib, unda har bir urug‘ vakillariga alohida ulush ajratish an’anasi mavjud. Oltinsoy va Boysun tumanlari qishloqlarida kuzatilgan sunnat to‘ylarida “so‘yish” marosimi deyarli bir xil tartibda o‘tkazilishi aniqlangan. Marosimga tayyorgarlik jarayonida zarur mahsulotlar hamda jonliq (asosan qo‘ylar) to‘y egasi tomonidan oldindan tayyorlab qo‘yiladi. Boysun tumani tog‘li tojik aholisida “so‘yish” boshlanishidan avval bakovullar tomonidan qaysi urug‘ yoki qaysi xonadon navbat asosida ulush olishi aniqlab olinadi. Ichki Panjob aholisi orasida kuzatilgan marosimlarda “so‘yish” beshta asosiy urug‘ vakillariga taqsimlanishi qayd etildi. Ushbu urug‘lar — shexonilar, shahistonagi, sa’noni, oshiqli va kanonilar urug‘laridir.

Panjob aholisi tarixan tog‘li hududlarda yashab, asosan chorvachilik bilan shug‘ullanganligi sababli “so‘yish” marosimi bevosita chorvachilik an’analari bilan bog‘liq holda shakllangan. Marosim davomida har bir urug‘ vakillariga jonliq (qo‘y)lar taqsimlab berilgan. Taqsimotda ayrim farqlar kuzatilgan bo‘lib, xususan, sa’noni urug‘i vakillariga son jihatdan ko‘pligi sababli nisbatan ko‘proq jonliq ajratilgan[5:119].

“So‘yish”ni taqsimlashdan oldin barcha urug‘ vakillari aylana shaklida o‘tirib, to‘y egasi tomonidan tayyorlangan mahsulotlarni bo‘lish jarayonini boshlaganlar. Avvalo besh urug‘ning bakovullari tomonidan qo‘ylar saralab chiqilib, har bir urug‘ uchun bittadan “bosh qo‘y” (odatda 40–50 kg vaznga ega) ajratilib, uning bo‘yniga ro‘mol bog‘lab qo‘yilgan. Shundan so‘ng qolgan qo‘ylar quyidagi tartibda taqsimlangan:

1. shexonilar urug‘iga — 1 ta bosh qo‘y va 2 ta o‘rtacha qo‘y;
2. shahistonagi urug‘iga — 1 ta bosh qo‘y va 2 ta o‘rtacha qo‘y;
3. sa’noni urug‘iga — 1 ta bosh qo‘y va 3 ta o‘rtacha qo‘y;
4. oshiqli urug‘iga — 1 ta bosh qo‘y va 2 ta o‘rtacha qo‘y;
5. kanonilar urug‘iga — 1 ta bosh qo‘y va 2 ta o‘rtacha qo‘y.

Bundan tashqari, yaqin qarindoshlik va ijtimoiy aloqalar asosida ayrim guruhlarga ham jonliq berilgan. Jumladan, tojik-chig‘atoylar yoki Laylagonlik elbegilar, Sayroblik eshonlar hamda Panjob eshonlariga bittadan qo‘y ajratilgan. Shuningdek, to‘y o‘tkazilayotgan xonadonda mehmon bo‘lib turgan ayollar uchun ham alohida qo‘y berish odati mavjud bo‘lgan. Hozirgi davrda esa ayrim guruhlarga (xususan, Sayroblik eshonlar va elbegi urug‘lariga) qo‘y berish an’anasi to‘xtagan bo‘lib, bu o‘zaro marosimiy almashinuvlarning susayishi bilan izohlanadi[6:232].

“So‘yish” jarayonida jonliq bilan bir qatorda non, qand, sabzi, guruch, yog‘, quruq choy va gugurt kabi mahsulotlar ham barcha urug‘ vakillariga teng taqsimlangan. Ulush olgan xonadon egalari o‘z navbatida tandir non va mevalar tayyorlab, mehmonlarga dasturxon yozganlar. Ayrim xonadonlar berilgan qo‘ylardan ikkitasini so‘yib iste’mol qilgan, bittasini esa “irimi” sifatida saqlab qolgan. Bu esa kelgusida shu xonadonda ham katta to‘y o‘tkazilishiga ezgu tilak sifatida talqin etilgan. “So‘yish” marosimida asosan erkaklar ishtirok etgan bo‘lib, 7 yoshga to‘lgan o‘g‘il bolalar ham qatnashish huquqiga ega bo‘lgan. Ayollar esa ushbu marosimda bevosita ishtirok etmagan. So‘yilgan qo‘y go‘shti qovurilib, marosimga kelgan har bir erkak mehmon uchun ikki bo‘lak go‘sht va bir bo‘lak yog‘ ulushi berilgan. Ushbu jarayon nafaqat ovqatlanish, balki ijtimoiy muloqot, o‘zaro yaqinlik va birlikni mustahkamlash vositasi sifatida ham xizmat qilgan[8:79].

Mazkur va shunga o‘xshash marosimlarning asosiy maqsadi yosh avlodni qarindosh-urug‘lar bilan tanishtirish, jamoaviylikni kuchaytirish va o‘zaro iliq munosabatlarni shakllantirishdan iborat bo‘lgan. Shu sababli tog‘li aholi orasida to‘y va marosimlarni jamoaviy tarzda o‘tkazish an’anasi mustahkam saqlanib qolgan.

Surxon vohasi etnografik jihatdan rang-barang hudud sifatida e’tirof etiladi. Bu bejiz

emas, chunki vohada yashovchi aholi orasida turli qadimiy urf-odat va marosimlar bugungi kungacha saqlanib kelmoqda. Ana shunday an’analardan biri — “to‘piq yutish” odati bo‘lib, u Boysun, Denov, Oltinsoy hamda Sariosiyo tumanlarida yashovchi tojik aholisi orasida uchraydi. Mazkur odat asosan erkaklar davrasida o‘tkazilib, unda jamiyatda muayyan mavqega ega bo‘lgan shaxslar, xususan yoshi ulug‘ kishilar, bakovullar hamda hurmatli insonlar faol ishtirok etadi. Marosim davomida qo‘y so‘yilgach, uning ikki dona to‘piq suyagi alohida ajratiladi. Ushbu suyaklar ko‘pincha ilik bilan birga tortilib, yoshi katta insonlar tomonidan o‘z yaqinlari yoki do‘stlariga maxsus tarzda taqdim etiladi. Boysun tumani Panjob qishlog‘i aholisi orasida, ayniqsa sunnat to‘ylari doirasida o‘tkaziladigan “so‘yish” marosimlarida ushbu odat keng tarqalgan. Marosim jarayonida go‘sht ulushi berilgan shaxs uni iste’mol qilish davomida ichidan to‘piq suyagi chiqadi. Mahalliy an’anaga ko‘ra, ushbu suyakni olgan kishi “to‘piqdor” deb ataladi. Biroq suyakning ramziy “egasi” uni taqdim etgan shaxs hisoblanadi. “To‘piq yutish” odatining asosiy sharti shundan iboratki, to‘piqni olgan shaxs uni barcha davra a’zolari oldida butun holda yutishi lozim[9:957]. Aks holda, ya’ni to‘piq yutilmasa yoki keyinchalik so‘ralganda ko‘rsatilmasa, u holda ushbu shaxs marosimiy jihatdan yutqazgan hisoblanadi va odatga ko‘ra bitta qo‘y berish majburiyatini oladi. Shuningdek, to‘piq berilgan paytda guvoh bo‘lgan kishilarni keyinchalik yana bir dasturxon atrofida jamlash ham ushbu marosimning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Ba’zi hollarda marosim ishtirokchilari yutqazib qo‘ymaslik maqsadida to‘piq suyagini tumorga o‘xshash tarzda saqlab, hatto bo‘yniga osib yurishgan. Agar to‘piq egasi uni talab qilingan paytda ko‘rsata olsa yoki uni oldindan yutib qo‘ygan bo‘lsa, unda aksincha, to‘piqni bergan shaxsning o‘zi qarzdor bo‘lib, bitta qo‘y berishi lozim bo‘lgan. Mazkur odat o‘z mohiyatiga ko‘ra nafaqat marosimiy o‘yin shaklini, balki ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlovchi, o‘zaro ishonch, hazil-mutoyiba va jamoaviylikni kuchaytiruvchi an’ana sifatida ham ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. С.Турсунов, Қ, Рашидов “Бойсун” Академнашр нашриёти, 2011. – 216-бет
2. Рўзимурод Қаландаров “Панжоб ва панжобликлар тарихи” Жайхун нашриёти Термиз – 1997 йил 92-бет
3. Кармишева Б. Х. Жилище узбеков племени карлук южных районов Таджикистана и Узбекистана.//ИООН АН Tadj.SSR. Вып.10–11.1956.S.13-23.
4. Бўриев О., Хўжамбердиев Т. Этнология атамаларининг қисқача изоҳли луғати. – Қарши: Насаф, 2003. – 112 б.
5. Носирова З. Бойсун нақшларида баҳор ифори // Мозийдан садо. – 2009. – №1. – С. 117–119.
6. Турсунов С., Пардаев Т., Махмадиёрова Н. Сурхандарё – этнографик макон. – Т.: Академнашр, 2012. – С. 232.
7. Mahmudov K. Mehmonnoma. – Toshkent, 1989. – B. 90.
8. Raxmonov M.X. Surxon vohasi Boysun tumani Panjob qishlog‘i aholisining nomoddiy madaniyatidan // *Tamaddun nuri (The Light of Civilization).* – 2024-yil, 6-son (57). 78–81-betlar. (07.00.00; № 35).
9. Rahmonov, M. (2024). SURXON VOHASIDA MAROSIMLAR VA RASM-RUSUMLAR. *Modern Science and Research*, *3*(12), 956-959.

JIZZAX SHAHARSOZLIGIDAGI O‘ZGARISHLAR VA SHAHAR MAHALLALARI TARIXI XUSUSIDA (XIX ASRNING IKKINCHI YARMI - XX ASR BOSHLARI)

PARDAYEV AHRORQUL HASANOVICH

Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti, Umumiy tarix kafedrasi mudiri.

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Mazkur maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Jizzax shahrining “eski” va “yangi” qismlarga bo‘linishi tahlil qilinadi. Shaharning yangi qismida Jizzax uyezdining ma’muriy boshqaruv idoralarining shakllanishi, eski shahar qismidagi mahallalarning nomlanishi bo‘yicha guruhlarga bo‘linishi, mahalla aholisining xo‘jaligi va turmush tarzi dala tadqiqotlari, yozma manbalar, etnografik va toponimik ma’lumotlar asosida yoritilgan.

В данной статье анализируется разделение города Джизак на «старую» и «новую» части во второй половине XIX – начале XX века. Рассматривается формирование административных учреждений Джизакского уезда в новой части города, тогда как старая часть изучается с точки зрения группировки махаллей по их названиям. Хозяйственная деятельность и образ жизни населения махаллей освещаются на основе полевых исследований, письменных источников, а также этнографических и топонимических данных.

This article analyzes the division of Jizzakh city into “old” and “new” parts in the second half of the 19th century and the early 20th century. It examines the formation of administrative institutions of the Jizzakh uyezd in the new part of the city, while the old city is considered in terms of the grouping of mahallas according to their names. The household economy and lifestyle of the mahalla population are studied on the basis of field research, written sources, as well as ethnographic and toponymic data.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

“eski” va “yangi” qismlar, Jizzax uyezdi, Qizil kazarma, Jizzax O‘rdasi, mahalla, Olmachi, Qang‘li, Qipchoq, Toshkentlik, O‘ratepalik.

Markaziy Osiyo shaharlari qadimdan o‘ziga xos shaharsozlik an’analari va me’moriy qiyofasi bilan ajralib turgan. Shaharlar odatda tabiiy-geografik sharoit, savdo yo‘llari va ijtimoiy-iqtisodiy omillar asosida shakllangan bo‘lib, ularning rivojida Buyuk ipak yo‘li muhim o‘rin egallagan. Markaziy Osiyo shaharlarining asosiy xususiyatlaridan biri ularning an’anaviy ravishda ark, shahriston va rabod qismlaridan iborat uchlik tuzilishiga egaligidir. Ark - shaharning ma’muriy-siyosiy markazi bo‘lib, unda hokim qarorgohi va boshqa ma’muriy boshqaruv idoralari joylashgan bo‘lsa, shaharning shahriston qismi asosiy aholi yashaydigan va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning eng faol qismi sifatida e’tirof etilgan. Rabodlarlar shaharning hunardmanchilik va savdo-sotiq hududi sifatida faoliyat ko‘rsatgan.

So‘ngi o‘rta asrlarga kelib shaharlar avvalgidek shahriston va rabod qismlariga emas balki ko‘cha-ko‘y, guzar, mahalla, registon maydoni kabi shaharliklar istiqomat qiladigan turar-joy va hunarmandchilik markazlariga bo‘lingan. Bunda markazning asosini mahalla va guzarlar tashkil etgan. [3, 234-b.] Markaziy Osiyoning barcha markaziy shaharlarida bo‘lgani kabi Jizzax shahri mahallalari ham asrlar osha taraqqiy etgan. So‘ngi o‘rta asrlarda jizzax shahri mahallalari ham kengayib, yangi turar-joylar, ko‘cha-ko‘ylar hisobiga mahalla soni ortib borgan. [1, 49-52-b.]

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasining istilolari natijasida Markaziy Osiyo shaharlarining qurilish strukturasida tub o‘zgarishlar yuz berib, ularning me’moriy qiyofasi yangi mustamlakachilik siyosatining talablari asosida qayta shakllandi. Ruslar

tomonidan bosib olingan shaharlar “eski” va “yangi” qismlarga ajratilib an’anaviy sharqona usulda qurilgan shaharlar saqlanib qolgan holda, ularning yonida yevropacha uslubda qurilgan “yangi” shaharlar barpo etildi. Yangi shaharlarda hududiga general-gubernatorlikning boshqaruv idoralari, sud, bank, pochta-telegraf va boshqa muassasalar qurildi. Shu bilan birga temir yo‘llar, temir yo‘l vokzallari va boshqa yangi kommunikatsiya tarmoqlarining qurilishi shaharlarning iqtisodiy ahamiyatini oshirib, ularni imperiya bozoriga integratsiya qilishda asosiy omil bo‘lib xizmat qildi. Shaharning “eski” shahar qismi aholisi esa o‘zining an'anaviy turmush tarzini saqlab qoldi. Shaharlarda qadimdan shakllangan mahalla tizimi, ularning boshqaruv va ijtimoiy - ma’naviy hayotda o‘zining o‘rnini yo‘qotmadi. Bu davrda Markaziy Osiyo shaharlari aholisi hunardmanchilik, savdo sotiq va dehqonchilik bilan shug‘ullanib, shaharlarda hunarmandchilik, temirchilik, to‘qimachilik, ko‘nchilik, misgazlik, zargarlik kabi sohalari rivojlandi.

1866-yilgi harbiy harakatlar natijasida Jizzax shahri ruslar tomonidan bosib olingach, Toshkent, Samarqand, Xo‘jand va boshqa shaharlar kabi Jizzax shahrida ham shaharning “yangi” qismini qurish amalga oshirilidi. Odatda yangi shaharlar eski shahar hududida yoki unga yaqin bo‘lgan joylarda barpo etildi. Bundan eski shahar hududida yashaydigan mahalliy aholi ustidan doimiy nazoratni tashkil etish, iqtisodiy manfaatlar, transport qatnovida qulaylik hamda harbiy strategik maqsadlar ko‘zda tutilgan edi. Lekin ba’zi shaharlar, masalan, Farg‘ona viloyati markazi sifatida tashkil etilgan yangi Marg‘ilon shahri eski Marg‘ilon shahridan 12 chaqirim uzoqlikda joylashgan. Samarqand viloyati tarkibidagi Jizzax shahrining “rus qismi” dastlab **“укрепление Ключевое”** deb nomlangan va eski qismidan 3 chaqirim uzoqlikda joylashgan edi. [6, 295-b.]

Sangzor daryosi Jizzax shahrining “yangi” va “eski” qismlari o‘rtasida tabiiy chegara vazifasini bajardi. Yangi shaharda dastlabki harbiy garnizon binosi Sangzor daryosi suv ayirg‘ichi bo‘lgan Beshquvur mavzeyida qurilib, bu bino xalq tilida “Qizil kazarma” deb nomlangan. Harbiy garnizon rus mustamlakachilari hukmronligini mustahkamlash va boshqaruvni ta’minlash, bosib olingan hududlarda siyosiy barqarorlikni saqlash, ehtimoliy qo‘zg‘olonlarni bartaraf etish kabi vazifalarni bajardi. Shu bilan birga harbiy garnizon Jizzax shahridagi uyezd ma’muriyati, davlat muassasalari va yangi shahar infratuzilmasi, harbiy-strategik kommunikatsiyalar jumladan, temir yo‘llar, pochta-telegraf tarmoqlari xavfsizligini ta’minlagan.

XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Jizzax uyezdining markazi maqomida bo‘lgan, Jizzax shahrining yangi shahar qismi ham ikki qismga bo‘lingan edi. Yangi shaharning **Русская** deb nomlangan asosiy qismida uyezd hokimining ma’muriy boshqaruv binosi, politsiya, sud, moliya idoralari, harbiy garnizon, qamoqxona, maktab, cherkov, savdo do‘konlari, mehmonxona va boshqa binolar joylashgan edi. Hududda 37 ta xonadon bo‘lib, ularda 261 nafar yevropa millatiga mansub (asosan ruslar) aholi yashar edi. Shaharning bu qismida 1 ta maktab, 6 ta do‘kon, 2 ta mehmonxona va 1 ta cherkov (Provoslav cherkovi binosi hozirgacha saqlanib qolgan) mavjud edi.

Yangi shaharning **Вокзальная** qismi hozirgi Jizzax shahgrining Ko‘kbozor mavzeyi va temir yo‘l vokzali hududlarini o‘z ichiga olgan va hududda 4 ta do‘kon, 2 ta mehmonxona bo‘lib, 15 ta xonodonda 71 nafar yevropa millatiga mansub fuqorolar yashagan. Ular asosan Jizzax shahridan o‘tgan temir yo‘l va temir yo‘l vokzali xizmatchilari edi. Yuqorida ta’kidlanganidek rus mustamlakachiligi davrida temir yo‘llar ham siyosiy, ham iqtisodiy va harbiy muhim ahamiyatga ega edi. Shu sababli Rossiya imperatori Nikolay III tomonidan temir yo‘llar qurilishiga alohida e’tibor berildi. XIX asrning ohiri - XX asr boshlarida Samarqand-Jizzax-Toshkent temir yo‘lining qurilishi natijasida Jizzax uyezdining Yangiqo‘rg‘on (G‘allaorol) uchastkasida **Куропаткин** va **Мелютин** temir yo‘l stansiyalari, Zomin uchastkasida **Ломакино** va **Обручево** temir yo‘l stansiyalari barpo etildi. [7, C-67.]

Rus mustamlakachiligi davrida Jizzax O‘rdasi va uning atrofi “eski shahar” maqomini olgan.Eski shahar Toshkentlik va Jizzaxlik qismlariga bo‘linib, mahalliy amaldorlar tomonidan boshqarilgan. Eski shaharning Toshkentlik qismida 1192 ta xonadon, 9965 nafar aholi yashab, 20 ta masjid, 9 ta boshlang‘ich maktab, 18 ta karvonsaroy, 500 ta do‘kon, 28 ta moyjuvoz, 1 ta g‘isht zavodi, 4 ta

tegirmon mavjud edi. Shaharning Jizzaxlik qismida esa 1248 ta xonadon bo‘lib, ularda 8527 nafar aholi yashar edi. Shaharning Jizzaxlik qismida 15 ta masjid, 7 ta maktab, 1 ta paxta tozalash zavodi, 12 ta tegirmon bor edi. Eski Jizzax shahrida XIX asr oxiri XX asr boshlarida 2898 ta xonadon bo‘lib, aholi soni 18794 nafar edi. [8, C-67.]

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlaridagi Jizzax shahri va shahar tegrasida joylashgan 30dan ortiq mahallalar tarixi dala tadqiqotlari (og‘zaki tarix), yozma manbalar, etnografik va toponimik ma’lumot asosida o‘rganishlar natijasida mahallalar nomlanishi bo‘yicha 4 ta guruhga ajrtatildi:

1.O‘zbek urug‘lari va boshqa etnonim nomlar bilan ataluvchi mahallalar: Olmachi, Qang‘li, Qipchoq, Saroylik, So‘loqli, Tamaguzar, Toqchilik, Eroni, Lo‘limahalla va boshqalar;

2.Ayrim qo‘shni tuman, shahar va qishloq nomlari bilan ataluvchi mahallalar: Toshkentlik, Mo‘lkentlik, Oqqo‘rg‘onlik, O‘ratepalik, Xovoslik, Xayrabodlik, Yaxtanlik, Ravotlik va boshqalar;

3.Kasb-kori bo‘yicha hunarmandchilik mahallalari: Sovungarlik, Ko‘nchilik, Zargarlik, Qassoblik, Kulollik, Temirchilik va boshqalar;

4. Tarixiy geografik xususiyatlari asosida nomlangan mahallalar: Toshloq, Sayiljoyi, Gandumtosh, Qulama, Qo‘shko‘prik, Sharilloq, Qalandarxona, Jili-G‘uli va boshqalar;.

Yuqorida nomlari keltirilgan mahallalarning aksariyati Jizzax O‘rdasining shahriston qismida, bir qismi esa shahar mudofaa devori tashqarisida joylashgan. Bu davrga oid Jizzax O‘rdasi haqida Ahmad Donishning yozishicha, Toshkent ruslar tomonidan bosib olingandan so‘ng, amirlik chegarasi, Samarqand darvozasi hisoblangan Jizzaxda qo‘shimcha mudofaa devori qurish uchun yuz ming tanga ajratilgan. Demak, 1865-yil 17-may, ya’ni Toshkent bosib olingandan keyin Jizzax O‘rdasining ikkinchi devori qurilishi boshlangan va deyarli bir yarim yilda bu ish amalga oshirilgan. [2, 45-b.]

O‘rdada aholi nihoyatda zich yashagan. Buni axborotchilarimiz ma’lumoti va topografik plandan ham bilishimiz mumkin. Mahallalar deyarli mudofaa devorlari orqasidan boshlangan, bu hududlarda deyarli ochiq maydonlar yo‘q. Ko‘chalar nihoyatda tor, bir-biri bilan tutashgan va bu ko‘chalarning barchasi O‘rda hokimi ark maydoniga olib chiqqan. Ark atrofida esa ma’lum sayhonlik, ochiq mavze mavjud bo‘lgan.

O‘rda hokimi qarorgohi — ark bizning davrimizgacha nisbatan yaxshi saqlanib yetib kelgan tarixiy inshootdir. Uning hozirgi mikrorelyefi, o‘lchamlari va balandligi topografik planda qayd etilgan ma’lumotlarga deyarli to‘g‘ri keladi. Ushbu ma’lumotlar asosida aytish mumkinki, arkning darvozasi uning shimol tomonida bo‘lgan. Ark darvozasi Toshkent darvozasining ro‘parasida, Samarqand darvozasi bilan bir yo‘nalishda, uning o‘ng tomonida joylashgan. Ark ham mudofaa devorlari bilan o‘rab olingan. Uning janubiy va sharqiy qismidagi darvozasining ikki yonida mudofaa burjlari bo‘lgan. [4, 144-b.]

1868-yilda Jizzaxga tashrif buyurgan A.P.Fedchenkoning yozishicha: «Jizzax uncha katta bo‘lmagan shahar, unda besh ming aholi yashaydi».[9,48,63-b.]Fikrimizcha, taniqli tadqiqotchi A.P.Fedchenko O‘rda ruslar tomonidan bosib olingan va vayron qilingandan keyin ham unda yashab turgan aholi haqida ma’lumot bergan. Vaholanki, O‘rdaning tashqarisida joylashgan Zargarlik, Misgarlik, Temirchilik, Kulollik, Sovungarlik, Ko‘nchilik, Qassoblik kabi kasb-korga ixtisoslashgan mahallalar, yozda dala hovlida, qishda O‘rdada yashovchi O‘ratepalik, Mo‘lkanlik, Toshkentlik, Hovoslik, Oqqo‘rg‘onlik kabi mahallalar aholisini hisobga olgan holda aytish mumkinki, XIX asrning birinchi yarmida O‘rda aholisi A.P.Fedchenko ko‘rsatgan sondan bir necha barobar ko‘p bo‘lgan.

Jizzax shahri mahallalarining shahar atrofidagi hududlarida dehqonchilik va bog‘dorchilik bilan shug‘ullanuvchi ekin maydonlari bor edi. Bu davrda Jizzax shahri eski shahar mavzei aholisi ham Markaziy Osiyoning ko‘plab shaharlari va shahar aholisining ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarzida uchraydigan:

- **qo‘rg‘on(shahar)hovli-** shahar aholisining asosiy istiqomat qiladigan mahallasi;
- **dala hovli -** shahar aholisining shahar atrofida joylashgan va erta bahordan kech kuzga qadar dehqonchilik qiladigan xususiy yerlaridagi vaqtincha qurilgan turar-joylarda yashagan. [5, 169-b.]

Xulosa qilib aytganda, XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Jizzax shahrining shaharsozlik tuzilmasi Rossiya imperiyasi

mustamlakachilik siyosati ta’sirida tubdan o‘zgargan. Shahar an’anaviy “eski” qism va yangi ma’muriy-harbiy markazdan iborat “yangi” qismga ajralib, ular o‘rtasida funksional va ijtimoiy-iqtisodiy farqlanish kuchaygan. Yangi shahar qismi asosan uyezd boshqaruvi, harbiy garnizon va transport-kommunikatsiya tizimlari joylashgan markaz sifatida shakllanib, imperiyaning siyosiy va iqtisodiy manfaatlarini ta’minlashga xizmat qilgan.

Eski shahar esa mahalla tizimi asosida o‘zining an’anaviy ijtimoiy tuzilmasi, hunarmandchilik va savdo faoliyatini saqlab qolgan. Dala tadqiqotlari, yozma manbalar, etnografik va toponimik ma’lumotlar Jizzax shahri aholisi etnik jihatdan rang-barang bo‘lib, o‘zbek urug‘lari, qo‘shni hududlardan kelgan guruhlar hamda ko‘chib kelgan aholining birgalikda yashaganini tasdiqlaydi.

Shuningdek, Jizzax shahri mahallalarining shahar atrofidagi hududlarida dehqonchilik va bog‘dorchilikka ixtisoslashgan ekin maydonlarining mavjudligi shahar aholisining an’anaviy agrar turmush tarzi bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Eski shahar mavzei aholisi uchun ijtimoiy-iqtisodiy hayotda qo‘rg‘on (shahar) hovli va dala hovli tizimi muhim o‘rin tutgan. Qo‘rg‘on hovli shahar aholisining doimiy istiqomat qiladigan asosiy turar-joyi bo‘lsa, dala hovli esa shahar atrofida joylashgan, mavsumiy dehqonchilik ishlari bilan bog‘liq bo‘lgan va erta bahordan kech kuzgacha foydalanilgan vaqtinchalik yashash maskani sifatida xizmat qilgan. Bu ikki turdagi yashash va xo‘jalik yuritish shakli Jizzax shahri aholisining shahar va qishloq hayoti o‘rtasidagi o‘ziga xos uyg‘unlashgan turmush tarzini aks ettiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Агзамова Г.А. Шаҳрисабз – иқтисодий ва маданий ҳаёти маркази (XVI–XIX асрнинг биринчи ярми) // Шаҳрисабз шаҳрининг жаҳон тарихида тутган ўрни. Халқаро илмий конференция. Тошкент, 2002. Б. 49–52.
2. Аҳмад Дониш. Трактат Аҳмада Дониша «История мангитской династии». Перевод, предисловие и примечание И.А. Наджафовой. Д.: «Дониш», 1967. – 45 с.
3. Муқминова Р.Г. Очерки по истории ремесла в Самарканде и Бухаре в XVI веке. Ташкент, 1976. С. 234.
4. Пардаев А.Ҳ. Жиззах беклиги – Ўрта Осиё хонликлари даврида (XVI асрдан XIX асрнинг 60-йилларигача). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. Тошкент, 2004. – 144 б.
5. Пардаев А. Жиззах шаҳри маҳаллалари тарихидан (Мўлканликлар маҳалласи тарихи). Марказий Осиё халқларининг ижтимоий-иқтисодий, сиёсий тарихи, моддий ва маънавий маданияти (қадимги даврдан ҳозирги кунгача) // Республика илмий-амалий конференция материаллари. Самарқанд, 2003. 169-б.
6. Шодмонова С. XIX асрнинг охири – XX аср бошларида Туркистон шаҳарлари ва уларнинг ижтимоий аҳволи // Ўзбекистонда урбанизация жараёнлари: тарих ва ҳозирги замон (халқаро илмий анжуман материаллари, 1-қисм). Тошкент, 2007. Б. 295.
7. Списокъ Населенныхъ мѣстъ Самаркандской области. (По свѣдѣніямъ 1904 и 1905 г.г.). Изданіе Самаркандскаго Областного Статистическаго Комитета. Составилъ М. М. Вирскій. Самаркандъ ТИПО-ЛИТОГР. «Трудъ» - 1906. С.- 67.
8. Списокъ Населенныхъ мѣстъ Самаркандской области. (По свѣдѣніямъ 1904 и 1905 г.г.). Изданіе Самаркандскаго Областного Статистическаго Комитета. Составилъ М. М. Вирскій. Самаркандъ ТИПО-ЛИТОГР. «Трудъ» - 1906. С.- 67.
9. Федченко А.П. Путешествие в Туркестан. М., 1950. с. 48, 63

SURXONDARYO VILOYATI OILA QADRIYATLARINING O’ZIGA HOS XUSUSIYATLARI VA OILA MUSTAHKAMLIGINING ASOSIY OMILLARI

KARIMOVA OZODA CHORIYEVNA

´´Oila va gender´´ ilmiy tadqiqot institutining mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya / Аннотация / Abstract
Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati oila qadriyatlarining o’ziga hos xususiyatlari va oila mustahkamligining asosiy omillari haqida ma’lumot berib o’tilgan.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords
oila qadriyatlari, Surxondaryo etnomadaniyati, an’ana, ijtimoiy institut, oila mustahkamligi, tarbiya, qadriyatlar tizimi, mahalla, gender rollar, ijtimoiy birdamlik.

Kirish. Oila jamiyatning eng qadimiy va eng asosiy ijtimoiy institutlaridan biri bo‘lib, u insonning ma’naviy shakllanishi, iqtisodiy faolligi hamda ijtimoiylashuv jarayo nida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Har bir mintaqaning o‘ziga xos tarixiy-madaniy sharoitlari oilaviy munosabatlarda ham aks etadi. Surxondaryo viloyati – qadimiy sivilizatsiya markazlaridan biri bo‘lib, bu hududda shakllangan oila qadriyatlari uzoq tarix, milliy an’ana va ko‘p millatli ijtimoiy tarkib bilan boyib borgan[1].

Mavzuning dolzarbligi shundaki, hozirgi globallashuv davrida yoshlar ongida turli madaniy oqimlar to‘qnashmoqda. Oila mustahkamligini saqlash, mahalliy qadriyatlarga tayanib, zamonaviy yondashuvlarni uyg‘unlashtirish muhim vazifa hisoblanadi. Shuning uchun Surxondaryo viloyati oila qadriyatlarining o‘ziga xos jihatlarini o‘rganish va ularning mustahkamlik omillarini tahlil qilish ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega.

1. Surxondaryodagi oila qadriyatlarining tarixiy--madaniy ildizlari. Surxondaryo hududi qadimdan Buyuk Ipak yo‘lining janubiy yo‘nalishida joylashgan bo‘lib, bu yerda turli madaniyatlar va etnoslar o‘zaro ta’sirda bo‘lgan[2]. Bu jarayon oilaviy hayotga ham ko‘p qatlamli ta’sir ko‘rsatgan:

Patriarxal modelning ustunligi: ota – boshqaruvchi, ona – tarbiyachi sifatida an’anaviy rollar mustahkam o‘rin egallagan[3]. Kengaygan oila shakli – katta ota-onalar, jiyanlar, ammalar, tog‘alar bilan yaqin aloqadorlik Surxondaryoga xos ijtimoiy birlik hisoblanadi. Mehr-oqibat tamoyili – qarindoshlar o‘rtasida o‘zaro yordam, xayriya, jamoaviy mehnat ko‘p uchraydi. Mehmondo‘stlik va hurmat-ehtirom qadriyatlari oila tarbiyasining ajralmas qismi hisoblanadi[4]. Surxondaryo xalqi orasida “katta – kichikni joyiga qo‘yish”, oqsoqollar maslahatiga amal qilish, kelinning odob-axloqiga katta e’tibor berish kabi qadriyatlar hanuzgacha mustahkam saqlanib kelmoqda.

2. Surxondaryo oilalarining zamonaviy ijtimoiy-madaniy xususiyatlari. Bugungi kunda viloyatda oila qadriyatlari an’ana va modernizatsiya ta’siri ostida yangicha shakllanmoqda:

2.1. Ta’lim va ma’rifat rolida kuchayish. So‘nggi yillarda qizlar va o‘g‘il bolalar ta’lim olishi darajasi oshdi, bu esa oilaviy qarorlar qabul qilishda izchil, ongli yondashuvni shakllantirmoqda[5].

2.2. Gender rollarning o‘zgarib borishi. Ayollarning iqtisodiy faolligi va bandlik ko‘rsatkichlari oshib, oilada mas’uliyatni bo‘lishish, qarorlarni birgalikda qabul qilish holati kuchaygan[6].

2.3. Mahalla institutining mustahkam o‘rni. Mahalla Surxondaryoda oila barqarorligining asosiy tayanchi bo‘lib qolmoqda. Nikoh oldi suhbatlari, “Mahalla posboni”, “Oila maslahat markazlari” faoliyati oilaviy mojarolarni kamaytirishda muhim rol o‘ynamoqda[7].

2.4. Migratsiya jarayonlarining oilaviy qadriyatlarga ta’siri. Viloyatda mehnat migratsiyasi yuqori bo‘lgani uchun ayrim oilalarda psixologik bosim, iqtisodiy nomutanosiblik, tarbiyaviy bo‘shliq yuzaga keladi. Shu bilan birga, remittanslar oilaning

moddiy ta’minotini yaxshilab, ularning ijtimoiy mavqeini oshiradi[8].

3. Surxondaryo oilalarining mustahkamligiga ta’sir etuvchi asosiy omillar

3.1. An’ana va ma’naviy qadriyatlarga tayanish. Ota-ona roziligi, qarindoshlar birligi, milliy udumlar oila barqarorligining asosiy ma’naviy poydevoridir[9].

3.2. Iqtisodiy barqarorlik. Oilaviy byudjetning mustahkamligi kelajak rejalashtirishni osonlashtirib, ichki mojarolarni kamaytiradi. Surxondaryoda dehqonchilik, bog‘dorchilik, chorvachilik oilaviy iqtisodning asosiy tarmoqlaridan biridir.

3.3. Ta’limli va ongli yoshlar avlodi. Yoshlarning ma'rifatli bo‘lishi, oilaviy munosabatlar madaniyati haqida bilimga ega bo‘lishi ajrimlar sonini kamaytiradi va sog‘lom psixologik muhit yaratadi[10].

3.4. Mahalla va davlat qo‘llab-quvvatlashi. Oilaviy nizolarni bartaraf etish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bo‘yicha amaliy mexanizmlar oilaning mustahkamlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

3.5. Psixologik muhit va o‘zaro muloqot. Oilada sog‘lom muloqot, hamjihatlik, sabr-toqat va bag‘rikenglik asosiy barqarorlik omillaridan hisoblanadi.

Xulosa.Surxondaryo viloyati oilalarida tarixiy-madaniy meros, milliy qadriyatlar, mahalla institutining kuchi va jamiyatning o‘ziga xos ijtimoiy tuzilmasi oilaviy hayotda katta o‘rin tutadi. Bugungi kunda an’ana va innovatsiya uyg‘unlashgan holda oilaviy munosabatlar rivojlanmoqda. Oila mustahkamligi – nafaqat iqtisodiy omillar, balki ma’naviy birlik, tarbiya, hurmat va o‘zaro mas’uliyatga tayanadi. Surxondaryo oilalarining o‘ziga xosligi shuki, ular qadimiylik va zamonaviylikni birgalikda olib bora oladi. Shu bois oila instituti hududning ijtimoiy barqarorligida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Oila – jamiyat tayanchi. Toshkent: O‘zbekiston, 1997.
2. Xo‘jayev A. Surxondaryo tarixi. Termiz, 2010.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Oila kodeksi”. Toshkent, 2019.
4. Yo‘ldoshev Q. O‘zbek xalqining an’ana va udumlari. Toshkent: Ma’naviyat, 2004.
5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari – stat.uz
6. Rasulova D. Ayollarning ijtimoiy faolligi va oiladagi roli. Toshkent, 2022.
7. “Mahalla” fondi rasmiy ma’lumotlari – mahallakavf.uz
8. Abdurahmonov Q. Mehnat migratsiyasi va oila munosabatlari. Toshkent, 2021.
9. Qodirova M. Oila psixologiyasi. Toshkent: Fan, 2016.
10. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi metodik qo‘llanmalari.

“OILANING IJTIMOIY INSTITUT SIFATIDAGI AKSIOLOGIK FUNKSIYALARI”

KARIMOVA OZODA CHORIYEVNA

´´Oila va gender´´ ilmiy tadqiqot institutining mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya / Аннотация / Abstract
Ushbu maqolada Oilaning ijtimoiy institut sifatidagi aksiologik funksiyalari haqida ma’lumot berib o’tilgan.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords
oila, aksiologiya, qadriyatlar tizimi, ma’naviy meros, ijtimoiy institut, ijtimoiylashuv, axloqiy tarbiya, qadriyatlar uzluksizligi, ma’naviy-psixologik muhit, milliy o‘zlik, madaniy an’ana.

Kirish. Oila insoniyat jamiyatining eng qadimiy va eng tabiiy ijtimoiy instituti sanaladi. Uning vazifalari zamon o‘tishi bilan kengayib borayotgan bo‘lsa-da, oilaning eng muhim

missiyasi doimo o‘zgarmay kelmoqda — bu jamiyatning ma’naviy, axloqiy va madaniy poydevorini yaratish va mustahkamlashdir. Aksiologik jihatdan qaraganda, oila jamiyatning qadriyatlar tizimini shakllantiruvchi, saqlovchi va yangi avlodga yetkazuvchi asosiy institutdir.

Qadriyat deganda insonning ruhiy hayotini tartibga soluvchi, uning hayot mazmunini belgilovchi axloqiy, madaniy, ma’naviy va ijtimoiy me’yorlarning yig‘indisi tushuniladi. Oila esa ana shu me’yorlarning birlamchi shakllanish o‘chog‘idir. Aksiologiya faniga ko‘ra, jamiyatning har bir qadriyati inson hayotida faqat ong orqali emas, balki muhit orqali o‘zlashtiriladi. Bu muhitning eng tabiiy shakli — bu oiladir. Shu bois oilaning aksiologik funksiyalarini o‘rganish zamonaviy jamiyat taraqqiyotida nihoyatda muhim masalalardan biridir.

Bugungi globallashuv sharoitida axborot oqimlarining keskin ko‘payishi, madaniyatlar aralashuvi, oilaning an’anaviy funksiyalaridagi o‘zgarishlar qadriyatlar tizimining izchil saqlanishini murakkablashtirmoqda. Bu jarayonda oila institutining roli yanada ortib, jamiyatning ma’naviy barqarorligini ta’minlovchi poydevorga aylanmoqda.

1. Oila va aksiologiya: nazariy-metodologik asoslar.

Aksiologiya — qadriyatlar haqidagi fan bo‘lib, u insonning ruhiy olamida nima qadrli, nima muhim va nima hayotiy ahamiyatga ega ekanligini o‘rganadi. Oila esa qadriyatlarning shakllanishi, uzatilishi va avlodlararo davom ettirilishida bosh muhim o‘rinni egallaydi. Oila qadriyatlarning: yaratiladigan (yangi avlodda shakllanadigan), saqlanadigan (avlodlar davomida barqarorlashadigan), uzatiladigan (an’ana shaklida meros bo‘lib qoladigan) asosiy maydonidir. Shu sabab oilaning aksiologik funksiyalari jamiyatning ma’naviy qiyofasi, barqarorligi va madaniy taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq.

1.1. Qadriyatlar tizimining oiladagi shakllanishi. Oilada shakllanadigan qadriyatlar quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi:

- axloqiy qadriyatlar (halollik, vijdonlilik, odoblilik, hurmat);
- ijtimoiy qadriyatlar (mas’uliyat, burch, mehnatsevarlik, birdamlik);
- milliy an’anaviy qadriyatlar (urf-odatlar, marosimlar, til, o‘zlikni anglash);
- diniy-ma’naviy qadriyatlar (mehr-shafqat, bag‘rikenglik, ezgulik).

Bu qadriyatlar bolaning ongiga bevosita amaliy hayot orqali singadi: ota-onaning gap-so‘zlari, xatti-harakati, oilaviy muhitning ruhiy holati bolaning kelajakdagi shaxsiyati uchun asos bo‘ladi.

2. Oila ijtimoiy institut sifatida ijtimoiylashuv va ma’naviy tarbiya maskani

Oila – shaxsning ijtimoiylashuvi jarayoni boshlanadigan birlamchi maktabdir. Bola jamiyatga moslashish, undagi normalarni qabul qilish, o‘z rolini anglashni birinchi bo‘lib oilada o‘rganadi.

2.1. Ijtimoiy me’yorlarni o‘rgatish. Bola oilada quyidagilarni o‘zlashtiradi:

- o‘zini tutish madaniyati;
- jamiyatda qabul qilingan xulq me’yorlari;
- o‘ziga va boshqalarga hurmat;
- muloqot qilish san’ati;
- jamiyatda o‘z o‘rnini topish ko‘nikmalari.

Aksiologik nuqtai nazardan bu jarayon juda muhim, chunki aynan oilada shakllangan ijtimoiy qadriyatlar shaxsning butun hayoti davomida asosiy yo‘l-yo‘riq bo‘lib xizmat qiladi.

2.2. Ma’naviy-axloqiy tarbiya

Oilada beriladigan ma’naviy tarbiya shaxsning ruhiy dunyosini shakllantiradi. Ota-onaning o‘zaro munosabatlari, oiladagi muhit, tarbiya uslublari — bularning barchasi bolaning aksiologik dunyosiga chuqur ta’sir ko‘rsatadi.

Mustahkam oila muhitining elementlari quyidagilar:

-mehr-muhabbat;
-tinchlik va o‘zaro hurmat;
-adolatli munosabat;
-psixologik qo‘llab-quvvatlash.

Bu qadriyatlar bola ongida shaxsiy fazilatlar sifatida mustahkamlanadi.

3. Oilaning asosiy aksiologik funksiyalari

3.1. Axloqiy-etik funksiyasi. Oila axloqiy me’yorlarning asosiy manbayi hisoblanadi. Halollik, adolat, mehr-shafqat, sabr-toqat kabi universal qadriyatlar birinchi bo‘lib oilada shakllanadi. Ota-onaning shaxsiy namunasi bu funksiyaning asosiy vositasi sanaladi. Axloqiy qadriyatlarning mustahkam bo‘lishi jamiyatning ma’naviy barqarorligini ta’minlaydi.

3.2. Ma’naviy-merosiy funksiyasi. Oila milliy madaniyat va urf-odatlarni meros sifatida uzatadigan asosiy muhitdir. Xalqona an’analar, bayramlar, odatlar, marosimlar oilada davom

ettiriladi. Milliy qadriyatlarning saqlanishi ko‘p jihatdan oila institutining barqaror faoliyatiga bog‘liq.

3.3. Psixologik qo‘llab-quvvatlash funksiyasi. Aksiologiyada qadriyat sifatida insonning ruhiy osoyishtaligi alohida o‘rin tutadi. Oila shaxsga: mehr, e’tibor, ishonch, xavfsizlik hissi berib, psixologik himoya vazifasini bajaradi. Bu funksiyaning kuchli bo‘lishi shaxsning ijtimoiy faolligi va ruhiy barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

3.4. Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash funksiyasi. Oila jamiyatning eng kichik birligi bo‘lsa-da, uning barqarorligi butun ijtimoiy tizimning barqarorligiga ta’sir qiladi. Mustahkam oilalarda shakllangan qadriyatlar jamiyatda totuvlik va ijtimoiy muvozanatni saqlashga xizmat qiladi.

3.5. Fuqarolik va mas’uliyat qadriyatlarini shakllantirish.

Oiladagi tarbiya fuqarolik pozitsiyasini, Vatanga sadoqat, qonunlarga hurmat kabi ijtimoiy qadriyatlarni shakllantiradi. Bu esa jamiyatning milliy xavfsizligi va mafkuraviy immunitetining mustahkamlanishida katta ahamiyatga ega.

4. Zamonaviy ijtimoiy o‘zgarishlar fonida oilaning aksiologik roli. Bugungi axborot asri oilaga bir qator yangi vazifalarni yuklamoqda: internet orqali kirayotgan turli madaniy oqimlar; globallashuv natijasidagi mental o‘zgarishlar; an’anaviy tarbiya tizimining zaiflashuvi. Shunday sharoitda oila qadriyatlarning yagona ishonchli himoyachisi sifatida mavjud. Oilaning aksiologik funksiyalari nafaqat an’analarni saqlash, balki yoshlarni zamonaviy sharoitga moslashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ya’ni oila “an’ana + zamonaviylik” modeliga asoslangan yangi qadriyatlar tizimini yaratishi zarur.

Xulosa qilib aytganda oila ijtimoiy institut sifatida jamiyatning qadriyatlar tizimini yaratishda, shakllantirishda va davom ettirishda fundamental ahamiyatga ega. Uning aksiologik funksiyalari shaxsning ma’naviy-axloqiy qiyofasini belgilaydi, milliy madaniyatni asraydi, jamiyat barqarorligini mustahkamlaydi. Shu bois oila nafaqat tarbiya maskani, balki jamiyatning qadriyatlar ishlab chiqaruvchi markazi hisoblanadi. Qadriyatlari mustahkam oila esa ijtimoiy barqarorlikning kafolati, ma’naviy barkamollikning manbai va jamiyatning strategik rivojlanish poydevoridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qodirova M. Oila psixologiyasi. Toshkent: Fan, 2016.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, 2008.
3. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. 2019-yilgi tahrir.
4. Muqimov R. Sotsiologiya asoslari. Toshkent, 2014.
5. Alimov B. Aksiologiya va uning falsafiy asoslari. Toshkent, 2012.
6. Yo‘ldoshev Q. O‘zbek xalqining ma’naviy merosi. Toshkent: Ma’naviyat, 2004.
7. To‘laganov A. Ijtimoiy institutlar va jamiyat taraqqiyoti. Toshkent, 2020.
8. Hasanboyeva O. Oilada tarbiya jarayonining psixologik asoslari. Toshkent, 2015.
9. UNESCO Family Research Reports.
10. Allport G. Pattern and Growth in Personality. New York, 1961.

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA XOTIN-QIZLAR MEHNATINING O‘RNI

TOSHOV KAMOLIDDIN TOJINOROVICH

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa diktori (PhD

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Mazkur maqolada Ikkinchi jahon urushi davrida O‘zbekiston hududida iqtisodiy safarbarlik siyosati, mehnat resurslari tarkibidagi o‘zgarishlar hamda xotin-qizlarning qishloq xo‘jaligi, sanoat va ijtimoiy sohalardagi ishtiroki tarixiy-manbashunoslik va qiyosiy tahlil asosida keng yoritiladi. Tadqiqotda arxiv hujjatlari, statistik materiallar va tarixshunoslikdagi yondashuvlar umumlashtirilib, ayollar mehnatining iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdagi o‘rni ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Urush sharoitida ayollarning yangi kasblarni egallashi, texnik va boshqaruv sohalariga kirib kelishi hamda mehnat tuzilmasidagi sifat o‘zgarishlari ochib beriladi. Maqola natijalari urush davri gender tarixini o‘rganishda muhim ilmiy xulosalar beradi.

В данной статье рассматриваются политика экономической мобилизации в Узбекистане в годы Второй мировой войны, изменения в структуре трудовых ресурсов, а также участие женщин в сельском хозяйстве, промышленности и социальной сфере на основе историко-источниковедческого и сравнительного анализа. В исследовании обобщены архивные документы, статистические материалы и историографические подходы, что позволило научно обосновать роль женского труда в обеспечении экономической стабильности. Раскрываются процессы освоения женщинами новых профессий, их вхождение в технические и управленческие сферы, а также качественные изменения в структуре труда. Результаты исследования представляют важное значение для изучения гендерной истории периода войны.

This article examines the policy of economic mobilization in Uzbekistan during World War II, changes in the structure of labor resources, and the participation of women in agriculture, industry, and the social sphere based on historical-source analysis and comparative methods. The study synthesizes archival documents, statistical data, and historiographical approaches to substantiate the role of women’s labor in ensuring economic stability. It also highlights the acquisition of new professions by women, their entry into technical and managerial fields, and qualitative changes in the labor structure under wartime conditions. The findings provide significant scholarly insights into the gender history of the war period.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

Ikkinchi jahon urushi, O‘zbekiston iqtisodiyoti, xotin-qizlar mehnati, iqtisodiy safarbarlik, sanoat, qishloq xo‘jaligi, gender tarixi, front orti, mehnat resurslari, tarixiy tahlil.

Вторая мировая война, экономика Узбекистана, труд женщин, экономическая мобилизация, промышленность, сельское хозяйство, гендерная история, тыл, трудовые ресурсы, исторический анализ.

World War II, economy of Uzbekistan, women’s labor, economic mobilization, industry, agriculture, gender history, home front, labor resources, historical analysis.

Ikkinchi jahon urushi davri O‘zbekiston tarixida iqtisodiy va ijtimoiy tizim keskin qayta qurilgan bosqich sifatida tavsiflanadi. Urushning dastlabki oylaridan boshlab sobiq ittifoq hududida barcha resurslar front ehtiyojlariga bo‘ysundirildi. Natijada ishlab chiqarish yo‘nalishlari, mehnat taqsimoti, kadrlar siyosati va xo‘jalik yuritish mexanizmlarida tub o‘zgarishlar yuz berdi [1].

Frontga millionlab erkaklarning safarbar etilishi respublikalarda, jumladan O‘zbekistonda ham mehnat resurslari tanqisligini keltirib chiqardi. Mazkur sharoitda iqtisodiy barqarorlikni saqlab qolish uchun xotin-qizlar,

o‘smirlar va keksalar mehnat safarbarligiga keng jalb etildi. Ayniqsa, xotin-qizlar iqtisodiy hayotning turli tarmoqlarida asosiy ishchi kuchiga aylandi [2].

Bugungi tarixshunoslikda urush davri iqtisodiyoti masalalari keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, xotin-qizlar mehnatining tizimli, kompleks va tarmoqlar kesimidagi tarixiy tahlili yetarli darajada umumlashtirilmagan. Shu bois mazkur maqolada urush davrida O‘zbekiston iqtisodiyotida xotin-qizlar faolligining asosiy yo‘nalishlari mustaqil ilmiy yondashuv asosida keng tahlil qilinadi.

Tadqiqot tarixiylik, xolislik va tizimlilik tamoyillari asosida olib borildi. Muammoga kompleks yondashuv qo‘llanilib, tarixiy-qiyosiy, retrospektiv, muammoviy-tahliliy hamda manbashunoslik metodlaridan foydalanildi. Statistik ma’lumotlar va arxiv materiallari o‘zaro solishtirilib, umumlashtiruvchi xulosalar chiqarildi.

Manbalar bazasini O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivi materiallari, urush yillariga oid xo‘jalik hisobotlari, davriy matbuot materiallari, ilmiy tadqiqotlar va zamonaviy gender tarixiga oid ishlanmalar tashkil etadi [3].

Urush davrida iqtisodiyotning harbiy izga tushirilishi natijasida ishlab chiqarish tarkibida keskin o‘zgarish yuz berdi. Ko‘plab korxonalar g‘arbiy hududlardan sharqqa, jumladan O‘zbekiston hududiga ko‘chirildi. Evakuatsiya qilingan sanoat obyektlarini qisqa muddatda joylashtirish va ishga tushirish muhim strategik vazifa edi [4].

Mehnat resurslari tarkibida yuzaga kelgan bo‘shliqni to‘ldirish uchun ayollarni ommaviy jalb etish siyosati yuritildi. Maxsus o‘quv kurslari, ishlab chiqarish to‘garaklari va tezkor tayyorlov tizimi joriy qilindi. Natijada qisqa vaqt ichida minglab xotin-qizlar yangi kasblarni egalladi.

Bu jarayon faqat miqdoriy emas, balki sifat o‘zgarishlarini ham yuzaga keltirdi. Ayollar mehnati yordamchi kuchdan asosiy ishlab chiqaruvchi kuch darajasiga ko‘tarildi.

Urush yillarida O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi frontni oziq-ovqat va xomashyo bilan ta’minlovchi tayanch hududga aylandi. Paxta yetishtirish strategik ahamiyat kasb etdi. Erkaklar safarbarligi sababli dalalardagi asosiy ishchi kuchi xotin-qizlardan iborat bo‘lib qoldi [5]. Ayollar paxtachilik, g‘allachilik, sabzavotchilik va chorvachilikda keng ko‘lamda mehnat qildi. Brigada va zveno usulida mehnatni tashkil etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga erishildi. Ko‘plab xo‘jaliklarda ayollar rahbarlik lavozimlarini ham egallay boshladi. Muhim jihatlardan biri - qishloq xo‘jaligi texnikasini boshqarishda ayollar ulushining ortishidir. Traktorchi va mexanizator ayollar tayyorlash tizimi yo‘lga qo‘yildi. Bu holat agrar sohada ishlab chiqarish uzluksizligini saqlashga xizmat qildi [6].

Urush davrida respublikada sanoat ishlab chiqarishi hajmi va yo‘nalishlarida sezilarli o‘zgarish yuz berdi. Evakuatsiya qilingan zavod va fabrikalarni ishga tushirishda mahalliy aholi, ayniqsa xotin-qizlar asosiy ishchi kuchi bo‘ldi [7]. Yengil sanoat, to‘qimachilik, tikuvchilik va oziq-ovqat sanoatida ayollar salmog‘i keskin oshdi. Shu bilan birga, metallga ishlov berish, yig‘uv sexlari, nazorat-texnik bo‘limlarda ham xotin-qizlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Ayollar tomonidan texnik operatsiyalarni o‘zlashtirish sanoat madaniyatining kengayishiga olib keldi. Bu esa urushdan keyingi davrda ham ayollar bandligi tarkibiga uzoq muddatli ta’sir ko‘rsatdi. Urush davrida sog‘liqni saqlash, ta’lim va ijtimoiy ta’minot tizimining uzluksiz ishlashi ham muhim ahamiyatga ega edi. Bu sohalarda xotin-qizlar asosiy mutaxassislar sifatida faoliyat olib bordi [8]. Tibbiyot xodimalari, hamshiralar, o‘qituvchilar, tarbiyachilar front orti barqarorligini saqlashda muhim rol o‘ynadi. Evakuatsiya qilingan aholini joylashtirish, bolalar muassasalarini yuritish, ijtimoiy yordamni tashkil etishda ayollar tashabbuskorlik ko‘rsatdi.

Urush davridagi xotin-qizlar mehnati jamiyatdagi gender rollari qayta ko‘rib chiqilishiga sabab bo‘ldi. Ayollarning iqtisodiy mustaqilligi, kasbiy faolligi va ijtimoiy mavqei oshdi. Bu jarayon urushdan keyingi modernizatsiya bosqichida ham o‘z ta’sirini saqlab qoldi [9]. Zamonaviy tarixshunoslik nuqtayi nazaridan, ayollar mehnatini faqat yordamchi omil sifatida emas, balki iqtisodiy tizimni ushlab turgan muhim omil sifatida baholash zarur.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Ikkinchi jahon urushi davrida O‘zbekiston iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda xotin-qizlar mehnati

hal qiluvchi o‘rin tutgan. Ular qishloq xo‘jaligi, sanoat va ijtimoiy sohalarda keng miqyosda faoliyat yuritib, ishlab chiqarish uzluksizligini ta’minladi. Urush davridagi ayollar mehnati qisqa muddatli safarbarlik chorasi bo‘lib qolmay, uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarga zamin yaratdi. Mazkur tarixiy tajribani chuqur o‘rganish gender tarixi va ijtimoiy tarix yo‘nalishlari uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1) O‘zbekiston tarixi (1917–1991 yillar). — Toshkent: Fan, 2019.
2) Rajabov Q. O‘zbekiston Ikkinchi jahon urushi yillarida. — Toshkent: Akademnashr, 2020.
3) O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivi, fondlar to‘plami, urush yillari hisobot materiallari.
4) Hasanov B. Urush davrida O‘zbekiston sanoati tarixi. — Toshkent: Universitet, 2018.
5) Qishloq xo‘jaligi statistik to‘plami. 1941–1945 yy. — Toshkent, 1946.
6) Axmedova D. O‘zbekistonda ayollar mehnati tarixi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
7) Sanoat va ishlab chiqarish bo‘yicha urush davri hujjatlari to‘plami. — Toshkent, 1947.
8) Urush yillarida ijtimoiy soha rivoji. Hujjatlar va materiallar. — Toshkent, 1985.
9) Gender tarixi va ijtimoiy transformatsiya masalalari / mas’ul muharrir Sh. Jo‘rayev. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022.

“TERMIZ SHAHRI TARIXIGA DOIR MANBALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR SHARHI”

RAIMOV MAMASOAT SAFAR O‘G‘LI

Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasi o‘qituvchisi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Mazkur maqolada Termiz shahrining tarixiy taraqqiyoti tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilinadi. Shaharning qadimgi davrlardan boshlab Markaziy Osiyoning muhim siyosiy, iqtisodiy, madaniy va diniy markazlaridan biri sifatida shakllanishi yoritiladi. Shuningdek, Termizning geografik o‘rni, shaharsozlik taraqqiyoti, savdo va hunarmandchilik sohalaridagi o‘rni, islom sivilizatsiyasidagi mavqei hamda mudofaa tizimining o‘ziga xos jihatlari ilmiy asosda bayon etiladi.

В данной статье на основе исторических источников и научной литературы анализируется историческое развитие города Термез. Описывается формирование города как одного из важных политических, экономических, культурных и религиозных центров Центральной Азии с древних времен. Также научно описываются географическое положение Термеза, его роль в развитии градостроительства, торговли и ремесел, его место в исламской цивилизации и особенности оборонительной системы

This article analyzes the historical development of the city of Termez based on historical sources and scientific literature. The formation of the city as one of the important political, economic, cultural and religious centers of Central Asia since ancient times is highlighted. Also, the geographical location of Termez, its role in the development of urban planning, trade and crafts, its position in Islamic civilization, and the specific aspects of the defense system are scientifically described.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

Termiz, tarixiy manbalar, ilmiy adabiyotlar, shaharsozlik, Buyuk ipak yo‘li, hunarmandchilik, islom sivilizatsiyasi, mudofaa tizimi, arxeologik tadqiqotlar.

Термез, исторические источники, научная литература, градостроительство, Великий Шелковый путь, ремесла, исламская цивилизация, оборонительная система, археологические исследования.
Termez, historical sources, scientific literature, urban planning, the Great Silk Road, crafts, Islamic civilization, defense system, archaeological research.

KIRISH (INTRODUCTION) Termiz shahri O‘zbekistonning eng qadimiy va tarixiy jihatdan muhim shaharlaridan biri hisoblanadi. U mamlakatimizning janubiy darvozasi sifatida nafaqat geosiyosiy, balki iqtisodiy, madaniy va sivilizatsion taraqqiyotda ham alohida o‘rin egallaydi. Tarixiy manbalarda Termiz Markaziy Osiyoning qadimiy shaharsozlik an’analari shakllangan yirik markazlardan biri sifatida tilga olinadi. Shaharning mintaqalararo aloqalardagi tutgan o‘rni uni Sharq va G‘arbni bog‘lovchi muhim makonga aylantirgan. Yaponiyalik taniqli qadimshunos olim, professor Kato Kyudzo Termizning tarixiy ahamiyatini alohida ta’kidlab, Buyuk ipak yo‘lini bu shaharsiz tasavvur etib bo‘lmasligini qayd etadi. Ushbu fikr Termizning xalqaro savdo, madaniy almashinuv va sivilizatsiyalararo aloqalardagi o‘rnini yaqqol ko‘rsatadi [1:608].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD / (MATERIALS AND METHODS) Termiz shahri tarixi qadimdan ilmiy tadqiqotchilar diqqat markazida bo‘lib kelgan. Buxoro, Samarqand va Urganch kabi Movarounnahrning yirik tarixiy-madaniy markazlari qatorida Termiz ham ilm-fan va madaniyat ravnaq topgan shaharlardan biri sifatida e’tirof etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ham Surxondaryo vohasi, xususan Termiz hududi qadimdan yirik sivilizatsiyalar markazi bo‘lgani ta’kidlangan. Bu hududda Baqtriya, Tohariston, Chag‘oniyon kabi tarixiy-siyosiy birliklar va Kushon davlati ravnaq topgani qayd etiladi. Shu nuqtai nazardan, Termizning ko‘p asrlik tarixini manbalar asosida yoritish, uning milliy davlatchilik tarixidagi o‘rnini ilmiy jihatdan ochib berish dolzarb vazifalardan biridir. Ayniqsa, shahar tarixiga oid yozma manbalar, arxeologik topilmalar va ilmiy tadqiqotlarni o‘zaro qiyosiy tahlil qilish muhim ilmiy natijalarga olib keladi. “O‘zbekiston–Fransiya” qo‘shma arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan professor Le Presh, professor Sh. Pidayev va dotsent Z. Xoliqov rahbarligida olib borilgan tadqiqotlar natijasida Termiz tarixining kamida 3000 yillik ekani haqidagi ilmiy xulosalar ilgari surilgan. Shahar hududidagi qadimgi darvoza atrofidan topilgan sopol buyumlar hamda ilk temir davriga oid arxeologik topilmalar bu fikrni tasdiqlovchi muhim dalillar hisoblanadi [2:420].

XX asrning 80-yillari oxirlaridan boshlab Termiz va termiziylar tarixiga qiziqish sezilarli darajada kuchaydi. Respublika va viloyat matbuotida ko‘plab maqolalar e’lon qilindi, alohida ilmiy va ommabop asarlar yaratildi. Biroq shunga qaramay, Termizning tarixiy taraqqiyoti, arxeologik yodgorliklari, me’moriy obidalari hamda termiziy allomalar merosini kompleks ravishda qamrab olgan mukammal ilmiy tadqiqotlar hali ham yetarli emas [3:384].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION Termiz shahri Amudaryoning o‘ng sohilida, Surxondaryo bilan Amudaryo qo‘shilishiga yaqin hududda, tabiiy-geografik jihatdan qulay makonda shakllangan. Shahar janubdan Amudaryo, sharqdan qadimiy Chag‘anrud, shimoldan esa qumlik hududlar bilan chegaralangan. Bunday joylashuv Termizning qadimdan mintaqaviy aloqalarda muhim strategik nuqta bo‘lib xizmat qilishiga imkon yaratgan. Qadimiy Termiz Amudaryoning eng qulay kechuv joylaridan biriga yaqin hududda vujudga kelgan. Bu esa uning Baqtriya va Markaziy Osiyoning boshqa hududlari bilan aloqalarida muhim rol o‘ynagan. Shaharning tabiiy tepalikda bunyod etilgani uning mudofaa salohiyatini yanada kuchaytirgan. Abu Rayhon Beruniy “Qonuni Ma’sudiy” asarida Termizni yetti iqlim tizimining to‘rtinchi iqlimiga mansub hudud sifatida ko‘rsatadi. Shaharning dengiz sathidan balandligi 302 metr bo‘lib, iqlimi issiq va quruqdir. Yillik yog‘in miqdorining kamligi, yuqori harorat va uzoq davom etuvchi quyoshli kunlar Termizning tabiiy xususiyatlarini belgilaydi. Bundan tashqari, hududda vaqti-vaqti bilan kuzatiladigan “Afg‘on shamoli” mahalliy xo‘jalik va dehqonchilikka sezilarli ta’sir ko‘rsatgan[4:23].

Sug‘orish tizimi va shahar infratuzilmasi. Termiz va uning atrofi sun’iy sug‘orishga ehtiyoj sezgan hududlardan biri bo‘lgan. Shu bois qadimiy termizliklar sug‘orish inshootlari barpo etib, vohani obod va serhosil makonga aylantirganlar. XV asr tarixchisi va geograf olimi Hofizi Abru Termizni Jayxun bo‘yidagi kuhandiz va shahristonga ega shahar sifatida tavsiflaydi hamda uning ekin maydonlari Chag‘oniyon suvlari bilan sug‘orilganini qayd etadi. Hofizi Abru asarlarida tilga olingan Burdaguy mavzesi ham Termizning iqtisodiy hayotida muhim o‘rin tutgan. Ushbu hudud qadimda daryodan o‘tish va kechuvni nazorat qilish bilan bog‘liq faoliyat olib borilgan joy bo‘lgan. Bu holat Termizning savdo va transport tizimidagi o‘rnini yana bir bor tasdiqlaydi [5:760].

NATIJALAR (RESULTS) Termiz tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarida yirik geostrategik markaz sifatida shakllangan. Shaharning Amudaryo bo‘yida, tabiiy jihatdan mustahkam hududda joylashgani uning harbiy-mudofaa imkoniyatlarini kuchaytirgan. Qal’a janubiy va g‘arbiy tomondan daryo bilan himoyalangan bo‘lib, bu tomondan dushman hujumi deyarli imkonsiz bo‘lgan. Shuningdek, Amudaryo shaharning ichimlik suvi va transport ehtiyojlarini qondirib turgan. Termiz qal’asi bir necha qatlamli mudofaa devorlari bilan o‘ralgan, shaharga kirish va chiqish qat’iy nazorat qilingan. Shahar ichida suv ta’minoti yashirin quvurlar orqali tashkil etilgani uning uzoq muddatli qamal sharoitida ham bardosh bera olishiga xizmat qilgan. Bu jihatlar Termizning nafaqat iqtisodiy, balki harbiy-siyosiy markaz sifatidagi o‘rnini ham belgilaydi. Shaharning mustahkam mudofaa tizimi va aholining jipsligi uni tarix davomida ko‘plab istilolarga qarshi kurashgan shahar sifatida namoyon etgan.

Termiz islom sivilizatsiyasi tarixida ham muhim o‘rin tutadi. Arablar istilosining dastlabki bosqichlaridayoq bu hududga ko‘plab sahobalar, tobeinlar va diniy arboblar kelib joylashgan. Natijada Termiz islom ilmlari, tasavvuf va hadisshunoslik markazlaridan biriga aylangan. Tarixiy manbalarda Termiz sahobalar, muhaddislar, mufassirlar, mutasavviflar, olimlar va fozillar shahri sifatida sharaflanadi. Ayniqsa, Al-Hakim at-Termiziy, Imom at-Termiziy va Sayyid Burhoniddin Termiziy kabi allomalarning nomi bu shaharning diniy-ilmiy nufuzini belgilab beradi. Al-Hakim at-Termiziy Movarounnahrda tasavvuf ta’limotining shakllanishi va yoyilishida muhim o‘rin tutgan bo‘lsa, Imom at-Termiziy islom olamidagi eng mashhur muhaddislardan biri sifatida tanilgan. Sayyid Burhoniddin Termiziy esa tasavvuf tarixida alohida o‘rin egallaydi. Bundan tashqari, Termizdagi Sulton Saodat majmuasi sayyidlar sulolasining muhim ziyoratgohlaridan biri sifatida alohida ahamiyatga ega [6:846].

XULOSA (CONCLUSION) Tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar tahlili Termiz shahrining Markaziy Osiyo tarixida beqiyos o‘rin tutganini ko‘rsatadi. Shahar qadimdan qulay geografik joylashuvi, mustahkam mudofaa tizimi, rivojlangan sug‘orish inshootlari, savdo va hunarmandchilik salohiyati, shuningdek, diniy-ma’rifiy markaz sifatidagi mavqei bilan ajralib turgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Турсунов С.Н., Қобилов Э.О., Пардаев Т.Р., Муртазаев З.М. Сурхондарё тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2004. – 608 б.

2. Яздий Ш.А. Зафарнома. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1997. – 420 б.

3. Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи (Ажоийиб ал-мақдур фи тарихи Таймур). – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 384 б.

4. Холиқов З.Е. Термез и Чаганиян в позднем средневекове. Автореф. дисс... канд. ист. наук. – Самарканд: ИА АН РУз., 2001. – С. 23.

5. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – М.: Наука, 1963. – 760 с.

6. Бартольд В.В. Сочинения. Т. II. – М.: Наука, 1964. – 846 с.

DALVARZINTEPA – KUSHON DAVRI SHAHAR MADANIYATINING NOYOB ARXEOLOGIK YODGORLIGI.

TURDIYEVA AZIZA YO’LDOSH QIZI

Termiz davlat universiteti
Tarix ta’lim yo’nalishi
2-kurs talabasi

JUMAYEV MUSTAFO ERKIN O‘G‘LI

Ilmiy rahbar: Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya / Аннотация / Abstract

Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatida joylashgan Dalvarzintepa yodgorligining tarixiy taraqqiyoti, arxeologik o‘rganilish jarayoni, shaharsozlik xususiyatlari hamda Kushon davridagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti yoritilgan. Shuningdek, yodgorlikdan topilgan noyob arxeologik topilmalar, jumladan oltin xazina, buddaviylik ibodatxonalari, haykallar va hunarmandchilik buyumlari asosida Dalvarzintepaning Markaziy Osiyo sivilizatsiyasidagi o‘rni tahlil qilingan.

В данной статье рассматривается историческое развитие археологического памятника Далверзинтепа, расположенного в Сурхандарьинской области, процесс его изучения, особенности градостроительства, а также социально-экономическая и культурная жизнь в период Кушанской империи. Особое внимание уделено уникальным археологическим находкам, включая золотой клад, буддийские храмы, скульптуры и ремесленные изделия, на основе которых анализируется роль Далверзинтепы в цивилизации Центральной Азии.

This article examines the historical development of the Dalvarzintepa archaeological site located in the Surkhandarya region, the process of its study, its urban planning features, and the socio-economic and cultural life during the Kushan Empire. Special attention is given to unique archaeological findings, including the golden treasure, Buddhist temples, sculptures, and craft artifacts, which highlight the significance of Dalvarzintepa in the civilization of Central Asia.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

Dalvarzintepa, Kushon imperiyasi, Xodzo, arxeologik qazishmalar, oltin xazina, buddaviylik, ibodatxona, hunarmandchilik, shaharsozlik, Surxon vohasi.

Далверзинтепа, Кушанская империя, Ходзо, археологические раскопки, золотой клад, буддизм, храм, ремесленничество, градостроительство, Сурхандарьинская долина.

Dalvarzintepa, Kushan Empire, Khodzo, archaeological excavations, golden treasure, Buddhism, temple, craftsmanship, urban planning, Surkhandarya oasis.

Surxondaryo viloyati Sho‘rchi tumanidagi hozirgi Leninobod qishlog‘i hududida joylashgan Dalvarzintepa Markaziy Osiyoning eng muhim arxeologik yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Mazkur tarixiy obidani ilmiy jihatdan o‘rganish ishlari 1962-yildan boshlangan bo‘lib, keyingi o‘n yilliklar davomida olib borilgan tadqiqotlar natijasida Dalvarzintepaning qadimgi Kushon davri shahri sifatidagi ulkan ahamiyati aniqlangan. Ushbu yodgorlik miloddan avvalgi I asrdan milodiy IV asrgacha bo‘lgan davrda, ayniqsa Kushon imperiyasi hukmronligi davrida yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markaz sifatida ravnaq topgan.

Dalvarzintepa umumiy maydoni 36 gektarni tashkil etuvchi, qalinligi 10 metrgacha yetadigan boy madaniy qatlamga ega yirik manzilgohdir. Shaharning ichki qismi qariyb yetti gektar maydonni egallagan bo‘lib, u chordevor va xandak bilan o‘rab olingan. Chordevor xom g‘ishtdan bunyod etilib, uning

usti loy bilan suvalgan. Hozirgi kunda yodgorlik atrofdan qaraganda 12,5 metr balandlikdagi tepalik ko‘rinishida saqlanib qolgan. Devorlar bo‘ylab harbiy mudofaa maqsadida maxsus minoralar bunyod etilgan bo‘lib, bu shaharning mudofaa tizimi puxta rejalashtirilganidan dalolat beradi. Shahar markaziy qismida badavlat aholi va zodagonlar mahallalari, janubiy qismida esa asosan hunarmandlar, xususan kulollar yashagan mahalla joylashgan.

Ilmiy adabiyotlarda Dalvarzintepa qadimiy manbalarda tilga olingan Xodzo shahri bilan bog‘lanadi va ayrim tadqiqotlarda u qadimgi Kushonlar davlatining dastlabki poytaxti sifatida talqin qilinadi. Shu bois yodgorlikning qadimiy nomi ham “Xodzo” bo‘lgani ehtimol qilinadi.[3. 98] “Dalvarzintepa” atamasi esa keyingi davrlarda mahalliy xalq tomonidan shakllangan nom sifatida izohlanadi. Mazkur so‘zning tarkibiy tahliliga ko‘ra, “dal” — qishloq yoki yer, “varzin” — yuksalish yoki balandlik, “tepa” esa baland joy ma’nolarini anglatadi. Shunga ko‘ra, Dalvarzintepa “balandlikdagi qishloq” yoki “yuksalgan joy” sifatida talqin qilinadi.[2. 16] Yana bir rivoyatda bu nom qadimda shu yerda hukmronlik qilgan afsonaviy qahramon Dol yoki Zol nomi bilan bog‘lanadi. Xalq og‘zaki ijodida arablar ushbu shaharni Hazrati Alining rahnamoligida egallagani, undan keyin esa shaharda hayot butunlay so‘ngani haqida ham naql saqlanib qolgan.

Dalvarzintepa yodgorligini ilmiy o‘rganish XX asrning 60-yillarida yangi bosqichga ko‘tarildi. 1959-yilda San’atshunoslik institutida “Tasviriy san’at va me’morlik” bo‘limi negizida “O‘zbekiston san’atshunosligi ekspeditsiyasi” tashkil etilib, aynan shu ilmiy jamoa tomonidan Dalvarzintepada dastlabki arxeologik tadqiqotlar olib borildi. 1967-yildan e’tiboran esa qazish ishlari keng ko‘lam kasb etdi. Ushbu ekspeditsiyalarda taniqli olimlar, jumladan, ekspeditsiya rahbari G.A. Pugachenkova, arxeologlar T. Belyayeva, B. Turg‘unov, E.V. Rtveladze, restavratorlar V. Lunev, N. Sotnikova va X. Xusnutdinxo‘jayev faol qatnashganlar. Ularning sa’y-harakatlari natijasida Dalvarzintepaning shahar tuzilishi, diniy inshootlari, turar joylari va moddiy madaniyati haqida qimmatli ma’lumotlar qo‘lga kiritildi.
Qadimgi shaharning shimoliy qismida Baqtriya ma’budasiga bag‘ishlangan ibodatxona hamda devoriy rasmlar aniqlangan. Bundan tashqari, ushbu hududda miloddan avvalgi I asr boshlariga oid buddaviylik ibodatxonasining xarobalari topilgan bo‘lib, u O‘zbekiston hududidagi eng qadimgi buddaviylik ibodatxonalardan biri sifatida alohida ilmiy ahamiyatga ega. Bu topilmalar Dalvarzintepaning nafaqat siyosiy va iqtisodiy, balki diniy va madaniy markaz sifatida ham yuksak mavqega ega bo‘lganini tasdiqlaydi. Kushon davrida bu yerda shahar hayoti, turar joylar, diniy inshootlar va hunarmandchilik markazlari jadal rivojlangan.

Dalvarzintepa tadqiqotlarining eng katta yutuqlaridan biri 1972-yilda amalga oshirilgan qazish ishlari bilan bog‘liq. Qadimgi shahar ko‘chalari o‘rganilayotgan chog‘da uy deb taxmin qilinayotgan binolardan birida og‘irligi 35 kilogramm 712 gramm 13 milligramm bo‘lgan oltin buyumlar xazinasi topilgan.[1. 77] Ushbu topilma nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo arxeologiyasi tarixidagi eng muhim topilmalardan biri sanaladi. Shuningdek, qazishmalar davomida fil suyagidan yasalgan turli xil buyumlar, dunyodagi eng qadimgi shaxmat donalari deb baholanayotgan I–II asrlarga oid namunalar, qimmatbaho toshlardan ishlangan zargarlik buyumlari, tangalar hamda Yunon-Baqtriya davriga mansub nafis sopol ashyolar topilgan. Bu topilmalar Dalvarzintepaning yuqori darajada rivojlangan moddiy madaniyat markazi bo‘lganidan dalolat beradi. Bugungi kunda ushbu artefaktlar Toshkent shahridagi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San’atshunoslik instituti fondida saqlanmoqda.

Dalvarzintepa topilmalarining ilmiy va madaniy ahamiyati 1970-yillarda keng jamoatchilik e’tiborini tortgan. O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi Sharof Rashidov qadimshunoslar bilan uchrashgan, 1973-yil 2-aprelda esa topilmalar yuzasidan matbuot konferensiyasi o‘tkazilgan. Aynan shu voqealardan keyin G.A. Pugachenkovaning “Dalvarzintepaning badiiy xazinasi” asari rus va fransuz tillarida nashr etilgan. Shuningdek, yozuvchi Murodjon Mahmudovning “Yombi” qissasi ham mazkur topilmalar asosida yaratilgan. Dalvarzintepani o‘rganishda yapon olimi, professor Kyudzo Kato alohida jonbozlik ko‘rsatgan. U 2002-yilda “Do‘stlik” ordeni bilan mukofotlangan bo‘lib, bugungi kunda Dalvarzin yaqinidagi 43-maktab uning nomi bilan ataladi. Tatyana Belyayeva va

Bahodir Turg‘unov ham Dalvarzintepa sirlarini ochishda katta ilmiy hissa qo‘shgan olimlar sifatida e’tirof etiladi.

Dalvarzintepadan topilgan eng diqqatga sazovor topilmalardan yana biri Budda haykalidir. Ma’lumotlarga ko‘ra, mexanizator N. Murodov Dalvarzintepaning shimolidagi kichik tepalikni tekislash chog‘ida tuproq orasidan odam boshi shaklidagi haykalni topib olgan. Bu Budda haykali bo‘lib, u mazkur hudud aholisi o‘z vaqtida buddaviylik diniga e’tiqod qilganini yana bir bor tasdiqlaydi. Ushbu topilma Dalvarzintepaning diniy hayoti va e’tiqod tizimi haqida muhim tarixiy dalil sifatida baholanadi.

Arxeologik qazishmalar davomida Dalvarzintepaning qariyb 6000 kvadrat metrga yaqin qismi ochib o‘rganilgan. 2,5 metrdan 3,5 metrgacha bo‘lgan madaniy qatlam uchta qurilish bosqichiga ajratilgan.[5] Har bir qatlamdan turar joy qoldiqlari, jez quyish ustaxonalari, g‘alla o‘ralari va turli mehnat qurollari aniqlangan. Biroq uy-joylar nisbatan kam ochilganligi sababli bu jihat hali to‘liq o‘rganilgan deb bo‘lmaydi. Madaniy qatlamlarda tashlandiq uy-joylar o‘rnida yonboshlagan holda yotgan murdalar va ko‘p miqdordagi alohida suyaklarning topilishi ham muhim ilmiy ahamiyatga ega. Ushbu antropologik materiallar Dalvarzintepada yashagan aholining antropologik jihatdan yevropeoid irqiga mansub bo‘lganini ko‘rsatadi.

Topilmalar Dalvarzintepa aholisining xo‘jalik hayoti haqida ham muhim tasavvur beradi. Aholining asosiy mashg‘uloti dehqonchilik va chorvachilik bo‘lgan. Donni qayta ishlashda yorg‘uchoqdan foydalanilgan. Topilgan hayvon suyaklari esa aholining uy hayvonlarining deyarli barcha turlarini boqish bilan shug‘ullanganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, shaharda jez quyish hunari ancha rivojlangan. Jezdan tayyorlangan o‘roq, iskana, bigiz, igna, nayza va o‘q uchlari, turli zeb-ziynat buyumlari buning yaqqol dalilidir. Topilmalar orasida to‘qimachilik taraqqiy etganidan darak beruvchi jez ignalar, bigizlar, urchuqlar va boshqa ashyolar ham mavjud. Bundan tashqari, Dalvarzintepa aholisi kulolchilik, ustachilik va zargarlik bilan ham faol shug‘ullangan. Demak, bu yodgorlik o‘z davrida ko‘p tarmoqli hunarmandchilik va ishlab chiqarish markazi bo‘lgan.

Xulosa qilib aytganda, Dalvarzintepa Surxondaryo vohasining eng yirik va eng qadimiy shahar yodgorliklaridan biri sifatida O‘zbekiston tarixida alohida o‘rin egallaydi. U Kushon davri shaharsozligi, diniy hayoti, hunarmandchiligi, xo‘jalik tizimi va moddiy madaniyatini o‘rganishda beqiyos manba bo‘lib xizmat qiladi. Arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan boy xazinalar, ibodatxonalar, haykallar, hunarmandchilik buyumlari va turar joy qoldiqlari Dalvarzintepaning qadimgi sivilizatsiya markazlaridan biri bo‘lganini to‘liq tasdiqlaydi. Shu bois Dalvarzintepani o‘rganish nafaqat Surxondaryo vohasi, balki butun Markaziy Osiyo qadimgi tarixini yoritishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ешбоев Т. Шўрчи шуҳрати ва инсон қудрати. — Тошкент, 2007. — Б. 33.
2.Қораев С. Топонимика. – Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2006. – Б. 16.
3.Турсунов С. Н. Сурхондарё вилояти топонимлари. — Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. — Б. 149.
4.Пугаченкова Г. А. и др. Далварзинтепа — кушанский город на юге Узбекистана. — 1978.
5.https://uz.wikipedia.org/wiki/Dalvarzintepa

SURXON VOHASIDAGI TOQCHI QAVMI QISHLOQLARI: TARIXIY-ETNOGRAFIK TAHLIL

RAHMONOV MUHAMMAD HABIBULLO O‘G‘LI

Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasi o‘qituvchisi,
muhammad19940208@mail.ru
+99891 582-25-25

Annotatsiya / Аннотация / Abstract
Mazkur maqolada Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumani hududida yashovchi Toqchi qavmi vakillarining tarixiy-geografik joylashuvi, etnik xususiyatlari va an’anaviy turmush tarzi tahlil qilingan. Tadqiqotda Hisor tog‘lari bag‘rida joylashgan Toqchiyon, Karsh, Kundayijuvoz, Chosh va Kishtut kabi qishloqlarning shakllanish tarixi, aholining joylashuvi, xo‘jalik faoliyati, ijtimoiy munosabatlari hamda madaniy merosi yoritilgan. Maqolada tog‘li hududlarning tabiiy-geografik sharoiti, aholining chorvachilik va dehqonchilikka asoslangan xo‘jalik tizimi, an’anaviy uy-joy qurilishi, nikoh munosabatlari va mahalliy tarixiy xotiraning etnik o‘zlikni saqlashdagi o‘rni ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, ayrim qishloqlarda yuz bergan migratsion jarayonlar, jumladan, tabiiy omillar, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar hamda hududiy o‘zgarishlarning aholi tarkibiga ta’siri tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords
Surxondaryo, Sariosiyo tumani, Toqchi qavmi, tog‘chilar, Toqchiyon, Karsh, Kundayijuvoz, Chosh, Kishtut, Hisor tog‘lari, etnogenez, etnik jarayonlar, tarixiy geografiya, etnografiya, an’anaviy xo‘jalik, chorvachilik, dehqonchilik, migratsiya jarayonlari, mahalliy madaniyat, tarixiy xotira.

Surxon vohasi O‘zbekistonning qadimiy tarixiy-madaniy hududlaridan biri bo‘lib, bu yerda asrlar davomida turli etnik guruhlar va mahalliy jamoalarning shakllanish jarayonlari kechgan. Vohadagi tog‘li hududlarda yashab kelayotgan aholi guruhlari, xususan, Toqchi qavmi vakillari o‘ziga xos tarixiy-etnografik xususiyatlari, an’anaviy turmush tarzi va madaniy merosi bilan ajralib turadi.

Bugungi kunda globallashuv, urbanizatsiya va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar natijasida kichik etnik guruhlarning an’anaviy madaniyati, tarixiy xotirasi hamda mahalliy o‘ziga xosliklarini o‘rganish dolzarb ilmiy masalalardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, Hisor tog‘lari bag‘rida joylashgan Toqchiyon, Karsh, Kundayijuvoz, Chosh, Kishtut kabi qishloqlar uzoq vaqt davomida nisbatan yopiq geografik muhitda rivojlanganligi sababli, ularda qadimiy xo‘jalik shakllari, ijtimoiy munosabatlar, uy-joy qurilishi an’analari va mahalliy urf-odatlar ma’lum darajada saqlanib qolgan.

Toqchi qavmi qishloqlarining tarixiy-etnografik jihatlarini o‘rganish nafaqat ushbu guruhning shakllanish jarayonlarini yoritish, balki Surxon vohasining umumiy etnik tarixi, migratsion jarayonlari va tog‘li hududlarda inson hamda tabiiy muhit o‘rtasidagi munosabatlarni tadqiq etish uchun ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur hududlarda saqlanib qolgan xalq og‘zaki ijodi namunalari, tarixiy xotiralar, joy nomlari, xo‘jalik faoliyati va me’moriy yodgorliklar mahalliy tarixni tiklashda qimmatli manba vazifasini bajaradi.

Shu nuqtayi nazardan, Surxon vohasidagi Toqchi qavmi qishloqlarining tarixiy-etnografik xususiyatlarini tadqiq etish, ularning hududiy joylashuvi, etnik tarkibi, an’anaviy xo‘jaligi va madaniy merosini ilmiy asosda tahlil qilish bugungi tarix va etnologiya fanining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumani hududida, Hisor tog‘ tizmasining purviqor bag‘rida qadimiy Sharg‘un maskani joylashgan. Ushbu hudud o‘zining tabiiy-geografik o‘rni, tarixiy jarayonlari hamda etnomadaniy xususiyatlari bilan alohida ahamiyatga ega. Sharg‘un 1952–1971-yillar oralig‘ida Toqchiyon nomi bilan yuritilgan bo‘lib, mahalliy aholi

xotirasida ushbu nom hozirga qadar saqlanib kelmoqda.

Sharg‘un dengiz sathidan o‘rtacha 450 metr balandlikda, tog‘lar bilan o‘ralgan hududda joylashgan. U Surxondaryo viloyatining ma’muriy markazi Termiz shahridan 193 km, Sariosiyo tumani markazidan esa 8 km masofada joylashgan. Hududning tog‘li relyefi, tabiiy boyliklari va qulay geografik joylashuvi qadimdan insonlarning yashashi, xo‘jalik faoliyati yuritishi hamda o‘ziga xos madaniy an’analarni shakllantirishiga zamin yaratgan. Hisor tog‘lari etaklarida joylashgan ushbu maskan nafaqat o‘zining tabiiy go‘zalligi, balki tarixiy-etnografik jarayonlari bilan ham e’tiborga loyiqdir. Tog‘ va vodiy uyg‘unligi bu hududda yashagan aholining turmush tarziga, xo‘jalik faoliyatiga, urf-odatlari va an’analariga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Ayniqsa, qadimdan ushbu hududda istiqomat qilib kelgan Toqchi qavmi vakillarining shakllanishi va joylashuv tarixi Surxondaryo vohasining etnik jarayonlarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

Toqchiyon qishlog‘i bugungi kunda Sariosiyo tumani Chilonzor mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibiga kiradi. Qishloq aholisi orasida saqlanib qolgan tarixiy xotiralar, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan rivoyatlar, joy nomlari va urf-odatlar mazkur hududning etnogenezini tadqiq qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur hududning tarixiy o‘tmishini chuqur o‘rganishda arxeologik manbalar, yozma ma’lumotlar, xalq og‘zaki ijodi namunalari hamda etnografik kuzatuvlardan foydalanish katta ilmiy ahamiyatga ega. Chunki Hisor tog‘lari bag‘rida joylashgan har bir qishloq va maskan o‘zida asrlar davomida shakllangan tarixiy jarayonlar, mahalliy madaniyat va xalq xotirasining bebaho namunalarini mujassam etgan.

Surxondaryo viloyatining shimoliy qismida joylashgan Sariosiyo tumani hududida qadimiy va o‘ziga xos aholi manzillaridan biri — Karsh qishlog‘i joylashgan. Ushbu qishloq Hisor tog‘lari etaklarida, murakkab tog‘ relyefi sharoitida joylashgani bilan boshqa aholi punktlaridan ajralib turadi. Karsh qishlog‘i tuman markazidan qariyb 90 km uzoqlikda joylashgan bo‘lib, unga olib boruvchi yo‘lning asosiy qismi tog‘li hududlardan o‘tadi. Qishloqqa yetib borish uchun avtomobil yo‘lining katta qismi bosib o‘tilgach, ayrim joylarda piyoda harakatlanishga to‘g‘ri keladi. Mazkur geografik jihatdan nisbatan chekka joylashuv qishloq aholisining an’anaviy turmush tarzi, urf-odatlari va madaniy xususiyatlarining uzoq vaqt davomida saqlanib qolishiga imkon yaratgan. Mahalliy aholi orasida Karsh qishlog‘ining tarixi bir necha asrlarga borib taqalishi haqida ma’lumotlar mavjud. Og‘zaki tarixiy xotiralarda qishloqning shakllanishi taxminan besh asr oldingi davr bilan bog‘lanadi. Bu holat hududda XV–XVI asrlardan boshlab doimiy aholi yashagan bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, qishloq hududida mavjud bo‘lgan qadimiy me’moriy inshootlar uning tarixini yanada chuqurroq o‘rganishni talab etadi.

Karsh qishlog‘ining muhim tarixiy obidalaridan biri sifatida mahalliy aholi tomonidan qadimiy madrasa tilga olinadi. Aholi xotirasida ushbu inshootning yoshi bir necha asrlar bilan bog‘lanadi. Mazkur madrasa haqidagi ma’lumotlar hozircha maxsus ilmiy-arxeologik tadqiqotlar bilan to‘liq tasdiqlanmagan bo‘lsa-da, uning me’moriy tuzilishi, yog‘och konstruksiyalari, eshik va deraza qismlari hamda ichki bezak elementlarining saqlanib qolganligi ushbu obidaning tarixiy-madaniy ahamiyatini ko‘rsatadi. Shu sababli mazkur inshootni arxeologik, me’moriy va tarixiy nuqtayi nazardan chuqur o‘rganish Surxondaryo tog‘li hududlari tarixini yoritishda muhim ilmiy natijalar berishi mumkin. Bugungi kunda Karsh qishlog‘ida taxminan 80 ga yaqin xo‘jalik istiqomat qiladi. Qishloq aholisining asosiy qismini tojiklar va mahalliy tog‘li aholi guruhlari tashkil etadi. Aholining xo‘jalik faoliyati asosan chorvachilik va dehqonchilikka asoslangan. Tog‘ sharoitiga moslashgan holda yuritiladigan xo‘jalik tizimida chorvachilik yetakchi o‘rin tutsa, tomorqa dehqonchiligida turli sabzavot va oziq-ovqat ekinlarini yetishtirish muhim ahamiyatga ega. Karsh qishlog‘i aholisi orasida an’anaviy ijtimoiy munosabatlar ham ma’lum darajada saqlanib qolgan. Jumladan, nikoh munosabatlarida qarindoshlik va mahalliy jamoa doirasidagi nikohlarga ustuvor ahamiyat berilishi kuzatiladi. Bunday holat tog‘li va nisbatan yopiq hududlarda yashovchi jamoalarga xos bo‘lib, ularning tarixiy-madaniy o‘ziga xosligini saqlash omillaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Qishloqning tabiiy-geografik sharoiti aholining turmush tarziga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Ayniqsa, qish faslida tog‘ hududlariga xos sovuq iqlim sharoiti kuzatiladi. Bu esa aholining uy-joy qurilishi, xo‘jalik yuritishi va kundalik hayot tarzining tabiiy muhitga moslashgan holda shakllanishiga sabab bo‘lgan. Karsh qishlog‘ining ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi. Jumladan, yo‘l infratuzilmasini yaxshilash, ta’lim va tibbiy xizmat ko‘rsatish imkoniyatlarini kengaytirish hamda aholini muqobil energiya manbalari bilan ta’minlash bo‘yicha qator ishlar amalga oshirildi. Quyosh panellarining o‘rnatilishi tog‘li va chekka hududlarda yashovchi aholining elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Karsh qishlog‘i Surxondaryo tog‘li hududlaridagi tarixiy-etnografik jihatdan o‘ziga xos maskanlardan biridir. Uning geografik izolyatsiyasi, qadimiy me’moriy yodgorliklari, xo‘jalik faoliyati va an’anaviy ijtimoiy munosabatlari Toqchi qavmi hamda Hisor tog‘lari hududida shakllangan etnomadaniy jarayonlarni o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, qishloqdagi tarixiy obidalar va xalq xotirasida saqlanib kelayotgan ma’lumotlarni ilmiy tadqiq etish ushbu hudud tarixining yangi qirralarini ochishga yordam beradi.

Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumani hududidagi tog‘li va chekka aholi manzillaridan biri — Kundayijuvoz qishlog‘i o‘zining murakkab geografik joylashuvi, an’anaviy turmush tarzi hamda tarixiy-madaniy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Qishloq Hisor tog‘lari hududida, dengiz sathidan yuqori balandlikda joylashgan bo‘lib, tabiiy sharoitning o‘ziga xosligi uning aholisi hayot tarziga bevosita ta’sir ko‘rsatgan.

Kundayijuvoz qishlog‘i Sariosiyo tumani markazidan qariyb 70 km uzoqlikda joylashgan. Ilgari ushbu hududga yetib borish uchun murakkab yo‘llarni bosib o‘tishga to‘g‘ri kelgan. Xususan, avtomobil yo‘li orqali 50 km, To‘palang daryosi bo‘ylab maxsus transport vositalarida 15 km hamda piyoda 5 km masofani bosib o‘tish talab etilgan. Mazkur holat qishloqning uzoq vaqt davomida tashqi hududlardan nisbatan ajralgan holda rivojlanganini ko‘rsatadi. Bugungi kunda To‘palang daryosining yuqori qismida yangi avtomobil yo‘lining barpo etilishi natijasida qishloqqa borish imkoniyatlari yaxshilangan. Qishloq hozirgi kunda Sariosiyo tumani “Turmushobod” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibiga kiradi. Kundayijuvozda taxminan 45 ta xo‘jalik mavjud bo‘lib, ularda 200 nafarga yaqin aholi istiqomat qiladi. Aholining kam sonli va jips joylashganligi tog‘li hududlarga xos bo‘lgan an’anaviy jamoaviy munosabatlarning saqlanishiga imkon yaratgan. Bunday hududlarda qarindoshlik rishtalari, o‘zaro yordam va mahalliy urf-odatlar kundalik hayotda muhim o‘rin egallaydi.

Qishloq aholisining hayotini ta’minlash masalalarida ham tog‘ sharoitiga moslashgan tizim shakllangan. Jumladan, tabiiy gaz tarmog‘i mavjud bo‘lmagan sharoitda aholi xonadonlari suyultirilgan gaz ballonlari bilan ta’minlanib kelinmoqda. “Sariosiyotumangaz” gaz ta’minoti bo‘limi tomonidan xonadonlarga belgilangan tartib asosida maishiy gaz ballonlari yetkazib berilishi aholining kundalik ehtiyojlarini qondirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kundayijuvoz qishlog‘ining tarixiy-etnografik jihatdan e’tiborga molik jihatlaridan biri — bu yerda qadimiy uy-joylarning saqlanib qolganligidir. Mahalliy aholining ma’lumotlariga ko‘ra, qishloqda 100 yildan ortiq tarixga ega bo‘lgan an’anaviy uylar mavjud. Ushbu uy-joylar nafaqat yashash maskani, balki tog‘li hudud aholisi qurilish tajribasi, me’moriy an’analari va turmush tarzining tarixiy namunasi sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Ularning tuzilishi, qurilish materiallari va joylashish uslubi mahalliy aholining tabiiy muhitga moslashuv jarayonlarini o‘rganishda qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi. Qishloqning xo‘jalik hayoti ham tabiiy-geografik sharoit bilan chambarchas bog‘liq. Tog‘li hududlarda yashovchi aholi an’anaviy ravishda chorvachilik, kichik hajmdagi dehqonchilik va tabiiy resurslardan foydalanishga asoslangan xo‘jalik yuritish shakllarini rivojlantirib kelgan.

Kundayijuvoz qishlog‘i Sariosiyo tumanining o‘ziga xos tarixiy-etnografik maskanlaridan biri hisoblanadi. Uning tog‘lar bag‘ridagi noyob geografik joylashuvi, aholining an’anaviy turmush tarzi, qadimiy uy-joylari va mahalliy madaniy xususiyatlari Surxon vohasining tog‘li hududlarida shakllangan etnomadaniy jarayonlarni o‘rganishda muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumani hududidagi tog‘li va chekka aholi manzillaridan biri — Chosh qishlog‘i o‘zining geografik joylashuvi, etnomadaniy xususiyatlari va an’anaviy xo‘jalik faoliyati bilan ajralib turadi. Qishloq tuman markazidan qariyb 110 km uzoqlikda, Hisor tog‘ tizmalari bag‘rida joylashgan bo‘lib, tabiiy sharoitning murakkabligi uning aholisi turmush tarzida o‘ziga xos xususiyatlarning shakllanishiga sabab bo‘lgan. Chosh qishlog‘i fuqarolar yig‘ini tarkibida bir nechta kichik qishloqlar mavjud bo‘lib, hududda jami 1650 nafardan ortiq aholi istiqomat qiladi. Qishloqlarning tog‘li hududda joylashganligi uzoq vaqt davomida aholining tashqi aloqalarini cheklagan. Natijada mahalliy jamoa doirasidagi ijtimoiy munosabatlar, qarindoshlik aloqalari va an’anaviy nikoh tizimlari nisbatan uzoq vaqt saqlanib qolgan. Xususan, XX asr oxirigacha ichki nikoh (endogamiya) holatlarining keng tarqalganligi hududning geografik jihatdan nisbatan yopiq bo‘lganligi bilan izohlanadi. XXI asr boshlaridan boshlab transport va ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi natijasida Chosh aholisi boshqa hududlar bilan faolroq munosabatga kirisha boshlagan. Jumladan, yaqin hududlarda istiqomat qiluvchi turli etnik guruhlar bilan quda-andachilik aloqalarining shakllanishi natijasida aholining ijtimoiy va madaniy munosabatlari kengaygan. Bu jarayon qishloq aholisining madaniy almashinuvi va etnomadaniy jarayonlarining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatgan.

Chosh qishlog‘i aholisining etnik tarkibida tog‘lik aholi guruhlari va tojiklar asosiy o‘rin tutadi. Mahalliy aholi orasida urug‘-qabila nomlaridan ko‘ra, asosan yashash joyiga asoslangan nomlanish an’anasi uchraydi. Jumladan, choshliklar, Xovatliklar, Kishtutliklar, Karshliklar kabi atamalar hududiy mansublikni ifodalovchi etnonim sifatida qo‘llanadi. Bu holat tog‘li hududlarda yashovchi jamoalarga xos bo‘lgan mahalliy o‘zlikni anglash shakllaridan biri hisoblanadi. Qishloq aholisi xotirasida esa Chosh va unga yaqin hududlarda yashovchi aholining kelib chiqishi Toqchi qavmi bilan bog‘lanadi. Aholi vakillari tomonidan yozilgan ayrim tarixiy va adabiy asarlarda o‘zlarini “toqchilar” avlodidan ekanligi qayd etilgan. Shuningdek, ayrim oilalarning tarixiy migratsiya jarayonlari, jumladan, Afg‘onistonning Qunduz viloyatiga ko‘chib borishlari va keyinchalik yana Surxondaryo hududlariga qaytib kelishlari haqidagi ma’lumotlar mahalliy etnik tarixni o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu ma’lumotlar arxiv hujjatlari, og‘zaki tarix materiallari va etnografik tadqiqotlar asosida yanada chuqur o‘rganishni talab etadi.

Chosh qishlog‘ining xo‘jalik hayotida bog‘dorchilik muhim o‘rin egallaydi. Ayniqsa, olma yetishtirish qishloq aholisining asosiy daromad manbalaridan biri hisoblanadi. Mahalliy sharoitga moslashgan olma navlari Sariosiyo tumani bozorlarida ham mashhur bo‘lib, qishloq xo‘jaligining ushbu tarmog‘i hudud iqtisodiy barqarorligiga katta hissa qo‘shadi. Chorvachilik sohasida esa yilqichilik va echkichilik an’analari saqlanib qolgan bo‘lib, ular tog‘ sharoitida aholining muhim xo‘jalik faoliyatlaridan biri hisoblanadi. Qishloqning tog‘li relyefi transport tizimiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Avvallari va hozirgi kunda ham ayrim hududlar o‘rtasidagi qatnovlarda ot va eshak kabi an’anaviy transport vositalaridan foydalaniladi. Bu holat nafaqat xo‘jalik faoliyatini tashkil etishda, balki qishloqlararo ijtimoiy aloqalarni saqlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chosh qishlog‘i Sariosiyo tumanining tarixiy-etnografik jihatdan muhim maskanlaridan biridir. Uning tog‘li geografik joylashuvi, aholining etnik-madaniy xususiyatlari, an’anaviy xo‘jalik faoliyati va tarixiy xotira namunalari Toqchi qavmi hamda Surxon vohasining tog‘li hududlarida shakllangan etnomadaniy jarayonlarni o‘rganishda katta ilmiy ahamiyatga ega.

Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumani hududidagi qadimiy tog‘li aholi maskanlaridan biri bu Kishtut qishlog‘i o‘zining tabiiy-geografik o‘rni, gidrologik xususiyatlari hamda aholining tarixiy ko‘chish jarayonlari bilan ajralib turadi. Kishtut nomi nafaqat To‘polondaryoning yirik chap irmoqlaridan biri sifatida, balki XX asr oxiri — XXI asr boshlarigacha tog‘chilar yashab kelgan qishloq nomi sifatida ham ma’lum bo‘lgan.

Kishtut qishlog‘i Sariosiyo tumani markazidan qariyb 110 km uzoqlikda, Hisor tog‘lari bag‘rida joylashgan. Hududning murakkab tog‘ relyefi, tabiiy sharoiti va suv manbalarining mavjudligi bu yerda qadimdan insonlarning yashashi va xo‘jalik faoliyati olib borishida muhim omil bo‘lgan. Tog‘li muhit aholining turmush tarziga, xo‘jalik yuritish

shakllariga hamda ijtimoiy munosabatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Kishtut daryosi Hisor tog‘ tizmasining janubi-g‘arbiy yon bag‘irlaridagi kichik muzliklardan boshlanadi. Daryoning uzunligi 50 km, havzasining umumiy maydoni esa 719 km² ni tashkil etadi. Daryoning yuqori oqim qismida vodiylar baland va tik bo‘lib, ayrim joylarda tor daralar ko‘rinishida davom etadi. Quyi oqim tomon esa vodiy kengayib, yon bag‘irlar nisbatan yotiq va qulay hududlarga aylanadi. Kishtut havzasining tabiiy sharoiti uning suv rejimini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Hududda yog‘ingarchilik miqdorining ko‘pligi hamda kichik muzliklarning mavjudligi daryoning doimiy suv bilan ta’minlanishiga imkon yaratadi. Daryo asosan qor, muzlik va yomg‘ir suvlaridan to‘yinadi. Suv sathi bahor oylaridan boshlab ko‘tarilib, may-iyun oylarida eng yuqori darajaga yetadi. Keyingi davrlarda esa suv miqdori asta-sekin kamayadi. Kishtut suvlari To‘polondaryoga qo‘shilib, Surxon vohasidagi sug‘orish tizimlari uchun muhim tabiiy resurslardan biri hisoblanadi.

Kishtut qishlog‘ining tarixiy taqdirida tabiiy sharoit, xususan, daryo faoliyati katta ahamiyat kasb etgan. Mahalliy aholi ma’lumotlariga ko‘ra, qishloqda yashagan taxminan 1000 nafarga yaqin aholi keyinchalik Uzun tumani hududidagi Bog‘cha qishlog‘iga ko‘chirilgan. Ushbu migratsiya jarayonining asosiy sabablaridan biri Kishtut daryosining mavsumiy sel hodisalari bilan bog‘liq bo‘lgan. Tog‘ daryolariga xos keskin suv ko‘tarilishi va o‘zan yo‘nalishining o‘zgarishi aholi yashash joylari uchun xavf tug‘dirgan. Shuningdek, aholining ko‘chirilishi hududiy rivojlanish va yangi yerlarni o‘zlashtirish siyosati bilan ham bog‘liq bo‘lgan. Tog‘li hududlarda shakllangan dehqonchilik va chorvachilik tajribasiga ega bo‘lgan aholini yangi hududlarga joylashtirish orqali qishloq xo‘jaligi imkoniyatlarini kengaytirish maqsad qilingan. Kishtut qishlog‘i misolida tabiat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik yaqqol namoyon bo‘ladi. Tog‘ relyefi, suv manbalari va tabiiy xavf omillari nafaqat aholi xo‘jalik faoliyatiga, balki demografik jarayonlar va hududiy migratsiyalarga ham bevosita ta’sir ko‘rsatgan.

Sariosiyo tumanining tog‘li hududlarida joylashgan Xovat, Hamidaricha, Tamarhud, Kunko‘rmas va Sarinavo qishloqlari aholisi orasidan jami 700 ga yaqin oila — tog‘chilar vakillari keyinchalik Sherobod tumani hududidagi yangi o‘zlashtirilayotgan yerlarga ko‘chirilgan. Ushbu migratsiya jarayoni nafaqat demografik o‘zgarish, balki mintaqaning iqtisodiy rivojlanishida ham muhim bosqichlardan biri bo‘lgan.

Ko‘chirish jarayonining asosiy maqsadlaridan biri Sherobod tumanidagi cho‘l hududlarni o‘zlashtirish, yangi qishloq xo‘jaligi maydonlarini tashkil etish va sug‘oriladigan yerlar salohiyatidan samarali foydalanishdan iborat edi. Tog‘li hududlarda shakllangan chorvachilik va dehqonchilik tajribasiga ega bo‘lgan aholi yangi hududlarda ham xo‘jalik faoliyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynagan.

Bugungi kunda ushbu oilalarning bir qismi Sherobod tumani hududidagi Istiqlol mahalla fuqarolar yig‘ini hududida istiqomat qiladi. Ularning ko‘chirilishi natijasida bir tomondan tog‘li hududlardagi aholi zichligi kamaygan bo‘lsa, ikkinchi tomondan yangi hududlarning iqtisodiy o‘zlashtirilishiga sharoit yaratilgan.

Kishtut qishlog‘i va unga yaqin tog‘li hududlarda yashagan tog‘chi aholi tarixi Surxondaryo viloyatidagi tabiiy muhit, etnik jarayonlar va migratsiya hodisalarining o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ushbu hududlarni o‘rganish orqali nafaqat qishloq tarixini, balki Toqchi qavmi va tog‘li aholi guruhlarining shakllanishi, joylashuvi hamda madaniy merosini chuqurroq anglash mumkin.

Surxon vohasidagi Toqchi qavmi qishloqlarini tarixiy-etnografik jihatdan o‘rganish ushbu hudud aholisining shakllanish jarayonlari, an’anaviy turmush tarzi va madaniy merosini yoritishda muhim ahamiyatga ega. Toqchiyon, Karsh, Kundayijuvoz, Chosh va Kishtut kabi qishloqlar misolida tog‘li hududlarda shakllangan xo‘jalik faoliyati, ijtimoiy munosabatlar va tarixiy xotiraning o‘ziga xos jihatlari namoyon bo‘ladi. Mazkur hududlarni chuqur tadqiq etish Surxon vohasining etnik tarixi va mahalliy madaniy jarayonlarini yanada kengroq anglash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. С.Турсунов, Қ,Рашидов “Бойсун” Академнашр нашриёти, 2011. – 216-бет
2. Rahmatulloh Shohimardonov “Dehai Bibishirin va zodagoni sarbalandi on”, Surxon-nashr-2023. 72-bet
3. Рўзимурод Қаландаров “Панжоб ва панжобликлар тарихи” Жайхун нашриёти Термиз – 1997 йил 92-бет
4. Абдурасулов А. Алачопоним менинг. – Тошкент: Тафаккур нашриёти, 2014. – 125 б.
5. Аширов А. Ўзбекларнинг самовий қарашлари // Сирли олам. – Тошкент, 2002. – №4. – Б. 16–17.
6. Бўриев О., Хўжамбердиев Т. Этнология атамаларининг қисқача изоҳли луғати. – Қарши: Насаф, 2003. – 112 б.
7. Носирова З. Бойсун нақшларида баҳор ифори // Мозийдан садо. – 2009. – №1. – С. 117–119.
8. Турсунов С., Пардаев Т., Махмадиёрова Н. Сурхандарё – этнографик макон. – Т.: Академнашр, 2012. – С. 232.
9. Рахмонов М.Х. Тоғчи қавмларида чорва билан боғлиқ удумлар // Давр, замон, шахс (Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаёти: тарихий таҳлиллар мавзусидаги мақолалар тўплами). – Тошкент: “Тафаккур”, 2020. – Б. 308–314.
10. Raxmonov M.X. Surxon vohasi Toqchi qavmining an’anaviy turmush tarzi // *Modern Science and Research.* – Volume 2, Issue 4. – 2023 – UIF: 8.2. – DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.7880143. 720–722-betlar.
11. Rakhmonov M.X. The Famous Chopogan of Takchi Residents of Alachopon // *European Journal of Learning on History and Social Sciences.* – Volume 1, Issue 5. – 2024. – DOI: https://doi.org/10.61796/ejlhss.v1i5.548. – P. 42–44. – Published by Silkroad Science Publishers (Portugal). (07.00.00; № 26).
12. Raxmonov M.X. Surxon vohasi Boysun tumani Panjob qishlog‘i aholisining nomoddiy madaniyatidan // *Tamaddun nuri (The Light of Civilization).* – 2024-yil, 6-son (57). 78–81-betlar. (07.00.00; № 35).
13. https://uz.wikipedia.org/wiki/Sharg%CA%BBun

SOVET MAFKURAVIY SIYOSATINING MILLIY ADABIY JARAYONLARGA TA’SIRI

CHORIYEV SANJAR HAMZAEVICH

Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasi o‘qituvchisi,
choriyevsanjar77@gmail.com
+99899 716-91-08

Annotatsiya / Аннотация / Abstract
Mazkur maqolada sovet hokimiyati davrida adabiyot va san’at sohasida amalga oshirilgan mafkuraviy siyosat, lenincha partiyaviylik prinsipi hamda uning o‘zbek adabiy-madaniy muhitiga ko‘rsatgan ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, markscha-lenincha ta’limot asosida adabiyot va san’atning siyosiy vositaga aylantirilishi, kommunistik partiyaning ijodiy jarayonlar ustidan nazorati hamda sovet yozuvchilarining jamiyat hayotidagi o‘rni ilmiy jihatdan yoritilgan.

В статье анализируются идеологическая политика советской власти в сфере литературы и искусства, ленинский принцип партийности и его влияние на узбекскую литературно-культурную среду. Освещаются вопросы партийного руководства литературой и искусством, роль марксистско-ленинского учения в формировании культурной политики и место советских писателей в общественной жизни.
This article analyzes the ideological policy implemented by the Soviet government in the sphere of literature and art, the Leninist principle of partisanship, and its influence on the Uzbek literary and cultural environment. The study examines the transformation of literature and art into instruments of ideological influence, the control of the Communist Party over creative processes, and the role of Soviet writers in public life.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords
sovet mafkurasi, partiyaviylik prinsipi, kommunistik partiya, adabiyot va san’at, sovet yozuvchilari, marksizm-leninizm, mafkuraviy targ‘ibot, madaniy siyosat.
советская идеология, принцип партийности, коммунистическая партия, литература и искусство, советские писатели, марксизм-ленинизм, культурная политика.
Soviet ideology, principle of partisanship, Communist Party, literature and art, Soviet writers, Marxism-Leninism, ideological propaganda, cultural policy.

Sovet hokimiyati davrida madaniyat, adabiyot va san’at sohalari kommunistik mafkuraning muhim tarkibiy qismi sifatida qaralgan. Davlat tomonidan olib borilgan madaniy siyosatning asosiy maqsadi adabiyot va san’at vositasida jamiyatni mafkuraviy jihatdan tarbiyalash hamda kommunistik g‘oyalarni keng ommaga singdirishdan iborat bo‘lgan. Shu sababli sovet davrida barcha ijodiy faoliyat kommunistik partiya nazoratida bo‘lgan. Kommunistik partiya adabiyot va san’at millionlab kishilar uchun ilhom manbai bo‘lishi, ularning dunyoqarashini shakllantirishi hamda kommunistik tarbiya vositasi sifatida xizmat qilishi lozim deb hisoblagan. Sovet mafkurachilarining fikricha, adabiyot va san’at inson ruhiyatining eng nozik jihatlariga ta’sir ko‘rsatib, yangi sovet kishisini shakllantirishda muhim qurol vazifasini bajarishi kerak edi.

Shu bois sovet davlatining barcha davrlarida mafkuraviy siyosatga alohida e’tibor qaratilgan. Ayniqsa, V.I. Lenin tomonidan adabiyot va san’at masalalariga katta ahamiyat berilganligi sovet madaniy siyosatining nazariy asosini tashkil etdi. Lenin «umumiy g‘oyaviy jihatdan pishiq, revolyutsion sotsial-demokratiyani birlashtira oladigan adabiyot va san’atni yaratish» zarurligini ta’kidlagan va bu g‘oya keyinchalik sovet madaniyat siyosatining muhim tamoyiliga aylangan [1, 393-b.].

Sovet hokimiyati adabiyot va san’atning partiyaviyligini uning eng muhim mezoni sifatida belgiladi. Adabiy va badiiy asarlar kommunistik mafkuraga xizmat qilishi, jamiyatni sotsialistik qurilish g‘oyalari asosida tarbiyalashi talab etildi. Bu jarayon kommunistik partiyaning madaniyat ustidan mafkuraviy nazoratini yanada kuchaytirdi.

Partiya syezdlari va Markaziy Komitet qarorlarida adabiyot va san’atning xalqchil va partiyaviy bo‘lishi zarurligi muntazam ravishda ta’kidlab borildi. KPSS dasturida adabiyot va san’atning asosiy vazifasi xalq turmushi bilan aloqani mustahkamlash, sotsialistik voqelikni haqqoniy aks ettirish va kommunistik jamiyat qurilishiga xizmat qilishdan iborat ekanligi qayd etilgan [2, 133-b.].

Sovet mafkurasi nuqtai nazaridan adabiyot va san’atda partiyaviylik partiya manfaatlariga sodiqlik, kommunizm g‘oyalarini targ‘ib qilish va yosh avlodni kommunistik ruhda tarbiyalashni anglatgan. Shu sababli ijodkorlardan partiya siyosatiga mos asarlar yaratish talab qilingan. Kommunistik partiya esa bunday ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning faoliyati uchun zarur sharoitlar yaratish siyosatini olib borgan.

Adabiyot va san’atning partiyaviyligi haqidagi nazariyaning shakllanishida V.I. Leninning qarashlari alohida o‘rin tutadi. Uning 1905-yilda yozilgan “Partiya tashkiloti va partiya adabiyoti” asari sovet madaniyat siyosatining nazariy manbalaridan biri hisoblanadi.

Mazkur asarda Lenin adabiyotning jamiyat hayotidagi o‘rnini tahlil qilib, uning siyosatdan xoli bo‘lishi mumkin emasligini asoslashga harakat qilgan. U “sof san’at” g‘oyasini ilgari suruvchi ijodkorlarni tanqid qilib, ularning amalda burjua mafkurasiga xizmat qilayotganini ta’kidlagan [3, 36-b.].

Lenin fikricha, proletar adabiyoti umumproletar ishining tarkibiy qismi bo‘lishi, ishchilar sinfining siyosiy kurashiga xizmat qilishi kerak edi. U adabiyotni “yagona sotsial-demokratik mexanizmning parrak va vintchasi” sifatida baholagan [4, 36-b.]. Aynan shu yondashuv keyinchalik sovet adabiyoti va san’atining asosiy metodologik tamoyiliga aylandi.

Sovet davrida barcha ittifoqdosh va avtonom respublikalarda yozuvchilar uyushmalari tashkil etildi. Mazkur tashkilotlar kommunistik partiyaning madaniyat sohasidagi siyosatini amalga oshiruvchi muhim institutlardan biri sifatida faoliyat yuritdi. Yozuvchilar uyushmalari orqali ijodkorlar faoliyati nazorat qilinar, adabiy jarayonlar partiya siyosati bilan muvofiqlashtirib borilar edi. Sovet yozuvchilari kommunizm quruvchisi bo‘lgan yangi inson obrazini yaratish, mehnatkashlar hayotini tasvirlash va partiya siyosatini targ‘ib qilishni o‘zlarining asosiy vazifalaridan biri deb hisoblaganlar.

XX asrning 20-yillarida o‘zbek adabiyotini nafaqat SSSR xalqlariga, balki butun rivojlangan insoniyatga tanishtirishda o‘zbek yozuvchi va shoirlarining asarlarining boshqa tillarga tarjima qilinishi juda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Masalan, O‘zbekiston Davlat kitob palatasi tomonidan tuzilgan ro‘yxat bo‘yicha, bu davrda sovet respublikalarida o‘zbek adiblarining bir qator asarlari milliy tillarda nashr qilinganini kuzatish mumkin. Bunday asarlarga S.Ayniyning “Buxoro jallodlari”, “Ozodlik marshi”, Hamzaning “Yasha Sho‘ro!”, “Berma erkingni qo‘lingdan”, “Boy ila xizmatchi”, G‘.G‘ulomning “Ikki sado”. “Tirilgan murda” va boshqa yozuvchilarning asarlari misol bo‘ladi. Lekin O‘zbekiston tub aholisini madaniy jihatdan qoloq deb hisoblagan hamda uni birinchi navbatda rus madaniyati bilan chuqur tanishtirish maqsadida Ittifoq rahbariyati rus va boshqa sovet yozuvchilarining asarlarini o‘zbek, tojik va boshqa tillariga tarjima qilinishi va chop etilishiga alohida ahamiyat berganligini 1919-yilda chiqarilgan “Revolyutsion she’riyat antologiyasi” to‘plamidan boshlab o‘n yil davomida ikki to‘plam va 70 dan ortiq mualliflarining 130 ta badiiy asarlari tarjima qilingan va nashr etildi.[5, 34-b.]Bu asosida rus adabiyotini yutuqlarni mahalliy o‘zbek kitobxonlariga singdirish tufayli milliy adabiyot rivojiga jiddiy to‘sqinlik qilindi. Chunki, mahalliy o‘zbek yozuvchilari va shoirlarini asarlari “eskilik sarqiti”, “inqilob dushmanlarni ichki kechinmalarni yoritib, davlat siyosatiga qarshilik qilmoqda degan “tazyiqlar” o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

Sovet adabiyoti vakillari zamonning dolzarb masalalarini badiiy jihatdan yoritishga intilgan bo‘lsalar-da, ularning faoliyati mafkuraviy mezonlar bilan chegaralangan edi. Adabiy asarlarning badiiy qiymatidan ko‘ra ularning siyosiy va mafkuraviy mazmuniga ko‘proq e’tibor qaratilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sovet hokimiyati davrida adabiyot va san’at kommunistik mafkuraning muhim vositasiga aylantirilgan. Lenincha partiyaviylik prinsipi sovet madaniy siyosatining asosiy tamoyili sifatida shakllanib, ijodiy jarayonlarning yo‘nalishini belgilab bergan. Kommunistik partiya adabiyot va san’atni jamiyatni mafkuraviy tarbiyalash vositasi sifatida ko‘rgan va bu sohada qat’iy nazorat tizimini shakllantirgan. Natijada sovet adabiyoti va san’ati partiya siyosatini targ‘ib etuvchi muhim institutga aylangan. Shu bilan birga, ushbu tajribani zamonaviy tarixshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganish sovet davri madaniy siyosatining mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Lenin V.I. Asarlar. 4-tom. – Toshkent: O‘zdavnashr, 1958. – 656 b.
2. Sovet Ittifoqi Kommunistik partiyasining Programmasi. – Toshkent: Davlat nashriyoti, 1961. – 144 b.
3. Lenin V.I. Asarlar. 10-tom. – Toshkent: O‘zdavnashr, 1959. – 720 b.

4. Doniyorov X., Mirzayev S., Shermuhammedov S. Adabiyot va san’atda lenincha partiyaviylik prinsiplari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1973. – 208 b.
5. “Совет мактаби” Ўзбекистон ССР Маориф министрлигининг ойлик илмий-методик журнали. 1984 йил 8-сон. 1987 йил, 11 ноябрь.-Б.34.

TURK XOQONLIGI DAVRIDA DAVLAT BOSHQARUVI

ABDUHOLIQOVA MAFTUNA RAHMATULLA QIZI

SULAYMONOVA SH.A.

CHDPU Gumanitar fanlar fakultetuti
Tarix yo’nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy raxbar[*maftunaabduholiqova2@gmail.com*](mailto:maftunaabduholiqova2@gmail.com)
+998936372209

Annotatsiya / Аннотация / Abstract
VI asr o‘rtalarida Markaziy Osiyoda shakllangan Turk xoqonligi o‘z davrining eng yirik davlatlaridan biri hisoblangan. Bu davlatga Bumin xoqon tomonidan asos solingan bo‘lib, qisqa muddatda keng hududlarni zabt etgan Ushbu maqolada Turk xoqonligi davrida davlat boshqaruv tizimi, siyosiy tuzilma va ijtimoiy-harbiy tashkilot masalalari tahlil qilinadi.
Тюркский каганат, сформировавшийся в Центральной Азии в середине VI века, считался одним из крупнейших государств своего времени. Основанием этого государства был Буминский каган, завоевавший обширные территории за короткий период времени. В данной статье анализируются вопросы системы государственного управления, политической структуры и социально-военной организации в период Тюркского каганата.
The Turkic Khaganate, which formed in Central Asia in the middle of the 6th century, was considered one of the largest states of its time. This state was founded by the Bumin Khagan, who conquered vast territories in a short period of time. This article analyzes the issues of the state administration system, political structure, and socio-military organization during the Turkic Khaganate.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords
Turk xoqonligi, xoqon hokimiyati, yabg’u, ulus tizimi, merosxo‘rlik tartibi, tegin, mahalliy sulolalar.
Тюркский каганат, власть каганата, Ябгу, система Улус, порядок наследования, Тегин, местные династии.
Turkic Khaganate, Khaganate power, Yabgu, Ulus system, order of inheritance, Tegin, local dynasties

Ilk o‘rta asrlar davrida Yevrosiyo dasht hududlarida shakllangan Turk xoqonligi siyosiy va harbiy jihatdan qadratli davlatlardan biri edi. Ushbu davlat nafaqat keng hududlarni birlashtirgan, balki o‘ziga xos boshqaruv tartibini ham yaratgan edi. Xoqonlikda qabila va elatlarni birlashtirish va boshqarish, soliqlar, va o‘lponlarni yig’ib olish uchun maxsus ma’muriy va harbiy-siyosiy boshqaruv tizimi joriy etilgan.

Qadimgi turk afsonalarida berilishicha, turklarning taassavuriga ko‘ra, davlatchilikning markazi, davlatni o‘z qo’lida birlashtiruvchi shaxs xoqon hisoblangan. Xoqondan keyin turuvchi birinchi amaldor „yabg’u’’ bo’lib, u bosh sarkarda hisoblangan. Ammo yabg’u taxtga merosxo‘rlik qila olmas edi. Turkiy xoqonligi davrida vorislik tartibi turk davlatchiligi tuzilishi uchun xos uluslarga bo‘linish tizimiga asoslanib belgilanardi. Ushbu tizimga ko‘ra taxt aksariyat hollarda otadan o‘g’ilga emas, akadan ukaga, amakidan jiyanga meros qolar edi. Taxt merosxo‘ri esa tegin (shahzoda) deb yuritilgan.

Shahzodalar to taxtga o‘tirgunlariga qadar o‘zlariga berilgan uluslarni boshqarib turishgan.

O‘rta Osiyodagi mahalliy hokimlarning faoliyatini nazorat qiluvchi amaldor, xoqonning nazoratchisi “tudun” deb atalgan.

Turkiy xoqonligi konfederativ davlat bo’lgan. Turkiylar o‘z yurtini va davlatini “el” deb atashgan. Birinchi turk xoqoni Bumin xoqon “Elxon” unvoniga ega bo‘lganligi bejiz emas.

Davlatni boshqarishda oliy hukmdorning yaqin qarindoshlari, zodagonlar va mansabdorlar katta rol o‘ynagan. Manbalarning ma’lumot berishicha, u to‘rtga bo‘lingan: ya’ni, qarindoshlar, xoqonga itoatdoshlik qilgan qabila va xalqlar, xoqonning o‘ng tomonida o‘tiruvchi amaldorlar va ma’muriy xodimlar; xoqonning chap tomonida o‘tiruvchi amaldorlar va xodimlar va xoqonning chap tomonida turuvchi amaldor va xodimlardan iborat bo’lgan. Xoqonning qarindoshlari — o‘g’illari, amakisi, jiyanlari va aka-ukalariga ,,tegin’’ unvoni berilgan. Xitoy manbalarida ma’lumot berilishicha, xoqonlikda beshta oliy mansab – exu (yabg’u), she (shod), dele (tegin), silifa (eltabar) va tutunfa (tudun) kabi lavozimlar mavjud bo‘lib, ularning barchasi meros qilib qoldirilgan.

Xoqonlikning markaziy boshqaruv tizimi asosan davlat osoyishtaligini saqlash, davlat sarhadlarini kemgaytirish, soliq tizimi, ichki va tashqi savdo, diplomatik munosabatlar va boshqalar bilan mashg’ul bo‘lib, bosib olingan hududlardagi boshqaruv tizimiga ma’lum darajada erkinlik bergan.

Shuning uchun ham Farg’ona, Sug’d, Shosh, Toxariston, Xorazm va boshqalardagi boshqaruv tartib asosan mahalliy sulolalar qo’lida bo’lgan. Misol uchun, Sug’d va Farg’onada oliy hukmdor — “ixshid”, Toxaristonda — “malikshoh”, Xorazmda — “xorazmshoh”, Keshda — “ixrid”, Buxoroda — “xudot”, Ustrushonada — “afshin”, Choch va Iloqda — “budun” deb atalgan.

Turkiy xoqonlik davrida Sug’d hududlariga hozirgi Panjikentdan Karmanagacha bo‘lgan yerlar kirgan. Buxoro esa VII asrdan boshlab mustaqil mulklar ittifoqidan iborat bo‘lgan. Sug’dning mahalliy hokimlari ayrim vaqtlarda Choch va Xorazmning mustaqil hukmdorlari bilan birlashardi. Bunday yirik siyosiy birlashmalar ma’lum muddatlarda yirik shaharlarda o‘z qurultoylarini o‘tkazib turishgan.

Farg’ona Sug’d siyosiy ittifoqqa kirmagan bo‘lib, u alohida mustaqil davlat edi. Uni afshin boshqargan bo‘lib, Farg’ona hukmdori bilan o‘zaro aloqada bo‘lishgan. Xorazm boshqa mulklarga nisbatan ancha mustaqil edi. Mamlakatni Afrig’iylar sulolasiga mansub podshohlar boshqargan.

Ta’kidlash lozimki, Turk xoqonligi ma’lum darajada to‘liq ishlab chiqilgan jinoiy qonunchilikka ega bo‘lgan. Sodir etilgan jinoyat uchun jazolarning asosiy turlari — qatl etish, odam a’zolarini kesib tashlash, zararni to‘lash, mol-mulk tarzida tovon to‘lashdan iborat edi. Misol uchun, manbalarning ma’lumot berishicha, o‘lim jazosi davlatga qarshi jinoyatlar (isyon ko‘tarish, sotqinlik) hamda nohaq yoki qasddan odam o‘ldirganlik uchun berilgan.

O‘g’rilik qilgan yoki buzuqlik qilgan shaxsning qo‘li yoki oyog’i kesilgan. Shaxsga qarshi qaratilgan boshqa jinoyatlar yetkazilgan zararni o‘n barobar qilib to‘lash, jarohat yetkazgani yohud mayib qilgani uchun mol-mulk tarzida tovon to‘lash, qizini, xotinini qul qilib berish, suyagini sindirganlik uchun esa ot berish yo‘li bilan jazolangan.

Turk xoqonligi davrida davlat boshqaruvi tizimi markazlashgan hokimiyat, harbiy tashkilot va an’anaviy huquqiy me’yorlar asosida shakllangan. Ushbu tizim davlatning uzoq vaqt davomida barqaror faoliyat yuritishiga imkon bergan va keyingi turkiy davlatlar uchun muhim tajriba vazifasini bajargan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. O‘zbekiston tarixi I kitob. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik – Toshkent ,,Donishmandlar ziyosi’’ 2021.
2. O‘zbekiston tarixi 7 – sinflar uchun darslik – Toshkent. Respublika ta’lim markazi 2022.
3. Azamat Ziyo ,,O‘zbek davlatchiligi tarixi’’ – Toshkent. ,,Sharq nashriyoti’’. 2000.

BUXORODAGI – “ULUG‘BEK MADRASASI”

ERGASHEVA JASMINA SALOHIDDIN QIZI

CHDPU Gumanitar fanlar fakultetuti
Tarix yo’nalishi 1-bosqich talabasi

SULAYMONOVA SH.A.

Ilmiy raxbarmaftunaabduholiqova2@gmail.com
+998936372209

Annotatsiya / Аннотация / Abstract
Ushbu maqolada Temuriylar davlatining buyuk hukmdorlaridan biri bO‘lgan Mirzo Ulug‘bek davrida Buxoro shahrida barpo etilgan madrasa, uning faoliyati, madrasaning umumiy kO‘rinishi, arxitekturasi, u yerda o‘qitilgan fanlar haqida ma`lumot beriladi.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords
Mirzo Ulug‘bek, madrasa, ta’lim, Najmiddin Buxoriy, ravoq, masjid, peshtoq.

Ta’limga e’tibor, ilm fanga homiylik temuriylar davlatida davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Sohibqironning saltanat ma’murlari oldiga “Katta kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsinlar”; “Mudarrislar va shayxlarga kundalik maoshlarini belgilasinlar”; “Sayidlar, ulamo, mashoyix, fuzalo, ulug‘larni aziz tutsinlar”, degan vazifani qo‘yganligi “Temur tuzuklari”da ham aks etgan. Sohibqironning bu topshirig‘i tabiiyki butun saltanat doirasida ijro etilgan. “Musulmonlarga diniy masalalardan ta’lim berib, shariat aqidalari va islom dini ilmlaridan tafsir, hadis, fiqhdan dars bersinlar deb, har bir shaharga olimlar va mudarrislar tayin qildim”; “Sayidlar, ulamo, mashoyix, oqilu donolar, muhaddislar, tarixchilarni sara, e’tiborli odamlar hisoblab, izzatu hurmatlarini o‘rniga qo‘ydim”, deya ta’kidlaydi Sohibqiron o‘z tuzuklarida.[1]

Barchamizga ma`lumki, islom olamida madrasalarning islom madaniyatidagi ahamiyati beqiyos. Yurtimizdan yetishib chiqqan ko‘plab buyuk mutafakkirlar aynan madrasalarda tahsil olishgan. Madrasalarda ta`lim olgan talabalar o‘qish jarayoni bilan cheklanib qolmasdan, bo‘sh vaqtlarida hunar egallash bilan ham mashg‘ul bO‘lishgan. Amir Temur va Temuriylar davrida, xususan, Mirzo Ulug‘bek hukmronligi davrida uning sa’yi-harakatlari bilan madrasalar faoliyati yangi bosqichga kO‘tariladi. Ilm izlanuvchilarning ahvoli yaxshilandi. Bu esa yangi iste’dodlarning yetishib chiqishlariiga sabab bO‘ladi.

Ulug‘bek yoshligidanoq ilmiy olishga ishtiyoqi baland bO‘lgan. Shuning uchun ham ilm-fanga homiylik qilib kelgan. Ulug‘bek madrasasining bunyod etilishi ham yuqoridagi fikrlarning isbotidir.

Mirzo Ulug‘bek hukmronligi davrida Movarounnahrda ilm-fan va maorif faol rivojlandi. Ulug‘bek ma’rifiy faoliyat bilan shug‘ullanib, mamlakatimizning turli shaharlarida, jumladan, Buxoro, Samarqand va G‘ijduvonda o‘zining qat’iy islomiy tamoyillari bilan ko‘plab mashhur madrasalar barpo etgan. Buxorodagi madrasasi Samarqand va G‘ijduvondagi madrasalardan ham avvalroq qurilgan.

O‘rta asrlarda Buxorodagi barcha madrasalar nafaqat Movarounnahr, balki butun musulmon olamida ham mashhur bO‘lgan.

Ulug‘bek madrasasi buyuk astronom Mirzo Ulug‘bek xotirasiga Buxoroda qolgan yirik inshoot bo'lib, Buxoroda bundan tashqari temuriylar davriga oid yana ikki madrasa: G'arbiy Buxorodagi Chashmayi Ayyub va G'ijduvon madrasalari mavjud. Ulug‘bek madrasasining qurilishi 1417-yilda boshlangan bO‘lib, keyinchalik, 1585-yilgacha zamonaviy qiyofaga ega bO‘lgan. Madrasani zamonining eng yaxshi me’morlari bO‘lgan Najmiddin Buxoriy va Ismoil Isfahoniylar bunyod etishgan. Ulug‘bek hukmronligi davrida bunyod etilgan bu madrasa Buxoroning eski shahar qismida, Abdulazizxon madrasasi ro‘parasida qurilgan. Madrsaning eng e`tiborga sazovor joyi - bu madrasa loyihasini Mirzo Ulug‘bekning o‘zi chizganligidadir.[2:157-159]

Ulug‘bek ilk bor madrasaga kelganida barcha shogird va muallimlarga qimmatbaho sovg‘alar ulashganini zamondoshlari eslashadi. Dastlab Ulug‘bek nomidan qurilgan ta’lim muassasasi 80 nafar shogird tayyorlashga mo‘ljallangan edi. Bu yerda matematika va astronomik ta’limga, arab tili va diniga katta e’tibor berilgan. Madrasa dunyoviy ilm-fan markazi bo‘lib, sinfxonalarida astronomiya, falsafa, ilohiyot va matematikadan ma’ruzalar o‘qilgan. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, bu yerda bir vaqtning o‘zida 150 nafargacha talaba tahsil olgan. Ular nafaqat turar joy, balki madrasadan munosib haq ham olishgan. N.V.Xannikovning ma'lumotlariga ko'ra, Mirzo Ulug’bek madrasasi: 80 ta xonasi bo’lib, talabalarga 3.5 tillodan to’langan.[3:33]

Bu madrasa asosida O‘rta Osiyoda boshqa madrasalar ham qurila boshlandi. Ulug‘bek madrasasi eshigiga “Ilm olish har bir musulmon erkak va ayolning burchidir” degan yozuv saqlanib qolgan . “Kitob hikmatini biladiganlar davrasida Allohning marhamati eshiklari har lahza ochiq bo‘lsin ”, -degan hikmatli ibora ham o‘yib yozilgan edi.

Madrasaga kirish qismdan ko‘ndalang yo‘lak bilan ikkiga bo‘lingan. Yo‘lakning bir tomonida “darsxona” (o‘quv xonasi), ikkinchi tomonida esa masjid joylashgan. Bino ikki qavatdan iborat bO‘lib, kutubxona ikkinchi qavatda bO‘lgan. Devor va arklari juda kamtarona bezatilgan. Madrasa astronomik xarakterdagi bezaklar bilan bezatilgan bo'lib, bu, shubhasiz, Ulug'bekning astronom sifatidagi dunyoqarashlaridan dalolat hisoblangan. Anchagina sodda va oddiy bezaklari binoning ulug'vor bo'lishiga va o'sha davr me'morchiligining asosiy obidalaridan biri bO‘lishiga xizmat qiladi.

Bosh tarzida mahobatli peshtoq, 2 qanotida 2 qavatli hujralar va burchaklarda guldastalar joylashgan. Guldastalar tepasi qubbali qilib ishlangan. Ravoqli peshtoqdan miyonsaroy orqali hovliga o‘tiladi. Hovli (26x25 m) atrofini 2 qavatli hujralar qatori va peshtoqli ayvon egallagan. Madrasa (53x41,6 m) uncha katta emas, hujralari mo‘jaz, o‘zaro mutanosib, ichki va tashqi tuzilishi o‘ziga xos.[4: 19-20] Madrasa qurilishida guvala, paxsadan tashqari xom va pishiq g‘isht, yog‘ochdan ham keng foydalanilgan.

Madrasaning asosiy bezagi peshtog‘ida bo‘lib, unda sirkor g‘ishtchalardan tashqari rang-barang gulli parchin va koshindan foydalanilgan. Ravoqli peshtoqdan miyonsaroy orqali hovliga o‘tiladi. Miyonsaroy ichki gumbazi o‘n ikki qirrali, g‘ishtdan to‘rsimon shakl qilinib, oralariga ko‘k va havorang koshin terilgan. Peshtoqda Amir Temur davrida Erondan olib kelingan ustaning avlodi Ismoil ibn Tohirning nomi ganchkor va turli bezaklar asosida nasta’liq xatida yozilgan yozuv saqlanib qolgan. Naqshlarida yulduzsimon bezaklar ko‘p uchraydi.

Madrasaning o‘ziga xos tomonlaridan biri shundaki, u balandligi jihatidan Buxorodagi boshqa madrasalarga qaraganda pastroq va hujralarining ko‘pligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bu Ulug‘bek tomonidan qurdirilgan dastlabki madrasadir. Madrasaning boshqa madrasalardan farqi shundan iboratki, uning ikki chetida minoralar mavjud emas. Xonaqoh pesh ayvonlari esa 8 tani tashkil qiladi. Bugungi kungacha me’moriy obida atroflarida bog‘lar tashkil qilingan.[5: 83-84]

1586-yil Xo‘ja Sa’d Jo‘yboriy tomonidan madrasaning tashqi peshtog‘i va yonlaridagi hujralar ta’mir etilib, peshtoq bezagida mayda yozuvli va naqshli koshin ishlatilgan. Hovli g‘arbidagi hujra tepasida ganchkori bezaklar orasida ta’mirlovchi usta Ismoil ibn Tohir ibn Mahmud Isfahoniy nomi saqlangan. Abdurazzoq Samarqandiyning xabar qilishicha, Ulug‘bek 1419-yilning 28 noyabrida madrasaga kelib ilm oluvchi talabalarga in’omlar ulashgan. [6:122-123]

Ulug‘bek hukmronligi davrida madrasalar davlat hisobiga kiritilgan va ularga davlat byudjetidan mablag‘ ajratilgan. Madrasalarda nafaqat boylar, balki kambag‘allarning bolalari ham O‘qish huquqiga ega bO‘lgan va nafaqa, kiyim bosh bilan ta`minlangan. O‘quv yili sakkiz yilga qisqargan va haftada besh kun ta`lim berilgan. Ulug‘bek o‘quv dasturlarini ham qaytadan ishlab chiqqan.[7:11]

Bizgacha Ulug‘bek madarasasi asl holidan ancha o‘zgargan holda yetib kelgan bo‘lib, 1950-1970 va 1990-1996-yillarda ta’mirlangan. Madrasaning ta’mir talab yerlari qayta rekonstruksiya qilingan. Ko‘chasiga esa o‘rta asr uslubida toshlar yotqizilib, yo‘llar hosil qilingan. Hozirgi kunda madrasa ochiq osmon ostidagi muzey sifatida chet el sayyohlari hamda o‘zbekistonlik milliy madaniy merosga qiziquvchilarning ziyoratgohiga aylangan.[5:84]

1997-yilda Buxoro shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Buxorodagi barcha obidalar qatorida Ulug‘bek madrasasi ham qayta ta’mirlanib, YUNESKO ning Butunjahon yodgorliklari ro‘yxatiga kiritilgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Mirzo Ulug‘bek va temuriylar davlatida ilm-fanni rivojlantirishga juda katta e’tibor berilgan bo‘lib, bu Temuriylar davrining gullab-yashnashi, yutuqlarining dovrug‘ taratishiga asos bo‘lgan. Albatta, bunda madrasalar faoliyati alohida ahamiyatga ega. Bobo Amir Temur kabi Mirzo Ulug‘bek ham aqliy tarbiya, diniy va dunyoviy bilimlar insonni har tomonlama kamol topishida katta ahamiyatga egaligini yaxshi bilgani uchun madaniyat, ma’rifat, ma’naviyatning gullab-yashnashi uchun harakat qilgan. Buning yorqin misoli sifatida Buxoro, Samarqand va G‘ijduvon shaharlaridan bunyod etilgan madrasalarni ko‘rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Mavlanov O‘. Amir Temur va temuriylar davri renessansida ta’lim tizimining tutgan ahamiyati. “Xalq so‘zi”. 2022.09.04.
2. Abdullayev Z. BUXORONING MADRASALARI TARIXI. International jurnal of recently scientific resercher's therory.157-159-betlar
3. Nasilloyev S.Sh. Xanikov N.V. tadqiqotlarida buxoro tarixiy-me’moriy yodgorliklari ro’yxatining shakllantirilishi. Ta`lim va innovatsion tadqiqotlar (2022 yil № 6).
4. Nabiyev M.Q. O‘rta asrlarda madrasalar faoliyati va ularda o‘qitilgan fanlar.“Talqin va tadqiqotlar” Respublika ilmiy-uslubiy jurnali. №8.
5. Bobojonova F.X. Buxoro me’moriy obidalari tarixi: o’quv qo’llanma. Buxoro: Fan va ta`lim. 2022.
6. To‘raev H. Buxoro tarixi: o‘quv qo‘llanma. Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2020.
7. Asrorova L.Q. Buxoro madrasalari tarixidan. Toshkent: Hilol-Nashr, 2017

BUXORO ARKI TARIXI

IBRAGIMOVA GULASAL ZAYNIDDIN QIZI

CHDPU Gumanitar fanlar fakultetuti
Tarix yo’nalishi 1-bosqich talabasi

SULAYMONOVA SH.A.

Ilmiy raxbar[*maftunaabduholiqova2@gmail.com*](mailto:maftunaabduholiqova2@gmail.com)
+998936372209

Annotatsiya / Аннотация / Abstract
Ushbu maqolada Temuriylar davlatining buyuk hukmdorlaridan biri bO‘lgan Mirzo Ulug‘bek davrida Buxoro shahrida barpo etilgan madrasa, uning faoliyati, madrasaning umumiy kO‘rinishi, arxitekturasi, u yerda o‘qitilgan fanlar haqida ma`lumot beriladi.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords
Mirzo Ulug‘bek, madrasa, ta’lim, Najmiddin Buxoriy, ravoq, masjid, peshtoq.

Buxorodagi qadimgi shaharsozlik yodgorliklaridan biri Buxoro arkidir. Dastlab mil.avv. I asrda qurilgan. Shaharning qadimgi qal’asi arablai istilosiga qadar arkda shahar hokimlari - buxorxudotlar yashagan. Somoniylar davrida, ya’ni IX-X asrlarda qayta qurilib devor va burjlar bilan mustahkamlangan. Qoraxoniylar davrida (XI-XII asrlar) va mo‘g‘ullar bosqinchiligi vaqtida (XIII asrda) ark bir necha bor vayron qilingan. Hozirgi qiyofasi asosan Shayboniylar sulolasi davri (XVI asr)da shakllangan. Buxoro shahrining eng ko‘hna madaniy meros obyektlaridan biri hisoblangan hamda qadimda shahar markazi hisoblangan Ark qal’asi bir necha ta’mirlangan va qayta qurilgan. Mazkur Ark qal’asining

qurilishi milodning boshlariga to‘g‘ri keladi. Ark qachon qurilgani haligacha aniqlanmagan. Ammo olimlarning taxmin qilishicha, bundan bir-bir yarim ming yil oldin ham ushbu mahobatli me’moriy obida hukmdorlarga qarorgoh bo‘lgan. Ark, u necha-necha qonli janglar, shafqatsiz istilochiyu bosqinchilarni ko‘rgan. 1220 yili Chingizxon qo‘shini shaharga bostirib kelganida, aholi Ark ichiga yashirinadi.

Endi mazkur inshootning qurilish tarixiga to‘xtalib o‘tamiz. Buxoro arkining qurilish tarixi Eron podshosi va turk ayolining farzandi Siyovush nomi bilan bog‘liq. Ma’lumotlarda keltirilishicha, Siyovush Samarqand podshosi Afrosiyobdan yengilgach, shu yerda – Zarafshon daryosining quyi irmoqlaridan birining sohilida va shahar yaratilishiga asos solgan. Siyovush Afrosiyob tomonidan o‘ldirilgach Buxoroning Sharq darvozasi yonida ko‘milgan degan rivoyatlar ham tarqalgan. Ammo ba’zi manbalarda Siyovush va Afrosiyob o‘rtasidagi munosabatlar kengroq yoritiladi. Ahmad ibn Nasr buning ajoyibotlari haqida shunday deydi: Abul Hasan Nishopuriy “Xazoyin-ul ulum” da aytishicha, Buxoro ko‘handizining, ya’ni Buxoro arkining bino etilishiga ushbu voqea sabab bo‘lgan: Siyovush ibn Kaykovus o‘z otasidan qochib, Jayhun daryosidan o‘tib, Afrosiyobning oldiga keldi. Afrosiyob uni yaxshi qabul etib, o‘z qizini Siyovushga xotin qilib berdi va shu bilan birgalikda o‘zining barcha mulklarini Siyovushga beradi. Bu viloyat o‘ziga vaqtinchalikka berib qo‘yilgan joy ekanligi sabab Siyovush bu yerda o‘zidan bir yodgorlik qoldirishni istadi. Shu tariqa u Buxoro hisorini (arkini) bino qildi va ko‘p vaqtini o‘sha joyda o‘tkazardi. Kimlardir Siyovush va Afrosiyob o‘rtasida yomon gap yurgizdi va natijada Afrosiyob Siyovushni o‘ldirdi hamda ana shu arkda sharq tomondan kiraverishda “Darvozayi g‘uriyon” degan somonfurushlar darvozasining ichkarisiga dafn etdilar. Shu tufayli Buxoro otashparastlari o‘sha joyni aziz tutdilar va unga atab har bir erkak kishi har yili Navro‘z kuni quyosh chiqishidan oldin o‘sha joyda bittadan xo‘roz so‘yadi. Buxoro aholisining Siyovushning o‘ldirilishiga bag‘ishlab aytgan bir qancha marsiyalari bo‘lib, u barcha viloyatlarda mashhurdir.

Shunday qilib mana shu rivoyatlarga ko‘ra arkni Siyovush bino qilgan, ba’zi manbalarda esa arkni Afrosiyob qurdirgan deganlar. Yuqorida qayd etilishicha “kimlardir” Siyovush va Afrosiyob o‘rtasiga nifoq soladi. Abul Hasan Nishopuriy “Xazoyin-ul ulum” da ushbu shaxsning kimligi aniq qayd etilmagan. Ya’ni unga shunchaki “kimlardir” deb ta’rif berib o‘tiladi xolos. O‘rta asrlarda yashab o‘tgan Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far Narshaxiyning qayd etilishicha ushbu “kimlardir” deb ta’rif berilgan shaxs aslida “Afrosiyobning birodari Karshyuz” edi. Tarixchi Akbar Zamonovning ta’kidlashicha oradan vaqt o‘tishi bilan Ark yaroqsiz holatga kelib qoladi va faqatgina VII asrga kelib Buxoro hokimi, Tag‘shodaning otasi Bidun Buxorxudot taxtga o‘tirgandan so‘ng odam yuborib Arkni tuzattiradi. Ammo u tezda buziladi, yana yangidan qurdi, u yana buzildi. Shundan keyin Bidun uzoqni ko‘ra biladigan dono kishilarni chaqirdi. Donishmandlar arkni katta ayiq yulduzi, ya’ni osmondagi yeti qaroqchi yulduzlari shaklida yettita tosh ustun ustiga qurishni maslahat berdilar. Ark qal’asi katta ayiq yulduzi shaklida quriladi va keyin esa u buzilmadi. Buxoro arkida bir qancha hovuzlar hamda ko‘chalar ham mavjud bo‘lgan. Ba’zi manbalarda esa ularning toponimik nomlari aniq keltirilib o‘tilgan. Masalan, Havzi Lesak ko‘chasi - tarixiy nom. Buxoro Arkining janub tomonida joylashgan hovuz. Shahar qamalda qolgan paytlari Ark ushbu hovuz orqali suv bilan ta’minlangan.

So‘nggi o‘rta asrlar muallifi Sayyid Muhammad Nosiriddin to‘ra qalamiga mansub “Tuhfat az-zoirin” va “Tahqiqoti arki Buxoro” asarlaridagi toponimik ma’lumotlar ayrim qishloq va mahallalar, Buxoro arki hududidagi toponimik obyektlarni lokalizatsiya qilish uchun foydalidir. “Tuhfat az-zoirin” shahardagi Fathobod, Hovuzi G‘oziyon, Saripuli Sho‘riston, Xoja A’lam Narason, Ja’far Xoja, Abdulla Xoja, Domla Usmon (ikkinchi nomi Qozi O‘rda), Mavlono Musti guzarlarining tarixiy o‘rni, shahar atrofdagi Qalti, Xudobod, Shovari, Suxor, Qasri Orifon va boshqa qishloqlarning Buxoro shahriga nisbatan geografik joylashuvini aniqlashga yordam beradi. O‘tmishda Qarshi va Mazor darvozalarining tashqi tarafi oralig‘ida joylashgan va hozirda Daxmai bihishtiyon deb ataluvchi ziyoratgoh aslida Talli bihishtiyon (Jannatiylar tepaligi), deb nomlangani to‘g‘risidagi ma’lumotlarni faqat “Tuhfat az-zoirin”da uchratish mumkin. “Tahqiqoti arki Buxoro” asari esa Buxoro arki ichidagi Chahor

chaman, Childuxtaron, Haft sulton, G‘azab qudug‘i singari toponimik ob’ektlar joylashuviga aniqlik kiritish imkonini berad. Ark qal’asining me’moriy elementlari hamda xususiyatlariga to‘xtalib o‘tsak. U qadimiy hamda hamisha navqiron Buxoro shahrining g‘arb tomonida joylashgan bo‘lib, yer ustida katta balandlik ustida joylashgan bo‘lib, yer ustidagi katta balandlik- 20 metrgacha bo‘lgan tepalik ustiga qurilgan va g‘arbdan sharqqa cho‘zilgan noto‘g‘ri to‘rtburchak shakliga ega. Qal’a devorining uzunligi 789 metr, balandligi esa 16-20 metr, yer maydoni 3,96 gektarni tashkil etadi.

Buxoro arkining ikkita darvozasi bor: biri Sharq tomonda, biri G‘arb tomonda. Sharq tomondagi darvozasi “Dari g‘uriyon”, G‘arb tomondagisi esa “Dari Registon” deb nomlangan, ya’ni g‘arbiy darvoza “Dari alaffurush” deb atalgan. Arkning o‘rtasida bu darvozadan u darvozagacha to‘g‘ri yo‘l bo‘lgan. Bu ark podshohlar, amirlar va askar boshliqlarining turarjoylari bo‘lib, zindon, podshohlik devonlari va podshoh turadigan qasr qadimda shu yerda bo‘lgan. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, Ark qal’asi ilm-fan maskani vazifasini ham bajargan. O‘z vaqtida bu yerda, Rudakiy, Firdavsiy, Abu Ali ibn Sino, Farobiy, Umar Xayyom kabi ulug‘ insonlar yashab ijod qilganlar. Bunga misol sifatida Abu Ali ibn Sinoning Ark kutubxonasi haqidabildirgan fikrlarini ko‘rsatishimiz mumkin: “Men bu yerda kutubxonada shunday kitoblarni topdimki, ularni avval ko‘rmaganman va umrimda boshqa ko‘rmadim ham. Men ularni o‘qidim va shundan keyin har bir olimning o‘z fani bo‘yicha o‘rnini angladim. Mening oldimda fanlarning tubidagi shunday eshiklar ochildiki, men ularni tasavvur ham qilolmasdim. Arkdagi kutubxonning keying taqdiri sir bo‘lib qolgan. Kutubxona janglarda birida talab ketilgan bo‘lsa ajab emas”. Albatta Buxoro shahri Markaziy Osiyoning yirik strategik shaharlaridan biri bo‘lgan. Movarounnahrga yurish qilgan har qanday davlat yoki qabila Buxoro shahrini egallashni o‘z maqsadlari sifatida qarashgan. Abu Ali ibn Sino bildirgan fikrlariga ko‘ra Arkdagi kutubxona o‘zining nodirligi hamda u yerdagi kitoblarning qimmatliligi bilan kishini lol qoldirgan. Ibn Sino nazarda tutayotgan kutubxona taxminan, 997-998-yillardagi Ark kutubxonasining holati nazarda tutilgan. Negaki, Ibn Sino 16 yoshida e’tibotrli hakim, ya’ni tabib bo‘lib yetishgan. 17 yoshida esa somoniylar amiri Nuh ibn Mansurni davolab, saroy kutubxonasiga kirish huquqini qo‘lga kiritadi. O‘sha davrlarda esa somoniy hukmdorlar saroyi esa aynan Buxoro arki hisoblangan. Ibn Sino ya’na shuni ta’kidlab o‘tadiki, “bu kutubxona janglardan birida talanib ketilgan bo‘lsa ajab emas” deydi. Bu jangalar esa Movarounnahrda siyosiy hokimiyat va sulolalar almashinuvi davridagi janglar hisoblanadi. Yana ham aniqroq aytadigan bo‘lsak, Somoniylar va Qoraxoniylar o‘rtasidagi janglar nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Buxoro arki ilk o‘rta asrlardagi Markaziy Osiyo me’morchiligining qay darajada rivojlanganligiga yaqqol misol bo‘la oladi. Buxoro arki o‘z davrida bir qancha hukmdorlar va sulolalar xizmat qildi. Somoniylar davrida Buxoro arki hukmdorlar qarorgohiga aylantirildi. Shayboniylar davriga kelib esa inshoot yaxlit ansambilga aylandi (XVI asr). Shayboniylardan keyin ham Buxoro xonligida hukmronlik qilgan ashtarxoniylar va mang‘itlar davrida ham davlat Buxoro arkidan turib boshqarildi. Bundan tashqari ushbu inshoot O‘zbekistonning turistik salohiyati oshishida alohida o‘rin egallaydi. O‘z navbatida O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan Buxoro arkiga e’tibor bugungi kunda oshib bormoqda. Bu esa davlatimizning bosh qonuni hisoblanmish Konstitutsiyamizda ham belgilab qo‘yilgan. Xususan, Konstitutsiyamizda “Fuqarolar O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar. Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir” deb belgilab qo‘yilganligi nafaqat Buxoro arkining, qolaversa boshqa tarixiy obyektlarning ham muhofaza qilinishiga, ularga davlat tomonidan hamda fuqarolar tomonidan ham alohida e’tibor qaratilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Buxoro shahrining tarixiy markazi, ya’ni Ark qal’asi 1993-yilda UNESCOning Kolumbiyada bo‘lib o‘tgan 1-sessiyasida “Butun jahon madaniy meroslari ro‘yxati” ga kiritilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far Narshaxiy. “Buxoro tarixi”. Toshkent. “Anorbooks” nashri-2022, 45-46-betlar.
2. M.S.Andreev, O.D.Chexovich. “Ark-Kreml Buxari”. – Dushanbe: “Donish”, 1972.
3. Halim To‘rayev. “Buxoro toponimikasi”. “Durdona” nashriyoti, Buxoro-2021. 11-bet

TEMURIYLAR HUKMRONLIGA DAVRIDA ILM -FAN VA MADANIY HAYOT

MUSABEKOVA DURDONA SAYFULLOH QIZI

SULAYMONOVA SH.A.

CHDPU Gumanitar fanlar fakultetuti
Tarix yo’nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy raxbar[*maftunaabduholiqova2@gmail.com*](mailto:maftunaabduholiqova2@gmail.com)
+998936372209

Annotatsiya / Аннотация / Abstract
Mazkur maqolada Temuriylar davrida ilm-fan taraqqiyoti, uning asosiy yo‘nalishlari va yirik allomalarning ilmiy merosi tahlil qilinadi. Ayniqsa, astronomiya, matematika, tibbiyot va adabiyot sohalaridagi yutuqlar hamda ilmiy markazlarning rivojlanishi yoritiladi. Temuriylar davri Markaziy Osiyoda ilmiy uyg‘onish davri sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords
Hirot, Samarqand, Movarounnahr, Xuroson, toj-u taxt, ijtimoiy-si-yosiy, davlat, hukmdor, saltanat, ilm-fan, madaniyat, saroy, xonaqoh, masjid, shahar, harbiy, sulton, shoir, adabiyot, poytaxt, soliq, iqtisodiy, xalq, lashkar, jang.

Garchi XV asr boshidan ichki nizolar, o'zaro kurashlar mamlakat ichki hayotiga salbiy ta'sir o'tkazgan bo'lsada, lekin Temuriy hukmdolardan Shohrux Mirzo, Mirzo Ulug'bek, Sulton Husayn Boyqaro, qisman Sulton Abusaid hukmronligi davrlarida ichki osoyishtalik, ma'rifat va madaniyatga katta e'tibor berilishi tufayli ilm-u fan va madaniyat sohasi yuksalib, Movarounnahr va Xuroson yana Sharqning ma'rifat hamda madaniyat markazi nomini qaytarib oldi. Tarixda ma'rifatparvarligi va oqilligi bilan nom chiqargan Shohrux davrida asriy ilm-fan, madaniyat an'analari yanada taraqqiy etdi. Shohrux Hirot, Balx shaharlarini ayta tikladi, Chingizxon yurishi vaqtida vayron bo'lgan Marv shahri qayta barpo etildi, unga Murg'ob daryosidan ariq qazdirilib, shahar suv bilan ta'minlandi. Xurosonning barcha shaharlarida obodonchilik, qurilish ishlariga katta e'tibor berildi, qator madaniy-ma'naviy xarakterdagi imoratlar qurildi. Shohruxning o'g'illari Boysunqur Mirzo Hirotda, Ibrohim Sulton Sherozda ilm-fan, ma'rifat yuksalishiga o'z hissalarini qo'shishdi. Turli hududlar madaniy uyg'unligi natijasida o'xshashi yo'q Hirot amaliy va tasviriy san'at yo'nalishi yuzaga keldi. Ibrohim Sulton Mirzo Sherozda badiiy ustaxona ochib, unga Bag'dod va Tabrizdan mahoratli ustalarni jalb qildi. Aynan shu shahzodaning buyrug'i bilan 1419-1425-yillarda Sharafiddin Ali Yazdiy o'zining mashhur «Zafarnoma» asarini yozgan edi. Hirotdagi eng gavjum joylardan biri Boysunqur Mirzo tashkil etgan «Kitobxona» nomini olgan joy bo'lib qoldi. Bu yerda o'z davrining eng sara kitoblari qayta ko’chirilar, sotib olinar va sotilar edi. Bu paytda hukmdor va amaldorlarning homiyligi natijasida tasviriy san'at, amaliy san'at, xattotlik san'ati ayniqsa o'z rivojini maromiga yetkazdi. Mirak naqqosh boshchiligidagi sharq miniatyura san'ati ham o'z faliyatini shu yerdan boshlagan edi.

Hirotlik va xurosonlik ko'plab badavlat zodagonlar, savdogarlar ham ilm-fan, madaniyatga homiylik qila boshlashadi. Poytaxt shahrida adabiyot, me' morchilik, miniatyura san'ati, xattotlik, musiqa, umuman madaniyat, san'at sohalarining o'z davriga xos barcha sohalari ulkan cho'qqiga erishdi. Shu bilan birga butun Xurosonda, xususan poytaxtda aniq fanlar sohasi ham taraqqiy etdi. Poytaxtda Mavlono Muhammad Olim, mavlono Kavkabiy, Xoja Ahmad Mustavfiy kabi astronomlar, Xaja Abdul Vafoyi, Xorazmiy, Xoja Ahmad Mustavfiy,

Mavlono Abdulqahhor kabi kimyo-garlar, Mavlono Hokim, Mir Islom G'azzomiy kabi olimlar ham samarali faoliyat yuritishgan. Tarixchi Xondamir o'zining Navoiyga bag'ishlagan «Makorim-ul axloq» asarida Navoiy ham yaxshi matematik bo'lgani, bu fanning rivojiga yordam berganligini ta'kidlaydi.

XV asr Hirot tarix fani ham taraqqiy etdi. Shohrux Mirzo davrida Hofizi Abru o'zining «Zubdat at-tavorix» («Solnomalar qaymog'i») asarini yozdi. Shohruxning o'g'li Ibrohim Sultonning topshirig’i bilan Sharafiddin Ali Yazdiy o'zining «Zafarnoma» asarini tagdim etdi, Abdurazzoq Samarqandiyning «Matlai sa'day va majmai bahray» («Ikki saodatli yulduzning balqishi va ikki dengizning qo'shilishi») nomli qimmatli tarixiy asari yozildi. Mirxond o'zining «Ravzat us-safo», Xondamir «Habib us-siyar» kabi tarixiy, Davlatshoh Samar-qandiy o'zining adabiy talqindagi «Tazkirat ush-shuaro» asarlarini yozishdi. Muiniddin Isfizoriy esa Hirot tarixini aks ettirgan tarixiy asarini taqdim etdi. XV asrda Hirot tasviriy maktabi juda taraqqiy etdi. Mazkur maktabdan Kamoliddin Behzod, Mirak Naqqosh, Shoh Muzaffar, Mahmud Muzahhib, Qosim Ali Chehrakusho, Mavlono Hoji, Muhammad Naqqosh, Darvish Muhammad, Sulton Muhammad, Abdulloh Kirmoniy, Maviono Muzaffar Ali naqqosh, Xo'ja Abdulaziz naqqosh, Ashrafxon Mir Munshiy, Mavlono Yusuf kabi iste' dodli rassom va naqqoshlar yetishib chiqishgan. Tabiiyki, Xuroson va Movarounnahr rassomlik va naqqoshlik maktabining umumiy va o'ziga xos jihatlari bo’Igan. Ayniqsa, Kamoliddin Behzod boshchiligidagi Hirot rassomlik maktabi ulkan yutuqlarga erishdi. Bizgacha turli portretlar, hayotiy lavhalar, peyzajlar, badiiy asarlarga ishlangan rasmlar yetib kelgan. Hozirgi kungacha yetib kelgan portret janridagi suratlar orasida Jomiy, Navoiy, Hotifiy, Behzod, Boyqaro, Bobur, Shayboniyxon va boshqalar katta tarixiy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur davrda kitobat san'ati ham juda rivoj topdi. Nafis va go'zal kitob yaratish og'ir jarayon bo'lib, u ko'plab murakkab mohiyatni talab etar edi. Ushbu jarayonda varroq (qog'oz tayyorlovchi), sahhof (muqovasoz), xattot (chiroyli tarzda ko'chiruvchi), tasvir (tegishli sahifalarga surat chizuvchi), tazhib (oltin rang bilan naqshlovchi), tajlid (qimmatbaho matodan jild yasovchi, zarafshon (sahifalar hoshiyasi va yozuv oralariga oltin yoki kumush purkovchi)lar ishtirok etishadi. Bunda albatta tegishli qonun-qoida, me'yoriy jihatlarga tayanilar edi. Qog'oz tayyorlashda Buxoro va Samarqand ustalari oldingi o'rinda turishgan. O'sha davrda tayyorlangan qog'ozlarning o'ziga xos texnologiyasi bo'lib, unga berilgan ranglar hozirga qadar aynimay saglanib kelmogda. Siyohlar maxsus retsept asosida tayyorlanar, kitobdan yoqimli hid kelib turishi uchun siyohga gulob va anbar qo'shar edilar. Bo'yoqlarga ba'zan suyultirilgan oltin va kumush ham qo'shilgan. Kitobat va xattotlik san'ati XV asr ikkinchi yarmida o'zining yuqori cho'qqisiga chiqdi. Movarounnahr va Xurosondan Sulton Ali Mashhadiy, Muhammad kotib, Sulton Ali Koyiniy, Abdul Jamil, Rafiqiy, Abdulaziz Samarqandiy, Xo'ja Ali Samarqandiy, Halvoiy va boshqa qator mohir xattotlar yetishib chiqishdi.

Mirzo Ulug'bek davrida o'ziga xos tarixnavislik maktabi ham paydo bo'ldi. XV asrdagi taniqli tarixchilar, «Zubdat at tavorix» («Salnomalar qaymog'i») asarining muallifi Hofizi Abru, «Matlai sa'dayn va majmai bahrayn» («İkki dengizning qo'shilishi va ikki saodatli yulduzning bolqishi») asarining muallifi Abdurazzoq Samarqandiy, «Ravzat as safo» («Jannat bog'lari») asarining muallifi Mirxond, «Habib us siyar» («Do'stga maktub») va boshqa qator asarlarning muallif Xondamir Ulug’bek yaratgan madaniy sharoitda o'sib ulg'ayishdi. Mirzo Ulug'bek davridagi madaniy markaz keyinchalik «Ulug'bek akademiyasi» nomini olib, dastavval mashhur fransuz yozuvchisi va olimi Volter tomonidan e'tirof etilgan edi. Ajdodlarimiz tarixida 1004-yilda tuzilgan Ma'mun akademiyasidan so’ng, Mirzo Ulug'bek akademiyasi O'rta Osiyo tarixida ikkinchi akademiya sifatida yuzaga keldi.

Temuriylar davri nafaqat harbiy-siyosiy qudrat, balki Sharq renessansining cho‘qqisi sifatida bashariyat sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo‘shdi. Amir Temur va uning vorislari rahnamoligida ilm-fan, munajjimlik, me’morchilik va tasviriy san’at mislsiz darajada yuksalib, Samarqand va Hirot kabi shaharlar jahonning yirik madaniyat markazlariga aylandi. Ulug‘bekning aniq fanlardagi kashfiyotlari va Alisher Navoiyning turkiy tildagi adabiy inqilobi ushbu davr madaniy hayotining boqiyligini ta’minladi. Xulosa qilib aytganda, Temuriylar

merosi bugungi kunda ham milliy o‘zligimiz va jahon ilm-fani poydevorining ajralmas qismi bo‘lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Azamat Ziyo. O’zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: «Sharq», 2000.
2. Ahmedov A. Ulug’bek. – Toshkent, 1994.
3. B.J.Eshov, A.A.Odilov. O’zbekiston tarixi II kitob. – Toshkent: «DONISHMAND ZIYOSI», 2020.

BUXORO AMIRLIGIDA “YANGI USUL” MAKTABLARINING FAOLIYATI

OTANIYOZOV BUNYOD HAMROYEVICH

SULAYMONOVA SH.A.

CHDPU Gumanitar fanlar fakultetuti
Tarix yo’nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy raxbar[*maftunaabduholiqova2@gmail.com*](mailto:maftunaabduholiqova2@gmail.com)
+998936372209

Annotatsiya / Аннотация / Abstract
Tarixdan barchamizga ma’lumki, ta’lim tizimi insoniyat taraqqiyotining barcha davrlarida jamiyatni rivojlantirishda va shaxslarni tarbiyalashda muhim rol o‘ynagan. Aynan XIX asr oxiriga kelib, Buxoro amirligida “yangi usul” maktablari tashkil etilishi qiyinchilik bilan bo‘lsa-da, ta’lim sohasida ma’lum darajada o‘zgarishlarga turtki bo‘ldi. Bu maktablar mintaqada keng tarqalgan an’anaviy usullardan ajralib, ta’limga yangicha yondashuvni joriy etdi. Ushbu maqolada Buxoro amirligida “yangi usul” maktablarining ochilishi, ularning faoliyati va amirlikning ta’lim tizimiga ta’siri xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords
Ismoil Gaspirinskiy, Amir Abdulahad, mahaliy musulmon maktablari, yangi usul maktablari, jadidchilik, Fayzulla Xo‘jayev, Mulla Abduroziq.

Buxoro amirligi hududida “yangi usul” maktablarining paydo bo‘lishi arafasida mintaqadagi ahvol og‘ir edi. Mamlakat konservativ va an’anaviy ta’lim tizimi bilan ajralib turar edi. Ta’lim birinchi navbatda diniy fanlarga yo‘naltirilgan. Shunday sharoitda, Buxoroda bir guruh ilg‘or fikrli ziyolilar va pedagoglar zamonaviy ta’lim tizimini joriy etishga intildilar. Bu shaxslar qo‘shni mamlakatlarda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlaridan ruhlanib, Buxoroda ham shunday o‘zgarishlarni amalga oshirishga intildilar. Ular diniy ta’limotlar bilan bir qatorda matematika, tabiatshunoslik va tarix kabi zamonaviy fanlarni o‘z ichiga olgan kengroq o‘quv dasturidan foydalanadigan maktablarni yaratishni maqsad qilgan. Umuman olganda, nafaqat Buxoro amirligida, balki, butun O‘rta Osiyo hududida ham “yangi usul” maktablarining ochilishida Ismoil Gaspirinskiyning xizmatlari juda kata bo‘ldi.

Ismoil Gaspirinskiy 1892-yilda Turkiston o‘lkasidagi mahalliy musulmon maktablarini isloh qilish va “usuli jadid”ni joriy qilish takliflari bitilgan maktub bilan Turkiston general-gubernatori A. B. Vrevskiyga murojaat qildi. General-gubernator maktubni o‘rganib, taklif berish uchun I.I. Ilminskiy shogirdilari – Toshkent o‘qituvchilar seminariyasi direktori N.P. Ostroumov va o‘lka bo‘yicha mutaxassis hisoblangan V.P. Nalivkinga topshiradi. N. P. Ostroumov va V. P. Nalvkin I. Gasprinskiyni o‘lka uchun xatarli odam sifatida o‘z javoblarida bildirib o‘tishadi. Ularning bildirgan fikrlarga tayangan holda, general-gubernator I. Gasprinskiy maktubidagi takliflarga rad javobini beradi [1]. Shundan keyin I. Gasprinskiy o‘z g‘oyalarini o‘lkada amalga oshirishda mahalliy

xalq vakillariga e’tiborini qaratadi. Buxoro Amiri Abdulahad yordamida o‘z ishlarini olg‘a siljitishi mumkin edi. I. Gasprinskiy 1893-yilda amir bilan uchrashdi. U Amir Abdulahad bilan uchrashuvdan avval Samarqandga keladi. Bu yerda ham rus ma’murlari bilan uchrashib, suhbatlashadi. Lekin bu uchrashuvlar ham hech bir natija bermadi. Aksincha, yanada to‘siqlar qo‘ydi. U Samarqanddan Toshkentga keladi va “Tarjimon” gazetasida “o‘lka maorif ishida jonkuyarlik qilayotgan muhtaram hamkasaba” - deb ta’riflagan N.P. Ostroumov bilan uchrashadi. Bu uchrashuv ham, o‘z-o‘zidan ma’lumki, ijobiy natija bermaydi. Amir bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda ham mavzu “usuli jadid” maktablari, bu maktablarning mahalliy aholiga beradigan yangilik va foydalari xususida edi. Lekin, I. Gasprinskiyning Amir bilan uchrashuvidan ko‘zlagan maqsadi amalga oshmadi. Buxoro va Turkistonning boshqa shaharlarida “usuli jadid” maktablarini ochish va yoyish uchun ko‘mak topa olmadi. Shunday bo‘lsa-da, har qanday to‘siqlarga qaramasdan, I. Gasprinskiy o‘lkada “usuli jadid” maktabi urug‘ini ekishga imkon topa oldi. U Samarqandga kelgan vaqtida tatar millioneri Abdulg‘ani Boy Husayinov ziyofatiga taklif qilinadi. Ushbu ziyofat samarasi o‘laroq, I. Gasprinskiy “usuli jadid” maktabini ochishga muvaffaq bo‘ldi. [2]. Ushbu maktab Turkistonda ochilgan ilk “usuli jadid” maktabi edi. U norasmiy tarzda ochilgani uchun ham rus ma’murlari tomonidan tez orada yopildi. Lekin, bu “ekilgan urug‘” bundan keyin ochilgan maktablar uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

Buxoroda yangi usul maktablari 1906-yilda tatarlar tomonidan ochildi. Ismoil Gasprinskiy 1908-yili Turkistonga qilgan ikkinchi sayohati davomida Buxoroga keldi va u yerdagi jadidchilik harakati vakillari bilan uchrashdi. Mazkur uchrashuvda Buxoroda yangi usul maktabi ochishga kelishildi. Maktab Buxoroning marhum amiri Amir Muzaffar sharafiga “Muzaffariya” deb nomlandi. Gasprinskiyning ushbu maktabga marhum Amir Muzaffar nomi berishni tavsiya qilishi ham bejiz emas edi. Bu bilan u Buxoro amiri Abdulahadxonning yana bir bor maktablar islohoti muammosiga e’tiborini tortmoqchi bo‘lgan edi. Lekin bu ham amirga ta’sir ko‘rsata olmadi [3]. Umumiy jihatdan olib qaraydigan bo‘lsak, Buxoroda yangi usul maktablari juda katta kurashlar, mujodalalar evaziga ochildi. Maktab ochganlar “kofir”, “dahriy” deb, butun xalqning nazaridan qoldirishga harakat qilindi. “Yosh buxoroliklar” guruhi yetakchisi Fayzulla Xo‘jayev o‘z xotiralarida Buxorodagi ushbu maktablar borasida shunday deb yozadi: *“Abduvohid Burxonov maktabida 1908-yil ota-onalar, ulamo va shahar fozillari oldida tantanali imtihon o‘tkazishga qaror qilindi. Bu imtihonga Buxoroning turli toifalariga mansub boshqa odamlar ham kelgan edilar. Imtihon davomida yig‘ilganlar orasida bahs boshlanib ketdi. Ular ikki toifaga ajralib qoldilar. Bahs yangi maktab va undagi ta’lim xususida edi. Mulla Ikrom boshchiligidagi bir toifa odamlar yangi maktabni ham shakl, ham tuzilishiga ko‘ra xalqning rivoji uchun o‘ta foydali va musulmonchilikka hamda davlatga qarshi hech bir narsa topmadilar. Shuning uchun ham ular jadidlar boshlagan islohni ma’qul topib, hatto madrasalarni ham shu tartibda isloh qilish kerak, degan fikr bildirdilar. Mulla Abduroziq boshchiligidagi ikkinchi guruh esa yangi usul maktablarini zararli, musulmonchilikka to‘g‘ri kelmaydigan va davlatga qarshi bo‘lganligini iddao qilib, har tomonlama unga qarshi kurashishga chaqirdi. Bu guruh yangi usul maktabiga qarshi quyidagi dalillarni asos qilib ko‘rsatdilar:*

1) maktabdagi ta’lim usuli musulmoncha emas, u ruscha (bolalar partada o‘tirib, bir vaqtning o‘zida ham yozib ham o‘qiydilar va hokazo);

2) yangi usul maktablari tuzilishiga ko‘ra ham, unda din saboqlari o‘rgatilishiga qaramay islom qoidalariga javob bermaydi. Din darslari buzuq shaklda olib boriladi. Undan tashqari, yangi maktabda arifmetika, geografiya, xususan tabiatshunoslik darslari o‘qitiladi. Tabiatshunoslik umuman musulmonchilik dunyoqarashiga to‘g‘ri kelmaydi”[4]. Aynan mana shu voqeadan keyin Buxoro ziyolilari jadidchilar va qadimchilar guruhiga bo‘linib ketishadi.

Buxoro amiri 1913-1914-o‘quv yilida amirlikda ma’lum bo‘lgan barcha “yangi usul” maktablarini yopdiradi. Ushbu bosimlarga qaramay, amirlikda “yangi usul” maktabiga qiziqish kuchli bo‘lib qolaverdi. Buxoro amirligidagi yetakchi jadidchilardan biri Usmon Xo‘ja Po‘latxo’jayev (1878–1968) Istanbulga ketayotib, 1909-yilda Bog‘chasaroyda bo‘lib,

Ismoil Gaspirinskiy bilan uchrashadi. Usmon Xo‘ja Po‘latxo‘jayev u bilan birga jadid maktablarining muhim uslubiyatini o‘rgangach, Istanbulga boradi va u yerda zamonaviy turk maktabi tizimini o‘rganadi. Ayni paytda u Abdurrauf Fitrat (1886–1938) kabi buxorolik hamkasblari bilan 1909-yil 26-oktabrda “Buxoro maorifini tarqatish” xayriya jamiyatini tuzdi. Tashkilotning maqsadi Turkistonning boshqa hududlari, Buxoro amirligidan talabalarni Istanbul maktablarida o‘qishni davom ettirish uchun olib kelish edi [5].

“Yangi usul” maktablarida aynan diniy va dunyoviy bilimlarni uyg‘unlashtirgan ta’limga e’tibor qaratildi. Ular an’anaviy islom ta’limotlari va zamonaviy fanlar o‘rtasida muvozanatni saqlashni maqsad qilgan. O‘quv dasturiga dinshunoslik, tillar (arab, fors va rus tillari), matematika, tabiiy fanlar, geografiya, tarix va xattotlik kirdi. Maktablar, shuningdek, o‘sha paytda mintaqada nisbatan yangi tushunchalar bo‘lgan tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va mustaqil fikrlashni rag‘batlantirdi. Ular interfaol ta’lim, muhokamalar va bilimlarni amaliy qo‘llashga urg‘u beradigan o‘qitish usullarini joriy etdilar. Bu eslab yodlash va passiv o‘rganishdan voz kechish Buxoroda keng tarqalgan an’anaviy ta’lim amaliyotidan sezilarli darajada uzoqlashdi. Yuqorida ta’kidlab o‘tkanimizdek, Buxoroda “yangi usul” maktablarining tashkil etilishi davlatning ta’lim tizimiga, jamiyatning ta’limga bo‘lgan munosabatiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Diniy ta’limotlar bilan bir qatorda zamonaviy fanlarning joriy etilishi o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirdi va o‘zgaruvchan dunyoga tayyorladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, “yangi usul” maktablari milliy o‘zlikni anglash va madaniyatni asrab-avaylashda muhim rol o‘ynadi. Bu maktablar zamonaviy bilimlar bilan bir qatorda mahalliy tillar, tarix va urf-odatlarni ham o‘rganishni targ‘ib qilib, Buxoro va uning atrofidagi madaniy tiklanishiga hissa qo‘shdi. “yangi usul” maktablarining merosi ularning bevosita ta’siridan tashqariga chiqdi. Ular kiritgan g‘oyalar va falsafalar Buxoro va butun mintaqada zamonaviy ta’lim tizimiga asos soldi. Tanqidiy fikrlash, amaliy o‘rganish va turli xil o‘quv dasturlariga e’tibor keyingi avlodlarda aks sado berdi va keyingi o‘n yilliklarda ta’lim islohotlariga ta’sir ko‘rsatdi. Buxoroda “yangi usul” maktablarining ochilishi viloyat maorif tarixida muhim burilish yasadi. Bu maktablar an’anaviy ta’lim me’yorlariga qarshi chiqdi va o‘rganishga yanada kengroq va progressiv yondashuvni joriy qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Zaynobidin Abdirashidov “Ismoil Gasprinskiy va Turkistonda jadidchilik”. T.: 2008. 9-B.
2. Begali Qosimov. “Milliy uyg‘onish”. T.: Ma’naviyat, 2002, 20-B.
3. Sadriddin Ayniy. “Buxoro inqilobi tarixiga materiallar”. M., 1926, 32-B.
4. Fayzulla Xo‘jayev “Избранные труды в трех томах”. Toshken-1970. “Fan”. 89-90-B.
5.Alisher Nazarov. “Turkiston maktablarining tashkil etilishida jadidchilik harakati, xotin-qizlar ta’limi ahamiyati (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari)”. Таълим ва инновацион тадқиқотлар (2022 йил № 6) ISSN 2181-1709. 224-B.

СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИ ТАЪЛИМ ТИЗИМИ: ИСЛОҲОТЛАР, ЮТУҚЛАР ВА МУАММОЛАР (1946–1990 йиллар)

АБДИМУМИНОВ БАҲРОМ ҲУСАНОВИЧ

Термиз давлат университети Жаҳон тарихи кафедраси мустақил изланувчиси

Annotatsiya / Аннотация / Abstract
Мақолада 1946–1990 йилларда Сурхондарё вилояти таълим тизимининг ривожланиш босқичлари, совет маориф сиёсати таъсири, умумий мажбурий таълимнинг жорий

қилиниши, педагог кадрлар тайёрлаш тизимининг шаклланиши ҳамда таълим соҳасидаги муаммолар таҳлил қилинган. Шунингдек, таълимнинг мафкуравийлаштирилиши, пахта яккаҳокимлигининг ўқув жараёнига таъсири ва қайта қуриш даврида юзага келган ўзгаришлар ёритилган.

В статье анализируются этапы развития системы образования Сурхандарьинской области в 1946–1990 годах, влияние советской образовательной политики, внедрение всеобщего обязательного образования, становление системы подготовки педагогических кадров, а также основные проблемы сферы образования. Кроме того, освещаются вопросы идеологизации образования, влияние хлопковой монокультуры на учебный процесс и изменения, произошедшие в период перестройки.

This article examines the main stages in the development of the education system of Surkhandarya Region between 1946 and 1990. It analyzes the impact of Soviet educational policy, the introduction of universal compulsory education, the formation of a teacher training system, and the major challenges faced by the educational sector. The study also highlights the ideological nature of education, the impact of the cotton monoculture policy on the educational process, and the changes that occurred during the period of Perestroika.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

Сурхондарё вилояти, таълим тизими, совет маорифи, умумий таълим, Термиз давлат педагогика институти, пахта сиёсати, қайта қуриш, мактаблар.

Сурхандарьинская область, система образования, советское образование, всеобщее образование, Термезский государственный педагогический институт, хлопковая политика, перестройка, школы.

Surkhandarya Region, education system, Soviet education, universal education, Termez State Pedagogical Institute, cotton policy, Perestroika, schools.

Иккинчи жаҳон уруши тугаганидан кейин Ўзбекистонда, жумладан Сурхондарё вилоятида ҳам халқ таълимини қайта тиклаш ва ривожлантириш давлат сиёсатининг муҳим йўналишларидан бирига айланди. Совет ҳукумати таълим тизимини кенгайтириш орқали аҳоли саводхонлигини ошириш, коммунистик мафкурани ёш авлод онгига сингдириш ҳамда халқ хўжалиги учун зарур кадрлар тайёрлашни мақсад қилди. Шу сабабли 1946–1990 йилларда вилоят таълим тизимида кенг кўламли ўзгаришлар амалга оширилди.

1946–1950 йилларда Сурхондарё вилоятида уруш оқибатларини бартараф этиш ва таълим муассасаларини қайта тиклаш ишлари олиб борилди. Бу даврда асосий эътибор мактаб биноларини таъмирлаш, ўқитувчилар билан таъминлаш ва ўқувчиларни ялпи таълимга жалб этишга қаратилди.

1949 йилда СССРда умумий етти йиллик таълимни амалга ошириш вазифаси белгилаб берилди. Ушбу сиёсат Сурхондарё вилоятида ҳам босқичма-босқич татбиқ этилди. Бироқ тоғли ва чекка ҳудудларда жойлашган Бойсун, Шеробод, Узун ва Сариосиё туманларида мактаб биноларининг етишмаслиги, ўқув қуроллари ва дарсликлар тақчиллиги таълим жараёнини қийинлаштирди. 1950-йиллар бошларида Ўзбекистонда хотин-қизларни таълимга кенг жалб этиш масаласи давлат сиёсатининг муҳим йўналишларидан бири бўлса-да, амалий натижалар ҳудудлар кесимида бир хил бўлмаган. Маълумотларига кўра, 1951-йилда республика мактабларида таҳсил олаётган қизлар улуши умумий ўқувчилар сонининг 44,2 фоизини ташкил этган.[2] Сурхондарё вилоятида эса ушбу кўрсаткич 42,1 фоиз бўлиб, республика ўртача даражасидан паст бўлган[1]. Бу ҳолат воҳада қизларнинг таълимга жалб этилишида мавжуд ижтимоий-маиший ва маданий омилларнинг сақланиб қолаётганидан далолат беради.

Урушдан кейинги йилларда халқ таълимини тиклаш давлат сиёсати даражасига кўтарилди. 1949 йилда қабул қилинган қарорлар асосида СССРда

мажбурий етти йиллик таълимни кенг жорий этиш вазифаси белгиланди. Бу жараён Сурхондарё вилоятида ҳам мактаблар тармоғини кенгайтириш, ўқувчиларни таълимга жалб қилиш ва саводсизлик қолдиқларини тугатиш ишларини жадаллаштирди. Айниқса, қишлоқ ҳудудларида янги мактаб бинолари қуриш ва ўқитувчилар билан таъминлашга алоҳида эътибор қаратилди. Айниқса, юқори синфларга ўтилган сари қизлар сонининг кескин камайиб бориши кузатилган. Жумладан, Сурхондарё вилоятида юқори синфларда таҳсил олаётган маҳаллий қизларнинг улуши атиги 9,3 фоизни ташкил этган[3]. Бу кўрсаткич қизларнинг таълимни тўлиқ якунлашида жиддий муаммолар мавжуд бўлганини кўрсатади. Қизларнинг эрта турмушга чиқиши, оилавий меҳнатга жалб қилиниши ҳамда чекка қишлоқларда таълим муассасаларининг етарли эмаслиги бундай ҳолатнинг асосий сабаблари сифатида намоён бўлган.

Қизларни таълимда ушлаб қолиш мақсадида мактаб-интернатлар тармоғини кенгайтириш чоралари кўрилган. Бироқ бу борадаги натижалар ҳам чекланган бўлган. Масалан, 1950/51 ўқув йилида республика мактаблари қошида фаолият юритган 85 та интернатда 8827 нафар ўқувчи яшаган бўлса, уларнинг бор-йўғи 600 нафарини қизлар ташкил этган. Бу эса интернатлар тизими орқали ҳам қизларнинг таълим билан қамровини таъминлаш етарли даражада амалга ошмаганлигини кўрсатади.

Таълим соҳасидаги муҳим бурилишлардан бири 1958 йил 24 декабрда қабул қилинган «Мактабнинг ҳаёт билан алоқасини мустаҳкамлаш ва халқ таълими тизимини янада ривожлантириш тўғрисида»ги СССР Қонуни бўлди[4]. Ушбу қонунга мувофиқ мамлакатда мажбурий саккиз йиллик таълим жорий этилди ҳамда ўқувчиларни меҳнат фаолияти билан боғлиқ ҳолда тарбиялаш сиёсати кучайтирилди. Натижада мактабларда ишлаб чиқариш таълими, қишлоқ хўжалиги ва техника соҳаларига оид амалий машғулотлар кенгайди. Сурхондарё вилоятининг қишлоқ хўжалигига ихтисослашган ҳудуд сифатидаги хусусияти мазкур сиёсатнинг кенг қўлланилишига олиб келди.

1950–1970 йилларда СССРда амалга оширилган таълим ислоҳотлари Сурхондарё вилояти таълим тизимида ҳам муҳим ўзгаришларга сабаб бўлди. 1958 йилда қабул қилинган “Мактабнинг ҳаёт билан алоқасини мустаҳкамлаш тўғрисида”ги қонун асосида мамлакатда мажбурий саккиз йиллик таълимга ўтиш бошланди[5]. 1960-йиллар охири ва 1970-йиллар бошида қабул қилинган партия ва ҳукумат қарорлари мамлакатда умумий ўрта таълимни тўлиқ амалга ошириш вазифасини кун тартибига қўйди. Хусусан, 1972 йилдаги қарорлар асосида барча болаларни ўн йиллик умумий ўрта таълим билан қамраб олиш чоралари кўрилди. Бу даврда Сурхондарё вилоятида янги мактаблар, интернатлар ва касб-ҳунар муассасалари ташкил этилди. Шу билан бирга, таълим муассасалари сони ортишига қарамай, уларнинг моддий-техника базаси кўп ҳолларда талаб даражасида эмас эди.

1960–1970-йиллар Ўзбекистонда, жумладан Сурхондарё вилоятида халқ таълими тизимини янада кенгайтириш ва умумий ўрта таълимни жорий этиш даври бўлди. Бу жараён 1958 йилда қабул қилинган «Мактабнинг ҳаёт билан алоқасини мустаҳкамлаш ва халқ таълими тизимини янада ривожлантириш тўғрисида»ги қонун асосида амалга оширилди. Мазкур қонунга мувофиқ мажбурий саккиз йиллик таълим босқичма-босқич жорий қилиниб, кейинчалик умумий ўрта таълим тизимига ўтиш учун замин яратилди. Ушбу даврда республика бўйича мактаблар тармоғи кенгайиб, ўқувчиларни таълим билан қамраб олиш даражаси сезиларли равишда ошди. Сурхондарё вилоятида ҳам аҳоли сонининг ўсиши ва янги қишлоқларнинг барпо этилиши муносабати билан янги умумтаълим мактаблари қурилди. Айниқса, Денов, Шеробод, Жарқўрғон, Қумқўрғон, Сариосиё ва Бойсун туманларида мактаблар тармоғи кенгайиб, чекка ҳудудлардаги болаларни таълимга жалб қилиш имкониятлари яхшиланди[6].

Совет давлатининг умумий ўрта таълимни таъминлаш сиёсати натижасида 1970-йилларга келиб мактаб ёшидаги болаларнинг аксарияти таълим билан қамраб олинди. Бироқ таълим муассасалари сонининг тез суръатларда кўпайиши моддий-техника

таъминоти билан ҳамиша ҳам уйғун кечмади. Айрим қишлоқ мактабларида синф хоналари, лаборатория жиҳозлари, кутубхона ва спорт иншоотлари етарли эмас эди. Шунга қарамасдан, мазкур давр Сурхондарё вилоятида умумий таълим тизимининг шаклланиши ва аҳолининг саводхонлик даражасини оширишда муҳим босқич ҳисобланади. Сурхондарё вилояти таълим тизими тараққиётида 1954 йил муҳим аҳамият касб этди. Ўзбекистон ССР ҳукумати қарорига мувофиқ Термиз шаҳрида ўқитувчилар институти ташкил этилди. 1956–1957 ўқув йилида мазкур муассаса Термиз давлат педагогика институтига айлантирилди. Институтнинг ташкил этилиши воҳада олий маълумотли педагог кадрлар тайёрлашнинг мустаҳкам асосини яратди. Биринчи ўқув йилида ўзбек тили ва адабиёти, рус тили ва адабиёти, физика-математика ҳамда табиий фанлар бўйича 175 нафар талаба қабул қилинган.

Термиз давлат педагогика институтининг фаолияти натижасида вилоят мактабларида олий маълумотли ўқитувчилар улуши ортиб борди. Кейинчалик мазкур олийгоҳ 1992 йилда университет мақомини олди.

Шу билан бирга Денов қишлоқ хўжалик техникуми, Термиз тиббиёт билим юрти, Жарқўрғон педагогика билим юрти каби ўрта махсус таълим муассасалари ҳам халқ хўжалиги учун зарур мутахассислар тайёрлашда муҳим ўрин тутди.

1970-йиллардан бошлаб СССРда умумий ўрта таълимни таъминлаш сиёсати амалга оширилди. Мактаб ёшидаги болаларнинг деярли барчасини таълим билан қамраб олиш вазифаси қўйилди. Натижада вилоятда мактаблар сони ва ўқувчилар контингенти сезиларли даражада кўпайди.

Бироқ миқдорий кўрсаткичларга ортиқча эътибор қаратилиши таълим сифатига салбий таъсир кўрсатди. Қишлоқ ҳудудларидаги кўплаб мактаблар замонавий талабларга жавоб бермас, лаборатория жиҳозлари, спорт заллари ва кутубхоналар билан етарлича таъминланмаган эди. Айрим мактабларда икки ёки уч сменали таълим ташкил этилди.

Шу даврда пахта яккаҳокимлиги таълим соҳасининг энг оғир муаммоларидан бири бўлди. Ҳар йили сентябрдан ноябрь ойигача, баъзан декабргача ўқувчилар ва ўқитувчилар пахта теримига сафарбар этиларди. Натижада ўқув йилининг муҳим қисми йўқотилар, таълим сифати пасайиб кетарди. Бу ҳолат айниқса 1970–1980 йилларда Сурхондарё вилоятида кенг кузатилган.

1977 йилда қабул қилинган СССР Конституциясида фуқароларнинг бепул умумий ўрта таълим олиш ҳуқуқи конституциявий даражада мустаҳкамланди. Бу эса таълим тизимини янада кенгайтириш ва аҳолининг таълим билан қамровини ошириш учун ҳуқуқий асос бўлиб хизмат қилди. 1984 йилда қабул қилинган «Умумтаълим ва касб-ҳунар мактабини ислоҳ қилишнинг асосий йўналишлари тўғрисида»ги қарор совет таълим тизимидаги энг йирик ислоҳотлардан бири ҳисобланади. Мазкур ҳужжатга мувофиқ болаларни 6 ёшдан мактабга қабул қилиш, таълим жараёнини компьютерлаштириш, «Информатика ва ҳисоблаш техникаси асослари» фанини жорий этиш ҳамда касбга йўналтириш ишларини кучайтириш вазифалари белгиланди.

Рус тилини ўқитишга алоҳида эътибор қаратилди. Вилоят мактабларида рус тили мажбурий фан сифатида ўқитилди ва кўплаб фанлар рус тилидаги дарсликлар асосида ўқитиларди. Бу жараён маълум даражада миллий таълим мазмунининг чекланишига олиб келди.

1985 йилдан бошланган қайта қуриш сиёсати таълим соҳасида ҳам ўз аксини топди. Матбуотда пахта сиёсати, болалар меҳнатидан фойдаланиш, мактабларнинг моддий аҳволи каби муаммолар танқид қилина бошланди. Миллий тарих, ўзбек тили ва адабиётига бўлган қизиқиш кучайди. Таълим мазмунини миллийлаштириш бўйича дастлабки қадамлар ташланди.

Қайта қуриш йилларида (1985–1990) қабул қилинган қарорлар таълим тизимини демократлаштириш, миллий хусусиятларни ҳисобга олиш ва ўқув дастурларини такомиллаштиришга қаратилди. 1988 йилдан бошлаб ихтисослаштирилган синфлар ташкил этиш, айрим мактабларда беш кунлик таълим тизимига ўтиш ва ўқув жараёнига компьютер технологияларини жорий қилиш бўйича ишлар бошланди. Шу даврда республикада 7911 та умумтаълим мактабида 4,43 миллион нафар ўқувчи таҳсил олган

бўлиб, 1988–1989 ўқув йилидан таълимни модернизация қилиш ишлари янги босқичга кўтарилди. Бироқ таълим соҳасида қатор муаммолар ҳам мавжуд бўлди. Пахта яккаҳокимлиги, таълимнинг кучли мафкуравийлаштирилиши, моддий-техник базанинг етарли эмаслиги ва миллий таълим мазмунининг чекланганлиги таълим сифатига салбий таъсир кўрсатди. Шунга қарамасдан, мазкур даврда яратилган таълим инфратузилмаси мустақиллик йилларида миллий таълим тизимини шакллантириш учун муайян асос бўлиб хизмат қилди.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1) Ишмухамедова Ю.А. Культура Узбекистана: тенденции и проблемы развития. – Ташкент, 1997. – С. 31–32.

2) Кодиров Э.К. Ўзбекистон умумтаълим мактабларининг ривожланиш тарихи. – Тошкент, 1979. – Б. 125–126.

3) Лунин Б.В. Биобиблиографические очерки о деятелях общественных наук Узбекистана. Т. 1. – Ташкент, 1976. – С. 9, 307, 398.

4) Народное образование в Узбекской ССР. Статистический сборник. – Ташкент: Узбекистан, 1975. – 246 с.

5) Народное образование в Узбекской ССР. Статистический сборник. – Ташкент: Узбекистан, 1985. – 278 с.

6) Субботина К. Народное образование и культура. – Москва, 1965. – С. 85.

7) Хатамов А.Т. Ўзбекистон умумтаълим мактаблари таълими ислоҳотлари тизимида: муаммолар, ечим ва истиқболлар: тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2010.

8) Эргашев К. Развитие общеобразовательной школы в Узбекистане. 70–90-е гг.: проблемы и тенденции: Дисс. ... докт. ист. наук. – Ташкент, 1996. – Л. 280.

MUNDARIJA

1-ShO‘BA. O‘ZBEK XALQI ETNOGENEZI VA DAVLATCHILIGI TARIXINI O‘RGANIShDA YANGIChA YONDOSHUVLAR VA TAMOYILLAR

Турсунов С.Н.	*Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегиясининг ўзбек миллий маънавий қиёфасини юксалишдаги ўрни ва ўзига хос хусусиятлари*	8
Eshkurbonov S.B.	*Surxon vohasi aholisining etnoxo‘jalik xususiyatlari*	16
Turapova M.T.	*O‘zbekiston janubiy hududlarida diniy e’tiqod va marosimlarning manbashunoslik tahlili*	19
Rahmatullayeva N.	*Xalq ansambllarining shakllanishi va yuksalishida xotin-qizlar ishtiroki (Zulxumor baxshi Shernazarova misolida)*	21
Rahmatullayeva N.	*Surxon vohasi xotin-qizlarining sovet davridagi xalq og‘zaki ijodi (Ra’no Uzoqova faoliayti misolida)*	23
Eshonqulov U.A.	*Turli etnoslarning Jizzax vohasi bo‘ylab joylashuvi xususida (Qirqlar misolida)*	26
Karimov Y.Sh.	*Xalq tabobatida dorivor o‘simliklardan foydalanish (Surxon vohasi misolida)*	29
Toshtemirov Sh.A.	*XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Surxon vohasi aholisining etnik tarkibi va joylashuvi xususiyatlariga doir*	32
Hamrayev J.A.	*Janubiy O‘zbekiston aholisi oila va nikoh munosabatlarining sovet davri tarixshunosligida yoritilishi*	34
Муҳаммадиев З.О.	*XVIII – XX аср бошларида Сурхон воҳаси бекликларида маъмурий бошқарув тизими ва этник ҳолат*	37

2-ShO‘BA. QADIMGI VA O‘RTA ASRLARDA O‘ZBEK DAVLATChILIGI TARIXINING TARAQQIYOTI

G‘affarov Sh.S.	*Amir Temur davrida markaziy va mahalliy boshqaruv tizimi: mansab va unvonlar tahlili*	40
Mirkomilov B.M. **G‘ulomjonova N.G‘.**	*Amir Temur ilm-fan homiysi*	48

Toshov K.T.
Tursunova S.X. *Amir Temur davrida siyosiy vaziyat va tashqi siyosatning shakllanish omillari* 52

Tilovov Q.B.
Toshboyev A.U. *Amir Temur davrida siyosiy vaziyat va tashqi siyosatning shakllanish omillari* 54

Xamrayev G‘.G‘. *Qushbegi hujjatlarining o‘rganilish tarixidan* 56

Kosimov K.A. *Navoiy asarlarida termiziylar siymosi* 60

Sattarov F.R. *Qadimgi zardushtiy jamoalarida ruh tushunchasi va dafn marosimlari* 66

3-ShO‘BA. O‘ZBEKISTON ETNOLOGIYASIDA TRANSFORMATSION JARAYONLAR VA MILLATLARARO TOTUVLIK MASALALARI

Yarmatov O.Sh. *Mustamlaka Turkistonida xorijiy jamoalar va ularning ijtimoiy-iqtisodiy integratsiyasi* 71

Davlatova Sh. *O‘zbekistonda millatlararo munosabatlarning huquqiy asoslari* 75

Umarov I.I. *Tandir go‘shtning tarixiy-etnografik asoslari va uni gastronomik brend sifatida rivojlantirish masalalari* 78

Умаров И.И. *Традиционное кузнечное хозяйство катаганов Южного Узбекистана: историко-этнографический анализ* 80

Gadoyev O.O. *Tat, Qrimchak va Karait yahudiylari: etnik shakllanish, madaniy transformatsiya va turkiston bilan migratsion aloqalar* 83

Xaydarov O.E. *Surxon-Sherobod vohasi aholisining tabiat hodisalari bilan bog‘liq urf-odat va tasavvurlari* 89

Умаров А.Ш.
Тўраева Ш.С. *Уй-рўзғор буюмлари билан боғлиқ эътиқодлар* 95

Ergashov I.A. *Surxon vohasi aholisi moddiy madaniyatida qadimgi e’tiqodiy qarashlarning izlari* 101

Toshqobilov B.X. *O‘zbek xalqining mehmondo‘stlik madaniyatida Surxon vohasining o‘rni: ilmiy tahlil* 104

Karimova N.A. *Boysun bahori festivalida etnosport va xalq o‘yinlarining namoyishi* 109

4-ShO‘BA. O‘ZBEK DAVLATChILIGI TARIXI YANGI VA ENG YANGI DAVRDA: MUSTAMLAKA, MILLIY UYG‘ONISh VA MUSTAQIL RIVOJLANISh BOSIQChLARI

Boltaev A. **Shomurodov Sh.A.**	*Quloqlashtirish siyosatining milliy qadriyatlar va an’anaviy turmush tarziga ta’siri*	113
Boltaev A.	*Suv manbalaridan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanaylik*	116
Тимур Хўжаўғли	*Совет мусулмон республикаларида давлат хавфсизлик қўмиталари (КГБ) раислиги (1955–1984)*	120
Yormatov F.J.	*O‘zbekistonda nuroniylar ijtimoiy himoyasi tizimining evolyutsiyasi: tarixiy-huquqiy tahlil (1991–2025)*	128
Mamarajabov G‘.A.	*Hunarmandchilik sohasidagi o‘zgarishlar va sohani xususiylashtirish natijalari*	131
Begamova N.X.	*Mustaqillik yillarida qishloq xo‘jaligida innovatsiyalarning qo‘llanilishi (Surxondaryo viloyati misolida 2000–2026-yillar)*	137
Annayeva Z.M.	*O‘rta Osiyo mutafakkirlarining ekologik tarbiya haqidagi ilmiy-falsafiy qarashlari*	140
Eshmo‘minov O.Z. **Abduraxmonov I.**	*XX asr boshlarida O‘zbekiston hududida hunarmandchilikning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi*	143
Kalandarova F.A.	*Mirzo Somiy shaxsiy arxividagi ba`zi hujjatlar tahlili*	147
Polvonov K.N.	*Qumqo‘rg‘on shahri tarixidan*	151
Tursunov A.S.	*2010–2016 yillarda Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida shaharsozlik va obodonlashtirish jarayonlari: tarixiy tahlil*	155
Худжанова М.Ф. **Машарипова Л.Р.**	*От “Камолота” к союзу молодежи: история успеха и новые горизонты молодежи Джизака*	159
Худжанова М.Ф. **Умматов О.О.**	*Образовательный уровень президентских школ Узбекистана*	162
Xujanova M.F. **Jalilova M.Sh.**	*Markaziy Osiyoda “yangi mintaqaviylik”: hamkorlik, xavfsizlik va geosiyosiy omillar*	164
Akboeva Z.Dj.	*Turkiston ASSR da yangi iqtisodiy siyosatning amalga oshirilishiga oid ayrim mulohazalar*	170

Ergashev S.M.	*Sovet mehnat maktabi va pedagoglarni qayta tayyorlash masalasi (XX asr boshlari)*	173
Раҳмонова М.	*“Иброҳимбек қўрбоши” – Турон мустақиллиги учун курашган сиймонинг жасорати ёритилган асар*	178
Сафаров Б.	*Туркистонда сўл эсерлар билан большевиклар ўртасида партиявий ва сиёсий курашнинг янги босқичга чиқиши*	181
Tursunova D.	*Entrepreneurial activities of women craftsmen (on the example of Jizzakh region)*	187
Abdurasulova D.T.	*Mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari (Jizzax shahri misolida)*	189
Tursunov J.A.	*Yangi davrda shahar muqaddas qadamjolari topografik qiyofasining o‘zgarishi va ularning tasnifi*	191
Ҳамроев Ш.Ш.	*Ўзбекистонда иқтисодиёт соҳасини либераллаштириш ва бозор инфратузилмасининг ривожланиши*	200
Xolmuminova Oygul Jumayevna	*Interfaol jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish usullari*	204
Kholmuminova O.J. **Kudratova R.N.**	*The essence, structure, and significance of cognitive learning skills in the personality development of senior school students*	207
Sharapov S.S. **Abdiyeva M.Ch.**	*XIX asrining 2-yarmi va XX asr boshlarida Buxoro amirligi shaharlariga tarixiga oid tarixiy manbalarda yoritilishi xususida*	210
Qosimov A.Ch.	*Surxondaryo okrugida qo‘ychilik sohasi bo‘yicha olib borilgan chora va tadbirlar: natijalar va muammolar*	213
Abdushukurov M.	*Kutubxonalarda fan, ta’lim, madaniyat va biznes uchun elektron axborot resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llari*	218
Tursunov U.S.	*Yangi O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish tizimining rivojlanishi: tarixiy-huquqiy tahlil*	223
Mirzayev H.X.	*Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda qurilish sohasida me’yoriy-huquqiy asoslar va sohada kadrlar faoliyati tahlili (Surxondaryo viloyati misolida)*	225

Suvonov J.M.	*Mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyati ichki ishlar idoralarida kadrlar salohiyati*	228
Suvonov J.M.	*Mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyati ichki ishlar idoralari xodimlarining kasbiy va intellektual salohiyatini rivojlantirish masalalari*	232
Jumayev M.E.	*Surxondaryo viloyatidagi ijtimoiy hayot asosida shakllangan toponimlar*	236
Xoliqulov M.Q.	*O‘zbekistonda Uchinchi Renessans: ilm-fan, texnika va ta’lim sohasining g‘oyaviy-mafkuraviy xavfsizligini ta’minlashning strategik ustuvorligi*	239

MAGISTRLAR MINBARI

Bektashev M.Sh.	*O‘zbekiston janubiy hududlarida bojxona tizimining rivojlanishi: surxondaryo viloyati misolida*	243
Xudayberganov M.O.	*Mustaqillik davrida Imom Termiziyga e’tibor*	245
Qarshiyev B.Z.	*Surxon vohasi hududlarida madaniy meros ob’ektlarini o‘rganilish tarixi*	247

TALABALAR MINBARI

Ashuraliyeva L.P.	*Surxon vohasidagi bir go‘sha tarixi*	252
Choriyev D.A.	*Zardushtiylik buddizm kabi Xitoyda keng tarqalmaganligi sabablari*	253
Tursunboboyeva M.	*Temur va temuriyzoda*	257
Eshboyev M.N.	*Temuriylar davrida Termiz shahrini tutgan o‘rni*	261
Abduraimova M.A.	*Qadimgi Yunonistonda ayollarning ijtimoiy va huquqiy mavqei*	262
Abdug‘afforov A.J.	*Baxshichilik san'ati — milliy o‘zlik va madaniy meros davomiyligi*	265
Yusupova O.X.	*O‘zbekiston Respublikasida milliy siyosatning ayrim jihatlari*	267
Ochildiyeva S.E.	*Bodihavo qishlog‘ining tarixiy-geografik xususiyatlari, etnik tarkibi va etnomadaniy hayoti*	270

Bekmirzayeva M.T.	*Eski Termiz va uning tarixiy-madaniy yodgorliklari*	273
Turdiyeva A.Y.	*Dalvarzintepa – Kushon davri shahar madaniyatining noyob arxeologik yodgorligi*	277
Muxammadaliyeva F.A.	*Sariosiyo tumanining entologiyasi va tarixiy-etnografik xususiyatlari*	280
Ashirova D.Sh.	*Chag‘oniyonning tarixiy-geografik o‘rni va siyosiy taraqqiyoti*	282
Muxammadaliyeva F.A.	*Oq Ostona maqbarasi: tarixiy-madaniy meros va xalq e’tiqodi misolida*	285
Ashirova D.Sh.	*Cho‘ntosh qishlog‘i tarixi: shakllanishi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va etnomadaniy xususiyatlari*	287
Boyqobilova S.Sh.	*1937–1938-yillardagi sovet repressiyalari va ularning Surxondaryo vohasidagi oqibatlari (Jarqo‘rg‘on tumani hozirgi Angor hududi misolida)*	289
Sattarov A.Z.	*Xo‘ja Samandar termiziyning hayoti, ilmiy merosi va diniy-ma’rifiy faoliyati*	292
Boltayeva Sh.O.	*Adolat-barqaror boshqaruv asosi*	294
Boltayeva Sh.O.	*Jarqo‘ton yodgorligi va unda ilk davlatchilik asoslarining shakllanishi*	296
Rahmonov U. F.	*Boysun tumani panjoblik tojiklarining o‘ziga xos urf-odatlari*	299

SHU’BALARGA DOIR QO‘SHIMCHA ILMIY MAQOLALAR

Pardayev A.H.	*Jizzax shaharsozligidagi o‘zgarishlar va shahar mahallalari tarixi xususida (XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlari)*	303
Karimova O.Ch.	*Surxondaryo viloyati oila qadriyatlarining o’ziga hos xususiyatlari va oila mustahkamligining asosiy omillari*	307
Karimova O.Ch.	*Oilaning ijtimoiy institut sifatidagi aksiologik funksiyalari*	308
Toshov K.T.	*Ikkinchi Jahon urushi yillarida O‘zbekiston iqtisodiyotida xotin-qizlar mehnatining o‘rni*	311

Raimov M.S.	*Termiz shahri tarixiga doir manbalar va ilmiy tadqiqotlar sharhi*	313
Turdiyeva A.Y. **Jumayev M.E.**	*Dalvarzintepa – Kushon davri shahar madaniyatining noyob arxeologik yodgorligi.*	316
Rahmonov M.H.	*Surxon vohasidagi toqchi qavmi qishloqlari: tarixiy-etnografik tahlil*	319
Choriyev S.H.	*Sovet mafkuraviy siyosatining milliy adabiy jarayonlarga ta’siri*	323
Abduxoliqova M.R. **Sulaymonova Sh.A**	*Turk xoqonligi davrida davlat boshqaruvi*	327
Ergasheva J.S. **Sulaymonova Sh.A**	*Buxorodagi – “Ulug‘bek madrasasi”*	329
Ibragimova G.Z. **Sulaymonova Sh.A**	*Buxoro arki tarixi*	331
Musabekova D.S. **Sulaymonova Sh.A**	*Temuriylar hukmronliga davrida ilm -fan va madaniy hayot*	334
Otaniyozov B.H. **Sulaymonova Sh.A**	*Buxoro amirligida “yangi usul” maktablarining faoliyati*	336
Abdumo‘minov B.H.	*Сурхондарё вилояти таълим тизими: ислоҳотлар, ютуқлар ва муаммолар (1946–1990 йиллар)*	339

“O‘ZBEKISTONDA TARIX VA ETNOLOGIYA ILMLARINING RIVOJLANISH TAMOYILLARI VA DOLZARB MASALALARI”

mavzusidagi
xalqaro ilmiy-nazariy anjumani
ILMIY MAQOLALAR TO‘PLAMI

Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 25604-сонли ТАСДИҚНОМА берилган.

Муҳаррир *Д.Абдуллаева*
Бадиий муҳаррир *Б.Ҳайдаров*
Техник муҳаррир *З. Расулов*
Мусаҳҳиҳ *О. Файзуллаев*
Саҳифаловчи *Ш.Ўктамова*

Нашр этишга 17.06.2026 йилда берилди.
Босишга 25.06.2026 йилда рухсат этилди.
Бичими 60x84/8. Ҳажми 61,5 б,т. Адади 100 нусха.

“Adad Plyus” МЧЖ босмахонаси.
Тошкент ш. Чилонзор тумани, Бунёдкор кўчаси, 28-уй.